

2025
№3

ISSN 2181-6131



TAFAKKUR ZIYOSI

ILMIY-USLUBIY JURNAL

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnalning indeks raqami: 3535



JDPU TAHRIRIY
NASHRIYOT
BO'LIMI



Suratda Xitoyning Sichuan provinsiyasi,
Chengdu shahridagi Jinniu tumanida
joylashgan kutubxona.

2025 №3

TAFAKKUR ZIYOSI

ILMIY-USLUBIY JURNAL

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnalning index raqami: 3535



JDPU TAHRIRIY
NASHRIYOT
BO'LIMI



BOSH MUHARRIR

Maksudjan Abdullayevich Yuldashev – pedagogika fanlari doktori, professor.

MUHARRIR O'RINBOSARLARI

G'ayrat Qodirov – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

Farrux Aqchayev – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Anora Jabborova – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Xaqberdi Xamzayev – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori.

MAS'UL KOTIB

Xurshid Maxammadiyev – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

TARJIMONLAR:

Zubayda Jumayeva – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (rus tili bo'yicha).

Eldar Hasanov – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (rus tili bo'yicha).

Nargiza Bo'riyeva – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (ingliz tili bo'yicha).

Dildora Baxriddinova – katta o'qituvchi (ingliz tili bo'yicha).

MUSAHHIHLAR

Feruza Jumayeva – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Murodulla Jo'rayev – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

SAHIFALOVCHILAR

Sirojiddin Turg'unboyev
Zulayxo Shakarova

MUASSIS – Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti.

Jurnal yilda 4 marta (har chorakda) chop etiladi.

Matnlarda foydalanilgan iqtibos va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

Jurnaldan ma'lumot ko'chirib olinganda, manba qayd etilishi shart.

Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy.

Telefon: +998 72 226 02 93, +998 94 195 38 38

Faks: +998 72 226 46 56

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

- **Anatoliy Sagdullayev**, tarix fanlari doktori, akademik
- **Komiljon Tojiboyev**, biologiya fanlari doktori, akademik
- **Andrey Zuyev**, Novosibirsk davlat universitetining Gumanitar instituti professori, tarix fanlari doktori (Rossiya)
- **Stiven Korbet**, Portsmud universiteti, tillar va amaliy tilshunoslik yo'nalishi professori (Buyuk Britaniya)
- **Seyko Wazake**, Chibu universiteti doktori (Yaponiya)
- **Donina Lyudmila**, Sankt-Peterburg davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (Rossiya)
- **Jakelin Duglas**, Norwich tillar o'qitish instituti professori (Buyuk Britaniya)
- **Himmet Karadal**, Izzet Baysal universiteti professori (Turkiya)
- **Tuba Yilmaz**, Nejmiddin Erbakan universiteti professori (Turkiya)
- **Qozoqboy Yo'ldoshev**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Abdunazar Nurmonov**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Usmonjon Qosimov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Abdug'afur Mamatov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Umrzoq Jumanazarov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Faniya Axmedshina**, tarix fanlari doktori, professor
- **Shokir G'afforov**, tarix fanlari doktori, professor
- **Baxti Ochilova**, falsafa fanlari doktori, professor
- **Akbar Saitkasimov**, falsafa fanlari doktori, professor
- **Zuhra Yaxshiyeva**, kimyo fanlari doktori, professor
- **Marat Sultonov**, kimyo fanlari doktori, professor
- **Raximboy Yarmatov**, pedagogika fanlari doktori, dotsent
- **Rustam Abdurasulov**, psixologiya fanlari doktori, dotsent
- **Xudoybergan Mavlonov**, biologiya fanlari doktori, dotsent
- **Yulduz Karimova**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
- **Ilyos Islamov**, tarix fanlari doktori, dotsent
- **Mo'min Hoshimxonov**, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari doktori
- **Hamid Meliyev**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Furqat Axmedov**, pedagogika fanlari nomzodi, professor
- **Oleg Kim**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
- **Muxtorqul Pardayev**, tarix fanlari nomzodi, dotsent
- **Botir To'xtamishov**, texnika fanlari nomzodi, dotsent
- **Rabbim Yusupov**, texnika fanlari nomzodi, dotsent
- **Abduvali Shamshiyev**, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
- **Qo'chqor Hakimov**, geografiya fanlari nomzodi, dotsent
- **Sarvar Nazarqosimov**, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Sherali Abduraimov**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Feruza Jumayeva**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Bobomurod Toshboyev**, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasidan 2020-yil 25-aprelda 06-042 raqam bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181-6131.

2025-yil 25-sentabr kuni bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi A4.

Buyurtma: _____

Nashr adadi: 100

JDPU TAHRIRIY
NASHRIYOT
BO'LIMI



MUNDARIJA

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

Tibbiyot yo'nalishi talabalarining madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish zarurati va istiqbollari	11
Dildora Muxtoro'vna Isroilova – p.f.d. (DSc), professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Sitorabegim Djamolitdinovna Muxamedjanova – p.f.b.f.d. (PhD), dotsent, Buxoro davlat texnika universiteti	
Oliy ta'lim muassasalarida raqamli kompetentlikni rivojlantirishda klasterli yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari	17
Guli Bekmurotovna Taylakova – p.f.f.d. (PhD), dotsent, Toshkent amaliy fanlar universiteti	
Talabalarning raqamli savodxonligini rivojlantirishda ijtimoiy tenglik va innovatsion yondashuvlar	22
Feruza Djumaboyevna Shermanova – p.f.f.d, dotsent, Toshkent amaliy fanlar universiteti	
Talabalar innovatsion tafakkurini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari	27
Davron Abdurakibovich Alibekov – f.f.b.f.d. (PhD), dotsent, O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali	
Корпоративная культура педагогов дошкольной образовательной организации с семьями, её специфика в образовательной сфере	33
Шохноза Абдуразаковна Буранова – д.ф по п.н (PhD), доцент, Джизакский государственный педагогический университет	
Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar	38
Mubinaxon Hakimjon qizi Ikramova – p.f.b.f.d. (PhD), Qo'qon davlat universiteti	
O'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirishda ta'limni axborotlashtirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi	43
Jo'rabek Egamberdiyevich Tursunov –p.f.b.f.d. (PhD), Qo'qon davlat universiteti	
Zamonaviy tafakkur paradigmaları	48
Gulchexraxon Salaydinovna Raxmonova – p.f.b.f.d. (PhD), Chirchiq davlat pedagogika universiteti	
Mediata'lim resurslari vositasida biologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirish	55
Munisa Ilamonovna Sanayeva – p.f.b.f.d. (PhD), o'qituvchi, Toshkent Farmatsevtika instituti akademik litseyi	
“Odam anatomiyasi va fiziologiyasi” fanini kredit-modul tizimi asosida o'qitishning innovatsion asoslari	60
Xurshida Olimjonovna Pardayeva – p.f.b.f.d., katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

AMALIY FANLAR

Olimpiyadaga tayyorgarlik siklida mashg'ulot vositalarining tahlili	67
Valixan Djumanovich Anashov – p.f.b.f.d. (PhD), professor, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarida sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	72
Shohruh Abdujalol o'g'li Qayumov – p.f.b.f.d. (PhD), dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Talabalarning zamonaviy landshaft haykaltaroshligi haqidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish	77
Nurmon Ochilovich Berdiyev – dotsent, Toshkent arxitektura qurilish universiteti	

IJTIMOIIY FANLAR

Jamiyat barqarorligini ta'minlashda yoshlar ijtimoiy mas'uliyatini oshirishning ahamiyati	84
Akbar Saitkasimov – f.f.d., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
O'zbekiston oliy ta'lim tizimining xalqaro standartlarga moslashtirilishi – strategik taraqqiyotning muhim omili	88
Baxti Ochilova – f.f.d., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Two Genia of the European renaissance: comparative philosophical analysis	96
Kurban Shadmanov – Doctor of Philosophical Sciences, professor, Bukhara State Medical Institute	
Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarning diniy-ma'rifiy tarbiyasini shallantirish: mohiyati va ahamiyati	102
Rustam Daniyrovich Yuldashev – f.f.d., dotsent, Samarqand davlat universiteti	
Karl Popper asarlari va g'oyalari: tarixiy kontekst va zamondoshlar nigohida	109
Muxriddin Azimmurod o'g'li Sherboboyev – f.f.b.f.d. (PhD), dotsent, Alfraganus universiteti	
Registrator ofisi tarkibidagi talabalar harakatini muvofiqlashtirish masalalari	113
Xaqberdi Eshmirzayevich Xamzayev – t.f.b.f.d. (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti Mirzamahmud Latif o'g'li Ismoilov – ta'lim jarayonini tashkil etish bo'limi uslubchisi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda yoshlar ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasining konstruktiv xususiyatlari	123
Sherzod Abrayev – Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari, Samarqand davlat universiteti	
Buyuk ipak yo'li davrida Jizzax vohasidagi ishlab chiqarishning yetakchi sohalari rivoji	127
Javohir Olimjon o'g'li Saidov – t.f.b.f.d. (PhD), katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarga oid davlat siyosatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar xususida	132
Anvar Sirajovich Majidov – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Madina Toshbul qizi Ismatova – o'qituvchi, Jizzax shahar 12-sonli umumta'lim maktabi	
Ijtimoiy munosabatlarning kibermakondagi transformatsiyasi	138
Oybek Toxir o'g'li Berkinov – o'qituvchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti	

FILOLOGIYA FANLARI

Modern Uzbek novel: development trends	145
Zulfiya Juraevna Pardaeva – Doctor of Philology, Professor, Jizzakh State Pedagogical University	
Axborot texnologiyalari va til: lingvistik muammo sifatida	150
Otabek Jo'raboyevich Xidirov – f.f.b.f.d. (PhD), dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Ahmad Yassaviy hikmatlarining ma'naviy-ma'rifiy hayotimizdagi o'rni	156
Abduvali Sulaymonovich Musayev – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
To'ra Sulaymon poetikasida intertekstual bog'lanishlar	159
Xayrulla Hamdamovich Ibragimov – f.f.b.f.d. (PhD), dotsent, O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali	
Gender stereotypes of speech of English children	163
Dilfuzakhon Ilkhomjon kizi Kozokboeva – PhD of Philological Sciences, docent, Andijan State Institute of Foreign Languages	
So'z birikmalari zanjiri	169
Feruza Uralovna Jumayeva – f.f.b.f.d. (PhD), dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar xususida	175
Shoxida Isoqovna Siddiqova – f.f.b.f.d. (PhD), dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
"Devonu lug'otit turk"dagi omonimlar tavsifi	179
Muqaddas Abdurahmanova – f.f.d., dotsent, O'zbekiston Milliy universiteti	
Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan kiyim-kechak nomlari va ularning turlari	185
Xurshid Lutfullayevich Maxammadiyev – f.f.b.f.d. (PhD), dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Nozima Mansurjon qizi Ravshanova – talaba, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Alisher Navoiy asarlaridagi fors-tojikcha o'zlashma so'zlarning ahamiyati	188
Shohista Tohirovna Adilova – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

TABIIY VA ANIQ FANLAR

Trigonometrik aylana modelini takomillashtirish: vizual-genetik muqobil yondashuvlar	192
Ulug'bek Xursanaliyevich Xonkulov – p.f.b.f.d. (PhD), professor, Farg'ona davlat universiteti	

Uzluksiz ta'lim tizimi ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishlarida matematik ta'lim muammolari	200
Murod Barakayev – professor, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti	
Charos Djurayeva – mustaqil tadqiqotchi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti	
Oliy matematika fanini fanlararo aloqadorlik tamoyili asosida o'qitish imkoniyatlari	205
Abduvali Shamshiyev – i.f.n., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Gulabza Sodiqova – doktorant, Andijon davlat universiteti	
Matematik modellashirish fanini o'qitishni tashkil etish metodikasi	209
Zamira Shukirillo qizi Ochilova – tayanch doktorant, Buxoro davlat universiteti	

YOSH TADQIQOTCHILAR

O'quvchilarning shaxsiy yutuqlarini baholashda individual yondashuvga oid metodik takliflar	215
Farxodjon Raxmatjon o'g'li Boymirzayev – o'qituvchi, Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti	
Xalqaro baholash tadqiqotlarini joriy etishning ta'lim samaradorligi va mazmuniga ta'siri	222
Sanovar Jalgasovna Orazbayeva – o'qituvchi, Nukus davlat pedagogika instituti	
Tasavvuf va falsafiy tafakkurda Ibn Arabiy qarashlarining o'rni va ahamiyati	228
Mohlaroyim Shuhrat qizi Yarashova – o'qituvchi, Osiyo xalqaro universiteti.	
Boburning kichik lirik janrdagi she'rlarining kompozitsion tuzilishi	231
Sapura Ne'matova – tadqiqotchi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi	
Raqamlashtirish sharoitida gender barqarorlikning qiyosiy tahlili: O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari	235
Xurshidbek Abdurazimov – doktorant, Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti	
O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish vositalari va usullari	243
Nargiza Abdurashid qizi Suyunova – doktorant, Toshkent davlat texnika universiteti	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish (Turizm va mehmondo'stlik ta'lim yo'nalishi misolida)	247
Dilshod Rafiddin o'g'li Najmiddinov – doktorant, O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali	
"Amerika fojiasi" romanining sujet xususiyati	255
Rixsimurod Normatov – tayanch doktorant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
O'quvchilarning ma'naviy immunologik tarbiyasini shakllantirish jarayoni	262
Shoxsanam Muzaffar qizi Toshmamatova – tayanch doktorant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

Zamonaviy raqamli ta'lim muhiti va ta'lim platformalari orqali o'quv jarayonini modernizatsiya qilish	266
Abdulatif Abdishukur o'g'li Shermuxammedov – tayanch doktorant, Jizzax politexnika instituti	
Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda raqamli ta'lim muhitining o'rni va ahamiyati	271
Jamiyla Elmuratovna Sherniyazova – tayanch doktorant, Nukus davlat pedagogika instituti	
Qadimgi Ustrushona xalqlari madaniyatining mahalliy asoslari haqida	276
Maftuna Sanaqul qizi Lapasova – tayanch doktorant, Guliston davlat universiteti	
Inklyuziv ta'limda hamkorlik va uning shaxs kamolotidagi o'rni	283
Muyassar Furqat qizi Inomova – tayanch doktorant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Поэтика публичности и культурная память в лирике Евгения Евтушенко: гражданское, философское и личное в контексте социокультурной динамики второй половины XX века ...	289
Шахло Тошмамат кизи Эшниёзова – независимый исследователь, Казанский (Приволжский) федеральный университет	
Nofilologik yo'nalish talabalarining nutqiy faolligini oshirishda matnli materiallarning o'rni	295
Zuhra G'aybulloyevna Qobulova – doktorant, Guliston davlat universiteti	
Sharq mutafakkirlari va davlat arboblarning qarashlarida tinchlik va hamkorlik g'oyalarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	298
Behruz Baxshilloyevich Rajabov – tadqiqotchi, Buxoro davlat universiteti	
Tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash va turli tahdidlarga qarshi kurashda ichki ishlar organlari xodimlarining o'rni	302
Avazbek Soyibjonovich Inomov – tadqiqotchi, Buxoro davlat universiteti	
Luqmon Bo'rixon asarlarida peyzajning ahamiyati	306
Dilfuza Rustam qizi Qosimova – mustaqil tadqiqotchi, Guliston davlat universiteti	
Jamiyatda ijtimoiy muhit barqarorligini ta'minlashda mahalla institutining o'rni	311
Yorqinjon Yuldashev – tadqiqotchi, Samarqand davlat chet tillar instituti	
Jizzax viloyati bosma ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi (Zomin tumani "Sharq tongi" gazetasi misolida)	315
Xurshid Olimovich Egamqulov – erkin tadqiqotchi, Jizzax shahridagi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi	
Harbiylar nutqida slenglarning mavzuiy tasnifi (ingliz va o'zbek tillari misolida)	323
Malika Sayfiddinovna Soatova – mustaqil tadqiqotchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	
Forobiy asarlarida boshqaruv nazariyasi va siyosiy yetakchilikning namoyon bo'lishi	329
Muxiddin Xusniddinovich Karimberdiyev – mustaqil izlanuvchi, Namangan davlat universiteti	
O'quvchilarni PIRLS matnlari ustida g'oyalar va axborotni tahlil qilish hamda umumlalashtirishga tayyorlash	334
Yulduz Abdusaid qizi Usmonova – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Gazeta tanqidiy materiallarining leksik-frazeologik xususiyatlari	339
Farxod Norbutayevich Kushnazarov – ilmiy tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kreativlik sifatlarni rivojlantirish nazariyasi.	342
Adiba Roziq qizi Uchqunova – magistrant, Shahrizabz davlat pedagogika instituti	
Abu al-Hasan Bahmanyarning gnoseologik merosining falsafiy tahlili	348
Mehriniso Bobomurodova – izlanuvchi, Buxoro davlat universiteti	

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

TIBBIYOT YO'NALISHI TALABALARINING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI VA ISTIQBOLLARI

Dildora Muxtoro'vna Isroilova – p.f.d. (DSc), professor,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Sitorabegim Djamolitdinovna Muxamedjanova – p.f.b.f.d.
(PhD), dotsent, Buxoro davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv va yoshlarga oid siyosatning rivojlanishi sharoitida tibbiyot oliygohlari talabalarida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirish dolzarbligi ko'rib chiqiladi. Kelajakdagi tibbiyot mutaxassislari uchun bu kompetensiyaning ahamiyati alohida ta'kidlanadi, chunki ularning kasbiy faoliyati tobora ko'proq multikulturni muhitda amalga oshirilmoqda. Mazkur kompetensiyani xorijiy til o'qitish doirasida, talabalarning xalqaro ta'lim va professional hamjamiyatlarga integratsiyasi orqali rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi.

Аннотация. В статье рассматривается актуальность формирования межкультурной коммуникативной компетенции у студентов медицинских ВУЗов в условиях глобализации и развития молодежной политики. Подчеркивается значимость данной компетенции для будущих медицинских специалистов, чья профессиональная деятельность все чаще осуществляется в мультикультурной среде. Анализируются перспективы развития этой компетенции в рамках обучения иностранному языку в интеграции в международные образовательные и профессиональные сообщества.

Abstract. The article examines the relevance of developing intercultural communicative competence among medical university students in the context of globalization and the advancement of youth policy. It highlights the importance of this competence for future medical professionals, whose work is increasingly carried out in multicultural environments. The article also analyzes the prospects for developing this competence through foreign language instruction integrated into international educational and professional communities.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo kommunikativ kompetentlik, tibbiy ta'lim, globallashuv, xorijiy til, yoshlar siyosati.

Ключевые слова: межкультурная коммуникативная компетенция, медицинское образование, глобализация, иностранный язык, молодежная политика.

Keywords: intercultural communicative competence, medical education, globalization, foreign language, youth policy.

XXI asrda globalizatsiya, raqamli texnologiyalarni tez rivojlanishi va xalqaro aloqalarning chuqurlashishi mutaxassislarni tayyorlash talablarini sezilarli darajada o'zgartirdi, ayniqsa tibbiyot sohasida. Ushbu o'zgarishlar fonida, intermadaniy kommunikatsiyaning kasbiy faoliyatdagi roli ayniqsa muhim bo'lib, tibbiyot xodimlari tobora ko'proq turli madaniy va til guruhlaridan bo'lgan bemorlar va hamkasblar bilan muloqot qilishmoqda.

Zamonaviy ish sharoitlari tibbiyot xodimlaridan nafaqat tibbiyot sohasida

bilim, balki turli millat va madaniyatlardan bo'lgan odamlar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini ham talab qiladi. Xususan, xalqaro akademik mobillik tibbiy talabalar va amaliyotchi shifokorlarga tajriba almashish, dunyoqarashni kengaytirish va malakasini oshirish uchun noyob imkoniyatlar yaratadi, bu esa madaniyatlararo muloqot kompetensiya (Intercultural communicative competence – ICC) ni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi madaniy aloqaning xususiyatlarini tushunish, talqin qilish va moslashtirish qobiliyatini,

shuningdek, bu bilimlarni kasbiy o'zaro aloqalar jarayonida samarali tarzda ishlatish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Tibbiyot sohasida bu, sog'liq va kasalliklarni qabul qilishdagi madaniy farqlarni, shuningdek, davolash usullari va bemorlar bilan muloqotdagi yondashuvlarni hisobga olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Samarali intermadaniy kommunikatsiya bemorlarning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga, til va madaniyat to'siqlarini kamaytirishga, shuningdek, tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga yordam beradi¹.

Xalqaro mobillik va ko'p madaniylilikning sog'liqni saqlash sohasidagi rivojlanishi bilan ICC shifokorning kasbiy malakasining muhim elementi ekanligi aniq bo'lib bormoqda. Ta'lim tizimi, ayniqsa tibbiy ta'lim, talabalar orasida ushbu kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan tarkibiy qismlarini o'z ichiga olishi kerak. O'quv jarayoniga intermadaniy tayyorgarlikni kiritish, talabalarga turli madaniyatdagi bemorlar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va ko'p millatli muhitda ishlashga tayyorlanish imkonini beradi².

Shu tariqa, tibbiy mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan o'sib borayotgan talablar madaniyatlararo muloqot kompetensiya ta'lim dasturlariga kiritish zarurligini ta'kidlaydi, bu esa shifokorlarni globalizatsiya va madaniy xilma-xillik sharoitida samarali ishlashga tayyorlashga yordam beradi.

Tibbiy amaliyotda mutaxassislar samarali muloqot qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur, chunki ular turli madaniy, til va diniy kelib chiqishga ega bo'lgan bemorlar hamda hamkasblar bilan ishlashadi. Madaniy xilma-xillikni hisobga olmaslik esa salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bular orasida tibbiy xatolarga yo'l qo'yish, bemorning davolanish

jarayonidan noroziligi, ishonchning yo'qolishi va hatto tibbiy-etika me'yorlarining buzilishi ham mavjud. Bunday sharoitda madaniyatlararo muloqot kompetensiya (ICC) rivojlantirish tibbiyot mutaxassislarni tayyorlashda zaruriy elementga aylanadi.

ICCni talabalarida shakllantirish ularga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Madaniy jihatdan xulq-atvor va kasallikni tushunish. Har bir madaniyatning sog'liq va kasalliklarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, bu davolashni, shifokorlar tavsiyalarini va tibbiy amaliyotlarni qanday qabul qilishga ta'sir qiladi. Masalan, ba'zi madaniyatlarda an'anaviy davolash usullari zamonaviy tibbiy yondashuvlardan ko'ra afzalroq bo'lishi mumkin³. Ushbu farqlarni bilish tibbiyot xodimlariga bemorlar bilan samaraliroq ishlashga yordam beradi, ularning tajribalari va afzalliklarini tushunish orqali.

Muloqot to'siqlarini oldini olish. Til va madaniy farqlar shifokor va bemor o'rtasidagi muloqotda sezilarli to'siqlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, noverbal xulq-atvor (harakatlar, yuz ifodalari, shaxsiy makon)dagi farqlar noto'g'ri talqin qilinishi mumkin, bu esa tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Intermadaniy kommunikatsiya bo'yicha ta'lim shifokorlarga bunday jihatlariga ko'proq e'tibor berish va sifatli, tushunarli muloqotni ta'minlashda yordam beradi.

Madaniy kelib chiqishidan qat'iy nazar, bemorlar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish. Tibbiyot ko'p madaniyatli mamlakatlarda ham, xalqaro tibbiy loyihalarda ham turli madaniy kelib chiqishi bo'lgan odamlarning o'zaro ta'sirini tobora ko'proq talab qilmoqda. ICC tibbiy mutaxassislarga bunday sharoitlarda

- 1 Purnell L.D. (2014). *Transcultural Health Care: A Culturally Competent Approach*. FA Davis. Betancourt J.R., Green, A. R., & Carrillo, J. E. (2005). *Cultural competence in health care: Emerging frameworks and practical approaches*. The Commonwealth Fund.
- 2 Kirmayer, L. J., Gunaratnam, P., & Tait, P. (2012). Cultural competence and the mental health professions: The challenge of understanding differences. *Canadian Journal of Psychiatry*, 57 (9), pp. 579-587.
- 3 Helman, C. G. (2007). *Culture, Health and Illness: An Introduction for Health Professionals*. CRC Press.

ishonchli ishlash, madaniy to'qnashuvlarni minimallashtirish va har bir bemor va hamkasbga yondashuvni topish imkonini beradi⁴.

Empatiya va bag'rikenglikni rivojlantirish. Empatiya va bag'rikenglik tibbiy amaliyotda professional o'zaro aloqalarning asosiy jihatlariga aylanmoqda. Boshqa odamning nuqtayi nazarini qabul qilish, uning madaniy va diniy e'tiqodlariga hurmat ko'rsatish, shifokor va bemor o'rtasida, shuningdek, hamkasblar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatishga yordam beradi⁵. Natijada, bu tibbiy yordam sifatini oshirishga hissa qo'shadi.

Hofstede⁶ tadqiqotlariga ko'ra, intermadaniy kompetensiya bir nechta muhim elementlarni o'z ichiga oladi: madaniy xususiyatlar haqidagi bilim, madaniy farqlarni talqin qilish qobiliyati, shuningdek, o'z madaniyatini tanqidiy tahlil qilish. ICC shifokordan nafaqat turli madaniyatlar haqida bilimga ega bo'lishni, balki bu bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni, turli madaniy qatlamlardan bo'lgan insonlar bilan samarali muloqot qila olishni talab qiladi.

Madaniy jihatdan kompetent bo'lish o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalarini ya'ni, shaxsiy madaniy qadriyatlar va e'tiqodlarning boshqalar bilan o'zaro munosabatga qanday ta'sir qilishi mumkinligini anglashni ham o'z ichiga oladi. Bu esa bemorlar va hamkasblarga nisbatan ongli va hurmatga asoslangan yondashuvni shakllantirishga yordam beradi⁷.

Bo'lajak tibbiyot mutaxassislarini kasbiy tayyorlashning bir qismi sifatida madaniyatlararo kompetensiya zamonaviy ta'lim dasturlarida

alohida o'rin tutadi. Tibbiyotning globallasuvi va baynalmilallasuvi sharoitida shifokorlar turli madaniy va lingvistik guruhlariga mansub bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish zarurati bilan tobora ko'proq duch kelmoqdalar. Bu esa nafaqat chet tilini bilish, balki empatik, axloqiy va madaniy ongli ravishda o'zaro munosabatda bo'lish qobiliyatini ham talab qiladi.

Tibbiy ta'limda madaniyatlararo kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari:

Xorijiy tilda tibbiy leksika va terminologiyani bilish. Maxsus lug'atni aniq bilmasdan samarali professional muloqotni amalga oshirish mumkin emas. Bu, ayniqsa, terminologik aniqlik tashxis va davolashga ta'sir qiladigan fanlararo va transmilliy o'zaro ta'sirlarda juda muhimdir⁸. Tibbiy ingliz tilini yoki boshqa xalqaro kasbiy muloqot tilini o'rganish shifokor tayyorlashning muhim qismidir.

Kasbiy vaziyatda muloqot olib borish ko'nikmalari. Savollar berish, tashxisni tushuntirish, davolash rejasi haqida muhokama qilish - bularning barchasi muayyan tibbiy stsenariylarda tilni puxta bilishni talab qiladi. Shuningdek, muloqot uslublaridagi madaniy farqlarni hisobga olish muhimdir: to'g'ridan-to'g'ri gapirish, sukut, hissiyotlarni namoyon etish - bularning barchasi farq qilishi mumkin⁹.

Og'riq, davolash va parvarishlashni qabul qilishdagi madaniy kontekstlarni tushunish. Turli madaniyatlarda bemorlar og'riqni turlicha ifodalaydi, shifokorlarning aralashuviga, dori-darmonlarni tanlashga yoki parvarish uslubiga turlicha yondashadi. Masalan, ba'zi

- 4 Deardorff, D.K. (2006). Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization. *Journal of Studies in International Education*, 10 (3), pp. 241-266.
- 5 European Commission. (2020). Erasmus + Programme Guide. Retrieved from <https://erasmus-plus.ec.europa.eu>
- 6 Hofstede, G. (2010). *Cultures and Organizations: Software of the Mind*. McGraw-Hill.
- 7 Mukhamedjanova S.Dj. Linguocultural and linguopragmatic features of professional foreign language communication in the medical sphere in the conditions of international academic mobility / *Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements* / Volume 01, Issue 04. Romania, April, 2025. pp. 837-845.
- 8 Pozdniakova, O.A., et al. (2021). Professional English for medical students: A competence-based approach. *Advances in Medical Education and Practice*, 12, pp. 467-474.
- 9 Kripalani, S., Bussey-Jones, J., Katz, M. G., & Genao, I. (2006). A prescription for cultural competence in medical education. *Journal of General Internal Medicine*, 21 (10), pp. 1116-1120.

madaniyatlarda qarorlar oilaviy tarzda qabul qilinishi mumkin, boshqalarida esa individualizm qadrlanadi¹⁰.

Bemorning axloqi va madaniy me'yorlariga rioya qilish. Tibbiyot etikasi yagona emas: bemorning avtonomiyasi, xabardor roziligi, jinsi va diniy masalalariga qarashlar madaniy kontekstga qarab farq qilishi mumkin. Sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari o'z amaliyotlarida ushbu jihatlarni hisobga olishni o'rganishlari kerak¹¹.

Madaniyatlararo kompetentlikni shakllantirish tizimli va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvni talab qiladi. Ta'lim muhitida samarali metodlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Madaniyatlararo treninglar, boshqalar madaniyatiga mansub vakillar bilan o'zaro aloqalar, refleksiya va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan¹².

Rol o'ynash o'yinlari va holatlar, chet el bemorlari yoki hamkasblari bilan muloqot qilish holatlarini model qilish, til moslashuvchanligi va empatiya rivojlanishiga yordam beradi;

Autentik materiallardan foydalanish (videointervyular, klinik holatlar, xorijiy manbalardan chop etilgan materiallar) jonli nutqni qabul qilish va boshqa mamlakatlarning professional madaniyatini tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi;

Chet el talabalar bilan onlayn o'zaro aloqalar – teleko'priklar, virtual loyihalar, xalqaro vebinarlar (Virtual Exchange, COIL) haqiqiy muloqot va hamkorlik tajribasini kuchaytiradi.

Deardorff¹³ ta'kidlaganidek, madaniyatlararo

kompetentlikni muvaffaqiyatli rivojlantirish faqat kognitiv (bilim), affektiv (yondashuvlar) va xulq-atvor (ko'nikmalar) komponentlarining uyg'unlashuvi orqali mumkin, bu esa tibbiyot oliygohlarida o'quv dasturlarini loyihalashda hisobga olinishi zarur.

Global o'zgarishlarni, masalan, ko'payib borayotgan migratsiya, tibbiyotning xalqaro darajaga ko'tarilishi va talabalar hamda mutaxassislarning mobilligining oshishini inobatga olgan holda, madaniyatlararo kommunikativ kompetentlik (ICC)ni rivojlantirish nafaqat dolzarb, balki zaruriy bo'lib qolmoqda. Ko'p madaniyatli jamiyatlar sharoitida ishlayotgan shifokorlar turli madaniy, til va ijtimoiy guruhlariga mansub bemorlar va hamkasblar bilan samarali aloqada bo'lishni bilishlari kerak.

Buni hisobga olgan holda, tibbiyot ta'limida ICCni rivojlantirishning istiqbollari quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

madaniyatlararo kompetentlik bo'yicha majburiy kurslarni o'z ichiga olgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish talabalarni xalqaro muhitda ishlashga yaxshiroq tayyorlaydi. Bunday dasturlarda madaniy farqlar haqidagi nazariy bilimlar hamda turli madaniyatlarga mansub bemorlar bilan muloqot qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni hisobga olish zarur. Bu kurslar tibbiy etika bo'yicha treninglar, til va madaniy to'siqlarni o'rganish, shuningdek, bemorlarning madaniy xususiyatlarini inobatga olgan holda psixo-sotsial moslashuv masalalarini o'z ichiga olishi mumkin. Tadqiqotlarga ko'ra, madaniyatlararo kompetentlikni ta'lim dasturlariga integratsiyalash tibbiy xizmat

10 Kleinman, A., & Benson, P. (2006). Anthropology in the clinic: The problem of cultural competency and how to fix it. *PLoS Medicine*, 3 (10), p. 294.

11 Betancourt, J.R., Green, A.R., & Carrillo, J.E. (2005). Cultural competence in health care: Emerging frameworks and practical approaches. The Commonwealth Fund.

12 Deardorff, D.K. (2006). Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization. *Journal of Studies in International Education*, 10 (3), pp. 241-266.

13 Deardorff, D.K. (2006). Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization. *Journal of Studies in International Education*, 10 (3), pp. 241-266.

ko'rsatish sifatini oshiradi va shifokorlar bilan bemorlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi¹⁴.

Xalqaro tibbiy tashkilotlar bilan hamkorlik: talabalarda madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirishning samarali usullaridan biri - xalqaro tibbiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilishdir. Bunday dasturlar, masalan, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (WHO), Chegarasiz shifokorlar (Médecins Sans Frontières) va boshqa xalqaro tibbiy tashabbuslar talabalarga ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish, o'quv seminarlarida va konferensiyalarda qatnashish, xorijiy hamkasblar bilan tajriba almashish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bunday loyihalar talabalarga turli tibbiy amaliyotlar va madaniyatlar bilan o'zaro aloqada bo'lish bo'yicha noyob tajriba beradi, bu esa ularning professional va madaniyatlararo ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi¹⁵.

Tashqi mamlakatlardagi simulyatsion treninglar va volontyorlik loyihalarida ishtirok etish: simulyatsion treninglar va tashqi mamlakatlardagi volontyorlik loyihalari - bu talabalarda madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi. Bunday loyihalarda ishtirok etish nafaqat amaliy tibbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga, balki madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini ham oshirishga yordam beradi. Volontyorlik loyihalarining ahamiyati shundaki, ular talabalarga turli madaniyatlardan bo'lgan bemorlar bilan ishlash bo'yicha haqiqiy tajriba taqdim etadi, bu esa haqiqiy tibbiy amaliyotga yaqin sharoitlarda amalga oshiriladi. Xalqaro klinikalardagi volontyorlik dasturlari va amaliyotlar mutaxassislarning malakasini

oshirishga yordam beradi va ularni tibbiy amaliyotda madaniy xususiyatlarni inobatga olishning naqadar muhimligini tushunishga o'rgatadi¹⁶.

Onlayn platformalarni madaniyatlararo muloqot uchun rivojlantirish: ta'lim va amaliyotning raqamlashtirilishi ortib borgan sari, onlayn platformalar madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirish uchun muhim vositaga aylanmoqda. Zamonaviy onlayn platformalar, masalan, COIL (Collaborative Online International Learning), talabalarga va o'qituvchilarga turli mamlakatlardan bo'lgan hamkasblar bilan virtual loyihalar, tadqiqotlar va umumiy muhokamalar orqali muloqot qilish imkonini beradi. Bu platformalar faqat madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam bermay, balki chet tilini bilish darajasini oshirishga ham, shuningdek, xalqaro ta'lim aloqalarini mustahkamlashga hissa qo'shadi. Virtual almashish dasturlari kabi platformalar talabalarga o'z mamlakatlarini tark etmasdan xalqaro muhitda o'qish va ishlash imkoniyatini taqdim etadi¹⁷.

Madaniyatlararo kompetentlikni tibbiyot ta'limida rivojlantirish istiqbollari jamiyat va tibbiyotdagi global o'zgarishlarni hisobga olgan holda tobora dolzarblashib bormoqda. ICCni ta'lim dasturlari, xalqaro hamkorlik, simulyatsiya va volontyorlik loyihalari, shuningdek, onlayn muloqot orqali rivojlantirish, ko'p madaniyatli va globalizatsiyalashgan sharoitda professional faoliyat yuritishga tayyorlangan malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim omilga aylanmoqda.

Tibbiyot yo'nalishidagi talabalar orasida

14 Papadopoulos, R., et al. (2013). Cultural Competence Education for Medical Students: A Review. *Journal of the American Medical Association*, 310 (18), pp. 1985-1991.

15 Wiertz, C., et al. (2018). Medical student mobility and its impact on educational outcomes: A systematic review. *Medical Education*, 52 (9), pp. 903-913.

16 Benedict, K., et al. (2017). Volunteering Abroad: Impacts on Medical Students' Cultural Competency. *Medical Education*, 51 (4), pp. 412-423.

17 Cifuentes, L., et al. (2020). Virtual Exchange: A New Paradigm for Education in a Globalized World. *Journal of Educational Technology & Society*, 23 (1), pp. 88-102.

madaniyatlararo kommunikativ kompetentlikni (ICC) rivojlantirish zamonaviy tibbiy tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismidir. Globalizatsiya va tibbiyot xodimlarining xalqaro mobilligi, shuningdek, ko'p madaniyatli jamiyatlarning o'sishi sharoitida shifokorlar turli madaniy kontekstlarga mansub bemorlar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Bu nafaqat tibbiy yordam sifatini yaxshilashga, balki davolash va muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarni oldini olishga yordam beradi¹⁸.

Bundan tashqari, madaniyatlararo kommunikativ kompetentlikni (ICC) rivojlantirish zamonaviy kasbiy ta'lim talablariga to'liq javob beradi. Bu esa talabalar uchun xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashish hamda ko'p millatli tibbiyot muhitida samarali faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytiradi. Xalqaro almashinuv dasturlari, volontyorlik loyihalari va yoshlar siyosatini qo'llab-quvvatlash orqali talabalar nafaqat kasbiy, balki shaxsiy rivojlanish uchun ham keng imkoniyatlarga ega bo'ladi. Ayniqsa, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish ular uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, madaniyatlararo kompetentlik bugungi kunda tibbiyot xodimlari uchun qo'shimcha afzallik emas, balki kasbiy tayyorgarlikning asosiy va ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Xalqaro mobillikning ortishi, sog'liqni saqlash sohasining globallasuvi va bemorlarning madaniy jihatdan rang-barangligi sharoitida turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish ko'nikmasi dolzarb ehtiyoj sifatida qaralmoqda. ICCni rivojlantirish, jumladan, xorijiy tillarni o'rganish, xalqaro loyihalarda, amaliyot va treninglarda faol ishtirok etish orqali mutaxassislarning kasbiy o'sishigagina emas, balki tibbiy xizmat

sifatini oshirishga ham xizmat qiladi. Bu o'z navbatida, global chaqiriqlarga munosib javob bera oladigan ochiq, inklyuziv va samarali tibbiy hamjamiyatni shakllantirishga asos bo'ladi. Shunday ekan, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari ta'lim dasturlariga madaniyatlararo tayyorgarlikni kiritish zamonaviy tibbiy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi va ajralmas tarkibiy qismlaridan biri sifatida qoralishi zarur.

18 Mukhamedjanova S.Dj. Using linguapragmatic strategies to improve communication in medical practice. Volume-5, Issue-4. India, April, 2025. pp. 1063-1067.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLI YONDASHUVNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Guli Bekmuratovna Taylakova – p.f.f.d. (PhD),
dotsent, Toshkent amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida raqamli kompetentlikni rivojlantirish jarayonida klasterli yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Klasterli yondashuvning mohiyati, uning ta'lim tizimidagi o'rni va zamonaviy raqamli infratuzilmalar bilan integratsiyalashuv imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston tajribasi hamda xorijiy tajribalar asosida raqamli kompetentlik klasterlarini shakllantirishning strategik yo'nalishlari bayon etiladi.

Аннотация. В статье рассматриваются научно-теоретические основы кластерного подхода в процессе развития цифровой компетентности в высших учебных заведениях. Проанализирован сущность кластерной модели, её роль в образовательной системе и возможность интеграции с современной цифровой инфраструктурой. Также представлены стратегические направления формирования кластеров цифровой компетентности на основе опыта Узбекистана и зарубежных стран.

Abstract. This article explores the scientific and theoretical foundations of the cluster approach in developing digital competence in higher education institutions. The essence of the cluster model, its role in education, and its integration with modern digital infrastructure are analyzed. Strategic directions for forming digital competence clusters are presented, drawing on the experience of Uzbekistan and international practices.

Kalit so'zlar: raqamli kompetentlik, klasterli yondashuv, oliy ta'lim, raqamli transformatsiya, raqamli infratuzilma, strategik rivojlanish.

Ключевые слова: цифровая компетентность, кластерный подход, высшее образование, цифровая трансформация, цифровая инфраструктура, стратегическое развитие.

Keywords: digital competence, cluster approach, higher education, digital transformation, digital infrastructure, strategic development.

Raqamli transformatsiya jarayonlari globallashtgan dunyo sharoitida barcha sohalarida, ayniqsa, ta'limda tub islohotlarni talab etmoqda. Raqamli kompetentlikni shakllantirish oliy ta'lim tizimining muhim vazifasiga aylangan. Bu esa yangi yondashuvlar, xususan, klasterli tashkil etish modelini tatbiq etishni zarur qiladi. Klasterli yondashuv doirasida ta'lim muassasalari, IT sohasi vakillari va ilmiy tadqiqot markazlari o'zaro integratsiyalashadi. Raqamli kompetentlik talabalarga nafaqat texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini, balki tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, axloqiy me'yorlarga rioya qilish va axborot xavfsizligini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli, bu kompetensiyani

rivojlantirishda tizimli, klasterli yondashuv talab etiladi.

Klasterli yondashuv zamonaviy ta'lim tizimlarida sifatni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion muhitni shakllantirishda keng qo'llanilayotgan metodik modeldir¹. Bu yondashuv asosida turli ta'lim tashkilotlari, ilmiy tadqiqot muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari hamda xususiy sektor vakillari o'zaro hamkorlik asosida faoliyat yuritadi. Ta'lim klasterlari orqali bilim va amaliyot integratsiyasi kuchayadi, natijada o'quvchilar va talabalar nazariy bilimlarni real muhitda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

1 Van Dijk, J. (2005). The Deepening Divide: Inequality in the Information Society. Sage Publications.

O'zbekiston ta'lim tizimining globallashtirish sharoitidagi rivojlanish ehtiyojlari, yoshlar raqamli kompetentlik darajasining oshirilishi va innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi mavjud tizimni tubdan modernizatsiya qilishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, klasterli yondashuvni joriy etish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylanishi kerak. Bu strategiya nafaqat ta'lim sifatini yaxshilaydi, balki uni real sektor bilan uzviy bog'liq, iqtisodiyot ehtiyojlariga mos holda qayta yo'naltiradi. O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va global raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida ushbu yondashuvni joriy etish strategik ahamiyatga ega. Ta'lim klasterlari oliy ta'lim muassasalari, kasb-hunar ta'limi markazlari, tadqiqot institutlari va xususiy sektor o'rtasida sinergiyani rivojlantiradi.

M. Porter ta'rificha, klaster – bu bir-biri bilan bog'liq sohalarda faoliyat yurituvchi firmalar, ta'lim muassasalari, davlat tashkilotlari va ilmiy markazlarning ma'lum hududda joylashgan tizimli birlashmasidir. Klasterlar an'anaviy sanoat tarmoqlaridan farqli ravishda, o'zaro raqobat bilan birga hamkorlik (cooperation) ham mavjud bo'lgan tuzilmalardir. Bu muvozanat innovatsion muhitni shakllantiradi. Shuningdek, M. Porter ta'kidlashicha, klasterlar orqali firmalar va tashkilotlar mahalliy (regional) resurslar asosida global bozorda raqobatbardosh bo'lish imkoniga ega bo'ladi².

Harvard Business School va Stockholm School of Economics tadqiqotchisi Ketels.C. Yevropa davlatlarida klaster siyosatining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, mintaqaviy innovatsion tizimlarga ta'siri, ta'lim va texnologiya bilan uzviy bog'liqligini atroflicha tahlil qiladi. Ketels fikricha, raqamli texnologiyalar sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun ta'lim tizimi:

- texnologik tendensiyalarni kuzatishi;
- ularni o'quv dasturlariga integratsiya qilishi;
- talabalar uchun zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishi zarur³.

Abdullayeva, ilmiy tadqiqotlarida klasterli yondashuvning ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda qanchalik muhim ekanligini ta'kidlaydi. U, ayniqsa, bu yondashuvning o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi haqida tahlil qiladi⁴.

Karimov, klasterli metodning zamonaviy pedagogika sohasidagi o'rni va uning innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashuvi haqida o'rganadi. Shuningdek u, klasterli yondashuv ta'lim jarayonini interfaol va qiziqarli qilishda muhim vosita ekanini ta'kidlaydi⁵.

Tursunov, ilmiy ishlarida klasterli yondashuvning axborot asrida ta'lim jarayonida qo'llanilishi va axborot madaniyatini oshirishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. U, ta'lim jarayonida axborotlarni tizimlashtirish va o'quvchilarni mustaqil izlanishga rag'batlantirishda klaster metodining samaradorligini ta'kidlaydi. Tursunov bu yondashuv orqali o'quvchilarning ma'lumotlarni yaxshiroq eslab qolishlari va ularni amaliyotda qo'llashlari mumkinligini ko'rsatadi⁶.

Klasterli yondashuv shuningdek, hududiy nomutanosiblikni kamaytirish, kasbiy malaka va bilimlar uzluksizligini ta'minlash, kadrlar bozorida real talabga mos kadrlar tayyorlash kabi ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yechimiga hissa qo'shadi. Shu sababli, O'zbekiston sharoitida ta'lim klasterlarini shakllantirish va ularni strategik tarzda boshqarish – bu zamonaviy

2 Porter, M.E. (1998). Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review.

3 Christian Ketels. "European Clusters" Working Paper. Harvard Business School, 2004.

4 Abdullayeva M. Klasterli yondashuvning ta'lim jarayonidagi roli. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.

5 Karimov S. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va klasterli yondashuv. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

6 Tursunov A. Axborot madaniyati va ta'limda klasterli metodlar. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2021.

ta'limning raqobatbardosh modelini yaratish sari tashlanayotgan muhim qadamdir. Uzoq muddatda bunday tizim milliy ta'lim sifatining oshishiga, ilmiy salohiyatning kuchayishiga va iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligiga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli kompetentlikni rivojlantirishda klasterli yondashuv ta'lim, biznes va davlat hamkorligi asosida innovatsion infratuzilma yaratishga xizmat qiladi. Estoniya tajribasida bu yondashuv alohida o'ringa ega bo'lib, u yerda "Digital Education Cluster" modeli asosida maktablar, oliy o'quv yurtlari va IT-kompaniyalar o'zaro integratsiyalashgan. Har bir o'qituvchi va talaba zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, raqamli savodxonlik 100% qamrovda shakllantirilgan. Shu bilan birga, Estoniyada ta'lim jarayoni to'liq raqamlashtirilgan va o'qituvchilarning doimiy malaka oshirishi davlat siyosatining muhim qismiga aylangan. Bu yondashuvda klasterlar nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki yoshlarning raqamli mehnat bozoriga moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Janubiy Koreyada raqamli klasterlar "Digital Learning Consortium" loyihasi orqali rivojlantirilgan bo'lib, bu klaster doirasida davlat, yirik IT kompaniyalar (Samsung, LG) va universitetlar o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Ushbu model asosida talabalarga subsidiya asosida planshetlar, bepul platformalar taqdim etiladi va sun'iy intellektga asoslangan o'quv muhitlar joriy qilingan. Bu yondashuv pedagogik moslashuvchanlikni, shuningdek, raqamli kompetensiyalarni shaxsiylashtirilgan tarzda shakllantirish imkonini beradi. Koreya Ta'lim taraqqiyoti instituti (KEDI) va Davlat siyosat markazlari raqamli inklyuziyani ta'minlash uchun maxsus grant va infratuzilma dasturlarini yo'lga qo'ygan. Natijada, raqamli tengsizlik kamaygan, ayniqsa chekka hududlardagi o'quvchilar uchun ham keng imkoniyatlar yaratilgan.

Finlandiya va AQShda ham raqamli klasterlar orqali ta'limda raqamli kompetentlik samarali rivojlantirilmoqda. Finlandiyada Tampere universiteti tomonidan ishlab chiqilgan INNOPEDA® modeli asosida talabalarning IT kompaniyalarda amaliyot o'tashi, o'qituvchilarning esa texnologik loyihalarda bevosita ishtirok etishi yo'lga qo'yilgan⁷. AQShda esa STEM yo'nalishidagi ta'lim klasterlari – ayniqsa Massachusetts va Kaliforniyada – ta'lim muassasalari, texnologik kompaniyalar va davlat tashkilotlari o'rtasida kuchli innovatsion ekotizim yaratgan. Bu klasterlar orqali kodlash, sun'iy intellekt, tahlil qilish, media savodxonlik kabi kompetensiyalar tizimli asosda shakllantirilmoqda. AQShning National Science Foundation va Ta'lim vazirligi tomonidan raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga doir grantlar ajratilib, klasterlar faoliyati strategik darajaga ko'tarilgan.

Klasterli yondashuv raqamli kompetentlikni rivojlantirishda quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

Oliy ta'lim, sanoat va ilm-fan integratsiyasi – real sektor talabiga mos raqamli ko'nikmalar shakllanadi. Oliy ta'lim, sanoat va ilmiy tadqiqot institutlarining integratsiyasi – bu "Triple Helix Model" nomi bilan tanilgan zamonaviy yondashuv bo'lib, unda uch sektor (universitet – biznes – davlat) o'zaro uzviy hamkorlikda innovatsion rivojlanish uchun infratuzilma yaratadi. Bu model ilk bor Etzkowitz va Leydesdorff (2000) tomonidan ishlab chiqilgan va bugungi kunda raqamli iqtisodiyotda eng samarali mexanizmlardan biri sifatida tan olingan. Bu integratsiya orqali Universitetlar sohaning dolzarb muammolarini o'rganib, ularning yechimiga qaratilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqadi. Natijada, talabalar nazariy bilim bilan cheklanib qolmay, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishadi (misol: IT kompaniyada internship / stajirovka asosida ish olib borish). Ilm-fan

7 Sahlberg, P. (2011). Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?. Teachers College Press.

vakillari o'z izlanishlarini sanoat bilan bog'laydi. Bu esa ilmiy innovatsiyalarni tijoratlashtirish, yangi texnologiyalarni yaratish va "universitet startaplari"ni yo'lga qo'yish imkonini beradi (masalan, AQShda "university-based incubators" keng tarqalgan). Klasterlar – bu geografik va maqsadli yaqinlikka ega bo'lgan universitetlar, kompaniyalar va tadqiqot markazlarining raqamli texnologiyalar asosida birlashuvi. Bunda o'qituvchi va talabalar zamonaviy texnologiyalar, texnoparklar va ilmiy markazlardan bevosita foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi (Masalan: O'zbekistondagi IT Park va universitetlar o'rtasidagi hamkorlik).

Kadrlar salohiyatini oshirish: raqamli kompetent pedagoglarni tayyorlash zarurati – raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim sifati o'qituvchi salohiyati bilan bevosita bog'liqdir. Zamonaviy pedagog – bu nafaqat o'z fanining mutaxassisi, balki raqamli texnologiyalarni o'quv jarayonida samarali qo'llay oladigan, media va axborot savodxonligiga ega, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishga tayyor bo'lgan raqamli kompetent shaxsdir. Shu sababli, kadrlar salohiyatini oshirish – klasterli yondashuvda asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotga ko'ra, YUNESKO va OECD raqamli kompetentlik bo'yicha o'qituvchilar uchun "Digital Pedagogical Framework" modellari ishlab chiqqan bo'lib, ular o'qituvchilarning shaxsiy, didaktik va professional kompetensiyalarini doimiy rivojlantirishni tavsiya qiladi⁸. Masalan, Estoniyada har bir o'qituvchi yiliga kamida bir marotaba raqamli savodxonlik bo'yicha majburiy sertifikatlashtiriladi, Koreyada esa pedagoglar uchun "AI-assisted teaching labs" tashkil etilgan.

O'zbekistonda bu borada qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan pedagoglar uchun "Raqamli pedagogika" bo'yicha qayta tayyorlash va malaka

oshirish kurslari yo'lga qo'yilgan. Klasterli yondashuvning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun quyidagi shartlar muhim:

Tashkiliy-huquqiy asoslarni mustahkamlash – Oliy ta'lim muassasalari va texnoparklar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlar;

Kadrlar salohiyatini oshirish – raqamli kompetent pedagoglarni tayyorlash;

Raqamli tenglikni ta'minlash – qishloq joylaridagi talabalarga ham teng raqamli imkoniyatlar yaratish.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli klasterlar orqali malakali mutaxassislar tayyorlashda sanoat bilan bevosita hamkorlik muhim o'rin tutadi. Estoniyada har bir universitet o'z hududida raqamli markazga ega, bu markazlar orqali ham ilmiy, ham amaliy loyihalar amalga oshirilmoqda.

O'rganishlarimiz natijasida shunday xulosaga keldikki, klasterli yondashuvning oliy ta'lim tizimida qo'llanilishi raqamli kompetentlikni shakllantirish va uni barqaror rivojlantirish jarayonida kompleks, tizimli va innovatsion yechim sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur yondashuv asosida raqamli infratuzilma, pedagogik salohiyat, fan va texnologiya integratsiyasi hamda sanoat talablari o'zaro uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi. Ayniqsa, raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish orqali ta'limning sifat ko'rsatkichlari keskin oshadi. Bu esa uzluksiz raqamli o'rganish (lifelong e-learning), moslashuvchan o'quv muhitlari va individuallashtirilgan ta'lim yo'llarini yaratishda asosiy omil hisoblanadi.

O'rganilgan xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Estoniya, Janubiy Koreya, AQSh va Finlandiya kabi rivojlangan davlatlar klasterli model asosida raqamli ta'lim strategiyalarini shakllantirish orqali

8 UNESCO. (2023). Digital Literacy and Education Policies. Paris. OECD. (2020). Shaping Digital Education: Opportunities and Challenges.

pedagogik texnologiyalarni optimallashtirish, sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim platformalari va data-analitika vositalarini joriy qilishda sezilarli natijalarga erishgan. Bu mamlakatlarda klasterlar faqatgina ta'lim muassasalarini emas, balki IT kompaniyalar, texnoparklar va ilmiy markazlarni ham birlashtirib, zamonaviy raqamli ekotizimni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Klasterli muhitda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi, innovatsion loyihalarda talabalar va o'qituvchilarning ishtiroki ancha yuqori bo'lib, bu mehnat bozoriga tayyor, raqamli kompetent mutaxassislar tayyorlashga zamin yaratadi.

TALABALARNING RAQAMLI SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIV TENGLIK VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Feruza Djumaboyevna Shermanova – p.f.f.d,
dotsent, Toshkent amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar rivojlanishining talabalarning raqamli savodxonligiga ta'siri, raqamli inklyuziya va tenglik tamoyillari asosida ta'limda teng imkoniyatlar yaratish masalalari yoritilgan. Muallif raqamli tengsizlikni kamaytirish, raqamli resurslarga teng kirish imkoniyatini ta'minlash bo'yicha xalqaro va mahalliy tajribalarni tahlil qiladi. O'zbekiston misolida mavjud infratuzilma, muammolar va istiqbollar ilmiy asosda bayon etilgan.

Аннотация. В статье рассматривается влияние развития цифровых технологий на цифровую грамотность студентов, а также вопросы обеспечения равного доступа к цифровым ресурсам через принципы цифровой инклюзии и равенства. Автор анализирует международный и национальный опыт снижения цифрового неравенства. На примере Узбекистана представлены проблемы, инфраструктура и перспективы в данной сфере.

Abstract. This article explores how the development of digital technologies affects students' digital literacy and highlights the role of digital inclusion and equity principles in ensuring equal access to digital resources. The author analyzes both international and national experiences in reducing the digital divide. Using Uzbekistan as a case study, the article discusses challenges, infrastructure, and future prospects based on scientific analysis.

Kalit so'zlar: raqamli savodxonlik, raqamli inklyuziya, raqamli tengsizlik, ta'limda innovatsiyalar, axborot texnologiyalari, internetga kirish, O'zbekiston tajribasi, raqamli transformatsiya, IT-maktablar, sun'iy intellekt.

Ключевые слова: цифровая грамотность, цифровая инклюзия, цифровое неравенство, инновации в образовании, информационные технологии, доступ к интернету, опыт Узбекистана, цифровая трансформация, IT-школы, искусственный интеллект.

Keywords: digital literacy, digital inclusion, digital inequality, educational innovations, information technology, internet access, Uzbekistan experience, digital transformation, IT schools, artificial intelligence.

Bugungi jadal raqamlashuv jarayonlari natijasida hayotimizning barcha sohalari, jumladan ta'lim tizimi ham jiddiy o'zgarishlarga duch kelmoqda. Raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasiga kirib kelishi, nafaqat moddiy-texnik bazani yangilash, balki ta'lim mazmuni va usullarini ham tubdan o'zgartirmoqda. Hozirgi kunda o'qituvchilar ta'limni individuallashtirish, interfaollikni ta'minlash, muloqotni faollashtirish va axborotni aniq hamda samarali yetkazish maqsadida raqamli vositalardan foydalanmoqdalar.

Bu jarayonda talabalarning raqamli savodxonligini shakllantirish muhim ahamiyat

kasb etadi. Raqamli savodxonlik bu – faqatgina texnologiyadan foydalanish ko'nikmalari emas, balki axborotni tanlash, tahlil qilish, qayta ishlash va tanqidiy baholash, xavfsiz foydalanish, axborot etikasiga rioya qilish singari ko'plab kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Shu bois, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun talabalar yuqori darajadagi axborot savodxonligiga ega bo'lishlari shart.

Bu borada Y. Mamatova, S. Sulaymonova "O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida" nomli hammuallifdagi o'quv qo'llanmasida axborot savodxonligiga quyidagi izohni beradi: "Axborot savodxonligi – axborotni tanlash,

baholash, qayta ishlash va uzatish borasidagi ko'nikmalar va malakalar majmuini bildiradi"¹. Demak, ma'lumotlarni faqatgina topish emas, balki ularni tanlab olish, tahlil qilish, manbaaning ishonchliligini baholash, ma'lumotlar ichida asosiy va yordamchi qismni farqlash, axborotni qayta ishlash va maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Bu ko'nikma talabalarning tanqidiy fikrlashini shakllantiradi, axborot xatarlarini kamaytiradi hamda ularni mustaqil ta'lim olishga tayyorlaydi. Axborot savodxonligi raqamli muhitda faol fuqarolik, kasbiy o'sish va ijtimoiy faollikning poydevori hisoblanadi. Shu bois, u raqamli savodxonlikning markaziy va asosiy komponentlaridan biri sifatida qaraladi.

Professor M. Mamarajabov (2022) o'zining "Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiya ishida shunday xulosaga kelganki, bolalar va o'smirlar texnologiyaga tabiiy muhit sifatida qarashadi, biroq undan unumli foydalana olmaydi. Ularning axborot qidirish usullari ishonchsiz, hatto matn yoki hisob-kitoblar bilan ishlashda keng tarqalgan dasturlarning asosiy funksiyalarini bilmaydi, kiberxavfsizlik qoidalarini tushunmaydi. Universitet talabalari ham raqamli darsliklardan ongli foydalana olmasdan, raqamli vositalarning imkoniyatlarini to'liq anglay olmaydi². Bu esa ularning tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va raqamli muhitda maqsadli faoliyat yuritish kabi kompetensiyalarda yetishmovchilik borligini anglatadi. Shu bois, bu fan muhim bo'lsa-da, raqamli savodxonlikni shakllantirish uchun yetarli emas.

Talabalarni raqamli dunyoda faol va mas'uliyatli fuqaro sifatida shakllantirish, ularning raqamli texnologiyalar bilan faol

muloqotini ta'minlash, axborot oqimlari ichida to'g'ri yo'l topishini o'rgatish ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biriga aylandi. Demak, zamonaviy ta'limni raqamli savodxonlikni shakllantirmasdan tasavvur etib bo'lmaydi, chunki ta'lim jamiyatning madaniy qadriyatlarini uzatish, saqlash va rivojlantirish vositasidir.

O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish, raqamli savodxonlikni shakllantirish va axborot madaniyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, so'nggi yillarda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi qabul qilinib, uning doirasida barcha ta'lim muassasalarida raqamli muhitni yaratish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Strategiyada raqamli ta'limni rivojlantirishga katta urg'u berilgan. Xususan, onlayn va masofaviy o'qitish texnologiyalari, xalqaro IT-sertifikatlar uchun to'lovlarning bir qismini davlat tomonidan qoplash, maktab va oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarga ixtisoslashgan yo'nalishlarni joriy etish, IT maktablarni tashkil etish va axborot xavfsizligi sohasida malakali kadrlar tayyorlash kabi yo'nalishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa talabalarning raqamli ko'nikmalarini shakllantirishga ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 475-sonli "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"³ qarori (31.07.2021) va Prezidentning PQ-4642-son qarori (17.03.2020) mamlakatimizda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni keng joriy etish, ushbu sohada ilmiy-tadqiqot salohiyatini yuksaltirish, kadrlar tayyorlash tizimini mukammallashtirishga qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, raqamli transformatsiya

1 Маматова Я., Сулайманова С. Ўзбекистон медиатаълим тараққиёти йўлида. Ўқув қўлланма. –Т.: Extremum-press, 2015. – Б.9.

2 Мамаражабов М.Э. "Рақамлаштирилган таълим шaroitida бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик тайёргарлигини такомиллаштириш" дисс.иши Тошкент 2022, 32бет

3 <https://www.lex.uz/docs/5544451>

sharoitida ta'lim tizimini tubdan isloh qilishni talab qiladi. Ayniqsa, raqamlashgan muhitda samarali faoliyat yuritish uchun pedagoglarning ilmiy-tadqiqot salohiyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda raqamli ko'nikmalarga bo'lgan talab va ularning mehnat bozorida ta'minlanishi o'rtasidagi tafovut ortib bormoqda. Bu tafovut ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi, raqamli kambag'allikni yanada chuqurlashtirishi mumkin. Shu bois, ushbu holatni raqamlashtirish nuqtai nazaridan ijtimoiy tafovutni bartaraf etishga qaratilgan keng ko'lamli davlat va xususiy sektor hamkorligidagi harakatlarga chaqiriq sifatida talqin qilish zarur. Davlat siyosatida raqamli inklyuziyani ta'minlash, aholining turli qatlamlari uchun raqamli imkoniyatlarni yaratish ustuvor vazifa bo'lishi kerak.

Raqamli savodxonlikni barcha talabalarda samarali shakllantirish uchun ularning turli ijtimoiy-iqtisodiy holatini hisobga olgan holda raqamli inklyuziyani ta'minlash talab etiladi. Raqamli inklyuziya – bu barcha guruhlar (qishloqda yashayotganlar, ayollar, nogironligi bor shaxslar va boshqalar) uchun raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish demakdir. Bu tushuncha World Bank, ITU, YUNESCO kabi tashkilotlar tomonidan milliy va global siyosatga joriy etilgan.

Raqamli inklyuziya (digital inclusion) va raqamli tenglik (digital equity) – zamonaviy ta'lim siyosatining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqiladi. Bu atamalar nafaqat internetga kirish imkoniyati, balki raqamli qurilmalar, kontentdan foydalanish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish va axborot xavfsizligini ta'minlash imkoniyatlaridagi tenglikni nazarda tutadi. Van Dijk o'z tadqiqotlarida "raqamli tengsizlik" (digital divide) tushunchasini konseptual asoslab, raqamli

resurslardan foydalanishdagi tengsizlikning ijtimoiy, iqtisodiy va ta'limiy sohalarda kuchli ta'sirini ko'rsatadi. Uning fikricha, raqamli tengsizlik – iqtisodiy imkoniyatlar, ta'lim darajasi va ijtimoiy status bilan chambarchas bog'liq⁴. Dunyo tajribasida raqamli kambag'allik (digital poverty) tushunchasi ham alohida e'tiborga olingan bo'lib, u talabalarda yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy qurilma, raqamli resurslarga teng kirish imkoniyati yo'qligini anglatadi. Masalan, OECD 2020 hisobotida qayd etilganidek, raqamli inklyuziya ta'minlanmagan mamlakatlarda pandemiya paytida talabalarning 40% dan ko'prog'i onlayn ta'limdan chetda qolgan⁵. Bunda asosiy muammolar quyidagicha belgilangan:

- internetga doimiy va barqaror ulanish imkoniyati yo'qligi;
- zamonaviy noutbuk, planshet yoki smartfonning yetishmasligi;
- ota-onalar tomonidan ta'limni qo'llab-quvvatlash imkoniyati kamligi;
- axborot texnologiyalarini foydalanishda ko'nikma yetishmasligi.

Ushbu hisobot raqamli tengsizlik tushunchasini ta'lim sohasidagi raqamli inklyuziya muammosi bilan bog'laydi va raqamli tenglikni ta'minlash uchun davlat siyosatlariga strategik yondashuv zarurligini qayd etadi.

AQSh Harvard universiteti professori Pippa Norris o'zining tadqiqotlarida raqamli tengsizlikni jamiyatdagi axborot kambag'alligining ildizi sifatida baholaydi⁶. Uning tahlillariga ko'ra, raqamli imkoniyatlardan chetda qolgan aholi – axborot sohasida ham yetarlicha himoyalangan emas va ular fuqarolik faolligida ham passiv rol o'ynaydilar.

4 Van Dijk, J. (2005). *The Deepening Divide: Inequality in the Information Society*. Sage Publications

5 OECD. (2020). *Education and COVID-19: Focusing on the most vulnerable*. URL: <https://www.oecd.org/education/education-and-covid-19-focus-on-the-most-vulnerable.htm>

6 Norris, P. (2001). *Digital Divide: Civic Engagement, Information Poverty, and the Internet Worldwide*. Cambridge University Press.

Robinson esa raqamli inklyuziyaga ta'sir etuvchi to'rtta asosiy omilni ko'rsatadi:

texnik infratuzilmaga kirish imkoniyati;

raqamli ko'nikmalarga ega bo'lish;

ishonch va motivatsiya darajasi;

shaxsiy va kasbiy maqsadlarda foydalanish qobiliyati⁷.

Ular raqamli inklyuziyani faqat internet va qurilmalar bilan ta'minlash deb emas, balki talabalarning shaxsiy holati va muhitida samarali raqamli faoliyat yuritish imkoniyatini yaratish deb baholaydilar.

O'zbekistonda raqamli inklyuziyani ta'minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Masalan, Internet Society Pulse 2023 hisobotiga ko'ra, O'zbekiston aholisining 89% tarkibiy internetdan foydalanadi⁸ – osiyolik o'rtacha 62%ga nisbatan ancha yuqori ko'rsatkich. Geografik qaraganda, shaharlardagi oxiridagi internet foydalanuvchilarning 86%, qishloq joylarda 82%. Bu raqamlar raqamli inklyuziyani yaratishdagi muhim asos sanaladi – har ikki sohadan tashqaridagi holatlar umumiy. Shuningdek Gazeta.uz sahifasida O'zbekiston raqamli texnologiyalar vaziri Sherzod Shermatov 2024-yil 24-mart xolatiga ko'ra bergan ma'lumotlarda Universitetlarda har bir talabaga 0.03-0.04 kompyuter to'g'ri keladi, bu esa xalqaro reytinglarda (OECD ~0.85) ancha past ko'rsatkich hisoblanadi⁹.

O'zbekiston aholisining 80% dan ko'prog'i internetdan foydalanmoqda, ammo qishloq joylardagi tezlik, qurilma yetishmovchiligi va raqamli kontentga teng kirish imkoniyati hali ham muammo bo'lib qolmoqda. Shu sabab, YUNESCO

o'z tavsiyalarida ta'limda raqamli inklyuzivlikni ta'minlash uchun kam ta'minlangan, imkoniyati cheklangan talabalar uchun bepul internet, qurilma loyihalari, raqamli ta'lim resurslarini lokallashtirish kabi yechimlarni taklif etgan. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog' integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish milliy iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lim samaradorligining muhim omili bo'lmoqda¹⁰.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayoni nafaqat texnologik yangilanish, balki pedagogik mazmun, o'qitish usullari va kasbiy tayyorgarlik tizimining tubdan qayta qaralishini talab etayotgani ayon bo'ldi. Raqamli ko'nikmalarga bo'lgan talabning keskin oshishi, mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlashda raqamli savodxonlikning o'rni va ijtimoiy tenglik masalalari bugungi kun ta'limi oldida turgan ustuvor vazifalar qatoriga kiradi. Bu, ayniqsa, yuqori ta'lim muassasalarida talabalarning raqamli savodxonligini oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar talabalar o'rtasida texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari teng bo'lmasa, raqamli kompetensiyalar rivojida notenglik yuzaga keladi, va bu ta'lim sifatining umumiy darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Shu boisdan, raqamli ta'lim muhitini samarali tashkil etishda infratuzilmaviy imkoniyatlarni teng taqsimlash, zamonaviy qurilmalar va internet bilan ta'minlash kabi choralar dolzarb ahamiyatga ega. Xususan, Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (ITU,

7 Robinson, L., Cotton, S.R., Ono, H., et al. (2015). Digital inequalities and why they matter. *Information, Communication & Society*, 18(5), 569–582.

8 https://pulse.internetsociety.org/en/reports/uz/?utm_source

9 https://www.gazeta.uz/en/2024/03/13/internet/?utm_source

10 Shermanova F. Ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning imkoniyatlari *Journal of Integrated Education and Research* 2 (2), 22–26

2022) ma'lumotlariga ko'ra, raqamli tengsizlikni kamaytirish maqsadida davlatlar va ta'lim muassasalari tomonidan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilishi kerak. Ana shundagina raqamli savodxonlik barcha uchun haqiqiy, teng va samarali rivojlanishga erishishi mumkin. Raqamli savodxonlik shunchaki texnik bilimlardan iborat bo'lmay, balki axborotni samarali izlash, tanqidiy baholash, xavfsiz foydalanish, shuningdek, raqamli muhitda samarali muloqot qilish va mas'uliyatli xulq-atvorni namoyish etish kabi keng qamrovli ko'nikmalarni o'z ichiga oluvchi murakkab kompetensiyalar majmui sifatida ta'riflanadi. Uning rivojlanishi shaxsning zamonaviy jamiyatda to'laqonli ishtirok etishi uchun fundamental ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning raqamli savodxonligini samarali rivojlantirish uchun maxsus pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarurligi ta'kidlanadi. Bu shart-sharoitlar nafaqat o'quv materiallarining dolzarbligini, balki ularni o'zlashtirish uchun qulay, interfaol va xavfsiz raqamli ta'lim muhitini ham nazarda tutadi. Ta'limda innovatsion yondashuvlarni qo'llash, sun'iy intellekt va avtomatlashtirishga asoslangan texnologiyalarni maqsadli integratsiya qilish orqali o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, interaktiv va ijodiy muhitda tashkil etish mumkin. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning cheksiz imkoniyatlari o'qituvchining o'rnini pasaytirmasligi, balki uning rolini yangi mazmunda boyitishga xizmat qilishi lozim.

TALABALAR INNOVATSION TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Davron Abdurakibovich Alibekov – f.f.b.f.d. (PhD), dotsent, O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya. Ta'lim tizimida talabalar innovatsion tafakkurini va ularning dunyoqarashini shakllantirmay turib jamiyatni rivojlantirish murakkab jarayondir. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida talabalar innovatsion tafakkurini shakllantirishning ahamiyati, innovatsion tafakkurni rivojlantirishdagi yondashuvlar va nazariyalar, innovatsion tafakkurni shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari to'g'risida so'z yuritiladi.

Аннотация. Развитие общества без формирования инновационного мышления и мировоззрения учащихся в системе образования – сложный процесс. В статье рассматриваются значение формирования инновационного мышления учащихся в образовательном процессе, подходы и теории развития инновационного мышления, педагогические и психологические факторы формирования инновационного мышления.

Abstract. Developing society without forming students' innovative thinking and worldview in the education system is a complex process. This article discusses the importance of developing students' innovative thinking in the educational process, approaches and theories in the development of innovative thinking, and pedagogical and psychological factors in the development of innovative thinking.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, jamiyat, innovatsion, tafakkur, dunyoqarash, shakllantirish, rivojlantirish, yondashuv, tamoyil, maqsad, vazifa, natija, omil.

Ключевые слова: образование, воспитание, общество, инновационный, мышление, мировоззрение, формирование, развитие, подход, принцип, цель, задача, результат, фактор.

Keywords: education, upbringing, society, innovative, thinking, worldview, formation, development, approach, principle, goal, task, result, factor.

Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida har qanday jamiyatning taraqqiyoti innovatsion salohiyatga, ayniqsa, yosh avlodning tafakkur darajasiga bevosita bog'liq. Bugungi kun ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki ijodiy va innovatsion fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalash vazifasini ham bajaradi. Shunday ekan, talabalarda innovatsion tafakkurni shakllantirish masalasi dolzarb va strategik ahamiyatga ega. Har bir davlatning taraqqiy etishi, raqobatbardoshligi, avvalo, uning ta'lim tizimi va bilimli yosh avlodga berilayotgan tarbiyasiga bog'liq. Ayniqsa, talabalarining innovatsion tafakkurini shakllantirishda ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Ta'lim bu nafaqat bilim berish vositasi, balki jamiyatda yangilik yaratishga qodir, tanqidiy va kreativ fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalash tizimidir.

Dunyo jadallik bilan rivojlanayotgan bugungi kunda butun oliy ta'lim muassasalari talabalarini innovatsion faoliyatga tayyorlash, ularning innovatsion fikrlash ko'nikmasini, individual ijodiy faoliyatini birmuncha to'laroq namoyish qilish, intellektual salohiyatini oshirish, o'qish jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalar zaxirasini innovatsion masalalar yechimiga qaratish muammolari alohida o'rin egallamoqda. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, maqsad va vazifalarini aniqlashtirishni, talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmasini takomillashtirish mazmunini oliy ta'lim muassasalari innovatsion tizimining yangi talablariga muvofiq ravishda integratsion yondashishga talab etmoqda.

Respublikamizda xalqaro talablarga muvofiq oliy ta'lim muassasalari talabalarining

innovatsion faolligini oshirish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida innovatsion fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish, axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni samarali qo'llashning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish sohasidagi ishlarni rivojlantirishni ta'kidlab shunday deydi: "Hammamiz yaxshi bilamiz, bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar zamonidir..."¹

Talabalar innovatsion tafakkurini shakllantirishda ta'lim jarayonlari va ijtimoiy hayot o'rtasida o'zaro aloqadorlikka asoslangan qonun va qonuniyatlar doimiy mavjud bo'ladi. Bu jihatlar inson borlig'ining mavjudlik va har doim taraqqiyotga moyillik xususiyatlarini belgilab beradi. Mazkur xususiyatlarni dinamik va barqaror rivojlanishini ta'minlash ta'lim tizimida olib borilayotgan jarayonlarini innovatsion asosda tashkil etish darajasi bilan bog'liqdir. Ta'lim tizimini falsafiy mushohada qilish talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirish xususiyatlarini ham qonuniyatlarini belgilab beradi. Falsafa ilmidagi mavjud bo'lgan inkorni inkor qonuni talabalar innovatsion tafakkurini rivojlanishida eskidan mavjud bo'lgan jarayonlarni inkor qilib, yangi qadriyatlarni yaratish borasidagi mazmun bilan mos keladi.

Ta'lim jarayonida talabalar innovatsion tafakkurini shakllantirishni nazariy va amaliy jihatlarini tushunish, uni pedagogik-psixologik jihatdan idrok etishda quyidagi jahonda e'tirof etilgan quyidagi xususiyatlarni e'tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Tezkor o'zgarib borayotgan, taraqqiyot

ko'lami kengayib borayotgan zamonaviy sharoitda jamiyatni jadal islohotlar va innovatsion shakllantirishga insonlarni har tomonlama tayyorlash;

2. Globallashtirish an'analarning tezkor kirib kelishi, axborotlashgan jamiyat keng ko'lamli xususiyatlari jadal namoyon bo'layotgan bir davrda xalqaro ilmiy va madaniyatlararo munosabatlar, ma'naviy va ma'rifiy bag'rikenglik jarayonlariga ehtiyojning ortib borishi sharoitida ta'lim jarayonlari faolligini oshirish;

3. Yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning qobiliyatlari, intilishlari va ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish maqsadida xalqaro miqyosda ta'lim sohasida integratsiyani tashkil etishga qaratilgan qadriyatlarni vujudga kelish jarayonini tezlashtirish;

4. Jamiyatda demokratik an'analarning tezlashuvi, plyuralizm, fikrlar xilma-xilligi, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi, ta'lim tizimida tanlovning yuqoriligi sharoitida yosh avlod fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faolligini oshirish.

Ta'lim jarayonida talabalar innovatsion tafakkurini shakllantirishning yana bir asosiy xususiyatlaridan biri, ta'limning insonni ijtimoiy asosda shakllanishi va inson taraqqiyotiga mo'ljallanganligidir. Har ikkala jihat ham jamiyatning umumiy taraqqiyotiga xizmat qiladigan jarayon hisoblanadi. Inson taraqqiyotining asosiy xususiyatlari uning ongi va tafakkurining mukammalligi, yangiliklar va zamonaviy qadriyatlarga moyilligi, jamiyatda mavjud bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoji, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yechishga qodirligi kabilar bilan o'lchanadi. Shuningdek, "Rim klubi olimlari 1974-yilda "Ta'limda chegara yo'q" nomli ma'ruzasida ta'limni rivojlanishini ta'minlovchi va qo'llab-quvvatlovchi asosiy

1 Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent, O'zbekiston, 2017 . – B. 168.

manba bu, innovatsiyalar ekanligini ta'kidlagan"².

Bugungi kunda demokratik davlat jamiyat ma'naviy hayotini takomillashtirish, jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ilm-fanni taraqqiy ettirishga ko'proq e'tibor qaratadi. Davlat ta'lim va ma'naviyatining homiysi sifatida ta'lim-tarbiya sohasida tub islohotlarni amalga oshiradi. Yuksak ma'naviyat taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jamiyatda demokratik davlatning ijtimoiy tayanchi, iqtisodiy farovonlikni ta'minlovchi innovatsion vosita hisoblanadi. Demokratik jamiyatning shakllanishi va taraqqiyotini innovatsion ta'limsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Jamiyat haqidagi har qanday tasavvurlar ta'lim tizimining ham maqsad va mazmuniga to'liq mos keladi, undagi jarayonlarni g'oyaviy ta'minotini tashkil etadi, chunki ta'lim jamiyat ijtimoiy sohasining asosiy substansional qismlaridan biri hisoblanadi.

Birinchidan, ta'limning ko'pgina modellari, ya'ni erkin bilim olish jarayonlaridan tortib, shaxsga yo'naltirilgan ta'limgacha bo'lgan oraliqdagi barcha davrlarda pedagogik antropologiya muhim rol o'ynab kelgan. Boshqacha qilib aytganda, ta'limni rivojlanishi bilan bog'liq har qanday g'oyalarning amaliy ro'yobi pedagogik tafakkur tarzining hosilasi sifatida qaralishi lozim, pirovardida sohada ta'lim amaliyotida yangicha tadqiqotlar, texnologik va uslubiy jarayonlar vujudga keladi.

Ikkinchidan, pedagogik bilimlar ta'limning metodologik asosini tashkil etadi. Ya'ni u pedagogik faoliyatda tadqiqotlar olib borish, loyihalash va ta'lim jarayonini uslubiy va innovatsion tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Aynan pedagogik tadqiqotlar ta'limda tizimli, faoliyatga asoslangan, madaniy va qadriyatlarga oid yondashuvlarni qabul qilishga turtki berib, ta'lim sohasini rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Uchinchidan, o'tgan asrning boshlarida pedagogika fani doirasidagi g'oyalardan jamiyatda ijtimoiy-gumanitar sohalaridagi muammolar yechimlari topila boshlagan, xususan ta'lim sohasida ham turli vazifalarni yechimiga turtki berilgan. Mazkur muammolarni yechimidagi turli-tuman qarashlar va yondashuvlar ta'lim tizimini nazariy qismini yaratish va amaliy asoslarini tashkil etishda muhim o'rin tutadi.

To'rtinchidan, ta'limga oid qarashlar sohaning jamiyatda tutgan o'rni va maqomini tushuntirish, tizimda beqaror, ziddiyatli va muammoviy vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan muhim xususiyatlarni aniqlashtirib olishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik bilimlarni ta'lim jarayonlarining rivojlanishiga ta'siri yuzasidan bilimlar shakllangan bo'lsa-da, ular tizimlashmagan. Bugungi kunda mazkur bilimlarni bir tizimga solish, ularni metodologik jihatdan tartibga solish, pedagogik tasavvurlar va bilimlarni uyg'unlashtirish borasida amaliy tadqiqotlar olib borilishi maqsadga muvofiq.

Ta'lim tizimida talabalar innovatsion tafakkurini shakllantirishning sinergetik xususiyatlar o'z-o'zini rivojlantiruvchi jarayonlarga uzviy bog'liq bo'lishi bilan birgalikda, tizimdagi jarayonlarni tashkil etish, modellashtirish, loyihalashtirish va istiqboldagi rivojini prognozda qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan ham sinergetikani ta'lim sohasida talabalar innovatsion tafakkurini shakllantirishda tatbiq etish mumkin.

M.Boguslavskiyning ta'kidlashicha, "Jahon ta'lim tizimining tuzilishini yangidan anglash uchun qulay imkoniyatlar bilan bir qatorda sinergetika ham uning dinamikasini samarali tushunishga yordam beradi. Dunyo tarixiy-pedagogik jarayonining genezisi jarayonida sinergetika yangi ilmiy g'oyalar, tushunchalar, gipotezalar, faktlar va nazariyalar o'rtasidagi turli

2 Виндельбанд В. Избранное: Дух и история. Пер. с нем. – Москва, Юрист, 1995. – С. 687.

xil noxiziqli aloqalar orqali ham hosil bo'ladi"³. Demak, mazkur jarayonlar o'z-o'zini tashkil etish qonuniyatlariga muvofiq tarzda vujudga kelib, ta'lim jarayonlariga turli xil ichki va tashqi komponentlar natijasida rivojlanib boradi.

Talabalar innovatsion tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish dolzarbligi bugungi tez sur'atlarda o'zgarayotgan dunyoda ta'limning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu mavzu falsafiy va pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan keng tahlil etilishi mumkin.

Jahon falsafasi qomusida "Tafakkur – inson ma'naviyatining tarkibiy qismi, bilish olamidagi narsa va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlarni aks ettiradigan aqliy bosqichi; obyektiv olam in'ikosining oliy shakli, tushunchalar, nazariyalar va h.k. larda narsa va hodisalarning muhim bog'lanish va aloqalarini aks ettirish, yangi nazariya, g'oya yaratish, bo'lajak jarayonlarni bashorat qilish kabilarda namoyon bo'ladigan faol jarayondir"⁴.

Tafakkur – obyektiv voqea va hodisalarning faol in'ikosi bo'lib, u shaxsda bilimlarning tizimli ketma-ketlikda: tushuncha, mulohaza, fikr, xulosa, nazariyalar tarzida hosil bo'lishini inobatga oladi. Ya'ni, tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq, to'liq, chuqur va umumiy lashtirib aks ettirishga, insonning yanada oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi.

Psixologik nuqtayi nazardan, tafakkur – predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlaydigan, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi⁵.

Innovatsion tafakkur insonlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar doirasidagi vazifa va majburiyatlarni bajaradigan hamda uning yordamida boshqariladigan tizimlar, zamonaviy tahlillar va katta ma'lumotlarga ega dasturlarni o'z ichiga oladi. Innovatsion tafakkur tizimlari ushbu bilimlar zaxirasidan kognitiv funksiyalarga yaqin qarorlar qabul qilish va chora-tadbirlar belgilashda, shu jumladan sohalarni o'rganish va muammolarni hal qilishda foydalaniladi.

Ta'lim tizimida talabalar innovatsion tafakkurini shakllantirishga pedagogik va psixologik jihatdan ta'sir ko'rsatuvchi omillar quyidagilar:

Motivatsiya va qiziqish. Motivatsiya – bu insonni ma'lum bir faoliyatni amalga oshirishga undaydigan ichki yoki tashqi kuchlar majmuasi. Ta'limda motivatsiya talabani o'rganishga, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga, ijodiy va innovatsion faoliyatga faol jalb etadi. Qiziqish – bu ma'lum bir predmetga, faoliyatga yoki mavzuga nisbatan yuzaga keladigan ichki rag'bat, diqqat va intilish holati. Qiziqish o'rganish jarayonining asosi bo'lib, o'quvchi yangi bilimlarni qiziqish bilan o'zlashtiradi, natijada innovatsion yondashuvlarni yaratishda faol bo'ladi.

Talabalarning innovatsion tafakkurini shakllantirishda ularning ichki motivatsiyasi va o'rganishga bo'lgan qiziqishi katta ahamiyatga ega. Pedagoglar yangi bilimlarni qiziqarli, amaliy va talabalar uchun dolzarb qilib yetkazishlari lozim.

Ijodkorlikni rivojlantirish. Ijodkorlik – bu yangi, original g'oyalar, yondashuvlar yoki mahsulotlarni yaratish qobiliyati. Bu insonning fikrlashdagi erkinligi, yangi muammolarni hal qilishdagi innovatsion yondashuvi, shuningdek, mavjud bilimlarni yangicha usulda qo'llashidir.

3 Богуславский М. История педагогики: методология, теория, персоналии. – Москва, Издательский Центр ИЭТ, 2012. – С. 61.

4 Nazarov Q. Jahon falasafasi qomusi, II-kitob. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar jamiyati, 2022. – B. 288

5 Abduraxmanov A., Iskanov M. O'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati hamda ilmiy-pedagogik asoslari. "Ijodiy pedagogika: ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuv" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, 43-bet. Toshkent 2025-yil 4-aprel

Psixologik nuqtayi nazardan ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish innovatsion tafakkurning asosi. Masalan, muammolarni yangi usullar bilan hal qilishga o'rgatish, loyihaviy ishlar va guruhda ijodiy faoliyatni tashkil etish muhim.

Mustaqil fikrlashni qo'llab-quvvatlash. Mustaqil fikrlash – bu shaxsning o'z fikrini shakllantirishi, mavjud ma'lumotlarni tahlil qilishi, tanqidiy qarorlar qabul qilishi va o'z nuqtayi nazarini asoslash qobiliyatidir. Bu o'quvchining tashqi ta'sirlardan mustaqil ravishda o'z fikrini yaratishi va izohlashi demakdir. Pedagogika mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga katta e'tibor beradi. Bu talabalarni yangi fikrlar yaratishga undaydi.

O'quv muhitining yaratilishi. O'quv muhiti – bu o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun yaratilgan tashkiliy, pedagogik, psixologik, moddiy-texnik sharoitlar majmuasi. U ta'lim oluvchi shaxsning bilim, ko'nikma va tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Inson psixologiyasi nuqtayi nazaridan, xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitida talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda eta oladi, xatolaridan o'rganadi va yangi g'oyalarni sinab ko'rishdan cho'chimaydi.

Individual xususiyatlarni hisobga olish. Individual xususiyatlar – bu har bir talabaning shaxsiy, psixologik, intellektual, qiziqish va ehtiyojlarga xos o'ziga xosliklaridir. Individual xususiyatlar talabalarning o'ziga mos ta'lim shaklida faoliyat yuritishi innovatsion fikrlashni samarali shakllantiradi. Har bir talabaning qiziqishlari va qobiliyatlariga mos keluvchi vazifalar va loyihalar berilishi, ularning ijodiy va mustaqil fikrlashini kuchaytiradi. Individual yondashuv orqali har bir talabani o'z salohiyatini to'liq namoyon etishga undash mumkin bo'ladi.

Bu yondashuv talabalarni psixologik jihatdan qulay muhitda o'qishga, yangi g'oyalarga ochiq bo'lishga tayyorlaydi⁶.

Talabaning innovatsion tafakkurini shakllantirishga ko'maklashadigan didaktik vositalar sirasiga o'quv materiallari, savol va topshiriqlar, badiiy asarlarni kiritish mumkin. Bunda pedagogika turkum fanlari qulay imkoniyatlarga ega. Talabalarning innovatsion tafakkurini rivojlantirish ko'nikmalarini namoyon qilishini har doim pedagoglar, otalar qo'llab-quvvatlashi, mazkur ko'nikmalarni rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishi lozim. Innovatsion tafakkur talaba shaxsining ijodiy quvvatlari, ichki imkoniyatlarining namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Mutafakkir ajdodlarimiz yoshlarda kreativ va innovatsion fikrlashning shakllanishiga alohida e'tibor qaratganlar.

Talabalarni innovatsion tafakkurini rivojlantirishda dars va darsdan tashqari pedagogik jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarni innovatsion tafakkurini rivojlantirishda barcha boshqa vositalar bilan bir qatorda o'qituvchining kasbiy mahorati va kompetensiyasi muhim o'rin egallaydi. Bu jarayonda pedagogika turkum fanlarini o'qitish jarayonida qo'llaniladigan evristik topshiriqlardan keng ko'lamda foydalanish tavsiya etiladi. Evristik topshiriqlar talabalarda kasbiy xarakterdagi kreativ ko'nikmalarning hosil bo'lishida muhim o'rin egallaydi. Chunki ushbu topshiriqlarni yechish davomida talabalar ijodiy izlanishga muvaffaq bo'ladilar. Evristik topshiriqlar talabalarni ijodiy izlanishga va ijodiy faoliyat natijasini namoyon etishga undaydi. Talabalarning innovatsion tafakkurini rivojlantirish faoliyatlari natijalarning muntazam nazorat qilish va takomillashtirish professor-o'qituvchilardan alohida kasbiy mahorat va ijodkorlikni talab qiladi⁷.

6 Tursunov, M., & Rasulov, D. (2018). Innovatsion ta'limda talabalar motivatsiyasining o'rni. Ta'lim va psixologiya jurnali, 3(12), 45–52.

7 Safarova R. Innovatsion yondashuv asosida pedagogika turkum fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari. "Pedagogik fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar: muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 88–90 bet, Qo'qon 2023–yil

Talabalar innovatsion tafakkurini shakllantirish – zamonaviy ta'lim va tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon pedagogik jihatdan inson tafakkurining rivojlanish bosqichlarini, pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan esa shaxsning ichki imkoniyatlarini, ta'lim muhitini va o'qitish metodikasini o'z ichiga oladi. Innovatsion tafakkur rivoji – bu jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti uchun zaruriy shartidir.

Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va takomillashtirish yo'nalishidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishda ma'ruza, seminar, davra suhbat, tadbirlar, treninglar, konferensiya, ekskursiya, mustaqil ta'lim, pedagogik amaliyot, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash jarayonlarini murakkab tizim sifatida ko'rib chiqib, ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash zarur hisoblanadi.

Ushbu jarayonlarning aloqadorligini ta'minlashda pedagogik jarayonlarni ma'lum bir izchillikda tizimli va samarali tashkil etish

talab etiladi. Undagi mavzularning mazmun-mohiyatiga ko'ra o'zaro bog'liq holda ketma-ketligini ta'minlash, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida o'rganiladigan mavzular bilan talabalar mustaqil o'rganadigan mavzularni belgilashda ularning izchilligiga hamda mavzularni parallel o'rganish mumkinligiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida talabalar innovatsion tafakkurining mukammalligi ta'limni modernizatsiya qilishning muhim elementi hisoblanadi. Bu jarayonni samarali ta'minlash uchun ta'lim tizimida tuzilmaviy, tizimli va funksional darajadagi o'zgarishlarni ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda ta'lim ishtirokchilarining kasbiy mahorati, zamonaviy axborotlar va ma'lumotlar bilan ta'minlanganligi, psixologik va pedagogik tayyorgarligi kabi omillar muhim rol o'ynaydi. Mazkur o'zgarishlar ta'limni tubdan isloh qilish va qaytadan tashkil etish bilan bog'liq vazifalarni bajarilishini ta'minlaydi.

КОРПОРАТИВНАЯ КУЛЬТУРА ПЕДАГОГОВ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ С СЕМЬЯМИ, ЕЁ СПЕЦИФИКА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СФЕРЕ

Шохноза Абдуразаковна Буранова – д.ф по п.н (PhD), доцент,
Джизакский государственный педагогический университет

Аннотация. В данной статье раскрывается определение корпоративной культуры педагогов ДОО, её специфика в образовательной сфере, ключевые элементы (ценности, традиции, нормы поведения, стиль общения, мотивацию), а также функции (формирование единого организма, адаптацию, мотивацию) и преимущества для коллектива и организации в целом. Как корпоративная культура влияет на самореализацию педагогов, и на участников учебного образовательного процесса (родители) и формирует единого вектора развития.

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarning korporativ madaniyatining ta'rifi, uning ta'lim sohasidagi o'ziga xos xususiyatlari, asosiy elementlari (qadriyatlar, an'analar, xatti-harakatlar normalari, muloqot uslubi, motivatsiya), shuningdek vazifalari (yagona organizmni shakllantirish, moslashish, motivatsiya) va jamoa va umuman tashkilot uchun afzalliklari yoritilgan. Korporativ madaniyat tarbiyachilar va ta'lim jarayoni ishtirokchilarining (ota-onalar) o'zini o'zi anglashiga qanday ta'sir qiladi va tashkilotning yagona vektorini tashkil qilishi haqida.

Abstract. This article reveals the definition of the corporate culture of preschool teachers, its specifics in the educational sphere, key elements (values, traditions, norms of behavior, communication style, motivation), as well as functions (formation of a single organism, adaptation, motivation) and advantages for the team and the organization as a whole. How corporate culture influences the self-realization of teachers and participants in the educational process (parents) and forms a single vector of development.

Ключевые слова: взаимодействие, корпоративная культура, готовность к школе, формы работы, ценности, традиции, нормы поведения, стиль общения, мотивация.

Kalit so'zlar: o'zaro munosabat, korporativ madaniyat, maktabga tayyorgarlik, ish shakllari, qadriyatlar, an'analar, xatti-harakatlar normalari, muloqot uslubi, motivatsiya.

Keywords: interaction, corporate culture, preparation for school, forms of work, values, traditions, norms of behavior, communication style, motivation.

Цели и задачи современного дошкольного образования связаны со всесторонним развитием дошкольника, подготовка к обучению в школе, формирование здоровой, развитой, свободной личности ребёнка, раскрытие его способностей. Сегодня всё кардинально изменилось. Так, в целях разработки и реализации единой государственной политики в сфере дошкольного образования, созданы благоприятные условия для всестороннего развития подрастающего поколения в полной мере их творческого потенциала. Важным документом в сфере стал принятый в 2019 году Закон «О дошкольном образовании и

воспитании», где впервые предусмотрено внедрение государственных образовательных стандартов дошкольного образования, прописан профессиональный стандарт педагога ДОО. Само название Закона свидетельствует о том, что дошкольная образовательная организация – это не только место для обучения, но и воспитание детей. Документ определяет дошкольное образование и воспитание как вид непрерывного образования, направленный на обучение и воспитание детей, их интеллектуальное, духовно-нравственное, этическое, эстетическое и физическое развитие, а также подготовку детей к общему

среднему образованию¹.

Дошкольным возрастом, согласно Закону, считается возраст детей от рождения до 7 лет, до момента предоставления ему начального образования. В Законе даются государственные гарантии на получение дошкольного образования и воспитания: «Каждый ребёнок имеет право на дошкольное образование и воспитание. Государство гарантирует право каждого ребёнка на получение в государственных и негосударственных дошкольных образовательных организациях подготовки к общему среднему образованию до его поступления в организации общего среднего образования».

Воспитателей дошкольных образовательных организаций, школьных учителей, профессоров и преподавателей, научную и творческую интеллигенцию мы считаем четырьмя важнейшими опорами в формировании эпохи нового Возрождения». Действительно, сегодня в стране ведётся беспрецедентная работа по развитию неразрывно связанных между собой систем дошкольного, школьного, высшего образования, научно-исследовательских учреждений. Но, как подчеркнул лидер страны, до начала нынешних реформ сфера дошкольного образования оставалась без внимания. А ведь именно она имеет огромное значение в жизни общества как самое главное звено в воспитании детей. Забота и внимание, уделяемые этой сфере, закладывают основу будущего прогресса.

Как известно, социальное окружение и семья имеют важнейшее значение в процессе формирования детского сознания. Ещё до начала школьного образования семья закладывает в ребёнке определённое

отношение к явлениям окружающего мира, прививают ему определённые стереотипы мышления и поведения, присущие данному сообществу (социальному слою). Самые первые свои представления ребёнок получает в семье, а затем, по мере расширения повседневной сферы общения, становится все более восприимчив к воздействию находящихся рядом людей, как взрослых, так и ровесников. Усваивая обычаи, суждения, взгляды, представления и предрассудки, присущие этому окружению, дети превращаются в их носителей, а затем и трансляторов следующим поколениям.

Достичь высокого качества образования наших воспитанников, полностью удовлетворить запросы родителей и интересы детей, создать для ребёнка единое образовательное пространство возможно только при условии разработки новой системы взаимодействий дошкольной образовательной организации, семьи и махалли. Построение взаимоотношений между негосударственной дошкольной образовательной организацией, семьёй и махаллём в системе партнёрства является неотъемлемой частью обновления содержания работы дошкольной образовательной организации в условиях реализации государственного образовательного стандарта дошкольного образования и воспитания².

В настоящее время построению партнёрских доверительных отношений между родителями и дошкольной образовательной организацией уделяется большое внимание как со стороны органов, осуществляющих государственную политику в сфере дошкольного образования и воспитания, так и самими педагогическими коллективами. Изменение нормативно

1 «Закон о дошкольном образовании и воспитании Республики Узбекистан» ЗРУ-595 Т.: 2019 год

2 «Государственный стандарт дошкольного образования и воспитания Республики Узбекистан» ПКМ-802 Т.: 2020 год

- правовой базы, регулирующей эти взаимоотношения, повлекло за собой формирование нового взгляда, как на статус родителя, махалли, так и на педагога дошкольной образовательной организации. Однако новые подходы к взаимодействию с семьями определены не только в государственной учебной программы дошкольного образования и воспитания, но и в целом изменениями в обществе, в системе ценностей современной семьи, запросами сегодняшних родителей на воспитательно-образовательные услуги дошкольной образовательной организации. Сотрудники ДОО не просто присматривают за детьми, пока родители на работе, но и создают условия для укрепления их физического здоровья, для социально-личностного, индивидуального, художественно-эстетического развития, обучают по общим и коррекционным программам, готовят к поступлению в школу.

Воспитатели обязательно должны взаимодействовать с семьями детей, а также махаллэй. Их сотрудничество – это путь к качественному образованию и воспитанию подрастающего поколения. Сотрудничество семьи, дошкольной образовательной организации и махалли становится всё более актуальным и востребованным. Однако, сотрудничество этих сфер необходимо для формирования всесторонне развитой личности. Влияние махалли играет немало важную роль в формировании личности ребёнка, оно социализирует его. Позиции общества влияют на формирование целого поколения. Каждый ребёнок вступает в многообразные отношения со множеством людей: в своей семье он сын или дочь, брат или сестра, в школе – учащийся, в спорте – спортсмен, в автобусе – пассажир и т. д. Во всех этих отношениях ребёнок проявляет

свои личные качества: самоуверенность, скромность, доброжелательность, ответственность, дисциплинированность, равнодушие, эгоизм и другое. Мы глубоко изучили, как формируется детское поведение, какую роль играет в этом семья, дошкольная образовательная организация и махаллинское общество. И от того, какое влияние оказывают на ребёнка эти три компонента, зависит его формирование как личности. Семья – первичная ячейка махалли, члены которой связаны родственными и хозяйственными связями. Семья содействует выработке многих навыков и привычек – трудовых, гигиенических, культурных и моральных. В семье воспитывается характер, формируются убеждения³. Эти убеждения, сформированные в детстве, наиболее прочные, действенные. В махалле и семье дети знакомятся с отношением взрослых к своим обязанностям, труду, к происходящим событиям, их мнение всегда оказывает большое влияние на детей, на их поступки. Тот факт, что человек узнает большую – часть информации о мире в детском возрасте, заставляет постоянно задумываться над вопросом о подготовке тех, кто работает с детьми.

Значение дошкольного образования в жизни общества нельзя переоценить, так как эта система является важнейшим звеном в воспитании подрастающего поколения. Вне всякого сомнения, дошкольное образование закладывает прочную основу для великого будущего Родины. Семья, безусловно, играет ключевую роль в воспитании детей. При этом дошкольная образовательная организация в данном отношении становится все более важной. «Образование и воспитание детей – это огромные инвестиции в будущее. Мы должны подходить в этом вопросе именно так и стремиться дать нашим детям лучшее

3 Мелиев Х., Буранова Ш. Махалла, оила ва мактабгача таълим ташкилоти ҳамкорлик тизими ишларини такомиллаштириш. // Монография. – ЖДПИ. Таҳририй-нашриёт бўлими, 2021. –108 б.

образование.

Дошкольная образовательная организация более функционально, как учебное заведение, где дают знания и воспитывают из них культурных людей. Но с возрастом эти цели меняются и здесь, дошкольная образовательная организация должна поддерживать эти цели, а родители помогать. В чём заключается взаимодействие семьи и дошкольной образовательной организации? Работа дошкольной образовательной организации с семьей включает в себя педагогическое просвещение родителей, привлечение их к непосредственному участию в деятельности дошкольного коллектива, организацию единой системы воздействия на ребёнка в дошкольной образовательной организации и семье. С чего же дошкольной образовательной организации следует начинать организацию педагогического взаимодействия с семьей? Чтобы вовлечь родителей в самостоятельную работу по изучению педагогической теории в дошкольных образовательных организациях организовали педагогические семинары. Участники семинара слушали лекции, знакомились с лучшим опытом семейного воспитания, получали ответы на сложные вопросы воспитания, самостоятельно изучали педагогическую литературу. Консультации для родителей, где родители могут индивидуально поговорить с воспитателем на любую интересующую их тему. Часто родители, придя на консультацию, не только ждут ответа на возникший вопрос, но и стремятся проверить своё мнение, убедиться в правильности своих воспитательных приёмов. Конференции родителей по вопросам семейного воспитания, где на всеобщее обсуждение выдвигаются общие

вопросы семейного воспитания.

Большим воспитательным потенциалом обладает диалоговое взаимодействие. Оно предполагает равенство позиций педагогов, детей и родителей, уважительное, положительное отношение взаимодействующих сторон друг к другу. Как показывает опыт, наиболее эффективным является сотруди́ческий тип взаимодействия. Сотруди́чество дошкольной образовательной организации, семьи, общества обусловлено следующими обстоятельствами: единым объектом, общими целями и задачами воспитания детей, необходимостью согласованности действий трёх феномена, возможностью взаимного обогащения их. Основой сотруди́чества ДОО, махалли и семьи является общая цель создания благоприятных условий для полноценного социального становления, воспитания и обучения детей⁴.

Проблема взаимодействия дошкольной образовательной организации и семьи в последнее время попала в разряд самых актуальных. Каким бы серьёзным ни был образовательно-воспитательный процесс в ДОО, формы воспитания, квалификация специалистов, цель гармоничного развития ребёнка не может быть достигнута без постоянной поддержки и активного участия родителей, махалли. Всестороннее развитие личности ребёнка требует единства и последовательности всей системы образования взрослых и воспитания ребёнка⁵. Качество образования, дальнейшее развитие ребёнка во многом зависит от успешной совместной работы семьи, махалли, ДОО. Особенность махалли в том, что все жители живут в мире и согласии между собой, проявляют уважение и

4 Мелиев Х, Буранова Ш. The continuity of neighborhood, family and preschool educational organization as a condition of successful adaptation to school life // Scopus, Journal of critical reviews. ISSN- 2394-5125. Issue 11, Vol – 7. 2020 May 5. (Scopus).

5 Буранова, Ш. А., & Пак, Д. А. (2021). Развитие навыков письма у дошкольников в раннем возрасте. Новая наука: история становления, современное состояние, перспективы развития (стр. 142-143).

заботу к старшим, помогают друг другу, следят за чистотой и порядком на улице. Всестороннее развитие личности ребёнка требует единства и последовательности всей системы образования взрослых и воспитания ребёнка. Роль одной семьи в создании такой гармонии невозможно переоценить, и, конечно же, доказан вклад махаллинской общечественности.

KASBIY KOMPETENTLIK NEGIZIDA AKS ETUVCHI SIFATLAR

Mubinaxon Xakimjon qizi Ikramova – p.f.b.f.d.
(PhD), Qo'qon davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada respublikamizda Texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlariga oid umumiy fikrlar keltirilgan. Respublikamiz va chet el olimlarining ilmiy izlanishlari davomida kompetensiyaga berilgan mualliflik ta'riflari keltirib o'tilgan.

Аннотация. В статье представлены общие представления о качествах учителей технологий нашей Республики, отражающих их профессиональную компетентность. Приведены авторские определения компетентности, данные в ходе научных исследований учёными нашей республики и зарубежья.

Abstract. This article presents general ideas about the qualities of teachers of Technology in our republic that reflect their professional competence. The author presents definitions of competence proposed by national and foreign scholars in the course of their scientific research.

Kalit so'zlar: ta'lim, muhit, texnologiya, asoslar, o'qituvchi, fan, texnika, malaka, bilim, ko'nikma, rivojlantirish, kompetensiya, kasbiy, mazmun.

Ключевые слова: образование, окружающая среда, технологии, основы, учитель, наука, техника, квалификация, знание, умение, развитие, компетентность, профессионал, содержание.

Keywords: digitization, education, environment, technology, basics, teacher, science, technique, competence, knowledge, skill, development, competence, professional, content.

Hozirgi davrda rivojlangan davlatlarning ta'lim standartlarida talabalarning global ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda asosan mavjud ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, imidj yaratish texnologiyalari, yangi pedagogik-psixologik loyihalar, modulli texnologiya asosida o'zlashtirish natijalarini baholash tizimi katta ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim mazmunini asoslash didaktikaning eng muhim va an'anaviy muammolaridan biridir. Ta'lim mazmunining ijtimoiy mohiyati va pedagogik mansubligini hisobga olgan holda, uni ta'lim tizimiga qaratilgan ijtimoiy buyurtmaning pedagogik modeli sifatida belgilash mumkin. Ushbu model ko'p darajali ierarxik tuzilishga ega.

Har qanday ta'lim muassasasi oldida turgan eng qiyin vazifa ta'lim sifatini oshirishdir. Ushbu muammoni hal qilishda o'qituvchining kasbiy malakasi katta rol o'ynaydi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishi bevosita o'qituvchining kasbiy darajasiga bog'liq.

Zamonaviy ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar o'qituvchining malakasi va kasbiy mahoratini oshirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Ta'lim tizimiga kompetentli yondashuv xorijiy psixologik-pedagogik adabiyotlarda XX asrning 60-yillarida shakllana boshlanib, "Kompetentsiya" masalasi ko'p yillardan buyon olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda.

Kompetentsiya: birinchidan, muayyan davlat organi (mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, nizom yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; ikkinchidan, u yo bu sohadagi bilimlar, tajribalar hisoblanadi.

N.A.Muslimovning "Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida inglizcha "competence" tushunchasining lug'aviy ma'nosi «qobiliyat» demak, biroq kompetentsiya atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni

ifoda etishga xizmat qiladi.

Kompetensiya so'zi "to compete" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "musobaqalashmoq", "raqobatlashmoq", "bellashmoq" degan ma'noni bildiradi. So'zma-so'z tarjima qilinsa, "musobaqalashishga layoqatlilik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "muvaqqafiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "o'quvlik", "xossa", "xususiyat", "sifat", "miqdor" kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanadi.

Kompetentlik tushunchasining lug'aviy ma'nosi turli tillarda quyidagicha izohlangan: competent (fransuz tilida) – vakolatli; Competent (lotin tilida) – qobiliyatli; Competence (ingliz tilida) – qobiliyatli.

Ingilizcha "Competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, maxorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi¹.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas,


balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid vazifalardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda xarakat rejaciga ega bo'la olishda;

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samapali qo'llaydi.

Kasbiy kompetentlik sifatlari. Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:



1-rasm. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar

1 N. A. Muslimov "Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped.fan.dokt. ... Diss. – Toshkent, 2007. – 45 b.

A. R. Jo'rayevning fikricha, kompetentlik – bu faqatgina o'zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi hamda salmoqli hajmi bo'libgina qolmasdan, balki ularni kerak vaqtda qo'llay olish va o'zining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida ulardan foydalana olish demak².

S.I.Ojegov bu tushunchalarni rus tili izohli lug'atida quyidagicha izohlaydi: "Kompetensiya – 1. Biror kishi juda yaxshi bilgan yoki xabardor bo'lgan masalalar doirasi. 2. Biror kishining vazifalari, huquqlari doirasi"³.

V.S.Elegina va S.M.Roxleboevlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida quyidagilarni bildirdilar: "Kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida o'quvchi o'z faoliyatidan ijobiy natija oladi va shu bilan birgalikda, muvaffaqiyat qozonish usullari, yo'llari metodlari, yondashuvlarini o'zlashtirib oladi. Aynan o'quvchi tomonidan yaratilgan ijodiy natija o'quvchi bilan o'qituvchi hamkorligidagi ijodiy natijasi hisoblanadi. O'quvchining bilimini rivojlantirishga baho berishdan maqsad, berilgan ta'limning samaradorlik darajasini aniqlash, birinchidan, maktabda olgan nazariy bilimlari darajasini bilish; ikkinchidan, undagi kompetensiyaning shakllanishi, amaliyot vaqtidagi samarali faoliyati yanada tezlashadi"⁴.

Kasbiy kompetensiya – bu shaxsning kasb talablariga muvofiqligi darajasining individual xususiyati hisoblanadi. Agar biz malakaning kasbiy mahorat darajalari tizimidagi o'rnini aniqlashga harakat qilsak, u mehnasevarlik va komillik o'rtasida bo'ladi. Mutaxassisning yetukligining turli jihatlari bilan kasbiy mahoratni to'g'rilashda professional kompetensiyaning to'rt turi ajratiladi: maxsus, ijtimoiy, shaxsiy va individual. Agar biz kompetensiyani ochib

beradigan bo'lsak, unda uning o'ziga xos funksiyalari borligini ko'ramiz: kognitiv, tartibga solish, nazorat va baholash funksiyasi, o'z-o'zini baholash. Olimlarning fikricha, kasbiy kompetensiya pedagogik malakaning eng yuqori darajasidir. Bu o'z sohasidagi mahorat va innovatsiyalarning mahoratidir. Umuman olganda, kasb-hunarni o'zlashtirgan holda yuksak talablarga amal qiladigan, o'ziga xos ijodiy hissi bilan kasb tajribasini boyitgan shaxs sifatida tavsiflash mumkin.

O'rganilayotgan muammo bo'yicha keng ko'lamli ilmiy va uslubiy ishlarni tahlil qilish bizga kompetensiya tushunchasi va turlarini, shuningdek, zamonaviy o'qituvchining asosiy kompetensiyalarini ochib berishga yordam berdi. Pedagogik faoliyat yuqori saviyada olib boriladigan, talabalarning bilim olishida yaxshi natijalarga erishishdagi o'qituvchining vazifasi kasbiy malakasi hisoblanadi. Shaxsning eng yuqori tarkibiy qismi bu kasbiy kompetensiyadir.

O'qituvchining kasbiy malakasi – bu pedagogik faoliyatga yaqqol tayyorligi, uning mehnatga munosabati, shaxsiy fazilatlar, shuningdek, o'z ishini yangi, ijodiy tushunishga intilishi. Bu murakkab va ko'p qirrali hodisa hisoblanadi. Bu nafaqat o'qituvchining kasbiy asosiy bilimlari va ko'nikmalari, balki uning faoliyati motivlarining qadriyat yo'nalishlari, o'zini va atrofidagi dunyoni tushunishi, u ishlaydigan odamlar bilan munosabatlar uslubi bilan ham belgilanadi.


"Kompetensiya" tushunchasini birinchi marta amerikalik iqtisodchi R.Boysis ishlatgan. U buni o'z tadqiqotida muvaffaqiyatli mutaxassis unchalik muvaffaqiyatli bo'lmagan mutaxassisdan bitta omil bilan emas, balki bir qator omillar bilan farqlanishini aniqladi. Shunday qilib, kompetensiya deganda o'lchanishi

2 A. R. Jo'rayev "Dasturlashtirilgan ta'lim vositalari asosida bo'lajak kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish. Diss. ... p.f.f.d. (PhD) – T.: 2019. –144 b.

3 Ожегов С.И. Словарь русского языка: Ок. 57000 слов / Под ред. – 18-изд., стереотип. – М.: Рус. яз, 1986. – 347 с.

4 Елегина В.С., Похлебоев С.М. Компетентный подход к организации обучения студентов в педагогическом вузе: Фундаментальное исследование. – №3. – 2012. – С. 24–25

yoki ishonchli hisoblanishi mumkin bo'lgan har qanday individual xususiyatlar tushuniladi va ular ishning samarali va samarasiz bajarilishini farqlash uchun muhim ekanligi haqida bahslashish mumkin.



2-rasm. Kasbiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari

Kasbiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy-huquqiy kompetensiya – davlat muassasalari va odamlar bilan o'zaro munosabatlar sohasidagi bilim va ko'nikmalar, shuningdek, kasbiy muloqot va xulq-atvos uslublasini egallash;
- shaxsiy kompetensiya – uzluksiz kasbiy o'sish va kasbiy rivojlanish, shuningdek, kasbiy ishda o'zini-o'zi anglash qobiliyati;
- maxsus kompetensiya – faoliyatning muayyan turlarini mustaqil ravishda bajarishga tayyorlik, tipik kasbiy vazifalarni hal qilish va o'z ishining natijalarini baholash qobiliyati, mutaxassislik bo'yicha mustaqil ravishda yangi bilim va ko'nikmalarni egallash qobiliyati;
- avtokompetentlik – o'zining ijtimoiy va kasbiy xususiyatlarini yetarli darajada tushunish va kasbiy halokatni bartaraf etish texnologiyalarini o'zlashtirish;
- ekstremal kompetensiya – to'satdan murakkab sharoitlarda, baxtsiz hodisalar, texnologik jarayonlar buzilgan taqdirda harakat qilish qobiliyati.
- axborot – kommunikativ kompetensiya – bu o'qituvchining mustaqil ravishda va kasbiy

faoliyati davomida axborot texnologiyalaridan foydalanishga tayyorligi va qobiliyatidir.

– raqamli kompetensiya – aniq qurilmalar va ilovalardan qanday foydalanishni bilishdan ko'ra ko'proq narsani o'z ichiga oladi. Bu AKT bilan muloqot qilish ko'nikmalari hamda axborot ko'nikmalari bilan chambarchas bog'liq. AKTdan oqilona va sog'lom foydalanish huquqiy va axloqiy jihatlar, shaxsiy hayot va xavfsizlik, shuningdek, AKT ning jamiyatdagi rolini tushunish va texnologiyaga muvozanatli munosabatda bo'lish bo'yicha alohida bilim va munosabatlarni talab qiladi.

Kasbiy kompetensiya kasbiy va pedagogik mahoratning shakllanish darajasi bilan baholanadi. "Texnologiya" fani bo'lajak o'qituvchisining asosiy operatsion funksiyalari nuqtai nazaridan, kasbiy va pedagogik mahoratning bir nechta guruhlari ajralib turadi.

Kasbiy muhim fazilatlar – bo'lajak o'qituvchi shaxsi tarkibidagi muhim tarkibiy qism kasbiy jihatdan muhim fazilatlardir. V.D.Shadrikov kasbiy jihatdan muhim fazilatlarni faoliyatning samaradorligiga va uni o'zlashtirish muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi faoliyat sub'ektlarining individual fazilatlari sifatida tushunadi. U qobiliyatlarni ham kasbiy ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Pedagogik faoliyatning mahsuldorligi bo'lajak o'qituvchi shaxsining kasbiy muhim sifatlarini shakllantirishga ham bog'liq.

Kasbiy pedagogik faoliyatdagi ustuvor fazilatlar – bu shaxsiy faollik, fidoyilik, qat'iyatlilik, xamkasb o'qituvchilar bilan ishlashga intilish, ekstremal vaziyatlarda adashib qolmaslik, jozibadorlik, halollik, adolatlilik, zamonaviylik, pedagogik insonparvarlik, bilimdonlik, pedagogik takt, bag'rikenglik, intizom, pedagogik optimizm. Bundan tashqari, bu talabchanlik, ma'suliyat, muloqot qobiliyatlari kabi fazilatlarni o'z ichiga olishi kerak.

Pedagogik muhim fazilatlarga maqsadlilik

- o'z shaxsining barcha fazilatlarini qo'yilgan pedagogik maqsadlarga erishish uchun yo'naltirish va ishlatish qobiliyati va qat'iyatlilik
- har qanday pedagogik vaziyatlarda o'z harakatlarini nazorat qila olish ham kiradi. O'qituvchining jozibasi bo'lishi kerak, ya'ni, o'zida ma'naviyat, jozibadorlik va didning qotishmasini birlashtira olishi darkor. O'qituvchining tashqi ko'rinishi estetik jihatdan ifodali bo'lishi kerak. O'qituvchining kiyimidagi soch turmagi, libosi, taqinchoqlari o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Har bir narsada mutanosiblik hissi kuzatilishi kerak.

Zamonaviy o'qituvchining shaxsiyati ko'p jihatdan uning bilimdonligi va yuksak madaniyati bilan belgilanadi. Zamonaviy dunyoda erkin harakat qilishni istagan har bir kishi ko'p narsani bilishi kerak. Bilimdon o'qituvchi yuksak shaxsiy madaniyat tashuvchisi bo'lishi kerak, chunki u har doim o'quvchilar uchun vizual namunadir. O'qituvchi shaxsining kasbiy ahamiyatli fazilatlari, hayotning intellektual va hissiy-irodaviy tomonlari sifatida, kasbiy va pedagogik faoliyat natijasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va o'qituvchining individual uslubini belgilaydi. Ta'lim muhitini raqamlashtirish oliy ta'lim o'qituvchisining zamonaviy fenomenini shakllantirishni ta'minlaydi. Shu bilan bipga, oliy ta'lim tizimida bir-biri bilan o'zaro bog'liq va bir-biriga aloqador bo'lgan tarkibiy qismlar majmui bo'lgan raqamli transformatsiya muhitini loyihalash qobiliyatiga ega bo'lgan o'quv-uslubiy, moddiy-texnik, tashkiliy va kasbiy asoslasini qamrab oladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yuqorida keltirib o'tilgan mamlakatimiz, mustaqil davlatlar xamdo'stligi va xorijiy olimlar tadqiqot ishlari tahlillari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda raqamlashtirish hamda elektron didaktik ta'lim resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'QUVCHILARDA KREATIV QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIMNI AXBOROTLASHTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO EKANLIGI

Jo'rabek Egamberdiyevich Tursunov –p.f.b.f.d.
(PhD), Qo'qon davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'limdagi "Texnologiya" darslarida modernizatsiyalashgan Davlat ta'lim standarti mazmuniga ko'ra o'quvchilar texnologiya faniga oid bir qator bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari ko'zda tutilgan. Unga ko'ra o'quvchilar mehnat jarayoni haqida dunyoqarash, umummehnat bilim, ko'nikma va malakalariga ega bo'lish, kasb-hunarlar haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish, xalq xo'jaligi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari to'g'risida bilimlarga ega bo'lishi, turli materiallarga boshlang'ich badiiy ishlov berish ko'nikmalariga ega bo'lish, milliy mehnat an'analari, urf-odatlarini bilish, buyumning texnologik xaritasini tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishga oid vazifalarni hal etishga e'tibor qaratilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается решение задач, связанных с приобретением ряда знаний, умений и навыков по технологической науке на уроках предмета «Технология» в системе общего среднего образования, согласно содержанию модернизированного государственного образовательного стандарта. Согласно ему, учащиеся должны иметь представление о трудовом процессе, общие трудовые знания, умения и навыки, общее представление о профессиях, знания о народном хозяйстве, производстве и сфере услуг, базовые навыки художественной обработки различных материалов, знание национальных трудовых традиций и обычаев, а также навыки составления технологической карты объекта.

Abstract. This article focuses on solving tasks related to the acquisition of a number of knowledge, skills and qualifications in the science of technology in the lessons of "Technology" in general secondary education, according to the content of the modernized State Educational Standard. According to it, students should have a worldview about the labor process, general labor knowledge, skills and qualifications, a general idea of professions, knowledge about the national economy, production and service sectors, basic artistic processing skills for various materials, knowledge of national labor traditions and customs, and skills in preparing a technological map of an object.

Kalit so'zlar: loyiha, dizayn, kreativ shaxs, ijodkorilik, ijodiy fikrlash, qobiliyat, ijodiy qobiliyatlar, eskiz, model, maket, konveyer, modellashtirish, konstruktorlash.

Ключевые слова: проект, дизайн, творческая личность, креативность, творческое мышление, способность, творческие способности, эскиз, модель, макет, конвейер, моделирование, конструирование.

Keywords: project, design, creative personality, creativity, creative thinking, ability, creative abilities, sketch, model, layout, conveyor, modeling, construction.

Respublikamizda maktab ta'limini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish, ularni kasbiy o'sishini mustaqil rejalashtirishga o'rgatish, raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy kasblarni egallash layoqatini tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda. "Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida yangi, shu jumladan muqobil

yondashuvlarni o'rganishga va ilmiy asoslashga yo'naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, o'quv muddatlarini o'zgartirmagan holda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta'minlovchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish" o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etishning ustuvor yo'nalishlari

sifatida belgilangan¹. Bu esa, dizayn fikrlash va o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning o'zaro aloqadorligini asoslash, dizayn loyihalarnig o'quvchilarni kreativ qobiliyatlarini shakllantirishga doir didaktik imkoniyatlarini ochib berish, dizayn loyihalar asosida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning interfaol texnologiyalarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari "Texnologiya" fanining DTS va o'quv dasturi tahlilidan ayon bo'ladiki, dasturda o'quvchilarni dizayn (badiiy konstruksiyalash) asoslari bilan yaqindan tanishtirish, dizaynga oid bilim va ko'nikmalarni doimiy ravishda shakllantirib borish belgilangan. Mazkur dasturda 5-sinf o'quvchilari "dizaynerlik ishlaridan amaliy mashqlar bajarish. Kasblarga doir buyumlar va mahsulotlarning estetik va iqtisodiy jihatlari hisobga olgan holda loyihalash"ga oid bilim va ko'nikmalarini egallashi nazarda tutilgan". 6-sinfda esa, o'quvchilar "...oddiy buyumlarni konstruksiyalash va modellashtirish jarayonida xalq hunarmandchiligi sohalariga tegishli mahsulotlarning badiiy estetik xususiyatlarini tahlil qilish va dizaynerlik yechimlarini hal qilish mashqlarini bajarish" ishlari bo'yicha o'quv topshiriqlari berilgan bo'lsa, 7-sinf o'quvchilari esa "...tayyorlanadigan buyumlarni loyihalash va unda dizayn usullarini qo'llash. Dizaynerlik vazifalarini bajarish yuzasidan loyihalar tuzish" bo'yicha topshiriqlar bajarilishi belgilangan².

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'limdagi "Texnologiya" darslarida modernizatsiyalashgan Davlat ta'lim standarti mazmuniga ko'ra o'quvchilar texnologiya faniga oid bir qator bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari ko'zda tutilgan. Unga ko'ra o'quvchilar mehnat jarayoni haqida dunyoqarash, umummehnat bilim, ko'nikma va malakalariga ega bo'lish,

kasb-hunarlar haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish, xalq xo'jaligi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalariga to'g'risida bilimlarga ega bo'lishi, turli materiallarga boshlang'ich badiiy ishlov berish ko'nikmalariga ega bo'lish, milliy mehnat an'analari, urf-odatlarini bilish, buyumning texnologik haritasini tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishga oid vazifalarni hal etishga e'tibor qaratilgan.

Ma'lumki, texnologiya fanining maqsadi va vazifalarini hal etishda turli ko'rsatkichlar bo'yicha ish olib borilishi maqsadga muvofiq. Bunga ko'ra, dastavval mehnat ta'limining maqsadiga oid mazmuniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, o'quvchilarni aqliy rivojlanishi mehnatsevarlik hamda inson mehnatni qadrlashga o'rgatish, ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash orqali kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirish hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifat va tafakkurlarini rivojlantirishdan iborat ekanligi ko'zda tutilgan.

Darslik mazmuni o'quvchilarni eskiz, model, maket, konveyer, modellashtirish, konstruktorlash kabi mavzular o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. 5-sinf "Kompozit materiallar" bobida kompozit materiallardan foydalanish usullari, ishlov berishda foydalanadigan asbob-uskunalar haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek darslik polimer loydan suvenir (kitobcha shaklidagi brelok) va 3 D ruchkada har xil uch o'lchamli obyektlar yasashga o'rgatish kiritilishi ham ularda kreativlikni shakllantirishda muhim vosita bo'ladi. "Energiyani ishlab chiqarish va undan foydalanish" nomli yangi bob o'quvchida hayot faoliyatida o'zi uchun turli muqobil energiya hosil qiluvchi uskunalarni texnik imkoniyatlaridan qiynalmay foydalanish

1 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent.: O'zbekiston. 2021. –B. 238

2 O'quv dasturlarini uzviyligini rivojlantirish – ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. 14.09.2020 <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/4889.htm>

ko'nikmasini shakllantiradi. Texnologiya darsligiga "Mexatronika-LEGO education" bobi yangidan kiritildi. Bu bobda aylanma harakatlanuvchi sodda mexanizm yasash, karusel yasash, karusel tezligini oshirish, asosiy algoritmik konstruksiyalar, robototexnik tizimni loyihalash, Otto robotini yig'ish, robotlar musobaqasi mavzulari kiritilgan. Darslikka yangi kiritilgan "Ijtimoiy-iqtisodiy texnologiya asoslari" bobi o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni egallash va ularni kundalik hayotda qo'llash uchun zarur ko'nikmalarni shakllanishiga xizmat qiladi. Darslikka TRIZ (ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi) metodi oid topshiriqlar kiritildi. Bunda o'quvchilar izlanish va tadqiqot olib borish, algoritm va modellarni tadqiqotchilik ta'limiga tatbiq etib, muammoga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirishni o'rganadilar"³.

Texnologiya darslarida o'quvchilarning topshiriqlarni bajarishi bilan bog'liq harakatlari, ayniqsa, ijodiy faoliyat, jumladan, dizayn loyihalar vositasida kreativlikni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi. Bunda quyidagi omillar alohida e'tibor qaratishni talab qiladi:

Birinchi omil, bu shubhasiz, ta'limning me'yoriy talablarga muvofiqligi, ya'ni har qanday o'quv materialining mazmuni, avvalo, sohaning DTS hamda o'quv dasturiga muvofiq bo'lishi kerak.

Ikkinchi omil – asosiy o'quv materialini sifatida ham, o'quvchilarda umummehnat ko'nikmalarini shakllantirishning komponenti sifatida qo'shimcha tarzda kiritilayotgan material, xususan, dizayn loyihalariga oid materiallarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari sifatida ham murakkab, ham o'ta oddiy, ya'ni, ijodiylik hissini uyg'otmaydigan mazmunda ham bo'lmasligi lozim. Birinchi holatda muayyan darajada zo'riqish, bajarish

imkoniyati pastligi bois samara bermasa, ikkinchi holatda ijodkorlikka rag'bat uyg'otish kuzatilmaydi.

Uchinchi omilni o'z tarkibiy komponentlariga ko'ra ikki toifaga ajratish mumkin, ya'ni o'quvchilarning qiziqishlari, tabiiy moyilliklari, shuningdek, ularning gender xususiyatlarini e'tiborga olgan holda taqdim etiladigan o'quv materiallari kreativlikni rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Ishchi harakatlarning muvofiklashtirish ish unumdorligini oshirish amalga oshiriladigan ishlarni tez va sifatli kilib bajarish buyum va belgilari manbai bo'lib xizmat kiladi.

Texnologiya darslarida o'quvchilarga ta'lim berish jarayonini tashkil etishda holatni mazmunini belgilash hamda to'g'ri yunaltirish kerak. DTS da belgilab berilgan o'quv materiallarni o'rganish uchun o'quvchiga shart sharoitlar yaratib berilgan

Amaliy malaka ko'nikmalarni egallash uchun o'quvchi o'zlashtirilayotgan mehnat mashqlari va ishlab chiqarishga yo'naltirilgan boshlang'ich topshiriqlarni bajarishlari zarur. Bu jarayonni amalga oshirish uchun o'quvchilarga metodik qo'llanma metodik tavsiya va tarbiyaviy maqsadlarga yunaltirilgan buladi. O'quvchilar bu jarayonda o'zlari mustaqil biror ishni amalga oshirishlari kerak. Bu jarayon muhim ahamiyatga ega.

O'quv jarayonini boshqarishning shartlaridan biri o'qituvchining amalga oshirilayotgan ishga e'tiborli bo'lishi kerak. O'quvchilardan qay biri qanday ko'nikmaga egaligi va malakasi qay darajada ekanligini nazorat qilishi zarur. Har bir holatda ta'lim mazmuni o'quvchi uchun yangi bo'lgan yoki uning tomonidan o'zlashtirilmagan holatlardan iborat bo'ladi. Oldin o'zlashtirilgan bilimlar keyingi o'zlashtirish uchun zamin vazifasini o'taydi.

3 Tursunov Jurabek Egamberdiyevich (2022). Pedagogical Conditions For The Development Of Creativity In Students. Neo Scientific Peer Reviewed Journal. Volume 5, Dec. (pp 93-98).

Ayniqsa, ijodkorlik elementlari mavjud bo'lgan topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar tomonidan vazifani anglaganlik darajasi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Amalga oshirilishi kerak bo'lgan maqsad to'g'risidagi bilimni o'qituvchi yetkazib bera olishi kerak. O'quvchi bu jarayonni amaliy o'zlashtiradi. Bunda u ishlab chiqarish bilan amalga oshirilgan ishlarni o'z ko'zlari bilan kuzatadi, o'lchash va belgilashni o'rganadi. Barcha hollarda ma'lum ishlab chiqarish vazifasini o'rganadi.

Amaliyotlar ko'rsatishicha, mehnat jarayonini aniq tasavvurlar ham mehnat faoliyatini tezlashtirib tez bajarilishiga xizmat qiladi. O'z harakatlarini kafolatlaydi va muvaffaqiyatini yuksaltiradi. Mehnat unumdorligini oshiradi. O'quv ustasining muhim uslubiy vazifasi shundaki, o'quvchi yangi harakatlarni to'g'ri bajara olishi yoki unga erishish yo'llarini bera olishi bilan belgilanadi. Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchi o'qituvchini talimini izchil o'rganmog'i lozim, bu mehnat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ta'lim turlari bosqichida o'qituvchi va o'quvchining hamkorligi turlicha o'zgarib boradi. Dastlab o'rganish ko'nikish qiyin va sekin bo'ladi, keyinroq ko'nikma hosil bo'lib tezlashadi. Har bir jarayonni o'rganish uzluksiz va tizimli nazorat ostida bo'ladi. Ko'nikma shakllangan sari ish unumdorligi oshadi.

O'quvchilarda kreativlikni shakllantirishda qo'llaniladigan dizayn loyihalar ham uzluksizlik prinsipi asosida o'zgarib, murakkablashib, ijodiy yondashuvlar takomillashib boradi.

O'quvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda texnologiya ta'limi bilan tasviriy san'at fanlari bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. "Texnologiya darslarida rasmlarning tutgan

o'rni benihoya kattadir, chunki birorta detal yoki buyumni yasashdan avval uning rasmi yoki eskizi chiziladi va o'quvchilarga ko'rsatiladi. O'quvchilar ham ana shu rasmlarni daftariga ko'chirib chizib oladilar. O'quvchilar ana shu rasmlar orqali o'sha detal yoki buyum to'g'risida tasavvur hosil qiladilar. Ko'rinib turibdiki, bu yerda o'quvchilarda har xil rasmlar chizish malakasi ham shakllana boradi. Lekin tajribalardan ma'lumki, rasm chizish oson ish emas. Ko'pgina o'quvchilar rasm chizishga oid yetarli ma'lumot va malakaga ega bo'lmaganliklaridan bu ishni bajarishda qiyinchiliklarga duch keladilar". Shu sababli o'qituvchi texnologiya darslarida o'quvchilarga buyumlarning texnik rasmi, eskizi, yaqqol tasviri, perespektiva, rasmlarni chizishdagi ish ketma-ketligi shuningdek, ranglarni farqlash, ularni mutanosib joylashtirish va shu kabilar haqida ham tushuncha berib borishga to'g'ri keladi⁴.

Shuningdek, bu faoliyatda chizmachilikka oid bilim va ko'nikmalarni shakllanishi samarali bo'ladi. "Texnologiya darslarini chizmachiliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Texnologiya darslarida chizmachilik ham o'z o'rnida juda zarurdir. Chunki har qanday detalni yasash uning chizmasini o'qishdan boshlanadi va bu jarayonda o'quvchida bo'lajak buyum uning qismlari to'g'risida tasavvur hosil bo'ladi. Binobarin, texnologiya darslaridagi muhim ko'rgazmalardan biri bo'lgan texnologik va instruksion kartalarni chizish va ulardan foydalanish ham chizmalardan qanday foydalanishga bog'liqdir. Demak, o'quvchilarning amaliy faoliyati va tayyorlanadigan buyumlarning sifati ko'p jihatdan ularning chizmachilikka oid bilim va ko'nikmalarga ham bog'liq ekan. Biroq chizmachilik VII sinfdan boshlab o'qitiladi. Shu sababli texnologiya o'qituvchisi V sinfdan boshlab o'quvchilarga chizma, o'lcham, o'q chiziqlari, kesim, qirqim, chizmachilik asboblari va ulardan foydalanish haqida ma'lumotlar berib borishi zarur". Bunda o'quvchilarning oldingi sinflarda

4 Tursunov Jurabek Egamberdiyevich (2022). Pedagogical Conditions For The Development Of Creativity In Students. Neo Scientific Peer Reviewed Journal. Volume 5, Dec. (pp 93-98).

shu sohaga oid olgan bilimlarini hisobga olgan holda ish ko'rilishi lozim.

Texnologiya ta'limi o'quvchilarda kreativlikni shakllantirish asosida ularda kasb tanlashda to'g'ri tanlovni amalga oshirish ko'nikmalarini ham rivojlantirishni maqsad qiladi. Misol uchun, "5-7-sinflarda asosan kasb qaqida ma'lumot beriladi. O'quvchilar qanday ommaviy ishchi kasblar borligi bilan tanishadilar. Bu kasblarning elementlari o'quvchilarning ustaxonadagi faoliyati mazmunini tashkil etadi. Bu hol o'qitishning shu davrida o'quvchilarni umumtexnik tayyorlash vazifasiga to'la mos keladi. 6-sinfda va ayniksa, 7-sinfda kasb to'g'risida ma'lumot berish bilan bir qatorda kasbiy tarbiyalash ishlari ham olib boriladi. Bunga sabab shuki, 7-sinfni bitirish arafasida o'quvchilar bo'lgusi mehnat tayyorgarlikning profili (yo'nalishi)ni tanlab olishlari zarur. Har bir profil ko'plab ommaviy ishchi kasblarni o'z ichiga oladi. Bular ustaxonadagi mashg'ulotlarning mazmuni bilan izchil aloqada bo'lgan kasblar bo'lishi (masalan, metall va yog'ochga, gazlamaga ishlov berishga oid kasblar) yoki ular bilan hech qanday aloqador bo'lmagan kasblar bo'lishi mumkin"⁵. Biroq maktablarning ish tajribasida shunday manzarani kuzatish mumkin; o'qituvchilar bu masalani o'quvchilarning o'zlashtirishlariga qarab hal etishga urinishadi, ya'ni a'lochi o'quvchilarga tanlash huquqi beriladi yomon o'zlashtiruvchilar esa qolgan kasb turlaridan birortasini tanlashga majbur bo'lishadi.

Xulosa o'rnida bugungi ta'lim muhitida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirishga yetarli etibor qaratilmagani, hozirgi kunda mazkur tadqiqot ishiga zaruriyat borligini ko'rsatmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, har bir o'quv materiali o'quvchilarga muammoni taqdim etish yoki uning

yechimiga qaratilgan choralarga unchalik mos kelavermaydi. Bu ikki omil bilan belgilanadigan muammolilik darajasiga bog'liq bo'lib, ushbu muammo doirasida o'quvchilarga ma'lum va noma'lum bo'lgan nisbatlaridan chiqarilgan muammoning murakkabligi darajasi hamda muammoni hal qilishda o'quvchilarning kreativ yondashuvi ishtiroki ulushi bilan belgilanadi.

O'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirishga nisbatan muammoli faoliyat yondashuvining mohiyati quyidagilardan iborat:

- maxsus shart-sharoitlarni yaratishda, o'quvchilar ilgari olingan ahamiyatga ega bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga tayanib, o'quv va kasbiy vazifalarni mustaqil ravishda kashf etadilar va tushunadilar;
- o'quvchilarning aqliy va amaliy mashg'ulotlarda, o'quv va kasbiy vazifalarni hal qilishning eng maqbul variantlarini topish va asoslash;
- o'quvchilarning mustaqil faoliyatida muammoli vaziyatni o'zlari hal qilish;
- o'quvchilarning izlanish faolligini kuchaytirishda, o'quv va kasbiy muammolarni hal qilishning yangi usullarini izlashda va shu bilan o'zida kreativ fikrlashni rivojlantirishda;
- atrofda turgan haqiqatni ijodiy o'zgartirishda.

Xulosa qilganda, umumiy o'rta ta'limda "texnologiya" ta'limi o'quvchilarda mehnatsevarlik bilan birga ijodiylik ko'nikmalarini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois o'quvchilarda kreativlik ko'nikmalarini shakllantirishda, mehnat muhitini his qilish, texnika va texnologiyalarning yaratilish jarayoni, undan foydalanishga doir bilimlarini oshirishdu muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

5 Tursunov J.E. O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishda fanlararo bog'lanish. FarDU. Ilmiy xabarlar 2022/№5-son. 12-17 betlar.

ZAMONAVIY TAFAKKUR PARADIGMALARI

Gulchexraxon Salaydinovna Raxmonova – p.f.b.f.d.
(PhD), Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tafakkur paradigmalariga nisbatan turli yondashuvlar tahlil qilinadi. Insoniyat taraqqiyotining ilmiy–texnikaviy, madaniy–ma’naviy va ijtimoiy asoslari jarayonida shakllanayotgan tafakkur paradigmalari jamiyat rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif zamonaviy tafakkurning ijtimoiy–falsafiy, ma’naviy–ma’rifiy va metodologik jihatlarini ochib beradi. Shuningdek, global jarayonlar, axborot texnologiyalari va madaniy muloqotning inson tafakkuriga ta’siri ham yoritilgan.

Аннотация. В данной статье анализируются различные подходы к современным парадигмам мышления. В условиях научно–технического, культурно–духовного и социального развития парадигмы мышления приобретают важное значение для прогресса общества. Автор раскрывает социально–философские, духовно–просветительские и методологические аспекты современного мышления. Также рассматривается влияние глобализационных процессов, информатсионных технологий и культурного диалога на человеческое сознание.

Abstract. This article examines different approaches to modern paradigms of thinking. In the context of scientific–technical, cultural–spiritual, and social development, thinking paradigms play a vital role in shaping society’s progress. The author explores the socio–philosophical, spiritual–educational, and methodological aspects of contemporary thinking. Moreover, the impact of globalization, information technologies, and cultural dialogue on human cognition is also discussed.

Kalit soʻzlar: zamonaviy tafakkur, paradigmalar, yondashuvlar, ijtimoiy–falsafiy tahlil, ma’naviy–ma’rifiy jarayon, axborot texnologiyalari, globallashuv, madaniy muloqot, innovatsion fikrlash, metodologik asoslar.

Keywords: modern thinking, paradigms, approaches, socio–philosophical analysis, spiritual–educational process, information technologies, globalization, cultural dialogue, innovative thinking, methodological foundations.

Ключевые слова: современное мышление, парадигмы, подходы, социально–философский анализ, духовно–просветительский процесс, информационные технологии, глобализация, культурный диалог, инновационное мышление, методологические основы.

Zamonaviy tafakkur paradigmalari insoniyatning ma’naviy va ilmiy taraqqiyotida muhim oʻrin tutadi. Inson tafakkuri doimiy ravishda rivojlanib, turli tarixi bosqichlarda turlicha paradigmalar asosida shakllangan. Agar qadimgi zamonlarda tafakkur asosan metafizik va mifologik qarashlar bilan belgilangan boʻlsa, yangi davrdan boshlab ratsional va empirik asoslarda rivojlandi. XXI asrda esa tafakkur paradigmalari yangi ilmiy kashfiyotlar, global jarayonlar va axborot texnologiyalari ta’sirida oʻzgarib bormoqda.

Tomas Kunning ta’kidlashicha: “Fanning taraqqiyoti uzluksiz ravishda emas, balki paradigmalarning oʻzgarishi orqali amalga

oshadi”¹. Shu ma’noda zamonaviy tafakkurning paradigmalari ham ma’lum davriy oʻzgarishlar natijasida yuzaga kelgan. Ular turli metodologik yondoshuvlarni qamrab oladi va jamiyat taraqqiyotining turli jihatlarini izohlaydi.

Zamonaviy tafakkur paradigmalaridan biri – pozitivistik yondashuv hisoblanadi. XIX asrda Avgust Kont tomonidan ilgari surilgan bu yoʻnalishga koʻra, haqiqiy bilim tajriba va faktlarga asoslanishi kerak. Kont shunday deydi: “Fanning vazifasi – kuzatish va tajriba orqali voqelikni aniq va ravshan tushuntirishdir”². Zamonaviy ilmiy tafakkurda ham empirik tadqiqotlar, statistik ma’lumotlar va tahlil usullari muhim ahamiyatga ega boʻlib qolmoqda.

1 Kuhn, “The Structure of Scientific Revolutions”1962: 92

2 Конт, 1971: 41

Shu bilan birga, XX asrdan boshlab germevntik paradigma ham zamonaviy tafakkurda alohida o'rin egallay boshladi. Germevntika asoschisi G.-G. Gadamer ta'kidlaydiki: "Tushunish – bu qayta yaratish emas, balki ma'nolarni sharhlash va tarixiy ong bilan uyg'unlashtirish jarayonidir"³. Zamonaviy tafakkurda germevntik yondashuv inson tajribasini ma'noiy jihatdan anglashga, madaniy merosni talqin qilishga va til orqali voqelikni tushunishga qaratilgan.

Zamonaviy tafakkur paradigmalari masalasi ko'plab falsafa, sotsiologiya, psixologiya va pedagogika sohalarida tadqiq etilgan. G'arb va Sharq olimlari ushbu mavzuda turli yondashuvlarni ilgari surishgan:

Thomas Kuhn o'zining "Ilmiy inqiloblar tuzilishi" asarida paradigma tushunchasini kiritib, bilim tizimlarining o'zgarishi jarayonini tahlil qilgan. Edgar Morin zamonaviy fikrlashda kompleks yondashuv zarurligini, ya'ni voqelikni turli jihatdan ko'rish orqali anglash mumkinligini ta'kidlaydi. Peter Drucker esa global axborot jamiyatida fikrlash paradigmalarining iqtisodiy va ijtimoiy hayotga ta'sirini tadqiq etgan.

O'zbek olimlari orasida M.Xayrullaev, T.Islamov, A.Jo'raev kabi mualliflar tafakkurning ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy va milliy xususiyatlarini chuqur o'rgangan.

Rossiya falsafasida V.S.Styopin, A.A.Guseynov, V.F.Serjantov ishlarida zamonaviy tafakkurning metodologik va aksiologik jihatlari yoritilgan.

Umuman olganda, adabiyotlarda asosiy e'tibor zamonaviy tafakkurning quyidagi yo'nalishlariga qaratiladi:

1. Ijtimoiy-falsafiy asoslar – inson va jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti.

2. Innovatsion va ilmiy yondashuvlar – axborot

jamiyatida fikrlashning yangi qirralari.

3. Ma'naviy-ma'rifiy omillar – ta'lim va tarbiya jarayonida tafakkur paradigmalari.

4. Globallashuv ta'siri – madaniy muloqot va axborot muhitida fikrlash jarayonlari. Zamonaviy tafakkur paradigmalari masalasi ko'plab falsafa, sotsiologiya, psixologiya va pedagogika sohalarida tadqiq etilgan. G'arb va Sharq olimlari ushbu mavzuda turli yondashuvlarni ilgari surishgan:

Zamonaviy tafakkur paradigmalari orasida postmodernistik yondashuv ham muhim. J.Derrida ta'kidlaydiki: "Har qanday matnning ma'nosi ochiq va ko'p qirralidir"⁴. Postmodernizmga ko'ra, tafakkurda yagona haqiqat yo'q, har qanday voqelik turli talqinlarga ochiqdir. Bu paradigma zamonaviy madaniyatda, san'atda va ijtimoiy tahlilda keng qo'llanilmoqda.

Zamonaviy tafakkur paradigmalari shu bilan ham ahamiyatli, ular global muammolarni izohlashda turli metodologik yo'llarni taklif etadi. Masalan, ekologik tafakkur paradigmasi tabiat va inson munosabatlarini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. F.Kapraning fikricha: "Insoniyatning barqaror kelajagi uchun tabiat bilan uyg'unlikda fikrlash zarur"⁵.

Axborot jamiyati sharoitida esa sifrov tafakkur paradigmasi yuzaga kelmoqda. Bu paradigma inson tafakkurining raqamli texnologiyalar ta'sirida o'zgarishini ifoda etadi. Zamonaviy tadqiqotchilar ta'kidlashicha, internet va sun'iy intellekt inson fikrlashini tezlashtirib, uni global axborot maydoni bilan uyg'unlashtirmoqda⁶.

Shu tariqa, zamonaviy tafakkur paradigmalari bir-birini inkor qilmasdan, balki o'zaro uyg'un holda rivojlanmoqda. Ular inson ongini turli yo'nalishlarda boyitadi, fan va madaniyat

3 Гадамер, 1988: 142

4 Derrida, "Of Grammatology" 1976: 67

5 Capra, "The Web of Life: A New Scientific Understanding of Living Systems" 1996: 21

6 Castells, "Axborot asri" 2000

taraqqiyotiga turli jihatdan ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy tafakkur paradigmalari insoniyatning ma'naviy va ilmiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Inson tafakkuri doimiy ravishda rivojlanib, turli tarixi bosqichlarda turlicha paradigmalar asosida shakllangan. Agar qadimgi zamonlarda tafakkur asosan metafizik va mifologik qarashlar bilan belgilangan bo'lsa, yangi davrdan boshlab ratsional va empirik asoslarda rivojlandi. XXI asrda esa tafakkur paradigmalari yangi ilmiy kashfiyotlar, global jarayonlar va axborot texnologiyalari ta'sirida o'zgarib bormoqda.

Tomas Kunning ta'kidlashicha: "Fanning taraqqiyoti uzluksiz ravishda emas, balki paradigmalarning o'zgarishi orqali amalga oshadi"⁷. Shu ma'noda zamonaviy tafakkurning paradigmalari ham ma'lum davriy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan. Ular turli metodologik yondoshuvlarni qamrab oladi va jamiyat taraqqiyotining turli jihatlarini izohlaydi.

Zamonaviy tafakkur paradigmalaridan biri – pozitivistik yondashuv hisoblanadi. XIX asrda Avgust Kont tomonidan ilgari surilgan bu yo'nalishga ko'ra, haqiqiy bilim tajriba va faktlarga asoslanishi kerak. Kont shunday deydi: "Fanning vazifasi – kuzatish va tajriba orqali voqelikni aniq va ravshan tushuntirishdir"⁸. Zamonaviy ilmiy tafakkurda ham empirik tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar va tahlil usullari muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Shu bilan birga, XX asrdan boshlab germenevtik paradigma ham zamonaviy tafakkurda alohida o'rin egallay boshladi. Germenevtika asoschisi G.G. Gadamer ta'kidlaydiki: "Tushunish – bu qayta yaratish emas, balki ma'nolarni sharhlash va tarixiy ong bilan uyg'unlashtirish jarayonidir"⁹. Zamonaviy tafakkurda germenevtik yondashuv

inson tajribasini ma'noiy jihatdan anglashga, madaniy merosni talqin qilishga va til orqali voqelikni tushunishga qaratilgan.

XX asrning ikkinchi yarmida kritik tafakkur paradigmasi vujudga keldi.

J.Xabermas ta'kidlaydiki: "Fanning vazifasi faqat voqelikni izohlash emas, balki insonni erkinlikka va adolatga yetaklashdir"¹⁰. Bu paradigma tafakkurning ijtimoiy funksiyalariga e'tibor qaratdi. Zamonaviy jamiyatda kritik tafakkur inson huquqlari, demokratiya, gender tengligi va ijtimoiy adolat masalalarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy tafakkurda kognitiv paradigma alohida ahamiyatga ega. J.Piaje kognitiv rivojlanish nazariyasida inson tafakkurining evolyusiya bosqichlarini ko'rsatib berdi. Uning ta'kidlashicha: "Aqliy rivojlanish – bu insonning tajriba orqali bilish qobiliyatining bosqichma-bosqich takomillashishidir"¹¹. XXI asrda kognitiv fanlar inson tafakkurini axborotni qayta ishlash jarayoni sifatida izohlab, sun'iy intellekt orqali uni modellashtirishga harakat qilmoqda.

Zamonaviy tafakkur paradigmalari orasida postmodernistik yondashuv ham muhim. J. Derrida ta'kidlaydiki: "Har qanday matnning ma'nosi ochiq va ko'p qirralidir"¹². Postmodernizmga ko'ra, tafakkurda yagona haqiqat yo'q, har qanday voqelik turli talqinlarga ochiqdir. Bu paradigma zamonaviy madaniyatda, san'atda va ijtimoiy tahlilda keng qo'llanilmoqda.

Zamonaviy tafakkur paradigmalari shu bilan ham ahamiyatli, ular global muammolarni izohlashda turli metodologik yo'llarni taklif etadi. Masalan, ekologik tafakkur paradigmasi tabiat

7 Kuhn, "The Structure of Scientific Revolutions"1962: 92

8 Кант, "Cours de philosophie positive" 1971: 41

9 Гадамер, "Wahrheit und Methode"1988: 142

10 Habermas, "Knowledge and Human Interests"1971: 303

11 Piaget, "The Origins of Intelligence in Children"1952: 41

12 Derrida, "Of Grammatology"1976: 67

va inson munosabatlarini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. F.Kapraning fikricha: "Insoniyatning barqaror kelajagi uchun tabiat bilan uyg'unlikda fikrlash zarur".

Axborot jamiyati sharoitida esa sifrov tafakkur paradigmasi yuzaga kelmoqda. Bu paradigma inson tafakkurining raqamli texnologiyalar ta'sirida o'zgarishini ifoda etadi. Zamonaviy tadqiqotchilar ta'kidlashicha, internet va sun'iy intellekt inson fikrlashini tezlashtirib, uni global axborot maydoni bilan uyg'unlashtirmoqda¹³.

Shu tariqa, zamonaviy tafakkur paradigmalari bir-birini inkor qilmasdan, balki o'zaro uyg'un holda rivojlanmoqda. Ular inson ongini turli yo'nalishlarda boyitadi, fan va madaniyat taraqqiyotiga turli jihatdan ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy tafakkur paradigmalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida shakllangan va har bir bosqichda jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini belgilab bergan. Bugungi kunda globallashuv, raqamli texnologiyalar va fan-ta'limning integratsiyasi tafakkurning yangi sifat bosqichga ko'tarilishiga turtki bo'lmoqda.

Tomas Kun ta'kidlaganidek: "Haqiqiy ilmiy inqiloblar yangi faktlar topilishi bilan emas, balki odamlar dunyoni qanday ko'rishi o'zgarishi bilan amalga oshadi"¹⁴. Demak, zamonaviy paradigmalarning asosiy mohiyati voqelikni talqin qilish usuli bilan belgilanadi.

Sistemali yondashuv paradigmasi XX asrning ikkinchi yarmida shakllanib, jamiyat va tabiatni yaxlit tizim sifatida ko'rishga yo'naltirildi. Lyudvig fon Bertalanfi shunday deydi: "Har qanday tizim faqat uning qismlari orqali emas, balki qismlarning o'zaro munosabati va yaxlitligi

orqali anglanadi"¹⁵. Zamonaviy tafakkurda bu paradigma ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Kritik realizm paradigmasi ham zamonaviy falsafada kuchli yo'nalish sifatida maydonga chiqdi. Roy Bxaskar fikriga ko'ra: "Voqelikda ko'zga ko'rinmaydigan chuqur tuzilmalar mavjud bo'lib, ularni anglash orqali jamiyatdagi real jarayonlarni chuqurroq tushunish mumkin"¹⁶. Bu qarash jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni faqat yuzaki emas, balki tub sabablari bilan tahlil qilish imkonini berdi.

Fenomenologik paradigma esa tafakkurda subyektiv tajribani markazga qo'ydi. Edmund Gusserl ta'kidlaydi: "Haqiqiy bilim faqat subyektning to'g'ridan-to'g'ri tajribasidan boshlanishi mumkin"¹⁷. Zamonaviy gumanitar fanlarda shaxsiy tajriba va ma'noiy talqinning ahamiyati shu paradigma bilan izohlanadi.

XX asrda strukturalizm va poststrukturalizm paradigmalari ham muhim yo'nalish sifatida vujudga keldi. Klod Levi-Strossning fikricha: "Madaniy jarayonlarning asosida universal strukturalar mavjud bo'lib, ularni til orqali anglash mumkin"¹⁸. Keyinchalik J.Derrida bu qarashni tanqid qilib, ma'nolarning ko'pqirraliligi va doimiy ravishda qayta yaratilishini ta'kidladi.

Zamonaviy tafakkur paradigmalari orasida pragmatik yondashuv ham o'rin olgan. Jon Dyui ta'kidlaganidek: "Fikrning haqiqiy qiymati uning amaliy samarasida namoyon bo'ladi"¹⁹. Demak, zamonaviy sharoitda bilimning faqat nazariy emas, balki amaliyotda qo'llanilishi ham muhim mezon hisoblanadi.

13 Castells, "The Information Age: Economy, Society and Culture" 2000

14 Kuhn, "The Structure of Scientific Revolutions" 1962: 111

15 Bertalanffy, "General System Theory: Foundations, Development, Applications" 1968: 55

16 Roy Bhaskar – "A Realist Theory of Science", 1975: 22

17 Edmund Husserl – Ideas: General Introduction to Pure Phenomenology, 1931: 76

18 Claude Lévi-Strauss – "Les structures élémentaires de la parenté", 1963: 91

19 John Dewey – Logic: The Theory of Inquiry, 1938: 102

XXI asrda global tafakkur paradigmasi shakllanib, insoniyat oldida turgan umumbashariy muammolar – iqlim o'zgarishi, biotexnologiya, sun'iy intellekt, ijtimoiy adolat kabi masalalarni qamrab oldi. Edgar Moren ta'kidlaganidek: "Zamonaviy bilimning vazifasi – butunlikni ko'rish, bog'liqliklarni anglash va murakkablikni tushunishdir"²⁰.

Zamonaviy tafakkurning paradigmatlari inson ma'naviyatida ham chuqur iz qoldirmoqda. Aynan shu nuqtai nazardan qaraganda, jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun tafakkurning ko'p qirraliligi, turli yondashuvlarni uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy tafakkur paradigmatlari jamiyat taraqqiyoti, fanning rivojlanishi va inson ongining kengayishi bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ilm-fanda paradigma tushunchasini birinchi bo'lib sistemali tarzda Tomas Kun tadqiq etdi va u shunday degan edi: "Ilmiy inqiloblar yangi faktlarning paydo bo'lishida emas, balki insonlarning dunyoqarashini o'zgartirish jarayonida sodir bo'ladi"²¹. Demak, paradigma nafaqat nazariy model, balki butun tafakkur tizimini yangilab turadigan ilmiy va ma'naviy mexanizm hisoblanadi.

Zamonaviy tafakkur paradigmatlari ichida tizimli yondashuv alohida ahamiyatga ega. Lyudvig fon Bertalanfi ta'kidlaganidek: "Har qanday tizimni anglash uchun uning qismlarini emas, balki qismlarning o'zaro munosabatlarini tahlil qilish kerak"²². Bu yondashuv jamiyat, iqtisodiyot va tabiatdagi murakkab jarayonlarni yaxlit holda anglash imkonini berdi.

Shu bilan birga, fenomenologik paradigma inson tajribasini markazga qo'ydi. Edmund Gusserlning fikriga ko'ra: "Haqiqiy bilim faqat subyektning to'g'ridan-to'g'ri tajribasidan boshlanishi mumkin"²³. Bu qarash keyinchalik Martin Xaydegger va Alfred Shyus tomonidan yanada chuqurlashtirilib, insonning ma'naviy dunyosi va ijtimoiy voqelikdagi rolini izohlashda asosiy metodologiyaga aylandi.

XX asr tafakkurida strukturalizm ham muhim yo'nalish bo'ldi. Klod Levi-Stross shunday deydi: "Har qanday madaniy jarayonlarning asosida umumiy strukturalar mavjud"²⁴. Keyinchalik Jak Derrida bu fikrni qayta ko'rib chiqdi va shunday ta'kidladi: "Ma'nolar doimiy emas, ular qayta yaratiladi va qayta talqin qilinadi"²⁵. Bu poststrukturalistik paradigma zamonaviy tafakkurning nisbiylikka, ma'nolarning ko'pqirraliligiga e'tiborini kuchaytirdi.

Pragmatik paradigma esa fikrning amaliy qiymatiga asoslandi. Jon Dyui shunday degan: "Fikrning haqiqiy qiymati uning amaliy samarasi bilan o'lchanadi"²⁶. Shu boisdan zamonaviy fan va falsafa faqat nazariy emas, balki hayotiy muammolarni hal qilishda qo'llanilishi lozim bo'lgan bilimlarni ham talab qiladi.

XXI asrga kelib global paradigma shakllandi. Edgar Moren ta'kidlaganidek: "Zamonaviy bilimning asosiy vazifasi butunlikni ko'rish, bog'liqliklarni anglash va murakkablikni tushunishdan iborat"²⁷. Bu qarash globallashtirish jarayonlari, iqlim o'zgarishi, texnologiya rivoji va insoniyat oldida turgan umumbashariy muammolarni anglash uchun muhim ahamiyatga ega.

20 Edgar Morin va "Homeland Earth", 1999: 15

21 Kuhn, "The Structure of Scientific Revolutions" 1962: 111

22 Ludwig von Bertalanffy "General System Theory: Foundations, Development, Applications", 1968: 55

23 Jacques Derrida "Of Grammatology", 1976: 88

24 Levi-Strauss, "Structural Anthropology" 1963: 91

25 Edmund Husserl "Ideas: General Introduction to Pure Phenomenology", 1931: 76

26 John Dewey "Experience and Education. New York: Macmillan", 1938: 102

27 Morin, Edgar "La Méthode, Tome", 1999: 15

Yurgen Xabermas zamonaviy tafakkurda muloqot va ijtimoiy ratsionallikka alohida e'tibor qaratdi. Uning fikricha: "Ratsional muloqot jamiyatda barqarorlik va adolatning asosiy shartlaridan biridir"²⁸. Bu paradigma ijtimoiy munosabatlarning mustahkamlanishi va demokratik jarayonlarning rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Mishel Fuko esa bilim va hokimiyat o'rtasidagi munosabatni ochib berdi. Uning ta'kidlashicha: "Har qanday bilim tizimi muayyan hokimiyat munosabatlari bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi"²⁹. Bu qarash zamonaviy tafakkurda bilimning neytral emasligini, balki ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga ta'sirini ko'rsatib berdi.

Shuningdek, zamonaviy tafakkur paradigmalari kognitiv ilmlar bilan ham bog'liq holda rivojlanmoqda. Psixologiya va neyroilmda tafakkur axborotni qayta ishlash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Jorj Miller va Noam Xomskiy kabi olimlar inson tafakkurining til, xotira va bilish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidladilar.

Natijada zamonaviy tafakkur paradigmalari ko'pqirrali, dinamik va moslashuvchan tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular jamiyatning rivojlanish yo'nalishini belgilaydi, inson ma'naviyati va bilim olish jarayonini boyitadi hamda ijtimoiy taraqqiyot uchun asosiy ma'naviy zamin yaratadi.

Zamonaviy tafakkur paradigmalari inson bilimi va jamiyat taraqqiyotida eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ular orqali insoniyat nafaqat voqelikni angelaydi, balki uni qayta qurish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tomas

Kun ta'kidlaganidek: "Ilmiy inqiloblar inson tafakkurini tubdan o'zgartiruvchi paradigmalar almashinuvi bilan belgilanadi"³⁰. Bu fikr zamonaviy ilmiy tafakkurning dinamik tabiatiga ishora qiladi.

Falsafada paradigma tushunchasi metodologik ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat ilmiy nazariyalarni, balki ijtimoiy ongning umumiy yo'nalishini ham belgilaydi. Masalan, Immanuel Kant ta'kidlaganidek: "Inson bilimi tajribadan boshlanadi, ammo tajribadan kelib chiqmaydi"³¹. Bu fikr zamonaviy tafakkurning ratsional va empirik yo'nalishlar uyg'unligini ko'rsatadi.

Tizimli yondashuvning paradigmal ahamiyati juda katta. Lyudvig fon Bertalanfining fikricha: "Har qanday murakkab tizim faqat uning tarkibiy qismlari emas, balki ularning o'zaro bog'liqligi orqali anglanadi"³². Bu metodologiya biologiyadan tortib iqtisodiyot va ijtimoiy fanlarga qo'llanildi va global paradigma sifatida qabul qilindi.

Fenomenologiya yo'nalishi tafakkurda yangi yo'nalish ochdi. Edmund Gusserlning fikriga ko'ra: "Falsafaning vazifasi – hodisalarning mohiyatini tavsiflash va ularni inson ongida qanday ifodalanishini aniqlash"³³. Shu ma'noda fenomenologik paradigma insonning subyektiv tajribasini ilmiy tahlil markaziga qo'ydi.

Strukturalizm va poststrukturalizm ham zamonaviy tafakkurda muhim o'rin egalladi. Klod Levi-Stross shunday deydi: "Ijtimoiy hayotni anglash uchun uning chuqur strukturalarini tahlil qilish zarur"³⁴. Ammo Jak Derrida bu nuqtai nazarga qarshi chiqib: "Har qanday matn yoki ma'no o'z-o'zidan barqaror emas, balki talqin

28 Habermas, Jürgen "The Theory of Communicative Action, Volume", 1984: 67

29 Foucault, Michel. "The Archaeology of Knowledge", 1972: 54

30 Kuhn, "The Structure of Scientific Revolutions" 1962: 92

31 Kant, Immanuel "Kritik der reinen Vernunft" 781: 41

32 Bertalanffy, Ludwig von "General System Theory", 1968: 57

33 Edmund Husserl "Ideas: General Introduction to Pure Phenomenology", 1931: 89

34 Levi-Strauss, "Structural Anthropology" 1963: 95

jarayonida qayta yaratiladi"³⁵, deb ta'kidlaydi. Bu fikr ma'nolarning nisbiyligi va ko'pqirraliligi haqidagi zamonaviy paradigmani belgiladi.

Pragmatizm yo'nalishi esa tafakkurning amaliy yo'nalishini rivojlantirdi. Charlz Pirs fikricha: "Har qanday g'oyaning mohiyati uning amaliy oqibatlarida namoyon bo'ladi"³⁶. Jon Dyui esa qo'shimcha qiladi: "Fikrning haqiqiy qiymati uning hayotiy muammolarni hal qilishdagi samaradorligi bilan belgilanadi"³⁷. Bu yo'nalish zamonaviy ilm-fanda innovatsiya va texnologiyalarga yo'l ochdi.

Yurgen Xabermas muloqot ratsionalligi nazariyasini ilgari surib, shunday ta'kidlaydi: "Faqat ochiq va adolatli muloqot orqali jamiyat barqarorligi ta'minlanishi mumkin"³⁸. Bu paradigma ijtimoiy fanlarda demokratik jarayonlarni o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Mishel Fuko esa bilim va hokimiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatib berdi: "Bilim hech qachon betaraf emas; u muayyan hokimiyat munosabatlarini qayta ishlab chiqadi va mustahkamlaydi"³⁹. Shu bois zamonaviy tafakkur paradigmaları ijtimoiy-siyosiy voqelik bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi.

Globalashuv sharoitida esa murakkablik nazariyasi katta ahamiyat kasb etmoqda. Edgar Morenning ta'kidlashicha: "Murakkablik dunyosida bilimlar integratsiyasi va fanlar o'rtasidagi chegaralarni yo'qotish asosiy yo'nalish hisoblanadi"⁴⁰. Bu zamonaviy paradigma ekologiya, biotexnologiya va axborot texnologiyalarida o'z ifodasini topmoqda.

Kognitiv paradigma esa inson ongini axborotni qayta ishlovchi tizim sifatida talqin qiladi. Jorj Millerning fikriga ko'ra: "Inson xotirasi bir vaqtning o'zida yetti birlikcha ma'lumotni saqlab qolishga qodir"⁴¹. Noam Xomskiy esa til insonning kognitiv jarayonlarida markaziy o'rin tutadi deb ta'kidlaydi: "Til inson tabiatidagi universal grammatikaning ifodasidir"⁴².

Shu tariqa, zamonaviy tafakkur paradigmaları ko'p qirrali va integrativ xususiyatga ega. Ular falsafa, psixologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik va tabiiy fanlarni birlashtirib, insoniyatning kelajakdagi taraqqiyot yo'nalishlarini belgilab bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tafakkur paradigmaları – bu inson bilimining turli yo'nalishlarda rivojlanishini ta'minlaydigan va jamiyatning ilmiy-madaniy salohiyatini belgilaydigan nazariy asoslardir. Ular orasida pozitivistik, germeneytik, kritik, kognitiv, postmodernistik, ekologik va raqamli paradigmaları alohida ta'kidlash mumkin. Har biri o'z navbatida insoniyat oldida turgan yangi vazifalarni yechishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy tafakkur paradigmaları insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida shakllangan va har bir bosqichda jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini belgilab bergan. Bugungi kunda globalashuv, raqamli texnologiyalar va fan-ta'limning integratsiyasi tafakkurning yangi sifat bosqichga ko'tarilishiga turtki bo'lmoqda.

Tomas Kun ta'kidlaganidek: "Haqiqiy ilmiy inqiloblar yangi faktlar topilishi bilan emas, balki odamlar dunyoni qanday ko'rishi o'zgarishi bilan amalga oshadi"⁴³. Demak, zamonaviy paradigmaların asosiy mohiyati voqelikni talqin qilish usuli bilan belgilanadi.

35 Levi-Strauss, "Structural Anthropology" 1963: 95

36 Peirce, Charles Sanders "How to Make Our Ideas Clear.", 1878: 294

37 John Dewey "Experience and Education. New York: Macmillan", 1938: 103

38 Habermas, Jürgen "The Theory of Communicative Action, Volume", 1984: 69

39 Foucault, Michel. "The Archaeology of Knowledge", 1972: 56

40 Edgar Morin va "Homeland Earth", 1999: 22

41 Miller, George A. (1956). "The Magical Number Seven, Plus or Minus Two: Some Limits on Our Capacity for Processing Information.", 1956: 81

42 Chomsky, Noam. "Three Models for the Description of Language.", 1965: 25

43 Kuhn, Thomas S., "The Structure of Scientific Revolutions" 1962: 111

MEDIATA'LIM RESURLARI VOSITASIDA BIOLOGIYA FANINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Munisa Ilamonovna Sanayeva – p.f.b.f.d. (PhD), o'qituvchi,
Toshkent Farmatsevtika instituti akademik litseyi

Annotatsiya. Mazkur maqola umumta'lim maktablarida mediata'lim resurslaridan foydalanish hamda biologiya ta'limi samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, biologiya ta'limi jarayonlarini axborotlashtirish maqsad va vazifalariga muvofiq holda biologiya fanini o'qitishda mediata'lim resurslaridan foydalanishning ijobiy imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, biologiya fanini mediata'lim resurslari asosida o'qitish strukturasi asosiy omillari ochib berilgan.

Аннотация. Статья посвящена вопросам использования медиаобразовательных ресурсов в общеобразовательных школах и повышению эффективности обучения биологии. Раскрываются позитивные возможности использования медиаобразовательных ресурсов в обучении биологии в соответствии с целями и задачами информатизации биологического образования. Раскрываются основные факторы, определяющие структуру обучения биологии с использованием медиаобразовательных ресурсов.

Abstract. This article is devoted to the issues of using media educational resources in secondary schools and increasing the effectiveness of biology education. It reveals the positive possibilities of using media educational resources in teaching biology in accordance with the goals and objectives of informatization of biology education processes. It also reveals the main factors of the structure of teaching biology based on media educational resources.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, ta'lim samaradorligi, mediata'lim, mediata'lim resurslari, elektron axborot ta'lim resurslari, biologiya ta'limi, ta'limi jarayonlarini axborotlashtirish, mediasavodxonlik darajasi, mediatexnologiyalar.

Ключевые слова: система образования, эффективность образования, медиаобразование, медиаобразовательные ресурсы, электронные информационно-образовательные ресурсы, биологическое образование, информатизация образовательных процессов, уровень медиаграмотности, медиатехнологии

Keywords: education system, educational effectiveness, media education, media education resources, electronic information educational resources, biology education, informatization of educational processes, level of media literacy, media technologies.

Jahon ta'lim tizimidagi rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda o'quv materiallarini mediata'lim resurslari vositasida takomillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. YUNESKO tashkilotining 2030-yilgacha xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifalar qatoriga kiritilgan. Mamlakatimiz milliy ta'lim muhitida biologiya fanidan elektron axborot ta'lim resurslarining yangi avlodini yaratish orqali o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishga e'tibor kun sayin oshib bormoqda.

Bugungi kunda biologiya ta'limida mediata'lim resurslaridan foydalanish masalalari bo'yicha ko'pgina olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar

olib borilmoqda. Aynan biologiya darslarida mediaresurslardan foydalanish bo'yicha G.S.Ergashevaning fikriga ko'ra, bugungi kunda mediadan foydalanish madaniyatini pastligi ta'lim jarayoni, tarbiya va hayot o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni keltirib chiqardi. Masalan, o'qitilayotgan va tashqaridan qabul qilinayotgan axborotlarning bir-biriga mos kelmasligi jarayonni ikkiga ajratib yuboradi.

1982-yilda qabul qilingan YUNESKO deklaratsiyasida "bolalar va kattalar uch tizim (verbal, vizual va audiovizual) bo'yicha savodxonlikka ega bo'lishlari shart" ekanligi ta'kidlab o'tilganligini hisobga olsak, jarayonda bu uch omil bir-birini to'ldirib borishiga erishishni mediata'lim orqali to'ldirish mumkinligiga amin

bo'lamiz¹.

Mediata'limning rivojlanish tarixi bir necha o'n yilliklarga borib taqalsa-da, turli xil tadqiqotchilar o'z ilmiy yo'nalishlari nuqtayi nazaridan yondashib turlicha ta'riflar berib o'tganlar. Ushbu ta'riflar ba'zi hollarda bir-biriga yaqin, ba'zida esa bir-birini inkor etadi. Jumladan, A.A.Jurinning fikriga ko'ra "media" – lotincha "media" so'zidan olingan bo'lib, "vosita", "vositachi", yanada aniqrog'i, "ommaviy axborot vositalari" degan ma'nolarni anglatadi. Shuningdek u mediata'lim tushunchasini quyidagicha izohlaydi:

Mediata'lim – bu:

a) pedagogik fan bo'lib, u – ommaviy axborot vositalari (OAV)ning bolalar va o'smirlarga ta'sirini o'rganadi va o'quvchilarni OAV dunyosi bilan tanishtirishga tayyorlashning nazariy masalalarini ishlab chiqish;

b) o'qituvchi va o'quvchilarning amaliy hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, bolalar va o'smirlarni OAVdan foydalanishga, OAVning madaniyatdagi roli va dunyoni qabul qilishga tayyorlash;

d) ta'lim sohasi – uning mazmuni – OAVning madaniyatdagi roli, dunyoni qabul qilishi haqida bilimlar va OAV axborotlari bilan samarali ishlash².

Mediata'lim tushunchasi fransuz tilida – *edukationauxmedias*, nemis tilida – *mediadidaktik*, ingliz tilida – *media education* tushunchalari bilan mos keladi. Demak, media uzluksiz ta'lim jarayonlarini vizual materiallar yordamida tashkil etilishiga, ta'limning sifatli olib borilishiga va ta'lim oluvchilarning yuqori o'zlashtirishga erishishlariga xizmat qiladi.

Medianing ilk turlari ancha oldin paydo bo'lganiga qaramay, o'tgan asrning 50-60-yillarida mediadan ta'lim jarayonida foydalanish masalalari tadqiqotchilar e'tiborini tortgan. Mediata'lim medianing barcha turlari (bosma, grafik, ovozli, ekranli va boshqalar) turli texnologiyalar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u insonlarga ommaviy kommunikatsiyadan ijtimoiy ongda qanday foydalanishni tushunish, boshqa odamlar bilan kommunikatsiya paytida mediadan foydalanish ko'nikmasini o'zlashtirish kabi bilimlarni beradi³.

Y.Mamatova va S.Sulaymonovalarning fikricha hozirgi zamon jamiyati taraqqiyotiga medialarning ta'siri yil sayin oshib borib, ular vositasida insonlar atrof-voqelikni ijtimoiy va ruhiy jihatdan anglamoqda va baholamoqda. Zamonaviy medialarning asosiy jihatlari sirasiga tadqiqotchilar kreativlik (yaratuvchanlik, ijodkorlik) va innovatsiyalarni kiritmoqdalar⁴.

Ko'plab adabiyotlarda media tushunchasiga bir qancha tavsiflar berilganini aytish mumkin. "Media – ommaviy axborot vositalari, ham keng, ham maxsus auditoriyaga mo'ljallangan ko'ngilochar takliflarni tavsiya etuvchi, yangilik, axborot va reklama axborotini tarqatishga yo'naltirilgan ko'p sonli hamda serqirra funksiyalarni amalga oshiruvchi kommunikatsiya kanallaridir"⁵.

Umumta'lim maktablari biologiya ta'limi jarayonlarini axborotlashtirish maqsad va vazifalariga muvofiq holda biologiya fanini o'qitishda mediata'lim resurslaridan foydalanish quyidagi imkoniyatlarga keng yo'l ochadi:

– mediata'lim resurslari orqali o'quvchilarning biologiya fanidan o'quv materiallarini mustaqil

- 1 Ergasheva G.S. Biologiya ta'limida interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanishni takomillashtirish. P.f.d. (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2018.
- 2 Журин А.А. Интегрированное медиаобразование в средней школе. – Москва: Бином, 2013. – С. 420.
- 3 UNESCO (1999) Recommendations Addressed to the United Nations Educational Scientific and Cultural Organization UNESCO. In Education for the Media and the Digital Age Vienna pp 273-274.
- 4 Mamatova Y., Sulaymanova S. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida. O'quv qo'llanma. -T.: Extremum-press, 2015. 60-64-6.
- 5 UNESCO (1999) Recommendations Addressed to the United Nations Educational Scientific and Cultural Organization UNESCO. In Education for the Media and the Digital Age Vienna pp 273-274.

o'zlashtirish, mustahkamlash, takrorlash, topshiriqlarni erkin bajara olish imkoniyati oshadi;

– o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatida zamonaviy elektron axborot ta'lim resurslaridan samarali foydalanishi ularning axborotlar bilan ishlash kompetentligini rivojlantiradi;

– biologiya fanidan yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan elektron darsliklar, videodarslar, o'quv filmlari, mobil ilovalar, virtual laboratoriya mashg'ulotlari hamda taqdimotlar yordamida fanga doir har qanday murakkab biologik hodisa yoki jarayonni kuzatish, bajarish imkoni bo'lmagan tajribalarni amalga oshirish hamda tushuntirish imkoniyati yaratiladi;

– biologiya fanidan qiziqarli interaktiv dars va laboratoriya topshiriqlarini uy sharoitida ham mustaqil o'tkazish imkoniyati yaratiladi;

– virtual laboratoriya ishlarini qiziqarli hamda yangiliklarga boy tarzda tashkil etishda qo'shimcha material sifatida namoyish etish mumkin bo'ladi.

O'quvchilarning mediasavodxonlik darajalarini oshirishda ta'lim tushunchalarining yangi qirralarini, ya'ni, o'qish va o'qitish jarayonida voqeliklarning yangi ko'rinishlari va qo'shimcha materialni yuzaga keltiradi. O'qish jarayoni asosan mustaqil ishlash jarayoni bilan bogliq. Sababi, o'quvchilar aynan mustaqil ishlash jaryonida mediatexnologiyalardan foydalanish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Ta'lim jarayonida didaktik mediatexnologiyalardan foydalanish bo'yicha eksperimentni tashkil etishda hisobga olingan bu holat zamonaviy mediatexnologik ta'limning eng muhim yo'nalishi – tabiiy va texnik madaniyatlarning zamonaviy tendensiyasi doirasida amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Tadqiqotlar davomida ma'lum bo'ldiki, umumta'lim maktablarida biologiya fanini

o'qitishda mediata'lim resurslaridan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

– biologiya fani bo'yicha yaratilgan va amaliyotga joriy qilingan elektron axborot ta'lim resurslari (innovatsion elektron darsliklar, videodarslar, o'quv filmlari, elektron nazorat testlari, mobil ilovalar, multimedia texnologiyalari) ushbu o'quv predmeti bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil etishda kompyuterlashgan texnologiyalarni qo'llanilishini ta'minlashga sharoit yaratadi.

– biologiya fani bo'yicha ishlab chiqilgan mediavositalar o'quvchilarda elektron axborot ta'lim resurslaridan to'g'ri va maqsadli foydalanishni o'rgatadi, mustaqil holda o'z bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi.

– biologiya fanini o'qitishning ijodiy elektron ta'lim muhiti yaratiladi.

– o'quvchilar mediata'lim resurslari asosida sifatli o'quv materiallari bilan ta'minlanadi;

– biologiya fani bo'yicha yangiliklar, ilg'or tajribalar, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning eng so'ngi yutuqlaridan muntazam xabardor bo'lib boradi.

Yuqoridagi fikrlar asosida umumta'lim maktablarida biologiya fanini mediata'lim resurslari asosida o'qitish strukturasi asosiy omillariga quyidagilarni kiritish mumkin (1-rasm):

Biologiya fanini mediata'lim resurslari asosida omillari

Metodik	Didaktik	Psixologik
Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlaridan foydalanish	Ta'lim jarayonida ilmiylik va izchillikni ta'minlash	Mediatexnologik ta'lim jarayoniga psixologik tayyorgarlik
Innavatsion, pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish	Ta'limda pedagogik didaktik kategoriyalar	Mediasavodxonlik va mediakompetentlikni oshirish
Ta'lim jarayoniga zamonaviy mediata'lim resurslarini joriy etish	Biologiya fanini o'qitish jarayonini optimallashtirish va samarali natijaga erishish	Axborot medimadaniyatini rivojlantirish
Ta'lim metodlari va vositalaridan foydalanish	Ta'lim jarayonlarining interfaoligi	O'zini takomillashgan mediata'limga tayyorlash

Talabalarda zoologiya fanini mediatexnologiyalar asosida o'qitishning ilmiy-metodik ta'minoti takomillashtiriladi

1-rasm. Umumta'lim maktablarida biologiya fanini mediata'lim resurslari asosida o'qitish strukturasining asosiy omillari

Umumta'lim maktablari biologiya ta'limida mediata'lim resurslaridan foydalanish ta'limni tashkil etishning yangi uslubiy imkoniyatlarini ochib beradi. Mavzuga doir ma'lumotlar, video va foto suratlarni kompyuter dasturlari vositasida qo'llash samarali natijaga erishishga olib keladi. Bunda tasvirlar modellashtirishning 3D-dizayner dasturlari yordamida tayyorlangan bo'lsa va ulardan foydalanish metodikasi ko'rsatilib berilsa, samaradorlik yanada yuqori bosqichga

ko'tariladi. Bunday tasvirlardan fanni o'qitishda foydalanish mavzularga oid ma'lumotlar mohiyati to'liq ochib berish imkoniyatini yaratadi.

Multimediali elektron axborot ta'lim resursiga ma'lum o'quv fani mavzusiga doir videolavhalar misol bo'lishi mumkin⁶ Aynan multimediali elektron ta'lim manbalari videodarslar, elektron qo'llanmalar, taqdimotlar, ishlanmalarda hamda slaydlarda mujassamlashgan. S.Ibragimovanning fikricha, multimedia (ingl. multi – "ko'p, keng", media "muhit") resurslar ovoz, grafika, animatsiyalarni o'ziga olgan harakatlanish mavjud bo'lgan muayyan mavzuga doir resursdir⁷.

Jumladan, multimediali elektron darsliklar an'anaviy darsliklarga nisbatan bir qancha qulayliklarga ega:

- an'anaviy darsliklarda tegishli mavzuga doir materiallar matniga doir bitta rasm keltiriladi, bu esa ta'lim oluvchilarning mavzu bo'yicha keng tasavvurga ega bo'lishlariga imkoniyat bermaydi;
- multimediali elektron darsliklarda mavzuga doir material matni, uni ma'ruza qiluvchi diktorning ovozi, mavzu doirasidagi animatsiyalar berilgan rasmlar, kinofilm lavhalari hamda musiqalar birgalikda taqdim etiladi. Bu jarayon ta'lim oluvchilarda mavzuga doir keng ko'lamdagi ma'lumotlarni qisqa muddatda puxta o'zlashtirishlariga imkon beradi.

Mediata'lim resurslaridan foydalanishda o'quvchilar quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- izlanayotgan axborot bazasidagi manbalarning nomi, mavzusi va darslik yo'nalishiga mos kelishi yo'nalishiga mos kelish yoki kelmasligi, bularga berilgan izoh, tavsif va qo'shimcha didaktik materiallardan foydalana olish kompetensiyasiga ega bo'lishi;
- biologiya fani bo'yicha olinayotgan material va manbalarni darslikdagi mavzular bo'yicha

⁶ Worsnop, CM. (2004). Media Literacy Through Critical Thinking. NW Center for Excellence in Media Literacy.

⁷ Ibragimova S.B. Multimediali pedagogik dasturiy vositalar yaratish texnologiyasi». – T.: O'zDjTI, 2016.

tizimlashtirib foydalanishga o'rgatish;

- berilayotgan vizual (chizma, surat, rasm ko'rinishdagi) materiallarga ishlov berish kompetensiyasini shakllantirish;

- berilgan axborot bazasi yoki resurs materiallarini transformatsiya qilish, ya'ni berilgan materiallarning hajmi, mazmuni va shaklini darslik materialiga moslashtirish, qisqartirish yoki o'zgartirish holatlariga e'tiborli bo'lish;

- axborotlar bazasidan olingan materiallarini o'zining so'zi bilan aytib berish, asoslash orqali kommunikativ kompetentligini shakllantirish⁸.

Mediata'lim resurslarining Gipermatnli texnologiyalar turiga internet tarmog'idan foydalanish hisoblanadi. Internet tarmog'idan ta'lim berish sohasida qo'llanilishi axborot texnologiyalaridan foydalanishning barcha imkoniyatlarini to'liq ochib beradi, sinf-dars tizimida mavjud bo'lgan kamchiliklar bartaraf qilinadi, o'qituvchi bilan bo'lgan shaxsiy munosabatlar tekislanadi⁹.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, mediata'lim resurslarini biologiya ta'limiga joriy etish quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- biologiya fanini o'qitishda mediata'lim resurslarni keng joriy etish va o'quvchilarning axborot savodxonligi va mediakompetentligini rivojlantirish;

- biologiya fanini mediata'lim resurslari asosida o'qitishning yangi metodlarini ishlab chiqish va ularni ta'lim-tarbiya jarayonlarga tatbiq qilish;

- biologiya ta'limiga elektron axborot ta'lim resurslarini joriy etishni kompyuter texnikasi yordamida modellashtirish.

Umumta'lim maktablari biologiya ta'limida

samarali natijalarga erishishning asosiy omillaridan biri mediatexnologiyalarning rivojlangan mamlakatlar ta'lim jarayonlariga integrativ tarzda tatbiq etishidir. Shu asnoda biologiya fanini o'qitish metodikasini yanada takomillashtirishda mediatexnologiyalar yangicha ahamiyat kasb etadi. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, bugungi ham mediatexnologiyalarga asoslangan ta'limning rivojlanish jarayoni jadal davom etmoqda.

8 Hasanova Sh.B. Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarda ta'yanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi: ped. fan.falsafa dok...diss. – Toshkent. 2019–y.

9 Арипов М. и др. Основы Интернет. Университет, 2002. – С. 194.

"ODAM ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI" FANINI KREDIT-MODUL TIZIMI ASOSIDA O'QITISHNING INNOVATSION ASOSLARI

Xurshida Olimjonovna Pardayeva – p.f.b.f.d., katta
o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqola "Odam anatomiyasi va fiziologiyasi" fanini kredit-modul tizimi asosida o'qitishning innovatsion asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Kredit-modul ta'lim amaliyoti ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi aniq misollar bilan ushbu maqolada ochib berilgan.

Аннотация. Статья посвящена изучению инновационных принципов преподавания предмета «Анатомия и физиология человека» на основе кредитно-модульной системы. В статье на конкретных примерах показано, что повсеместное внедрение передовых педагогических технологий в практику кредитно-модульного обучения послужит повышению качества обучения.

Abstract. This article is devoted to the study of innovative principles of teaching the subject "Human Anatomy and Physiology" based on the credit-module system. This article demonstrates with concrete examples that the widespread implementation of advanced pedagogical technologies in the practice of credit-module education serves to improve the quality of education.

Kalit so'zlar: kredit-modul tizimi, zamonaviy pedagogik, texnologik, informatsion metodlar, o'qitishni loyihalashtirish, Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, современные педагогические, технологические, информационные методы, проектирование обучения, личностно-ориентированное образование.

Keywords: credit-module system, modern pedagogical, technological, information methods, teaching design, Person-centered education.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi¹, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"² kabi qaror va farmonlarda Yangi O'zbekiston oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish masalalari ko'tarilgan. Shu ma'noda O'zbekiston oliy o'quv yurtlarining kredit-modul ta'lim tizimiga o'tishi jahonning yetakchi zamonaviy

pedagogik, texnologik, informatsion metodlarini ta'lim jarayoniga to'liq olib kirishni anglatadi.

Kredit-modul ta'lim amaliyoti ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishini to'liq tasdiqlamoqda. Biroq ilg'or pedagogik texnologiyalarni oliy ta'lim jarayoniga qo'llash bilan bog'liq bir qator muammolar mavjudki, ularni e'tiborga olish va hal etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bunday dolzarb muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) oliy ta'limda qo'llash uchun mo'ljallangan

- 1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги ПҚ-3775-сонли «Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мamlakatда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори.
- 2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси» Фармони.

interfaol metodlar tasnifi va ularning mazmun-mohiyatini yoritib beruvchi o'quv-uslubiy qo'llanmalarni yaratish;

2) professor-o'qituvchilar interfaol metodlarni qo'llashda uslubiy qoidalarga to'liq rioya etishlari zarur. Interfaol usullar fanning o'ziga xos xususiyati, mavzuning maqsad va vazifalari, talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o'tkazilishi lozim;

3) ta'lim texnologiyalarini yaratish uchun professor-o'qituvchilar o'quv maqsadlarini pedagogik vazifalarga aylantirish, uni kutiladigan natijaga mos holda aniqlash ko'nikmasiga ega bo'lishlari lozim;

4) oliy ta'lim kredit-modul ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishni zamonaviy ta'lim talabi sifatida qabul qilish kerak.

Zamonaviy jamiyat o'zining tez va chuqur o'zgaruvchan tavsifiga ega bo'lib, bunday o'zgarishlar jamoatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, demografik siyosat, urbanizatsiya jarayonlarida ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Ta'lim ham global umumhamjamiyat tuzilmasining alohida tarkibiy qismi sifatida jamiyatda bo'layotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olishi, ana shu asosda o'z tuzilishi va faoliyat mazmunini o'zgartirishi zarur. Bugungi kunda ta'limning jamiyat rivojlanish sur'atlaridan ortda qolayotganligi, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan texnologiyalarning zamonaviy talablarga to'liq javob bermasligi haqidagi masala dunyo hamjamiyati tomonidan tez-tez e'tirof etilmoqda. Chunki ta'lim ham ijtimoiylashtirish vazifasini bajaruvchi sifatida jamiyatdagi o'zgarishlar ortidan borishi hamda uning rivojlanishiga

o'z ta'sirini o'tkazishi kerak. Biroq jamiyat rivojlanishi va ta'lim tizimi o'rtasidagi munosabat murakkab ko'rinishga ega bo'lib, yuqori darajadagi jo'shqinlik bilan farqlanadi. Ta'lim barcha faol va sust o'zgarishlar ta'sirini qabul qilavermaydi, jamiyatda bo'layotgan voqealarga esa o'z ta'sirini o'tkazadi. Ana shu nuqtai nazardan ta'limdagi o'zgarishlar faqatgina natija sifatida emas, balki jamiyatning kelgusidagi o'ziga xos rivojlanish shartidir. Shu ma'noda O'zbekiston oliy ta'lim jarayoniga tadbqiq etilayotgan kredit-modul tizimi ta'lim oluvchi shaxsiga qaratilgan jarayonni yanada texnologiyalashtirish yo'li bilan jahon ta'lim tizimida qo'llanilayotgan eng ilg'or innovatsiyalarni ijobiy o'zlashtirish demakdir³.

O'quv jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ta'lim sifatini belgilovchi holatlarga jiddiy e'tibor berish, unda yuqori pedagogik darajada dars berish bilan bir qatorda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodikani ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tariqasida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia vositalaridan foydalanishga undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, talabalar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb kilishdan iboratdir.

"Odam anatomiyasi va fiziologiyasi" fanini^{4,5,6,7} kredit-modul tizim asosida o'qitishni loyihalashtirishda kuyidagi asosiy konseptual yondashuvlardan foydalanish zarur.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining to'laqonli rivojlanishlari ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta,

3 Ўринов В., Умаров А. Олий таълимда кредит-модул: янги ўқув йилида талабаларни нималар кутмоқда? ҳтпс://кун.уз/ news/2020/07/22/олий-талимда-кредит-модул-келаётган-оқув-йилида-талабаларни-нималар-кутмоқда

4 Nuriddinov E.N. Odam fiziologiyasi. – T.: A'loqachi, 2005.

5 Xudoyberdiev R.E., Axmedov I.K. Odam anatomiyasi. – T.: Ibn Sino, 1993.

6 Ahmedov A. Odam Anatomiyasi. – T.: Iqtisod moliya, 2007.

7 Boxodirov R. "Odam anatomiyasi. – T.: O'zbekiston, 2006.

ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishini nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohodani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash orqali ta'limni amalga oshirish.

O'qitishning usullari va texnikasiga ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar kiradi.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari - o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so'rov, joriy va oraliq, yakunlovchi nazorat natijalarini taxlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs davomida oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

An'anaviy ta'limda o'quv maqsadlari pedagoglar faoliyati orqali ifodalangan bo'lsa, kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ta'limi ta'lim markazida bo'ladi. Ular bilim olishga, malaka oshirishga va ko'nikma hosil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, talabalar faoliyati orqali ifodalanadi va kasbiy faoliyatga yo'naltiriladi.

Modul - fanning o'zaro bog'liq fundamental tushunchalarini o'rganishga yo'naltirilgan, didaktik tamoyillar asosida tuzilgan, o'quv materialining birligidir. Modulli o'qitish - o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga juda yaxshi moslashadi.

Modulli o'qitish, kasbiy ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi.

- Modul – faoliyatlilik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarini o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlaydi;

- o'qitishni individuallashtirish;

- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;

- kasbiy motivatsiya (qiziqtirish) asosida, faollashtirish, mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.

Modulli o'qitishda, o'quv dasturlarini to'la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan ko'rinishdagi tabaqalash orqali, bosqichma-bosqich o'qitish, ya'ni o'qitishni individuallashtirish imkoniyati yaratiladi. Modulli texnologiya asosida o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar nazarda tutiladi:

- o'qitishning uzluksizligini ta'minlash;

- o'qitishni individuallashtirish;

- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;

- o'qitish jarayonini jadallashtirish;

- fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

Bizningcha, fanlardan modulli texnologiya asosida o'quv adabiyotlarining yaratilishi va ta'lim jarayoniga joriy etilishida modulli o'qitish tizimi to'liq amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, maxsus fanning modulli o'quv dasturi ishlab chiqiladi va shu dastur asosida tegishli darslik yoki o'quv qo'llanmalar yaratiladi.

Modulli o'quv dasturida maxsus fanga tegishli bitta faoliyat turiga tegishli bir-biriga bog'liq mavzular guruhlanadi.

Maxsus fan tarkibidagi har bir modul o'zida bir yoki bir nechta fundamental tushunchalarni

va faoliyat turini o'rganishga qaratilgan nazariy bilimlar va shu nazariy bilimlarni egallashga ko'maklashishi bilan amaliy mashg'ulotlar, hamda bilim va ko'nikmalarni baholash tizimini qamrab oladi.

Modulli texnologiya asosida o'quv adabiyotlarini yaratishda har bir modul ta'lim oluvchilarda mustaqil tafakkur yuritish, mustaqil rejalashtirish va muammolarni yechish yo'llarini taklif qilishi, hamda bilimlarni kasbiy faoliyatga qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Har bir modulda o'quv dasturiga mos ravishdagi qoidalar o'z aksini topishi, ta'lim mazmunini barcha tashkil etuvchilari qamrab olinishi, o'zlashtirishni tashkil qilish apparati bo'lishi va mazmunning aniq tuzilmaviy tizimi saqlanishi kerak. Demak, ta'lim modulida ma'lum bir faoliyat turining mazmuni va usullari umumlashtirilgan bo'lishi, hamda yuqori pedagogik natija rejalashtirilishi lozim. Shunga ko'ra kredit-modul ta'lim tizimiga asoslangan darslikla, o'quv qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Darslikdagi har bir modul o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini faollashtirish va qiziqtirish, mustaqil o'rganish, o'quv materialini to'liq o'zlashtirish va individual ishlash imkoniyatini yaratish kabi masalalarni yechishi kerak.

Har bir modul bo'yicha tayanch iboralarni alohida ko'rsatish lozim. Har bir tayanch iborani, o'rganilish darajasini belgilash zarur bo'ladi. Ya'ni talaba qaysidir tayanch iborani bilish darajasida, boshqasini qo'llash, ayrim tayanch iboralarni baholash darajasida o'zlashtirishi kerak bo'ladi.

Nazariy o'quv materialida modulga tegishli faoliyat turi nazariy jihatdan yoritilishi kerak. Amaliy o'quv materiallarida modulni o'zlashtirishda va mustaqil tarzda bilimlar olishda talaba bajaradigan amaliy faoliyat usullari, tajriba va eksperimentlarni o'tkazish metodlari bayon qilinishi hamda ko'rsatmalar,

tavsiyalar berilishi kerak. Shuningdek, talabalarda kasbiy ko'nikma va mahoratlarni shakllantirish uchun haqiqiy obyektlar bilan o'zaro harakat usullari va hayotiy tajribalar batafsil bayon etiladi. Talabalarining bevosita amaliy ishlarni bajarishlari uchun shunday uslubiy tavsiyalar berilishi kerakki, undan talabalar ma'lum ko'nikma va mahoratlarni egallashlari uchun o'zlarining bilimlarini amaliyotga qo'llashni o'rganishlari kerak.

Nazariy va amaliy matnlarda modul mazmuni aniq aks ettirilishi, talabalarga keyingi modulga o'tishda qiziqishni uyg'otishi, va taassurot qoldiradigan bo'lishi kerak. Matnning tili tushunarli bo'lishi kerak. Modulda izohlar, lug'atlar berilishi o'quv materialini o'zlashtirishni osonlashtiradi.

Izohlar, lug'atlar talabalarining modulni mustaqil o'rganishlarida qo'llaniladi. Izohlar ma'lumotlar ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Biroq shuni ham inobatga olish kerakki, izohlarning hajmi kattaligi va davriy takrorlanishi talabalarga fikrlarini bir joyga jamlashni qiyinlashtiradi, materialni to'liqligicha qabul qilishlarini murakkablashtiradi, asosiy matnga diqqatni jalb qilishga xalaqit qiladi. Modulni o'zlashtirishda atamashunoslik, tarjimali va boshqa lug'atlarning berilishi matndagi yangi atamalar, atamalarni tushunishga yordam beradi.

Har bir modulda talabalarining o'z-o'zini tekshirish va bilimlarini mustahkamlash uchun savollar, testlar, mustaqil ishlash uchun amaliy topshiriqlar yoki mashqlar va ularni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma tavsiyalar bo'lishi kerak. Savollar talabalarni bilim olishga qiziqishlarini, mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirishga, taqqoslash, sintez, tahlil qilish usullaridan foydalana olish mahoratlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari bir-biri bilan uyg'unlashgan va moslashgan holda bir-birini to'ldirish kerak.

Mana shunday uyg'unlik ta'lim samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari, o'qituvchi oldida o'quvchilarni axborot olish va qayta ishlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish vazifalari turadi, tabiiyki bunda talabaga rivojlangan raqamlashtirish katta yordam beradi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishida o'qituvchining o'zi maslahatchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, o'quv jarayonining boshqaruvchisiga aylanib boradi.

Bunda bosh masala bilimlar olamiga kirish, bu olamning resurslaridan foydalanish va o'zlashtirishga bog'lanib qoladi. O'quvchi axborot ummonida yangicha qoidalarni o'rganishi, barcha o'quv fanlar kesimida axborot olishi va uni qayta ishlay olishi bevosita mashg'ulotlarning tashkil etilishiga bog'liq. Beriladigan ma'lumotlarni yanada mazmunga boy, esda qoladigan va ko'rgazmali bo'lishi uchun ko'proq multimedia texnologiyalaridan foydalaniladi.

Global Internet tizimining rivojlanishi jahon ta'lim tizimida yangi istiqbollarni ochib berdi. Bugungi kunda an'anaviy ta'lim uslublari Internet, elektron-kompyuter setlari va telekommunikatsiya muhitiga asoslangan yangi o'qitish uslublari asosiy ta'lim uslublari ga aylanmoqda. Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida teleo'qitish va masofaviy ta'lim bir qator yangi funksiyalarni bajarish bilan bir qatorda, o'zaro taqsimlangan hamkorlik prinsipi, integratsiya, xalqaro Internet tarmog'iga kirish va uning manbalaridan foydalanish kabi aniq maqsad va vazifalarni amalda qo'llashni taqazo etadi.

Xalqimizda "Beshikdan to qabrgacha ilm izla" degan purma'no hikmat ishlatiladi. Hozirgi davr ham insondan umrbod ta'lim olishni, ya'ni o'z hayotiy faoliyati davomida muntazam kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirib borishini, bugungi global o'zgarishlar asrida rivojlanish ko'pgina hollarda Raqamlashtirilgan ta'lim muhiti bilan bog'liqdir.

“Odam anatomiyasi va fiziologiyasi” fanini kredit-modul tizim asosida o‘qitishning innovatsion asoslari talabalarning mustaqil bilim olishlarini yo‘lga qo‘yish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, erkin fikrlash, o‘zaro muloqotlarda faol ishtirok etishga o‘rgatish, kasbiy qiziqish va intilishlarini oshirish kutilgan yuksak pedagogik natijalarni ta’minlaydi deb hisoblaymiz.

An’anaviy ta’limda o‘quv maqsadlari pedagoglar faoliyati orqali ifodalangan bo‘lsa, kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ta’limi ta’lim markazida bo‘ladi. Ular bilim olishga, malaka oshirishga va ko‘nikma hosil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalar faoliyati orqali ifodalanadi va kasbiy faoliyatga yo‘naltiriladi.

Modul – fanning o‘zaro bog‘liq fundamental tushunchalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan, didaktik tamoyillar asosida tuzilgan, o‘quv materialining birligidir. Modulli o‘qitish – o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u o‘quvchilarning bilish imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga juda yaxshi moslashadi.

Modulli o‘qitish, kasbiy ta’limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi.

02

AMALIY FANLAR

OLIMPIYADAGA TAYYORGARLIK SIKLIDA MASHG'ULOT VOSITALARINING TAHLILI

Valixan Djumanovich Anashov – p.f.b.f.d. (PhD), professor,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada olimpiya tayyorgarlik tizimida bokschilarning ixtisoslashtirilgan va ixtisoslashtirilmagan mashqlar hajmining taqsimoti tahlil qilingan. 2017–2021-yillar oralig'idagi musobaqa taqvimini asosida mashg'ulot yuklamalarining dinamikasi va ularning sportchilarning funksional holatiga ta'siri o'rganilgan. Ilmiy tahlil natijalari asosida optimal mashg'ulot modelini shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada ko'p yillik tayyorgarlik jarayonida maqsadli tayyorgarlik prinsipining samaradorligi yoritilgan.

Аннотация. В данной статье проанализировано распределение объемов специализированных и неспециализированных упражнений в системе олимпийской подготовки боксёров. На основе календаря соревнований 2017–2021 годов изучена динамика тренировочных нагрузок и их влияние на функциональное состояние спортсменов. По результатам научного анализа разработаны методические рекомендации по формированию оптимальной тренировочной модели. В статье освещена эффективность принципа целевой подготовки в процессе многолетней тренировки.

Abstract. This article analyzes the distribution of specialized and non-specialized exercises within the Olympic training system of boxers. Based on the competition calendar of 2017–2021, the dynamics of training loads and their impact on athletes' functional state were examined. As a result of the scientific analysis, methodological recommendations for developing an optimal training model were proposed. The article highlights the effectiveness of the principle of targeted preparation in the process of long-term training.

Kalit so'zlar: boks, olimpiya tayyorgarligi, ixtisoslashtirilgan mashqlar, musobaqa taqvimini.

Ключевые слова: бокс, олимпийская подготовка, специализированные упражнения, календарь.

Keywords: boxing, Olympic training, specialized exercises, competition calendar.

Yuqori natijalarga erishish yo'lida bokschilarning tayyorgarlik jarayonini ilmiy asosda tashkil etish zarur hisoblanadi. Mashg'ulotning samarasi sportchining texnik-taktik mahorati, funksional holati va musobaqaga tayyorgarligi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois mashg'ulot turlarini tahlil qilish va ularni musobaqa taqvimiga uyg'unlashtirish sportchining optimal sport formasiga chiqishini ta'minlaydi.

Bokschining tayyorgarlik jarayonida yuklamalarning izchil taqsimlanishi va dinamik ravishda oshirilishi organizmning moslashish qobiliyatiga bog'liq holda amalga oshiriladi. "Moslashuv prinsipi" talablariga ko'ra, mashg'ulot yuklamalari avvalo engilroq va umumiy ta'sirga ega bo'ladi, keyinchalik

esa bosqichma-bosqich kuchaytirilib, yuqori intensivlik va ixtisoslashgan ta'sirlarga aylanadi. Bu jarayon sportchi organizmining oldingi yuklamalarga moslashgan holatidan unumli foydalanish bilan birga, yangi kuchlanishlarga ham tayyor holatga keltirishni ta'minlaydi.

2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5281 sonli "2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga o'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi Qarorida sportchilarni musobaqalarga tayyorgarligi va o'quv-mashg'ulot jarayoniga ilg'or innovatsion, ilmiy-metodik texnologiyalarni joriy etish hamda sportchilarning xalqaro sport musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlash yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifalari

belgilab berilgan¹.

Yuklamalarni tashkil etishda ularning intensivligi bilan birga umumiy hajmi va yo'nalishini aniq hisobga olish zarur. Chunki noto'g'ri yoki ortiqcha yuklamalar ko'p yillik tayyorgarlik jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, maqsadli musobaqalardan kelib chiqqan holda siklli yuklama tizimini tuzish, uning tarkibiy qismlarini sportchining individual xususiyatlariga mos ravishda belgilash olimpiadalararo tayyorgarlik siklida modernizatsiyaning eng muhim yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi.

D.Alimova tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishida o'rta tog' sharoitida muntazam shug'ullanuvchi yuqori malakali bokschi ayollar bilan mashg'ulot yuklamalarining ilmiy asosda rejalashtirilishi va taqsimoti o'rganilgan. Tadqiqotda sportchilarning yillik tayyorgarlik sikli davomida ixtisoslashtirilgan va ixtisoslashtirilmagan mashqlar ulushini aniqlash va ularni optimal darajada muvozanatlash asosiy maqsad qilib olingan².

R.D.Xalmuxamedovning mashg'ulot yuklamalarini taqsimlashga oid modeli sportchilarning ko'p yillik tayyorgarlik siklida yuklama hajmi va mazmunining bosqichma-bosqich tuzilishini aniqlashga imkon beradi. Ushbu yondashuv yuklama intensivligini nazorat qilish, funksional o'zgarishlarni kuzatish va sportchilarning maksimal samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Modelda ixtisoslashtirilgan va ixtisoslashtirilmagan mashqlar o'rtasidagi nisbatlar, ularning yuklama diapazonlari va tiklanishga ta'siri aniq mezonlar asosida ajratilgan. Bu mezonlar mashg'ulotlarning

samarali rejalashtirilishi, texnik-taktik ko'nikmalarning shakllanishi hamda musobaqaviy tayyorgarlik jarayonining individual yondashuv asosida boshqarilishiga xizmat qiladi³.

Olimpiya tayyorgarlik tizimida bokschilarning ixtisoslashtirilgan va ixtisoslashtirilmagan mashqlar hajmini aniqlash va tahlil qilish.

Mashqlar hajmini o'rganish, ularning musobaqa taqvimini asosida dinamikasini aniqlash.

Yillik va bosqichma-bosqich tahlillar natijasida 2017–2021-yillar oralig'idagi Olimpiya tayyorgarlik sikli uchun metodik yondashuvlar, mashg'ulot tuzilmasi va yuklama mezonlari qayta ko'rib chiqildi. Xususan, boks sport turining texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlikdagi o'ziga xos jihatlari, shuningdek, har bir mashq turining sportchilarning holatiga va tayyorgarlik bosqichiga ko'ra qo'llanilishi chuqur tahlil qilindi.

Yillik dinamikaga qaraganda, mashg'ulotlarning struktura va tarkibiy nisbatlari yilma-yil sezilarli darajada o'zgarmagan. Bu holat mashg'ulotlar rejalashtiruvda metodik barqarorlik saqlanganligini, yuklamalarning funksional yo'nalishlar bo'yicha muvofiq taqsimlanganligini ko'rsatadi.

2022–2024-yillar davomida O'zbekiston boks terma jamoasining ishtirok etgan asosiy musobaqalari sportchilarning tayyorgarlik sikllarini ilmiy asosda rejalashtirish, o'quv-yig'in mashg'ulotlarini samarali tashkil etish va yillik yuklama tuzilmasini optimallashtirishda metodik asos bo'lib xizmat qilgan. Quyida keltirilgan 1-jadval mazkur yillar davomida amalga oshirilgan asosiy xalqaro va milliy musobaqalarni o'z ichiga oladi (1-jadvalga qarang).

Bokschilarning tayyorgarlik sikllarini

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrda PQ-5281 sonli "2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi Qarori.

2 Alimova D.A. O'rta tog' sharoitida yuqori malakali bokschi (ayollar) larning mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi / D.A.Alimova. – Chirchiq: O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, 2022. – 130 b.

3 Шин В.Н. Юқори малакали боксчиларни йиллик тайёргарлик цикллари тўғрисида : Педагогика фанлари номзоди диссертацияси / В.Н.Шин. – Тошкент, 2001. – 150 б.

samarali rejalashtirish va o'quv-yig'in mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida asosiy musobaqalarning kalendari muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Quyida keltirilgan 1-jadvalda 2017-2021-yillar davomida O'zbekiston boks terma jamoasining ishtirok etgan asosiy musobaqalarini o'z ichiga oladi.

1-jadval

Tayyorgarlik rejalarini shakllantirishda asos bo'lgan 2017-2021 yillardagi asosiy musobaqalar taqvimini

2017-yil	
Osiyo chempionati (29th)	Toshkent, (O'zbekiston) - 30 aprel - 7 may
Jahon chempionati	Gamburg, (Germaniya) - 25 avgust - 2 sentyabr
Respublika chempionati	Termiz, (O'zbekiston) - 23-30 noyabr
2018-yil	
India Open (xalqaro turnir)	Nyu-Dehli, (Hindiston) - 28 yanvar - 1 fevral
18-chi Osiyo o'yinlari	Jakarta-Palembang, (Indoneziya)-18 avgust-2 sentyabr
Respublika chempionati	Samarqand, (O'zbekiston) - Dekabr
2019-yil	
"Buyuk ipak yo'li" turniri	Boku, (Ozarbayjon) - 26 mart - 2 aprel
Osiyo chempionati	Bangkok, (Tailand) - 17-28 aprel
Jahon chempionati	Ekaterinburg, (Rossiya) - 7-21 sentyabr
Respublika chempionati	O'zbekiston - 22-29 oktyabr
2020-yil	
Olimpiyadaga litsenziya turniri (Osiyo okeaniya)	Amman, (Iordaniya) - 3-11 mart
Respublika chempionati	Toshkent, (O'zbekiston) - 30 oktyabr - 7 noyabr

2021-yil	
Strandja xalqaro turniri	Sofiya, (Bolgariya) - 22-27 fevral
Gubernator Kubogi	Sankt-Peterburg (Rossiya) - 19-24 aprel
Osiyo chempionati	Dubay, (BAA) - 24 may - 1 iyun
Olimpiya o'yinlari (Tokyo 2020)	Tokio, (Yaponiya) - 23 iyul - 8 avgust

Bokschilarning tayyorgarlik sikllarini samarali rejalashtirish, bosqichma-bosqich mashg'ulotlarni tashkil etish va sport formasini optimal holatga olib chiqish jarayonlarida asosiy musobaqalarning yillik kalendari metodik jihatdan muhim ahamiyat kasb etdi. Musobaqalar taqvimini o'quv-yig'in mashg'ulotlari davriyligini, yuklama hajmi va intensivligini belgilashda, shuningdek, sportchilarning funksional holatini bosqichma-bosqich oshirishda asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda bokschilarni tayyorlash tizimidagi mashg'ulot yuklamalari R.D.Xalmuhamedov metodikasiga tayangan holda, olimpiya tayyorgarlik sikli doirasida rejalashtirilib va tahlil qilindi. 2017-2021-yillar davomida O'zbekiston kattalar boks terma jamoasining xalqaro va Respublika miqyosidagi musobaqalarda ishtiroki, yig'in mashg'ulotlari hamda tayyorgarlik jarayonining monitoringi asosida yuklamalarning funksional tuzilmasi va bosqichma-bosqich dinamikasi aniqlab chiqildi. Tadqiqot natijasida ixtisoslashtirilgan va ixtisoslashtirilmagan mashqlar hajmining yillik taqsimoti aniqlanib, tayyorgarlik mazmuni kalendar asosida tizimlashtirildi. Ushbu tahliliy ma'lumotlar mashg'ulot yuklamalarini ilmiy asosda rejalashtirish va baholashda muhim analitik manba sifatida xizmat qildi 2-jadvalga qarang.

2-jadval

Malakali bokschilarni ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida ixtisoslashtirilgan va ixtisoslashtirilmagan mashqlar hajmining taqsimoti (2017–2021–yillar)

№	Mashq turlari	2017	2018	2019	2020	2021 (yanvar-iyul)	Umumiy hajm
1	Ixtisoslashtirilgan mashqlarning umumiy hajmi	4450	4590	4720	4100	2255	20115
2	Maksimal ixtisoslashtirilgan mashqlar ($mk \geq 0,8$)	1010	1050	1100	900	495	4605
3	Yuqori ixtisoslashtirilgan mashqlar ($mk < 0,8$)	1260	1300	1320	1180	650	5710
4	O'rta ixtisoslashtirilgan mashqlar ($mk 0,5-0,7$)	780	810	830	710	390	3520
5	Past ixtisoslashtirilgan mashqlar ($mk \leq 0,4$)	1400	1430	1470	1310	720	6330
6	Ixtisoslashtirilmagan mashqlarning umumiy hajmi	3700	3650	3550	3000	1650	15550
7	Gimnastika mashqlari	765	750	740	650	360	3265
8	Sakrash mashqlari	1660	1640	1620	1450	800	7170
9	Kross yugurish	820	800	780	670	370	3440
10	Sport o'yinlari	455	460	410	230	120	1675
JAMI		8150	8230	8270	7100	3905	35655

Izoh: mk–murakkablik koefitsenti.

Malakali bokschilarni ko'p yillik tayyorgarlik jarayonida mashg'ulot yuklamalarini to'g'ri tashkil etish hamda ularni yillar kesimida tahlil qilish bokschilarning sport formasini saqlash va yuqori natijalarga erishishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xususan, ixtisoslashtirilgan va ixtisoslashtirilmagan mashqlar o'rtasidagi muvozanat va ularning dinamikasi Olimpiadalararo tayyorgarlik siklining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sanaladi.

Ixtisoslashtirilgan mashqlar hajmining o'sishi 2017–2019 yillarda ixtisoslashtirilgan mashqlarning umumiy hajmi yildan yilga oshgan. Bu jarayon yuqori malakali bokschilarning texnik va taktik ko'nikmalarini rivojlantirishga

bo'lgan jiddiy yondashuvni aks ettiradi. Masalan, maksimal ixtisoslashtirilgan mashqlar 2017–yilda 1010 soat bo'lsa, 2019–yilda 1100 soatgacha etgan. Bu mashqlar yuqori murakkablikdagi harakatlar, dinamik o'zaro ta'sir va tezkor qaror qabul qilishni rivojlantiruvchi vazifalarni o'z ichiga oladi.

2020–yil pandemiya ta'siri 2020–yilda COVID-19 pandemiyasi sabab bokschilarni rejali tayyorlash jarayonida katta uzilish yuz berdi. Sport zallari yopildi, ko'plab musobaqalar bekor qilindi yoki ko'chirildi, markazlashtirilgan yig'inlar cheklendi. Bu esa mashg'ulot yuklamalari hajmining 13–15% kamayishiga olib keldi. Jumladan, maksimal ixtisoslashtirilgan mashqlar 900 soatga tushdi, umumiy ixtisoslashtirilgan mashqlar esa 4100 soatni tashkil etdi.

Pandemiya sabab bokschilar kerakli yuklamalarni olishda bir qator qiyinchiliklarga duch keldilar. Masofaviy mashg'ulotlar orqali qisman mashg'ulot jarayoni davom ettirilgan bo'lsa-da, amaliyotda bu to'liq samara bermadi. Jismoniy nazorat, sparringlar, raqib bilan to'qnashuv sharoitidagi mashg'ulotlar amalga oshirilmadi. Bu esa funksional holatni pasaytirdi va sport formasini saqlashni qiyinlashtirdi.

2021-yilda tiklanish tendensiyasi pandemiyadan keyingi 2021-yilning yanvar-iyul oylarida mashg'ulotlar sekinlik bilan oshirildi. Ushbu davrda umumiy yuklama 3905 soat atrofida bo'lib, bu yillik yuklama miqdorining taxminan yarmini tashkil etadi. Bu jarayon ehtiyotkorlik va individual yondashuv asosida amalga oshirildi.

Ixtisoslashtirilmagan mashqlarning ahamiyati Ixtisoslashtirilmagan mashqlar – gimnastika, sakrash mashqlari, kross yugurish va sport o'yinlari va boshqalar sportchilarning umumiy jismoniy holatini saqlashda muhim rol o'ynaydi. 2020-yilda ularning hajmi ham pasaygan (3000 soat), 2021-yilda esa 1650 soatga etgan. Bu shuni ko'rsatadiki, umumiy tayyorgarlikni oshirish jarayonida funksional yuklamalar va tiklanish mexanizmlariga katta e'tibor berilgan.

2017-2021-yillardagi tahlil shuni ko'rsatadiki, yuqori malakali bokschilar tayyorgarligida ixtisoslashtirilgan mashg'ulotlar salmog'i yildan yilga ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. 5 yil mobaynida umumiy 20115 soat ixtisoslashtirilgan mashqlar amalga oshirilgan bo'lib, bu jami tayyorgarlik soatlarining 56,4%ini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich sportchilarning mutaxassislik jihatdan etishishini ta'minlashda aniq maqsadli strategiya qo'llanilganini ko'rsatadi. Ayniqsa, yuqori va maksimal darajadagi ixtisoslashtirilgan mashqlar ulushining sezilarli yuqoriligi bokschilarning texnik-kompleksi va funksional tayyorgarligiga yuqori talab qo'yilganini ko'rsatadi.

Boshqa tomondan, tahlil davomida ixtisoslashtirilmagan mashqlar ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Umumiy jismoniy tayyorgarlikni ta'minlash va jarohatlar profilaktikasida bu mashqlarning roli beqiyos. Masalan, sakrash mashqlari 5 yil davomida 7170 soatni tashkil etgan bo'lib, bu umumiy ixtisoslashtirilmagan mashqlar tarkibida eng katta ulushga ega. Bu holat bokschilarda portlovchi kuch, tayyorlikdagi barqarorlik va umumiy funksional holatni saqlash maqsadida yuqori dinamikadagi mashqlarga afzallik berilganini ko'rsatadi. Mazkur tendensiyalar Olimpiadalarga tayyorgarlik davridagi mashg'ulot modellarini takomillashtirishda muhim metodik asos sifatida xizmat qiladi.

OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA SPORT VA SALOMATLIK IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Shohruh Abduljalol o'g'li Qayumov – p.f.b.f.d. (PhD),
dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarini sog'lom turmush sharoitida sport bilan muntazam shug'ullanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Аннотация. В нашем обществе проводится масштабная работа по формированию здорового образа жизни, созданию условий, соответствующих требованиям времени, для населения, особенно подрастающего поколения, для регулярных занятий физической культурой и массовым спортом, укреплению у молодежи уверенности в собственной воле, силах и возможностях через спортивные соревнования, развитию чувств мужества и патриотизма, преданности Родине, а также системной организации отбора талантливых спортсменов из числа молодежи, дальнейшему развитию физической культуры и массового спорта. В данной статье особое внимание уделено регулярному привлечению студентов высших учебных заведений к занятиям спортом и здоровому образу жизни.

Abstract. In our society, large-scale work is being carried out to form a healthy lifestyle, create conditions that meet the requirements of the times for the population, especially the younger generation, to regularly engage in physical education and mass sports, strengthen youth's confidence in their own will, strength and capabilities through sports competitions, develop feelings of courage and patriotism, loyalty to the Motherland, as well as systematically organize the selection of talented athletes from among young people, and further develop physical education and mass sports. This article focuses on the regular involvement of students of higher educational institutions in sports in a healthy lifestyle.

Kalit so'zlar: sog'lom turmush tarzi, innovatsiya, talaba, sport, immunitet, rivojlantirish, pedagogika, strategiya, olimpiada, mehnat, tabiat.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, инновации, студент, спорт, иммунитет, развитие, педагогика, стратегия, олимпиада, работа, природа.

Keywords: healthy lifestyle, innovation, student, sports, immunity, development, pedagogy, strategy, olympics, work, nature.

Dunyo aholisining salomatlik holatini tizimli o'rganish shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda tayanch-harakat tizimi kasalliklari soni sezilarli darajada oshmoqda. Har bir ta'lim muassasasi talabalarining bo'sh vaqtini mazmunli qilish uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni muntazam o'tkazishga alohida e'tibor qaratadi. Ayniqsa, madaniy uchrashuvlar, sport musobaqalari, ijodiy to'garaklar va ilmiy konferensiyalar orqali yoshlarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish odat tusiga kirgan. Biroq aksariyat talabalar

mazkur imkoniyatdan to'liq foydalanmayotgani ham bor gap. Bu esa yoshlarning bo'sh vaqtini qanday tashkil qilish va ularga yanada ko'p imkoniyat yaratish masalasi haqida chuqur o'ylash ehtiyojini paydo qiladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning har beshinchi aholisi bo'g'inlar funktsiyasining buzilishi, ulardagi og'riq yoki tayanch harakat apparatidagi nuqsonlarning mavjudligidan aziyat ko'rish kabi masalalar yuzaga kelmoqda. Shu kabi

patologiyalar ayniqsa yoshlar va talabalar orasida tashvishli, chunki ular boshqa ijtimoiy guruhlarga qaraganda jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni salomatligini tiklash, ijtimoiy hayotga moslashtirish vositalarini izlab topish va uni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan tadqiqotlarni olib borish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanmoqda,

Salomatlik – inson kamolotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, shaxsning hech kim dahl qila olmaydigan huquqi, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiy va jamiyat hayotida faol ishtiroketishi garovidir. Ma'lumki, jamiyatimizda inson salomatligi, jismoniy barkamolligi, sog'lom turmush tarzi madaniyatiga egaligi o'ta muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi¹. Millat salomatligini ta'minlash, xalq genofondini bekamu-ko'st saqlash sog'lom turmush tarzi tufayligina yetarlicha ijobiy tarzda hal etiladi. Bu esa, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari; oila, o'quv-tarbiya maskanlari, mahalla hamda mustaqil ta'lim oldiga jamiyatimiz fuqarolariga sog'lom turmush tarzi mazmuni va mohiyatini anglatish, yoshlarni sergak va bilimdon, barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalasini ko'ndalang qilib qo'yadi. Sog'lom turmush tarzi bu faol mehnat, ijod og'ushida yashash, kuchli jismoniy va ruhiy yuklamalarni, o'ta xavfli va zararli ta'sir ko'rsatuvchi omillarni yengil ko'tara oladigan har tomonlama taraqqiy etgan shaxsning shakllanish jarayonidir. Talabalar o'rtasidagi o'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan kelib chiqib, oliy o'quv yurti talabalari bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlash, kun tartibi, dam olishga va mehnat tartibiga rioya etishi sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarining shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha ilmiy-

uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir².

Tadqiqotning obyekti sifatida Oliy ta'lim muassasalarida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalarini innovatsion tizimlar asosida rivojlantirish jarayoni tanlangan. Tadqiqot mavzusini yoritishda takomillashtirishning mazmuni, shakl, metod, kontekstual, kompleks va funksional tahlil vositalari tashkil etadi.

Dunyoda bugungi kunda o'qituvchilar va talabalarda sog'lom turmush tarzini rivojlantirishning pedagogik asoslari hamda pedagogik aspektlari, uni innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish, aynan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari va talabalarining kasbiy sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik shartlari, texnologiyalarni joriy etish muammolari doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarga katta ahamiyat berilmoqda³. Rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan mazkur tadqiqotlar o'qituvchi kasbiy kompetentligini rivojlantirish mezonlari, uni tarkib toptirishning ijtimoiy, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, shuningdek, jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik strategiyalari shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishda ilmiy-nazariy hamda metodologik asos vazifasini bajaradi.

Mamlakatimizda "Uchinchi Renessans" poydevori qurilayotgan, ta'lim sohasida islohotlar amalga oshirilayotgan hamda ta'lim tizimi tubdan modernizatsiya qilinayotgan bir davrda ushbu soha mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirish muammosi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda⁴. Bu borada Prezidentimiz "Hozirgi

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori" 2015-yil 4-b.

2 O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Ta'lim to'g'risida" O'RQ-637, 2020-yil 23-sentabr.

3 Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2020-yil, 25-yanvar, 19(7521)-son.

4 "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 6-noyabrda PF-6108-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.

vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi Renessans" so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda" deb ta'kidlagan edi. Shu ma'noda oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya daslarini zamon talablari asosida tashkil etish va mazmunan yangilash, pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari tizimini yanada takomillashtirish, salomatlik immunitetini rivojlantirish jamiyat talablarining asosiy yo'nalishlaridan hisoblanmoqda⁵. Yangi O'zbekiston sharoitida mehnat bozori hamda ish beruvchilar talablariga javob beradigan jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash, malakaviy amaliyot jarayonini modernizatsiyalash, uni tashkil etish bo'yicha milliy va hududiy modellarni yaratish hamda amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish muammoning ilmiy jamoatchilik tomonidan chuqur tadqiq qilinishini taqozo etadi.

Har qanday shaxsning o'zi tanlagan sohasi bo'yicha yuqori malakali, mahoratga ega mutaxassis sifatida shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, unga ko'p yillik samarali mehnat, ijodiy izlanishlar natijasidagina erishish mumkin⁶. Biroq mazkur sifatning shakllanishi uchun zamin oliy o'quv yurtlaridagi tahsil olish jarayonida yaratiladi. Jumladan, Oliy ta'lim muassasalarida talabalarda sportga qiziqtirish, sport va salomatlikni takomillashtirishda mutaxassislikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bilan bir qatorda pedagogik-psixologik fanlar doirasida nazariy va amaliy bilimdonlikning shakllanishi ham muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizdagi turli sohalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal

etish, dolzarb vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun aynan mazkur salomatlikni rivojlantirishni shakllantirishga pedagogi strategiyalarni olib chiqishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir⁷.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020 yildagi PF-6099-son Farmoni ham Jamiyatimizda "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida Sog'lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

- har bir oila, mahalla va tuman (shahar) da, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida hamda boshqa tashkilotlarda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug'ullanishga shart-sharoitlar yaratish;

- ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha oilalar, sinflar, mehnat jamoalari va hududlar o'rtasida sport musobaqalarini muntazam ravishda o'tkazish;

- aholi turli guruhlarining sog'lom ovqatlanishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish, tarkibida tuz, qand va yog' miqdori ko'p bo'lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini iste'mol qilishni qisqartirish, zararli odatlardan, xususan, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishdan voz kechish yo'li bilan kasallikka chalinish, ortiqcha vazn holatlari (semizlik) va bevaqt vafot etishni kamaytirish;

- aholi o'rtasida sog'lom ovqatlanish madaniyatini keng targ'ib qilish, shu jumladan,

5 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi 118-son qarori bilan tasdiqlangan "2019-2023-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi" //lex.uz// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.02.2019 y., 09/19/118/2612-son;

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son farmoni.

7 Sh.M.Mirziyoyevning "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" 2019-yil 27-avgustagi PF-5789-soni farmoni.

tartibsiz va kechki uyqu oldidan ovqatlanish odatlaridan voz kechish;

- sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etilishini oilalar, mahallalar, maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalari darajasida sog'lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida targ'ib qilish;

- maktabgacha ta'lim, umumta'lim, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida, korxona, tashkilot va boshqa turdagi barcha muassasalarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun zamonaviy moddiy-texnika bazasini shakllantirish⁸.

Buning barchasini qamrab olgan holda Innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalarini amaliyotga tadbiriq etish chora-tadbirlari tashkil etildi.

Oliy ta'lim tizimida talabalar o'quv faoliyatini tashkil etish va uni rivojlantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Zero, oliy ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga mos yuqori ilmiy-ijodiy salohiyatga va yuksak ma'naviyatga ega yetuk kadrlarni tayyorlashdir. Shu ma'noda Sog' tanda sog'lom aql, soglom hayot uchun bir qadam kabi kasbiy muammolarni hal eta olishga qodir, yuksak salohiyatli yetuk mutaxassslarni tayyorlash oliy pedagogik ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassis qatorida sog'lom bo'lishi, kuchli ruhiy bosimda ishchanlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi. Sport va salomatlik tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida

kirib kelgan. Shu sababli jismoniy tarbiya o'qituvchisining o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Salomatlikning pedagogic strategiyalari jismoniy tarbiya o'qituvchisi tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini va har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi⁹.

Har bir ta'lim muassasasida talabalarning bo'sh vaqtini qanday o'tkazayotgani, ularga qaysi to'garaklar yoki faoliyat turlari qiziq ekani, shuningdek, qanday yangi imkoniyatlarni istashi haqida so'rovnomalar o'tkazish ayni muddao. Ushbu so'rovnomalar orqali talabalar orasida ilmiy, sport, ijodiy, madaniy yoki texnik yo'nalishlarga qiziqish darajasini aniqlash mumkin. Bundan tashqari, so'rovnomalar davomida talabalarga shaxsini rivojlantirish uchun qanday mashg'ulotlar, seminarlar yoki treninglar kerakligi haqida fikr bildirish imkoniyati ham taqdim etilishi kerak. Bugungi ahvolni hisobga olsak, talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun ko'proq innovatsion yondashuvlar va yangi dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Misol uchun, talabalar o'rtasida jamoaviy tadbirlar, ilmiy va madaniy faoliyatga qiziqishni oshirish maqsadida interaktiv va zamonaviy usullarni qo'llash mumkin. Bunda darsdan so'ng tashkil etilayotgan to'garak va kurslarni onlayn tashkil etish lozim. Ayni tashabbus talabalar uchun qo'shimcha qulaylik yaratadi. Chunki ba'zi yoshlar shaxsiy va ijtimoiy sabablar tufayli darsdan keyin to'garak yoki kurslarga qatnashga qiynaladi. Onlayn to'garak va kurslar bu borada qulay imkoniyat

8 Sh.M. Mirziyoyevning "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 30.10.2020 yildagi PF-6099-soni farmoni.

9 Qayumov Sh.A. "Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvi" Monografiya. T.: Ziyo chashmasi. 2023. 109 b.

taqdim etadi. Shu kabi dasturlarni mobil ilova yoki veb-platformalar shaklida ishlab chiqish, talabalar uchun qulay va interaktiv tarzda taqdim etish lozim. Sohasiga oid xalqaro konferensiyalar, vebinarlar yoki onlayn tanlovlarni ham o'tkazib borish ayni muddao.

Zamonaviy ta'limda innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalarining asosiy negizini quyidagi sifat ko'rsatkishlari tashkil etadi: psixologik-pedagogik bilimlari, kasbiy tayyorgarligi, oliy ta'limning me'yoriy huquqiy hujjatlarini mukammal bilishi, mohiyatini tushunib yetgan xolda amalda qo'llay olish layoqati shakllanganligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, shuningdek, elektron ta'lim resurslaridan to'liq foydalana olishi kabi sifatlar kasbiy tayyorgarlikda namoyon bo'lishi, shuningdek Talaba qiziqishlari, moyilliklari, layoqati va ta'lim muassasalari ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish kabi kasbiy kompetentlikni takomillashtirish yaxlit pedagogik jarayon asosini tashkil etadi va mazkur jarayonni amalga oshirish talab etiladi.

Innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalarini takomillashtirishda jismoniy tarbiya va ushbu fanni o'qitish metodikasini integratsiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish maqsada muvofiqdir. Har bir talabaning innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida fundamental bilimlarni egallashiga, aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish, har bir talabada shaxsiy va kasbiy kompetentlikni takomillashtirish bo'yicha o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat va qat'iylilik hissini rivojlantiradi¹⁰.

Innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport

va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari nafaqat bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi hamda butun oliy ta'lim muassalaridagi barcha talabalarni kasbiy layoqatliligining mazmuni uni tarbiyalash jarayoni doirasida bo'lajak kasbiy faoliyat maqsadlari, vazifalari bilan aniqlanadi. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisini mazkur faoliyatni amalga oshirishda nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorlash va uning bu jarayonga tayyorligi birligidan iborat bo'lib, u moddiy, ijtimoiy, yani, o'quv fanini o'qitish texnologiyasi loyihasida o'z ifodasini topadi.

10 Sh.A.Qayumov "Innovative approach to preparing future physical education teachers for professional activity" Monograph. T.: Ganjina. 2021. 144 p

TALABALARNING ZAMONAVIY LANDSHAFT HAYKALTAROSHLIGI HAQIDAGI BILIM VA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Nurmon Ochilovich Berdiyev – dotsent, Toshkent
arxitektura qurilish universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada landshaft loyihalarida, jumladan, bog' va xiyobonlarda foydalaniladigan zamonaviy haykaltaroshlik san'ati namunalari, ularning estetik makonni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati, rivojlanish tendensiyalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, bo'lajak arxitektorlarni zamonaviy haykaltaroshlik, uning o'ziga xos ko'rinishlari, usul va uslublari bilan tanishtirish, bu borada talabalarning bilim va malakalarini oshirish, amaliy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim jihatlari to'xtalib o'tilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются образцы современной скульптуры, используемые в ландшафтных проектах, в том числе в садах и парках, их роль и значение в формировании эстетического пространства, тенденции развития. Также были затронуты важные аспекты ознакомления будущих архитекторов с современной скульптурой, ее уникальными видами, методами и стилями, повышения знаний и навыков студентов в этой области, развития навыков практической работы.

Abstract. This article examines examples of modern sculpture used in landscape projects, including gardens and parks, their role and significance in shaping aesthetic space, and development trends. Important aspects of familiarizing future architects with modern sculpture, its unique types, methods, and styles, and enhancing students' knowledge and skills in this area, as well as developing practical work skills, were also addressed.

Kalit so'zlar: landshaft, loyiha, bog' va parklar, haykaltaroshlik, modern san'ati, modernizatsiya, kompetensiya, metodika.

Ключевые слова: ландшафт, проект, парки и сады, скульптура, современное искусство, модернизация, компетенция, методика.

Keywords: landscape, project, parks and gardens, sculpture, contemporary art, modernization, competence, methodology.

Bugungi kun hayotning barcha jabhalariga yuqori texnologiyalar va innovatsiyalarni keng miqyosda tatbiq etishni talab qilmoqda. Bu jarayon jumladan, yuqori kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan arxitektorlarni tayyorlash tizimi va ta'limiy komponentlarini rivojlantirib borishni ham o'z ichiga oladi. Bunda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri – badiiy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, uning metodik ta'minotini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

So'ngi yillarda yurtimizda shaharsozlikning keng sur'atlar bilan rivojlanib borishi asnosida u yerdagi tabiiy muhit va infratuzilmalarga bo'lgan e'tibor ham ortib bormoqda. Jumladan,

landshaft (nemischa: "Land" – yer, shaft – o'zaro aloqadorlik, birikkanlik) san'ati va unda qo'llanadigan zamonaviy haykaltaroshlik namunasidan foydalanish masalasi dolzarb muammolardan hisoblanadi.

"Landshaft san'ati – ijodiy faoliyat sohasi, tabiiy va sun'iy komponentlardan foydalangan holda qulay, ekologik jihatdan to'laqonli va estetik jozibador muhitni shakllantirish san'ati"¹ va uni haykaltaroshlik san'ati namunalarisiz tasavvur qilish qiyin.

Landshaft haykaltaroshligi – tabiat manzaralarini estetik, funksional va ekologik nuqtayi nazardan shakllantirish bo'yicha san'at

1 Кайдалова Е.В. Ландшафтная архитектура. Стр.6. Нижний Новгород, ННГАСУ, 2019.

va muhandislikning muhim sohasi sifatida muhim o'rin tutadi. Zamonaviy jamiyatda ekoturizm, shaharsozlik va rekreatsiya uchun landshaft dizayni talablari ortib bormoqda. Bu esa yosh mutaxassislar va talabalar oldiga innovatsion yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish, ijodiy fikrlash kabi mas'uliyatli vazifalarni qo'yadi. Turli xil landshaftlarda, jumladan bog' va parklarning yangilangan loyihalarini yaratishda zamonaviy haykaltaroshlik turlaridan foydalanish muhim vazifalardan hisoblanadi. Sababi, bugungi kunda an'anaviy haykaltaroshlik san'ati va uning turlaridan foydalanish birmuncha kamaygan. Buni fan va texnologiyalarning rivojlanishi va kishilar ruhiyatidagi innovatsion tafakkurning ortishi bilan izohlash mumkin. Shuning uchun ham arxitektura va dizayn yo'nalishlarida ta'lim oluvchi talabalarga haykaltaroshlik san'ati, uning turlari, ishlatiladigan materiallar va ular bilan ishlash usullari haqidagi nazariy ma'lumotlar va amaliy ko'nikmalar berish bilan bir qatorda, zamonaviy haykaltaroshlik (modern san'at), uning o'ziga xos ko'rinishlari, usul va uslublari bilan tanishtirish ham juda muhimdir.

Shu o'rinda zamonaviy landshaft haykaltaroshligi, uning turlari, rivojlanish tendensiyalari, funksiyasi va amaliy ahamiyati haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Zamonaviy haykaltaroshlik san'ati funktsionallik va badiiy ifodalilikni uyg'unlashtirish xususiyatiga ega. Ular park va bog'lar kontekstida u o'ziga xos fazoviy yechimlarni yaratishga yordam beradi, tashrif buyuruvchilarning hissiy munosabatini kuchaytiradi va tabiiy ansambllarni yaxlit badiiy kompozitsiyalarga aylantiradi. Zamonaviy haykaltaroshlikning muhim xususiyati yangi materiallar, texnologiyalar va tushunchalarni joriy etishdir, bu esa murakkab g'oyalarni amalga oshirish va dinamik, interaktiv obyektlarni yaratish imkonini beradi. Bundan tashqari, zamonaviy haykaltaroshlik asarlari o'zida ekologik uyg'unlik tushunchasini mujassamlashtiradi, tabiiy muhit bilan bog'lanib,

uning o'ziga xos xususiyatlarini kuchaytirib ko'rsatadi. Ular inson va jamiyat taraqqiyotining ramzi bo'lishi, madaniy qadriyatlarni aks ettirishi yoki yodgorlik sifatida xizmat qilishi mumkin.

Zamonaviy amaliyotda haykaltaroshlik namunalarining quyidagi turlari keng qo'llaniladi:

- Abstrakt haykallar – g'oyalarni aniq obrazlarsiz shakllar va chiziqlar orqali ifodalaydi, tomoshabinda erkin assotsiatsiyalarni uyg'otadi.
- Interfaol haykallar – tomoshabin ishtirokini talab qiladigan obyektlar, masalan, sensor yoki yorug'lik installatsiyalari.
- Texnik va innovatsion haykaltaroshlik – harakat, animatsiya kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.
- Xotira va yodgorlik haykallari – tarixiy qahramonlar yoki lahzalarni aks ettirib, tematik bog' hududlariga birlashadi.

Bu turlar turli xil me'moriy-badiiy vazifalarni hal qilish, estetika va funktsionallikni birlashtirish imkonini beradi.

Zamonaviy haykaltaroshlikning ifoda vositalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Shakl – keskin yoki silliq chiziqlar, asimmetriya yoki simmetriya, global yoki kichik shakllar.
- Material – metall, beton, shisha, yog'och, plastmassa, aralash materiallar. Har bir material o'zining estetik va texnik xususiyatlariga ega.
- Rang – vizual effektni kuchaytirish uchun tabiiy ranglar yoki yorqin dekorativ bo'yoqlardan foydalanish.
- Tekstura – teginish sezgisini hosil qiluvchi silliq, g'adir-budur yoki relyefli yuzalar.
- Yoritish – shakllarni ta'kidlaydigan va dinamikidrokni yaratadigan yorug'lik elementlari yoki yoritish.
- Dinamika – hayotiylik va modernistik

yondashuv effektini yaratuvchi asinxron va harakatlanuvchi haykallar.

Bu vositalar ham poetik, ham falsafiy g'oyalarni bera oladigan ta'sirchan obrazlar yaratishda kompleks tarzda qo'llaniladi.

Dunyoning zamonaviy bog'lari haykallardan foydalanish bo'yicha boy tajribaga ega. Masalan, Istanbuldagi Gulxan bog'ida mavhum shakllar va innovatsion installatsiyalar to'plami namoyish etilgan. Londondagi Siti-Layf bog'ida kechki payt sehrli muhit yaratadigan zamonaviy yorug'lik haykallaridan faol foydalanilmoqda. Shuningdek, Nyu Yorkdagi Gulhane bog'ini ham ta'kidlash joizki, u yerda estetika va interfaollikni uyg'unlashtirgan zamonaviy rassomlarning haykallari joylashgan.

Rossiyada, masalan, Moskvadagi "Zaryadye" san'at bog'ida zamonaviy rassomlar tomonidan ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda yaratilgan ko'plab haykaltaroshlik obyektlari mavjud. Bu asarlar yorug'lik va tovush effektlari, interaktiv elementlardan faol foydalanadi, bu esa makonni yanada jonli va jozibador qiladi.

Toshkentda jamoat joylari va bog'larda joylashgan bir qancha landshaft haykallari mavjud. Ular mahalliy va xorijiy haykaltaroshlar tomonidan yaratilgan bo'lib, shaharning umumiy landshaft dizaynining bir qismi sifatida baholanadi. Bunday namunalardan, so'ngi yillarda yaratilgan "O'zbekiston bog'i" hududidagi bir qancha haykaltaroshlik namunalarini kiritish mumkin. Shuningdek, "Navro'z" bog'i, "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi va boshqa maskanlarda turli xil hajmli kompozitsiyalar, jumladan, milliy motivlar va an'analarni aks ettiruvchi haykallar namoyish etilgan. Ammo bu sohada hali yechimini kutayotgan ko'plab vazifalarning mavjudligi tabiiy holdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi Toshkent shahrini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida" nomli qarorida: "Toshkent shahri aholisining o'sish sur'atini inobatga olgan holda, ularning uy-joyga bo'lgan talabini qondirish, turmush tarzi uchun qulay sharoitlar yaratish, yangi arxitektura va texnik yechimlarni joriy etish orqali zamonaviy markaz barpo etish, shuningdek, biznes, moliyaviy va turistik infratuzilmalarni jadal rivojlantirishni ta'minlash"² kabi maqsadlar ko'zda tutilgan. Shubhasiz, bu kabi yirik inshootlarning barpo etilishi va shaharsozlikning rivojlanishida zamonaviy landshaft imkoniyatlaridan keng foydalaniladi.

Zamonaviy haykaltaroshlik landshaft makonlarini idrok etishni sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Ular dinamika, ranglar, shakl va ma'no yuklamalarini olib keladi, bog' hududlarini nafaqat dam olish maskani, balki madaniy-ma'rifiy markazga aylantiradi. Bunday obyektlar bilan vizual o'zaro ta'sir estetik tuyg'uni rivojlantirishga yordam beradi, me'moriy va badiiy tushunchalarni kengaytiradi.

Bundan tashqari, zamonaviy haykaltaroshlik obyektlari tinchlik, ekologik uyg'unlik yoki ijtimoiy mas'uliyat g'oyalarini ifodalovchi muloqot vositasi bo'lishi mumkin. Ular tashrif buyuruvchilar va makon o'rtasidagi muloqotni rag'batlantiradi, parklarni ochiq osmon ostidagi ochiq galereyalarga aylantiradi.

Shundan xulosa qilishimiz mumkinki, bo'lajak me'morlar shu kabi kompozitsiyalar, ularning yaratilishi haqida batafsil bilim va malakalarga ega bo'lishlari lozim. Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida o'zlari ham turli landshaftlar uchun mo'ljallangan abstrakt kompozitsiyalar ishlash bo'yicha amaliy ishlar bajarishlariga to'g'ri keladi.

Abstrakt kompozitsiya nima? U "abstraction"

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi Toshkent shahrini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida" 20.07.2023 yildagi PQ-232-son.

so'zidan olingan bo'lib – o'chirib tashlash, chalg'itish ma'nolarini beradi. Real hayotiy voqeyilik tasvirlaridan voz kechishga asoslangan san'atning bir yo'nalishi, rangtasvir va haykaltaroshlikdagi tasvirlash shakllaridir. Abstraksionistlarning dastlabki vakillari V.Kandinskiy (rus), Saymur Likton, Deyvid Smit, Jekson Polloka (amerikalik), P'yer Sulaja (fransuz), Karela Appela (golland)lar edi.



1,2,3-rasmlar. Turli materiallardan ishlangan zamonaviy abstrakt haykaltaroshlik kompozitsiyalari.

Biz yashayotgan hayotda mavjud tartib-qoidalar borki, ular insonga yaqin tushunchalar. Odam uchun hamma narsa o'z o'rnida bo'lishi va imkon qadar tushunarli bo'lishi kerakdek. Ammo, shunday narsa va shakllar ham borki, garchi inson u haqda to'liq tushunchalarga ega bo'lmasa-da, unga qiziqish bilan qarashi shubhasiz. San'at sohasidagi harakat sifatida abstraksionizm o'rnatilgan qonunlarga bo'ysunmaydi va ongsiz va tartibsiz. Bu san'atda hamma narsaga erkinlik beriladi. Mavzuga chuqurroq kirib borish maqsadida abstrakt va "predmetli" san'at o'rtasidagi farqlardan birini ko'rib o'tishimiz mumkin. Birinchi holatda elementlar qanday bo'lsa "shunday bo'lishi"ni ta'kidlash joiz. Abstrakt san'atda esa u to'laqonli, erkin ovoza aylanadi. Aynan kichkina nuqta ham bunda bahslashishga o'rin qoldirmaydigan isbot sifatida xizmat qilishi mumkin.

Abstrakt san'atdagi texnika aytish mumkinki, maqsadga yo'naltirilgan va shartli kompozitsiyaga ega. Bu yerda biror-bir narsani isbotlash qiyin va ortiqcha. Shuning uchun ham u "mavhum". Ammo uni his qilish va undan taassurot olish mumkin.

Ma'lumki, haykaltaroshlik kompozitsiyalari fazoviy muhitda joylashadi. Shuning uchun ham ular o'rtasida o'zaro bog'liqlik, bir butunlik bo'lishi lozim. Ya'ni, ular joy oladigan landshaft (muhit) xususiyatlari, atrofdagi boshqa ko'rinishlar, qurilmalar, binolar yoki ularning qismlari bilan uzviylik xarakterini kasb etishi lozim.

Agar biz o'rnatmoqchi bo'lgan abstrakt haykaltaroshlik kompozitsiyasi qadimiy obidalar, yoki klassik usulda qurilgan me'moriy namunalar atrof muhitiga mo'ljallanadigan bo'lsa, tabiiyki mos kelmaydi. Shuning uchun, ular asosan zamonaviy uslublarda yaratilgan bino va inshootlar, ularning landshaftlari uchun xosdir. Chunki, yuqorida aytib o'tilganidek, bunday kompozitsiyalarda o'ta zamonaviy talqin, osmon va koinot, cheksizlik, xayolot, sirli va texnologik fantaziya va tasavvurlar ustuvorlik qiladi. Chunki abstrakt so'zi noodatiy, "bizning tasavvurlarimizdan o'zgacharoq" ekanligi bunday tasvirlashning asosiy xususiyatlaridan biridir.

Demak, abstrakt kompozitsiyalar hayotda biz uchratadigan, tanish narsa va ko'rinishlardan keskin farq qiladi, noan'anaviy tasvirlash usullariga ega.

Bunday kompozitsiyalar ishlash ma'lum tajriba va ko'nikmalarni talab qiladi. Uning uchun talaba ushbu yo'nalishlarda bajarilgan namunalarni ko'rib, kuzatib, tahlil qilishi, ijodiy o'rganishi lozim.

Albatta, bu kabi abstrakt kompozitsiyalar ishlash uchun dastlab eskizlar bajariladi. Ular qog'ozda bajarilib, turli xil qoralamalar orqali amalga oshiriladi. Eskizlarda abstrakt

kompozitsiyaning qanday landshaft muhiti yoki joyga mo'ljallanganligi, taxminiy mavzusi aniqlashtirib olinadi, bajariladigan ishda qanday materiallardan foydalanish masalasi ham o'ylab ko'riladi. Chunki, hozirgi paytda haykaltaroshlikda turli xil materiallar, jumladan, temir – beton, marmar, bronza, metall va rangli metallar: alyumen, nikel (egiluvchan kumushrang – oq rangli metall), mis, sim va boshqa shu kabilardan keng foydalanilmoqda.

O'quv ustaxonasida loy yoki plastilindan abstrakt haykaltaroshlik kompozitsiyasi eskizini ishlash mashg'ulotlari ham qiziqarliligi va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ishga puxta tayyorgarlik ko'rish, jiddiy shug'ullanish kerak bo'ladi.

Abstrakt haykaltaroshlik modeli ustida ishlash ijodiy jarayon ekanligi va har bir ijodkorning bajargan asarlari turlicha ekanligi va ular bir – biridan umuman farq qilishligini aytib o'tish joiz.

Har bir haykaltaroshlik eskizida ijodkorning o'z individualligi, shaklni ko'rish va tushunishi, konstruksiyani qay darajada tuzishi ko'rinib turadi. Masalasini har biri o'zicha hal qiladi: bir rassom yoki haykaltarosh abstrakt tafakkur shaklining tashqi ko'rinishini berilib ko'rsatishga harakat qilsa, boshqalari uning psixologik holatini chuqurroq aks ettiradilar, uchinchilari esa modelning konstruktiv xarakteristikalariga e'tiborni qaratadilar.

Umuman olganda talaba bu borada o'z ijodiy ishini yaratishga harakat qilar ekan, bir qancha tashkiliy ishlarni bajarmog'i lozim.

Bular quyidagilar:

- abstrakt haykaltaroshlik mavzusida boshqa ijodkorlar tomonidan ishlangan turli xil kompozitsiyalarni o'rganish, tahlil qilish;
- qalam va rangli bo'yoqlarda eskizlar, qoramalar bajarish;
- abstrakt obyekt bir yoki bir nechta

qismlardan iborat bo'lishiga qarab va shunga mos ravishda eskizlarni mumkin qadar ko'plab variantlarini yaratish (bunda kompozitsiya tuzish qoidalari va yo'l-yo'riqlari bo'yicha olingan bilim va malakalarni amalda qo'llashga harakat qilish);

– bajarilgan eskiz namunasi asosida maxsus taglik ustiga sim, taxtacha va shunga o'xshash moslamalar yordamida karkas yasab olish;

– material tanlash (loy yoki plastilin);

– loy yoki plastilinda ishlash bo'yicha to'plangan tajriba va malakalar bo'yicha ishni metodik ketma-ketlikda bajarish.

Yuqorida aytib o'tilgan tayyorgarliklar bajarilgandan keyin ishni boshlash mumkin bo'ladi. Bajarilayotgan haykalning kattaligi va kompozitsiyasiga qarab asoslar turlicha bo'lishi mumkin.

Shuni ham hisobga olish kerakki, garchi ishlashda loy va plastilindan foydalanish tavsiya qilinsa-da, talabaning o'z ijodiy fantaziyasi va xohishiga ko'ra, unda qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkin. Bular turli xil qalinlik va rangdagi similar, fomeks, metall, alyumen hamda boshqa shu kabi materiallar hisoblanadi. Ularning o'z o'rnida va kompozitsiya yechimlariga mos holda qo'llash ijodkordan chuqur bilim, malaka va ko'nikmalarni talab qiladi.

Ko'p qavatli vizual materiallar, kompozitsion kollajlar, realistik model va maketlar, shuningdek, landshaft peyzajlari maketlarini yaratish talabalarning ijodiy va amaliy salohiyatini oshiradi.

Bajariladigan abstrakt modellar harakatlanishi, tashqari emotsional va psixologik ko'rinishlari bilan tomoshabinga estetik jihatdan ta'sir ko'rsatishini hisobga olish, uning qaysi landshaft uchun mo'ljallanganligini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik talab etiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bog' va parklarda zamonaviy haykaltaroshlik

namunalaridan foydalanish landshaft arxitekturasining muhim yo'nalishi bo'lib, o'ziga xos estetik makonlarni yaratish, g'oyalarni ifodalash va tabiiy landshaftlarni uyg'un ravishda to'ldirish san'atidir. Zamonaviy haykaltaroshlikda shakllar, texnologiyalar va ifoda vositalarining boyligi amalga oshiriladi, bu esa rassomlar, haykaltaroshlar va me'morlarga murakkab g'oyalarni mujassamlashtirish va qiziqarli vizual effektlarni yaratish imkonini beradi. Kelajakda ushbu yo'nalishning rivojlanishi san'at va tabiat o'rtasidagi integratsiyani yanada kuchaytiradi, bog' va xiyobonlarni estetik jihatdan boy, inklyuziv va ilhomlantiruvchi maskan sifatida namoyon qiladi. Mana shu g'oyalarni bevosita amalga oshirishda shu sohada faoliyat olib boruvchi ko'plab ijodkorlar, jumladan bo'lajak me'morlarning ham hissasi salmoqli bo'lishi kerak.

03

IJTIMOIV FANLAR

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA YOSHLAR IJTIMOIY MAS'ULIYATINI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Akbar Saitkasimov – f.f.d., professor, Jizzax
davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi globallashuv davrida jamiyatda barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlashda yoshlar ijtimoiy mas'uliyatini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadigan jarayon hisoblanishi ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, zamonaviy sharoitda yoshlarning jamiyat jarayonlaridagi ishtiroki darajasini kengaytirishga borasidagi amalga oshiriladigan vazifalar ham yoritib berilgan.

Аннотация. В статье научно анализируется тот факт, что в современную эпоху глобализации повышение социальной ответственности молодёжи рассматривается как важный процесс в обеспечении стабильных социальных отношений в обществе. Также обозначены задачи, которые необходимо решить для расширения уровня участия молодёжи в социальных процессах в современных условиях.

Abstract. This article scientifically analyzes the fact that in today's era of globalization, increasing the social responsibility of young people is considered to be an important process in ensuring stable social relations in the society. The tasks aimed at expanding the level of youth participation in social processes under modern conditions are also highlighted.

Kalit so'zlar: globallashuv, yoshlar, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat, ijtimoiy faollik, islohotlar.

Ключевые слова: глобализация, молодёжь, социальные отношения, социальная стабильность, социальная ответственность, социальная активность, реформы.

Keywords: globalization, youth, social relations, social stability, social responsibility, social activity, reforms.

Bugungi globallashuv davrida butun dunyoda ijtimoiy munosabatlarda muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda. Jamiyatda barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlashda yoshlar ijtimoiy mas'uliyatini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadigan jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham zamonaviy sharoitda yoshlarning ijtimoiy mas'uliyati va ularning jamiyat jarayonlaridagi ishtiroki darajasini kengaytirishga alohida ustuvor vazifa sifatida qarala boshlandi. Ijtimoiy mas'uliyat yoshlarning Vatan va xalq manfaati, mamlakat taqdiri hamda ishi uchun fidoyilik bilan xizmat qilishi, jamiyat taraqqiyoti uchun kamarbasta bo'lishi, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarda faol qatnashishi, davlat va jamiyatning muhim masalalarini hal qilishda munosib ishtiroki, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga ko'mak berishidir.

Yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshishida ularning jamiyatdagi barcha munosabatlarda keng ijtimoiylashuv orqali ishtirok etishi bilan ham xarakterlanadi. Ijtimoiylashuv yoshlarning ijtimoiy munosabatlarga integratsiyasini ta'minlovchi ijtimoiy-siyosiy bilimlar, me'yorlar, qoidalar va xatti-harakatlarni o'zlashtirish va ularga amal qilish jarayonidan iboratdir. Mazkur ijtimoiylashuv jarayoni orqali yoshlarning jamiyat ijtimoiy ishiga mas'uliyat bilan yondashish borasida ko'nikmalari shakllanib boradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'kidlashicha, "Biz yoshlarning mamlakatimiz hayotidagi demokratik jarayonlarda faol ishtirok etishiga, ularning siyosiy va ijtimoiy salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim"¹.

Yoshlarning ijtimoiy mas'uliyati ularning jamiyatda olib borilayotgan islohotlar jarayonida

1 Мирзиёев Ш. Нияти улуг' халқнинг иши ҳам улуг', ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: "Ўзбекистон", 2019. – Б.386.

yuksak fidoyilik, jonbozlik va ko'tarinki ruhda ishtirok etishi tushuniladi. Bu esa, yoshlarning davlat tomonidan chiqarilgan qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlashda va ularni amaliyotga joriy etishda chuqur mas'uliyat bilan qatnashishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Manbada qayd elishicha, "Ijtimoiy mas'uliyat – ijtimoiy burchni bajarish uchun shaxslar, tashkilotlar, keng ijtimoiy guruhlar va umuman jamiyatning manfaatlar, qadriyatlar va maqsadlarini hisobga olish kerak bo'lgan axloqiy tamoyil"², hisoblanadi.

Yoshlar jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy jarayonlarda faol ishtirokchi bo'lib, uning mohiyatini teran anglab yetsa, ularning ijtimoiy va ma'naviy mas'uliyati oshadi, huquqiy faolligi kengayadi. Mazkur jarayon yoshlarning ijtimoiy barqarorlik tizimida ham o'ziga xos o'rin tutishiga, bu jarayonlarga munosib ko'makchi bo'lib shakllanishiga olib keladi. Jamiyatimiz rivojlanishi har tomonlama ijtimoiy mas'uliyatga ega bo'lgan, jonkuyar, vatanparvar insonlar faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Shu jihatdan, "Bugun xar bir insonga Vatan farzandi, millat vakili, davlat fuqarosi sifatidagi mas'uliyatini anglatish va o'z navbatida o'z millati, xalqi, Vatanining barqaror rivojlanishida faollik ko'rsatishi, hech bo'lmaganda ana shunday ishtiyoq va ruhiyatni shakllantirish va uni moddiy kuchga aylantirish milliy rivojlanish falsafasining muhim yo'nalishini tashkil qiladi"³, deb ta'kidlaydi faylasuf olim S.Otamurodov.

Jamiyatning turli sohalarida yoshlar ijtimoiy mas'uliyati o'ziga xos tarzda, o'sha sohaga oid bo'lgan jarayonlar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Siyosiy sohada – yoshlar o'z siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi, Vatan va jamiyat ishi uchun yuksak mas'uliyat orqali ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtirok etadi. Yoshlarning

mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning mohiyatini chuqur anglab yetishi, bu jarayonlarda ularning ongli ravishda ishtirok etishi, o'zlarining vazifalari, burchlari va mas'uliyatlarini his etib yashashi jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatning namoyon bo'lishiga asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy sohada – yoshlarning jamiyat iqtisodiy salohiyatini oshirish maqsadida o'z imkoniyatlarini ishga solish, iqtisodiy siyosat, islohotlar, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, tadbirkorlik sohalarida o'z salohiyati bilan qatnashishidir. Bunda yoshlar turli texnologik, innovatsion loyihalar, kashfiyotlar, ishlanmalar va dasturlar orqali taraqqiyot uchun zamin bo'ladigan ishlanmalar yaratishi va uni hayotga tadbqiq etishi muhim bo'lib, bu orqali ular mamlakatimizning jahon iqtisodiy jarayonlarida o'z o'rniga ega bo'lishiga ko'maklashadi.

Ijtimoiy sohada – yoshlarning ijtimoiy sohaga oid davlat siyosatida, aholini ijtimoiy jihatdan himoyalash, ijtimoiy muammolarni hal etish, mahalla tadbirlarida faol ishtirokchi bo'lishi kuzatiladi. Yoshlar o'zlarining ijtimoiy hayot, ijtimoiy institutlardagi ishtiroki, kundalik ishda faolliklari, yuksak salohiyati va innovatsion tashkbbuslari bilan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, barcha sohadagi islohotlarga yordam beradi.

Ma'naviy-ma'rifiy, madaniy sohada – yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy salohiyati, siyosiy, huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish ishlarida faol ishtirokchi bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada milliy yuksalish g'oyalarining safarbarlik kuchi, yoshlar qatlamlari mas'uliyatini uyg'otishi, ularni tashabbusga rag'batlantirishi, bunyodkorlik va omilkorlik fazilatlarini ro'yobga chiqarishi muhim o'rin tutadi.

Yoshlarni turli tashabbuskorliklarga

2 Социальная ответственность. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

3 Отамуродов С. Миллий ривожланиш фалсафаси. Т., "Академият", 2005. –Б.12.

rag'batlantirib borish jamiyatning turli sohalarida ishlaydigan yuqori tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lgan katta yoshdagi insonlarning ham muhim vazifasidir. Yoshlar katta avlod tajribalaridan o'zining ijtimoiy hayotida turli xildagi vazifalarni bajarishda o'rnak oladilar. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya muassasalarida ham yoshlarning ijtimoiy mas'uliyati va jamiyat ishida o'zlarining innovatsion faolliklari bilan ishtirok etish ko'nikmalari ham shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Olimlarning ta'kidlashlaricha, "Har bir yangi avlod o'zining innovatsion salohiyati tufayli jamiyat yaxlitligini saqlashni ta'minlaydi, uni takomillashtirish va o'zgartirishda ishtirok etadi. Shunday qilib, yoshlarning rivojlanishi ham, jamiyatning takror ishlab chiqarilishi ham amalga oshiriladi"⁴.

Yoshlarning jamiyatda mavjud ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy qadriyatlarga daxldorligini chuqur anglab yetishi uni o'z faoliyatining kundalik mezoniga aylantirishlari jamiyat taraqqiyotining mezonlaridan biridir. Shu ma'noda "Demokratiyaning haqiqiy namoyon bulishida xamda uni taraqqiyotning asosiy omillaridan biriga aylanishida, eng avvalo mazkur jamiyatda yashayotgan insonlarning tafakkurida tubdan o'zgarishlar sodir bo'lishi talab qilinadi. Shuningdek, barcha demokratik jarayonlarning amalda namoyon bo'lishi uchun nafaqat jamiyat a'zolarining ongliligi, ayni paytda aktiv ijtimoiy-siyosiy faolligi hamda umummanfaat yo'lidagi aniq hatti-harakatlari zarur bo'ladi"⁵.

Yoshlar ijtimoiy mas'uliyati masalasi eng jiddiy diqqatni jalb qiladigan ijtimoiy vazifalardan biridir. Mazkur jarayon mohiyati zamonaviy sharoitida tubdan o'zgarmoqda. Bugungi kunda yoshlar faol bo'lishi, hayotni ongli qabul qilishi, jamiyatdagi o'rnini aniq belgilab olishi, shu tariqa mamlakat taraqqiyoti, hayotiy rivojiga

baholi qudrat hissa qo'shishga intilishi zarur. Ana shunda yoshlar o'z faoliyatini ongli ravishda boshqara oladi, jamiyatning rivojlanish jarayonida faol qatnashadi. Jumladan, Professor I.Ergashev jamiyat uchun fidokorona xizmat qiladigan, jonkuyar va vatanparvar shaxslarni tarbiyalash borasida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Shuning uchun ham u xayotdan orqada qolmaslik, odamlar bilan birga qadam tashlash, ularni tushunish va anglash uchun ham har doim o'z fikrini o'ylab ko'rishi, uni riivojlantirib borishi zarur"⁶.

Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash jarayonida yoshlar ijtimoiy mas'uliyati o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi. Yoshlarning ijtimoiy mas'uliyati qanchalik yuqori bo'lsa, jamiyat ishi uchun ularning fidoyiligi va tashabbuskorligi oshadi. Bu jarayonning yuqori darajada ta'minlanishi jamiyatda yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar bilan doim uyg'un holda namoyon bo'ladi. Yoshlar ishlari faoli F.Sadullaev o'z maqolasida mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati amaliyoti yuzasidan joriy yarim yillik natijalari bo'yicha o'z mulohazalarida "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati yangi sifat bosqichiga chiqdi. Davlat tomonidan ko'rilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlar natijasida yoshlarning jamiyatdagi o'rni kuchayib, ularning bilim, salohiyat va tashabbuslari amaliy natijalar bermoqda. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi orqali imtiyozli kreditlar ajratish davom etdi. 2025-yilda bu jamg'arma orqali 15 mingdan ortiq loyiha moliyalashtirildi, natijada 40 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratildi"⁷, deb ta'kidlaydi.

Yoshlarning ijtimoiy faolligi ularning jamiyatni rivojlantirish yuzasidan sa'y-harakatlari, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi uchun jon kuydirishlari oxir-oqibatda ijtimoiy

4 Чупров В., Зубок Ю., Уильямс К. Молодежь в обществе риска. Второе издание – Москва, Наука. – С. 47.

5 Рўзиев Р. Демократия тараққиёт гарови. Т., "Фалсафа ва ҳуқуқ институти", 2005. –Б. 84–85.

6 Эргашев И. Сиёсат фалсафаси. Т., "Академия", 2004. –Б.15.

7 Садуллаев Ф. Ёшларга оид давлат сиёсати – 2025 йилдаги янги босқич. 19.06.2025. хттпс://гов.уз/оз/нурота/неуws/виeуw/62398.

mas'uliyatga aylanib, mamlakat barqaror taraqqiyoti uchun qaratiladi va bu jarayonga salmoqli hissa qo'shadi. Mazkur jarayonning bevosita amaliy natijasi o'laroq, yoshlarning mamlakat tinchligi va aholi osoyishtaligi uchun mas'ulligi va bu jarayonning natijadorligi sifatida ularning ijtimoiy tashabbuskorligi ham oshib boradi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar o'zlarining ijtimoiy mas'uliyati va faolliklari bilan jamiyat barqarorligiga hissa qo'shadi. Mazkur jarayonlar ularning ijtimoiy tashabbuskorliklari, jamiyat ishi uchun jonbozlik ko'rsatishlari, islohotlar amaliyotida o'zlarini safarbarlik namunalarini namoyon etishlaribilan yuz beradi. Bu jarayon quyidagi masalalar bilan bevosita bog'liqlikda namoyon bo'ladi:

– ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy madaniyatga ega, jamiyat siyosiy jarayonlarida o'ziga xos tashabbuslar bilan ishtirok etadigan yoshlar mamlakatga nisbatan ichki va tashqi tahdidlar, har qanday jamiyatga nisbatan qaratiladigan salbiy kayfiyatlarni hamda destruktiv maqsadlarni teran anglab yetadi, ularga qarshi kurashish uchun tegishli konstruktiv bilimlar va salohiyatga ega bo'ladi;

– yuqori ijtimoiy-ma'naviy bilimlar va ko'nikmalar sohibi bo'lgan yoshlar o'zining jamiyat ishiga mas'uliyati, innovatsion imkoniyatlari, jamiyatda tutgan o'rni va egallagan mavqei orqali barcha fuqarolar va ijtimoiy guruhlarning yagona maqsad yo'lidagi safarbarligi, milliy ko'tarinkilik va jamiyat rivojlanishi jarayonlarida keng ishtirok etadi;

– ijtimoiy mas'uliyatga ega bo'lgan yoshlar jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy institutlar va turli davlat va nodavlat tuzilmalari yordamida milliy va diniy bag'rikenglik, konfessiyalararo muloqot hamda hamjihatlikni ta'minlashga hissa qo'shadi.

– ijtimoiy mas'uliyatli yoshlar jamiyatda ijtimoiy rivojlanishga oid barcha tadbirlarda, ijtimoiy loyihalarda o'zlarining innovatsion tashabbuslari va huquqiy faolliklari bilan ishtirok etadilar.

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMINING XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRILISHI – STRATEGIK TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI

Baxti Ochilova – f.f.d., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Globallashuv va bilimga asoslangan rivojlanish davrida oliy ta'lim tizimini isloh qilish xalqaro maydonda raqobatbardoshligi va dolzarbligini oshirishga intilayotgan davlatlar uchun asosiy e'tiborga aylandi. O'zbekiston keng qamrovli modernizatsiya dasturi doirasida milliy ta'lim amaliyotini jahon standartlari bilan uyg'unlashtirishni strategik ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi. Shu nuqtayi nazardan, Finlandiya oliy ta'limi tizimi kabi muvaffaqiyatli modellarni o'rganish tizimli aniqlik va ilg'or pedagogik yondashuvlar inklyuziv, innovatsion va kelajakka tayyor ilmiy muhitni shakllantirishga qanday hissa qo'shishi mumkinligi tushunish uchun ushbu maqola tayyorlandi. Maqolada Finlandiya ta'limining tuzilishi, ta'lim falsafasi, asosiy pedagogik yondashuvlarini o'rganish va kuzatish asosidagi analitik tahlillar aks etgan.

Аннотация. В эпоху глобализации и развития, основанного на знаниях, реформирование системы высшего образования стало ключевым направлением для стран, стремящихся повысить свою конкурентоспособность и значимость на международной арене. Узбекистан в рамках своей комплексной программы модернизации определил гармонизацию национальных образовательных практик с мировыми стандартами в качестве стратегического приоритета. В этом контексте эта статья была подготовлена для понимания того, как изучение успешных моделей, таких как финская система высшего образования, может способствовать формированию инклюзивной, инновационной и готовой к будущему академической среды посредством систематической строгости и передовых педагогических подходов. В статье представлен аналитический анализ, основанный на изучении и наблюдении за структурой, философией образования и ключевыми педагогическими подходами финского образования.

Abstract. In the era of globalization and knowledge-based development, reforming the higher education system has become a key focus for countries seeking to enhance their competitiveness and relevance in the international arena. Uzbekistan, as part of its comprehensive modernization program, has identified the harmonization of national educational practices with global standards as a strategic priority. In this context, this article has been prepared to understand how studying successful models, such as the Finnish higher education system, can contribute to the formation of an inclusive, innovative and future-ready academic environment through systematic rigor and advanced pedagogical approaches. The article presents an analytical analysis based on the study and observation of the structure, educational philosophy and key pedagogical approaches of Finnish education.

Kalit so'zlar: tadqiqot universitetlari, amaliy fanlar universitetlari, talabaga yo'naltirilgan ta'lim, konstruktivizm, akademik erkinlik, tanqidiy izlanish va umrbod ta'lim.

Ключевые слова: исследовательские университеты, университеты прикладных наук, образование, ориентированное на студента, конструктивизм, академическая свобода, критический запрос и непрерывное обучение.

Keywords: research universities, universities of applied sciences, student-centered education, constructivism, academic freedom, critical inquiry and lifelong learning.

Mamlakatimiz so'nggi yillarda raqobatbardoshlik, innovatsiyalar va inson kapitalini oshirish uchun o'z ta'lim muassasalarini jahon standartlariga moslashtirishga strategik ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu jarayon, nafaqat texnik yoki tashkiliy muvofiqlashtirish, balki ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, global ilmiy-ta'limiy hamkorlikdagi ishtiroki va

barqaror taraqqiyoti uchun zaruriy shart sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, yosh avlodning mamlakat ichkarisida va xalqaro miqyosida ta'lim olish, kasbiy malaka va intellektual salohiyatni oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi zamonaviy bilimga asoslangan, ochiq va raqobatbardosh jamiyat barpo etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xalqaro standartlarga moslashtirilgan

ta'lim modellari sifatli kadrlar tayyorlash, akademik mobillikni ta'minlash, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish va mehnat bozorining talablariga javob beruvchi mutaxassislar etishtirishga xizmat qiladi. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir. Shu sababli hammamiz uchun ilg'or bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak"¹ degan chuqur ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy mazmundagi fikri ta'lim tizimini yangilash va takomillashtirish jarayonida bosh g'oya sifatida qabul qilindi.

Davlatimiz rahbari 2025-yil, 14-fevral kuni yoshlar bilan bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida yosh avlodning imkoniyatlarini kengaytirish, ilmiy va kasbiy o'sishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda jahon miqyosida raqobatbardosh ko'nikmalarni egallashga qaratilgan qator strategik vazifalarni belgilab berdi². Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, muvaffaqiyatli xalqaro modellarni o'rganish va moslashtirish alohida dolzarblik kasb etadi. Bunday modellardan biri muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega Finlandiya tajribasidir.

Finlandiya ta'lim tizimi o'zining innovatsion yondashuvlari, inklyuziv pedagogika va talabalarga yo'naltirilgan metodologiyasi bilan ajralib turadi. "Bu mamlakatda bolalar ham, o'qituvchilar ham darsdan zavq olishlari uchun hamma narsa qilinadi. Finlandiyada xuddi shu jihat eng qimmatlisidir"³. O'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim Finlandiya ta'lim falsafasining poydevorini tashkil etadi. Ushbu yondashuvning asosiy elementlari – individual o'quv yo'llarini shakllantirish va moslashuvchan

o'quv dasturlarini taklif qilishdan iborat. Garchi milliy darajada umumiy maqsadlar belgilangan bo'lsa-da, ta'lim muassasalari va ularning o'qituvchilari o'quv mazmuni hamda pedagogik yondashuvlarni moslashtirishda yuqori darajadagi mustaqillikka ega. Bu tamoyil o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlari, kelib chiqishi va o'rganish uslublarini inobatga olgan holda individual yondashuvni ta'minlaydi. Fin pedagoglari o'zlarining asosiy vazifasini o'quvchilarning shaxsiy ehtiyoji va qiziqishlarini o'quv dasturi bilan uyg'unlashtirish, ularning mustaqil fikrlashi va faol ishtirokini qo'llab-quvvatlashda deb biladilar. Bu esa o'quvchilarga chuqurroq tushunish, mas'uliyat hissi va ijtimoiy jihatdan faol shaxs sifatida shakllanishga xizmat qiladi. "O'quvchilarning qiziqishlarini aniqlang, ularni o'quv dasturi bilan bog'lang va bolalarga tanlov uchun qiziqarli imkoniyatlar bering"⁴.

Finlandiya ta'lim tizimi fin xalqi turmush tarzi va dunyoqarashi, ya'ni tenglik, erkinlik, ishonch, daxldorlik, ekologik ong va hayotdagi muvozanat qadriyatlari bilan bevosita bog'liq. Bu bog'liqlik ta'limning mazmuni, tamoyillari va maqsadlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Fin jamiyatida har bir inson teng huquq va imkoniyatlarga ega degan qarash mustahkam o'rin olgan. Bu esa jamiyatda adolatparvarlik va muvozanatni qadrlash dunyoqarashini aks ettiradi. Fin ta'lim tizimida har bir o'quvchiga – uning etnik kelib chiqishi, dini, oilaviy, ijtimoiy yoki iqtisodiy holatidan qat'iy nazar, bir xil va yuqori sifatli ta'lim berishga e'tibor qaratilgan. Bola shaxsiyatiga bo'lgan hurmat va unga ishonch asosida tarbiya berish asosiy tamoyildir. Bu esa ta'limni jamiyat kelajagi deb biluvchi fin xalqining fikr va qarashlari bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, o'qituvchi kasbiga bo'lgan yuksak hurmat va ishonch – ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlovchi muhim omillaridan

1 Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston traqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B.22.

2 <https://president.uz/uz/lists/view/7872>

3 Timoti Uoker. Finlandiya ta'lim mo'jizasi. – Toshkent: Global books, 2023. – B.27.

4 Timoti Uoker. Finlandiya ta'lim mo'jizasi. – Toshkent: Global books, 2023. – B.158.

biridir. Ta'lim jarayoniga davlat, fuqarolar va oila (xususan, ota-onalar)ning daxldorligi ta'limga jamoaviy mas'uliyat tuyg'usi bilan yondashishi, ya'ni shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni qadrllovchi dunyoqarashni namoyon etadi.

Uzluksiz (umr bo'yi) ta'lim olish Finlandiya ta'lim siyosatining asosiy ustuni va yo'naltiruvchi tamoyilidir. Butun ta'lim tizimi "ochiq" tarzda loyihalashtirilgan, ya'ni odamlar hayotlarining istalgan bosqichida, oldingi ta'lim yo'nalishlaridan qat'i nazar, keyingi o'qishni davom ettirishlari va ta'limning yuqori bosqichlariga ko'tarilishlari mumkin. Ta'lim tizimining barcha darajalarida kattalar uchun ta'lim imkoniyatlari keng tarqalgan bo'lib, ular rasmiy diplom dasturlari, kasb-hunar ta'limi, xodimlar malakasini oshirish va kattalar uchun liberal ta'limni o'z ichiga oladi. Moslashuvchan ta'lim yo'llarini osonlashtirish va o'qishlarni keraksiz takrorlashning oldini olish uchun oldingi ta'limni tan olish (RPL) mexanizmlari ishlab chiqilgan va faol targ'ib qilinmoqda. Finlandiyada kattalarning ta'limdagi ishtiroki ayniqsa yuqori, bu turli xil kurslar va dasturlarni taklif etuvchi muassasalarning keng tarmog'i bilan qo'llab-quvvatlanadi. Bunga shaxsiy rivojlanish uchun o'z tashabbusi bilan o'qish, shuningdek, kasbiy ko'nikmalar va mehnat bozoriga moslashuvchanlikni oshirishga qaratilgan treninglar ham kiradi.

Bu uzluksiz ta'lim tamoyili Finlandiya oliy ta'lim tizimida ham o'z aksini topgan bo'lib, u bir-birini to'ldiruvchi muassasa turlarini o'z ichiga olgan ikki yo'nalishli tuzilma bilan ajralib turadi: tadqiqot universitetlari va amaliy fanlar universitetlari. Ushbu ikki yo'nalishli model ta'lim ehtiyojlari va mehnat bozori talablarining keng qamrovini qondirish uchun mo'ljallangan bo'lib, oliy ta'limning xilma-xil va moslashuvchan muhitini ta'minlaydigan ongli siyosat tanlovidir.

Tadqiqot universitetlari asosan ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilgan bo'lib, ular taqdim etadigan ta'lim ushbu tadqiqot faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Ular yuqori darajadagi

ilmiy va badiiy ta'lim beradi hamda doktorlik darajasini berish bo'yicha mutlaq huquqqa ega. Hozirgi kunda Ta'lim va madaniyat vazirligi tasarrufida 14 ta universitet faoliyat yuritmoqda; ulardan ikkitasi jamg'arma sifatida tashkil etilgan, qolgan o'n ikkitasi esa davlat korporatsiyalari hisoblanadi. Ularning asosiy vazifasi fundamental bilimlarni rivojlantirish va yuqori darajadagi nazariy bilimlarni shakllantirish orqali jahon ilmiy hamjamiyatiga salmoqli hissa qo'shishdan iborat.

Amaliy fanlar universitetlari (AFU) esa, aksincha, asosan kuchli mintaqaviy yo'nalishga ega bo'lgan ko'p tarmoqli muassasalardir. Ular pragmatik va amaliyotga yo'naltirilgan bo'lib, mehnat bozori va kasbiy hayotning o'zgaruvchan ehtiyojlariga to'liq mos keladigan amaliy tadqiqot va ishlanmalarga alohida e'tibor qaratadi. AFU muassasalari doktorantura dasturlarini taklif etmaydi. Ta'lim va madaniyat vazirligining ma'muriy bo'linmasi tarkibida mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida faoliyat yuritayotgan 23 ta AFU mavjud. AFU bakalavriatining o'ziga xos xususiyati – bitiruvchilarning amaliy tajribaga ega bo'lishini ta'minlaydigan majburiy amaliyot va/yoki ish joylarini o'quv dasturiga kiritishdir.

Finlandiya 1999-yildan beri Boloniya jarayonining to'laonli a'zosi bo'lib, uning oliy ta'lim tizimi taqqoslash va sifat bo'yicha Yevropa standartlariga mosligini ta'minlaydi. Ta'lim kreditlarda o'lchanadi (opintopiste), ular Yevropa kredit transfer va to'plash tizimiga (ECTS) mos keladi. Kunduzgi o'qishning bir yili talabanning 1600 soatlik mehnatiga teng bo'lib, 60 ECTS kreditiga baholanadi. Bu tizim talabalarining harakatchanligini va Finlandiya malakalarining xalqaro miqyosda tan olinishini osonlashtiradi.

Universitetlar uch asosiy darajadagi diplomlarni beradi: bakalavr (kandidaatti), magistr (maisteri, yoki muhandislik va texnologiya sohalari bo'yicha diplom-insino'o'ri) va aspirantura darajalari, ularga litsensiat va doktorlik (tohtori) kiradi.

– bakalavr darajasi odatda 180 ECTS kreditini to'plagan holda uch yillik kunduzgi ta'limni talab etadi. Bunga odatda 6-10 ECTS krediti bilan baholanadigan bakalavr bitiruv ishi ham kiradi.

– magistrlik darajasi bakalavr darajasini yoki unga tenglashtirilgan malakani tugatgandan so'ng olinadi. Bu odatda ikki yillik kunduzgi ta'limni o'z ichiga olib, jami 120 ECTS kreditini tashkil etadi va sezilarli hajmdagi magistrlik dissertatsiyasi (20-40 ECTS krediti) bilan yakunlanadi.

– aspirantura (doktorantura) darajalari ilg'or tadqiqotlar uchun imkoniyatlar yaratadi. Litsenziat darajasi ixtiyoriy oraliq bosqich bo'lib, odatda magistraturadan so'ng ikki yillik to'liq kunduzgi ta'limni talab etadi va doktorlik dissertatsiyasiga nisbatan kamroq talablarga ega. Doktorlik darajasi eng yuqori ilmiy malaka hisoblanib, odatda magistraturadan keyin to'rt yillik to'liq tadqiqot va o'qishni talab qiladi. Bu aspiranturani tugatish, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini namoyish etish, doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va uni ommaviy himoya qilishni o'z ichiga oladi.

Amaliy fanlar universitetlari (AFU) AFU bakalavriat (ammattikorkeakoulututkinto (AMK)) va AFU magistratura (ylempi ammattikorkeakoulututkinto (AMK)) darajalarini beradi.

– AFU bakalavriat darajasi davomiyligi va kreditlari bo'yicha universitet bakalavriatiga qaraganda kengroq bo'lib, odatda uni tugatish uchun 3,5 yildan 4,5 yilgacha vaqt talab etiladi va 180-270 ECTS kreditlarini o'z ichiga oladi (ko'pincha 210-270 ECTS sifatida ko'rsatiladi). AFU bakalavriat dasturlarining muhim tarkibiy qismi amaliy ta'lim bo'lib, u stajirovka yoki ish joylarida amaliyot o'tash shaklida bo'lishi mumkin.

– AUAS magistratura darajasi o'z sohasida yuqori malakaga ega bo'lishni istagan mutaxassislar uchun mo'ljallangan. Bunga ariza topshirish uchun tegishli bakalavr darajasi (UAS yoki universitetdan) hamda, eng muhimi, bakalavr darajasini tugatgandan so'ng kamida ikki yillik tegishli kasbiy ish tajribasi talab etiladi. Ushbu dasturlar universitet magistraturasiga nisbatan qisqaroq bo'lib, odatda 1 yildan 1,5 yilgacha davom etadi va 60 yoki 90 ECTS kreditidan iborat bo'ladi.

– UAS magistraturasiga kirish uchun sezilarli ish tajribasiga ega bo'lish talabi, ushbu dasturlarni Finlandiya oliy ta'lim tizimida o'ziga xos o'ringa ega qiladi. Ular bakalavr darajasidan keyin bevosita akademik davom etish emas, balki tajribali mutaxassislar uchun mo'ljallangan yuqori malakali dasturlar sifatida tuzilgan. Bunday yondashuv mutaxassislarga o'z sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy tajribaga asoslangan rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirish va karyera istiqbollarini kengaytirish imkonini beradi. Bu tuzilma bevosita umrbod ta'limning milliy qadriyatini qo'llab-quvvatlaydi, chunki u allaqachon ish faoliyatida bo'lgan shaxslarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashning aniq yo'llarini ta'minlaydi. Bu esa ularga o'zgaruvchan sanoat talablariga moslashish yoki yanada ixtisoslashgan yoxud rahbarlik lavozimlariga o'tish imkonini beradi⁵.

Finlandiya oliy ta'limida talabaga yo'naltirilgan ta'limning keng tarqalganligi alohida pedagogik tendensiya emas. Aksincha, uni tizimning asosiy qadriyatlarining tabiiy va mantiqiy natijasi sifatida ko'rish mumkin. Har bir talabaning o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishi uchun qo'llab-quvvatlanishini talab qiluvchi tenglikka bo'lgan kuchli e'tibor, individual ta'lim ehtiyojlari va qobiliyatlariga qaratilgan pedagogik yondashuvlar bilan uzviy bog'liqdir. Xuddi shunday, ham talabalarga o'z ta'lim yo'nalishlarini tanlashda, ham

5 Universities of Applied Sciences in Finland: All you need to know ..., accessed May 22, 2025, <https://www.study.eu/article/universities-of-applied-sciences-in-finland-all-you-need-to-know>

professor-o'qituvchilarga bu yo'nalishlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda berilgan yuqori darajadagi mustaqillik o'quvchiga yo'naltirilgan amaliyotlarning rivojlanishi uchun zarur erkinlikni ta'minlaydi.

Finlandiya ta'lim tizimida Yuvaskula universiteti tadqiqot va amaliyotida inklyuziv ta'lim sohasidagi etakchiligi bilan xalqaro miqyosda tan olingan. Universitetning ta'lim va psixologiya fakulteti inklyuziv ta'lim tadqiqotlari markazi bo'lib, o'quvchilarga yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqishi bilan xarakterlanadi. Dasturlar barcha talabalarning qobiliyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishishi, tili, jinsi yoki madaniy kelib chiqishidan qat'iy nazar, asosiy ta'lim sharoitida sifatli ta'lim olish va to'liq ishtirok etish huquqini ta'minlaydigan asoslanadi. Inklyuziv ta'lim tamoyillari o'qituvchilar malakasini oshirish o'quv dasturiga kiritilgan. O'qituvchilar bu ta'lim bo'yicha kurs ishlari va amaliy tajribalar bilan shug'ullanadilar.

Inklyuziv ta'limning dolzarbligi BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasining 24-moddasi, YUNESKOning 2030 yilgacha bo'lgan ta'lim dasturlarida (Barqaror rivojlanish maqsadi — 4) o'z ifodasini topgan. Inklyuziv ta'limning asosiy guruhlar: (1) Jismoniy yoki aqliy nuqsonlari bo'lgan o'quvchilar. (2) Marginallashtirilgan etnik yoki guruhlardan bo'lgan o'quvchilar. (3) Noqulay ijtimoiy-iqtisodiy qatlamlardan bo'lgan o'quvchilar. (4) Iqtidorli o'quvchilar, lekin umumiy ta'limda ba'zan e'tibordan chetda qolgan.

Yuvaskula universiteti ta'lim falsafasi – ta'lim insonning asosiy huquqi ekanligi va har bir bolaning yaxlit rivojlanishiga xizmat qilishi kerak degan ishonchga asoslangan. Bu raqobat yoki standartlashtirilgan yutuq o'rniga tenglik, ishonch, farovonlik va umrbod ta'limga urg'u beriladi.

Yuvaskula universiteti metodologiyasiga ko'ra o'qituvchi o'z faoliyatida 100 dan ortiq metodni

bilishi shart. Dars jarayonida "yodlatish", "aytib berish" kabi usullar tanqid qilinadi, ya'ni eslab qolish va qat'iy ishlash ko'rsatkichlaridan ko'ra, talabalar farovonligi, o'qituvchilarning avtonomiyasi va yaxlit rivojlanishini birinchi o'ringa qo'yadi. O'qituvchilar oliy ma'lumotli (magistr darajasini talab qiladi) va ular o'zlarining o'quv dasturlari va o'qitish usullarini ishlab chiqishda katta mustaqillikka ega. Yuqoridan pastga minimal nazorat mavjud. Tizim o'qituvchilarga o'z talabalari uchun eng yaxshi qarorlarni qabul qilishiga ishonadi.

Talabalarga o'z sur'atlari bo'yicha rivojlanishga ruxsat beriladi va o'qitish individual ta'lim uslublari va ehtiyojlariga moslashtiriladi. O'quv yordami reaktiv emas, balki proaktiv tarzda taqdim etiladi.

O'quv jarayoniga uslubiy yondashuvlar mavjud. Jumladan:

Fenomenga asoslangan ta'lim (PBL). Bunga ko'ra ta'lim qismlarga bo'lingan mavzuga asoslangan ta'lim o'rniga fanlararo ta'limni o'z ichiga oladi. Masalan, iqlim o'zgarishi bo'yicha bo'lim fan, geografiya, axloq va tilshunoslikni birlashtirishi mumkin.

Hamkorlik va tajriba asosida o'rganish. O'quvchi yoki talabalar ko'pincha haqiqiy muammolarni hal qilish uchun guruhlarda ishlaydi. O'rganish passiv singdirish emas, balki faol va ishtirokchidir.

Xalqaro kuzatuvchilar Finlandiyaning PISA reytingiga qoyil qolishsa-da, biz testni o'rgatmaymiz, bizning muvaffaqiyatimiz farovonlik, tenglik va ichki motivatsiyaga e'tibor qaratishdan kelib chiqadi. Ta'lim o'qituvchilar, ota-onalar va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari sifatida ko'riladi – bu reyting uchun poyga emas.

Ma'ruzalar asosiy nazariy bilimlarni berish va muhim tushunchalarni kiritish uchun ishlatiladi. O'qituvchilar bir tomonlama aloqadan (obyekt

talaba) ko'ra interaktivdir, ya'ni savollar, munozaralar va mulohazalar rag'batlantiriladi. 60–80 daqiqalik ma'ruzada talabaga onlayn yuborilgan topshiriqlar (ijod, izlanish, ixtiyoriy mavzuda tadqiqot olib borish, qiziqqan tadqiqot maqolalariga taqriz yoki annotatsiya yozish) muhokamasi bo'ladi.

Ma'ruzada talabalar o'z ta'limini mas'uliyat va ishonch bilan o'zi boshqaradi (o'zi uchun o'qiydi). Ma'ruzalar talabalarga yo'naltirilgan, tahliliy va interaktiv, tuzilishi – aniq, tanqidiy fikrlash va mustaqil ta'lim qadriyatlarini aks ettiradi. Kuzatishimga ko'ra ma'ruza darslari tuzilishi quyidagicha:

1) Samimiy salomlashishadi va aloqa o'rnatadi: Mavzu nimani qamrab olishi va bu nima uchun muhimligini ta'kidlaydi (5–6 daqiqa ketdi)

2) Asosiy qism: nazariyalar, tushunchalar tahlilida slaydlar, vizual tasvirlar, misollar, real hayotdan ilovalardan foydalanish orqali "nazariya va amaliyot"ni birlashtiradi, joriy tadqiqotlarning jamiyatga ta'siri va foydasini tanqidiy tushunishga e'tibor qaratadi (dars davomida asosiy qism 10–15 daqiqada taqsimlanadi). Umuman olganda ma'ruza shunchaki taqdimot emas, balki suhbat shaklida. Talabalar nazorat qilinmaydi, ularga o'qituvchi yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

3) Xulosa qismi: asosiy muhim fikrlar ko'rib chiqiladi, savollarga javoblar echiladi.

Darsdan keyin o'qituvchining ma'ruzasiga talabalar onlayn baho qo'yadi (baholash universitet ma'muriyati bilan bog'langan).

Mustaqil ta'lim universitet ta'limining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Talabalar onlayn internetlar, darsliklar, ma'lumot bazalaridan foydalanadi. 2–3 ta yoki individual shaklda mustaqil ish o'qituvchi tomonidan amaliy yoki onlayn (ixtiyoriy) qabul qilinadi va o'qituvchiga talaba o'z vaqtiga qarab individual yoki onlayn topshiradi.

Seminar mashg'ulotlariga kirish majburiy.

Seminarlar muhokama qilish, ilmiy bahslashish, muayyan mavzularni chuqur tahlil qilish (aytib berish emas), ilmiy va tanqidiy nutq tayyorlash, guruh–guruh bo'lib fan mavzulari bo'yicha kichik loyihalarni amalga oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir, sababi, bu jarayonlar ta'lim va tadqiqot jarayonini uyg'unlashtiradi, talabalarda ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchi yordamchi yoki maslahatchi sifatida harakat qiladi.

Dars sifatiga javob beradi:

1. Kafedra.
2. Ta'lim departamenti.
3. Malaka oshirish instituti.

O'qituvchining missiyasi – pedagogika nazariyasini chuqur bilishi, pedagogik axloq va mahorat, amaliyot uyg'unligi.

O'qituvchi avtonomiyasi:

O'zini baholash (aks ettirish);

O'zini tanqid qilish (tanqidiy refleksiya va raqobat);

O'rnini bilish (yutuq va kamchiliklari);

O'quvchi bilan muloqot, suhbat qilish malakasi.

Universitetda kitobxonalar yaxshi jihozlangan va raqamli platformalar ta'minlangan (masalan, Moodle). Mustaqil o'rganish ko'pincha o'quv kundaliklari, portfoliolar, insholar, yozilgan maqolalar, ilmiy izlanish hisobotlari orqali baholanadi.

Ta'limning asosiy tamoyillari:

– tanlanganlik (pedagogika oliy ta'limiga yuqori natijalarga erishgan abituriyentlar qabul qilinadi).

– tadqiqotchi (har bir o'qituvchi tadqiqotchi bo'lishga tayyorlanadi).

– mustaqillik va ishonch (o'qituvchi sinfda erkinlikka ega).

– uzluksiz ta'lim (muntazam kasbiy rivojlanish).

O'qituvchilar tayyorlashning o'ziga xos strukturasi:

1. Bolalar bog'chalari o'qituvchilari (erta bolalik tarbiyachilari). Tarbiyachidan talab qilinadigan daraja bakalavr yoki magistr diplomi.

2. Sinf o'qituvchilari (1-6-sinflar). Bu sinflarga dars berish uchun o'qituvchi ta'lim bo'yicha bakalavr va magistr darajasiga eka bo'lishi kerak. Asosiysi jihati o'qituvchi universitetning ta'lim fakultetini tugatgan bo'lishi shart.

3. Fan o'qituvchilari (7-12-sinflar). Dars berishga talab qilinadigan daraja magistr + pedagogika fanlari (60 ECTS). O'qituvchi universitetning tegishli fanlar bo'yicha bo'limlari + pedagogika kafedralari fanlaridan o'tgan bo'lishi kerak.

O'qituvchining missiyasi – pedagogika nazariyasini chuqur bilishi, pedagogik axloq va mahorat, amaliyot uyg'unligi.

O'qituvchi avtonomiyasi:

- 1) O'zini baholash (aks ettirish);
- 2) O'zini tanqid qilish (tanqidiy refleksiya va raqobat);
- 3) O'rnini bilish (yutuq va kamchiliklari);
- 4) O'quvchi bilan muloqot, suhbat qilish malakasi.

Yuvaskula universitetida dual ta'limga asosiy maqsad sifatida qaraladi. Ma'lumki, dual ta'lim maktablardagi nazariy ta'limni ish joylaridagi amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtiradi. Bu o'quvchining o'qish davomida bilim va amaliy tajribaga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Yuvaskula dual ta'limining asosiy xususiyatlari:

1. Integratsiyalashgan kasbiy yo'llar – o'quvchilar asosiy ta'limdan so'ng (taxminan 15-16 yosh) kasbiy to'liq o'rta ta'limni tanlashlari mumkin. Ushbu dasturlar 3 yil davom etadi va sinfda o'rganish va ish joyida o'qitishni o'z ichiga oladi.

2. Ish beruvchining kuchli hamkorligi – kompaniyalar, tashkilotlar va h. haqiqiy ish muhitini ta'minlash uchun maktablar bilan hamkorlik qiladi. Ish beruvchilar ta'lim mazmunini loyihalashda yordam berishadi va o'quvchilarga maslahat kurslarini berishadi.

3. Moslashuvchan o'quv rejalari – har bir o'quvchi shaxsiy kompetensiyani rivojlantirish rejasiga ega.

4. O'qituvchi va ish beruvchi hamkorligi – o'qituvchilar ish joyidagi o'qituvchilar yaqindan muvofiqlashadi, maktab muntazam monitoring bilan ishda o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi.

Yuvaskula ta'lim tizimi uchun 100 dan ortiq fondlar (donatsiya) xomiylik qiladi. Jumladan, xususiy, xayriya tashkilotlari, bitirib ketganlar. Ular donorlar hisoblanadi va ta'limga katta mablag'lar yo'naltirishadi.

Yuvaskula universitetining muhim xarakterli jihatlaridan biri – bu "saylash" mexanizmining aniq ishlashidir, ya'ni barcha lavozimlar (rektor dekan, kafedra mudirlari) saylanadi. Nomzodini ko'rsatganlar o'z dasturlari bilan qatnashadi. Dasturdan keyin jamoadan nomzod to'g'risida anonim so'rov o'tkaziladi va shuning natijalariga ko'ra nomzod aniqlanadi. Nomzod saylangandan keyin, masalan, rektor nafaqat jamoaga, balki xalqqa ochiq intervyu beradi. Lavozim falsafasi sodda, ya'ni qandaydir imtiyozlar yoki martaba emas, balki "vazifa, ishonch va hurmat. Uni oqlash kerak" tamoyiliga asoslanadi.

"Finlandiya oliy ta'lim o'qitish metodologiyasining SWOT – tahlili"⁶:

6 Muallif tomonidan tahlil qilindi.

Kuchli jihatlari (S)	Zaif jihatlari (W)
Finlandiya oliy ta'limi talaba markazli, muammoga asoslangan va amaliyot bilan uyg'un ta'lim-tarbiya usullarini qo'llaydi. Masalan, raqamli integratsiya bo'yicha milliy strategiya 2027-yilgacha barcha darajadagi ta'limga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishni maqsad qilgan. Talabalar ittifoqi fakultet boshqaruvida va o'quv jarayonida faol ishtirok etadi – talabalar o'z vakillarini institut ma'muriyatiga kiritadi. Shuningdek, Finlandiyada oliy ta'lim asoslari sifatida bepul o'qish, keng pedagogik tajriba va yuqori malakali akademiklar mavjudligi ham kuchli tomon hisoblanadi.	Oliy ta'limda pedagogik o'qitish tizimi to'liq emas. Finlandiyada oliy ta'lim o'qituvchilari uchun majburiy pedagogik tayyorgarlik darajasi mavjud bo'lmagan; ko'p universitetlar bunday kurslarni ixtiyoriy taklif. Tadqiqotlar uchun milliy mablag' cheklangan va olimlar xususiy grantlarga suyanadi; bu esa qiyin grant tanloviga olib kelmoqda. Bundan tashqari, demografik vaziyat va byudjet qisqarishlari oliy ta'limga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
Imkoniyatlari (O)	Tahdidlar (T)
Milliy "Digitalisation strategiyasi" ta'limning raqamli transformatsiyasini rag'batlantiradi. Masofaviy va hamkorlikda ta'lim dasturlarini kengaytirish, qayta tayyorlash kurslari (lifelong learning) va sun'iy intellekt, virtual reallik kabi yangi texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish imkoniyatlari mavjud. Xalqaro hamkorlik nuqtayi nazaridan, Finlandiya Erasmus+ va Nordplus dasturlari orqali mobillikni kengaytirib, ingliz tilidagi magistratura dasturlarini ko'paytirib, o'z oliygohlarini butun dunyodan talabalarga ochishi mumkin.	Mamlakatda tug'ilayotgan yoshlar soni kamayib bormoqda, bu oliy ta'lim muassasalari uchun talaba ta'minoti pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, ilm-fan va ta'limga ajratiladigan byudjetning qisqarishi va xususiy sektor ta'siri oshishi akademik erkinlikka va ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi xavfi mavjud.

Xulosa qilganda, fin amaliyotini ta'lim tizimimizga qo'llash mumkin bo'lgan qadriyatlar bor.

Boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim bosqichi uchun:

- inklyuziv ta'lim islohotlarini kuchaytirish, qishloq va kam ta'minlangan o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash;

- imtihonlar bosimini kamaytirish va talabalar stressni kamaytirish;

- maktablar infratuzilmasini yaxshilash va ularning resurslariga sarmoya kiritish;

- umrbod ta'limni rag'batlantirish, kattalar ta'limni qo'llab-quvvatlash, kasbiy va texnik tayyorgarlikni qadrlash.

Oliy ta'lim tizimiga fin amaliyotining quyidagi jihatlari tatbiq etish samarali deb o'ylayman:

- talabalarga va tadqiqotga asoslangan ta'lim;

- professor-o'qituvchilar akademik erkinlik va mustaqilligini qadrlash;

- talabalarni real mehnat bozoriga tayyorlash uchun amaliyot, laboratoriya ishlari, amaliy tadqiqotlar va kafedralararo loyihalarni o'z ichiga olgan dasturlarni ishlab chiqish va talabalar ehtiyojlariga moslashtirish;

- talabalarni qo'llab-quvvatlovchi markazlar (masalan, ilmiy ishlar uchun yo'l-yo'riq, ruhiy salomatlik uchun yordam, martaba maslahatlari) tashkil etish;

- onlayn platformalarini kengaytirish, raqamli kutubxonalardan foydalanish, o'qituvchilarni aralash ta'lim usullariga o'rgatish;

- dual ta'limda qishloq xo'jaligi, it, muhandislik sohalarida sanoat-universitet hamkorligi zarur;

- miqdordan ko'ra sifatga e'tibor qaratish, ya'ni ommaviy test va reyting tizimlariga e'tiborni kamaytirish va sifatli o'qitish, individual ta'lim yo'llariga sarmoya kiritish.

TWO GENIA OF THE EUROPEAN RENAISSANCE: COMPARATIVE PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Kurban Shadmanov – Doctor of Philosophical Sciences,
professor, Bukhara State Medical Institute

Abstract. In the article, the author examines from a comparative philosophical point of view two works by two famous classics called "Essays" – the pillars of philosophical thought of the European Renaissance – the great French thinker Michel Montaigne and the unique English philosopher and statesman Francis Bacon. Although there are many points of similarity in the philosophical thinking of the two thinkers, the author emphasizes that the national and distinctive mentality of each of them is clearly visible. The fact is that their rich life and professional experience found vivid expression in the new literary genre of the essay, both French and English national consciousness. The author's thoughts and conclusions are methodologically based on a comparative philosophical analysis of the original works of both thinkers.

Annotatsiya. Maqolada muallif Yevropa Uyg'onish davri falsafiy tafakkurining ustunlari – buyuk fransuz mutafakkiri Mishel Monten va noyob ingliz faylasufi va davlat arbobi Frensis Bekonning "Ocherklar" deb nomlangan ikki mashhur klassik asarini qiyosiy falsafiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqadi. Ikki mutafakkirning falsafiy tafakkurida o'xshash jihatlar ko'p bo'lsa-da, muallif ularning har birining milliy va o'ziga xos mentaliteti yaqqol ko'zga tashlanishini ta'kidlaydi. Gap shundaki, ularning boy hayotiy va kasbiy tajribasi inshoning yangi adabiy janrida, ham frantsuz, ham ingliz milliy ongida yorqin ifodasini topdi. Muallifning fikr va xulosalari uslubiy jihatdan har ikki mutafakkirning asl asarlarini qiyosiy falsafiy tahlil qilishga asoslangan.

Аннотация. В статье автор рассматривает с сравнительно-философской точки зрения два произведения двух известных классиков под названием «Очерки» – столпов философской мысли европейского Возрождения – великого французского мыслителя Мишеля Монтеня и уникального английского философа и государственного деятеля Фрэнсиса Бэкона. Хотя в философском мышлении двух мыслителей есть много точек сходства, автор подчеркивает, что национальная и самобытная ментальность каждого из них отчетливо просматривается. Дело в том, что их богатый жизненный и профессиональный опыт нашел яркое выражение в новом литературном жанре очерка, как французском, так и английском национальном сознании. Мысли и выводы автора методологически основаны на сравнительно-философском анализе оригинальных произведений обоих мыслителей.

Keywords: behavior, evaluation, perception, essay, verbal charm and play, mental world.

Kalit so'zlar: xulq-atvor, baholash, idrok, insho, og'zaki joziba va o'yin, aqliy dunyo.

Ключевые слова: поведение, оценка, восприятие, очерк, словесное очарование и игра, ментальный мир.

The works of Francis Bacon and Michel de Montaigne, united by the common title "Essays", are written in the genre of essays, very close in subject and even title. A small stroke of comparison of two outstanding works under the same title "Essays" testifies to the fact that they are related by the common genre, subject, even title and a number of essays. Having borrowed from Montaigne the style of thinking (since Montaigne wrote his work earlier), Fr. Bacon gave this style a completely different content of his own. Let's say that if Montaigne pays attention

to a person as a natural, living being, directly feeling and thinking, a broad critical study of all the conditions of his existence, then the main attention of Fr. Bacon, however, was concentrated on the assessment of human behavior and his ability to achieve certain results with purely English cold caution. The French thinker Montaigne is distinguished in his reflections by the depth, gentleness of the presentation of thoughts, a skeptical attitude towards what is written, humor, and a concentrated analysis of what a person must ensure with his position and

success in life¹. But Bacon's focus is maximally accentuated and concentrated, first of all, on the behavior of the individual and his assessment from the point of view of achieving specific results. At the same time, it should be noted that his reflections do not have the same degree of introspection, gentleness, skepticism, humor, bright and independent perception of the world that we encounter in Montaigne's "Essays", where the author is focused, first of all, on identifying his own "Ego", while Bacon is motivated only by cold objectivity and a concentrated analysis of what should ensure a person's position and success in society. Bacon's attention, as a true Englishman, is entirely focused on finding out how to achieve a high position and how to behave in order to stay there and not fall too low. His reasoning is sober and practical, as befits a true Englishman. Nevertheless, what he created in this area, in its own way, is also indicative of Bacon – a thinker and a person, as well as of the time and society in which he lived. And yet it is not only an indicative and significant document of the time. The "Essays" of Francis Bacon and Montaigne belong to those remarkable works of history, acquaintance with which continues to enrich us today, since people are generally enriched and guided by the human ideological past in the frank and impressive presentation of a talented and intelligent writer and thinker.

This paper is based on the author's thoughts and recent publications by foreign and domestic authors on issues related to one of the unique figures of English enlightenment thought of the XVII century, Francis Bacon and Michel de Montaigne – outstanding philosophers, statesmen and thinkers, authors who made an invaluable contribution to the development of the essay genre in literature and philosophy of the European Renaissance² based on an analysis of

the achievements of outstanding enlightenment thinkers of past centuries³.

The paper uses historical-comparative, comparative, historical-cultural, and hermeneutic methods of researching the material, supported by scientific articles and dissertations of recent years on the topic.

To begin with, we can note, for example, Bacon's essay "Of Ceremonies and Respects". In terms of subject matter, it corresponds to Montaigne's essay "On Humility in High Offices", but the difference is already noticeable in the titles. The leitmotif of Montaigne's reflections is as follows: if I strive for a position, I prefer to take third place, not in height, but in Paris, and not first place, for I want to rise only in what is accessible to me, having achieved greater determination, prudence, charm and even wealth, Montaigne asserts. The power of universal honor, the power of authority oppresses and frightens him. He is ready to stumble rather than jump over the limit established by his abilities, because any natural situation is the most fair and convenient for him. With a certain Gascon courage, without overestimating his high position, the Frenchman Montaigne did not shy away from losing, but the Englishman Bacon paid attention to this aspect of the matter – at least, a person does not fall from every height, or does not necessarily fall, but in most cases one can calmly descend from a high social position to a lower one. To lose a high position, to fall or to be demoted – for Bacon this situation is truly sad.

Constantly generalizing their rich life experience, comparing the results of this analysis with observations of the people around them and current events, with the wisdom gleaned from ancient books and their own philosophy, Montaigne and Bacon come to conclusions of

1 Бэкон Ф. Соч. В 2-х т. Т.И. – М.: Мысль, 1971. – 590 с.

2 Бэкон Ф. Соч. В 2-х т. Т.2. – М.: Мысль, 1972. – 582 с.

3 Дворецкий Л.М. Латинско-русский словарь. – М., 1976. – 1096 с.

a universal nature, which made their "Essays" as books about man – man of the Renaissance generation, a new emerging society, about man in general; and this analysis of the essence of human nature and his being, revealed in a new way, gives the "Essays" a special value and uniqueness, for here both thinkers strive to capture the most, it would seem, barely noticeable, invisibly perceptible movements of the human soul, conditioned, first of all, by the dictates of their time. The result of the reflections of both philosophers is the masterfully and originally written "Essays" of Montaigne and Bacon as a genre of new literature and, in general, of all world cultural thought, summing up the advanced aspirations of their era.

Francis Bacon and Montaigne were masters of their craft as essayists. They loved the charm of words, brilliantly used their unexpected possibilities and always looked for a colorful and precise expression of their thoughts in them. For example, when you read Bacon's Essays, you undoubtedly imagine a far-sighted politician and statesman, immersed in the political games and palace intrigues of his time. At the same time, the feeling that this was written by a person who introduces you to the depths of government, teaches you the experience of complex strategies and life's battles, never disappears. He often refers to maxims (winged sayings) and texts of authors of the ancient world, and in support of his ideas he gives examples from the distant past and mythology, along the way explaining their meaning and context. This in many ways relates his "Essays" to the "Essays" of Michel Montaigne. At the same time, one of the clear signs of the originality of Fr. Bacon is that they are written in an extremely easy style. This work is written in such an easy style that if we ourselves take up the pen, like Fr. Bacon, or try ourselves in this style, then it seems that this imitation may seem very close to the original. However, from the very beginning it immediately becomes clear that in the style of Fr. Bacon there is something

incomparable, philosophically subtle, which is beyond your strength and ability to achieve his manner of thinking and description.

If we talk specifically about the "Essays" of Fr. Bacon, then regardless of the topic he chose for analysis and deep philosophical and ethical reflections – whether it was something personal in the "Essays" – an essay "Of Friendship" or another equally abstract work, such as "An Essay on Truth" – these essays are a kind of synthesis of rhetoric and philosophy and, perhaps, they represent the most complete and finished examples of Bacon's literary and philosophical style as an extraordinary writer and thinker. And in this he succeeded much more than his contemporaries or even the great French Renaissance thinker Michel de Montaigne, the discoverer of a genre of essays that was new for their time: instead of summarizing common and popular philosophical ideas or quickly outlining an understanding of correct behavior, Bacon tried to fundamentally change the course and way of thinking of people. This is where he differs from Montaigne. Fr. Bacon believed that rhetoric, as the power of eloquence and persuasion, is capable of turning the human mind to the pure light of reason, and in this Bacon undoubtedly achieved his goal. Against the background of the already existing masterpieces of world literature, Francis Bacon's "Essays", which gave deep philosophical reflections to world science, are distinguished by the unfading beauty of the European Renaissance culture.

The "Essays" is a wonderful, emotional book, where the author's obsessive "Ego" is not imposed at all. The world that emerges from its pages, from the very beginning, captivates attention with its diversity of mental palette and almost primeval chaos. Bacon writes about very different things: of truth, of death, of atheism, of revenge, of poverty and hypocrisy, of parents and children, of the true greatness of kingdoms and estates, of suspicion, of youth and age, of

prophecies, of gardens, of suitors, of friendship and so on. Whatever Bacon wrote about in his "Essays" – the art of conversation, etiquette and its strict observance, business ability, wealth and expense, promotion, love, friendship and deceit, fame, honor and glory – he, as a thinker, always took these aspects of the issue into account and considered the possibility of making assessments, recommendations and revisions on the basis of appropriate criteria in the spirit not only of his time. For he sets himself very specific tasks – he encourages us to turn to real, even everyday examples, in order to try to understand those tests, means and factors of the human will that are subject to this or that moral evaluation. And, in our deep conviction, such an assessment found its loving and understanding reader, and the fame of the author himself went far beyond the borders of Britain, taking an equal and worthy place alongside the "Essays" of the great French Renaissance philosopher and politician, Michel de Montaigne, for even today this remarkable book, which draws attention to human character and love for constant moral qualities on the pages of the "Essays", attracts the hearts of readers to Fr. Bacon as a thinker and his work⁴.

The vocabulary of F. Bacon is similar in beauty to the brilliance of the palette of colors in a painting; Bacon himself, for example, in the essay "Of Friendship"⁵ expresses the charm and play on words, their logic of use in speech by the mouth of the ancient Greek sage Themistocles: "It was well said to Themistocles to the king of Persia, that speech was like cloth of Arras, opened and put abroad; whereby the imagery doth appear in figure; whereas in thoughts they lie but as in packs" (Plutarch. Themistocles, XXIX.3). Neither

is this second fruit of friendship, in opening the understanding, restrained only to such friends as are able to give a man counsel (they indeed are best); but even without that, a man learneth of himself and bringeth his own thoughts to light and whetteth his wits as against a stone, which itself cuts not. In a word, a man was better relate himself to a statue or picture than to suffer his thoughts to pass in smother⁶. Transforming the graceful fluency of his speech into sharp forms, such as quotations and vivid sentences, is what makes Bacon's Essays so thoughtful, relevant and readable today, even though it was written four centuries ago. It also helps avoid the temptation to imitate Bacon's handwriting, as can be seen in the following words of the great philosopher himself: "There is also great use of ambitious men in being screens to princes in matters of danger and envy, for no man will take that part, except he be like a seeled dove, that mounts because he cannot see about him⁷. Next, "He that builds a fair house upon an ill seat, committees himself to prison"⁸ and "... number itself in armies importeth not much where the people is of weak courage; for (as Virgil saith) It never troubles a wolf how many the sheep be"⁹.

The truth is that the process of writing and perfecting the style of the Essays took Bacon nearly thirty years, and by the time he finished it (in 1625) it was one of the crowning achievements of Elizabethan philosophical prose. The great prose writers of his time, such as Hooker, Nash, and Donne, were also grateful to that age for working in universities and colleges, but in Bacon's case the gratitude was different and deeper, for he had penetrated right to the heart of the dead scholasticism of the Middle Ages and

4 Субботин А.Л. Френсис Бэкон и принципы его философии/ Бэкон Ф. Соч. В 2-х т. Т.И. – М.: Мысль, 1971. – 590 с.

5 Плутарх. Избранные жизнеописания. В двух томах. Т.1. – М., 1986. – 592 с.; Т.2. – М., 1987. – 608 с.

6 Шадманов К. Английская духовность и язык. – Дюссельдорф, 2015. – 264с.

7 A Dictionary of Philosophy and Psychology including many of the principal conceptions of ethics, logic, aesthetics, philosophy of religion and giving a terminology in English, French, German and Latin, vol.1-2./Ed.James Baldwin/ – N.-Y., 1928. – vol.1.-644p.; vol.2. –82p.

8 Francis Bacon. The Essays / Ed. by John Pitcher. – L.: Penguin Classics, 1985. – 227p.

9 Concordance to the Essays of Francis Bacon. Ed. by David W. Davies and Elizabeth S.Wrigley. – Detroit (Mich.), Gale, 1973.

there performed the miracle of making it all come alive again after centuries of melancholy. Contrary to expectations, Bacon's writing style was based on exercises in Tudor school books, university syllabuses, and the notes of young lawyers. Perhaps this is what makes him in some ways weak in the art of mimicry (form and tone that are inseparable from their environment), because Bacon's own historiography of his life is a story in itself, to be studied, remembered, and imitated. If the great Roman orator Cicero wrote his famous lines in one or another canonical manner, Bacon, as a young writer of the Elizabethan era, had to break these canons of grammatical structure, show new ways, establish their arrangement, and accordingly shape his own Latin as a language that is unshakable in this world. This is what happened to the law student Bacon and his speeches to the jury. It is in all this that we must seek the origins of Bacon's "Essays", drawn from the intellectual world of the thinker himself, inherited from medieval book learning, debate and jurisprudence. Only by taking the plunge and entering this world can we understand how much titanic work Bacon – and Montaigne – had to do to acquire such impressive and convincing writing skills, although from today's perspective the writer's handwriting seems very easy to read.

The form of the human mind, according to Fr. Bacon, like a whirlwind, absorbs and assimilates knowledge. This can make his mind full or empty, gassy or the opposite; it can be inflated like a balloon with empty thoughts and nonsense, or it can be attracted by the discoveries of nature and by trusting interlocutors; "But if a man be thought secret, it invites discovery, as the more close air sucketh in the more open. And as in confession the revealing is not for worldly use, but for the tase of man's heart, so secret men come to the knowledge of many things in that kind, while men rather discharge their minds than impart

their minds"¹⁰. But if there was a mind that could open and close, that could change its form, it was Bacon's. Here too we can see the difference between him and Montaigne. In his most closed form, to use Karl Popper's terminology, Bacon was an enemy or a disciple among many masters of the Open Society: but when it was fully open to the public, there was no one closer to his mind, no one freer. Sometimes he wanted to suppress art; at other times music and art were especially revered, pleasing the ear and the eye¹¹.

But how to change the way others think – this rhetorical question was for Bacon a big open question without an answer. Besides, we should not forget that behind him was a meaningful tradition of more than two thousand years of rhetorical history, as well as his individual rhetoric, which could persuade people to think correctly, even when it seemed to contradict logic. An open palm or a softening of the fist – this is how the ancients, as we know, described rhetoric – and the manipulation of people – on the path of truth and the difference between logic and convincing them of this truth. An open, soft method of persuasion or compressed step-by-step levels of philosophical statements. Creative searches in the genre of essays testify to the fact that Bacon had to try both of these methods with varying degrees of success. For example, to show that one thing is superior to many, Bacon appeals to the words of Jesus: "Martha, Martha, you are busy with many things, but one thing is enough", and this recalls the old fable of Aesop about the fox and the cat: "The fox boasted of the many tricks he had to use to escape the dogs, but the cat said he had only one way out of such a situation – to climb a tree". By this Bacon, with the cheerful air of an old politician – the writer was thirty-six years old – meant that a good and faithful friend is at least a better helper than the tricks and politics of his own mind. Thus, the thinker comes to the

10 Concordance to the poems of Ben Johnson. Ed. By Mario H. Cesare and Ephim Fogel. – Ithaca; London: Cornel univ.press, 1978. –879 p.

11 Philosophical Works of Francis Bacon, baron of Verulam. Ed. by John M. Robertson – London, Routledge. –New-York: Dutton, 1905. –920 p.

conclusion that "a principal fruit of friendship is the ease discharge of the fulness and swellings of the heart, which passions of all kinds do cause and induce"¹² and "the second fruit of friendship is healthful and sovereign for the understanding, as the first is for the affections. For friendship maketh indeed a fair day in the affections, from storm and tempests; but it makes daylight in the understanding, out of darkness and confusion of thoughts. ...And now, to make this second fruit of friendship complete, that other point which lieth more open and falleth within vulgar observation, which is faithful counsel from a friend"¹³.

From this point on we come very close to understanding the writing style and the meaning of the Essays. And when you read these essays as an art form, as a literary work, there is a certain sense of movement, a movement between contradictions, confusions and – from a philosophical point of view – unexpected states of mind, between the endless but inevitable properties of *linguo-philosophy*, i.e. thought and language. And only now does the reader come to a full understanding of the fact that Francis Bacon, considered the pioneer of the development of "natural" philosophy, was also one of those who laid the foundation in England for the concept of "natural" morality, the construction of ethics, although part of theology, but mainly without the help of religious ideas, proceeding from rationally assimilated worldly life aspirations, and effects of the human personality¹⁴.

Thus, Bacon did in his own way in England the same thing that M. Montaigne had done somewhat earlier in France. But, unlike the great French thinker, he sets himself a task of a different order, namely, turning to examples of real, everyday life, to try to understand the ways and means, the incentives of that human expression of will, which is subject to one or another moral assessment.

Therefore, along with the thesis "the common good above all", Bacon defends and develops another: "man himself is the smith of his own happiness": one should only be able to reasonably determine the meaning and value of all things depending on how much they contribute to the achievement of our ultimate goals – mental health and strength, wealth, social status and prestige.

12 The works of Lord Bacon in 2 vols. – London, 1841. – 670 p.

13 The Advancement of Learning. /Ed. by Arthur Johnston/ Books I-II, Oxford, 1974. – 225 p.

14 Aubrey's Brief Lives, ed. Oliver Lawson Dick, Penguin edition, 1972.

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DINIY-MA'RIFIY TARBIYASINI SHALLANTIRISH: MOHIYATI VA AHAMIYATI

Rustam Daniyrovich Yuldashev – f.f.d.,
dotsent, Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un tarzda shakllantirish va rivojlantirish yangilanayotgan O'zbekistonda ma'rifatparvarlikka asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishning tayanch omillaridan biri sanaladi. Asosiy maqsadi erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish va inson qadrini yuksaltirish orqali xalqparvar davlatni barpo etishdir. Ushbu ilmiy maqolada Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishning zamonaviy konseptual asoslarini ishlab chiqish va amalda qo'llash masalasi yuzasidan ilmiy-amaliy ahamiyatga molik bo'lgan fikrlar bayon qilingan.

Аннотация. Гармоничное формирование и развитие светского и религиозного мировоззрения молодежи является одним из базовых факторов построения в обновляющемся Узбекистане гражданского общества, основанного на просвещении. Основная цель – построение народно-демократического государства путем формирования свободного гражданского общества и повышения ценности человека. В данной научной статье изложены идеи, имеющие научно-практическое значение по вопросу разработки и практического применения современных концептуальных основ формирования и развития мировоззрения молодежи в построении нового Узбекистана.

Abstract. The harmonious formation and development of the secular and religious worldview of young people is considered one of the key factors in the establishment of a civil society based on enlightenment in the renewing Uzbekistan. The main goal is to build a nationalistic state by forming a free civil society and elevating human value. This scientific article describes the ideas of scientific and practical importance on the issue of developing and putting into practice the modern conceptual foundations of the formation and development of the worldview of young people in the construction of a new Uzbekistan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, yoshlar, jahon, zamonaviy fikrlash, din, diniy tashkilot, diniy-ma'rifiy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, diniy guruh va jamoa, diniy e'tiqodlar, jamiyatda diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo totuvlik.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Молодежь, мир, современное мышление, религия, религиозная организация, религиозно-просветительское воспитание, социальное воспитание, религиозная группа и сообщество, религиозные убеждения, религиозная терпимость и межконфессиональная гармония в обществе.

Keywords: New Uzbekistan, Youth, World, modern thinking, religion, religious organization, religious and educational education, social education, religious group and community, religious beliefs, religious tolerance and interconfessional harmony in society.

Dinni ijtimoiy fenomen sifatida tan olmaslik, ayniqsa odamlarning diniy his-tuyg'ulari bilan o'ynashish hamma vaqt jamiyat hayotida keskin o'zgarishlar, ag'dar-to'ntarlar, halokat va falokatlarning paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan. Madomiki, din ijtimoiy hodisa ekan, uning mohiyati nimada degan savol tug'iladi? Bu savolga javob berish uchun oldin "din" atamasining ma'nosini tushunib yetish zarur bo'ladi. Bu xususida: "Arab tilidagi manbalarda qayd etilishicha, din so'zi "دين" ("dâna") fe'lidan yasalgan bo'lib, "kimgadir bo'ysunmoq,

bo'yin egmoq, itoat etmoq, kimdandir qarzdor bo'lmoq, e'tiqod qilmoq, qilgan ishiga yarasha mukofotlamoq"; "diynun" so'zi esa, "din, imon, ajr-mukofot, qilingan ishga yarasha berilgan haq" kabi ma'nolarni bildiradi.

O'zbek tili lug'at adabiyotlarida "din" – ishonch, ishonmoq, e'tiqod, mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, bo'ysunish, itoat qilish, ibodat, parhez, yo'l tutish, odat qilish, e'tiqod qilish ma'nolarini bildirishi keltirib o'tiladi.

Islomdan avval turkiy xalqlarning din

tushunchasini ifodalash uchun turli davrlarda "drm", "darm", "nom" va "den" kabi so'zlarni ishlatganlari ma'lum. Ulardan "drm", "darm" din, aqida ma'nosida sanskritcha (qadim hind tili) "dharma"dan (Pali tilida dhamma); "nom" din ishonch, qonun ma'nosida sug'd tilidan kirib kelganligi aytiladi.

O'zbek tilidagi "din" ma'nosini beruvchi atamalar barcha tillarda mavjud. Jumladan, zardushtiylarning manbasi "Avesto"da "din" sifatida "daena", qadimgi fors pahlaviy tilida "den", "din", "dena", "daena" so'zi ishlatilib, "yo'l", "mazhab", "marosim", "uslub", "tarz" kabi ma'nolarni bildirgan. Ibroniylar tilida istifoda qilinadigan "dath" so'zi "din" tushunchasini ifodalash uchun umumiy termin bo'lib, "hukm", "amr" va "qonun" ma'nolarini anglatgan.

Rus tilida din ma'nosini anglatadigan "religiya" so'zining kelib chiqishi borasida lug'atlarda bir qancha yondashuvlar keltirib o'tilgan. Ulardan ba'zilariga ko'ra mazkur atama lotincha "religio" so'zidan kelib chiqib, "diyonat, dindorlik, taqvodorlik, xudojo'ylik, mo'minlik, taqvo, muqaddas narsa yoki joy, qadamjo, ziyoratgoh, ibodat topinish – sig'inish va u bilan bog'liq diniy marosimlar" degan ma'nolarni anglatadi.

Ikkinchi guruh tilshunoslar "religio" so'zi semantik, ma'no va morfologik jihatdan "relegere" so'zi bilan bog'liq bo'lib, "yangidan to'plamoq, yangidan tanlashga kirishmoq, qayta ishlab chiqish uchun oldingi sintezga qaytish" kabi ma'nolarni anglatadi, deb ta'kidlaydilar"¹.

Odamlar, jamoalar, xalqlarning u yoki bu narsa, hodisa va voqelikka nisbatan bo'ladigan e'tiqodlari din maqomiga ega bo'lishi uchun quyidagi uch asosiy xususiyatga ega bo'lishi lozim.

1. G'ayritabiiy-mo'jizaviy ilohlar haqidagi tasavvurning, ya'ni sig'inish, topinish obyekti bo'lgan – Xudoning mavjud bo'lishi. Ularni transsendent va immanent ilohlarga bo'lish mumkin. Bunda: "Transsendent ilohlarga insonlar olamidani tashqarida, insonlarga hech qanday aloqasi bo'lmagan, qusur va nuqsonlardan xoli Xudolar kiradi. Bunga misol sifatida tom ma'noda islom dinidagi Alloh taolo va qisman xristianlikdagi Ota Xudo, yahudiylikdagi Yaxvelarni keltirish mumkin.

Immanent ilohlar deganda esa tabiatning bir bo'lagi sifatida tasavvur qilingan, insonlarga o'xshab ketadigan, biroq g'ayrioddiy yaratuvchilik, buzg'unchilik, rizqlantiruvchilik kabi kuchlarga ega bo'lgan Xudolar kiradi. Bunday turdagi ilohlar ko'pincha yo antropomorf (inson qiyofasida) yo zooantropomorf (yarim odam yarim hayvon) yoki zoomorf (hayvon) shaklda tasavvur qilinadi. Bunga misol sifatida Qadimgi Misr, Yunon, Rim sivilizatsiyalari, zamonaviy Hindiston, Xitoy, Yaponiya dinlarini sanash mumkin"².

2. Yaratganni (Xudoni) insonlarni bog'lab turuvchi ibodat va marosimlar bo'lishi shart. Masalan, namoz, ro'za, qurbonlik, aqiqa, amri ma'ruf, xatna, haj va boshqalar.

3. Diniy tashkilotlarning mavjudligi. "Diniy tashkilot – diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish va qondirishga ko'maklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko'radigan ixtiyoriy, teng huquqli va o'z-o'zini boshqaruvchi uyushma"³. Bir so'z bilan aytganda, bu bir din izdoshlarining jamoaviy ravishda o'z diniy rasm-rusum, ibodat marosimlarini o'tkazadigan, diniy ta'lim oladigan muassasalaridir. Bu, islomda – masjid, madrasa, xristianlikda – cherkov, seminariya, yahudiylikda

1 Диншунослик асослари (Ўқув қўлланма). – Тошкент: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2013.- Б.7-8.

2 Диншунослик асослари (Ўқув қўлланма). – Тошкент: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2013.- Б.8.

3 Ислам. Энциклопедия. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2003. – Б.71.

– sinagoga va hokazo.

Bugungi kunda jahonda 8, 175, 716, 385 kishi yashayotgan bo'lsa, ularning 2,6 milliard xristianlik, 2,2 milliard islom, 1,2 milliard induizm, 0,5 milliard buddizm diniga e'tiqod qiladilar. 1,2 milliard esa dinsiz teizm, agnosstizm, ateizmchilar qatoriga kiradi⁴. Demak, jahon aholisining 6 milliarddan ortiqroqrog'i dindorlar olamiga mansub kishilar hisoblanadi. Shunga ko'ra, ularning yo'l boshchilari, faol qatlamlari muntazam ravishda diniy-ma'rifiy tarbiya ishlarini olib borish bilan shug'ullanadilar.

Xo'sh, shunday ekan, diniy-ma'rifiy tarbiya nima, degan savol tug'iladi? Bu savolga javob berish odamlar yashayotgan jamiyatning maqsadini aniqlashdan boshlanadi. Yangilanayotgan O'zbekistonning asosiy maqsadi esa "erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish va inson qadrini yuksaltirish orqali xalqparvar davlatni barpo etish"⁵ orqali odamlarning farovon yashashini ta'minlashdan iborat. Bu buyuk maqsadning tamal toshlaridan birini yuksak axloqiy-ma'naviy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar tashkil qiladi. Ana shu jarayonda din kuchli ma'rifiy quroli sifatida odamlarning tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Madomiki, din ijtimoiy hodisa ekan, u, albatta, ijtimoiylashuv jarayonining ajralmas qismi ijtimoiy tarbiyaning bir qismi hisoblanadi. Ijtimoiy tarbiya nima? Bu xususda professor A.Choriyev: "Ijtimoiy tarbiya jarayoni bir butun, yaxlit sistema bo'lib, jamiyatning barcha sotsial institutlari (oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, mehnat jamoalari, mahalla kengashlari), jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, madaniy-ma'rifiy uyushmalar amalga oshirayotgan barcha tarbiyaviy-mafkuraviy tadbirlarni, shuningdek, madaniy meros, milliy qadriyatlar, jamoatchilik fikrining tarbiyaviy-

mafkuraviy imkoniyatlarini ham o'zida qamrab oladi. Boshqacha aytganimizda, ijtimoiy tarbiya-tarbiyaviy ta'sirning maqsadi va vazifalari, ustuvor yo'nalishlari va sohalari, omillari va vositalari, uslublari va usullarini o'zida mujassamlashtiradi. Ijtimoiy tarbiya – tarbiyaning ongli, aniq maqsad tomon yo'naltirilgan qismi ekanligini unutmaslik darkor. Boshqacha aytganimizda, ijtimoiy tarbiya – mafkuraning o'zidir"⁶, Klayv Erriker (Clive Erricker): "Ijtimoiy tarbiya – bu ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlar, qarashlar, g'oyalar, xatti-harakatlar va muloqot usullarini o'zlashtirish va ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlarni rivojlantirishning maqsadli jarayonidir"⁷, – degan ta'rif va tavsiflarni berganlar. Birinchi ta'rifda ijtimoiy tarbiya mafkura bilan tenglashtirilgan, ikkinchi ta'rifda esa ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarga nimalar kirishi ko'rsatilmay qolib ketgan. Birinchi ta'rifda ijtimoiy tarbiyani amalga oshiruvchi mexanazmlar tizimi aniq ko'rsatilgan bo'lsa, ikkinchi ta'rifda bu haqda hech narsa deyilmagan. Bu savolga aniqroq javob berish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim.

1. Ijtimoiy tarbiya – bu shaxsning ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muayyan tarbiya strategiyalaridan iborat bo'lib, uning maqsadi jamiyatda moddiy va ma'naviy farovon yashashni qo'llab-quvvatlash, jamiyat a'zolari o'rtasidagi axloqiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, marginallik muammolarini hal qilishdir.

2. Ijtimoiy tarbiyaning vazifalari, bir tomondan, marginallik muammolarining oldini olish bo'lsa; ikkinchi tomondan ijtimoiylashuv jarayonlarini optimallashtirishi, uchinchi tomondan esa barcha odamlarga o'z huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini berish ham kerak bo'ladi.

4 <https://sevabashirov.livejournal.com/579959.html>

5 Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. Тошкент: "Ўзбекистон", 2022. – Б.10.

6 Анвар Чориев. Инсон фалсафаси. Ижтимоий тарбия. Учинчи китоб. – Қарши: "Илм-фан маънавият" нашриёти., 2024. – Б.20.

7 Clive Erricker. Religious education and social and emotional aspects of learning (SEAL). / Clive Erricker. The Religious Education Handbook. [Electronic resource]. URL: <http://re-handbook.org.uk/> (date of access: 14.11.2016).

3. Ijtimoiy tarbiyaning usullari bilan bog'liq masalalar, xususan, jamiyat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlarni kuzatib boruvchi odamlar o'rtasidagi xatti-harakatlar va munosabatlar, ma'lum qadriyatlar va an'analarni rad etuvchi, o'z me'yorlari va qadriyatlari tizimini tasdiqlovchi guruhlarini aniqlash, ularning xatti-harakatlaridagi noadekvat tomonlarni bilish va tuzatish ishlarini tashkillashtirishni ham hisobga olish kerak.

Demak, yuqorida bayon qilingan har bir holatda progressiv ahamiyat kasb etadigan transformatsiyalashuv strategiyasini aniqlash va tanlash uchun odamlarning turmush tarzi, ularning muammolari, ular o'rtasidagi munosabatlar haqida ma'lumotlar to'plash orqali xulosalar chiqarishni ham inobatga olish kerakligini yoddan chiqarmaslik lozim.

Ma'lumki, insonning rivojlanishi juda murakkab jarayon bo'lib, uning ko'p yillik tarixiy taqdirida hamroh bo'lgan va hozirgi davrda ham muhim rol o'ynayotgan ijtimoiy hodisalardan biri bu dindir. Har qanday din o'zining jamiyatdagi mavqeini saqlab qolish, ayni vaqtda kuchaytirish uchun diniy-ma'rifiy ta'lim va tarbiya ishlarini takomillashtirib boradilar.

Xo'sh, shunday ekan diniy-ma'rifiy tarbiya deganda nimani tushunmoq kerak? Bu xususda bir qator qomusiy lug'atlarda quyidagicha ta'riflar berilgan. Masalan, "Diniy tarbiya bu odamlar ongga diniy mafkura va xudojo'y xulq-atvorni singdirishdir"⁸, "Diniy tarbiya bu muayyan din aqidalariga asoslangan tarbiya tizimidir. Din tarbiyaviy ta'sir orqali insonning ma'naviy hayotiga kirib boradi va uning irodasini din talab qiladigan harakatlarni amalga oshirishga yo'naltiradi", "Diniy tarbiya bu bir tashkilot yoki din ta'limotiga qat'iy mos keladigan fikrlash va xulq-atvorni shakllantirishning maqsadli

jarayonidir", "Diniy tarbiya – bu dindorlarning dunyoqarashini, dunyoni his etishini, muayyan konfessiyaning (dinning) aqidalari va doktorinal tamoyillariga mos keladigan munosabatlar va xulq-atvor normalarini singdirish orqali maqsadli va tizimli ravishda tarbiyalashdir", "Diniy tarbiya – bu dindorlarning nisbatan nazorat ostida ijtimoiylashuvining ajralmas qismi (oilaviy tarbiya va ijtimoiy tarbiya bilan birga)"⁹. Bunda "diniy-ma'rifiy tarbiya" tushunchasiga, odatda "din", "ma'rifat" va "tarbiya" so'zlarining mazmunidan kelib chiqqan holda integral tushuncha sifatida quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Diniy-ma'rifiy tarbiya – bu diniy, guruh, jamoa, tashkilotlarning yetakchilari tomonidan har bir individ, shaxs, kishi, odamlarga Allohning mavjudligini, uning mo'jizaviy kuchga ega ekanligini anglatish, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarga boy bo'lgan diniy urf-odatlariga qat'iy amal qilgan holda ruhiy kamolotga erishi orqali "ikki dunyo" hayoti saodatiga erishish uchun to'g'ri yo'ldan borishni o'rgatishga qaratilgan faoliyatidir. Diniy-ma'rifiy tarbiyadan maqsad – bu kishilarga nafaqat Yaratganning va payg'ambarlar hamda din peshvolarining ta'limotini o'rgatishni, balki ayni vaqtda ularning jamiyatda tutgan o'rnini, fuqarolik burchi va mas'uliyatini ham to'g'ri anglab yetish zarurligini ko'rsatish bilan ham ifodalanadi.

Aslini olganda diniy-ma'rifiy tarbiyaning markazida "ikki dunyo"ning borligini, unda insonning o'limidan keyingi ikkinchi dunyoga borishda diniy aqida, marosim, urf-odatlarning rolini sakrallashtirish¹⁰ fenomeni yotadi. Demak, bunda atrofdagi voqelikda yuz berayotgan hodisalarni, unda insonning paydo bo'lishi va umrguzaronlik qilishlarini muqaddas mazmun bilan ta'minlashga, xususan, diniy urf-odatlarni, marosimlarni ularni muqaddaslashtirish

8 Профессиональное образование. Словарь. Ключевые понятия, термины, актуальная лексика. — М.: НМЦ СПО, 1999. – С.217.

9 Религиозное воспитание. Педагогическая энциклопедия//<https://didacts.ru/termin/religioznoe-vospitanie.html>

10 Сакральный(латинча sacra) – muqaddas – diniy kult va marosimga tegishli muqaddas; tantanali// Словарь иностранных слов – М.: Рус.яз..1985 – С.441.

masalasiga alohida ma'no berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Diniy-ma'rifiy tarbiyani ikki: aqliy (ratsional) va ilohiy (mistik) darajalarga ajratish mumkin.

1. Diniy-ma'rifiy tarbiyaning aqliy (ratsional) darajasi. Bunda, asosan, quyidagi komponentlar: axborot olish va uni uzatish; axloqiy-ma'naviy qadriyatlar qoidalarga qat'iy amal qilish; voqelikdagi o'zgarishlarga qarab faol harakat qilishini ta'minlashni yo'lga qo'yish masalasi yotadi. Xuddi shu jarayonda ikki holat: birinchidan, dunyoviy bilimlarga asoslangan dunyoqarashning o'rnini aql orqali idrok qilish, uni dinga qarama-qarshi qo'yimaslik; ikkinchisi diniy bag'rikenglikni kengaytirib, konfessiyaviylikka keng yo'l ochib berish.

2. Diniy-ma'rifiy tarbiyaning mistik¹¹ darajasi. Masalan, bu darajada xristian dini tarbiya jarayonida dindorlarning ilohiyat olami bilan aloqa qila olishiga ishonishdan iborat diniy e'tiqodni shakllantirish va rivojlantirish uchun turli marosimlarga tayyorgarlik ko'rish va qatnashishni, uyda ibodat qilishni, muqaddas narsalarni hurmat qilish va e'zozlab avaylash tuyg'usini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Diniy-ma'rifiy tarbiya turli xil shakllar qo'llaniladi, ularning ko'pchiligi tashqi ko'rinishi bilan ijtimoiy tarbiya shakllariga o'xshab ketadi. Masalan, tarbiyaviy darslar tizimi: seminarlar, ma'ruzalar va boshqalar. Shuningdek, diniy bayram tadbirlari, ekskursiyalar, havaskorlar uyushmalari, xor, orkestrlar va boshqalar. Diniy-ma'rifiy tarbiya ishida ommaviy tarzda tashkillashtirilayotgan barcha tadbirlarga "muqaddas"lik maqomini berishga harakat

qilinadi.

Diniy-ma'rifiy tarbiya ishlarini ommaviy tarzda tashkillashtirishda: ruhoniylar, diniy va dunyoviy (bir qator mamlakatlarda) ta'lim muassasalarining o'qituvchilari, bolalar va o'smirlar birlashmalari tarbiyachilari, diniy va dunyoviy tashkilotlarda faoliyat yurituvchi, masalan, skautlar¹² tomonidan amalga oshiriladi. Ayni vaqtda diniy tashkilotlar tomonidan nazorat qilinadigan va ommaviy axborot vositalari orqali yoritilib boriladi. Bu ishga oilada esa dindorlar, ota-onalar, qarindoshlar, diniy jamoa a'zolari va boshqalar jalb qilinadi. Shu tariqa diniy-ma'rifiy tarbiya jarayonida ma'lum bir mazhabga tegishli bo'lgan fikrlash, shu asosda xatti-harakatlar sodir etish xususiyatlariga, turmush tarziga, shuningdek, jamiyatda moslashish va cheklash strategiyalariga xos bo'lgan iymon-e'tiqodlalar yangi avlodlarining paydo bo'lishiga olib keluvchi qiymat-me'yoriy tizimlar ishlab chiqiladi.

Diniy-ma'rifiy tarbiya ikkita negizga – yuksak axloqiylik va teran oqilalikka tayangandagina ko'zlangan maqsadda erishishi mumkin bo'ladi. Chunki, yuksak axloqiylik barcha insoniylik fazilatlarini yuzaga chiqarsa, teran oqilalik esa insonni har hil bo'lmag'ur illatlardan himoya qiladi. Fransuz yozuvchisi, faylasuf Shamfor Sebasten-Rosh Nikola (1741-1794) yozganidek: "Agar faqat axloqqagina tayanilsa, unda siz g'irt befahmlar yoki dodvoychi dardisarlarni, faqat oqillikka tayanilsa – xudbin shaxsiyatparastlarni tarbiyalab yetishtirishingiz mumkin. O'sib-ulg'ayish har jihatdan, jismoniy ham, unga uyg'un holda aqliy, estetik, axloqiy jihatdan ham mutanosib bo'lmog'i kerak"¹³.

11 Мистика – юнунча «mystikos –яширин, сирли» деган сўзлардан олинган бўлиб, ғайритабиий оламга, илоҳлар ва илоҳий кучларга, инсоннинг илоҳият олами билан алоқа қила олишига ишонишдан иборат диний эътиқод.//Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2–жилд. – Б.602.

12 Скаут сўзининг ўзи инглиз тилидан разведка ходими деб таржима қилинган. Скаутлар ҳаракати ёшларнинг жамиятда конструктив ўрин эгаллаши учун ёшларнинг жисмоний, маънавий ва ақлий ривожланиши билан шуғулланувчи бутунжаҳон болалар ҳаракатидир. Бунга Скаут усули деб аталадиган амалий очиқ ҳавода фаолият олиб боришга қаратилган норасмий таълим орқали эришилади. Скаут ташкилоти ихтиёрий, сиёсий эмас ва мустақилдир.// Википедия. https://ru.wikipedia.org/wiki/Скаутское_движение.

13 Шамфор Себастьян-Рок Никола. Максимум и мысли. М.: Арт Презент, 2012. – С. 146// <https://www.livelib.ru/author/490475/top-sebastenrok-nikola-de-shamfor>

Diniy-ma'rifiy tarbiyaning ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi.

1. Diniy e'tiqodlarning kishilar amal qilishi kerak bo'lgan axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini belgilab beradi, bunda har bir so'zni o'ylab gapirish, shunga muvofiq tarzda o'zini tutishni talab qiladi.

2. Zamonaviy jamiyatning bir qismi bo'lgan turli dinlar va e'tiqodlar haqidagi bilimlarning rivojlanib borish tendensiyalarini bilish uchun muhim ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish zarurligini ta'kidlaydi.

3. Xudo haqidagi, insonning o'zi va mavjud voqelikning tabiati haqidagi g'oyalar, unda nima yaxshi-yu, nima yomon, inson bo'lish nimani anglatishi haqidagi savollarga javob topish imkoniyatini beradi.

4. Yoshlarda islomiylik, nasroniylik kabi asosiy dinlar, boshqa diniy an'analar va hayotning turli savollariga javob beradigan dunyoviy va diniy dunyoqarashni tushuntirib berish bo'yicha bilimlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. Jamiyatda o'zaro hurmat va bag'rikenglikni mustahkamlash orqali yoshlar shaxsining rivojlanishiga, kelajakda ijtimoiy hamjihatlikning yanada barqaror tus olishiga yordam beradi.

6. Yoshlarning o'z-o'zini, o'z xatti-harakatlarini, turmush tarzidagi ma'naviy muhitni yaxshilashda dinning ahamiyati borligini chuqur anglash imkonini beradi.

7. Ta'lim-tarbiya muassasalarida o'quv dasturi doirasida diniy e'tiqodlarni o'rganishning ma'naviy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyotga erishishda muhim ahamiyat kasb etishini har tomonlama asoslab beradi.

8. Diniy tushunchalarining zamonaviy jamiyatning axloqiy-ma'naviy va madaniy hayotidagi rolini o'rganish orqali odamlarda

axloqiy ong va falsafiy tushunchalarni rivojlantirishga olib keladi.

9. Yoshlarni katta sershovqin hayotiga tayyorlash, ularning bandligi va umrbod ta'lim-tarbiya olishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, bolalar va yoshlarga o'ziga ishongan shaxslar va mas'uliyatli fuqarolar bo'lib yetishishlariga yordam beradi.

10. Maktabda o'quvchilar o'rtasida ahillikni rivojlantirishga muhim hissa qo'shadi.

Xulosa o'rnida N.D.Nikandrov yozganidek: "Diniy tarbiya haqiqat va ezgulik qadriyatlarini bilish, ko'nikma va tushunishni ta'minlaydi, odamlarning axloqiy mulohazalar qilish qobiliyatini mustahkamlaydi, shuningdek, to'g'ri tanlov qilish uchun turli xil qarorlar qabul qiladi"¹⁴.

Diniy-ma'rifiy tarbiya turli millat vakillarini tushunish va e'tirof etishni rivojlantirish uchun yaxshi asos yaratadi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, diniy kamsitishlarning oldini oladi.

XXI asrga kelib din odamlar uchun kuchli ijtimoiylashtiruvchi omilga aylanib bormoqda. Din ana shu ijtimoiylashtiruvchi prizma orqali olamni dunyoviy va diniy omillarni uyg'unlashtirish orqali yangicha falsafiy ko'z bilan qarovchi tafakkur tarziga aylanib bormoqda. Bugungi kunda diniy-ma'rifiy tarbiyani yangi bosqichga ko'tarish yoshlarni:

a) hayot va mehnatga puxta tayyorgarlik ko'rish;

b) boshqa odamlar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash;

d) o'zgalarni hurmat qilish;

e) boshqalarning dini va madaniyatiga hurmat ko'rsati;

14 Никандров Н. Д. Светское образование и духовное просвещение: проблемы взаимодействия. [Текст] / Н. Д. Никандров // Педагогика, 2010. № 3. С. 9-14.

f) turli qarashlar va fikrlar xilma-xilligini e'tirof etish;

g) har qanday adolatsizliklar bilan murosasiz bo'lish;

h) atrof-muhitni asrash va kundan-kunga yaxshilab borish;

i) doimo ma'naviy-ruhiy muhitni yaxshi tomonga o'zgartirib borish;

j) xalqlar o'rtasida tinch-totuv, urush-janjallarsiz yashashni targ'ib-tashviq qilish orqali zamon ruhiga mos keladigan diniy va dunyoviy dunyoqarashlarni uyg'unlashtirish tizimini yaratishga hissa qo'shishni oliy maqsad sifatida qaramoqda. Chunki yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'un tarzda shakllantirish va rivojlantirish yangilanayotgan O'zbekistonda ma'rifatparvarlikka asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishning tayanch omillaridan biri sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida "Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida "Farmon qabul qilindi va unda diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari qilib quyidagilar:"

a) jamiyatda diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo totuvlikni yanada mustahkamlashga oid ilg'or mexanizmlarni joriy etish;

b) ilm-fan va jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarning insonparvarlik, ezgulik, tinchlik va bag'rikenglik kabi umuminsoniy va oliyjanob g'oyalarga asoslangan diniy-falsafiy merosini chuqur o'rganish hamda keng targ'ib etish;

d) diniy-ma'rifiy sohada kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish orqali zamon talablariga mos mutaxassislarni yetishtirish;

e) aholi orasida birdamlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat ruhini kuchaytirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga qaratilgan dolzarb ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash;

f) diniy-ma'rifiy sohadagi xalqaro hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish"¹⁵ kabilar belgilandi.

Demak, ushbu Farmon mamlakatimiz yoshlarining dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'un shakllantirib borishni kafolatlovchi huquqiy asoslaridan biri sanaladi.

15 Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Фуқароларнинг виждон эркинлиги ҳуқуқи кафолатларини янада мустаҳкамлаш ҳамда диний-маърифий соҳадаги ислохотларни янги bosqichga олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида. (ПФ-68.21.04.2025.)

KARL POPPER ASARLARI VA G'OYALARI: TARIXIY KONTEKST VA ZAMONDOSHLAR NIGOHIDA

Muxriddin Azimmurod o'g'li Sherboboyev – f.f.b.f.d.
(PhD), dotsent, Alfraganus universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Karl Popper dunyoqarashini aks ettiruvchi asarlar va ularda aks etgan g'oyalar qisman tahlil qilingan. Popperring "Ilmiy tadqiqot mantig'i", "Tarixiylik qashshoqligi", "Ochiq jamiyat va uning dushmanlari" kabi asarlarida aks etgan g'oyalarga qisqacha to'xtalib o'tilgan. Ushbu asarlar yozilgan davr va bu asarlar shakllanishiga ta'sir qilgan omillar hamda undagi g'oyalarga zamondoshlarining munosabati masalasi yoritilgan.

Аннотация. В данной статье частично анализируются произведения, отражающие мировоззрение Карла Поппера, и идеи, отраженные в них. Кратко рассматриваются идеи, отраженные в таких работах Поппера, как «Логика научного исследования», «Нищета историчности», «Открытое общество и его враги». Освещены период написания этих работ, факторы, повлиявшие на их формирование, а также отношение современников к содержащимся в них идеям.

Abstract. This article partially analyzes the works that reflect Karl Popper's worldview and the ideas reflected in them. The ideas reflected in Popper's works such as "The Logic of Scientific Inquiry", "The Poverty of Historicism", "The Open Society and Its Enemies" are briefly discussed. The period in which these works were written, the factors that influenced the formation of these works, and the attitude of contemporaries to the ideas contained in them are highlighted.

Kalit so'zlar: bilish, ilmiy tadqiqot mantig'i, dunyoqarash, tarixiylik, tanqidiy ratsionalizm, ochiq jamiyat.

Ключевые слова: знание, логика научного исследования, мировоззрение, историзм, критический рационализм, открытое общество.

Keywords. knowledge, logic of scientific research, worldview, historicism, critical rationalism, open society.

Ilm-fan taraqqiyotida XX asr o'ziga xosligi bilan juda katta iz qoldirdi. Bunga sabab shu davrdagi ilm-fanga hissa qo'shgan ko'plab shaxslarning ijodiy me'rosi bo'ldi. Shunday zabardast olimlardan biri Karl Popper bo'lib, u o'z davrining yetuk va ta'sirchan mutafakkirlaridan biri hisoblangan. U tabiiy falsafa va ijtimoiy fanlarga katta hissa qo'shdi. K.Popper g'oyalarining mohiyati bilimlar – aql tajribalaridan rivojlanadi degan, fikr atrofida mujassamlashadi. U har bir insonning qarorlari oldindan belgilangan o'tmish voqealari bilan bog'liq, degan fikrni rad etdi. Shuning uchun u antideterminizm g'oyalari tarafdori hisoblanadi. Bundan tashqari, u siyosiy bilimlarning turli sohalariga katta hissa qo'shishga muvaffaq bo'ldi. U fan doirasidagi asosiy tamoyillarni baham ko'rgan, ammo sotsializm va sotsial demokratiya kabi bir-biriga mutlaqo o'xshash bo'lmagan ba'zi

g'oyalarni murosaga keltirishga intildi. Bu esa uning asarlarida aks etgan bo'lib, ushbu fikrlar jamoatchilik tomonidan ijobiy kutib olingan bo'lsada, ayrim olimlarning chuqur tanqidiga ham duch kelgan.

Popper yashagan muhit G'arb olamida madaniyatning yetakchi markazlaridan biri hisoblangan. Venadagi madaniy muhit hamda Popperring ota-onasi tomonidan berilgan etibor uning falsafiy qarashlari shakllanishiga ta'sir qildi. K.Popper qarashlariga ta'sir qilgan yana bir omil – uning musiqaga bo'lgan qiziqishi hisoblanadi. Uning musiqiga oid qarashlari keyinchalik uning falsafasida ko'plab yangi g'oyalarining yaratilishiga sabab bo'ldi. Aslida, Popper tanqidiy va dogmatik fikrning turli tarmoqlari o'rtasida taqqoslashni o'zining musiqaga bo'lgan qiziqishi natijasi deb biladi¹.

1 Поппер К.Р. «Неоконченный поиск. Интеллектуальная автобиография»: Практис; Москва; 2014. – С 9–11.

K. Popporning o'z davridagi fan falsafasiga tegishli muammolar tizimiga nisbatan qiziqishi Vena universitetidagi ilmiy muhitdan kelib chiqqan edi. Liberal-demokratik g'oyalar va marksizm asarlari bilan erta tanishganligi uning ijtimoiy-siyosiy muammolarga qiziqishini kuchaytirdi. Shu va boshqa omillar Popper asarlarining yaratilishiga salmoqli ta'sir qildi.

Mustaqil izlanishlari tufayli faylasuf zamondoshlarini o'ylantirgan ijtimoiy tushunchalar va ilmiy nazariyalarni alohida tushunishga erishdi. 1918-yilda u axborot nazariyasining asosiy masalalari bo'yicha o'z qarashlarini shakllantirishga kirishdi. 30-yillarning boshlariga kelib K.Popper o'zi tayyorlayotgan maqolalarida dunyo va bilim haqidagi shakllangan qarashlar tizimini ishlab chiqish va ifodalashga intila boshladi. Dastlabki asarlaridan biri "Bilish nazariyasidagi ikki asosiy muammo" falsafiy qo'lyozmasi bo'lib, 1933-yilda Vena klubining "Erkenntnis" jurnali tomonidan "Empirik xarakter mezoni"² degan nom bilan birinchi marta nashr etilgan.

K. Popporning ilk g'oyalari o'sha davrda hukmron bo'lgan B.Rassel, L.Vitgenshteyn, M.Shlik, R.Karnap, G.Rayxenbaxlar ta'sirida shakllangan mantiqiy-uslubiy qarashlardan tubdan farq qiladi. Jumladan, Popper g'oyalari pozitivistlarning haqiqiy ilm fan verifikatsiya asosida bo'lishi kerak, ya'ni tajriba orqali tasdiqlanishi shart degan fikr mulohazalariga qarshi haqiqiy ilmiy nazariya falsifikatsiya qilinadigan, ya'ni noto'g'riligini sinash mumkin bo'lgan nazariya bo'lishi kerak degan qarshi fikr bildirgan. Ilm-fan taraqqiyotiga oid qarashlari esa Tomas Kunning ilmiy inqiloblar borasidagi paradigma g'yasiga qarshi chiqadi. Unga ko'ra "paradigma o'zgarishi" orqali ilmiy taraqqiyot sodir bo'ladi va ilm-fan rivoji sotsiologik va tarixiy jarayon hisoblanadi. Popper esa bu g'oyalarga qarshi Ilm-fan - doimiy tanqid va sinov

asosida shakllanadi degan fikrni ilgari surdi. Pol Feyerabend dastlab Popper g'oyalariga ergashadi keyinchalik esa Popporning ilmiy uslub haqidagi qat'iy yondashuvini tanqid qilgan, va ilmda har xil metodlar mavjud bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. Popporning ochiq jamiyat borasidagi g'oyalari esa G'arbda sovet mafkurasi va komunizm tanqidining falsafiy asoslaridan biri sifatida qabul qilingan. Bu esa sovet mafkurasi va komunizm tarafdori bo'lgan qatlamning qarshiligini vujudga keltirgan.

Butun hayoti davomida Popper olam bo'ylab ko'plab faylasuflarga ta'sir ko'rsatgan va ta'sir qiladigan kitoblar va adabiy asarlar yozgan. Uning asarlari orasida eng mashhurlariga qisqacha nazar soladigan bo'lsak, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy hamda fan metodologiyasiga aloqador ko'plab asarlardir.

Karl Popper yozgan asarlarning qisqacha tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak "Ilmiy tadqiqot mantig'i" 1934-yilda Venada yozilgan va shu yili nashr etilgan. K.Popper "Ilmiy tadqiqot mantig'i" asari bilan keng tanila boshlaydi. Keyinchalik (1959-yilda) u ingliz tiliga tarjima qilingan. U Popporning nomi tilga olinganda esga tushadigan birinchi kitobga aylandi. "Ilmiy tadqiqot mantig'i" kitobida Popper o'zining ilmiy bilish jarayonida soxtalashtirish g'oyalarini taqdim etadi va ilmiy ehtimol masalalari bilan ham shug'ullanadi. Bu asar fan falsafasi va zamonaviy ilmiy bilish jarayonida keng qo'llaniladi.

Popporning "Ilmiy tadqiqotlar mantig'i" asariga nashr etilganidan ko'p vaqt o'tmay dastlabki baholar berila boshlandi. Jumladan, R.Karnap shunday yozadi: "Umuman olganda, Popporning kitobi fan mantig'idagi eng muhim zamonaviy asarlar qatoriga kiradi"³. G.Rayxenbax esa, aksincha, bu asarga salbiy munosabat bildirdi: "...Popporning kitobida himoya qilingan tezislar menga mutlaqo ishonib

2 Поппер К.Р. Логика научного исследования. – М., 2004. – С. 125.

3 Садовский В.Н. Карл Поппер и Россия. – М., 2002. – С. 10-11.

bo'lmaydigandek tuyuladi... Biz metafizik e'tiqodga haqli emasmiz va agar biz Poppnerning muammoni hal qilishidan mamnun bo'lsak, bu esa barcha ilmiy falsafaning tugashini anglatadi"⁴. Bu kabi qarama-qarshi fikrlar Popper ijodini yanada ommalashuviga sabab bo'ldi.

K.Poppnerning 1935-36-yillarda London universitetida qilgan ma'ruzalari "Tarixiylik qashshoqligi" asarining poydevori bo'lib xizmat qilgan. "Tarixiylik qashshoqligi" 1957-yilda nashr etilgan bo'lib, unda tarixiylikni siyosiy konsepsiyada ishlatish xavfi haqida gap boradi. Faylasufning fikriga ko'ra, tarixiy g'oyalar xavfli, buzuvchi va avtoritar rejimlarning asosiy qo'zg'atuvchilari hisoblanadi. Shu sababli ham Popper tarixiylikni tanqidiy mushohada qilishga xarakat qiladi. K.Popper bu asarida Tomas Kunning "paradigma" g'oyasiga qarshi chiqadi. Bundan tashqari bu asarda tarixiylikning salbiy jihatlari tarixiy voqealar asosida sanab o'tiladi.

"Ochiq jamiyat va uning dushmanlari" asarining yozilish tarixiga kelsak, Popper bu kitobni Ikkinchi Jahon urushi paytida 1943-yilda yozgan va u 1945-yilda nashr etilgan. 1937-yilda nasistlar Avstriyani bosib olishlari kerak edi. Bosqindan oldin Popper Yangi Zelandiyaga ko'chib keldi va u yerda o'z kitobini yoza boshladi. K.Popper bu asarida Platon, Aristotel va Gegelning siyosiy tafakkurini baholashga harakat qiladi. Oxirgi bobda K.Popper bu g'oyalar bilan umri davomida uzluksiz va murosasiz adovatda bo'lishini ta'kidlaydi. U Marks g'oyalarini qaytarib bo'lmaydigan tarzda soxtalashtirganini ta'kidlaydi. Shunga ko'ra, zamonaviy jamiyat urushlararo davrda yo'q bo'lib ketish xavfiga duch keladi va bu tahdidning ildizlari "Yevropa siyosiy tafakkuri an'analariga (Aflotun, Aristotel, Gegel va Marks) borib taqaladi"⁵. Inqirozning asosi yuqorida nomi keltirilgan shaxslar

tomonidan ishlab chiqilgan g'oyalarda yotadi deb ta'kidlaydi Popper. Ushbu kitobda "Marks va Platon kabi faylasuflarni tarixiylik haqidagi qarashlarini falsafiy g'oyalar sifatida asos qilib olgani uchun tanqid qilgan"⁶. Bu uning eng muhim qarashlaridan biri, ammo ayni paytda eng tanqid qilingan g'oyalaridan biri ham shu bo'ldi.

Vena pedagogika institutida tahsil olayotgan davrida Popper Yumning induksiya va sababiy munosabatlarni yaxshilash masalasiga qiziqib, umrining oxirigacha bu muammolarga qiziqishini saqlab qoldi. Keyinchalik, unga psixanalitiklar "metafizik tahlil" deb ataydigan tushuncha paydo bo'ldi. Ehtimollar nazariyasi va kvant fizikasiga aloqador maqolalarini 1950-yillarda "The logic of scientific" jurnalining ingliz nashrida chiqarib boshladi. 1980-yilda esa shu yo'nalishdagi barcha fikrlar jamlanib uchta kitob shaklida nashr etilgan. "Bular "Ochiq olam", "Realizm va fanning maqsadi", "Fizikada kvant nazariyasi" kabi metafizik muammolarga bag'ishlangan qiziqarli kitoblar edi. 1960-yillarda Popper biologik bilimlar va evolyutsiya nazariyasi tahlili bilan jiddiy shug'ullana boshladi. Bu 1969-yildagi "Ma'naviy bilim va jismoniy muammolar" nomli asaridan boshlab uning qarashlarida keskin o'zgarishlar sezila boshladi"⁷.

Borliq haqidagi bilimlarni tatbiq qilish ilmiy bilimlarni tushunishga asos bo'ladi. Va bu qarash bizga shunchaki olam ontologiyasi haqida bilim bergani uchun emas, balki ilmiy bilish, "...bilimning aniqroq va shaffofroq turi bo'lganligi sababli, uni tahlil qilish orqali biz har qanday turdagi bilimlarni baholash ko'nikmasiga ega bo'lishimiz mumkinligini aytadi..." Fizika, matematika, mantiq, evolyutsiya nazariyasi haqida mulohaza yuritish va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rish orqali ma'lum natijalarni

4 Popper K.R. The Open Society and Its Enemies. – London: Soros Foundation, 1964. – P. 109

5 Popper K.R. The Open Society and Its Enemies. – London: Soros Foundation, 1964. – P. 109

6 Маги, Браян. Карл Поппернинг фан фалсафаси ва сиёсат назарияси. (Тарж. Мете Тунсай). – Истанбул, 1990. – Б. 151.

7 O'sha manba. – B. 151.

to'plagan Popper bu bilimlarni bir shaklda birlashtirishga kirishdi va yetishmayotgan aloqalarni metafizik farazlar bilan to'ldira boshladi.

"Ilmiy tadqiqotlar mantig'i" 1959-yilda ingliz tilida nashr etildi. Bu yillar mantiqiy empirizmning chuqur inqirozi bilan ham ajralib turadi, bu uning asosiy tamoyillarining nomuvofiqligiga borib taqalardi. Bunga K.Popperning sa'y-harakatlari katta yordam berdi. Shuning uchun ham uning "Ilmiy tadqiqotlar mantig'i" kitobi keyinchalik falsafiy jamoatchilikning diqqat markaziga aylandi.

Popper olamdagi eng nufuzli ijtimoiy va falsafiy mutafakkirlardan biri sifatida shuxrat qozona boshladi. Uning Angliyada yozgan asarlari bugungi kunda zamonaviy falsafa sohasidagi eng mashxur asarlar sifatida qaralmoqda. Biroq, professional darajadagi tan olinishidan tashqari, u shaxsiy darajadagi tanho odamga aylandi. Uning shaxsiyati uning g'oyalari bilan rozi bo'lmagan odamlarga nisbatan juda tajovuzkor edi. Avvaliga faylasufning dunyoqarashi Ikkinchi Jahon urushi dahshatlaridan yaqindagina chiqqan Angliya xalqiga yoqmadi. Keyinchalik uning asarlari Angliya va butun Yevropada ilhom manbai sifatida tan olindi va yanada ommalashdi.

Hayotining so'nggi yillarida Popper o'z faoliyatini ilmga qaratganligi va keskin g'oyalari uchun ochiq tanqid qilindi. Bular ichida "falsifikatsiya mantig'iga" e'tibor qaratgani va boshqa ko'plab asarlarida ham shu g'oyaning singdirilganligi jiddiy tanqid qilindi. U 1969-yilda nafaqaga chiqqunga qadar London Universitetida ishlagan. 1965-yilda u ingliz qirolligi tomonidan risarlik unvoni bilan taqdirlandi va shu tariqa Ser Karl Popperga aylandi. Nafaqaga chiqqanidan keyin u 1994-yilda vafotigacha yozuvchi va notiq sifatida faoliyat yuritgan.

Popper farazlarni falsifikatsiya mezonini bilan aniqlash mumkinligini tushuntirish uchun

boshqa olimlarning dalillaridan foydalandi. Ya'ni, olim o'z g'oyalarining to'g'riligini ular uchun istisnoni aniqlash orqali tekshirish mumkin. Agar gipotezaga zid narsa yo'q bo'lsa, demak u haqiqiydir. K.Popperning fikrigacha, astrologiya va metafizikaga o'xshash sohalar haqiqiy fan deb qaralmaydi, chunki ular mutafakkir tomonidan o'rnatilgan falsifikatsiya mezonining tamoyillariga amal qilmaydi. Bunga marksistik tarix ya'ni o'zi inkor etgan g'oyalar va Zigmund Freydning taniqli psixoanalizi kiradi. Bu ta'limotlar o'zlarining g'oyalarini mutloq haqiqat sifatida ko'radilar. K.Popperning fikriga ko'ra, ratsionallik butunlay empirik ilmlar sohasi bilan cheklangan fikr emas. U shunchaki ratsionallikni bilim doirasidagi qarama-qarshiliklarni topish va keyin ularni yo'q qilish uchun foydalaniladigan usul deb biladi⁸. Ratsional deb hisoblash mumkin bo'lgan narsalarga qo'shgan hissalari uning boshqa nazariyalarining g'oyalarini shakllantirgan asosiy etalon edi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, XX asrdagi urush davri Popper ijodini keskin jadallashtirdi. Bu ta'sir bilan u o'z falsafasini rivojlantirdi va yuksaltirdi. Buning eng katta isboti shundaki, totalitar jamiyat shakllanmasligi uchun "ilm-fandagi taraqqiyot" Popperning asosiy falsafasiga aylangan. Bu taraqqiyot sodir bo'lishi uchun u muammoli deb topgan tasdiqlovchi usul o'rniga falsifikatsiya usulini taqdim etdi. K.Popper o'z davrining ilm-fan tushunchasiga qarshi qo'ygan falsifikatsiya usuli bilan cheklash muammosiga yechim topishni maqsad qilgan. Bu esa ozmi-ko'pmi uning ijodining samarasida o'z aksini topdi. Bu ijod namunalari esa Popperning zamondoshlari tomonidan ayrim tanqidlarga uchradi, shunga qaramay uning asarlaridagi g'oyalar katta suratlarda ommalashdi. Popper asarlaridagi g'oyalari tanqid chig'irig'idan o'tib o'z davrining foydali manbasiga aylandi.

8 Шишков И.З. В поисках новой рациональности: философия критического разума. – М.: Эдиториал УРСС, 2003. – С. 115.

REGISTRATOR OFISI TARKIBIDAGI TALABALAR HARAKATINI MUVOFIQLASHTIRISH MASALALARI

Xaqberdi Eshmirzayevich Xamzayev – t.f.b.f.d. (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti
Mirzamahmud Latif o'g'li Ismoilov – ta'lim jarayonini tashkil etish bo'limi uslubchisi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalarida registrator ofisi tarkibiga kiruvchi talabalar harakatini muvofiqlashtirish sektori tomonidan talabalarning markazlashgan holatda buyruq loyihalarining yuritilishi va sektor faoliyatini tashkil qilishda amalga oshirish kerak bo'ladigan ishlari haqida fikr yuritilgan. Sektor faoliyati orqali kredit-modul tizimida o'quv jarayoniga tegishli bo'lgan talabalarning akademik ta'til olishlari, akademik mobillik doirasida boshqa oliy ta'lim muassasasiga yuborilishi va ushbu ishlarni universitetda qanday tartibda amalga oshirilishi batafsil bayon etilgan. Bundan tashqari, universitet rektorining talabalarga tegishli buyruq talabalar harakatini muvofiqlashtirish sektori tomonidan elektron tizim orqali markazlashgan holatda nazorat qilinishi hamda tartibga solinishi nazarda tutilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается деятельность сектора координации движения студентов, входящего в состав регистрационного офиса педагогических высших образовательных учреждений, а также вопросы, связанные с централизованным ведением проектов приказов, касающихся студентов, и организацией работы сектора. Через деятельность сектора подробно освещены вопросы, касающиеся предоставления студентам академического отпуска, направления их в рамках академической мобильности в другие высшие образовательные учреждения, а также порядок реализации данных процессов в университете в условиях кредитно-модульной системы обучения. Кроме того, предусматривается, что приказы ректора университета, касающиеся студентов, подлежат централизованному контролю и регулированию со стороны сектора координации движения студентов посредством электронной системы.

Abstract. This article discusses the activities of the Student Movement Coordination Sector within the Registrar's Office in higher pedagogical education institutions. It focuses on the centralized management of order drafts related to students and the tasks necessary for organizing the sector's activities. The article provides a detailed explanation of the processes involved in academic leave, student transfers to other higher education institutions within the framework of academic mobility, and how these activities are systematically carried out under the credit-module system. Additionally, it highlights the centralized monitoring and regulation of student-related orders issued by the university rector through an electronic system, managed by the Student Movement Coordination Sector.

Kalit so'zlar: kredit-modul, registrator ofisi, talabalar harakatini muvofiqlashtirish, transkript, akademik mobillik, akademik ta'til, talaba almashinuvi, talabalar o'qishini ko'chirish, tiklash va chetlashtirish.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, регистрационный офис, координация движения студентов, транскрипт, академическая мобильность, академический отпуск, студенческий обмен, перевод обучения студентов, восстановление и отчисление.

Keywords: credit-module, registrar's office, student movement coordination, transcript, academic mobility, academic leave, student exchange, student transfer, reinstatement, expulsion.

Hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtlari ta'lim sifatini oshirish va talabalar manfaatiga yo'naltirilgan ta'lim tizimini joriy etish uchun butun dunyoda universitetlararo hamkorlikni faollashtirish va optimallashtirish tendensiyalari mavjud. Universitetlararo hamkorlikning muhim

elementi sifatida talabalar almashinuv dasturlari belgilangan¹. O'zaro almashinuv mexanizmining doimiy ravishda takomillashtirilishi va ta'lim samaradorligining oshirilishi orqali talabalar erishgan ilmiy yutuqlariga asoslangan malakalarini rivojlantirish hamda ushbu

1 Factors influencing national systems of education. 5 nov.2020.

natijalarga ko'ra o'zaro diplomlarining xalqaro miqyosda tan olinishi natijasida ishga joylashtirish jarayonining sifatini ko'tarishga erishish mumkin.

Ta'lim muassasalari o'ziga xos tizim bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning boshqa sohalariga qaraganda ancha murakkab "Xavfsizlik, transport, aloqa", chunki u barcha sohalar bilan chambarchas bog'liq. O'tmishda va hozirgi zamonda ham har bir davlat o'z ta'lim tizimini tashkil etishning o'ziga xos mexanizmiga ega. Ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning eng kuchli tashabbuskorlari uning muammolari yoki ehtiyojlari emas, balki tashqi omillardir.

Ma'lumki, ta'lim davlatning iqtisodiy yuksalishi va rivojlanishining asosidir. Ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy farovonlik sifatini oshirish orqali barqaror hayotga erishishga yordam beradi. To'g'ri ta'lim olish shaxsning tafakkurini yaxshilashga va jamiyatga nisbatan bag'rikeng bo'lishga yordam beradi. Jahon bozori va texnologiyasi kundan kunga o'zgarib bormoqda. Sifatli va yaxshi o'rnatilgan ta'lim tizimi talabalarga innovatsion g'oyalarni taklif qilish orqali doimiy o'zgaruvchan bozorga dosh berishga, har kuni o'zini rivojlantirish sari bir qadam siljishga ko'maklashadi. Shu bilan birgalikda, ijtimoiy to'liqlarda, ya'ni barqaror ijtimoiy rivojlanish yo'lidagi tashabbus, bilim izlash muhimligi haqida xabardorlikni shakllantirishga qaratilgan va milliy ta'lim tizimlarining ahamiyati va xususiyatlarini targ'ib qiladi. Yoshlar millat kelajagi ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz, ularning tarbiyasi millat ko'zgusi hisoblanadi. Talabalarga berilayotgan ta'lim sifatini shakllantirishda ta'lim tizimi va ta'lim muassasalari muhim rol o'ynaydi.

Milliy ta'lim tizimi deganda, uning tuzilish jarayonida milliy intilish va ehtiyojlar hisobga olinadigan ta'lim tizimi tushuniladi. Har bir

xalq ushbu tizim jihatidan boshqalardan farq qiladi, uning rivojlanishi turli omillar bilan uyg'unlashadi.

2017-yil 20-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 393-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-apreldagi 360-son Qaroriga ko'ra Oliy ta'lim muassasalari qabulni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlangan davlat grantlari va to'lov-kontrakt asosida qabul kvotalariga muvofiq amalga oshirilishi va Oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi, sirtqi va kechki (smenali) ta'lim shakllariga talabalarni qabul qilish O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) natijalariga ko'ra to'plangan ballari bo'yicha amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimi asosida o'qitish joriy etildi².

Qaror ijrosini ta'minlash, oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish maqsadida Jizzax davlat pedagogika universitetida ham o'quv jarayonlari

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabr "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son qarori.

to'liq kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan.

Kredit-modul tizimida talabaning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan holda bilim olish tushunchasi dars jarayonida o'rganish bilan cheklanib qolmasdan, talaba o'qish uchun sarflanayotgan umumiy vaqt bilan o'lchanadi. Unda bilimning manbai faqat pedagog-xodim yoki auditoriya emasligiga ishora qilinadi³. Shuni aytish mumkinki, kredit-modul tizimida ta'lim olish davri pedagog-xodim nuqtai nazaridan emas, balki talaba nuqtayi nazaridan yondashiladi. Talabaning o'quv yuklamasining bunday taqsimlanishi, talaba ta'lim olish jarayonida mas'uliyatni ma'lum darajada o'z zimmasiga olishi, fan bo'yicha dars mashg'ulotlarida va darsdan tashqarida muntazam ravishda bilim olishi kerakligini anglatadi.

Bugun har bir sohada rivojlanish va o'zgarishlar jadal sur'atlarda sodir bo'lmoqda. Bunday holatda har qanday yo'nalish oldida yangi bilimlarni o'rganish va amalga joriy qilish kabi muhim vazifalar turishi tabiiy. Shunday ekan, ixtisoslik mutaxassislari dunyodagi mavjud yangiliklarni o'rganib, xorij tajribasini tadqiq qilgan holda, zarur xulosalarni chiqarishi hamda o'z faoliyat maydonining rivoji uchun o'zlashtirgan bilim va tajribalarni amaliyotga joriy qilish choralari ko'rishi lozim. Bunday amaliyot Jizzax davlat pedagogika universiteti ta'lim tizimida ham mavjud. Endilikda davlat ta'lim standartlarida belgilangan talabalarga javob beruvchi, zamon bilan hamnafas, jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan kadrlarni etishtirish masalasi barcha turdagi talabalarga tegishli bo'lgan hujjatlarni yuritish oliy ta'lim muassasalarining boshqaruvi tizimi bilan to'qnash kelmoqda.

Ushbu holatlardan kelib chiqib registrator ofisida talabalar harakatini muvofiqlashtirish sektori o'z faoliyatini kredit-modul tizimi asosida ta'lim jarayonlarini avtomatlashtirish

va boshqarish, barcha talabalarga tegishli bo'lgan hujjatlarni rasmiylashtirish yuzasidan umumiy monitoring yuritishni yo'lga qo'ygan. Shu asosida ushbu sektor quyidagi faoliyat turlari bilan shug'ullanadi:

- talabalarining akademik ta'tilni rasmiylashtirish;
- akademik sertifikat va transkriptlar berish;
- talabalar muvaffaqiyatini nazorat qilish;
- talabalar ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarning to'g'riligini nazorat qilish hamda registrator ofisining axborot tizimini yangilash;
- taqdim etilgan hujjatlarning to'liqligini tekshirish;
- talabalarga axborot yordamini ko'rsatish ya'ni arxiv ma'lumotnomalari, dublikat diplom va arizalar haqida ma'lumotlar berish;
- talabalarni ro'yxatga olish ma'lumotlar bazasini nazorat qilish;
- universitet talabalarining shaxsiy va akademik yozuvlari haqida ma'lumot tayyorlash, ro'yxatga olish sektori avtomatlashtirilgan tizimini takomillashtirish bo'yicha hamkorlik qilish;
- javobgarlik hujjatlari shakllarini (diplom blankalari, akademik sertifikatlar, diplomga ilova va boshqalar) taqdim etish;
- davlat hujjatlari blankalarini (diplom varaqalari, akademik guvohnomalar, diplom ilovasi va boshqalar) qabul qilish;
- saqlash va berishni tashkil etish ustidan nazorat qilish, talabalar kontingenti harakatini shakllar va bo'limlar bo'yicha hisobini yuritish;
- davlat ta'lim grantlari bo'yicha bo'shatilgan o'rinlarning hisobini yuritish;

3 Усмонов Б.Ш., Хабибуллаев Р.А. Олий ўқув юртларида ўқув жараёнини кредит-модуль ташкил қилиш. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2020 й.

- talabalarining shaxsiy hujjatlarini qabul qilish, saqlash va yuritish;

- talabalar kontingenti harakatiga buyurtmalar tayyorlash, talabalarga akademik ta'tilni rasmiylashtirish va talabalar safidan chetlashish hamda talabalar safiga tiklash uchun hujjatlarni taqdim etish;

- talabalar safidan chetlashtirish, tiklash davrida ularning so'rovlariga ko'ra ro'yxatga olishni to'g'rilash, joriy transkript va diplom ilovasini (transkript) yuritish va berish;

- talabalarga akademik ta'tilni rasmiylashtirish, universitet talabalari safidan chetlashtirish va o'qishini boshqa davlat oliy ta'lim muassasalariga ko'chirish bo'yicha murojaat qilgan talabalarining universitet talabalar safidan chetlashtirilishi buyruq loyihasini shakllantirish hamda tegishli yig'ma hujjatlar jildini tayyorlash;

- talabalar safiga tiklash uchun hujjatlarni taqdim etish;

- universitet tomonidan ma'lumot va 3-NK shakli hisobotlarini boshqarish va taqdim etish;

- davlat hisoboti shakllarini to'ldirish, universitet talabalarga oid buyruq loyihalarini shakllantirishda ularining to'g'ri va nizom asosida rasmiylashtirilishini nazorat qilish, ro'yxatga olish, saqlash va tegishli bo'limlarga tarqatish;

- bitiruvchilarga berilgan diplomlarning haqiqiyligini tasdiqlash maqsadida doimiy ravishda <https://otm.mehnat.uz> va <http://d-arxiv.edu.uz> platformalari orqali tashkilot va muassasalar bilan yozishmalarni amalga oshirish;

- yo'qotilgan diplom va ilovalar o'rniga dublikat berish to'g'risidagi murojaatlarga javob qaytarish;

- idoralararo yagona elektron hujjat aylanish "Ijro.gov.uz" tizimida registrator ofisiga tegishi hujjatlar bilan ishlash shaxsiy fayllarni yuritish,

ma'lumotlar bazalarini nazorat qilish;

- talabalarining harakatlanishi uchun buyurtmalar tayyorlash;

- elektron ma'lumotlar bazasining yuritilishini nazorat qilish.

Talabalar harakatini muvofiqlashtirish sektori universitet talabalariga o'quv jarayoni doirasida "Bir darcha" tamoyili bo'yicha o'z vaqtida va sifatli xizmat ko'rsatish uchun javobgardir.

Universitetda mavjud bakalavriat kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim yo'nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklarida tahsil olayotgan talabalarining umumiy kontingentlarini yuritish bo'yicha ishlarni jadvalda ko'rsatilgan tartib asosida hisobini yuritadi.

2025-yil 25-may holati

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALAR SONI HAQIDA MA'LUMOT

№	Fakultetlar nomi	Ta'lim yoʻnalishlari nomi	KURSLAR KESIMIDA					JAMI
			1-kurs	2-kurs	3-kurs	4-kurs	5-kurs	
1	Matematika va informatika	Matematika va informatika		212	189	190		591
		Matematika	108					108
		Amaliy matematika	47					47
		Fakultet bo'yicha jami	155	212	189	190	0	746
13	Bo'lim bo'yicha jami		22	0	0	16	0	38
KUNDUZGI BO'LIM BO'YICHA JAMI:			2078	2406	2603	2208	0	9295
14	Maktabgacha talim	Maktabgacha talim (kechki)			55	39	24	118
KECHKI BO'YICHA JAMI:			0	0	55	39	24	118
15	SIRTQI (MAXSUS SIRTQI) BO'LIM	Sirtqi	390	816	2040	1716	2090	7052
		2-mutaxassislik		70	405	708	648	1831
SIRTQI BO'LIM BO'YICHA JAMI:			390	886	2445	2424	2738	8883
16	MAGISTRATURA BO'LIMI		A	154	93			247
			B		84			84
MAGISTRATURA BO'LIM BO'YICHA JAMI:			154	177	0	0	0	331
UNIVERSITET BO'YICHA UMUMIYSI:			2622	3469	5103	4671	2762	18627

1-jadval. Universitetda mavjud o'quv shakllari bo'yicha talabalar kontingent.

2025 yil 25-may holati

KUNDUZGI VA KECHKI TA'LIM SHAKLI BO'YICHA AKADEMIK GURUHLAR SONI HAQIDA MA'LUMOT

№	Fakultet nomi	Ta'lim yoʻnalishi nomi		1-kurs	Talaba soni	2-kurs	Talaba soni	3-kurs	Talaba soni	4-kurs	Talaba soni
1	Mate- matika va infor- matika	Matematika		111-24	27	110-23	25	110-22	23	111-21	24
				112-24	27	111-23	25	111-22	22	112-21	24
				113-24	27	112-23	25	112-22	21	113-21	24
				114-24	27	113-23	25	113-22	23	114-21	25
		Matematika va informatika				114-23	25	114-22	23	115-21	25
						115-23	25	115-22	23	116-21	21
						116-23	25	116-22	20	117-21	24
						117-23	21	117-22	22	118-21	23
		Amaliy matematika				2m110-24	16	2m110-22	12		
				131-24	23						
				132-24	24						
		Fakultet boʻyicha jami:		746	6	155	9	212	9	189	8
KUNDUZGI BOʻYICHA JAMI:			9295	84	2078	100	2406	115	2603	91	2208
15	Maktab- gacha taʼlim	Maktabgacha taʼlim (KEChKI)				538-22	27	538-21	19	538-20	24
						539-22	28	539-21	20		
		Kechki boʻyicha jami:	118		0	2	55	2	39	1	24
JAMI TALABALAR SONI:			9413		2078		2461		2642		2232
JAMI AKADEMIK GURUHLAR SONI:			395	84		102		117		92	

2-jadval. Universitetda kunduzgi va kechki talim yo'nalishlarida mavjud akademik guruhlar bo'yicha hisobini vaqt me'yorlari asosida shakllantirilishini nazorat qilish.

2025 yil 25-may holati

MAGISTRATURA BO'YICHA AKADEMIK GURUHLAR SONI HAQIDA MA'LUMOT

Nº	Mutaxassislik nomi		1-kurs	Talaba soni	2-kurs	Talaba soni
1	Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (matematika)		m110-24	5	m110-23	4
					m/q 111-23	4
	Mutaxassislik bo'yicha jami:	13	1	5	2	8
JAMI MAGISTRANTLAR SONI:		331	19	154	20	93
JAMI AKADEMIK GURUHLAR SONI:		58	0	0	19	84
			19	154	39	177

3-jadval. Universitetda magistratura mutaxassisliklarida mavjud akademik guruhlar bo'yicha hisobini vaqt me'yorlari asosida shakllantirilishini nazorat qilish.

2025 yil 25-may holati

SIRTQI (MAXSUS SIRTQI) BO'LIMI BO'YICHA AKADEMIK GURUHLAR SONI HAQIDA MA'LUMOT

Nº	Ta'lim yo'nalishi nomi		1-kurs	Talaba soni	2-kurs	Talaba soni	3-kurs	Talaba soni	4-kurs	Talaba soni	5-kurs	Talaba soni
11	Texnologik ta'lim		S2301-24	13	S2301-23	23	S2301-22	27	S2301-21	21	S2101-20	23
					S2302-23	24	S2302-22	29	S2302-21	21	S2102-20	25
							S2303-22	28	S2303-21	21	S2103-20	23
	Ta'lim yo'nalishi bo'yicha jami:	278	1	13	2	47	3	84	3	63	3	71
SIRTQI BO'YICHA JAMI TALABA:		7068		390		816		2056		1716		2090
SIRTQI BO'YICHA JAMI GURUH:		261	17		36		74		68		83	
13	Texnologik ta'lim						2m2301-23	26	2m2101-22	18	2m2101-21	18
	Ta'lim yo'nalishi bo'yicha jami:		62	0		0	1	26	1	18	1	18
II-OLIY TA'LIM BO'YICHA JAMI TALABA:		1815		0		70		389		708		648
II-OLIY TA'LIM BO'YICHA JAMI GURUH:		86	0		4		16		33		33	
JAMI TALABALAR SONI:		8883		390		886		2445		2424		2738
JAMI AKADEMIK GURUHLAR SONI:		347	17		40		90		101		116	

4-jadval. Universitetda sirtqi ta'lim yo'nalishlarida mavjud akademik guruhlar bo'yicha hisobini vaqt me'yorlari asosida shakllantirilishini nazorat qilish.

Ushbu jarayonlarni amalga oshirishda talabalar harakatini muvofiqlashtirish sektori elektron shaklida yuritilishini ta'minlaydi. Shu asosda talabalarga yuqoridagi xizmat turlarini amalga oshirishda xizmat ko'rsatish faqatgina ushbu sektor tomonidan amalga oshiriladi, talaba o'qishini ko'chirishda umumiy vaqtini yo'qotishga yo'l qo'yilmaydi. Talabani o'qishini ko'chirishdagi hujjatlarini olish bo'yicha barcha jarayonlar sektor xodimlari tomonidan murojaat qilgan kunning o'zida elektron tarzda rasmiylashtirilib, tegishli hujjatlar talaba ko'chirgan oliy talim muassasasiga jo'natiladi.

Hemis tizimi orqali talabalarni belgilangan yo'nalishlarga qabul qilish, guruhlariga birlashtirish va talabalar safidan chetlashtirish ishlarining ham bajarishga mas'ul talabalar harakatini muvofiqlashtirish sektori hisoblanadi. Yuqoridagi jarayonlarning barchasi universitetda elektron tartibda yuritiladi hamda nazorat qilinadi. Talabalar harakatini muvofiqlashtirish sektorini sektor boshlig'i boshqaradi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni "Bir darcha" tamoyili asosida qaday mutaxassislar tomonidan o'z vaqtida sifatli bajarib bora oldi. Javob sifatida quyidagi malakaga ega bo'lgan xodimlar tomonida bajarib borishni ko'rsatib o'tsak bo'ladi.

– o'quv jarayoni bo'yicha to'liq tushunchaga ega bo'lgan;

– tashkiliy va boshqaruv ko'nikmalari ega bo'lgan;

– ijtimoiy faollik va kommunikatsiya yani talabalar manfaatlarini himoya qilish hamda muammolarni hal qilish va konfliktlarni boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan;

– elektron hujjat aylanishi va ma'lumotlar bazasi bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lgan;

– huquqiy bilimlarga ega bo'lgan talabalarga tegishli qonunlar va nizomlarni bilish xamda Oliy talim muassasalari nizomi va ichki qoidalarini

tushunish;

– xalqaro talim dasturlari va talabalar almashinuvi bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lishi hamda chet tillari egallagan bo'lishi lozim. Bunda kam deganda bitta chet tilini bilish ingliz, rus yoki boshqa xalqaro tillarda muloqot qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

Bu sohada muvaffaqiyatli ishlash uchun yuqoridagi bilimlardan tashqari, mas'uliyat, tashabbuskorlik va talabalar bilan yaxshi muloqot qilish qobiliyati ham muhimdir.

An'anaviy talim tizimi davrida talabalarga tegishli barcha jarayonlar bilan oliy talim muassasasi kadrlar bo'limi shug'ullanganligi hammaga ma'lum. Shu asosda kadrlar bo'limiga tegishli devonxona xodimlarining bir qismi talabalarga tegishli ma'lumotlar bilan yana bir qismi oliy talim muassasasi pedagog-xodimlarning hujjatlari va mehnat daftarchalarini yuritilishi bilan shug'ullangan. Talabalarga tegishli ma'lumotlar: ularning o'qishga qabul qilinganlik to'g'risidagi, kursdan kursga o'tish, o'qishdan chetlatilish, akademik ta'til berish, kursga tiklash kabi hujjatlarni tartibga solish bir qancha inson omili aralashuvi asosida amalga oshirilgan. Bu jarayonda fakultet dekanidan tortib o'quv uslubiy boshqarma, kadrlar bo'limi, devonxona xodimlari, o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosarlarining ish haftasining bir necha kuni sarflanar edi, buyruq loyihasini o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari tayorlab fakultet dekaniga tasdiqlatib, uni oliy talim muassasasining yuridik xizmat bo'limi, buxgalteriya bo'limi nazoratidan o'tkazib, o'quv uslubiy boshqarma boshlig'i rasman ma'qullagan taqdirda o'quv ishlari prorektoriga kiritilgan. O'quv ishlari prorektori imzolanganidan so'ng oliy talim muassasasi rektoriga tasdiqlashga yuborilar edi. Shu asnda talabalarining kursdan kursga o'tish, talabalarga stipendiya tayinlash, talabaga akademik ta'til berish, talaba almashinuvi va talabani o'qishdan chetlashtirish bo'yicha buyruq loyihalarini tayyorlash xodimlarning ish

davrining bir necha kunini qamrab olgan. Ushbu jarayonlarda qandaydir texnik xatolikka yo'l qo'yilgan bo'lsa, bu ishlar qaytadan takrorlanishi talab etilgan.

Talabaning kursdan kursga o'tganligi, talabalar safidan chetlatilganligi, talabalar safiga tiklanishi, akademik ta'til olganligi bularning hammasini o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari devonxonada talabalar hujjatlariga mas'ul xodim bilan har semestrda kamida ikki yoki uch marotaba tahlil qilishi kerak bo'lgan. Talabalar o'qishini ko'chirish bo'yicha murojaat qilganda, oliy talim muassasalari tomonidan hududiy komissiya ish faoliyat yuritgan bo'lsa talabalar arizalarini topshirish uchun o'ziga tegishli hujjatlarni, yani kursdan kursga o'tganligi, o'qishga qabul qilinganligi to'g'risidagi rektor buyrug'ini rasmiylashtirish va ushbu buyruqdan ko'chirma olishga bir necha kun sarflashi kerak bo'lgan. Reyting daftarchasidan ko'chirma olishiga ham reyting daftardagi semestrlarda o'tilgan fanlardan o'tkazilgan yakuniy nazorat ishida komissiya a'zolarining imzosi qo'yilmagan bo'lsa, yakuniy nazorat o'tkazilgan fanlardan komissiya a'zolarining imzolarini to'ldirishlari uchun ham bir muddat vaqt sarflangan.

Bu ishlarni amalga oshirishda o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosarlari mehnat ta'tiliga chiqishgan bo'lsa talabaning sarsongarchiligi yana bir necha kunga cho'zilar edi. Fakultetda mavjud yo'nalishlardagi talabalarining reyting daftarchalari o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari xonasida saqlanishi va semestr natijalariga ko'ra yakuniy nazoratlar o'tkazilgan fan komissiyalari tomonidan imzolanib, kursdan kursga o'tganlik to'g'risidagi buyruq chiqqandan so'ng dekan imzosi va muhri bilan talaba kursdan kursga o'tgan hisoblanar edi. Bu ovoragarchiliklar uchun ham talaba ikki-uch kun sarson bo'lgan.

Oliy va o'rta maxsus talim vazirining 2017-yil "Oliy talim muassasalarining kafedra va dekanlari ish yurituvda bo'lgan hujjatlarning namunaviy shakllarini tasdiqlash haqida" gi 940-son buyrug'iga asosan talabalarining yig'ma jildlaridagi, o'quv varaqaqlarining yuritilish o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari tomonidan amalga oshiriladi edi⁴. Shu bilan birgalikda, talaba bitiruvchi kurs bo'lganida yakuniy davlat attestatsiyasigacha bo'lgan muddatda yakuniy davlat attestatsiyasi kotibi bitiruvchi kurs talabalarining barcha hujjatlari "O'quv rejada mavjud fanlardan yakuniy nazoratlar bo'yicha komissiya tomonidan o'tkazilgan nazorat turlari qaydnomalari, talabaning o'quv varaqaqlar, reyting daftarchalari, akademik qarzdorliklarini bartaraf etganlik to'g'risidagi qaydnomalar"ni olib talabalar bitirishi uchun o'quv rejadagi fanlar bo'yicha talabalarining umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tayyorlab chiqishlari va yakuniy davlat attestatsiyasi komissiya a'zolariga taqdim etishligi lozim bo'lar edi. Ushbu masalalar hal bo'lishi uchun inson omili tomonidan ortiqcha vaqt sarflanishiga sabab bo'lgan. Bu jarayonlar amalga oshganidan so'ng talabalar uchun yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarini baholash mezonlari va bitiruvchi kurs talabalarga o'tkazilishi kerak bo'lgan yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlarining dasturlari asosida bitiruvchilarning burchagi tashkil etilar hamda bitiruvchilarga umumlashgan ma'ruzalar o'tkazilar edi. Bunda asosiy ishlar qolib ketib, uning o'rniga qog'ozbozlik ishlari juda ko'p vaqtni olgan, ushbu vazifalarni amalga oshirishda fakultet o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari va yakuniy davlat attestatsiyasi kotibining bitiruvchi kurs talabalarining o'zlashtirmagan fanlaridan qo'shimcha qaydnomalarni rasmiylashtirishlari hamda yakuniy davlat attestatsiyasiga qatnashuvchi talabalarining buyruq loyihalarini tayyorlashlari juda qiyin kechgan.

4 Олий ва ўрта махсус таълим вазиригининг 2018 йил 17 ноябрдаги "Олий таълим муассасалари кафедра ва деканатлари иш йуритувида бўлган ҳужжатларнинг намунавий шакллари тасдиқлаш ҳақида" ги 940-сон буйруғи.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek kredit-modul tizimiga bo'yicha o'quv jarayonini tashkil qilishi asosida oliy talim muassasalari talabalar harakatini muvofiqlashtirish uchun yangicha yondashuvlarni talab qiladi.

Shu asosida universitet talabalariga o'quv jarayoni doirasida "Bir darcha" tamoyili bo'yicha o'z vaqtida va sifatli xizmat ko'rsatish uchun javobgar hisoblanadi. Sektor tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar umumiy jihatdan universitetdagi talabalarga tegishli hujjatlarni to'g'ri yuritilishiga xizmat qilishi zarur. Shu o'rinda sektor faoliyati bitiruvchi kurs talabalarining diplom olish bo'yicha ham ishlarini tartibga solishiga, o'qishini ko'chirish bo'yicha tavsiya qilingan talabalarning murojaatlari va hujjatlarini jo'natilishiga ketgan vaqtdan unumli foydalanish imkoniyatini yaratadi.

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA YOSHLAR MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYASINING KONSTRUKTIV XUSUSIYATLARI

Sherzod Abrayev – Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha dekan o'rinbosari, Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyat barqarorligini saqlashda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish muhim tizimli jarayon hisoblanishi, bu jaryonda yoshlar ma'naviy tarbiyasini yuksaltirish muhim xususiyat ekanligi ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga ijobiy ta'siri xususiyatlari ham yoritib berilgan.

Аннотация. В статье научно анализируется тот факт, что совершенствование духовно-просветительской работы является важным системным процессом поддержания стабильности общества, а повышение духовного воспитания молодёжи – важной составляющей этого процесса. Также подчёркивается положительное влияние проводимых в нашей стране духовно-просветительских реформ на социальное развитие общества.

Abstract. This article scientifically analyzes the fact that improving spiritual and educational work is an important systemic process in maintaining the stability of society, and that improving the spiritual education of young people is an important feature of this process. It also highlights the positive impact of spiritual and educational reforms being carried out in our country on the social development of society.

Kalit so'zlar: jamiyat, jamiyat barqarorligi, konstruktiv tizim, ma'naviyat va ma'rifat, yoshlar, yoshlar ma'naviyati, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, ijtimoiy rivojlanish.

Ключевые слова: общество, социальная стабильность, конструктивная система, духовность и воспитание, молодёжь, духовность молодёжи, духовно-просветительское воспитание, социальное развитие.

Keywords: society, social stability, constructive system, spirituality and education, youth, youth spirituality, spiritual and educational education, social development.

Jamiyat barqarorligini saqlashning umumiy konstruktiv tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish muhim tizimli jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda yoshlar ma'naviyati va ma'rifiy tarbiya jarayonlarining yuksalishi mamlakatda olib borilayotgan barcha sohalardagi islohotlar, jamiyatning har tomonlama jadal va innovatsion rivojlantirish jarayonlarining takomiliga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Ma'naviyat va ma'rifat fuqarolar, ijtimoiy guruhlar va fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy jipslashuvi, "shaxs – jamiyat – davlat" tizimi barqarorligini ta'minlashga ko'maklashuvchi omildir. Shuning uchun ham bugungi har tomonlama yuksalish davrida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalasiga yuqori darajada e'tibor

berilmoqda.

Yangi O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar takomili ijtimoiy taraqqiyot falsafasiga uyg'un holda shakllanmoqda. Yangidan barpo etayotgan jamiyatimizning ijtimoiy ma'naviy asoslarini belgilashda ijtimoiy taraqqiyotga oid konstruktiv va konseptual g'oyalar muhim tayanch bo'lib xizmat qiladi. Demak Yangi O'zbekistonning istiqboli uchun ma'naviy barqarorlik muhim o'rin egallaydi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirga davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g'oyaviy-ma'naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati

va keng ko'lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir"¹.

Ma'naviy ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibot ishlari hech qachon hozirgidek dolzarb vazifaga aylanmagan. Ma'naviy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lgani, mafkuraviy tahdid va axboriy xurujlar ko'payib borayotgani, odamlar ongi va qalbini egallash yo'lidagi kurash jarayonlari kuchaygani uchun hayotning barcha jabhalari, ishlab chiqarishning hamma sohalari, aholining hamma qatlamlari orasida ma'naviy ma'rifiy va mafkuraviy sohada jadal ishlarni amalga oshirishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Zero, "Ma'naviyat – inson hayotining gultoji. U har qanday sharoitda inson sha'nini, shavkatini, shonini, jamoatchilik orasidagi obro'–e'tiborini belgilaydigan muhim omillardan biri. Ma'naviyat – insonni xurofotdan, jaholatdan qutqarguvchi qudrat. Uni muqarrar kamolotga yetkazguvchi, hayotini shukuhlarga to'ldirguvchi ma'vo, barcha illatlardan asraguvchi xaloskor!"².

Ma'naviy barqarorlik va uni ijtimoiy muhitda namoyon bo'lishi bilan bog'liq ko'pgina tushunchalar mavjud bo'lib, ularga ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat, tarbiya, tafakkur, dunyoqarash, mustaqillik tafakkuri, milliy yuksalish, ma'naviy taraqqiyot, shaxs ma'naviy takomili, shaxsning o'z-o'zini anglashi, milliy o'z-o'zini anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy borliq, ma'naviy meros, ma'naviy madaniyat, ma'naviy tarbiya, ma'naviy targ'ibot, milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy tahdidlar, ma'naviy manipulyatsiya, ma'naviy faollik, ijtimoiy-ma'naviy muhit, ma'naviy saviya, ma'rifat texnologiyalari, ma'naviyat infratuzilmalari, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat kabilar kiradi.

Ma'naviy barqarorlikning muhim

tamoyillaridan biri inson qadr-qimmatini har tomonlama yuksaltirish, shaxs ma'rifiy takomiliga doimiy erishib borish, xalqning madaniy darajasini doimiy rivojlantirib borishdan iborat. Bunga erishish uchun xalqimiz, yurtimiz fuqarolarining hamjihatligi, birdamligi va yangi jamiyat uchun chuqur mas'uliyat bilan xizmat qilish ko'nikmalarini mustahkamlash talab etiladi. Bu vazifa ma'naviy barqarorlikning mohiyatini – mag'zini belgilaydi. Jamiyat ma'naviy barqarorligi – har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o'zi va oilasi oldidagi burch hamda mas'uliyatini qay darajada his etayotganligi va amalga oshirilayotganligini belgilaydigan ma'rifiy mezon hamdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida "Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda"³, deb ta'kidlangan.

Bugungi zamonaviy sharoitda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida shakllangan tamoyillar asosidagi g'oyalarni singdirib borish muhim hisoblanadi. Chunki, yoshlarimizning mamlakatimizda va jahonda tarkib topgan insonparvarlik yo'nalishidagi umumbashariy g'oyalar mohiyatini doimiy bilishlari va amal qilishlari muhim istiqbolli jarayon hisoblanadi. Fan-texnika, ilmiy

1 Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент, Ўзбекистон, 2021. –Б. 11.

2 Жўраев Н. Маънавият-инсон қалбининг сарчашмаси. –Тошкент, Маънавият, 2015. –Б-30.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. www.lex.uz.

yangiliklar va innovatsiya sohasidagi katta-katta kashfiyotlar va yutuqlar qo'lga kiritish, muhim ixtirolarni mamlakatimiz farovonligi uchun yaratishga oid ko'nikmalarni shakllantirish ham muhim amaliy jarayon hisoblanadi.

Shuning uchun talaba-yoshlarga ma'naviy va madaniy tarbiya berishda milliy yuksalish bilan birga umuminsoniy taraqqiyot g'oyalarini ham samarali foydalanish, ayni paytda, ularga jahon tamaddunining zamonaviy yutuqlarini ham ijtimoiy hayotiga chuqur integratsiya qilish talab qilinadi. Bugungi kunda O'zbekistonda zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirish va yuksak malakali kadrlarni tayyorlash ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotning asosiy omiliga aylandi. Olimlarning ta'kidlashicha, "Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o'ta qat'iy hamda murakkab talablar qo'yilmoqda"⁴.

Yoshlarning jamiyat taraqqiyoti va barqaror rivojlanish jarayonlaridagi faoliyatlariga yo'l ochish va uni ta'minlash uchun ularning o'zlaridagi ma'naviy mas'uliyat, ijtimoiy faollik, siyosiy va iqtisodiy islohotlar jarayonlariga kamarbastalik fazilatlarini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ijtimoiy taraqqiyotga doir har qanday zamonaviy yangiliklarga intilishi, tashabbuskorligi, yangi yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlashi kabi mavjud yuqori saviyadagi va ijobiy yo'naltirilgan salohiyatidan o'z vaqtida xolis va rag'bat asosida foydalanishga erishish muhim masaladir. "Yoshlarning jamiyatdagi o'rni ko'p jihatdan uning axloqiy fazilatlarini, ma'naviy qiyofasi, tarbiyaviy darajasiga bog'liq. Jamiyat ishiga mas'uliyat bilan yondashish, burchga

sadoqat, oilaga ko'maklashish, vatanparvarlik kabi axloqiy fazilatlar yoshlarning ijtimoiy qadriyatlariga aylansa, jamiyatda ishonchli ma'naviy-ma'rifiy muhit ta'minlanadi"⁵.

Yoshlarning ma'naviy kamoloti o'z-o'zidan, stixiyali amalga oshmaydi. Bu jarayonga ko'plab konstruktiv ijtimoiy g'oyalar va tamoyillar ta'sir ko'rsatadi. Mazkur g'oyalar va tamoyillar ma'naviy konsepsiyalar bilan o'zaro determinant xususiyatlarga ega bo'lib, uning mohiyati, maqsadi va rivojlanish yo'llari bilan bog'lanuvchi subyektiv omillardir. Umuman olganda bunday ma'naviy konsepsiyalar jamiyatning umumtaraqqiyoti va barqaror mavjud bo'lishiga muhim zamin yaratuvchi omillar ham hisoblanadi. Shu sababli yoshlar ma'naviy kamolotini ta'minlashga qaratilgan ma'rifiy, tarbiyaviy tadbirlar jamiyat taraqqiyotiga yangi imkoniyatlar yaratib beruvchi bunyodkor g'oyalarni yaratish, ularga asoslanib, inson takomilining to'g'ri, adolatli, istiqbolli yo'llarini belgilashga imkon beradi.

Yoshlarning bunyodkor g'oyalar, mafkuralarning mohiyatini, ahamiyatini bilish, ularga asoslanish ham jamiyat taraqqiyotini, inson ma'naviy kamolotini to'g'ri izga solishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, vayronkor g'oyalar va mafkuralarning jamiyat hayotiga, yoshlar ma'naviy olamiga destruktiv ta'siri kuchayib borayotganligi, bu voqelikning salbiy oqibatlarini ham chuqur tushunib yetishi ham muhim jarayondir. Shu bois, "Yoshlarga ta'sir ko'rsatadigan informatsion tahdidlar haqida gapirar ekanmiz, ularga g'oyaviy, mafkuraviy buzg'unchi g'oyalar ham o'z ta'sirini har kuni ko'rsatishni yoddan chiqarmasligimiz kerak. Bunday g'oya, mafkuralar nafaqat internet va boshqa vositalar orqali muayyan kuchlar nazorati ostida namoyon bo'ladi"⁶.

4 Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари. –Тошкент, Фан, 2006. –Б.6.

5 Сайткасимов А. Значение улучшения социального поведения молодежи в стабильности общественных отношений. //Детство, открытое миру. Сборник материалов XV Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. Омск, 2025 г. –С. 349.

6 Aliyev M. O'zbekiston yoshlari buzg'unchi g'oyalarga qarshi. Milliy-ma'naviy yuksalish va yoshlar tarbiyasining ayrim masalalari. Maqolalar to'plami. JDPI, 2021 y. – B. 89.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat barqarorligini yanada tizimli ta'minlashda ma'naviy-ma'rifiy ishni bosh vazifasi sifatida yoshlar ma'naviy takomilini kuchaytirish, ta'lim-tarbiya jarayonini uyg'un holda olib borish, ma'naviy-axloqiy tarbiya sohasidagi ishlarni takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Joylarda ma'naviy-ma'rifiy sohada quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi:

- yoshlarni siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ekologik, ma'naviy-axloqiy, mafkuraviy, badiiy-estetik, jismoniy jihatdan bilim va ko'nikmalarini oshirish, sog'lom turmush madaniyatini va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;

- yoshlarda kasb madaniyatini tarkib toptirish, jamoada umumiy va pedagogik madaniyatni oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir yoshlarni tarbiyalash borasida ta'lim muassasalari, ota-onalar, mahallalar, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarning metodik ta'minoti, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning o'quv-uslubiy asosini takomillashtirish, sohaga mas'ul xodimlarning doimiy malakasini oshirish va ularning kundalik faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish.

BUYUK IPAK YO'LI DAVRIDA JIZZAX VOHASIDAGI ISHLAB CHIQARISHNING YETAKCHI SOHALARI RIVOJI

Javohir Olimjon o'g'li Saidov – t.f.b.f.d. (PhD), katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buyuk Ipak yo'li asosiy savdo aloqalari tizimida o'z iqtisodiy o'rniga ega bo'lgan Jizzax vohasining ishlab chiqarishdagi yetakchi sohalari tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Savdo yo'nalishida joylashuv voha aholisining savdo-sotiq munosabatlarida faqat xaridor sifatida emas, balki mavjud resurslar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan savdo munosabatlarida ham faol ishtirok etishlarida muhim omil bo'lgan.

Аннотация. В статье рассматриваются ведущие отрасли промышленности Джизакского оазиса, которые на основе исторических источников занимали своё экономическое место в системе основных торговых связей Великого шёлкового пути. Расположение на торговом пути являлось важным фактором активного участия населения оазиса в торговых отношениях не только в качестве покупателей, но и в торговых отношениях продукцией, производимой на основе имеющихся ресурсов.

Abstract. This article discusses the leading industries of the Jizzakh oasis, which had its economic place in the system of the main trade relations of the Great Silk Road, based on historical sources. The location on the trade route was an important factor in the active participation of the oasis population in trade relations not only as buyers, but also in trade relations with products produced on the basis of available resources.

Kalit so'zlar: Xitoy, Dizak, Zomin, Marsmand, Mink, Munchoqtepa, Sabot Ipak, hunarmandchilik, to'quvchilik, tog'-kon sanoati, metallsozlik.

Ключевые слова: Китай, Дизак, Замин, Марсманд, Норка, Мунчактепа, Сабо Ипак, ремесла, ткачество, горное дело, металлообработка.

Keywords: China, Dizak, Zamin, Marsmand, Mink, Munchaktepa, Sabot Ipak, handicrafts, weaving, mining, metalworking.

Buyuk Ipak yo'li yuzaga kelgan davrdan boshlab asosiy savdo vositasi Ipak hisoblanganligi manbalarda qayd etiladi. Ipak savdosi Xitoydagi ketma-ket sulolalar uchun samarali siyosiy vosita vazifasini ham bajarganligi ma'lum. Ipak o'sha paytda Sharqiy Osiyoda kuchli sivilizatsiya timsoliga aylandi. Xitoy elchilari G'arbiy mintaqalarga va hatto boshqa mamlakatlarga safarga borganlarida, ular ko'pincha ipak mahsulotlarini o'z diplomatiyasida vosita sifatida foydalanishgan. G'arbdan Konstantinopolgacha yoyilgan ipak va chinni narxi shunchalik baland ediki, ko'pchilik Xitoy va hatto Sharqiy Osiyoni mo'l-ko'l mahsulotlar mamlakati deb hisoblashgan. Bir paytlar davlat boshliqlari va zodagonlar shuhrat ramzi sifatida Finikiya qizil rangiga bo'yalgan Xitoy ipaklarini kiyib, uylarida

chinnidan boylik sifatida foydalanishganligi ushbu fikrni kuchaytiradi. Ipak asosiy savdo vositasi bo'lishi qatorida karvon yo'li orqali savdogarlar turli noyob va qimmatbaho buyumlar savdosini qizg'in tarzda olib borishgan. Ushbu savdo aloqalarida Jizzax vohasi aholisi ham faol ishtirok etganligi tarixiy manbalarda o'z aksini topgan.

Qadimgi davrda O'rta Osiyo mintaqasi orqali Ural va Sibir hududlariga Hindistondan boruvchi tranzit savdo yo'llari faoliyat yuritgan. Ipak yo'li orqali hind mahsulotlaridan birinchi novbatda turli taqinchoqlar va zeb-ziynat buyumlari Ural bo'ylari va Sibirda yashagan chorvador qabilalargacha yetib borgan bo'lsa, bu joylardan Hindistonga asosan turli xildagi metallardan yasalgan buyum va xom-ashyo, movut va teri

mahsulotlari olib borilgan¹.

Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoyga toquvchilikdan har xil gazlamalar va gilamlar, qiymatli tovarlardan metall, oyna, zeb-ziynat buyumlari, qimmatbaho tosh va dorivorlar, Baqtriya va Dovon hududlari tuyalar va samoviy deya ta'riflangan otlar doimiy savdo-sotiqda asosiy xaridorgir mahsulotlarlar bo'lgan. Bu yo'l orqali Xitoyning O'rta Osiyo va Yaqin sharq mamlakatlari bilan savdo va tashqi aloqalar milodiy I-II asrdayoq ancha kengaydi. Xitoydan doimiy tarzda ulkan savdo karvonlari G'arbga qarab yo'lga chiqqan, o'z vaqtida g'arbiy tomondan ham mol ortilgan karvonlar qarama-qarshi yo'nalishda harakatlangan².

Qadimgi davrdan boshlab o'zining tabiiy resurlari orqali Ustrushona metall va sopol buyumlar, shisha idishlar ishlab chiqarish bo'yicha yirik markaz bo'lgan. Rivojlangan o'rta asrlar davrida Ipak yo'lining muhim yo'nalishlarida joylashgan shimoli-g'arbiy Ustrushona mintaqasi, xususan, Jizzax vohasida hunarmandchilik sohasining ko'plab turlari mavjud bo'lib, ularning ayrim sohalari bo'yicha – Dizak, Zomin, Marsmand, Mink, Munchoqtepa, Sabot kabi shaharlarda hunarmandchilikka ixtisoslashgan markazlar faoliyat ko'rsatganligi manbalarda keltirilgan³. Ushbu savdo va ishlab chiqarish markazlarining har biri muayyan resurs ehtiyoji sababli o'zaro iqtisodiy bog'liq bo'lganligi bilan tavsiflanadi.

Bu yerda biz o'rganayotgan davrda iqtisodiyot, ishlab chiqarish va savdo-sotiqni qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik, chorvachilik, toquvchilik, tog'-kon, metallga ishlov berish va savdo ayirboshlash sohalari tashkil etgan bo'lib, quyida ularni har biriga to'xtalib o'tamiz.

Jizzax vohasi aholisi azaldan turli hunarmandchilik buyumlarini ishlab chiqarishda o'zining tarixiy an'analari ega bo'lgan. Viloyatda ishlab chiqarish va savdo aloqalarida kulolchilik, gilamdo'zlik, kashtachilik, yog'ochga ishlov berish kabi hunarmandchilik turlarining o'rni muhim ahamiyat kasb etgan. Jumlada, kulolchilikda kosalar, piyolalar, likopcha, tovalar, tog'oralar, chirog'donlar, isiriqdon kabi 13 turdagi buyumlar tayyorlangan⁴. Bu kabi kulollik idishlarining Zominda ham topilishi shubxasiz qo'shni viloyatlar va savdo yo'llari orqali uzoqdagi hududlar bilan keng integratsiya va iqtisodiy aloqalar olib borilganligidan darak beradi⁵. Aholining teri va charmdan tikiladigan ashyolar, zargarlik, kulolchilik va yog'och buyumlarini ishlab chiqarish nafaqat daromad manbai balki hududning madaniy merosi shakllanishiga ham hissa qo'shgan. Tarixiy manbalarda ushbu mahsulotlar mahalliy va xalqaro miqyosda sotiladigan hunarmandchilik ustaxonalari va bozorlar mavjudligi haqida so'z boradi. Bu tovarlar xaridorgir bo'lib, eksport orqali vohaning iqtisodiy farovonligiga va madaniy hayoti rivojiga hissa qo'shgan.

Movarounnahrning muhim mintaqalaridan Jizzax vohasining strategik joylashuvi uni Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo-sotiq uchun muhim chorrahaga aylantirdi. Vohadan o'tgan savdo yo'llarining qulayligi Ipak yo'li savdo aloqalarini osonlashtirishda hamda dunyoning turli burchaklaridan savdogarlarni mintaqaga savdo aloqalari uchun kelishida muhim o'rin tutgan. Ular savdo-sotiq maqsadida turli noyob mahsulotlarni olib kelishgan. Shuningdek, voha mintaqaviy ahamiyatiga ko'ra, ipak yo'li bo'yidagi Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi shaharlar o'rtasida savdo markazi bo'lib xizmat qilgan.

1 Sagdullayev A.S. O'zbekiston tarixi. I kitob. Toshkent: Donishmand ziyosi, 2021. – B. 558.

2 Zakirov Sh.S. Tarixiy geografiya. -Toshkent, 2018. – B. 93.

3 Пардаев М.Х., Фофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археология манбалари асосида). – Тошкент, 2016. – Б. 191.

4 Пардаев М., Пардаев А. Жиззах воҳасининг IV–VI асрлардаги кулолчилик идишлари//ИМКУ № 29, – Самарқанд, 1998. – Б. 58–68.

5 Грицина А.А. Гончарная продукция домонгольского Заамина//ИМКУ, № 32. – Тошкент, 2001. – Б. 173–179.

IX–XI asrlarda Markaziy Osiyoning hududlari qatori Jizzax vohasida pillachilik o'zlashtirilib, ipakchilik hamda paxta yetishtirish asosiy o'ringa chiqishi asnosida to'quvchilik sohasi rivojlana boshlaydi⁶. Aynan shu davrlarda Xitoy manbalarida qayd etilishicha, O'rta Osiyo va Sharqiy Turkiston mintaqalarida turli g'o'za navlari ko'p yerlarga ekilgan. Xitoyda ham O'rta Osiyo paxta tolasi va undan tayyorlangan matolar mashhur bo'lgan⁷. Ular murakkab to'qimachilik, paxta-ip, ipak, jun, tivit matolarni ishlab chiqarganlar. Jizzax vohasi ipakchilikning boy tarixiga ega bo'lib, aholi tut daraxtlari yetishtirish va ipak qurti boqish bilan shug'ullangan. Ipak sanoati aholi uchun muhim daromad va savdo manbai bo'lgan. Bu tovarlar nafaqat mahalliy savdoga, balki uzoq bozorlarga ham eksport qilinardi. Jizzaxning jundan ishlangan kiyimlari qo'shni va xorijiy mamlakatlarda mashhur bo'lgan⁸. O'lka shaharlariga Rim va Tataristondan teri va mato, Xitoydan eng yaxshi ipak va matolar ham keltirilgan⁹. Xitoydagi Suy sulolasi (581–618) davriga kelib, ipak matolarning qirmizi, to'q-qizil, sariq, havorang kabi rango-rang turlari ishlab chiqarila boshlandi¹⁰. Bu holat ipak ortilgan karvonlarga qo'shni mamlakatlarda ehtiyojni yanada oshiradi va ipakchilik savdosi rivojlanadi. Yevropa mamlakatlariga Xitoydan eksport qilingan ipak mahsulotlarning asosiy tranzit o'tish yo'nalishlari Zomin, Jizzax, G'allaorol, Baxmal kabi hududlaridan o'tishi, bu yo'nalishda muhim Ipak yo'li savdosi olib borilganligidan darak beradi¹¹. Arabzabon mualliflar asarlari

asosida Movarounnaxr jumladan, Jizzax vohasi savdogarlar to'planadigan savdo maskani bo'lib, tijorat naqd pul va ayirboshlash shaklida amalga oshirilgan. Al-Maqdisiy juda uslubiy ravishda hududlarning talabgor mahsulotlari ro'yxatini keltirib, quyidagicha: "Dizak (Jizzax)dan eng sara kigiz va aqbiya (kigizdan tayyorlangan mato asosida tikilgan) kiyim" tovarlarni eksport qilgan¹². Bu ma'lumot asosida Jizzax vohasi O'rta Osiyo ichki bozori uchun ham o'zining to'quvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarganligi hamda qo'shni hududlarga sotganligini bilish mumkin.

Jizzax vohasining tog'-konchilik sohasi o'rta asrlar davrida shakllanishi va taraqqiyoti kuzatiladi. Vohadan turli xildagi oltin, kumush, temir kabi madanlar qazib olingan va xo'jalik hamda iqtisodiy hayotda ishlatilishi uchun kerakli buyum va jihozlar yasalgan. Shuningdek, Buttaman rustoqi tog'larida navshotir (xlorid ammoniyli ma'dan) konlari ko'p ekanligi to'g'risida ma'lumot mavjud¹³. Al-Maqdisiyning ta'kidicha, Ustrushonadan Xuttalga boradigan tog' yo'lidagi konlarda oltin qazib olinishini aytadi. Shuningdek, muarrix Ustrushonaga qarashli Xasht shahri yaqinidagi joydan hamda Buttam hududidan kumush qazib olingani haqida ma'lumot bergan¹⁴.

Arab va Fors mualliflari keltirishicha, Ustrushonada xususan, Jizzax vohasida rudani qayta ishlash va eritish, metallardan qishloq xo'jalik qurollari va uy-ro'zg'or buyumlari,

6 Пардаев М.Х., Ғофуров Ж.И. Марказий Осиё – Буюк ипак йўли тизимида (қадим ва ўрта асрлар). – Тошкент: LESSON PRESS, 2021. – Б. 24–26.

7 Murtazoyeva R. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: O'zbekiston milliy universitet, 2005. – B. 106.

8 Қудратов С. Сардобалар ўлкаси. – Тошкент: "Фан". 2001. – Б. 17.

9 Сунатов Б. Буюк Ипак йўли чорраҳасида Уструшонанинг транзит минтақа сифатидаги ўрни // Уструшона Буюк Ипак йўлида, унинг минтақалараро сиёсий – иқтисодий ва маданий муносабатларни ривожлантиришдаги ўрни (антик ва ўрта асрлар даврида) мавзусида республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Гулистон, 2016. – Б. 97–98.

10 Кобзева О.П., Джалилов О.З., Страницы истории Великого Шелкового пути: шёлк, специи и чай. Монография. – Тошкент, 2013. – С. 59.

11 Хўжаев А. Буюк Ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 178.

12 Al-Muqaddasi, trans. Collins, pp. 264–265. BGA, III, p. 325; Vaissière de la É. Sogdian traders: a history. – P. 301–302.

13 Худуд ул-олам (Мовароуннахр тавсифи) / Форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О.Бўриев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 15.

14 Muqaddasi: Colins, B.A. (trans.), The Best Divisions for Knowledge of the Regions. A Translation of Ahsan al-Ta'qasim fi marifat al-Aqalim, Reading: Garnet, 1994. – P. 264–265. BGA, III, p. 325;

harbiy aslahalar yasash ishlari keng miqyosda rivojlangan¹⁵. "Hudud al-olam" asarida yozilishicha: – "Sarushana tog'larida temir qazib olinadi"¹⁶. Ibn Havqalning "Kitob surat al-ard" manbasida "Ustrushonaning Mink rustoqi va uning yaqinidagi Marsmand mavzeida qazib olinadigan temir rudasi va undan tayyorlanadigan harbiy qurollar" haqida xabar beradi¹⁷. Al-Maqdisiy ma'lumotiga ko'ra, Mink va Marsmanda atrofida, Xurosonda keng ishlatilgan, Bog'dod va Iroqda mashhur bo'lgan temir qurollar ishlab chiqariladi¹⁸.

Ushbu oliy sifatli qurollar bilan Osiyo mintaqasidagi qo'mondonlar va jangchilar qurollanishgan¹⁹. Mintaqada metallga ishlov berish va metall mahsulotlar yuksak qadrlanib, vohaning iqtisodiy ravnaqiga xizmat qilgan. Jizzax vohasining Zomin tumanidagi Miq konchilik hududi rudani qazib olish, qora metallardan tayyor mahsulot tayyorlashga ixtisoslashgan metallurgiya markazi bo'lgan²⁰. Ushbu metall mahsulotlarga mahalliy va Ipak yo'li bo'ylab savdo aloqalarida talab katta bo'lgan. Shuningdek, qimmatbaho metallar, keramika kabi qimmatli buyumlar ancha xaridorgir bo'lgan.

Arab xalifaligi hukmronligi davrida ham Buyuk Ipak yo'li tarmoqlari bo'ylab savdo-sotiqdagi an'anaviy yuksak saviya saqlanib qolib, unga qator o'ziga xos yangiliklar kiritilgan. Arab xalifaligi davrida Ustrushona xususan Jizzax vohasi orqali turli mamlakatlarga Ipak yo'li orqali sotilgan va mintaqaga olib kelingan mahsulotlar

haqida manbalarda ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Masalan, Xitoyga Movarounnahr o'lkalari qatori Jizzaxdan shishasozlik buyumlari, oyna, arg'umoq otlar, oziq-ovqat mahsulotlari, quruq mevalar jo'natilgan. Xitoydan esa ipak matolar, choy, qog'oz va turli ziravorlar keltirilgan. Toxaristonda o'rta asrlar davridan boshlab shishasozlik rivojlangan hamda Ipak yo'li bo'ylab Jizzax vohasi orqali Xitoy hukmdorlari saroyigacha yetib borgan²¹.

Yevropa mamlakatlariga esa O'rta Osiyo jumladan, Jizzax vohasi tranzit yo'lagidan ip, jun, ipak matolar, quritilgan mevalar, sholi, kumush buyumlar, tangalar ko'plab olib ketilgan, u yerlardan esa asosan mo'yna, charm va charm mahsulotlari olib kelingan. Bag'dod, Shom, Hirotdan kelayotgan musulmon savdogarlardan boj undirishda imtiyozlar berilishi arab hukmronligi davrida joriy etiladi. Hududning iqtisodiy sharoitiga qarab arab xalifaligi xalifaligida soliq belgilangan. Jumladan, Ustrushonaliklar 50 000 dinor hisobida xiroj to'laganlar²². Ushbu soliq miqdori asosida mintaqaning iqtisodiy holati va mavqeini yuqori baholash mumkin.

"Choy yo'li" uzoq vaqt Buyuk Ipak yo'li tarkibida faoliyat yuritgan. Jizzax vohasi orqali janubdan shimolga, sharqdan g'arbga harakatlangan savdo karvonlarining to'xtab, savdo aloqalarini amalga oshirishi natijasida voha aholisi choy ta'mini ancha ilgari bilishgan. Choy ichimligi iste'moli savdo yo'nalishidagi Jizzax, Zomin, G'allaorol

15 Saidov J. Qadim va o'rta asrlar Zomin vohasi taraqqiyotida Buyuk Ipak yo'lini o'rni xususida //Uzliksiz ta'lim sifatini oshirish: ta'lim muhiti, ta'lim mazmuni, metodologiyasi va baholash xalqaro kofrengsiya. –Jizzax, 2022. –B. 72-75.

16 Худуд ул-олам (Мовароуннахр тавсифи) / Форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О.Бўриев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 14.

17 Ибн Ҳавқал. Китоб Сурат ал-ард. – Б. 68-72; G'ofurov J.I., Ropiyev A.S., Ustrushonaning ilk o'rta asr ixtisoslashgan hunarmandchiligiga doir // Respublika ilmiy-amaliy konfrensiya. –Jizzax, 2018. – B. 118.

18 Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннесредневековье. – Сталинабад, 1957. – С. 44-45.

19 Пардаев М.Х. Шимолий-ғарбий Уструшона илк ўрта асрларда (Қуйи Сангзор воҳаси материаллари асосида). Тарих фанлари номзоди диссертация. – Самарқанд, 1995. – Б. 21.

20 Сверчков Л.М. Поселение Мык - источник по истории средневековой Уструшаны: дисс. канд.ист.наук.- Самарканд, 1991. – С. 145-146.

21 Mamataliyeva S.B. "Buyuk Ipak yo'li"ning antik va ilk o'rta asrlar davri shisha idishlari tarqalishiga ta'siri // "Baqtriya-Tohariston Buyuk Ipak yo'lida" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari. -Termiz, 2022. – B. 59-60.

22 Ибн Хордадбех. Книга путей и стран. Перевод с арабского, комментарии, исследование, указатели и карты наили Велихановой. – Баку: Элм, 1986. – С. 68, 190.

kabi shaharlardan voha ichkarisidagi kichik aholi manzilgohlariga yarmarkalar va bozorlar orqali yetib borgan. Shu tariqa choy ichimligi sekin-asta xalq madaniyatiga ta'sir etib, milliy ichimlikka aylanishiga olib kelgan²³. Bu savdodan Xitoy va Hindiston mamlakatlari katta daromad ko'rishgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Buyuk Ipak yo'lining Jizzax vohasidan o'tganligi tovarlar va madaniyatlar almashinuvida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu savdo aloqalari shakllanishi va aholining turli savdo faoliyati hamda ishlab chiqarishning yetakchi sohalari bilan shug'ullanishida asosiy omil bo'lgan. Jizzax vohasidagi ishlab chiqarish va savdo munosabatlarining yetakchi sohalari tog'konchilik, temirchilik, hunarmandchilik bilan bog'liq edi. Aholi vohaning tabiiy boyliklaridan unumli foydalanib, turli tovarlar ishlab chiqarish va savdoga asoslangan jonli iqtisodiyotni rivojlantirishgan. Bu iqtisodiy faoliyat aholining turmush farovonligini ta'minlabgina qolmay, balki qo'shni viloyatlar bilan savdo-tijoriy aloqalarini mustahkamlab, vohaning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shgan.

23 Мамадова М. Б. Чой ва чой йўли Ўзбекистон халқлари тарихида. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Қарши, 2021. – Б. 25.

YANGI O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR XUSUSIDA

Anvar Sirajovich Majidov – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Madina Toshbul qizi Ismatova – o'qituvchi, Jizzax shahar 12-sonli umumta'lim maktabi

Annotatsiya. Mazkur maqolada yangilanayotgan O'zbekistonda xotin-qizlarga oid davlat siyosatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar xususidagi mualliflarning fikr-mulohazalari bayon qilingan.

Аннотация. В данной статье изложены мнения авторов о проводимых реформах по развитию государственной политики в отношении женщин в обновленном Узбекистане.

Abstract. This article presents the authors' opinions on the ongoing reforms to develop state policy towards women in the renewed Uzbekistan.

Kalit so'zlar: istiqloq, demokratiya, xotin-qizlar, Prezident, Yangi O'zbekiston, BMT, konvensiya, Parlament, gender tengligi, ijtimoiy himoya.

Ключевые слова: независимость, демократия, женщины, Президент, Новый Узбекистан, ООН, конвенция, Парламент, гендерное равенство, социальная защита.

Keywords: independence, democracy, women, President, New Uzbekistan, UN, convention, Parliament, gender equality, social protection.

Demokratik taraqqiyot sari dadil ildamlayotgan Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning mavqeyi va maqomini oshirish eng muhim strategik vazifalardan biridir. Mazkur siyosat yuzasidan olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan maqsad jahon madaniy va ma'naviy, siyosiy va ilmiy texnikaviy yutuqlaridan respublikamiz xotin-qizlarini ham bahramand qilish, ularni jamiyatimizning teng huquqli barkamol a'zosi qilib tarbiyalashdir. Shuning uchun ham yangilanayotgan O'zbekistonda ayollarga hurmat-ehtirom ko'rsatish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, siyosiy faolligini oshirish, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, huquq va erkinliklarini ta'minlashga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratib kelinmoqda.

"Ayollar: xotin-qizlar iborasi"ni o'rganish va uning tahlili ko'p asrlik tarixga borib taqaladi. Ma'lumki, X asrning boshlaridayoq xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni masalasi, XX asrning o'rtalarigacha Kristina de Pisan va Korniliy Agrippa asarlarida esa fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy va ma'rifiy huquqlarining yo'qligi tahlil qilingan¹.

Ayollar muammosi bo'yicha olib borilgan izlanishlarda jamiyatdagi xotin-qizlarga nisbatan adolatsizliklar tanqid qilingan, ularning yechimini topish masalalari esa javobsiz qolavergan. Yevropa Renessans davrining ozodlik g'oyalariga mos ravishda yuzaga chiqqan ayollar harakati ilk bor yozuvchi Olimpiya de Guj (1791) tomonidan taqdim etilgan "Ayollar huquqlari va fuqarolik huquqlari Deklaratsiyasi" manifestida o'z ifodasini topgan edi. Muallif o'z manifestida

1 Muxitdinova F.A. Yangi O'zbekistonda gender tengligi hamda xotin-qizlar huquqlarining kafolatlari //Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishning ma'naviy-huquqiy asoslari. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022-yil 4-mart. – B.149.

barcha ayollarning qonun oldida tengligini e'tirof etgan. Biroq, ta'limotlarda ta'kidlanganligi bilan ijtimoiy hayotda ayollarning huquqlari hamon erkaklarnikidan pastligicha qolavergan.

Aytish o'rinliki, chet ellik olimlar tomonidan o'tgan asrgacha xotin-qizlarning siyosiy faolligi tan olinmadi, chunki XIX asrgacha faqat hokimiyat, davlat va siyosat erkaklarga xosligiga urg'u berilardi. Faqatgina XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib sotsial-utopistlardan Sh.Furye birinchilardan bo'lib xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi rolga e'tibor qaratdi. Fransuz inqilobi ta'sirida ayollarni faollashtirish g'oyasiga Sh.Furye barcha ijtimoiy taraqqiyotning umumiy tamoyili sifatida qaragan². Anri Sen-Simon esa, uni qo'llab-quvvallash bilan birga masalaning yechimi va yo'llarini axtargan. T.Parsons, E.Dyurkgeymning ijtimoiy mehnat taqsimotida jinslarning o'rni³, I.Goffman, G.Zimmelning tadqiqotlarida esa xotin-qizlarning ijtimoiylashuvi masalalari tadqiq etilgan⁴.

Ammo, zamona taraqqiy qilgani sari jahonda xotin-qizlarning o'rni ham oshib borgan. Vatanimizning shonli tarixida o'zining jasorat va matonati, aql-zakovati, nafosat va nazokati bilan o'chmas nom qoldirgan To'maris, Bibixonim, Gulbadanbegim, Zebunniso, Nodira, Uvaysiy, Anbar otin va boshqa yuzlab ayollarimizni yuksak ehtirom bilan tilga olamiz⁵. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkaklar bilan bir safda buyuk jasorat sohibalarining nomlari tarixda qolganligi bugungi kunimizda ham xotin-qizlarimiz uchun faollik namunasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Jahon tarixi, davlatchilik tariximizdan ham

ma'lumki, massagetlar yo'lboshchisi To'maris, ko'hna Palmiraning hukmdori Zinoviya, Ispaniya qirolichasi Izabella yoxud arman malikasi Tamara o'z davrining yetuk va oqila siyosatdonlari bo'lgan. Ammo bunday jangchi, hukmdor, shoira va donishmand ayollarni G'arbda kamdan kam uchratamiz, Sharqda esa bunday ayollarni juda ko'plab sanash mumkin. Xususan, temuriylar davrida ular davlatning siyosiy-ijtimoiy tuzumida muhim o'rinni band etishgan. Jumladan, Sohibqiron Amir Temur Saroy Mulkxonimga uylangach, "Ko'ragon" unvoniga sazovor bo'ladi. Saroy Mulkxonim xon qizi bo'lganligi uchun saroydagi hamma malikalardan ulug' sanalgan, shu bois malikaga "katta, ulug' xonim (Bibixonim)" deb murojaat qilishgan. O'z zamonasining yuksak idrokli, tengsiz aql-zakovat va farosat egasi hisoblangan Bibixonim saltanatni boshqarish ishlarida tengsiz azmu shijoat ko'rsatib, ulkan mamlakatning ijtimoiy-madaniy qurilish masalalariga rahnamo bo'lib, ilm-fanga homiylilik qilgan⁶.

Ta'kidlash lozimki, keyingi yillarda ayollarning siyosiy-ijtimoiy faolligi haqida AQSh Indiana universitetining Markaziy Yevroosiyo fakulteti xodimi, tadqiqotchi olimi Marian Kamp Turkiston ayollari, xususan, o'zbek ayollari rolining XIX asrdan boshlab turli hukumat boshqaruvlari mobaynidagi transformatsiyasi, ularning jamiyatdagi o'rni va faoliyati haqida "O'zbekiston yangi ayoli: Islom, zamonaviylik va kommunizm davrida paranjining yechilishi" (The new woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism) nomli o'zining asarini keng kitobxonlar ommasiga

2 https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_003503720/ Фурье Ш. Изб. соч. Т.1. – Москва, 1951. Стр.174. <http://www.csun.edu/~snk1966/T%20Parsons%20The%20American%20Family.pdf>. Parsons T. The American Family: Its Relations to Personality and to the Social Structure / Parsons T., Baies R. Family, Socialization and Interaction Process. Glencoe, IL: Free Press, 1955.

3 https://vk.com/wall-68638203_2744 Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. – Москва: "Наука", 1991; Дюркгейм Э. Самоубийство. – Москва: "Мысль", 1994.

4 Зimmel Г. Женская культура. Фрагмент о любви // Зimmel Г. Избранное. Т.2. – Москва: "Юрист", 1996. Стр. 234–265. <https://www.hse.ru/data/2013/06/09/>

5 Yuksak ma'naviyat va qonun ustuvorligi asosida yashash, el-yurtga sadoqat, adolat, halollik va jasorat fazilatlarini kamol toptirish. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2013. – B. 285.

6 Dadaboyev H. Amir Temur davrdoshlari. – Toshkent: "NAVOIY UNIVERSITETI" nashriyot-matbaa uyi, 2018. – B. 153.

taqdim etdi⁷. Tadqiqotchining fikricha, Rossiya imperiyasi mustamlaka davrida Turkiston jadidlarining xotin-qizlarni ilmga jalb etish, ularni jamiyatda o'z o'rnini belgilashga doir islohotlari Sovet davridagi ayollarni qo'llab-quvvatlash harakatlariga asos bo'lib xizmat qilgan. Olimaning ta'kidicha, xotin-qizlarga bilim berish va ularni jamiyat rivojiga hissa qo'shishiga sharoit yaratish borasidagi o'y va harakatlar sho'ro tizimi va kommunistik partiya vujudga kelishidan ancha oldin ro'y bergan.

Bizga ma'lumki, sobiq Ittifoq davrida haqiqatdan ham xotin-qizlarning erkaklar bilan teng maosh olishi, mehnat qilishi, ta'tilga chiqishi, bilim olishi ijtimoiy jihatdan kafolatlanib, jinslar tengligiga erishilgan edi. Biroq ana shu ijtimoiy tenglikning ba'zan buzulish hollari ro'y berganda, ular haqida fikr qilish, bu hollarni muhokama etish har doim ham to'g'ri qabul qilinavermagan. Sobiq SSSR sharoitida xotin-qizlar ta'limi, kasb darajasi, maoshlar tengligi, onalik va bolalik muhofazasi uchun muntazam davlat siyosati o'tkazilib, yaxshi natijalarga erishilgan, ammo bu natijalar ayollarni xohish-irodalarini muntazam o'rganish orqali emas, balki davlat mafkurasi quroli bo'lganligi uchun amalga oshirib borilgan⁸.

Darhaqiqat, xotin-qizlar huquqlarining qaysidir sohalarida amalga oshmay qolishi ko'proq jamiyatda ildiz otgan qolip – stereotiplar bilan bevosita aloqador. Ularni o'zgartirish – murakkab va ko'p vaqt talab qiladigan jarayon. Bu yo'lda yosh avlodning, qolaversa kattalarning ham dunyoqarashi to'g'ri shakllantirilishi zarur. Masalaga shu nuqtai nazardan qaralsa, BMT tomonidan qabul qilingan "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga

barham berish to'g'risida"gi Konvensiya ana shunday holatlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan hujjatlardan biridir. Mustaqil O'zbekiston 1995-yilda mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qilgan, respublikamizda ushbu ushbu xalqaro pakt shartlariga, shuningdek, uning andozasidagi bir qator milliy hujjatlarga amal qilinadi⁹.

O'zbekistonning yangi tarixida ro'y berayotgan xotin-qizlar harakatlarini bir qancha davrlarga ajratib, o'rganish maqsadga muvofiq:

1) Mustaqilligimizning ilk yillari (1991–1992-y.y.) – xotin-qizlar harakatida tarqoqlik, esankirash, bosh maqsaddan chetga chiqish davri. Xotin-qizlar o'zlarini doimo himoya qiladigan "jensovetlar"dan mahrum bo'lganliklarini anglab yetdilar.

2) 1992–1995-yillar – xotin-qizlar faoliyatida zamondan ortda qolish, erkin jamiyatda yashash mas'uliyati bo'yicha qayta tayyorlash ishlaridagi oqsashlar davri. Lekin shu bilan birga xotin-qizlar tarkibida yangi mulkdorlar qatlamining shakllanishi ham ushbu davrga tegishlidir¹⁰.

3) 1995–2004-yillar – jamiyatda xotin-qizlarga bo'lgan munosabatlarda qat'iy o'zgarishlar davri. Jumladan, 1995-yilning mart oyida Birinchi Prezident tomonidan "Davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlar rolini kuchaytirish chora-tadbiralari to'g'risida"gi Farmonining e'lon qilinishi, 1996-yilda Birinchi Prezident tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida ayollar ahvolini yaxshilash to'g'risida"gi konsepsiya, 1999-yilda "Ayollarning ijtimoiy himoyalaniishini kuchaytirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlarlar to'g'risida"gi Farmoni ta'kidlash o'rinlidir. 1998- yilning – Oila yili, 1999-yil

7 Muxitdinova F.A. Yangi O'zbekistonda gender tengligi hamda xotin-qizlar huquqlarining kafolatlari // Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilishning ma'naviy-huquqiy asoslari. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022-yil 4-mart. – B. 149.

8 Xolbekov A., Nazarqosimov S., Berdieyev B., Ergasheva M. O'zbekistonda ijtimoiy hayot transformatsiyasi. – Toshkent: "Kaleon PRESS", 2021. – B. 153.

9 Oila – chinakam baxt timsoli // "Ayollar va ularning oilalarini ijtimoiy-huquqiy qo'llab-quvvatlash markazlari" xodimlari, mahalla maslahatchilari hamda Xotin-qizlar qo'mitalari faollari uchun qo'llanma. – Toshkent, 2016. – B. 36.

10 Xolbekov A., Nazarqosimov S., Berdieyev B., Ergasheva M. O'zbekistonda ijtimoiy hayot transformatsiyasi. – Toshkent: "Kaleon PRESS", 2021. – B. 208–209.

– Ayollar yili, 2001-yil – Onalar va bolalar yili deb eʼlon qilinishi, mazkur yillarda oilani mustahkamlash, ayollarning jamiyatdagi oʻrnini koʻrsatish, sogʻlom, oqila xotin-qizlar avlodini voyaga yetkazish yoʻlida xayrli ishlar amalga oshirildi.

4) 2004–2016–yillar. Bu davrda “Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar toʻgʻrisida”gi 2003–yil 29–avgustda qabul qilingan qonun bilan xotin-qizlarga Parlamentda ishtirok etish uchun keng imkoniyatlar yaratildi, yaʼni 30% lik kvota eʼlon qilindi, 2004–yil 24–mayda Oʻzbekiston Birinchi Prezidentining “Oʻzbekiston Xotin-qizlar qoʻmitasining faoliyatini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha qoʻshimcha choralar toʻgʻrisida”gi farmonining qabul qilinishi kelgusida xotin-qizlarning takomili uchun asos boʻlib xizmat qildi.

5) 2016–yildan – to bugungi kungacha boʻlgan davr. Mazkur yillar Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ayollar salomatligini muhofaza etish, ularning tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash, munosib mehnat va turmush sharoitlarini yaratib berishga alohida ahamiyat qaratilganligi bilan ham tariximizdan joy oldi. 2016–yilning “Sogʻlom ona va bola yili” deb eʼlon qilinishi, oʻtgan yillar mobaynida oilani mustahkamlash, ayollarning jamiyatdagi oʻrnini koʻrsatish, sogʻlom, oqila xotin-qizlar avlodini voyaga yetkazish yoʻlida qator xayrli ishlarning amalga oshirilishi bosqichidir.

Taʼkidlash oʻrinliki, istiqlol yillarida mustaqil Oʻzbekiston inson huquqlari, jumladan ayol huquqlari boʻyicha 60 ga yaqin xalqaro hujjatlarga qoʻshildi. Bundan tashqari, BMT tomonidan mazkur sohada qabul qilingan oltita asosiy xalqaro shartnoma ishtirokchisiga aylandi¹¹.

Yangilanayotgan Oʻzbekiston xotin-qizlar masalalariga oid xalqaro majburiyatlarini vijdonan bajarishga harakat qilmoqda. Mamlakatimizda ayol huquqlari sohasida amalga oshirilishi lozim boʻlgan quyidagi 5 ta strategik yoʻnalish alohida belgilab olingan: ayol huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini taʼminlash; ayol huquqlari boʻyicha xalqaro huquqning umum eʼtirof etgan tamoyillari va meʼyorlari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish; qabul qilingan qonunlarni ogʻishmay amal qilish mexanizmini ishlab chiqish; sudlov islohotini amalga oshirish orqali butun sud tizimini demokratlashtirish; aholi, ayniqsa, yoshlar va ayollar oʻrtasida huquqiy tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish¹².

Mustaqil Oʻzbekiston “Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish toʻgʻrisida”gi konvensiyaning aʼzosi sifatida milliy qonunchilikka uning normalarini uygʻunlashtirish masalasiga alohida eʼtibor qaratmoqda. Bu borada 2019–yilning sentabrida Oʻzbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida”gi muhim qonunlari qabul qilinishi fikrimizning tasdigʻidir.

Mamlakatimizda xotin-qizlar oʻrtasida huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida har bir mahalla kesimida ish olib boriladi. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, shuningdek, 2021–yili maxsus roʻyxatdan chiqarilgan 2 ming 587 nafar diniy oqim aʼzosi boʻlgan ayollarning hayotda oʻz oʻrnini topishi, ijtimoiy muammolarini hal etishga alohida eʼtibor qaratilgani eng katta islohotlardan

11 Yuksak maʼnaviyat va qonun ustuvorligi asosida yashash, el-yurtga sadoqat, adolat, halollik va jasorat fazilatlarini kamol toptirish. – Toshkent: “Oʻzbekiston” NMIU, 2013.– B.274.

12 Yuksak maʼnaviyat va qonun ustuvorligi asosida yashash, el-yurtga sadoqat, adolat, halollik va jasorat fazilatlarini kamol toptirish. – Toshkent: “Oʻzbekiston” NMIU, 2013.– B.285.

biridir¹³. Xotin-qizlarning tibbiy madaniyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalarga manzilli tibbiy yordam ko'rsatish, respublika skrining va reproduktiv markazlari xizmatlarini yanada rivojlantirish bo'yicha ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 ta qarori, hukumatimizning 6 ta qarori, 4 ta farmoyishi va 12 ta chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi¹⁴.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasida so'zlagan nutqida gender masalasiga alohida e'tibor qaratdi, "...biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi"¹⁵. Yurtboshimiz buni ta'kidlash orqali respublikamizda xotin-qizlar siyosati bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni nazarda tutgan edi. Qayd etish lozimki, O'zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda ayollar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga chiqdi. Mamlakatimiz Parlamenti ayol deputatlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o'rtasida 37-o'ringa ko'tarildi. Xolbuki, bundan 5 yil avval biz bu borada 128-o'rinda edik¹⁶.

Aytish o'rinliki, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishning ta'sirchan institutsional tizimi bu vakillik hokimiyatidir. Mazkur hokimiyat barcha darajadagi deputatlarining vazifasi iqtisodiy o'sishni inson taraqqiyoti bilan bog'lash. Xotin-qizlarimizning Parlamentdagi a'zoligi keyingi yillarda 2 barobarga ortganini Prezidentimizning xalqaro minbardan turib

ta'kidlaganlari ham bejizga emas. Chunki ayollar muammosi ko'p bo'lib, ulardan biri nikohning bekor bo'lishi bilan ayollarning uysiz qolishi, aliment undira olmasligi masalalarini ayol deputatlar qonundagi bo'shliqlarni yengishga harakat qilishi tabiiydir.

Bizga ma'lumki, 2021-yili poytaxtimiz Toshkent shahrida joylashgan Kongress-xollda 2021-yili 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan tantanali marosim o'tkazildi. Bayram tadbirida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, bir guruh xotin-qizlarni mukofotlar bilan taqdirladi. Prezident e'tiroficha, "...Ayollarimiz orasida taniqli davlat va jamoat arboblari, jumladan, o'nlab senator va deputatlar, vazir va hokimlar, O'zbekiston Qahramonlari, akademiklar, professorlar, O'zbekiston xalq shoirlari, Xalq o'qituvchilari, Xalq artistlari, nodavlat tashkilotlarining faol vakillari borligi barchamizni quvontiradi".

Hozirgi vaqtda respublikamiz turli soha va tarmoqlarida mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizi xotin-qizlardir. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari bo'g'inida 1 ming 400 ga yaqin xotin-qizlarimiz rahbarlik lavozimlarida ishlab kelmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek ko'plab xalq deputatlari mahalliy kengashlar tarkibida. O'nlab opa-singillarimiz "O'zbekiston Qahramoni", "O'zbekiston fan arbobi", "O'zbekiston xalq o'qituvchisi", "O'zbekiston xalq shoiri", "O'zbekiston xalq artisti" singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlari, orden va medallariga sazovor bo'lgan. Ular ichida 500 tadan ortiq fan doktorlari va akademiklar,

13 Muxitdinova F.A. Yangi O'zbekistonda gender tengligi hamda xotin-qizlar huquqlarining kafolatlari //Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishning ma'naviy-huquqiy asoslari. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022-yil 4-mart. – B. 151.

14 Muxitdinova F.A. Yangi O'zbekistonda gender tengligi hamda xotin-qizlar huquqlarining kafolatlari //Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishning ma'naviy-huquqiy asoslari. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022-yil 4-mart. – B. 151-152.

15 Muxitdinova F.A. Yangi O'zbekistonda gender tengligi hamda xotin-qizlar huquqlarining kafolatlari //Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishning ma'naviy-huquqiy asoslari. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022-yil 4-mart. – B. 150.

16 Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020. – B.406.

minglab fan nomzodlari o'z bilimi va istedodi bilan Vatanimiz ravnaqi yo'ldida astoydil xizmat qilib kelmoqdalar¹⁷.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizning 49 foizini ayollar, ularning qariyb 64 foizini 30 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlar tashkil etishi tufayli bu yo'nalishda alohida davlat siyosati olib borishga to'g'ri kelmoqda. Dunyo miqyosida ham gender tengligini ta'minlashda hanuzgacha bir qator muammolar ko'zga tashlanayotir. Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, har 10 ishlovchi erkak kishiga 6 ta ishlovchi ayol to'g'ri keladi. 2019-yilning 24-sentabrida boshlangan BMT Bosh Assambleyasining 74-sessiyasida ham tashkilotning ayollar qanoti gender tenglik, dunyo mamlakatlarning barqaror taraqqiyotiga erishish yo'lida ayollar uchun ham munosib huquq va erkinliklar ta'minlanishi masalalarini bejizga ko'tarilmadi. Bosh Assambleya sessiyasi chog'ida 92 nafar nutq so'zlagan arboblarning atigi 17 tasi xotin-qizlar ekanligi ham alohida tanqid ostiga olingan edi¹⁸.

Xotin-qizlarning erkaklar bilan bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lishi, onalik va bolalik bilan bog'liq davlat siyosati yuritilayotgani, ayollarning ijtimoiy hayotdagi mavqeyini kuchaytirish, siyosiy faolligini oshirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar alohida e'tiborga molik. Birgina 2021-yilning o'zida ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trl. so'm kredit va subsidiyalar ajratildi, 320 ming xotin-qiz doimiy ish o'rniga ega bo'ldi. 190 ming nafar ayol kasb-hunarga o'qitildi, 4 mingdan ziyod xotin-qizlarga uy-joy to'lovining boshlang'ich badaliga mablag' ajratildi, 2 ming nafar qiz alohida grant

asosida oliy ta'limga o'qishga qabul qilindi. Va natijada 2021-yilda oliy o'quv yurtlariga kirgan talabalarning 60 foizini xotin-qizlar tashkil etdi¹⁹.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha O'zbekistonda barcha huquqiy va tashkiliy asoslar yaratilgan bo'lib, siyosiy partiyalar, NNTlar, jamoat tashkilotlari, ijtimoiy harakatlar va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyati doirasida amalga oshirilmoqda. Demak, siyosiy faol, yetuk ma'naviyatli, jamiyatning muhim tayanchi bo'lgan xotin-qizlar rolini yanada kuchaytirish bugungi keng ko'lamli islohotlar davrining muhim talabidir.

17 Muxitdinova F.A. Yangi O'zbekistonda gender tengligi hamda xotin-qizlar huquqlarining kafolatlari //Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishning ma'naviy-huquqiy asoslari. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022-yil 4-mart. – B. 152.

18 Muxitdinova F.A. Yangi O'zbekistonda gender tengligi hamda xotin-qizlar huquqlarining kafolatlari //Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishning ma'naviy-huquqiy asoslari. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022-yil 4-mart. – B. 151.

19 Muxitdinova F.A. Yangi O'zbekistonda gender tengligi hamda xotin-qizlar huquqlarining kafolatlari //Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishning ma'naviy-huquqiy asoslari. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022-yil 4-mart. – B. 150.

IJTIMOIY MUNOSABATLARNING KIBERMAKONDAGI TRANSFORMATSIYASI

Oybek Toxir o'g'li Berkinov – o'qituvchi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Maqolada kibermakonning zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga ta'siri tahlil qilinadi. Unda siyosiy sohada elektron hukumat va ijtimoiy tarmoqlarning fuqarolik ishtirokini kuchaytirishi bilan birga, dezinformatsiya xavflarini yuzaga keltirishi ko'rsatildi. Iqtisodiy sohada raqamli iqtisodiyot, fintech va kriptovalyutalar imkoniyatlari hamda kiberjinoyatlar xavfi tahlil qilindi. Madaniy sohada global madaniyatning homogenizatsiya jarayoni bilan birga milliy qadriyatlarni targ'ib qilish imkoniyatlari yoritildi. Shuningdek, raqamli tafovut va internetga qaramlik muammolari hamda kiberxavfsizlikning ijtimoiy ishonchni ta'minlashdagi ahamiyati asoslab berildi.

Аннотация. В статье анализируется влияние киберпространства на социальные отношения в современном обществе. Подчеркивается, что электронное правительство и социальные сети усиливают политическое участие, одновременно создавая риски дезинформации. В экономике рассматриваются возможности и вызовы цифровой экономики, финтеха и криптовалют, а также растущая угроза киберпреступности. В культурной сфере киберпространства способствует продвижению национальных ценностей, усиливая при этом культурную гомогенизацию. Кроме того, исследуются цифровое неравенство, проблемы интернет-зависимости и значение кибербезопасности как ключевого фактора поддержания социального доверия.

Abstract. The article analyzes the impact of cyberspace on social relations in modern society. It highlights how e-government and social networks enhance political participation while creating risks of disinformation. In the economy, opportunities and challenges of the digital economy, fintech, and cryptocurrencies are discussed, alongside the growing threat of cybercrime. In the cultural sphere, cyberspace promotes national values while intensifying cultural homogenization. The paper also examines the digital divide, issues of internet addiction, and the importance of cybersecurity as a key factor in maintaining social trust.

Kalit so'zlar: kibermakon, raqamli transformatsiya, siyosiy ishtirok, raqamli iqtisodiyot, fintech, kriptovalyuta, global madaniyat, milliy qadriyatlar, raqamli tafovut, shaxsiy ijtimoiylashuv, kiberjinoyat, kiberxavfsizlik.

Ключевые слова: киберпространство, цифровая трансформация, политическое участие, цифровая экономика, финтех, криптовалюта, глобальная культура, национальные ценности, цифровое неравенство, социальная социализация, киберпреступность, кибербезопасность.

Keywords. cyberspace, digital transformation, political participation, digital economy, fintech, cryptocurrency, global culture, national values, digital divide, personal socialization, cybercrime, cybersecurity.

XXI asr insoniyat tarixida texnologik rivojlanish eng yuqori bosqichga ko'tarilgan davr sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, raqamli platformalar va internet ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olib, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va shaxsiy munosabatlarini tubdan o'zgartirmoqda¹. Bu jarayon falsafiy nuqtai nazardan ham alohida qiziqish uyg'otadi, chunki kibermakon nafaqat

aloqa vositasi, balki yangi ontologik ijtimoiy makon sifatida shakllanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida davlat xizmatlarini raqamlashtirish, elektron hukumat tizimini kengaytirish va internet infratuzilmasini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan². Bu esa kibermakonni nafaqat

1 Margetts H., Dunleavy P. Digital Era Governance. – Oxford: Oxford University Press, 2006. – 326 p. – P. 97–105.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PQ-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" qarori. – URL: <https://lex.uz/docs/5030957>

global, balki milliy miqyosda ham ijtimoiy taraqqiyotning markaziy omiliga aylantirmoqda. Shu sababli, kibermakonning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini chuqur falsafiy tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Kibermakon fenomenini o'rganishda falsafiy tahlil usuli markaziy o'rin tutadi. Chunki kibermakon inson va texnologiya o'rtasidagi yangi munosabatlarni shakllantirib, jamiyatning ijtimoiy, axloqiy va ontologik poydevorini o'zgartirmoqda. Floridi ta'kidlaganidek, "inson endilikda faqat biologik mavjudot emas, balki axborotiy mavjudot sifatida ham mavjuddir"³. Bu qarash kibermakonni falsafiy jihatdan anglashning muhim kalitidir.

Kibermakon masalasining falsafiy ildizlari qadim davrlardan o'z kuzatilgan. Aristotel "siyosiy hayvon" sifatida insonning ijtimoiy tabiatini ta'kidlagan bo'lsa, Forobiy "Fozil shahar" asarida jamiyatning taraqqiyoti bilim va ma'naviyatga bog'liqligini ko'rsatgan. Zamonaviy davrda esa texnologiya inson va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangani uchun, ijtimoiy munosabatlarning raqamli transformatsiyasi masalasi alohida dolzarb bo'lib qoldi.

Habermasning kommunikativ harakat nazariyasi kibermakonni jamoaviy muloqot va demokratiya maydoni sifatida talqin qilish imkonini beradi⁴. Castellsning tarmoq jamiyati konsepsiyasi esa ijtimoiy munosabatlar endilikda axborot oqimlari orqali boshqarilishini ko'rsatadi⁵.

Shu bilan birga, O'zbekiston kontekstida ham kibermakon ijtimoiy hayotda tobora muhim rol o'ynamoqda. Masalan, "Mening fikrim" portali fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish uchun samarali maydon yaratmoqda. Bu holat kibermakonning nafaqat global, balki

milliy darajadagi ijtimoiy transformatsiyaga ta'sirini ko'rsatadi.

Kibermakonning ijtimoiy munosabatlardagi transformatsiyasi zamonaviy falsafaning markaziy muammolaridan biridir. U siyosiy jarayonlarni demokratlashtiradi, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiradi, madaniy almashinuvni jadallashtiradi va shaxsiy ijtimoiylashuvni yangi bosqichga olib chiqadi. Shu bilan birga, u siyosiy manipulyatsiya, iqtisodiy jinoyatlar, raqamli tafovut, identitet inqirozi va kiberxavfsizlik muammolarini ham yuzaga keltirmoqda. Demak, kibermakonni chuqur falsafiy tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega dolzarb vazifa hisoblanadi.

Kibermakon va uning ijtimoiy munosabatlarga ta'siri zamonaviy falsafa va ijtimoiy fanlarda eng muhim tadqiqot mavzularidan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar bu fenomenini turli nazariy yo'nalishlarda tahlil qilishgan: ba'zilar uni texnik vosita sifatida, boshqalari esa yangi ontologik va epistemologik makon sifatida ko'rishadi. Shu bois, adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida klassik g'oyalar, zamonaviy konsepsiyalar va milliy ilmiy ishlanmalar o'zaro qiyosiy yondashuvda o'rganilishi zarur.

Yevropa falsafasida kibermakon fenomeni ko'pincha kommunikatsiya nazariyalari, texnika falsafasi va ijtimoiy nazariya doirasida tahlil qilinadi. Habermasning "kommunikativ harakat nazariyasi"(1981) raqamli jamiyatni tushunishda muhim konseptual asos bo'lib xizmat qiladi. Uning fikricha, jamoaviy muloqot demokratiyaning negizi hisoblanadi va kibermakon aynan shu jarayonni yangi shaklda ifodalaydi⁶. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar fuqarolarni birlashtirib, ular uchun yangi "jamoat maydoni"ni yaratmoqda.

3 Floridi L. The Philosophy of Information. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 374 p. – P. 121–135.

4 Habermas J. Theorie des kommunikativen Handelns. – Frankfurt a.M.: Suhrkamp, 1981. – Bd. 1. – 532 s. – S. 112–120.

5 Castells M. Networks of Outrage and Hope: Social Movements in the Internet Age. – Cambridge: Polity Press, 2012. – 298 p. – P. 45–56.

6 Habermas J. Theorie des kommunikativen Handelns. – Frankfurt a.M.: Suhrkamp, 1981. – Bd. 1. – 532 s. – S. 112–120.

M.Castellsning "tarmoq jamiyati" haqidagi ishlari (1996-yildan boshlab) esa raqamli davrni tushuntirishda eng ko'p qo'llaniladigan nazariyalardan biridir. Unga ko'ra, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlar endilikda tarmoqlardagi axborot oqimlari orqali boshqariladi. Castells "tarmoqlar mantiqi"ni yangi ijtimoiy tuzumning asosi sifatida talqin qiladi.

L. Floridi esa kibermakonga falsafiy-metodologik yondashuvni ishlab chiqqan. Uning "infosfera" va "inforg" tushunchalari insonni faqat biologik mavjudot emas, balki axborotiy mavjudot sifatida ko'rib chiqishga asos bo'ldi⁷. Bu konsepsiya, ayniqsa, raqamli iqtisodiyot, shaxsiy ijtimoiylashuv va kiberxavfsizlik masalalarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Heideggerning texnologiya haqidagi falsafiy qarashlari ham dolzarb. Uning "Gestell" tushunchasi texnologiya inson tafakkurini qanday qilib "freym" yoki "ramka" sifatida belgilashini anglatadi. Bu nazariya kibermakonni inson tafakkurini cheklovchi yoki kengaytiruvchi ontologik makon sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Sharq falsafasi kibermakon fenomenini bevosita muhokama qilmagan bo'lsa-da, uning asosiy g'oyalari bugungi kunda muhim talqin imkonini beradi. Masalan, Forobiyning "Fozil shahar" haqidagi konsepsiyasi ijtimoiy tartib va bilimning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ko'rsatadi. Agar Forobiy zamonaviy kibermakonni ko'rganida, ehtimol uni "raqamli fozil shahar" sifatida tasavvur qilgan bo'lar edi – unda bilim, adolat va axloqiy qadriyatlar raqamli platformalar orqali jamiyatga yoyiladi.

Ibn Sinoning bilim nazariyasi ham kibermakonni tushunishda muhim. U inson

idrokining bosqichlari haqida gapirar ekan, ongning tashqi omillar orqali boyishini ta'kidlagan. Zamonaviy sharoitda bu tashqi omillar internet va sun'iy intellektidir.

Beruniy va Ibn Xaldun kabi mutafakkirlar esa jamiyat va taraqqiyot masalalarini keng falsafiy doirada o'rganishgan. Ibn Xaldunning ijtimoiy dinamikaga oid g'oyalari kibermakon orqali yuzaga kelayotgan "yangi sivilizatsiya dinamikasi"ni tushuntirishda qo'llanilishi mumkin.

O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi⁸, shuningdek, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun⁹ kabi huquqiy hujjatlar mamlakatda kibermakonni tartibga solishning huquqiy asoslarini yaratmoqda. Bu hujjatlar ham falsafiy tahlilda alohida o'rin tutadi, chunki ular texnologiya va jamiyat munosabatini huquqiy darajada belgilaydi.

Kibermakonning ijtimoiy munosabatlarga ko'rsatgan ta'siri turli yo'nalishlarda keng falsafiy va amaliy tahlil qilish mumkin. Siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy tengsizlik, shaxsiy hayot va kiberxavfsizlik sohalaridagi o'zgarishlar alohida ko'rib chiqamiz.

Siyosiy munosabatlarning kibermakondagi transformatsiyasi. XXI asr siyosiy jarayonlari tobora kibermakon bilan bog'lanib bormoqda. An'anaviy institutlar o'rnini asta-sekin elektron hukumat, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar egallamoqda. Estoniya modelida davlat xizmatlarining 99 foizi raqamlashtirilgan bo'lsa¹⁰, O'zbekistonda ham "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida yuzlab xizmatlar onlayn shaklga o'tkazildi¹¹. Bu davlat va fuqarolar o'rtasidagi

7 Floridi L. The Philosophy of Information. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 374 p. – P. 121–135.

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PQ-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" qarori. – URL: <https://lex.uz/docs/5030957>

9 O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 2-iyul. – URL: <https://lex.uz/docs/4396428>

10 Margetts H., Dunleavy P. Digital Era Governance. – Oxford: Oxford University Press, 2006. – 326 p. – P. 97–105.

11 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PQ-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" qarori. – URL: <https://lex.uz/docs/5030957>

munosabatlarni shaffoflashtirib, Habermasning "kommunikativ harakat nazariyasi"ni amalda tasdiqlaydi¹². Ijtimoiy tarmoqlar yangi "jamoat maydoni" sifatida fuqarolik ishtirokini kengaytirmoqda. Arab bahori voqealari yoki O'zbekistondagi "Mening fikrim" portali bunga yorqin misol bo'ldi. Shu bilan birga, dezinformatsiya, "fake news" va "deepfake" texnologiyalari siyosiy manipulyatsiya xavfini kuchaytirib, demokratiyaga putur yetkazmoqda¹³. Shunday qilib, kibermakon siyosiy erkinlikni kengaytiruvchi vosita bo'lishi bilan birga, nazorat va manipulyatsiya maydoniga ham aylanishi mumkin.

Iqtisodiy munosabatlarning kibermakondagi transformatsiyasi. Don Tapscott ta'riflagan "raqamli iqtisodiyot" konsepsiyasi bugungi iqtisodiy jarayonlarni to'liq ifodalaydi. Google, Meta va boshqa IT-giantlar iqtisodiy kapitalni axborot oqimlari asosida shakllantirmoqda. O'zbekistonda Uzum Market va boshqa platformalarning kengayishi mahalliy savdo va iste'mol odatlarini tubdan o'zgartirdi.

Fintech xizmatlari – Payme, Click va boshqa tizimlar moliyaviy inklyuziyani kengaytirmoqda. Bu jarayon moliyaviy demokratlashuvni ta'minlasa-da, xavfsizlik muammolarini ham keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, 2009-yilda S.Nakamoto tomonidan yaratilgan Bitcoin va boshqa kriptovalyutalar¹⁴ iqtisodiy munosabatlarning yangi shaklini yuzaga keltirdi. O'zbekistonda "Kripto-aktivlar markazi" tashkil etilgani¹⁵ bu sohada huquqiy tartibga solish zarurligini ko'rsatadi.

Interpol ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda kiberjinoyatlar 6 trillion dollardan ortiq zarar yetkazgan¹⁶. O'zbekistonda esa 2023-yilda 4000 dan ortiq kiberjinoyat qayd etilgan¹⁷. Bu shuni ko'rsatadiki, kibermakon iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish bilan birga, xavfli jinoyatlar maydoniga ham aylanmoqda.

Madaniy munosabatlarning kibermakondagi transformatsiyasi. Kibermakon madaniyatni global va mahalliy darajada tubdan o'zgartirdi. YouTube, Netflix va K-pop fenomenlari global madaniyatni tez tarqatmoqda¹⁸. Bu jarayon yoshlar orasida gibrid identitetni shakllantirib, milliy va global qadriyatlarni o'zaro qo'shib yuboradi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda "Madaniy meros" portali, elektron kutubxonalar va virtual muzeylar milliy qadriyatlarni dunyoga targ'ib qilmoqda¹⁹. Floridi nazariyasiga ko'ra, milliy meros endi infosferaning bir qismi sifatida mavjud. Biroq, Ritzerning "Makdonaldlashuv" konsepsiyasi²⁰ madaniy homogenizatsiya xavfini ochib beradi. Kibermakon "parallel ontologik dunyo" sifatida shaxsiy ifodalanish imkoniyati kengaysa-da, identitet fragmentatsiyasiga olib kelishini mumkin.

Raqamli tafovut va ijtimoiy tengsizlik. Raqamli tafovut internet va AKT'dan foydalanish imkoniyatlaridagi tengsizlikni ifodalaydi²¹. ITU hisobotlariga ko'ra, dunyo aholining 66 foizi internetdan foydalansa-da, Afrikada bu ko'rsatkich 40 foizdan oshmagan²². Norris va Van Dijk bu tafovutni uch darajada izohlaydi: kirish,

12 Habermas J. Theorie des kommunikativen Handelns. – Frankfurt a.M.: Suhrkamp, 1981. – Bd. 1. – 532 s. – S. 112–120.

13 Howard P., Kollanyi B. Computational Propaganda Worldwide. – Oxford: Oxford Internet Institute, 2017. – 36 p. – P. 11–18.

14 Nakamoto S. Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System. – 2009. – URL: <https://bitcoin.org/bitcoin.pdf>

15 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PQ-228-son qarori. – URL: <https://lex.uz/docs/5960591>

16 Interpol. Cybercrime Report 2022. – Lyon: Interpol Publishing, 2022. – 146 p. – P. 25–32.

17 O'zbekiston Respublikasi IIV statistik ma'lumotlari, 2023-yil. – URL: <https://iiv.uz>

18 Howard K. Korean Pop Music: Riding the Wave. – Kent: Kent State University Press, 2006. – 212 p. – P. 77–85.

19 UNESCO. The Digital Preservation of Cultural Heritage. – Paris: UNESCO Publishing, 2015. – 214 p. – P. 101–109.

20 Ritzer G. The McDonaldisation of Society. – Thousand Oaks: Pine Forge Press, 1993. – 312 p. – P. 155–163.

21 Van Dijk J. The Deepening Divide: Inequality in the Information Society. – London: Sage, 2005. – 312 p. – P. 45–52.

22 International Telecommunication Union (ITU). Measuring Digital Development 2022. – Geneva: ITU, 2022. – 158 p. – P. 33–41.

foydalanish va natija darajasi²³.

O'zbekistonda qishloq va shahar hududlari o'rtasida sezilarli tafovut mavjud. Davlat infratuzilmani rivojlantirish orqali bu farqni kamaytirishga harakat qilmoqda²⁴. Biroq, raqamli savodxonlik yetishmasa, texnologik imkoniyatlardan foydalanish samarasi past bo'lib qoladi. Avvalgi tadqiqotlarimizda raqamli tafovut insonni jamiyatning "axborotiy qatlamlari" dan chetda qoldiradi, degan fikrni ilgari surganmiz²⁵. Falsafiy nuqtai nazardan, bu masala erkinlik va adolat bilan bevosita bog'liqdir: Rols nazariyasiga ko'ra, jamiyat barcha a'zolariga teng imkoniyat yaratishi shart.

Shaxsiy munosabatlar va ijtimoiylashuv. Kibermakon shaxsiy muloqot va ijtimoiylashuv jarayonini ham tubdan o'zgartirdi. Virtual muloqot vaqt va makon chegaralarini qisqartirib, aloqalarni tezlashtirdi²⁶. Boydning tadqiqotlariga ko'ra, yoshlar endi ijtimoiy tarmoqlar orqali dunyoqarash va qadriyatlarini shakllantirmoqda²⁷.

Ammo, bu jarayon internetga qaramlik va identitet inqirozi kabi muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda²⁸. Berkinovning "Kibermakonda o'ziga xos tahdidlar" maqolasida ta'kidlanishicha, yoshlar virtual muhitdagi mafkuraviy manipulyatsiyalarga ham ochiq bo'lib qolmoqda²⁹. Floridi nazariyasida esa insonning identiteti endilikda ikki qatlamli – real va virtual – sifatida shakllanadi.

Shunday qilib, kibermakon ijtimoiylashuvni kengaytiruvchi, lekin bir vaqtning o'zida shaxsiy o'zlikni fragmentlashtiruvchi maydon bo'lib

xizmat qilmoqda.

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasi nafaqat huquqiy, balki falsafiy muammo hamdir. GDPR qonuni yoki O'zbekistonning 2019-yilda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni bu yo'lda muhim qadam bo'lsa-da, foydalanuvchilarning ongli munosabatisiz samarali bo'la olmaydi³⁰.

Floridining "infosfera" konsepsiyasiga ko'ra, ma'lumotlarni himoya qilish shaxsning o'zligini himoya qilish bilan teng. Kibermakonni inson mavjudligining yangi shakli sifatida talqin qilib, unda ishonch kategoriyasini alohida ajratish mumkin. Shu sababli, kiberxavfsizlik nafaqat texnik, balki ijtimoiy ishonchning falsafiy kategoriyasiga aylanmoqda.

Mazkur tadqiqot natijalari kibermakonning ijtimoiy munosabatlar transformatsiyasidagi o'rne va ahamiyatini keng yoritib berdi. U turli sohalarida ijobiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, dolzarb muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda.

Birinchidan, kibermakon siyosiy jarayonlarda elektron hukumat va fuqarolik ishtirokini kuchaytirib, demokratik institutlarning faoliyatini yanada shaffoflashtirmoqda.

Ikkinchidan, iqtisodiy sohada raqamli iqtisodiyot, fintech va kriptovalyutalar yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda, biroq kiberjinoyatlar iqtisodiy barqarorlikka xavf tug'dirmoqda.

Uchinchidan, madaniy maydonda kibermakon global qadriyatlarni tez tarqatib, milliy merosni targ'ib qilish uchun imkon yaratmoqda, shu bilan

23 Norris P. Digital Divide. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 303 p. – P. 173–180.

24 O'zbekiston Respublikasi "AKTni rivojlantirish konsepsiyasi". – URL: <https://lex.uz/docs/5740376>

25 Berkinov O. Kiberjamiyatning paydo bo'lishi bilan bog'liq muammolarning ijtimoiy falsafiy tahlili. // BERDAQ atundagi Qaraqalpaq mámleketlik universitetiniñ xabarshısı. – 2025. – №3. – P. 246–248.

26 Walther J. B. Computer-Mediated Communication. // Communication Research. – 1996. – Vol. 23(1). – P. 3–43.

27 Boyd D. It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens. – New Haven: Yale University Press, 2014. – 296 p. – P. 77–85.

28 Young K. Internet Addiction. // CyberPsychology & Behavior. – 1998. – Vol. 1(3). – P. 237–244.

29 Berkinov O. Kibermakonda mavjud o'ziga xos tahdidlar // Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – No3. – 103–106–betlar.

30 Von Solms R., Van Niekerk J. From Information Security to Cyber Security. // Computers & Security. – 2013. – Vol. 38. – P. 97–102.

birga madaniy homogenizatsiya xavfini ham kuchaytirmoqda.

To'rtinchidan, raqamli tafovut ijtimoiy tengsizlikning yangi ko'rinishi sifatida namoyon bo'lib, uni kamaytirish "O'zbekistonni rivojlantirishning taraqqiyot strategiyasi – 2030"ning ustuvor vazifalaridan biridir.

Beshinchidan, shaxsiy munosabatlarda kibermakon yoshlarning ijtimoiylashuvi va identitetini qayta shakllantirmoqda, ammo internetga qaramlik va axboriy manipulyatsiya xavflari mavjud.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, kibermakon jamiyat taraqqiyoti uchun ulkan imkoniyat manbai bo'lishi bilan birga, falsafiy va amaliy nazoratni talab qiluvchi murakkab hodisadir. Uni milliy qadriyatlar va taraqqiyot strategiyalari bilan uyg'unlashtirish O'zbekistonning barqaror kelajagi uchun zarurdir.

FILOLOGIYA FANLARI

MODERN UZBEK NOVEL: DEVELOPMENT TRENDS

Zulfiya Juraevna Pardaeva – Doctor of Philology,
Professor, Jizzakh State Pedagogical University

Abstract. This article examines the development trends of the modern Uzbek novel. On the example of the novels "Fields left by my father," "You cannot die in this world" by T. Murad, "The Beast" by Sh. Kholmiraev, "Lives Passed in a Dream" by U. Khashimov, "Fotima and Zuhra" by U. Umarbekov, "On all four sides," "Square" by O. Mukhtar, "Bazar," "Sage Sisyphus" by H. Dustmukhammad and others, genre-style contamination in the genre of the Uzbek novel was studied.

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek romanining rivojlanish tendentsiyalari ko'rib chiqiladi. T. Murodning "Otamdan qolgan dalalar," "Bu dunyoda o'lmaysiz," Sh. Xolmirzaevning "Yirtqich," U. Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar," U. Umarbekovning "Fotima va Zuhra," O. Muxtorning "To'rt tarafd," "Maydon," S. S. Do'st Muhammad va boshqalar, o'zbek romani janridagi janr uslubidagi ifloslanish o'rganildi.

Аннотация. В статье рассматриваются тенденции развития современного узбекского романа. На примере романов «Поля, оставленные отцом», «Нельзя умереть на этом свете» Т. Мурада, «Зверь» Ш. Холмирзаева, «Жизни, прошедшие во сне» У. Хашимова, «Фотима и Зухра» У. Умарбекова, «На все четыре стороны», «Квадрат» О. Мухтара, «Базар», «Мудрец Сизиф» Х. Дустмухаммада и других исследована жанрово-стилевая контаминация в жанре узбекского романа.

Keywords: uzbek novel, genre, romanization, genre-style contamination.

Kalit so'zlar: o'zbek romani, janri, romanizatsiya, janr uslubidagi ifloslanish.

Ключевые слова: узбекский роман, жанр, романизация, жанрово-стилевая контаминация.

The Uzbek novel has passed a century-long path of its development. In the history of Uzbek literature, the 20th century is distinguished by the emergence and formation of the leading genre of the novel.

Despite the significant temporal distance between Uzbek novelism and the centuries-old experience of the genre of the novel, the evolution of the Uzbek novel is clearly traced on the threshold of the 21st century in European and Russian literature. This is evidenced by the stylistic searches of the writers of the 80-90s. Especially in the last decade (which it is appropriate to call the Renaissance period), Uzbek novelism has been clearly renewed in genre and style.

With an analytical look at the history of the Uzbek novel of the 20th century, the conclusions of the literary critic A. Rakhimov "... the history of literature is high aesthetic ideals and artistic ideas,

complex human experiences and characters, as well as original images - achievements on the path of true art and the history of falls; the history of literature is the search for various artistic methods on the way of depicting real life, the literary movement and the leading trends that determine the development and essence of aesthetic thinking, and the basic laws of history" - serve as confirmation of the essence of the Uzbek novel¹.

The origin of the genre of the novel in Uzbek literature dates back to the mid-20s of the last century. Noting the impact on the formation of the national novel of the lyro-epic forms of national folklore, the classical heritage of A. Navoi, Russian, European, Arabian romance, we came to the conclusion that there would be no such heritage, then Uzbek novelism in the shortest possible time could not rise to high level.

"The Days Gone" by A. Kadiri is the founder

1 Mukhtar A. "One thousand and one outfits". - T., Shark, 1994. - p. 77.

of the first Uzbek national novel. Artistically embodying the light love between Otabek and Kumushbib, the writer at the same time describes family problems that, in the course of the development of the plot, lead us into social intrigues. Against the background of the artistic panorama, the historical picture of the era of Khudoyarkhan's rule, the socio-political reality of Kokand and Margilan are revealed.

The novel "Scorpio from the Altar" presented its author as a mature novelist, showing how significant, significant changes take place in the worldview of the writer and his creative method, how the individual creative evolution of the writer takes place.

Following A.Kadiri, the galaxy of Uzbek writers was replenished with new names of novelists who renewed the genre of the novel with stylistic varieties².

From the history of the Uzbek novel of the 20th century, from the roots of such traditional novels as "Days bygone", "Scorpio from the Altar", "Navoi", "Starry Nights", such novels of an unconventional genre as "Fields Left by Father", "In this world you can't die" by T.Murad, "The Monster" by Sh., "Sage Sisyphus" H.Dustmukhammad and others. The appearance of such an unconventional genre of the novel in Uzbek literature had its own objective and subjective reasons. This can be seen from the following:

- transition problems are inherent not only to the economy and politics of the country, they are also inherent in the aesthetics, spirituality of society, its culture and education. Since the genre of the novel is a reflection of the artistic and aesthetic thinking of society;

- controversy and discussion about the genre

of the novel especially intensified during the years of Independence. It must be admitted that these discussions, conducted from different points of view, are not only about the genre of the novel, but also about the fact that all literary studies need reforms. Reflections of literary critics and writers about the new Uzbek novel show that writers need to work on the problems of poetics of a literary text;

The period of national independence gave writers freedom of creativity, awakened thinking from hibernation, and this emerging thinking fulfills the historically artistic and aesthetic tasks of society, and serves as a recognition of the need to create a number of both traditional and non-traditional genres of the novel.

If in the twentieth century Uzbek writers created more than 200 novels, then the 70–80s were one of the most fruitful periods in the development of the novel form. Also fruitful was the next stage of the novel genre, which went down in the history of Uzbek literature under the title "Romance of the period of Independence". This period was a period of creative searches. Figuratively speaking, the genres and styles of the novel were carefully probed, from modernism to avant-garde. More than 100 novels updated Uzbek novels in genre and style³.

Based on the scientific doctrine of M.Bakhtin that "the novel is the only emerging genre" we can understand the thorny path of the emerging genre of the Uzbek novel⁴.

The policy of totalitarianism, the domination of the method of "socialist realism" in artistic creation gave rise to many "mass" novels and the bitter truth is that the habit of such creativity can change society; After all, the novel not only reflects the level of artistic and aesthetic thinking of society, but also shapes this thinking, this

2 Pardayeva Z. Abdullah Qadiri's School of creativity // Тафаккур зиёси. – p. 19

3 Rasulov A. History, philosophy, novel./ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/abdugafur-rasulov-tarix-falsafa-roman/> 16.07.

4 Bakhtin M.M. Literary critical articles. – M; Fiction, 1986. – p. 17

influence can logically be positive and negative, because this "mass" can dull artistic and aesthetic thinking, and shows the level of our development. The chronicles of the novels of this period are: "Fields left by the father", "You cannot die in this world" by T.Murad, "The Beast" by Sh., "On all four sides", "Square" by O.Mukhtar, "Bazaar", "Sage Sisypheus" by H.Dustmukhammad, "The enclosed moon" by Sh.Butaev, "Game of butterflies" by T.Rustam, "Equilibrium", "Revolt and humility", "Sabo and Samandar" by Ulugbek Hamdam, "Ozod", "The Geneticist", "Eternal Wanderer of Isajon Sultan", there are dozens of such novels, naturally, they also differ both in style and trend. In this respect, the novels of the representatives of the Uzbek "female prose" should be mentioned. Salomata Vafo "The Life of Ovora", Jamila Ergasheva "Woman on the Hill", Zulfiya Kuralboy Kizi "Prisoner of Sorrow", "In the Abyss of Heavy"⁵.

The artistic embodiment of paintings that are important for the historical fate of mankind, reflecting its cultural and moral level, serves to increase the ideological and artistic value of the novel. Writers writing in the traditional genre of the novel also employ non-traditional styles, even synthesis of thinking, a process that has a large impact on the genre's rationale. Naturally, both traditional and non-traditional novels correspond to genre compositions, the idea of the novel and the artistic components are considered the main factors of the genre of the novel. It should be noted that some independent trends in the dynamics of the genre during the period of literature renewal may become a tendency for a new direction in the genre. From the history of the novel, we know how in the works of F.M.Dostoevsky's psychological analysis was one of the artistic components of the polyphonic novel; at the beginning of the 20th century, the polyphonic display of human

consciousness and subconsciousness gave rise to modernist art. Analysis of the genre of the updated novel of the period of national independence shows that the method of complex synthesis used by talented writers is also present in the Uzbek novel. This can be seen both in the composition and in the style of Togai Murod's novel *Fields Left by Father*. It synthesizes such styles as lyric prose, free epic prose and saj⁶.

In the center of the novel "Fields Left by Father" is an artistic reflection of the life of "robotic mechanisms", which unquestioningly carry out the "program" of the existing system in the era of colonial politics. The heroes of Togai Murad outwardly approve of the policy of this system, but in their hearts they do not support it, a feeling of struggle, love for the Earth-mother prevails in them.

The parody and irony used by the writer to create the image of Dehkonkul and the artistic display of the environment are aimed not only at the image of Dehkonkul and the artistic display of the environment, but also at the era and politics of that time. The sharpness of the eyes and the insight of the writer's soul is evidenced by the detail of the events in the novel, which are also given a high artistry.

The novel "Fields Left by Father" depicts the most painful points of the national tragedy - the usual poor life for everyone, the miserable fate of a hardworking Uzbek farmer, child labor in the colonial regime. The writer gives them life, and this life inspires spirit. The idea of struggle, introduced by Togai Murad in the novel, is the idea of realizing oneself, the essence of a nation, which for 130 years the despotic system could not break. It is this awareness of one's "I", of one's essence that is the main theme of the novel and, at the same time, the concept of the writer himself⁷.

5 Pardaeva Z. Poetics of the Uzbek Novel. - Germany. "LAMBERT", 2022. - p. 24.

6 Murod T. *Fields left by my father*. - T., Shark, 1994. - 270 p.

7 Pardaeva Z. Poetics of the Uzbek Novel. - Germany. "LAMBERT", 2022. - p. 128.

Each form of the method used in the novel (creating images, plotting, displaying methods, functions of an internal monologue and dialogue, describing a landscape, etc.) serves the most complete implementation of the author's concept. Thus, the goal and the idea adopted in the novel for interpretation are realized.

Especially it is necessary to note the artistic style of the writer, which is distinguished by its originality and individuality. Analyzing the style of the novel, one can trace how T.Murad used the "saj" style, which is widely used in folk tales of rhymed prose. It should be noted that in the novel "Fields Left by Father" the novel word is not only rhymed, but every phenomenon described is framed by feeling.

From the very first lines to the last page, the novel is covered with one mood – the spirit of freedom. Framing the plot of the novel, the same mood with the development of the action expands and generalizes to a large symbolic meaning, which grew from the spirit of freedom into the idea of struggle. This is precisely the novel's rebellious lyricism. The appeal to the style of lyric prose of T.Murad and its artistic development in the socio-philosophical novel "The Fields Left by the Father" shows how the dynamism of the contamination of the novel occurs in the Uzbek novelism based on the world experience of literature, at the origins of which were M.Bulgakova, E.Hemingway, K.Paustovsky⁸.

V.Dneprov considers the writers' appeal to lyric prose "as a legitimate direction of a modern novel". Therefore, T.Murad's appeal to "saju" is not a simplification of the novel style for the purpose of mass literature.

"Poetisation" in the novel takes place on a different plane. Poetising feelings and moods, the writer penetrates deeper into the psychology of the heroes. The poeticized novel word expressing

a certain "plot of the phenomenon" puts forward the "plot of mood" as a concept.

One of the poeticized features of the novel is symbolism. The symbolism of the artistic image in the novel is directed towards the future, towards our time – the time of Independence. She does not express a depressive mood, but on the contrary, she sharpens her gaze to freedom, Independence.

"The people surrounded the land soaked in their father's blood with a duval. On the land where their father gave up his ghost, the people planted a white flag. People, passing by the grave of Akrab, who died for the national liberation of the people, stopped each time.

When people stopped each time, they read a prayer for Akrab, who died for the national liberation of the people"⁹.

The writer knows how to show the big in small and in every phrase so much unsaid, in every unsaid, incomplete thought lies the burning human mind of the truth. It is inaccessible to the heroes of the novel as that part of an unspeakable thought. To realize it, you need to strive for it, you need to fight for it, even if you need to give your life. This unsaid is liberation from bondage, this is the independence of the nation.

Therefore, the land that is saturated with the blood of the father is sacred, because it is saturated with the blood of a person who died for the freedom of his people. Therefore, the people surrounded this part of the land with a duval so that no one would step on it, and a white flag was erected on it – a symbol of the sacredness of Muslims.

Analysis and synthesis of the novels of Aman Mukhtar "The Man in Front of the Mirror", "The Square" show that in the composition of these novels, in contrast to the interpretation of reality,

⁸ Pardaeva Z. Poetics of the Uzbek Novel. – Germany. "LAMBERT", 2022. – p. 117.

⁹ Pardaeva Z. Poetics of the Uzbek Novel. – Germany. "LAMBERT", 2022. – p. 145.

the existing realistic and romantic relationships prevail. There is also a synthesis of psychological-philosophical, adventure-detective and lyric-epic artistic components. As you can see, the dynamics of the development of the conditionally symbolic style of the novel "Chinara" by Askad Mukhtar shows that it can turn into one of the main style-forming components of the Uzbek novel.

Speaking about the Uzbek novel, about its genre development and related problems, we should note the influence of Western and Russian novels. In the process of gradual literary improvement of the Uzbek novel, the influence and impact of the poetics of modernism, polyphonic interpretation is traced, a departure from naturalism is derived from internal genre laws through evolutionary development and is brought into action through artistic reform, denial and affirmation. A Western philosopher or a lover of novels who enjoyed the blessings of Eastern philosophy, observing the world and the essence of human tragedy, or a Western modernist writer who considers the height of human achievement to be the image of Africa as a symbol of chaos in the literature of European modernism, it is natural that Uzbek writers turn to Western artistic aesthetics. It should be noted that in most cases literary imitation of modernism or polyphonic interpretation causes dissatisfaction. It should be noted that the dynamics of the literary process is organically linked with the development of society. Artistic genetics is a specific feature of the novel genre, it always keeps up with the times and reforms. The presence of the modernist style in Uzbek novels does not mean that the Uzbek novel is being modernized.

We will not be mistaken in saying that the Uzbek novel goes through a consistent dynamic of artistic research, discoveries and achievements.

The protagonist in "Butterfly Games" Badal Arman under the influence of retrospection in the minds of catharsis¹⁰. It is known that the term "catharsis" in the teachings of Aristotle was used in the sense of "purification". With the help of catharsis, the heroes of the modernist novel comprehend their life path, and through mental torment they are purified. It is for this reason that catharsis, as the main artistic component, appeared in the novels of modernism.

The emotional suffering of Badal Arman begins to haunt the reader. The novel is not an interpretation of a single idea, there is a whole bunch of ideas, but you are still thinking that the analysis of Badal Arman's memories is a knot of events, that they all come together. Included in the novel, analyzed reality, lies the drama of man.

The source of the novel by T. Rustam "The Game of Butterflies", written in a modernist style, is real life, the essence of polyphony, based on a philosophical understanding of life and time, is artistically interpreted by the writer using psychological analysis¹¹.

The main significance of the novel "The Game of Butterflies" lies in the fact that it was through this novel that Uzbek novelism in an unconventional genre came closest to the style of modernism¹².

All this speaks of the creative searches of Uzbek writers who are striving to overcome in their creative psychology the manner of "social approach to what is displayed" in order to revive the genre of the novel in Uzbek literature as well. This shows the absurdity of the claims about the withering away of the novel genre.

As you can see, Uzbek novels that combine the literary and artistic traditions of the world art of the word have gone through a period of renewal in the artistic interpretation of the national spirit. It is possible to trace the influence of Eastern and European literature on the stylization of the genre in Uzbek novelism.

10 Tukhtamurod Rustam. The Game of Butterflies. – T., 1998. – 240 p.

11 Tukhtamurod Rustam. The Game of Butterflies. – T., 1998. – 240 p.

12 Rasulov A. History, philosophy, novel. / <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/abdugafur-rasulov-tarix-falsafa-roman/> 16.07.2014 – 172 p.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA TIL: LINGVISTIK MUAMMO SIFATIDA

Otabek Jo'raboyevich Xidirov – f.f.b.f.d. (PhD),
dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot texnologiyalari tushunchalari va til o'rtasidagi o'zaro ta'sir hamda ularda uchraydigan lingvistik muammolar va ularning kelib chiqish sabablari tahlilga tortilgan.

Аннотация. В этой статье были проанализированы концепции информационных технологий и взаимодействия между языком и языковыми проблемами и причинами их появления.

Abstract. This article analyzes the interaction between the concepts of information technology and language, as well as the linguistic issues that arise within this context and the causes of their emergence.

Kalit so'zlar: axborot, texnologiya, til, lingvistika, tilshunoslik, muammo, tushuncha, atama, elektron pochta, login, platforma.

Ключевые слова: информация, технология, язык, лингвистика, проблемы, концепция, термины, электронная почта, вход, платформа.

Keywords: information, technology, language, linguistics, problems, concepts, terms, e-mail, log-in, platform.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari deputatlariga 2020-yil 25-yanvar kuni yo'llagan Murojaatnomasida shunday ta'kidlaydi: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda"¹.

Zamonaviy dunyoda insoniyat hayotini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Turli rusumdagi texnologiyalar ko'payib boraverarkan, ularning nomlari ham turlicha keltirilganligini kuzatish mumkin. Bunday nomlarning o'zbek tilidagi muqobilini topish eng asosiy vazifalardan biri. Shunday ekan bugungi kunga kelib axborot texnologiyalari va til o'rtasida bog'liqlik kundan kunga ortib bormoqda. Ularning ekvivalent va muqobillarini topish lingvistik muammo sifatida tilshunoslikka kirib kelmoqda.

Axborot texnologiyalarining (AT) jadal rivojlanishi XXI asr jamiyatining deyarli barcha sohalariga, ayniqsa, til va tilshunoslikka katta ta'sir ko'rsatmoqda. Internet texnologiyalari, mobil ilovalar, avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari kabi vositalar nafaqat yangi kommunikatsiya shakllarini balki, yangi leksik birliklar, sintaktik konstruksiyalar va stilistik yo'nalishlarni ham shakllantirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, turli ilmiy maqolalarni tahlil qilish jarayonida axborot oqimi sezilarli darajada kirib kelayotganligini kuzatish mumkin. Ulardagi ma'lumotlarni saqlash, taqdim etish, formallashtirish va tartibga solish hamda qayta ishlashning yangi usullarini izlash zarurati yuzaga kelmoqda. Shu sababdan turli amaliy maqsadlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan keng qamrovli bilim bazalariga qiziqish ortib bormoqda. Bunday sabablarni inobatga olgan axborot texnologiyalari orqali kirib keladigan tilni o'zlashtirish barcha yoshdagi insoniyat zimmasiga tushmoqda. Bu esa o'z navbatida lingvistik muammolarni keltirmoqda.

1 <https://pm.gov.uz/oz/lists/view/679>

Axborot texnologiyalari tushunchalari zamonaviy tilshunoslik va axborot texnologiyalarining kesishgan nuqtasida muhim o'rinni egallaydi. Mazkur texnologiyalarning jadal rivojlanishi insoniyat tiliga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda. Tilshunoslikda yangi tarmoqlar kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi va sun'iy intellekt yordamida tilni qayta ishlash masalasi tilshunoslar oldida paydo bo'ldi. Bunday o'zgarishlar nafaqat ilmiy, balki amaliy muammolarni, ya'ni tarjima tizimlari, avtomatik nutqni tanish, tilshunoslarga oid dasturlar yaratish kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda mobil qurilmalar, kompyuter texnologiyalari uchun yaratilayotgan dasturlarni tahlil qilar ekanmiz, tarjima qilingan yangi atamalar, iboralar va kommunikatsiya uslublari o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri, to'siqlarsiz kirib kelmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, tilning boyishiga xizmat qilsa-da, boshqa tomondan, lingvistik muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Atamalarni optimal holatga keltirish, foydalanuvchi interfeys tillarining sifatsiz tarjimasini, fonetik va sintaktik muvofiqlik masalalari tilshunoslar tomonidan yechiladigan asosiy muammolardan sanaladi. Ayniqsa, AT bilan bog'liq tushunchalarning o'zbek tilida yagona va izchil shakllarda qo'llanilmasligi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Axborot texnologiyalari va til o'rtasidagi o'zaro ta'sirlari natijasida yuzaga kelgan lingvistik muammolar va ularning yechimlarini ko'rsatish nafaqat tilshunoslar, balki o'zbek tili uchun mas'ul bo'lgan barcha fuqarolarning vazifasidir.

Axborot texnologiyalarining jadal sur'atda rivojlanishi, eng avvalo, insonlar o'rtasidagi muloqot shaklini o'zgartirdi. Dastlab, elektron pochta, so'ngra turli xil fikr almashishga yordam beradigan ochiq forumlar, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va sun'iy intellekt asosida yaratilayotgan yordamchi dasturlar kommunikatsiyaning yangi ko'rinishlarini

yuzaga keltirdi. Bu esa tilga ham strukturaviy, ham funksional jihatdan ta'sir ko'rsatdi. Insoniyat tomonidan foydalaniladigan tabiiy til sun'iy raqamli muhitga moslashgan holda, yangi leksik, morfologik va pragmatik elementlarni o'zlashtira boshladi.

O'zbekistonda XXI asr boshlarida AKT tushunchalarining jadal kirib kelayotganligini hisobga olgan holda Birlashgan millatlar tashkilotining Taraqqiyot dasturi va Respublikamiz hukumati orasidagi qo'shma "Raqamli rivojlanish tashabbusi" dasturi tomonidan kompyuterlashtirishni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash hamda O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi bilan hamkorlikda izohli lug'at ishlab chiqildi. Lug'at O'zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ommaviylashishi uchun xizmat qilishga mo'ljallangan. "AKT izohli lug'ati" axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga oid 3000 dan ortiq atama va tushunchalar uchun ta'rif va izohlarni hamda ushbu sohada ishlatiladigan juda ko'p qo'shimcha ma'lumotlarni ilovalar shaklida o'zida mujassamlashtirgan. Ushbu lug'atning ikkinchi nashri 2014-yilda chiqarilgan.

Ta'rifi keltirilgan mazkur lug'at AKT terminlarining o'zbek tiliga kirib kelishi uchun asos bo'lgan dastlabki manba bo'lib xizmat qilishiga qaramasdan, 2004 va 2014-yillarda nashrdan chiqarilganligini bu davrda yurtimizda faqatgina eski Pentium III va IV rusumli kompyuterlardan foydalanilganligi, mobil qurilmalarning android operatsion tizimi ommalashmaganligi, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlarning hayotga kirib kelmaganligini, eng asosiysi, sun'iy intellekt texnologiyalarining kirib kelmaganligini hisobga oladigan bo'lsak, AKT tushunchalari ustida oradan qayta ishlanishga ehtiyoj 10 va 20 yildan ortiq vaqt o'tib yana paydo bo'lgan.

Bu sohada ilmiy va amaliy ishlarni yuritayotgan jahon va yurtimiz tilshunos olimlari ko'pchilikni tashkil qiladi. AT terminologiyasi va tarjimasini bilan shug'ullanayotgan xorijiy olimlar asosan kompyuter lingvistikasi, texnik tarjima, terminologiya boshqaruvi, sun'iy intellekt asosidagi tarjima tizimlari va AT atamalarining standartlashtirilishi yo'nalishlarida izlanishlar olib boradi. S.E.Rayt², K.D.Shmidt, R.Timmerman³, P.Faber⁴, H.J.Kokrayter⁵, A.L.Yakobsen⁶ kabi AQSh, Germaniya, Belgiya va Daniyalik olimlar terminologik ma'lumotlar bazasini yaratish, AT atamalarining konseptual tahlili, Kognitiv terminologiya tarkibiga kiruvchi frame-based terminology (freymga asoslangan terminologiya) yo'nalishlarda tadqiqot olib borishmoqda.

O'zbek tilshunoslaridan B.Mengliyev, N.Abdurahmonova, D.Rustamov, A.Ataboyev, Sh.Hamroyeva, Sh.Gulyamova, A.Eshmo'minov, O'.Xolyorov, J.Ibragimov kabi olimlar kompyuter lingvistikasi va korpus lingvistikasi bo'yicha qator ishlarni olib borishmoqda.

AT tushunchalari AKT tushunchalaridan bir jihatdan farq qiladi, ya'ni, AT axborot bilan ishlashga qaratilgan bo'lsa, AKT esa axborot + aloqa (kommunikatsiya) vositalarini ham o'z ichiga oladi; AT tizimlar, dasturiy ta'minot, ma'lumotlar bilan AKT esa internet, mobil aloqa va tarmoq texnologiyalari bilan ishlaydi. Umuman olib qaraganda, har ikkalasi ham o'zbek tilini leksik birliklar bilan boyishiga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari tushunchasi dastlab faqat hisoblash texnikasi bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi kunda u keng ma'noga ega bo'lib, kompyuter tizimlari, dasturiy vositalar, tarmoqlar, sun'iy intellekt tizimlari ma'lumotlar bazalari, bulutli xizmatlari

kabi ko'plab komponentlarni o'z ichiga oladi. AT nafaqat texnologik infratuzilmani, balki axborotni boshqarishning uslubiy asoslarini ham o'z ichiga oladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari orqali axborot tahlili, modellash, prognozlash, vizualizatsiya qilish kabi murakkab operatsiyalarni bajarish imkoniyati mavjud. Ayniqsa, sun'iy intellekt, mashinali o'qitish (machine learning), katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) va raqamli transformatsiya texnologiyalari AT doirasida rivojlanayotgan eng muhim yo'nalishlardandir.

AT o'z ichiga quyidagi asosiy elementlarni oladi:

- apparat vositalari (kompyuterlar, serverlar, qurilmalar);
- dasturiy ta'minot (operatsion tizimlar, ilovalar, ma'lumotlar bazalari);
- axborotni qayta ishlash va saqlash vositalari;
- tarmoq infratuzilmalari (LAN, WLAN, internet);
- foydalanuvchi interfeysi (visual va interaktiv muhitlar).

Axborot texnologiyalarining tilga ta'siri shunchaki yangi so'zlarning paydo bo'lishi bilan cheklanmaydi. Aksincha, bu jarayon til tizimining turli darajalarida – fonetik, leksik, morfologik, sintaktik semantik va stilistik jihatdan kompleks muammolarni yuzaga keltiradi.

Axborot texnologiyalariga oid tushunchalar tilga kirib kelish jarayonida odatda ingliz tilidan to'g'ridan to'g'ri yoki fonetik moslashtirish orqali o'zlashtiriladi. Masalan, kompyuter (computer), internet (internet), onlayn (online),

-
- 2 Wright, S.E. "ISO Standards for Terminology Work and Terminological Data". Handbook of Terminology Management, Vol. 2, 2001.
 - 3 Temmerman, R. "The Sociocognitive Approach to Terminology: A Framework for Meaning Construction and Meaning Negotiation". In: Terminology, 13(1), 2007. – P.1–31.
 - 4 Faber, P., León Araúz, P., & Reimerink, A. "Knowledge representation and multilingual term extraction in the domain of coastal engineering". In: International Journal of Lexicography, 20(3), 2007. – P.269–292.
 - 5 Kockaert, H.J. (2011). "Multilingual Terminology Management in Translation Environment Tools". In: Babel, 57(2), 2007. – P.203–219.
 - 6 Jakobsen, A.L. "Translog and Eye-tracking in Translation Process Research". In: Across Languages and Cultures, 7(1), 2006. – P. 91–100.

oflayn (offline), ilova (application), veb-sayt (website), chat (chat), fayl (file), brauzer (browser), yuklash (download) kabi soʻzlar hozirgi oʻzbek tilida keng qoʻllanilmoqda. Bu birliklarning aksariyati muqobil oʻzbekcha variantlariga ega emas yoki mavjudlari ham til meʼyorlariga boʻysunmagan holda talaffuz qilinadi va yoziladi. Buning natijasida esa til tizimida ikki xil qarash yuzaga kelmoqda. Masalan, kompyuter dasturiy taʼminoti tarkibiga kiruvchi Microsoft windows operatsion tizimini talaffuz qilinishi va imloda yozilishi oʻrtasida farq bor. Oʻzbek tili alifbosida w harfi mavjud emasligi sababli imloda uning oʻrniga v harfi orqali yozilishini talab qiladi, lekin talaffuzda esa lab-tish boʻlgan v harfi tarzida talaffuz qilinmaydi. Bundan tashqari, login atamasi baʼzi hollarda kirish, baʼzida esa aynan login shaklida ishlatiladi. Bu esa umumxalq tilida meʼyorlarni buzilishiga olib keladi.

Fikrimizcha, yuqoridagi muammolarning asosiy ildizi – terminologiya sohasida yetarli ilmiy asosga ega boʻlgan tizimli yondashuvning mavjud emasligidir. Koʻplab texnologik atamalar hali rasmiy lugʻatlarga kiritilmagan. Bu esa taʼlim, fan, jurnalistika, dasturlash va texnologik sohalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislarining tilni turlicha talqinda ifodalashiga olib kelmoqda. Bunga bir misol tariqasida platforma atamasini olaylik. Mazkur atama turli yoʻnalishlar kesimida asos, maydoncha, tizim, dasturiy vosita maʼnolarida qoʻllanilishi mumkin. Ushbu koʻpmaʼnolilik ilmiy muloqotda tushunmovchiliklarga sabab boʻladi.

Yevropa tillarida AT atamalarini shakllantirish uchun maxsus komissiyalar faoliyat yuritadi. Masalan, Fransiya har bir yangi termin boʻyicha fransuzcha muqobil variant taklif qilinadi va qonuniylashtiriladi. Oʻzbekistonda ham Bosh atamalar komissiyasi mavjud boʻlsa-da, AT sohasidagi atamalarni muntazam qayta ishlash va joriy etish yetarli darajada yoʻlga qoʻyilmagan.

Axborot texnologiyalarida uchraydigan yozuvlar tilning sintaktik va stilistik jihatlariga

ham taʼsir koʻrsatmoqda. Jumladan, yuzaga kelgan qisqa, emotsional shartli yozishmalar (chat tilining) rivojlanishi tilning sintaktik tuzilmasiga taʼsir koʻrsatadi. Gaplar qisqa, murakkablikda holi shakllardan ifodalanadi. Emoji qisqartmalar (inglizcha LOL, OMG, BRB, OK), transliteratsiya (masalan, sh harfi oʻrniga W harfini qoʻllanilishi) singari unsurlar matnni oʻqib tushunishda qiyinchilik tugʻdirishi mumkin. Bundan tashqari reklama, bannerlar, veb-sayt interfeyslarida qoʻllaniladigan soʻzlarda ingliz tiliga yaqin sintaktik modelga tayanmoqda. Roʻyxatdan oʻting, yuklab oling, boshlash tugmasini bosib kabi. Bunday tarjimalar koʻpincha avtomatik tarzda amalga oshirilganligi bois, grammatik va stilistik kamchiliklarga toʻla boʻladi.

Axborot texnologiyalari tushunchalarining kirib kelishi, yuqorida taʼkidlanganidek, oʻz navbatida, kompyuter lingvistikasi va til texnologiyalariga taʼsir qilmay qolmaydi. Kompyuter lingvistikasining rivojlanishi, sunʼiy intellekt va mashina oʻrganishga asoslangan tillarni qayta ishlash tizimlarining koʻpayishi tilning texnologik jihatdan tahlil qilinishiga olib keladi. Masalan, morfologik analizatorlar, sintaktik parserlar, semantik tahlil vositalari yirik tillar uchun allaqachon ishlab chiqilgan. Oʻzbek tili esa bu borada hali toʻliq raqamli koʻrinishga ega emas. Tilning kompyuterga qulayligi (machine-readable) past boʻlgani uchun koʻpgina texnologik dasturlar (avtomatik tarjima, ovozli tanish, chatbotlar) oʻzbek tilida faol holatga kelmaydi. Bunda tilning tuzilishiga xos boʻlgan agglyutinativlik, erkin soʻz tartibi, fonetik variantlilik kabi jihatlar ham texnik muammolarni kuchaytiradi.

Oʻzbek tilida AT bilan bogʻliq atamalarni standartlashtirish hali izchil yoʻlga qoʻyilmagan. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarda va ilovalarda bir xil funksiyaga ega boʻlgan soʻzlar turlicha talqin qilinadi. Masalan, profile soʻzining tarjimasi profil, shaxsiy sahifa, foydalanuvchi interfeysi tarzida uchraydi. Settings atamasi

esa sozlamalar, sozlash, parametrlar kabi ko'rinishlarda qo'llaniladi. Bu holat o'zbek tilida terminologik baza va tillararo mufoviqlashtirish tizimining sust shakllanganligidan dalolat. Lisoniy nomuvofiqlikning yo'qligi esa texnologik vositalardan foydalanishning qiyinlashishiga hamda sohalarda mutaxassislar va foydalanuvchilar o'rtasida noaniqliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda o'zbek tilini avtomatik tarjima tizimlariga to'liq integratsiyalash hali hanuz yakuniga yetmagan. Google translate, DeepL va boshqa mashhur avtomatik tarjima tizimlari o'zbek tilida grammatik, stilistik va semantik xatolarga yo'l qo'yadi. Bu, ayniqsa, texnik matnlar va AT ga oid matnlarni tarjima qilishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, ingliz tilidagi Cloud storage automatically synchronizes your files ko'p komponentli birikmasini o'zbekchaga Bulutli xotira fayllaringizni avtomatik sinxronlashtiradi deb tarjima qilinishi maqsadga muvofiq. Ammo avtomatik tizimlar buni Bulut saqlash avtomatik ravishni sizning fayllaringizni sinxronlashtiradi tarzida noaniq va g'alati grammatik tuzilmada tarjimasini keltiradi. Bunday holatlar semantik mavhumlik va struktur buzilishlar hamda texnik xatoliklarga olib keladi. Bunday xatoliklarni kelib chiqishining asosiy sababi shuki, morfologik jihatdan o'zbek tilining ko'plik, egalik, zamon va boshqa grammatik kategoriyalar orqali ifodalanishidir. Bunday strukturani sun'iy intellekt tizimlariga to'g'ri o'rgatish uchun katta hajmli korpus, to'liq morfologik analizatorlar va sifatli parallel matnlar bazasi talab etiladi. Bunday jarayonlar esa hali rivojlanish bosqichida.

Kuzatishlar jarayonida mobil ilovalar va dasturiy vositalarda foydalanuvchi interfeysidagi qo'llaniladigan til tarjimalarida ham muammolar mavjud. Ushbu qismlardagi tarjimalar noto'g'ri, noaniq yoki avtomatik tarzda tarjima qilingan holatda uchraydi. Bu holat foydalanuvchining interfeys bilan o'zaro

aloqasini murakkablashtiradi. Masalan, Reset settings tugmasi ba'zi dasturlarda sozlamalarni tiklash tarzida tarjima qilinsa, ayrim hollarda esa nastroykani qayta qo'yish tarzida noaniq va gibrid holatda tarjima qilingan. Buning asosiy sababi – mutaxassis tilshunoslarning jalb qilinmasligi. Natijada, foydalanuvchida chalkashliklar va tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Mahalliylashtirish jarayonida terminologik izchillik mazmundan kelib chiqqan holda uyg'unlik yetishmay qolish holatlarini ko'plab dasturlarda uchratish mumkin.

Shuningdek, AT matnlarida ishlatiladigan iboralar va frazeologik birikmalar ham ko'plab lingvistik muammolarni yuzaga keltiradi. Masalan, ingliz tilidagi Drag and drop iborasi oddiy o'zbek foydalanuvchisi uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin. Uni sudrab tashlang yoki olib boring qo'ying tarzida ifodalash ham mumkin, biroq bu ifoda texnik jihatdan mazkur tushunchaning to'liq ma'nosini qamrab olmaydi. Qolaversa, ijtimoiy tarmoqlarda ishlatiladigan like, share, stories, reel, subscribe, tag kabi tushunchalar uchun o'zbek tilida aniq va izchil frazeologik ekvivalentlar mavjud emas. Shu sababli foydalanuvchilar ularni asosan original shaklda ishlatishga majbur bo'lmoqda. Bu holat uzoq davom etaversa, o'zbek tilida texno-til deb ataladigan gibrid (yarim o'zbekcha, yarim inglizcha) leksik qatlam shakllanishi mumkin. Bu esa tilda funksional ixtisoslashuvni kuchaytiradi, ammo umumxalq tili me'yorlariga zarar yetkazadi.

Texnologik atamalar o'zbek tili morfologik tizimiga har doim mos kelavermaydi. Ingliz tilidan o'zlashtirilgan stream so'zi oqim deb tarjima qilinadi. Biroq stream qilish, stream qilyapman kabi gibrid birliklar tildagi morfologik qoidalarni buzadi. Bunday holatlar ko'paygan sari yangi suffikslar va affiksoidlarning o'zbek tilida noto'g'ri shakllanishiga olib keladi.

Axborot texnologiyalarining jamiyat tiliga ta'siri kuchli va murakkab bo'lib, bu jarayon faqat

tilshunoslar emas, balki tarjimonlar, dasturchilar, pedagoglar va siyosatchilar hamkorligida hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb muammodir. AT sohasiga oid tushunchalarning o'zbek tilida izchil, mantiqiy va fonetik-morfologik me'yorlarga muvofiq moslashtirilishi til barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, yosh avlodga AT tilini o'zbek tilida tushunarli, aniq va ilmiy asoslangan holda yetkazish, o'quv dasturlariga texnolingvistika yo'nalishidagi fanlarni joriy etish bilan tilning texnologik doiradagi salohiyatini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari va til o'rtasidagi o'zaro ta'sir – bu nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy, madaniy va siyosiy muammodir. Ushbu muammoni hal etishda ilmiy yondashuv, milliy manfaat va xalqaro tajribaning uyg'unlashuvi zarur. O'zbek tilining raqamli dunyoda o'z o'rnini topishi, texnologik taraqqiyotda o'z milliy qiyofasini saqlab qolishi – bizning eng muhim vazifalarimizdan biridir.

AHMAD YASSAVIY HIKMATLARINING MA'NAVIY- MA'RIFIY HAYOTIMIZDAGI O'RNI

Abduvali Sulaymonovich Musayev – dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston mustaqilligi davrida ma'naviy-ma'rifiy hayotda bo'lgan o'zgarishlar haqida so'z yuritiladi. Unda yoshlarni tarbiyalashda milliy g'oya, istiqlol mafkurasi va o'zbek adabiy merosining ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida nafsni yengish, poklanish, dunyoning o'tkinchiligi, Vatan va tuproq haqidagi fikrlar yoritiladi. Shoir so'z san'ati orqali insonni ezgulik va Vatanga sadoqatga chorlaydi.

Аннотация. В статье рассказывается об изменениях в духовно-просветительской жизни Узбекистана в годы независимости. В ней подчеркивается значение национальной идеи, идеологии независимости и узбекского литературного наследия в воспитании молодежи. В «хикматах» Ахмада Ясави освещаются темы преодоления нафса, духовного очищения, бренности мира, Родины и родной земли. Поэт через искусство слова призывает человека к добру и верности Родине.

Abstract. The article describes the changes in Uzbekistan's spiritual and educational life during the years of independence. It emphasizes the importance of the national idea, the ideology of independence, and the Uzbek literary heritage in educating the younger generation. In Ahmad Yassawi's "hikmats," themes such as overcoming the nafs (ego), spiritual purification, the transience of the world, the Homeland, and native land are highlighted. Through the art of words, the poet calls people to goodness and loyalty to their Homeland.

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya, o'zbek xalqining ma'naviy merosi, Ahmad Yassaviy, so'z san'ati, ma'naviy barkamollik, yosh avlod tarbiyasi.

Ключевые слова: духовное воспитание, духовное наследие узбекского народа, Ахмад Ясави, искусство слова, духовное совершенство, воспитание подрастающего поколения.

Keywords: spiritual education, the spiritual heritage of the Uzbek people, Ahmad Yassawi, the art of words, spiritual perfection, upbringing of the younger generation.

Mustaqil taraqqiyot yillarida to'plangan tajriba, dunyo jamoatchiligi va jamiyatimizning barcha sohalari qatori ma'naviy – ma'rifiy hayotimizda ham ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Vatan baxt – saodati uchun doimo ma'suliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'alarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchanlik ishlariga da'vat qilish, xalqimizning avvalo, o'sib – unib kelayotgan yosh avlodimiz onggi va qalbida ma'naviy ishlarimiz orqali kuchli ta'sir o'tkaza olishimiz kerak.

Milliy g'oya va istiqlol mafkurasi O'zbekistonda yashayotgan barcha kishilarning, ayniqsa yoshlarimizning ma'naviy boyligiga,

dunyoqarashining negiziga aylanishiga erishish biz uchun eng asosiy maqsad bo'lib qolish zarur.

Ma'naviy tarbiyada o'zbek xalqining boy ma'naviy merosidan keng foydalanish uning ta'sirchanligi, samaradorligini oshirishda muhim omil bo'la oladi. Yoshlarimiz ma'naviy tarbiyasida Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi klassik shoir va yozuvchilarimiz asarlaridan foydalanishimiz ular qalbini, ruhiy dunyosini ma'naviy boyitishda katta ahamiyatga egadir. Ularning bizga qoldirgan boy badiiy – ma'naviy merosi o'zining chuqur falsafiy mazmunini, axloqiy yo'nalishi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg'oc qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur"¹.

Ahmad Yassaviy asarlarida so'z san'ati va adabiyotning kuchli, uning xalqchil va tushunarligida, kishilarning ichki ruhiy dunyosiga hayajonli ta'sir ko'rsata olishidadir. Ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda so'z san'ati va adabiyotining ana shu xususiyatini hisobga olish zarur.

Xudovando, meni solgil o'z yo'linggo,
Nafs ilgida xarob, ado bo'ldim mano.
Fisqu fujur to'lib -toshib, haddin oshti,
G'arqob bo'lib isyon ichra qoldim mano.

Ushbu she'rda shoir so'zlari inson qalbidagi so'zlarning ma'nosini anglashga undaydi. "Nohaq davo qilg'on" qozi, imomlar, "harom yegan insonlar", "jahon molin" yiqqan amaldorlar, "Oqni qaro qilg'on" mullo-yu, mudarrislar, el ustiga minib yelib "totliq - totliq" yeb yurganlarga qarshi ko'ngulda nafrat o'yg'otadi. Ahmad Yassaviy bu fikrlari bilan feodal jamiyat vakillari bilan ularning qo'l ostida ezilgan mehnatkashlarning haq-huquqlari uchun kurashgan.

Ey behabar, haqqa ko'ngul yugurtmading,
Dunyo harom andin ko'ngul sovutmading.
Nafsdin kechib ollo sari to'lg'onmading,
Bu nafs uchun zoru hayron bo'ldim mano.

Yassaviyning ushbu hikmatida insonlar yengishi va yenga olishi mumkin bo'lgan nafs haqida fikr yuritilgan. Hoyu havas va barcha manmanliklar ham nafs ham "xudo" deganda yengilishi haqida fikrlar mavjud. Biz uchun muhimi, bunda shoirning nafsiga nisbatan ayovsizligi va botiniy poklanish uchun fikr yuritishidir.

Beshak biling, bu dunyo borcha xalqdin o'taro,
Ishonmag'il molingga, bir kun qo'ldan ketaro.
Ota – ono, qarindosh qayon ketdi – fikr qil,
To'rt oyoqlig' cho'bin ot bir sanga yetoro...

Ushbu she'rda Yassaviy dunyoning o'tkinchiligi haqida fikr yuritgan. Bu dunyo hammadan qolishi, tez umrning o'tishi, mol-dunyoga ishonmaslik, oxiri oqibatda "to'rt oyoqli cho'bin ot" ustida jonsiz yastanib ketmoqqa inson mahkum ekanligi haqida fikr yuritilgan.

O'zni anglash – hayotga ma'rifat bilan qarash, inson farzandini g'animat bilish, manmanlik va jaholat "otiga" minib hovliqmaslik kerak degan falsafiy fikrlarni o'z ichiga olgan.

Boshim tufroq, o'zif tufroq, jismim tufroq,
Haq vasliga yetarman deb ruhim mushtoq.
Kuydim, yondim, bo'lolmadim hargiz ofoq,
Shabnam bo'lib yer ostiga kirdim mano.

Turkiy adabiyotda Vatan haqidagi falsafiy fikrlar Ahmad Yassaviy hikmatlaridan boshlanadi. Vatanni anglash, tuproq tilini bilishdir. Bunda so'z ham, sevgi ham go'yo tuproqdir.

Ahmad Yassaviy o'z imkoniyatlaridan foydalanib, insonni ulug'likka chorlagan, inson Vatan bilan birlikka erishsa, na faqat o'z elining, balki olamning hurmatiga sazovor bo'ladi. Shoirning ko'pgina poetik obrazlarining ma'no tarkiblari teran va murakkab. Shuning uchun

1 Mirziyoyev Sh.M. Xalq so'zi. – Toshkent: <https://xs.uz/uz/post/manaviyat-boshqa-sohalardan-oldinda-yurishi-yangi-kuchga-yangi-harakatga-aylanishi-kerak-prezident.2023.22-dekabr>.

ularni tahlil qilish oson ish emas.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida samimiyat-oshkoralik bor. Biz tahlil qilgan hikmatlarimizda oq bilan qorani farqlash, nafsni yengish, dunyoning o'tkinchiligi, Vatan va tuproq haqidagi falsafiy fikrlarini tahlil qildik.

Ahmad Yassaviy faqatgina yangi tariqat yaratuvchisi emas, hikmatnavislik an'anasini boshlab bergan turkiy tasavvuf she'riyatining birinchi ijodkori hisoblanadi.

Ma'naviy qadriyatlar ichida tilshunoslik sohasida jamlangan bilimlar alohida ahamiyatga ega. Har bir davr o'zining buyuk allomalarini yetishtiradi, ular esa o'z asarlarida yurt va xalq tiliga oid qarashlarini ilgari suradilar. Xalqni ulkan maqsadlar sari yetaklaydigan g'oyalar ma'lum davr mafkurasiga aylanishida, xususan, Ahmad Yassaviy hikmatlaridagi so'zlarni o'rganish va tahlil qilish muhim ilmiy va ma'naviy ahamiyat kasb etadi.

Til asrlar davomida jamiyatga xizmat qiladi, ularning ehtiyojlarini to'la-to'kis bajaradi, garchan, til o'zgaruvchan hodisa bo'lsada, u faqat o'zining ichki obyektiv qonunlari asosida rivojlanadi².

Xulosa qilib aytganda, shaxs ma'naviyatini boyitib borishning omillari vositalari ko'p faqat ulardan samarali foydalanish kerak bo'ladi. Ma'naviyati yuksak shaxsni tarbiyalash vazifasi mamlakatimiz taraqqiyoti uning istiqboli uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb vazifa hisoblanadi. Vatanni ota-bobolarimizni qadrlagan, ulug'lagan avlodimiz. Biz tarix maydoniga kecha kelib qolgan millat emasmiz, buyuk allomalarning vorislarimiz. Ular merosiga hamisha munosib bo'lmog'imiz kerak. Fikrda, ilmu ijodda, dunyoni idrok qilishda, Vatanni sevishta mumtoz bobolarimizning an'alarini mardonovor davom ettirishimiz, taraqqiyot cho'qqilarini egallashimiz kerak. Zero, o'z o'tmishini ulug'laydigan, bugunni e'zozlaydigan millatning ertangi kuni hamisha porloq bo'ladi.

2 O'rinboyev B, Musayev A. Umumiy tilshunoslik. -Jizzax, 2022. 6-b.

TO'RA SULAYMON POETIKASIDA INTERTEKSTUAL BOG'LANISHLAR

Xayrulla Hamdamovich Ibragimov – f.f.b.f.d. (PhD),
dotsent, O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida intertekstual bog'lanishlar ularning o'rganilish masalasi, To'ra Sulaymon ijodi ham aynan shunday kontekstdan baholanishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Abstract. This article provides information on the study of intertextual connections in Uzbek literature, and how the work of Tora Sulaymon can be evaluated in this context.

Аннотация. В статье дается информация об изучении интертекстуальных связей в узбекской литературе и о том, как в этом контексте можно оценить творчество Тура Сулаймана.

Kalit so'zlar: intertekstual, intertekstual bog'lanish, iqtibos, alluziya, reministsensiya, stilizatsiya, tahlil, kontekst, metod.

Keywords: intertextual, intertextual connection, quotation, allusion, reminiscence, stylization, analysis, context, method.

Ключевые слова: интертекстуальность, интертекстуальная связь, цитата, аллюзия, реминисценция, стилизация, анализ, контекст, метод.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab adabiyotshunoslikda "intertekstual" tushunchasi muhim nazariy kategoriya sifatida shakllandi. Bu nazariya Yuliya Kristeva, Mixail Baxtin, Roland Bart, Harold Blum kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Intertekstuality hodisasi matnlarning o'zaro muloqotini, adabiy merosning davomiyligini, yozuvchi va o'quvchi o'rtasidagi madaniy aloqalarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Olimlarning ta'kidlashicha, har qanday matn boshqa matnlar bilan uzviy aloqador holda mavjud bo'ladi. Har bir adabiy asar oldingi matnlarning izlarini, ularning semantik energiyasini o'zida mujassamlashtiradi. Demak, ijodkor o'z asarini yaratishda mutlaqo "bo'sh joydan" ish boshlamaydi, balki o'zidan avval yaratilgan madaniy va adabiy matnlar bilan doimiy muloqotda bo'ladi.

Roland Bart ham¹ "muallifning o'limi" haqidagi mashhur konsepsiyasida matnni ko'p

ovozli, cheksiz talqinlarga ochiq bo'lgan fenomen sifatida baholaydi. Uning fikricha, asar ma'nosi faqat muallif tomonidan emas, balki o'quvchi, tarixiy kontekst va boshqa matnlar bilan o'zaro aloqadorlikda shakllanadi.

Shunday qilib, intertekstual nazariyasi adabiyotshunoslikda matnning dinamik, ochiq tizim ekanini, unda avvalgi adabiy an'analar, diniy matnlar, folklor unsurlari, ijtimoiy-madaniy munosabatlarning doimiy ravishda yashab kelishini anglatadi.

Adabiyotda intertekstual bog'lanishlar turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ularning eng asosiy shakllarini quyidagicha tasniflash mumkin:

Iqtibos (sitata) – boshqa muallif matnidan bevosita ko'chirib keltirish. Masalan, Qur'on oyatlaridan, hadis matnlaridan yoki mumtoz shoirlarning mashhur misralaridan foydalanish.

Alluziya – tarixiy, adabiy yoki madaniy

1 Rustamova J. Badiiy matnning jahon va rus tilshunosligidagi tadqiqi – "Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi" ilmiy jurnal. 2024-yil 21-son 2-to'plam 171-bet.

voqeaga ishora qilish. Bunda muallif to'liq matnni keltirmaydi, balki o'quvchini ma'lum bir konnotatsiyaga yo'naltiradi.

Reministsensiya – boshqa asar yoki obrazni eslatish, ong osti assotsiatsiyalarini uyg'otish.

Parodiya va pastis – mavjud matnni o'zgartirilgan, ko'pincha yumoristik yoki tanqidiy ruhda qayta ishlash.

Stilizatsiya – muallifning boshqa adabiy maktab yoki shoir uslubiga taqlid qilishi.

O'zbek adabiyotida bu uslublarning barchasi mavjud bo'lib, ayniqsa mumtoz adabiyot an'analari va Qur'onga asoslangan intertekstual unsurlar keng tarqalgan.

O'zbek adabiyotshunosligida intertekstual tushunchasi nisbatan yangi bo'lsada, amalda bu hodisa qadimdan mavjud. Mumtoz ijodkorlarimiz – Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiy ijodida Qur'on, hadis, tasavvufiy manbalarga murojaat qilish, xalq og'zaki ijodi elementlarini o'zlashtirish juda keng uchraydi.

Mustaqillik davrida o'zbek adabiyotshunosligida intertekstual yondashuvlar faol qo'llanila boshlandi. Masalan, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf kabi ijodkorlarning asarlari intertekstual bog'lanishlar nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Bu yondashuv o'zbek adabiyotining jahon adabiy jarayoni bilan uyg'unliklarini, milliy o'ziga xosliklarini yanada chuqurroq anglash imkonini berdi.

O'zbek adabiyotida intertekstual bog'lanishlarni o'rganish masalasi mustaqillikdan keyin faol tarzda rivojlandi. Chunki milliy adabiyotimizda qadimiy manbalar – Qur'on oyatlari, hadislar, mumtoz adabiyot namunalaridan tortib xalq og'zaki ijodigacha bo'lgan manbalar bilan aloqadorlik juda kuchli.

Shoir va yozuvchilarimiz milliy ruhni, tarixiy xotirani tiklashda intertekstual imkoniyatlardan keng foydalanishdi. Shunday ijodkorlardan biri O'zbekiston xalq shoiri To'ra Sulaymondur.

To'ra Sulaymon poetikasida milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unlashuvi, mumtoz adabiyot va zamonaviylikning chatishuvi, xalqona ohang va diniy ramzlarning uyg'un ifodasi intertekstual bog'lanishlarning yorqin namunasidir². Shu sababli uning ijodini intertekstual tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. To'ra Sulaymon ijodi ham aynan shunday kontekstdan baholanishi lozim. Chunki uning she'riyati milliy tarix, xalqona ohang, mumtoz an'alar va zamonaviy adabiy jarayon bilan doimiy muloqotda bo'lgan holda shakllangan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mustaqillik davrida o'zbek adabiyotshunosligida intertekstual yondashuvlar faol qo'llanila boshlandi. Masalan, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf kabi ijodkorlarning asarlari intertekstual bog'lanishlar nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Bu yondashuv o'zbek adabiyotining jahon adabiy jarayoni bilan uyg'unliklarini, milliy o'ziga xosliklarini yanada chuqurroq anglash imkonini berdi³.

To'ra Sulaymon ijodi ham aynan shunday kontekstdan baholanishi lozim. Chunki uning she'riyati milliy tarix, xalqona ohang, mumtoz an'alar va zamonaviy adabiy jarayon bilan doimiy muloqotda bo'lgan holda

To'ra Sulaymon ijodining eng muhim xususiyatlaridan biri — undagi milliy ruh va tarixiy xotiraning yorqin ifodasidir. Shoir she'riyatida xalqimizning qadimiy tarixi, ozodlik uchun kurashlari, milliy qadriyatlari markaziy o'rinda turadi. Mustaqillikdan avvalgi davrlarda ham u xalq qalbining dardini, orzu-intilishlarini ifodalashda qat'iyat ko'rsatgan ijodkorlardan biri

2 Go'ro'g'li Sulton bir yon... (maqola, taqriz, maktuv va qaydlar. Nashrga tayyorlovchi A.Turdiyev) – Toshkent: Tafakkur, 2015. – B. 188.

3 Jo'rayev N. O'zbek adabiyotshunosligida yangi yondashuvlar. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B.220.

sifatida tanilgan.

Shoirning ko'plab she'rlarida tarixiy shaxslar, xalq qahramonlari obrazlari uchraydi. Ularning barchasi zamonaviy davr bilan uyg'unlashtirilib, milliy xotira shaklida ifodalanadi. Bunday yondashuv intertekstual nuqtayi nazaridan ham ahamiyatlidir. Chunki tarixiy voqealarga ishora, mumtoz shaxslarning nomini tilga olish, xalq qahramonlariga murojaat qilish – bularning barchasi matnlararo muloqotning muhim shaklidir.

To'ra Sulaymon she'riyatidagi tarixiy xotira faqatgina o'tmishni eslash emas, balki uni bugun bilan bog'lash, kelajak uchun saboq sifatida taqdim etishdir. Shu jihati bilan shoir ijodi o'zbek milliy uyg'onish g'oyalarini kuchaytiradi.

To'ra Sulaymon poetikasida Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy kabi mumtoz adiblar ijodiga ishoralar tez-tez uchraydi. Shoir mumtoz adabiy merosni o'zlashtiribgina qolmay, uni zamonaviy ruhda qayta talqin qiladi. Masalan, Navoiy merosidagi ma'naviy-axloqiy g'oyalar To'ra Sulaymon she'riyatida milliy istiqlol ruhi bilan uyg'unlashadi. Mashrabning erkinlikka intilgan falsafiy qarashlari shoirning millat ozodligi haqidagi satrlari bilan mushtaraklik kasb etadi. Bunday holatlar intertekstual nazariyasining eng muhim xususiyatlaridan biri – "matnlarning davomiyligi" tamoyilini yaqqol ko'rsatadi. To'ra Sulaymon o'z she'riyati orqali mumtoz adabiyot an'analarini faqatgina takrorlamaydi, balki ularni yangi ijtimoiy-siyosiy sharoitda qayta jonlantiradi. Shu tariqa shoir poetikasida o'tmish va hozirgi zamon badiiy muloqotga kirishadi.

To'ra Sulaymon ijodi faqat o'tmishga suyanib qolmagan, balki zamonaviy poetik izlanishlar bilan ham boyitilgan. Shoir xalq og'zaki ijodidagi obrazlar va ritmik shakllardan foydalanib, ularni zamonaviy adabiy tilda qayta ifodalaydi.

Shoir poetikasida erkin she'r shakllari, ramziy obrazlar, metaforik ifodalar keng o'rin olgan.

Masalan, tabiat obrazlari orqali millat ruhiyatini ifodalash, ma'naviy tushunchalarni ramziy shakllarda tasvirlash To'ra Sulaymon ijodining o'ziga xos tomonlaridan biridir. Shuningdek, shoir zamonaviy o'zbek she'riyatidagi yangilanish jarayonlariga ham faol ta'sir ko'rsatgan. Uning ijodi Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi kabi zamondosh shoirlar ijodi bilan muloqotda bo'lib, umummilliy adabiy jarayonning muhim tarkibiy qismiga aylangan.

To'ra Sulaymon poetikasida mumtoz adabiyot bilan uzviy muloqot mavjud. Uning she'rlarida Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab kabi shoirlarning asarlariga bevosita yoki bilvosita murojaat qilinadi. Bunday intertekstual unsurlar shoir ijodiga chuqur ma'naviy-estetik qatlam bag'ishlaydi. Masalan, Navoiy merosida tasvirlangan "komil inson" obrazi To'ra Sulaymon she'riyatida milliy uyg'onish va ozodlik g'oyalari bilan uyg'unlashadi. Boburning vatanparvarlik ruhi shoirning istiqlol haqidagi misralarida yangi ma'no kasb etadi. Mashrabning erkinlikka chanqoqligi esa To'ra Sulaymon ijodida milliy ozodlik bilan bog'lanadi. Shu tariqa, shoir mumtoz adabiyot an'analarini zamon ruhiga mos holda qayta talqin qiladi va ularni yangi ma'naviy qiyofada davom ettiradi.

To'ra Sulaymon ijodi xalqona ohang va folklor elementlari bilan boyitilgan. Bu esa shoirning xalq ruhiga yaqinligini ko'rsatadi. Xalq qo'shiqlari, maqollar, doston va ertaklardan olingan obrazlar uning she'rlarida yangicha badiiy tus oladi.

Masalan, xalq og'zaki ijodidagi "ona yurt", "ona til", "daryo", "tog'" kabi ramziy obrazlar shoir ijodida milliy mustaqillik va ruhiy uyg'onish ramzlariga aylanadi.

Xalq maqollari va hikmatli so'zlarining shoir she'riyatida ishlatilishi ham intertekstual bog'lanishning yorqin ko'rinishidir. Ular she'rga nafaqat xalqona ohang beradi, balki o'quvchini tarixiy-madaniy xotira bilan bog'laydi.

To'ra Sulaymon ijodida Qur'on oyatlari va diniy

ramzlar ham muhim intertekstual manba sifatida namoyon bo'ladi. Shoir diniy matnlardan iqtibos qilmasdan, balki ularni ramziy obraz sifatida keltiradi.

Masalan, "nur", "haqiqat", "yo'l", "sabr", "sinov" kabi Qur'oniy tushunchalar shoirning ko'plab she'rlarida uchrab, ularni ma'naviy-ma'rifiy talqin etishga xizmat qiladi. Bunday diniy ramzlar orqali shoir milliy ozodlik, insoniy qadriyatlar va ruhiy poklanish g'oyalarini chuqurlashtiradi. Bundan tashqari, tasavvufiy manbalarga murojaat ham shoir ijodining muhim xususiyatlaridan biridir. Tasavvufiy ramzlar orqali To'ra Sulaymon inson ruhining yuksalishi, milliy g'urur va e'tiqod masalalarini ifodalaydi.

To'ra Sulaymon poetikasini intertekstual yondashuv asosida o'rganish bir nechta metodologik yondashuvni talab qiladi. Avvalo, qiyosiy-tarixiy metod muhimdir. Chunki shoir ijodidagi mumtoz adabiyot, xalq og'zaki ijodi va diniy manbalar bilan aloqadorlikni faqat tarixiy adabiy jarayonni hisobga olgan holda to'liq tushunish mumkin.

Shuningdek, kontekstual tahlil usuli ham samaralidir. Har bir intertekstual ishora muayyan davr, muhit, ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog'liq. Masalan, mustaqillik davrida yozilgan she'rlardagi Qur'oniy ramzlar sho'ro davridagi diniy ramzlardan farqli talqin etiladi.

Semantik tahlil esa intertekstual unsurlarni ma'no darajasida o'rganishga imkon beradi. Masalan, xalq og'zaki ijodidagi "ona yurt" obrazining To'ra Sulaymon she'riyatida milliy istiqlool timsoliga aylanishini aniqlash shu metod orqali amalga oshiriladi.

To'ra Sulaymon ijodidagi intertekstual bog'lanishlar faqatgina adabiy manbalarni yodga olish emas, balki ularga yangi ma'no yuklash jarayonidir. Shoir o'z she'riyatida tarixiy xotira, milliy ruh, diniy va xalqona ramzlarni qayta talqin etib, ularga zamonaviy ruh bag'ishlaydi. Bu esa uning poetikasini yanada chuqurlashtiradi,

asarlarning ko'p qatlamli talqiniga imkon yaratadi. Har bir o'quvchi shoir she'rini o'qiganda unda turli intertekstual ishoralarni anglab, o'zining bilim va tajribasiga ko'ra yangi ma'nolar ochadi. Shu jihatdan To'ra Sulaymon she'riyati o'quvchi bilan faol muloqotga kirishadi.

Intertekstual unsurlar shoirning milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga erishganidan dalolat beradi. Bu xususiyat uning she'riyatini nafaqat o'zbek adabiyoti, balki jahon adabiy jarayonida ham ahamiyatli qiladi.

To'ra Sulaymon ijodi o'zbek she'riyatida intertekstual yondashuvning yorqin namunasi hisoblanadi. Uning she'riyatidagi intertekstual unsurlar o'zbek adabiyoti tarixida adabiy merosning davomiyligini, milliy ruhning uzluksizligini ko'rsatadi. Shu bois To'ra Sulaymon ijodi nafaqat o'zbek she'riyatining muhim bosqichi, balki jahon adabiyotidagi intertekstual jarayonlarning bir qismi sifatida ham e'tirof etilishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, To'ra Sulaymon ijodi o'zbek she'riyatining mustaqillik davri rivojida alohida o'rin tutadi. Uning poetikasida intertekstual bog'lanishlar juda keng va rang-barang shakllarda namoyon bo'ladi. Shoir she'riyatida milliy tarix, xalqona ohang, mumtoz adabiyot an'analari va diniy manbalar zamonaviy poetik ruh bilan uyg'unlashgan.

GENDER STEREOTYPES OF SPEECH OF ENGLISH CHILDREN

Dilfuzakhon Ilkhomjon kizi Kozokboeva – PhD of Philological Sciences, docent, Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract. This article investigates the manifestation of gender stereotypes in English children's speech and its implications for educational settings. Drawing on linguistic, acoustic, and socio-cultural research, it examines how gendered language patterns emerge in early childhood and influence children's perceptions, behaviors, and academic inclinations, particularly in STEM fields. The article synthesizes findings on children's utterances, perceptual and acoustic dimensions of gendered speech, the role of STEM stereotypes, and the impact of early play environments. It highlights the importance of addressing gender stereotypes through inclusive language practices, diversified role modeling, and the creation of equitable learning environments in homes and educational institutions. The article is targeted toward teachers and educators, providing practical insights and strategies to combat gender bias in the classroom and promote gender equality.

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilidagi bolalar nutqida gender stereotiplarining namoyon bo'lishini va uning ta'lim sharoitlariga ta'sirini o'rganadi. Lingvistik, akustik va ijtimoiy-madaniy tadqiqotlarga tayangan holda, u gender til modellari erta bolalik davrida qanday paydo bo'lishini va bolalarning his-tuyg'ulari, xatti-harakatlari va akademik moyilliklariga, xususan, STEM sohalarida qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Maqolada bolalar nutqi, gender nutqining perseptiv va akustik o'lchamlari, STEM stereotiplarining roli va erta o'yin muhitining ta'siri bo'yicha topilmalar sintezlanadi. U inklyuziv til amaliyotlari, turli xil namuna olish va uylar va ta'lim muassasalarida teng huquqli ta'lim muhitini yaratish orqali gender stereotiplarini hal qilish muhimligini ta'kidlaydi. Maqola o'qituvchilar va o'qituvchilarga qaratilgan bo'lib, sinfda gender tarfakashligiga qarshi kurashish va gender tengligini targ'ib qilish bo'yicha amaliy tushunchalar va strategiyalarni taqdim etadi.

Аннотация. В данной статье рассматривается проявление гендерных стереотипов в речи английских детей и их влияние на образовательную среду. Опираясь на лингвистические, акустические и социокультурные исследования, автор рассматривает, как гендерные языковые модели формируются в раннем детстве и влияют на восприятие, поведение и академические склонности детей, особенно в области STEM. В статье обобщены данные о детских высказываниях, перцептивных и акустических аспектах гендерной речи, роли STEM-стереотипов и влиянии игровой среды раннего детства. Подчеркивается важность борьбы с гендерными стереотипами посредством инклюзивной языковой практики, разнообразного ролевого моделирования и создания равноправной образовательной среды дома и в образовательных учреждениях. Статья адресована учителям и педагогам и содержит практические рекомендации и стратегии по борьбе с гендерной предвзятостью в классе и продвижению гендерного равенства.

Keywords: gender stereotypes, children's speech, sociophonetics, STEM education, early childhood, language acquisition, gender bias, teacher education.

Kalit so'zlar: gender stereotiplari, bolalar nutqi, sotsiofonetika, STEM ta'limi, erta bolalik, tilni o'zlashtirish, gender tarfakashlik, o'qituvchi ta'limi.

Ключевые слова: гендерные стереотипы, детская речь, социофонетика, STEM-образование, раннее детство, освоение языка, гендерная предвзятость, педагогическое образование.

Gender stereotypes are pervasive social constructs that not only influence behavior and perception in adults but also begin to shape children's identities and language from an early age. In English-speaking societies, the subtleties embedded in children's speech provide a revealing insight into how cultural norms are internalized. This article investigates the manifestation of gender stereotypes in English children's speech, drawing on multiple studies that explore both the

content and the acoustic dimensions of gendered communication. The significance of this research lies in its ability to clarify how early linguistic cues complement broader societal messages – ranging from play preferences to career aspirations – ultimately impacting children's future learning and life choices.

Existing research shows that gender stereotypes are evident in everyday language

– from seemingly innocent remarks such as “Girls can’t like the color black” to restrictive role expectations like “You can’t be a superhero and a princess” and “Flutes aren’t for boys”. Although these comments can be dismissed as child’s play, they encapsulate powerful societal norms that have measurable outcomes: influencing career preferences in over 50% of individuals and impacting relationship dynamics in close to 40% of cases¹. Parallel studies in sociophonetics further reveal that gendered speech patterns develop at an astonishingly early age. When examining children’s speech productions, researchers have reported that listeners – especially those who are native speakers (L1) – are significantly better at discerning gender differences, even in children as young as 2.5 years old². This finding suggests that while some acoustic features of speech may arise from anatomical differences that emerge later in life, much of the gendered quality in speech is learned from early socialization.

The early socialization of gender roles is vividly expressed in everyday utterances. For instance, direct quotes like “Girls can’t like the color black,” “You can’t be a superhero and a princess,” and “Flutes aren’t for boys” serve as micro-level evidences of prevailing stereotypes in young children’s language. These statements, although often trivialized as part of playful banter, embed narrow gender expectations that can shape a child’s understanding of what is permissible or desirable. The cumulative weight of these messages is significant, as they contribute to deeply ingrained beliefs whereby 51% of people’s career choices and 40% of relationship dynamics are influenced by such stereotypes³. Scholarly research suggests that the proliferation of gender stereotypes in speech is not merely a reflection

of individual bias but is also sustained by broader societal infrastructures – ranging from media representation to educational practices.

Research in sociophonetics has provided compelling evidence that gender differences in speech are not solely emergent from physiological factors: instead, they are at least partly acquired through language-specific socialization. In one longitudinal study, researchers investigated whether children as young as 2.5 years exhibit perceivable gender differences in their speech. The study found that native English speakers (L1 listeners) consistently outperformed non-native listeners (L2) in classifying gender in young children’s voices, suggesting that language experience plays a crucial role in how gendered speech is perceived⁴.

Acoustic parameters such as the fundamental frequency (f0) and formant frequencies (F1 and F2) were analyzed to determine their relationship to gender identification. Although these measures had a marginal association with gender-based acoustic differences, the reliance on these cues alone was not enough to explain the perceptual disparities between L1 and L2 listeners. Instead, the findings indicate that linguistic stereotypes – preconceived ideas about how boys and girls are expected to sound – might significantly enhance the ability of native listeners to accurately judge a child’s gender. This notion shifts the focus from viewing voice differences as purely biological to understanding them as partly learned behaviors that are reinforced by sociolinguistic interactions.

Complementing the phonetic studies, research on STEM stereotypes in early childhood demonstrates that gender ideologies extend into academic and cognitive domains. In informal

- 1 Bennett, S., and Weinberg, B. (1979). “Sexual characteristics of preadolescent children’s voices,” *J. Acoust. Soc. Am.* 66, P989–1000.
- 2 Fung, P., Schertz, J., & Johnson, E.K. (2021). The development of gendered speech in children: Insights from adult L1 and L2 perceptions. *JASA Express Letters*, 1(1), 014407.
- 3 Bennett, S., and Weinberg, B. (1979). “Sexual characteristics of preadolescent children’s voices,” *J. Acoust. Soc. Am.* 66, P989–1000.
- 4 Fung, P., Schertz, J., & Johnson, E.K. (2021). The development of gendered speech in children: Insights from adult L1 and L2 perceptions. *JASA Express Letters*, 1(1), 014407.

STEM learning settings such as science museums and aquariums, both children and adolescents display evolving attitudes towards gender and ability. Early childhood is marked by rigid in-group bias, where young boys and girls assert that members of their own gender are inherently more capable in STEM disciplines. For instance, research has shown that while younger children might adhere strictly to gendered expectations – such as believing that boys should be better in STEM – this bias begins to moderate with age, leading to more equitable responses during adolescence⁵. However, even as these views become more balanced over time, the formative impact of early exposure to gendered stereotypes in both speech and play remains significant.

This article synthesizes findings from a variety of empirical studies that examine gender stereotypes in children's speech, play, and perceptions of academic abilities such as STEM. The primary sources include:

Linguistic Studies: the research by Fung et al. (2021) on the development of gendered speech in children provides the foundation for understanding how perceptible differences emerge as early as 2.5 years of age and are more accurately discerned by native English listeners. The studies employed acoustic analyses focusing on f0, F1, and F2 parameters as well as perceptual tests involving both L1 and L2 listeners.

Social and Developmental Studies on Stereotyping: evidence regarding the influence of gendered utterances in everyday settings – as well as in formal educational environments – is drawn from investigations into the impact of stereotyped comments on children's career choices and interpersonal relationships. These investigations utilized observational methods and surveys to emphasize the long-term influence of early language exposure on gendered behaviors.

STEM Stereotype Research in Informal Learning Environments: studies examining STEM stereotypes among children and adolescents in settings such as museums and science centers offer insights into the evolution of gendered ideas over developmental time. These studies, which have employed both quantitative surveys and qualitative analyses, reveal changing attitudes with age, as well as persistent biases that are particularly evident among male participants.

Observational and Qualitative Studies in Early Years Settings: additional insights are derived from qualitative observations of children's play, which indicate that stereotypical gender roles are not only reinforced through language but also through the choice of play activities and interactions with educators.

The methodology across these studies emphasizes a multi-modal approach: employing both acoustic measurements and perceptual judgments alongside observational and survey-based approaches. This combination allows for an integrative analysis of both the explicit and implicit dimensions of gender stereotyping in children's speech and behavior.

The convergence of linguistic, acoustic, and socio-cultural research on gender stereotypes in early childhood speech provides a multifaceted picture of how these norms are internalized. A critical aspect revealed by the studies is that even before anatomical vocal differences become pronounced, children display speech patterns that are perceived as distinctly male or female. This early emergence underscores the role of social learning in the acquisition of gendered behaviors.

The linguistic evidence presented – from everyday stereotyped utterances to the nuances of acoustic perception – demonstrates that gendered speech is not simply a byproduct of biological maturation. Instead, it reflects

5 Li, F., Rendall, D., Vasey, P.L., Kinsman, M., Ward-Sutherland, A., and Diano, G. (2016). "The development of sex/gender-specific /s/ and its relationship to gender identity in children and adolescents," *J.Phon.* 57, P. 59–70.

early and persistent socialization processes. The finding that L1 listeners are significantly better at gender classification than L2 listeners suggests that an individual's familiarity with the linguistic and cultural context plays a crucial role in processing gendered cues. Native speakers are presumably attuned to subtle prosodic, lexical, and intonational features that align with culturally reinforced gender stereotypes. Although the measurable acoustic differences (e.g., in f_0 , F_1 , and F_2) between boys' and girls' voices may be minimal, the perceptual reliance on these cues indicates that preconceived notions about how each gender should sound bolster listeners' judgments.

The powerful influence of parental bias and educational settings on children's gendered language use has important implications. Research has indicated that even subtle parental biases (for instance, the stark contrast where parents view construction or technical expertise as viable career choices for boys 22% of the time compared to only 3% for girls) contribute to a narrowing of children's perceived options for the future. This bias extends into early educational and social contexts, where teachers and peers further reiterate these stereotypes through both explicit language and non-verbal cues.

In early years settings, the nature of play plays a pivotal role. As documented in observational studies, children's play is often segregated along gender lines, with certain types of activities—such as domestic role play or risky outdoor activities—becoming containers for stereotypical behavior⁶. These patterns are not only reflections of pre-existing norms but also serve as mediums for reinforcing those very norms. Thus, the interplay between language, play, and broader cultural messages creates a comprehensive framework within which gender stereotypes are both

maintained and transmitted.

The interplay between gendered speech and STEM engagement offers an additional layer of insight. Stereotypes extending beyond language into academic self-concepts have long-lasting effects on participation in STEM fields. Studies conducted in informal STEM learning environments reveal that early biases – where boys are more likely to assert that their gender “should” excel in STEM – can predispose children to internalize these roles, thereby influencing their eventual academic and career trajectories⁷. These findings underscore the essential need to address gender stereotypes early, not only to promote linguistic inclusivity but also to empower a broader spectrum of academic pursuits.

One of the clearest indicators of gender stereotyping at an early age is the language children use to describe socially constructed roles and preferences. Researchers have documented instances where children either repeat or internalize statements that align with narrow gender norms. For example, remarks such as “Girls can't like the color black” and “Flutes aren't for boys” epitomize the restrictive thinking that can confine a child's perception of acceptable behavior and interests. Such statements have long-lasting effects, as evidenced by studies that show a significant correlation between these stereotypes and later career and relationship outcomes – specifically, 51% of career choices and 40% of relationship patterns being influenced by these notions.

In parental and educational settings, the reinforcement of these stereotypes is further evidenced by subtle biases. Parental expectations, such as the notion that construction or technical careers are more appropriate for boys (with studies noting that parents view construction

6 Perry, T.L., Ohde, R.N., and Ashmead, D.H. (2001). “The acoustic bases for gender identification from children's voices,” *J. Acoust. Soc. Am.* 109(6), P. 2988–2998.

7 Li, F., Rendall, D., Vasey, P.L., Kinsman, M., Ward-Sutherland, A., and Diano, G. (2016). “The development of sex/gender-specific /s/ and its relationship to gender identity in children and adolescents,” *J. Phon.* 57, P. 59–70.

as a possibility 22% of the time for boys but only 3% for girls), provide clear examples of how language and expectation intersect to shape gender identities from infancy. These findings underscore the fact that children's speech not only mirrors societal norms but also actively contributes to the construction of gendered identities through everyday interactions.

Beyond lexical content, gender differences in children's speech have also been examined from an acoustic and perceptual perspective. Studies employing advanced acoustic boys' and girls' speech patterns. Despite the absence of significant analysis have focused on parameters such as fundamental frequency (f0) and formant frequencies (F1 and F2) to decipher whether there are verifiable differences between anatomical differences in vocal tract development among children before puberty, perceptual experiments have demonstrated that native English (L1) listeners can reliably distinguish gender in children's voices as early as 2.5 years old.

A detailed analysis of the acoustic measures showed that although f0, F1, and F2 all contribute to listeners' judgments, the differences observed are only marginal at the acoustic level. This suggests that native listeners may rely on a combination of subtle acoustic cues and ingrained gender stereotypes about how boys and girls should sound. In contrast, listeners with less linguistic experience in English (L2) tended to perform significantly lower in gender classification tasks. This discrepancy indicates that cultural and linguistic familiarity plays a pivotal role in how gendered speech is perceived and interpreted, revealing the critical influence of socialization in the acquisition of speech patterns.

The emergence of gendered speech is not a static phenomenon but evolves alongside other

developmental factors. Longitudinal research indicates that gender differences in speech become increasingly pronounced as children age. By the age of 4, children typically exhibit distinct speech characteristics that allow for gender classification above chance levels, with further improvements noted at ages 5.5 and beyond.

While the focus on gender stereotypes in speech offers one perspective, another important facet is how these stereotypes manifest in children's play and their understanding of academic disciplines like STEM. Informal STEM learning settings, such as science museums and aquariums, provide unique environments to observe how early gender biases translate into academic self-concepts and preferences.

Research has shown that even in free-play environments, children's choices reflect deeply ingrained gender ideologies. Young boys and girls often exhibit an early in-group bias, with boys more likely than girls to assert that their own gender "should" be good at STEM disciplines. Such declarations are not only indicative of a narrow understanding of ability but also influence the child's self-efficacy and future engagement with STEM subjects. As children grow, there is a trend towards more equitable views; adolescents are increasingly likely to endorse the idea that both boys and girls can excel in STEM. However, this gradual shift does not erase the early formative impact of gendered speech and behavior on academic self-perception⁸.

Equally important is the role of gendered play in early years settings. Observational studies have highlighted that children's play is often segregated by gender, with girls typically engaging in activities centered on domestic roles, while boys gravitate toward more physically dynamic or 'risky' outdoor play environments⁹.

8 Li, F., Rendall, D., Vasey, P.L., Kinsman, M., Ward-Sutherland, A., and Diano, G. (2016). "The development of sex/gender-specific /s/ and its relationship to gender identity in children and adolescents," *J.Phon.* 57, P. 59–70.

9 Perry, T.L., Ohde, R.N., and Ashmead, D.H. (2001). "The acoustic bases for gender identification from children's voices," *J.Acoust. Soc. Am.* 109(6), P. 2988–2998.

Such patterns are not fixed; rather, they are heavily influenced by the type of play materials provided and the social environment.

The convergence of evidence from diverse sources underscores that gender stereotypes in English children's speech emerge early and are deeply implicated in broader social, educational, and cognitive outcomes. The key insights from this synthesis include:

Early Emergence and Reinforcement: children internalize stereotypical messages from an early age, as seen in commonplace utterances such as "Girls can't like the color black" and "Flutes aren't for boys". These messages contribute to long-term influences on career choices (51%) and relationship dynamics (40%).

In light of these findings, it is clear that addressing gender stereotypes in English children's speech requires a multifaceted approach. By challenging entrenched linguistic norms both at home and in educational settings, we can pave the way for more inclusive socialization processes that empower children to explore a broader range of identities and career paths. Future research should continue to refine our understanding of the interplay between acoustic, linguistic, and environmental factors, thereby providing robust support for interventions designed to foster equitable development in early childhood.

SO'Z BIRIKMALARI ZANJIRI

Feruza Uralovna Jumayeva – f.f.b.f.d. (PhD), dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada soʻz birikmalari zanjiri, uning semantik tuzilishi, funksional xususiyatlari hamda gap qurilishidagi oʻrni va ahamiyati tahlil etilgan.

Аннотация. В данной статье проанализирована цепь словосочетаний, её семантическая структура, функциональные особенности, а также роль и значение в построении предложения.

Abstract. This article analyzes the chain of word combinations, its semantic structure, functional features, and its role and significance in sentence construction.

Kalit soʻzlar: soʻz, soʻz birikmasi, tobe soʻz, hokim soʻz, soʻz birikmalari zanjiri, gap, gap boʻlaklari, ema, sema, semema.

Ключевые слова: слово, словосочетание, зависимое слово, главное слово, цепь словосочетаний, предложение, члены предложения, эма, сема, семема

Keywords: word, word combination (phrase), dependent word, head word, chain of word combinations, sentence, parts of the sentence, ema, sema, sememe.

Sintaktik tahlil jarayonida, avvalo, soʻz birikmasi yoki gapning maʼno-mazmunini toʻliq anglab yetish muhim hisoblanadi. Bu jarayonda intonatsiyaning ham ahamiyati katta. Shuningdek, gap mazmunini toʻgʻri talqin etishda sintagmaga eʼtibor qaratilishi zarur. Gapda ohang va toʻxtam ham muayyan maʼno-mazmun ifoda etadi va ularning oʻzgarishi gap mazmuniga oʻz taʼsirini koʻrsatadi.



Ega va kesimni bir-biridan ajratib turuvchi ohang gap mazmunini ilgʻash va gapni tushunarli tarzda talaffuz etishda muhim vazifani bajaradi. M., Darveshalining zindonda yotishi Alisherning yuragida dushmanlik olovini toʻldiradi. (U) Egadan keyingi toʻxtam(pauza) va urgʻuli ohang gap mazmunini tushunishga yordam beradi. Bunday intonatsion belgilarning mavjudligi, ayniqsa, murakkab qurilmali gaplarda gap boʻlaklarining chegarasini belgilashda qoʻl keladi. Gapni boʻlaklarga ajratib tahlil qilishda dastlabki bosqich – bu gap mazmunini tushunish va unda ishtirok etayotgan leksik birliklarning semantik

yukini aniqlashdir. Sintaktik tahlilga oʻtishdan avval gapdagi har bir soʻz va birikmaning maʼnosini, voqelikni ifodalashdagi xizmatini anglash lozim boʻladi. M., Darveshalining zindonda yotishi Alisherning yuragida dushmanlik olovini toʻldiradi. (U) Tahlilga olingan ushbu gap mazmunini tushunishga harakat qilaylik. Buning uchun dastlab gap tarkibidagi soʻz yoki birikmalar haqida tushunchaga ega boʻlish zarur boʻladi. Darveshli kim, zindon nima, zindonda yotish deganda nima tushuniladi, Alisher kim, dushmanlik olovi nima, dushmanlik olovini toʻldirish deganda nima tushuniladi, nima Alisherning yuragida dushmanlik olovini toʻldiryapti kabi savollarga javob olish kerak boʻladi. Shundan soʻng gap mazmuni va unda nima haqida gap borayotgani tahlil etiladi:

- Darveshali zindonda yotibdi.
- Bu hol Alisherning yuragida dushmanlik olovini toʻldiryapti.

Gap mazmunidan anglashilgan harakat-holat va ular oʻrtasidagi bogʻliqlik (sabab-oqibat munosabati) tushunarli boʻlgach, birikmali kesimga birikmali eganing soʻrogʻi beriladi. Shu

yo'sinda birikmali egani aniqlash hamda ega va kesimning chegarasini belgilab olish gapning sintaktik tuzilishini chuqurroq anglashga yordam beradi va barcha gap bo'laklarining vazifalarini aniqlashtirib olishga imkon yaratadi.


• Eganing savoli kesimga qo'shib o'qiladi: Nima Alisherning yuragida dushmanlik olovini to'ldiradi?

• Savolga ega (sodda yoki birikmali holda) javob bo'ladi: Darveshalining zindonda yotishi


Shu asosda ega va kesim chegarasi belgilab olinadi:

Darveshalining zindonda yotishi /Alisherning yuragida dushmanlik olovini to'ldiradi.

So'z birikmalari zanjiri gapning egasi atrofida birlashgan holat quyidagicha tahlil etiladi:



So'z birikmalari zanjiri gapning kesimi atrofida birlashgan holat quyidagicha tahlil etiladi:



Shundan so'ng egaga va kesimga bevosita yoki bilvosita tobelanuvchi bo'laklar aniqlanadi:

1. Darveshalining zindonda yotishi

• zindonda yotishi

• Darveshalining zindonda yotishi


2. Alisherning yuragida dushmanlik olovini to'ldiradi.

• dushmanlik olovini


• dushmanlik olovini to'ldiradi.

• Alisherning yuragida


• Alisherning yuragida dushmanlik olovini to'ldiradi.



Ushbu gapda so'z birikmalari zanjiri harakat nomi atrofida birlashgan va harakat nomli qurilma gapda ega vazifasida qo'llangan. Umuman, gapda harakat nomi, sifatosh, ravishdoshli qurilmalar zanjiri bir butun holda o'zidan oldingi yoki keyingi bo'laklar bilan tobehokim munosabatida bog'lanish hosil qiladi. Quyida egaga tobelangan sifatoshli qurilmaga misol keltiramiz:



So'z birikmasi zanjirini o'rganishda semik tahlil usuliga tayanish bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlashga yordam beradi. So'z shakl va ma'nodan iborat butunlik bo'lib, so'zning shakl tomoni nomema, ma'no tomoni esa semema deb yuritiladi. Semema tarkiban semalardan, semalar esa tarkiban emalardan iborat bo'ladi. M., ichmoq so'zi "suv, choy kabi suyuq modda yoki ichimlikni og'iz orqali iste'mol qilish" sememasini bildiradi. Ushbu semema tarkibida "choy" semasi mavjud bo'lib, bu sema "achchiq, shirin, hushbo'y" kabi emalarga ega. Ko'p hollarda gapda ema semani, sema esa semema (so'z)ni izohlaydi. M., ema → sema → semema qolipidagi gapga misol keltiramiz:



- shirin → ema
- choy → sema
- ichdim → semema (soʻz)

Bu gapda ema semaga tobelangan hamda u sema tarkibidagi emalardan birini aniqlashtirish, ajratib koʻrsatish maqsadi bilan gap boʻlagi sifatida yuzaga chiqqan. Sema emaga nisbatan hokim sememaga nisbatan tobe boʻlib, ema semaning tarkibini, sema esa sememaning tarkibini tashkil etadi. Umuman, bunday bogʻlanishlarda ema va sema pogʻonali tarzda sememaning tarkibiga mansub boʻladi. Shu bois gapda sememani anglatgan boʻlak bosh boʻlak, ayni shu sememaning sema, emalarini anglatgan boʻlaklar ikkinchi darajali gap boʻlaklari sifatida belgilanadi. Ega oʻziga tobelangan boʻlaklarga nisbatan semema darajasida boʻlsa-da, bu semema kesimning mazmuniy mundarijasida sema mavqeida boʻladi. Shu bois tilshunoslikda ega baʼzan bosh boʻlak, baʼzan ikkinchi darajali boʻlak sifatida baholanadi. M., Qora sochli qiz gapirdi. Ushbu gapning semantik strukturasi quyidagicha:

Ema → sema → semema / semema

Qora sochli qiz / gapirdi.


Umuman olganda gapda faqat hokim munosabatda boʻgʻlanish hosil qilgan boʻlakkina (semema) kesim vazifasidagi bosh boʻlak deb belgilanadi. Ham hokim, ham tobe munosabatda boʻlgan ema, sema yoki sememalar ikkinchi darajali boʻlaklar hisoblanadi.

Gapda semema anglatuvchi boʻlaklar koʻplab uchraydi. Sifatdoshli qurilmalarda sifatdosh,

ravishdoshli qurilmalarda ravishdosh, harakat nomili qurilmalarda harakat nomi semema ifodalaydi, shu bois bu qurilamalar atrofida soʻz birikmasi zanjiri hosil boʻladi.

Uzun koʻylak kiygan / qora sochli qiz// gapirdi.

Ema sema semema / ema sema semema // semema



Uzun	koʻylak	kiygan	qora	sochli	qiz	gapirdi.
tobe	hokim/ tobe	hokim/ tobe	tobe	hokim/ tobe	hokim/ tobe	hokim
Ikkinchi darajali boʻlaklar						Bosh boʻlak

Sintaktik tahlilni amalga oshirishdan avval morfologik tahlil bajarilishi lozim. Soʻz birikmasi yoki gap tarkibidagi har bir soʻz (leksik-grammatik birlik) soʻz yasalishi, soʻz tuzilishi va soʻz turkumlarini aniqlash boʻyicha tahlil etiladi. Soʻz birikmasi yoki gap tarkibidagi soʻzlar sodda, qoʻshma, juft, takroriy, qisqartma soʻzlarga ajratiladi, ularning tub yoki yasama ekanligi aniqlanadi, qaysi soʻz turkumiga mansubligi belgilanadi. Bu tahlillar tobe-hokim munosabatdagi boʻlaklarni ajratish va ularning gapdagi vazifasini aniqlashga yordam beradi. M., Koʻp mehnat qilmoq birikmasida koʻp soʻzi mehnat soʻzini emas, mehnat qilmoq (yasama soʻz, qoʻshma feʼl) soʻzini izohlagan shu bois aniqlovchi emas, hol vazifasida boʻlib, harakatning bajarilish miqdorini bildirgan. Soʻz birikmalari erkin va turgʻun birikmalarga ajratiladi. Turgʻun birikmalarga ibora, tasviriy ifoda, murakkab tartibli birikmalar, sintaktik qurilmalar mansub boʻladi. Murakkab tartibli birikmalarga quyidagilar misol boʻladi:


- ot turkumida: Sogʻliqni saqlash vazirligi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi;
- sifat turkumida: toʻq qizil, och yashil;

• son turkumida: bir tonnalar, ellik chaqirimcha kabi soʻz birikmalari.

Sintaktik qurilmalarga esa sifatdosh, ravishdosh harakat nomili qurilmalarni misol qilamiz. Shuningdek, sintaktik birliklar tarkibida uchraydigan gap qolipli birikmalar ham mavjud boʻlib, ular tarkibga ajratilmaydi, bir butun holda tahlil etiladi. M., sochi uzun qiz birikmasidagi sochi uzun bogʻlanishi gap qolipli bogʻlanish hisoblanadi: sochi ega, uzun kesim xarakterida bogʻlanish hosil qilgan.


“Gap tarkibida bir soʻz birikmasidagi hokim soʻz boshqa bir soʻzga tobelangan, bir hokim soʻz bir necha tobe soʻz yoki bitta tobe soʻz bir necha hokim soʻzga aloqador boʻlgan hollarda soʻz birikmalari zanjiri hosil boʻladi. Soʻz birikmasidagi tobe va hokim soʻzlar orasida bir necha boshqa soʻzlar va soʻz birikmalari kelishi mumkin”¹. Soʻz birikmalari zanjiri quyidagi tahlil etiladi:

1. Bir soʻz birikmasidagi hokim soʻz boshqa bir soʻzga tobelangan boʻladi:




Esgan soʻzi shimolga nisbatan hokim, shamolga nisbatan tobe bogʻlanishda boʻladi.


2. Bir hokim soʻz bir necha tobe soʻzga aloqador boʻladi:



3. Bitta tobe soʻz bir necha hokim soʻzga aloqador boʻladi:



4. Soʻzning soʻz birikmasiga tobelanishi kuzatiladi:




5. Soʻz birikmasi soʻzga tobelangan boʻladi:



6. Soʻz birikmasi soʻz birikmasiga tobelanadi:




7. Bir soʻzning soʻz birikmasi zanjiriga tobelanganini kuzatamiz:




¹ Qodirov M., Neʼmatov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili: 8-sinf uchun darslik. – T.: Choʻlpon, 2010. –B.39.


8. Soʻz birikmasi zanjiri soʻzga tobelangan boʻladi:




9. Soʻz birikmasi soʻz birikmasi zanjiriga tobelangan boʻladi:




10. Soʻz birikmasi zanjiri soʻz birikmasiga tobelangan boʻladi:




11. Soʻz birikmasi zanjiri soʻz birikmasi zanjiriga tobelangan boʻladi:



Gapda soʻz birikmalari zanjiri ega va kesim atrofida birlashgan boʻladi. Gapda ega ishtirok etmagan boʻlsa, barcha boʻlaklar sodda yoki birikmali holda kesimga tobelanadi. Soʻz birikmalari zanjiri gapning kesimi atrofida birlashgan holatga misol keltiramiz:



Baʼzan soʻz birikmasi zanjiri gapning egasi atrofida birlashgan holatda ega va kesim bogʻlanishi hosil boʻladi:



Soʻz birikmasining tarkibi tobe soʻz, hokim soʻz deb, soʻz birikmasi zanjirining tarkibi esa tobe qism, hokim qism deb yuritiladi.

Tobe bogʻlanish			
Soʻz birikmasi		Soʻz birikmasi zanjiri	
Tobe soʻz	Hokim soʻz	Tobe qism	Hokim qism
Chinni	piyola	Paxta gulli	chinni piyola


Soʻz birikmasi zanjiri tarkibidagi tobe va hokim qismlar soʻz, soʻz birikmasi, soʻz qoʻshilmasi yoki soʻz birikmasi zanjiri shaklida ifodalanadi. Bunga quyidagi misollarni keltiramiz:

Soʻz birikmasi zanjiri	
Tobe qism	Hokim qism
Katta	qora sigir
Oq gulli	koʻylak
Paxta gulli	chinni piyola
Yangi va qiziqarli	asar
Xalqimizning	urf-odatlar va anʼanalari
Oʻquvchining	bahor mavzusidagi qiziqarli inshosi
Bahor mavzusidagi qiziqarli inshoni	oʻqish
Paxta gulli chinni piyolada	choy ichmoq
Uch bolali ayolning	baland boʻyli bolasi

Har bir tilda oʻziga xos sintaktik qoliplar mavjud boʻlib, uni idrok etish va unga biriktirilgan maʼno-mazmunni tushunib, anglab yetish uchun til egalaridan bilim va tajriba talab etiladi. Soʻz birikmasi, sodda yoki murakkab gaplarni idrok etish, ularning maʼno-mazmunini ilgʻashga oʻrgatishda soʻz birikmalari zanjiri ustida ishlash yaxshi samara beradi. Soʻz birikmasi zanjirini oʻrganish orqali gap boʻlaklarini ajratish, ularning vazifasini belgilash boʻyicha bilim va koʻnikmalar hosil boʻladi. Baʼzan bitta soʻz birikmasi zanjiri

bitta gap bo'lagini tashkil etadi. Uning tarkibini tashkil etuvchi so'zlar esa bo'lakning bo'laklari sifatida tahlil etiladi.

Kesim			
Bu masalalarni tezda yechish kerak			
To'ldiruvchi		Kesim	
Bu masalalarni		tezda yechish kerak	
Aniqllovchi	To'ldiruvchi	Hol	Kesim
Bu	masalalarni	tezda	yechish kerak



So'z birikmalari zanjirini o'rganish sintaktik munosabatlarga oid qonuniyatlarni anglash, mazmunli va grammatik jihatdan to'g'ri gaplar tuzish, shuningdek, sintaktik qurilmalarni ongli ravishda shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir gap bo'lagi gapda muayyan sintaktik tartib asosida o'z o'rni va vazifasiga ega bo'ladi. O'zbek tilida odatiy holatda ega kesimdan oldin keladi. Gap bo'laklari tartibining o'zgarishi (inversiya hodisasi) natijasida gapda yangicha ma'no-mazmun yaraladi. Inversiya hodisasi tilning konstruktiv (yaratuvchanlik) xususiyatini namoyon etadi. Inversiyaga uchragan gapning mazmunini to'g'ri talqin qilishda uning hosil bo'lishiga asos bo'lgan tartibli gap (gap bo'laklari tartibli joylashgan gap, yadro qolip) mazmuni muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. M., U sayohatga bordi gapida tinch ohangda ifodalangan oddiy axborot – ya'ni "uning sayohatga borganligi" haqida ma'lumot beriladi. Biroq U bordi sayohatga tarzidagi inversiyaga uchragan gapda esa ega bo'lagi (u) urg'u bilan aytiladi va bu ta'kid ohangi orqali nutqiy vaziyatga bog'liq holda bir qator presuppozitsiyalar, hatto tagma'nolar yuzaga keladi. Masalan, bu gap kontekstga qarab "Men emas", "Men borganim yo'q" kabi inkor yoki taqqoslashni anglatuvchi ma'no qatlamlarini yaratishi mumkin. Bitta gap orqali bir nechta

ma'no-mazmunning anglashilishi polisemiya, assimetriyani yuzaga keltiradi. Ko'p mazmunli gaplarning semantik qatlamlari orasida zidlik, qarama-qarshilikning yuz berishi, ayniqsa, propozitsiya va presupozitsiya o'rtasida yuzaga keladigan zidlanish gap mazmunini murakkab va ko'p qatlamli, beqaror tizimga aylantiradi. Sintaktik birliklarning semantik qurilishi, gap bo'laklarining tartibli va tartibsiz joylashuvi, gap tuzish va uni idrok etish masalalarini pragmatik, kognitiv, psixologik nuqtayi nazardan tadqiq etish sintaktik tizimda kechayotgan o'zgarishlarning asosini topishga keng yo'l ochadi. Shu bilan birga, sintaktik birliklarning ma'no-mazmunini murakkab, ochiq semantik tizim sifatida baholash va unda kechayotgan jarayonlar, o'zgarishlarni diskursiv-sinergetik yondashuvlar asosida o'rganish so'z birikmasi yoki gap mazmunining yaralishi va tarkiban kengayishiga asos bo'luvchi omillarni keng doirada aniqlashga ko'mak beradi.

O'ZINIKI BO'LMAGAN KO'CHIRMA GAPLAR XUSUSIDA

Shoxida Isoqovna Siddiqova –f.f.b.f.d. (PhD), dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqola o'zga gaplarni, ularning tipologik xususiyatlarini hisobga olgan holda har taraflama o'rganishga bag'ishlangan. Jamiyat tinimsiz taraqqiy qilar ekan, unda bo'layotgan o'zgarishlar tilning barcha sathlari qatori uning sintaktik qurilishida, xususan, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar shaklida ham o'z aksini topishi tabiiy, albatta. Shunga ko'ra o'zga gap va uning ko'chirma gap, o'zlashtirma gap kabi ko'rinishlari, xususan, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar – o'zga nutqini ifodalash usullaridan biri bo'lib, u muallif va personaj nutqiy munosabatini tavsiflab keladi.

Аннотация. Данная статья посвящена комплексному изучению альтернативных предложений с учетом их типологических особенностей. Поскольку общество постоянно развивается, закономерно, что происходящие в нем изменения, а также изменения на всех уровнях языка, отражаются в его синтаксической структуре, в частности, в форме неоригинальных фрагментов. Соответственно, альтернативные предложения и их проявления, такие как фрагменты, заимствованные предложения, в частности, неоригинальные фрагменты, являются одним из способов выражения альтернативной речи, характеризующей речевые отношения между автором и персонажем.

Abstract. This article is devoted to a comprehensive study of alternative sentences, taking into account their typological characteristics. As society is constantly developing, it is natural that the changes taking place in it, along with all levels of the language, are reflected in its syntactic structure, in particular, in the form of non-original fragments. Accordingly, alternative sentences and their manifestations such as excerpts, borrowed sentences, in particular, non-original excerpts, are one of the ways of expressing alternative speech, which characterizes the speech relationship between the author and the character.

Kalit so'zlar: o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar, o'zga gap, ko'chirma gap, o'zlashtirma gap, personaj nutqiy munosabati.

Ключевые слова: неоригинальные фрагменты, альтернативные предложения, фрагменты, заимствованные предложения, речевые отношения между персонажами.

Keywords: non-original excerpts, alternative sentences, excerpts, borrowed sentences, character speech relationship.

Mustaqillik tufayli tilshunoslik fani ham taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bugungi kunda o'zbek tilining turli sathlarini tadqiq qilish bo'yicha bir qator yutuqlarga erishilgan, turli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, hali amalga oshirilishi lozim vazifalar, o'z tadqiqotchilarini kutib yotgan muammolar ko'p. Ana shulardan biri o'zbek tilidagi o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarni o'rganish masalasi bo'lib, tilshunoslikda bu masala bo'yicha ayrim ishlar amalga oshirilgan. Lekin ularda o'zga gaplarning badiiy matnlarda namoyon bo'lishi, lingvopoetik imkoniyatlari yetarlicha o'rganilmagan. Bu esa mazkur masalaga jiddiy yondashishni va tilimizda o'zga gaplarning o'ziga xos xususiyatlarini alohida tadqiqot obyekti sifatida maxsus o'rganishni taqozo qiladi. Qayd etilgan bu holatlar mavzu dolzarbligini

belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari mazkur mavzuning dolzarbligi uning muammolari zamonaviy qarashlar asosida hal qilinishi bilan ham izohlanadi. Mazkur maqola o'zga gaplarni, ularning tipologik xususiyatlarini hisobga olgan holda har taraflama o'rganishga bag'ishlangan. O'zga gap va uning ko'chirma gap, o'zlashtirma gap kabi ko'rinishlari, xususan, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar – o'zga nutqini ifodalash usullaridan biri bo'lib, u muallif va personaj nutqiy munosabatini tavsiflab keladi. O'zga nutqi muammosi o'z mohiyatiga ko'ra lingvistik fikrlar taraqqiyoti mobaynida doimo olimlarning qiziqishlari markazida turgan. Ammo ko'chirma va o'zlashtirma gaplarni o'rganish, umuman olganda, lingvistik g'oyalar taraqqiyotida o'z ifodasini topmadi, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarni o'rganish esa

lingvistikada va u bilan bog'liq bo'lgan gumanitar fanlar doirasidagi g'oyalar rivojlanishida muhim rol o'ynadi va o'ynamoqda. O'zga gaplar hozirgi tilshunoslikda sintaksisning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi.

Ijodkorning o'zini o'rab turgan obyektiv voqelikni idrok qilishi uning shu asarni yaratishida tilda mavjud bo'lgan lisoniy vositalardan, jumladan, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplardan ham foydalanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ayrim darslik va o'quv qo'llanmalarda o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar nutq ifodalashning alohida mustaqil turi sifatida ajratilsa-da, bu gaplar ko'chirma va o'zlashtirma gaplar qatorida qaraladi. O'zga gapga bag'ishlangan ishlar tahlilida ular ko'chirma va o'zlashtirma gaplarning qo'shilishidan hosil bo'lgan qorishiq shakldek tasavvur uyg'otadi. Haqiqatan ham, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap tuzilishida ko'chirma va o'zlashtirma gaplarga xos belgilarni ko'rish mumkin, ammo bu uning faqat shakliy tomonini tashkil qiladi. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar strukturasining grammatika bo'yicha emas, matn qonuniyati bo'yicha shakllanishi badiiy matnda ijodkorning fikrlashi, ongi orqali amalga oshadi. Muallif fikrlarining umumlashmasi sifatida matn semantik sathda ham, grammatik sathda ham buni namoyon etadi. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarni ko'chirma va o'zlashtirma gaplar bilan taqqoslab ko'ramiz. Biz bu hodisaning tuziliishi va funksional imkoniyatlarini aniqlaganimizdan so'ng o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning hosil bo'lishida nutq ifodalashning bu ikki usulining ahamiyatini belgilash mumkin. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap haqida fikr yuritish matn stilistikasi, matnda qo'llanuvchi lisoniy birliklarni izohlash tamoyili haqida ham gapirishni taqozo qiladi. Badiiy matnlarning kompozitsion nutq qurilishi, avvalo, muloqot doirasida, badiiy matn uchun vazifaviy xoslanish, matndagi qo'llanish hajmi va qanday

lisoniy vositalar ishtirokida voqelanganligiga ko'ra tavsiflanadi. Tilshunos N.Mahmudov matnning kompozitsion tuzilishida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlar haqida fikr yuritganda quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: "Yaxlit matnning mantiqiylikni ta'minlashda matnning kompozitsion tuzilishini to'g'ri tashkil etish ham hal qiluvchi ahamiyatga molikdir. Bayon qilinayotgan fikr, mazmun tarkibida, tabiiyki, muayyan ketma-ketlik, aloqadorlik, bog'liqlik, umuman, sistema mavjud. Mazmundagi ana shu sistema nutqiy ifodada ham ro'yi rost o'z aksini topmog'i lozim. Mantig'i sog'lom matn "biri tog'dan, biri bog'dan" fikrlar "bo'tqa"sidan iborat bo'lmaydi. Shuning uchun matnda fikr rivojining o'zanini buzmaydigan aniq kompozitsiya bo'lishi zarur"¹. Kompozitsion nutq qurilishining me'yoriy tavsiflari, ular adabiy an'analarda qanday shakllanganligi, kompozitsion nutq qurilishining har bir komponenti namoyon bo'lishi haqida gapirish mumkin. A. Shomaqsudov ta'kidlaganidek, "adabiy asarlarda individual xususiyatlar asarning badiiylik qiymatini belgilovchi asosiy o'lchovlardan biridir va shu sababli yozuvchining adabiy asarda voqelikni badiiy idrok etishi, obraz yaratishi, asar kompozitsiyasi bilan bog'liq bo'lgan individual xususiyatlarning hammasi asar tilida yorqin namoyon bo'ladi"². Kompozitsion-nutq qurilishiga muallif gapi, ko'chirma gap, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma nutq kabilarni kiritish mumkin. Ularning me'yoriy tavsifi quyidagicha namoyon bo'ladi: muallif gapi monologik ko'rinishda bo'lib, birinchi va uchinchi shaxs shaklida namoyon bo'ladi. Birinchi shaxs shaklida muallif "men"i bo'rtib turadi va eksplitsit shaklda ifodalanadi, uchinchi shaxs shaklida esa muallif eksplitsit ifodalanmaydi. Muallif gapi nutq qaratilgan obyektga ta'riflash, hikoya qilish, mulohaza qilish kabi vazifalarini bajarib, badiiy prozaik matnda salmoqli o'rin egallaydi. Muallif gapi ifodalanishida adabiy tildagi mavjud

1 Маҳмудов Н. Нутқ маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси // Филология масалалари. 2006, № 2 (11). Б.51.

2 Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 33.

me'yorlarga asoslaniladi. Ko'chirma gapda nutq subyekti-jo'natuvchi va nutq qaratilgan shaxs-oluvchi sifatida badiiy matnga tegishli personaj chiqadi. Asar muallifi har bir til birligini qo'llashda, albatta, ma'lum bir kommunikativ maqsadni ko'zda tutadi. Shunga ko'ra ko'chirma gaplarning badiiy matnda bajaradigan asosiy vazifasi asar qahramonlarini tavsiflash, ularning mukammal portretini yaratishdan iborat bo'ladi.

Ko'chirma gaplarning badiiy matnlarda qo'llanish darajasi muallif gapiga nisbatan sezilarli darajada past bo'ladi. Ichki monologda so'zlovchi ham nutq qaratilgan shaxs ham bir kishi hisoblanadi. Ichki monologning funksional xoslanishi – nutq subyektining ichki dunyosini ochib berish, uning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, voqelik faktlariga munosabati va ularni baholashi hisoblanadi. An'anaga ko'ra ichki monologning qo'llanishi va ahamiyatini subyekt belgilab beradi.

Kompozitsion-nutqiy struktura doirasida shakllangan o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap ko'chirma gap va o'zlashtirma gaplarga nisbatan keyinchalik shakllangan. Kommunikativ doirada muallif gapida xabar, ma'lumot berish mazmuni ifodalansa, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarda personajni tavsiflash muhim o'rin tutadi.

O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap subyekt ta'rifini o'zgartirmay, qahramonni yaratish rejasiga kiritiladi. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap o'zlashtirma gap va ko'chirma gap bilan teng emas. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar grammatik, sintaktik va leksik belgilariga ko'ra ajratiladi. O.Yoqubovning "Adolat manzili" asarida Veteran obrazini tasvirlashda qo'llanilgan o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarda grammatik zamon o'zgarishi, qahramon ongida yangi o'zgarishlar paydo bo'lishi kabi holatlar muhim o'rin tutadi. Matnda qo'llanilgan o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar personaj – Veteran ichki dunyosini ifodalashda ichki monologga vazifa jihatidan

mos keladi: Veteran dabdurstdan gap topolmay dovdirab qoldi. Miyasini esa afsus-nadomatga to'la alamli o'ylar shafqatsiz parmaladi: "Ha, nega qari firibgarining" gaplaridan darg'azab bo'lasan? Nega dag'-dag' titraysan ilonning yog'ini yalagan bu ig'vogarni lavozimlarga ko'targanlardan biri o'zing emasmisan? Viloyatda kotiblik qilganingda qo'llab-quvvatlab, katta yo'l ochib bermaganmiding bu tullakka?" (Odil Yoqubov "Adolat manzili").

O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar va ularning badiiy matnda tutgan o'rni, lingvopoetik vazifalari, uslubiy xususiyatlari to'g'risida nafaqat tilshunoslikka oid manbalarda, balki adabiyotshunoslikka oid izlanishlarda ham fikr yuritiladi. Jumladan, 1978-yilda nashr etilgan "Adabiyot nazariyasi"ning II tomida: "Badiiy nutqda o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarning shakllaridan foydalanish "qisman" o'zlashtirilgan ko'chirma gap orqali tafakkur yuritish san'ati" deb ta'rif beriladi. Shunday ekan, adiblar o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplardan ham boshqa badiiy san'at turlari, badiiy tasvir vositalari singari faol foydalansalar, qahramonlarning ichki his-tuyg'ularini ana shu vosita orqali o'quvchiga yetkazib berishga harakat qilsalar, badiiy nutqning estetik ta'sir kuchini yanada oshirgan bo'ladilar. Zero, badiiy so'z san'atining asosiy mohiyati san'atkor his qilgan biror tuyg'u kayfiyatini o'quvchiga yetkazishdan iborat. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarning badiiy matnning estetik vazifasini yuzaga chiqaradigan, uning ta'sirchanligini ta'minlaydigan badiiy tasvir vositalaridan biri ekanligi filologiya ilmida e'tirof etilgan haqiqatlardan biridir³. Mana shu estetik vazifani o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar ifodalaydi.

Ko'rinadiki, badiiy matnda o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar sezilmas darajada bo'ladi. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar tasvirlanayotgan personaj xarakter-xususiyatlarini, voqelik faktlariga munosabatini

ochib berishda tildagi mavjud vositalarga asoslaniladi va u lisoniy tavsifga ko'ra muallif gapiga mos kelishi kuzatiladi. Muallif tomonidan ongli ravishda matnga kiritilgan va uslubiy vosita sifatida ishtirok etuvchi sintaktik birlikning o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap sifatida qaralishi uchun badiiy matnlarda o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarni uslubiy maqsadda qo'llashda tasvirlanayotgan personaj va uning kognitiv-pragmatik imkoniyatlari doimo e'tiborda bo'ladi; tahlil qilinayotgan matn va tasvirlanayotgan personaj shaxsiy xususiyatlari: uning voqelikni idrok qilishi, o'y-kechinmalari, fikr ifodalash imkoniyatlari o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladi; badiiy matnda, albatta, tasvirlanayotgan voqea-hodisalar, manzaralar insonga bog'liq holda o'z badiiy talqiniga ega bo'ladi.

"DEVONU LUG'OTIT TURK"DAGI OMONIMLAR TAVSIFI

Muqaddas Abdurahmanova – f.f.d., dotsent,
O'zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. Maqolada Mahmud Koshg'ariyning XI asrga oid "Devonu lug'otit turk" asaridagi omonimlarning turkiy tillarda keng qo'llangani, tavsifi va statistikasi o'rin olgan.

Аннотация. В статье содержится описание и статистика широкого использования омонимов в тюркских языках в произведении Махмуда Кашгары «Девону лугатит тюрк».

Abstract. The article contains a description and statistics of the widespread use of homonyms in the Turkic languages in the work of Mahmud Kashgarsky "Divan lugat at-Turki".

Kalit so'zlar: omonimiya, leksik omonimlar, omonema, polisemiya, mental leksika.

Ключевые слова: омонимия, лексические омонимы, омонема, полисемия, ментальный лексикон.

Keywords: homonymy, lexical homonyms, homoneme, polysemy, mental lexicon.

Omonimiya hodisasi va omonimlar talqini turkologiyaning asosiy masalalaridan biri bo'lib kelgan. Turkiy tillarning omonimlik xususiyatlari qiyosiy aspektda tavsiflangan. Omonimiya va polisemiya hodisasi ko'pincha farqlanmasa-da, omonimlar semantik va ba'zan fonomorfologik tuzilishi, shakllar tizimi o'rtasidagi munosabatga ko'ra keskin ajralib turadi. Ularning semantikasi o'zaro bog'liq ma'nolar, bir so'zning asosiy va hosilaviy, to'g'ridan-to'g'ri va ko'chma ma'nolaridan farq qiladi. Shuningdek, omonimlar obyekt yoki hodisani nomlashning umumiy yoki birlashtirilgan ichki tuzilish belgilariga ega emas. Ana shu sifatlari bilan omonimiya polisemiya bilan farqlanadi. "Devonu lug'otit turk"da so'z ma'nolarining izohlanishi, tushunchaning bir necha qabila nutqidagi ko'rinishlari, leksemalar ma'nolarining keltirilishi o'zbek tili leksik semantikasi taraqqiyoti uchun zamin hozirladi. Dunyo turkiyshunosligida, xususan, o'zbek tilshunosligida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" (ba'zi o'rinlarda "Devon") asari yuzasidan tadqiqotlar yaratilgan.

Mahmud Koshg'ariyning XI asrga oid "Devonu

lug'otit turk" asari omonimlarning turkiy tillarda keng qo'llanganini ko'rsatadi. Qirg'iz olimasi Z.M.Musabayeva Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida o'zak holatida bo'lgan 100 ga yaqin omonimlar mavjudligini qayd etgan: qap (qopmoq), qap (qop-meshok), qap (organizm qismi), qap (yaqin qarindosh). "Devon"da 375 omonim so'z qo'llangani, shulardan 104 tasi leksik omonim, 59 tasi leksik-morfologik, 86 tasi ko'p ma'noli, 126 tasi fonetik omonimlar ekanligini, jami lug'at so'zligining 5%ini tashkil etishini ko'rsatgan¹.

B.Abdushukurov zoonimlardagi omonimlik haqida to'xtalib, bunday shakllarning XI asr manbalarida faol qo'llanganini ta'kidlagan. "Devon"da zoonimlarga oid yigirma to'rtta omonimik qator mavjudligini qayd etgan².

H.Dadaboyev "Devon"dagi omonimlar qatorini tarkibiga ko'ra besh guruhga ajratgan: 1) ot turkumi (tub, yasama)ga oid omonimlar; 2) ot va sifat turkumiga oid omonimlar; 3) ot va boshqa so'z turkumlari o'rtasidagi omonimlar; 4) ot va undov so'zlari o'rtasidagi shakldoshlik;

1 Мусабаева З.М. Омонимы в "Дивану лугатит тюрк" Махмуда Кашгарского (XI в.). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Фрунзе: 1975.-11 с.

2 Абдушукуров Б. XI-XIV аср туркий ёзма манбалар тилидаги зоонимлар. Филол. фан. номз... дисс.-Тошкент, 1998. – Б.130.

5) fe'l turkumiga xos leksemalar shakldoshligi. "Devonu lug'otit turk" turkiy tillarning omonim birliklarini jamlagan muhim manba sifatida e'tirof etilgan³.

G.Roziqova "Devon"dagi ot leksemalarning semantik, funksional va uslubiy xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotida omonimlar xususida ham to'xtalib o'tgan. Lug'atdagi ot leksemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini tasniflab, shakldosh so'zlarni izohlagan. Omonim leksemalarni uch katta guruhga ajratgan: 1. Narsa-buyum va shaxs nomini ifodalovchi leksemalar o'rtasidagi omonimlik. 2. Shaxs nomini ifodalovchi leksemalar o'rtasidagi omonimlik. 3. Turdosh va atoqli ot omonimligi. Turdosh otlarning antroponim, toponim bilan omonimligi ham yoritilgan. Omonimlarning derivatsiya usuli bilan hosil bo'lishi ko'rsatib berilgan. Ot, sifat, fe'l asosdan yasalgan omonimlar tahlil qilingan. "Devon" asosida leksik omonimlarning yuzaga kelish usullari tahlil qilingan. Tadqiqotchi devonda omonim sifatida izohlangan ayrim so'zlarning ko'p ma'noli ekanligini qayd etgan. Jumladan, öpkä ökpa so'zini omonim emas, ko'p ma'noli so'z deb keltirgan. "g'azab" ma'nosidagi öpkä bilan "oq jigar" ma'nosidagi (tana a'zosi) öpkä aslida ko'p ma'noli so'zdan shakllangan omonim hisoblanadi. Bu o'rinda metonimiya asosida ma'no ko'chishi yuz bergan. Mahmud Koshg'ariy keltirgan "yomg'ir" ma'nosidagi osmon so'zida ham metonimiya asosida omonim shakllanishi kuzatiladi⁴.

"Devonu lug'otit turk" turkiy omonimlar aks etgan dastlabki manbadir. Omonimlar tadqiqida nashrga tayyorlovchi f.f.d., prof. Q.Sodiqovning (Solih Mutallibov tarjimasi asosida qayta ishlangan, to'ldirilgan, o'zgartirishlar kiritilgan mukammal nashri) 2017-yilda nashr etilgan "Devonu lug'oti-t-turk" (Turkiy so'zlar devoni) dan foydalanildi. Devonda hamza bilan

boshlangan ismlar (ya'ni alif bilan boshlanuvchi otlar) ikki harfli so'zlar bobida – 82 ta; (boshda hamza kelgan) fe'llar; ikki harflilar bo'limida – 40 ta; salim otlar (oxirida alif, vav, ya va hamza harflari bo'lmagan so'zlar) ikki harflilar bobida – 134 ta; salim fe'llar kitobidir, ikki harflilar bobida – 147 ta; muda'af otlar; ikki harfli otlar bobida – 10 ta; muda'af fe'llar; ikki harflilar bobida – 32 ta; musal so'zlar; ikki harflilar bobida – 39 ta; boshida harfi illat bo'lgan fe'llar; ikki harflilar bobida – 43 ta; uch harfli so'zlar; ikki harfli otlar bobida – 70 ta; manqush fe'llar; ikki harfli fe'llar bo'limida – 11ta; ikki harfli ismlarning davati-l-arba'a, ya'ni alif, vav, ya harflari qisqa unli sifatida yoki [v], [y] deb o'qiladigan so'zlar qismida – 24 ta; davati-l-arba'a so'zlarning fe'llar kitobi; ya'ni alif, vav, ya harflari qisqa unli sifatida yoki [v], [y] deb o'qiladigan so'zlar; ikki harflilar bo'limida – 60 ta; gunnal otlar; ikki harfli otlar bo'limida – 22 ta, gunnal fe'llar; ikki harflilar bobida – 13 ta; sukun yonma-yon kelgan so'zlar; otlar bobida – 17 ta omonim so'z qatori, jami – 748 ta omonim (shakily bir xil so'zlar) mavjudligi aniqlandi. Devonda keltirilgan ayrim omonim so'zlar ko'p ma'nolilik xususiyatiga ham egadir: 1. Ot (o't) – o't; Ot (o't) – dori, davo; Ot (o't) – og'u, zahar; -Ot (o't) – o't, o'simlik; Ot (o't) – hayvonlar yeydigan har turli xashak. 2. Ogur – vaqt; Ogur – badal, Ogur – ishning o'rnida bo'lishi, joyida, vaqtida bo'lishi; Ogur – davlat, dargoh. 3. Achig – xon yoki shohning baxshishnomasi, mukofoti; Achig "achchiq" – noz-ne'matlar ichida yashash, noz-ne'matlardan bahramand bo'lish. Ariqladi – qozı ariqladi – (kishi) qo'zining va boshqa (hayvon)larning a'zosini olib tashladi, bichdi. Ariqladi – ol yarmaqig ariqladi – u tanganing yaxshisini, o'tadiganini terib chiqdi. Ariqladi – ol kapaz ariqladi – u paxtaning urug'ini, chigitini chiqardi, ayirib oldi. Qayd etilgan omonimlarning aksariyati hozirgi o'zbek adabiy tiliga qadar iste'moldan chiqqan. Uch va undan ko'p shaklga

3 Дадабоев Х. "Девону луғотит турк"нинг тил хусусиятлари. –Тошкент, 2017. – Б.97-103.

4 Розикова Г. "Девону луғотит турк" асаридаги от лексемаларнинг семантик, функционал ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. док. (DSc) ...дисс. –Фарғона, 2021. –285 б.

ega bo'lganlarning ikkitasi ko'p ma'noli bo'lsa, bittasi ularga nisbatan omonim munosabat hosil qiladi: Masalan, o'gur I "vaqt"; o'gur II "badal" so'zlari o'zaro omonimik munosabatdadir. O'gur "vaqt", O'gur "ishning o'rnida bo'lishi, joyida, vaqtida bo'lishi" ko'p ma'nolilik munosabatini hosil qilgan. Asarda jami 247 ta ko'p ma'noli so'z qayd etilgan.

Quyidagi omonimik qatorlardan ayrim omonemalargina (omonimik qatordagi birorta so'z) hozirgi o'zbek tiliga yetib kelgan: 1. Qiz – qimmatbaho narsa; Qiz – qiz Qiz (qiz) – Qiz; joriya; Qiz (qiz) – Qiz. 2. Bars – bars, qoplon. Bars – chivin, pashsha chaqishida yoki eshakyemi boshlanishida terida paydo bo'lgan paysa, shish; Bars – bars, qoplon. Bars – turkcha o'n ikki muchal yillaridan birining nomi. 3. Čağır – Sharbat. Čağır – Tor va kichik yo'l. Čağır – Ichkilik, may. XV asr manbalarida "ichkilik" ma'nosidagi čağır faol qo'llangan. 4. Qoğuş – Oshlangan va oshlanmagan hayvon terilari. Qoğuş – Suv yo'li, tarnov. Qoğuş – Tegirmän qoğuşı – tegirmon novi. 5. Burun (– Burun. Burun – Oldin, ilgari; Burun – Burun. Burun (burun) – Uch, burun. Burun omonimik qatori hozirda ham ishlatiladi. 6. Karši – Shoh qasri; Karši – Teskari, qarshi; Karši – Ikki bek orasidagi qarshilik; ol beg anij. 7. Tawğaç – Mäşin mamlakatining oti; Tawğaç – Tawğaç yudası – bargi savsan gulining barglariga o'xshash bir daraxt. Tawğaç – Mäşin mamlakatining oti; Tawğaç – Uyğur.

Mahmud Koshg'ariy kitobning har bir bo'limida omonim so'zlarni keltirgan va ma'nosini izohlagan. "Bu hamza bilan boshlangan ismlar kitobidir (ya'ni alif bilan boshlanuvchi otlar)". Ikki harfli so'zlar bobida keltirilgan omonimlar: 1. Et (et) – ingichka talaffuz qilinadigan alif bilan; et, go'sht. [Et (et)] et yer – yumshoq yer, yumshoq tuproq. 2. Ot (o't) – o't, o'simlik; ot ündi – o't undi, o't o'sdi. Ot (o't) – hayvonlar yeydigan har turli xashak, o't; atqa ot bergil – otga o't ber. Ot (o't) – dori, davo; ot içtim – dori ichdim; "tabib" ma'nosidagi otači so'zi shu so'zdan yasalgan.

Ot (o't) – og'u, zahar; beg anar ot berdi – bek unga zahar berdi. 3. Uč (Uch) – yo'g'on talaffuz qilinadigan alif bilan; shahar oti. Uč (uch) – tog'da o'sadigan daraxtlardan biri; turklarda qalam shu daraxtdan yasaladi; bundan dug, hassa ham qilinadi. 4. Ič (ich) – har narsaning uchi. [Ič (ich)] ič qur – ichdan bog'lanadigan belbog'. [Ič (ich)] ič söz – ko'ngildagi, dildagi yashirin narsa, sir. [Ič (ich)] ič et – jigarga yopishib turadigan nozik et. 5. Us (us) – o'g'uzchada yomon va yaxshini bir-biridan farqlash; ol us boldi – u yaxshi-yomonni ayirdi, farqiga bordi. Us (us) – qarsak qushi; burgut. (Shoir) shunday degan: Keldi meña tat, /Aydım emdi yat. /Quşqa bolup et, /Seni tilär us, böri. 6. Uş (ush) – shunday, xuddi; uş mundağ qıl – xuddi shunday qil. Uş (ush) – hozirgina, shu onda; uş keldüküm bu – hozirgina kelib turganim. Hozirgi ushbu ko'rsatish olmoshi shu so'zdan yuzaga kelgan. 7. Oq (o'q) – o'q. Oq (o'q) – to'sin yoki xari; ew oqi – uy o'qi, bolor yoki to'sini. Oq (o'q) – yer va boshqa hissalarini ajratishda ishlatiladigan chek (qur'a). 8. Ol (o'l) – "u" ma'nosida; ol andağ aydi – u shunday dedi. Ol (o'l) – u (ishorat); ol yer – u kishi.

"Devonu lug'otit turk"dagi omonimlarning ayrimlari hozirgi o'zbek tilida qo'llanadi: qat I – qavat; ton qati – to'n qati; qat I – o'g'uzcha "yon" va "old" ma'nolarida ishlatiladi: beg qaiında – bek yonida (DLT, I); kün – kun, quyosh; kün (kun) – kun, qunduz (DLT, I). Devonda keltirilgan til I – so'z, kalom; til II – tana a'zosi; til III – so'z, lug'at omonimik qatori hozirgi o'zbek tilida shu shakl va mazmunda ishlatiladi; til IV omonemasi arxaiklashgan bo'lib, "ma'lumot olishda foydalaniladigan asir" tushunchasini ifodalaydi. Turk tilida so'z undoshning o'g'uz guruhiga xos jaranglashgan ko'rinishida qo'llanadi: til <dil. sirkä I (sirka) – "sirka"; sirkä II "boshdagi bit sirkasi" omonimlari o'zbek va turk tillari (ba'zi turkiy tillarda ham)da aynan ishlatiladi.

Mahmud Koshg'ariy o'z lug'atiga uch tovush qobig'idan iborat qaq omonim so'zlarini kiritgan bo'lib, ulardan biri "ko'l", "chuqurlik", "quruq

joy", "ko'lmak", ikkinchisi "suyak", "danak" ma'nolaridan tashqari quritilgan yoki yarmiga yoki tilimga kesib, ichaklari olib tashlash yo'li bilan quritilgan oziq-ovqat mahsulotini bildiradi. Qaq (qaq) – 1. O'rik, shaftoli singari mevalarning danagi. Shundan kelib chiqib, shaftoli va boshqa mevalarning danagiga eruk qaqi deyiladi. Qaq (qaq) – Qaq et – qoq go'sht. Quritilgan har qanday narsaga ham shu so'z ishlatiladi. Qaq (qaq) – Yomg'ir va sel suvidan paydo bo'lgan ko'f⁵.

Turk olimi Aygul Uchar omonim va ko'p ma'noli so'zlarni farqlash uchun etimologik tahlillar lozimligini qayd etadi. "Devon"dagi ayrim omonimlarning hozirgi turk tilida qo'llanishini aytib, omonimik birliklarning ma'nolarini qiyoslagan, semantik jarayonlarga e'tibor qaratgan. Divanü Lûgat-it-Türk'te (DLT) yer alan al 'hile, al' (I, 63, 81; II, 289; III, 412) ve bugün halk dilinde yaşamakta olan ve Türkçe Sözlük'te, al 'aldatma, düzen, tuzak, hile' (1988: 43) biçiminde yer alan sözcüklerle; DLT'de al 'hanlara bayrak, devlet adamlarının atlarına eğer örtüsü yapılan turuncu ipek kumaş' (DLT I, 81); al 'al renk' (DLT III, 162) ve Türkçe Sözlük'te yaşayan al 'kanın rengi, kızıl, kırmızı; bu renkte olan; (at donu için) dorunun açığı, kızıla çalan; yüze sürülen pembe düzgün, allık' (1988: 43) her iki sözlükte de ayrı madde başlarında yer alan eş adlı sözcüklerdir- deya izohlaydi. Ko'p ma'nolilik asosida omonim so'zlar yuzaga kelishini hozirgi turk tilida qo'llanayotgan omonim birliklar misolida tahlil qilgan. Tarixiy ma'no o'zgarishlari omonimlarni shakllantirishga asos bo'lishini ta'kidlagan. Shuningdek, so'z turkumlari, morfologik shakllarning birikishi ham ko'p ma'nolilik hamda omonimiyani farqlashga xizmat qilishini ko'rsatib bergan. "Eş adlılık ve çok anlamlılığı ayırmak için ölçütlerden biri de, etimolojiktir. En eski biçimlere dikkat

edilir. Çünkü onlar tarihî olarak eş adlı olmayan sözlük birimlerinden türemiştir. Palmer'a göre, zıt anlamlılık da bir ölçüt olabilir. Zıt anlamlı sözcüğün aynı olması durumunda çok anlamlılık söz konusudur; zıt anlamlı sözcüğün farklı olması ise, eş adlılığa işaret eder. Fakat bu da bütün sözcüklere uygulanabilir bir ölçüt değildir. Aygul Uchar ko'p ma'nolilik asosida omonim so'zlar yuzaga kelishini hozirgi turk tilida qo'llanayotgan tarixiy omonim birliklar misolida tahlil qilgan. Tarixiy ma'no o'zgarishlari omonimlarni shakllantirishga asos bo'lishini ta'kidlagan. Shuningdek, so'z turkumlari, morfologik shakllarning birikishi ham ko'p ma'nolilik hamda omonimiyani farqlashga xizmat qilishini ko'rsatib bergan: "Bununla birlikte çok anlamlılık (polysemy) ve eş adlılık (homonymy) ayırımının tam olarak yapılamadığı durumlar da söz konusudur. Söz gelişi, DLT'de ek alımından sonra eş adlılaşan iki sözcük aynı madde başında verilmiştir: kınamak madde başı altında hem "İşkence etmek, cezalandırmak" hem de "Bir şeye kın yapmak" (III, 273) anlamları yer alır. Burada farklı kökten gelen iki sözcüğün ek alımına bağlı olarak (kını+a- ve kın+a-) eş adlılaşmış olduğu görülür. Aynı madde başında yer alan bazı anlamların ise, çok anlamlılık içinde mi, yoksa eş adlılık içinde mi değerlendirilmesi gerektiği tartışma götürür"⁶.

Turk olimlari ag'iz I ag'iz III omonimlarining turk tili lug'atida alohida so'z sifatida keltirilgani, ag'iz III leksemasining "yangi tug'gan hayvonlarning ilk suti" ma'nosida izohlangani, o'rta turkchada ag'uz shaklida qo'llanganini qayd etib, "Devonu lug'otit turk"ga qiyoslaganlar. Mahmud Koshg'ariyning ag'uz so'zi yonida ag'uj biçimi birikmasini qayd etgani, bu birikmaning eski qipchoqchada ham shu ma'noda qo'llangani haqida ma'lumot

5 Рустамов А. Махмуд Кашгарский о словах с звуковой оболочкой qaq. – Ленинград, Turcologica. Издательство «Наука» Ленинградское отделение, 1976. – С. 146–147.

6 Aygöl Uçar. Anlambilimsel Bağlantılılık: Türkçe Eylemlerde Çokanlamlılık ve Eşadlılık Ayırımı [Semantic Relatedness: The Distinction Between Polysemy and Homonymy in Turkish Verbs] 2009, In S. Ay, Ö. Aydın, İ. Ergenç, S. Gökmen, S. İşsever and D. Peçenek (Eds.), Essays on Turkish Linguistics: Proceedings of the 14th International Conference on Turkish Linguistics, 6–8 August 2008, (207 – 216).

berilgan. Izohda ağızning insonlarga nisbatan ham qoʻllanishi, shunday nomlanuvchi sutning rangi, mazasiga koʻra oddiy sutdan farq qilishiga eʼtibor qaratishgan, turk adabiy tilida ağız sütüni shaklida qoʻllanishini qayd etishgan. Ağız soʻzida “boshlangʻich” (“baʼslangʻ”) semasi mavjudligi, shu sema asosida yolun ağızi “yoʻlning ogʻzi”, tünelin ağızi “tunnelning ogʻzi”, ırmağın ağızi “ırmoqning ogʻzi” birikmalari tarkibidagi ağız soʻzi bilan aloqadorligi, ağız sütüni birikuvida “tugʻruqdan keyingi ilk (boshlangʻich) sut” maʼnosini anglatishi haqida fikr bildirganlar”. Tahlillardan maʼlum boʻladiki, inson tana aʼzosini bildirgan ağız soʻzi bilan sigir sutining ilk uch kunlik davridagi koʻrinishini bildirgan ağız aslida bir soʻzdan shakllangan leksik omonimlardir. Omonimning bu usulda hosil boʻlishi metaforik maʼnoga ega. Ogʻiz I “tana aʼzosi” – ogʻiz II “taom” omonimlari oʻzbek tilida ham mavjud. Shavkat Rahmatullayev ogʻiz I leksemasini “ikki lab oraligʻidagi teshik, “jagʻlar” oraligʻidagi boʻshliq maʼnosida izohlagan. Bu ot qadimgi turkiy tildagi “teshik” maʼnosini anglatgan ağız otidan kichraytirish maʼnosini ifodalovchi –iz qoʻshimchasi bilan hosil qilingan (ESTY, I, 82; Devon, I, 89; DS, 21); oʻzbek tilida a unlisi â unlisiga almashgan, i unlisining qattqlik belgisi yoʻqolgan: ağız +ıy>ağız I. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida ogʻiz I “tana aʼzosi” maʼnosidagi soʻzining 8 ta maʼnosi keltirilgan: ogʻiz I 1. Ikki jagʻ oʻrtasidagi, ovqatlanish, soʻzlash yoki ovoz chiqarish uchun xizmat qiladigan boʻshliq. 2. Ikki lab va ularning bir-biriga tegib turgan joyi va atrofi. 3 koʻchma. Soʻzlovchi kishi, odam. 4. koʻchma. Birovning qaramogʻida boʻlgan odam; xoʻranda, nonxoʻr. 5. Miltiq, toʻpponcha, minomyot, zambarak kabi otish qurollarining oʻq otilib chiqadigan teshigi, stvoli. 6. Ichki boʻshligʻi, ichi boʻlgan narsalarning kirish–chiqish uchun xizmat qiladigan joyi, teshigi. Oʻraning ogʻzi. Gʻorning ogʻzi. 7. Idishlarning narsa olish–qoʻyish uchun xizmat qiladigan teshigi. 8. Koʻchaning,

yoʻlning boshlanish, kiraverish joyi. Koʻcha ogʻzi. Ogʻiz leksemasida “teshik”, “boshlanish”, “soʻzlash” semalari mavjud. Yuqoridagi izohlarning aksariyatida, asosan, “teshik” semasi mavjud. 6–,8-bandlarda, shuningdek, quduq ogʻzi, oʻchoq ogʻzi birikmalarida “teshik”, “boshlanish” semalari aks etgan. Ogʻiz II “yangi tugʻgan sigirning uch-toʻrt kunlik sutini yigʻib pishirilgan pishloqsimon taom. Ogʻiz suti Yangi tugʻgan sigirning xom suti (OʻTIL, III, 187). Bu ot qadimgi turkiy tilda “uvib tush–”, “quyuqlash maʼnosini anglatgan ağız – feʼlidan –(u)z qoʻshimchasi bilan yasalgan (ESTY, I, 406; DS, 24); oʻzbek tilida a unlisi â unlisiga, u unlisi i unlisiga almashgan, natijada ağız I soʻzi bilan teng kelib qolgan: ağız +uz>ağız 2 (OʻTEL, I, 265)”. Sh.Rahmatullayev izohiga koʻra, ağız I “tana aʼzosi” – ağız II “taom” oʻrtasida bogʻliqlik yoq, yaʼni bu leksemalar semantik usulda omonimiya yuzaga kelishiga misol boʻla olmaydi: ağız I “teshik”, ağız II “uvib tush–”, “quyuqlash–” semalarini ifoda etadi va bu semalar oʻrtasida aloqadorlik yoʻq. Bunday yondashuvga koʻra, mazkur leksemalar bir til doirasida shakliyl bir xillik, teng kelib qolish asosida yuzaga kelgan. Bizningcha, mazkur omonimlar etimologiyasi borasida turk olimlarining fikrida asos bor. Ogʻiz I “tana aʼzosi” – ogʻiz II “taom” (turk tilida: ağız I “tana aʼzosi” – ağız II “ağız sütüni”) oʻrtasida “boshlangʻich” semasi asosidagi aloqadorlik mavjud va bu sema tilning tarixiy taraqqiyoti natijasida sezilmay qolgan. Koʻp maʼnoli soʻzdan maʼno bogʻlanishining yoʻqolishi natijasida omonim yuzaga kelgan. Bu omonimlar qatori semantik usulda hosil boʻlgan. Tibbiyotga oid izlanishlarda taʼkidlanishicha, ogʻiz boʻshligʻi oshqozon–ichak traktining boshlangʻich qismini tashkil qiladi, bunda ovqatning mexanik ishlovi sodir boʻladi⁷. Fors-tojik tilida “boshlamoq” maʼnosidagi ogʻoz leksemasi ishlatiladi. Fonetik tuzilishi va semantikasiga koʻra bevosita turkiy ogʻiz soʻziga aloqador. Fors-tojik tiliga

7 Nazarova N.Sh., Musayeva G.A., Ravshanov I., Astanokulova M. Ogʻiz boʻshligʻi shilliq qavatida uchraydigan kasalliklar. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Qamar Media, 2022. – B.4.

bir qator turkiy soʻzlar oʻtgani “Muhokamat ul-lugʻatayn”da qayd etilgan. Ogʻoz leksemasi turkiy tillardagi ogʻiz soʻzidan shakllangan, deyish mumkin.

“Devonu lugʻotit turk” lugʻatida 748 ta shakliy bir xil soʻzlar qatori kuzatildi. Bu miqdor turkiy tillar tarixida ham omonimlar koʻp boʻlganini koʻrsatadi. “Devonu lugʻotit turk”da fonetik, leksik omonimlar, grammatik omonimlar oʻz ifodasini topgan. Bu omonimlar ijtimoiy hayotning turli sohalariga oid birliklar boʻlib, turli semantikani namoyon etadi. Omonimlar ot+ot; ot+feʻl, ot+sifat modellarida boʻlib, feʻl+ot omonimligi koʻp uchraydi. “Devon”dagi omonimlar tahlil qilinganda aksariyat omonimik qatorlarning hozirda qoʻllanmasligi maʼlum boʻldi. Omonimik qatorlarning bir yoki bir necha uzvi isteʼmoldan chiqishi, tarixiy soʻzga aylanishi yoki arxaiklashuvi natijasida omonimik qatorlar saqlanib qolmagan.

Ozarbayjon olimi Ramiz Asker “Devonu lugʻotit turk”dagi soʻzlar soni tadqiqotlarda har xil keltirilganini (Ergash Fozilov (7993 ta), Besim Atalay (8783 ta), Solih Mutallibov (9222 ta)) qayd etgan. Bu farqning sababini Devondagi omonim va koʻp maʼnoli soʻzlar bilan bogʻlaydi. Yaʼni, bu kabi soʻzlar tarjimonlar tomonidan alohida ajratilib, zamonaviy leksikografiyaga mos ravishda turlicha izohlangan⁸.

S.Usmonov Mahmud Koshgʻariy “Devon”da turkiy soʻzlardagi omonim va polisemantik soʻzlarning maʼnolariga izoh bergani, u davrlarda omonimlar polisemantik soʻzlardan farqlanmaganini, bu hol Alisher Navoiy ijodida ham kuzatilishini qayd etgan. Olim oʻzbek tilini “boshqa tillar kabi omonim (shakldosh) soʻzlarga boy boʻlgan bir tildir”, deb tavsiflagan. Aristotelning “nomlar ichida omonimlar sofistlar

uchun foydali, chunki ular yordami bilan sofist hiyla-nayrang ishlatadi, sinonimlar esa shoir uchun foydali” degan taʼriflarini keltirib, omonimlarning qadimiyligini taʼkidlagan⁹.

V. fon Gumboldt “Insonning narsaga munosabati tilga butunlay bogʻliq, til bilan aloqadordir, deb yozgan edi. Til yaratuvchisi oʻzini shu tilning ixtiyoriga topshiradi. Til inson va tashqi dunyo oʻrtasidagi “oʻtish davri”ni tashkil etadi, lingvistik lugʻat esa oʻziga xos milliy dunyoqarashni aks ettiradi”¹⁰.

Mavjud nazariyalar mental leksikaning tayyor koʻrinishlari ombori (“lugʻat”) yoki ular asosida haqiqiy maʼnolar tuziladigan xususiyatlar tarmogʻi deb qaralishi haqida bahs yuritadi.

Tarixiy yozma manbalar matnidagi omonimlarning aksariyati isteʼmoldan chiqqan, ayrimlari omonimik munosabatni saqlab qolgan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida koʻp maʼnoli soʻz sifatida qaralgan birliklar omonimga aylangan.

8 Ramiz Asker. Divanü Lugat-it-Türk “statistikleri. 2. Uluslararası Türkiyat Araştırmaları Bilgi Şöleni bildirileri: Kâşgarlı Mahmud ve dönemi (28–30 Mayıs 2008) [e-kitap] /Ankara: Türk Dil Kurumu, 2022.854. –S.64–65.

9 Усмонов С. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида омонимлар ва синонимлар // Илмий асарлар. Ўзбек тили ва методикаси масалалари. –Тошкент, 1959. – Б.37–51.

10 Гумбольдт В. Ф. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 2000. – 400 с.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA QO'LLANILGAN KIYIM-KECHAK NOMLARI VA ULARNING TURLARI

Xurshid Lutfullayevich Maxammadiyev – f.f.b.f.d. (PhD), dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Nozima Mansurjon qizi Ravshanova – talaba,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Alisher Navoiyning asarlarida tasvirlangan kiyim-kechaklar va ularning turlari mavzusidagi maqola, buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning ijodiy merosida kiyim-kechak orqali jamiyat, madaniyat va inson xarakteri qanday ifodalanganini o'rganadi. Maqolada Navoiyning asarlarida uchraydigan kiyim-kechaklarning turlari, ularning ramziy ma'nolari, ijtimoiy tabaqalanish va shaxsiy xususiyatlarni ifodalashdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola O'rta asr o'zbek madaniyati va adabiyotidagi kiyim-kechaklarning o'rni va ahamiyatini ko'rsatib, Navoiyning badiiy uslubi va tasvir kuchini ochib beradi. Natijada, maqola Navoiyning asarlarida kiyim-kechak orqali inson va jamiyatning ichki dunyosi qanday ochilishini yoritib beradi.

Аннотация. В статье, посвящённой одежде и её видам в произведениях Алишера Навои, рассматривается, как общество, культура и характер человека выражаются через одежду в творческом наследии великого узбекского поэта и мыслителя Алишера Навои. Анализируются виды одежды, встречающиеся в произведениях Навои, их символическое значение, роль в выражении социальной стратификации и личностных характеристик. Также раскрывается роль и значение одежды в средневековой узбекской культуре и литературе, раскрываются художественный стиль и образная сила Навои. В результате статья проливает свет на то, как через одежду раскрывается внутренний мир человека и общества в произведениях Навои.

Abstract. The article on the topic of clothes and their types depicted in the works of Alisher Navoi examines how society, culture and human character are expressed through clothes in the creative heritage of the great Uzbek poet and thinker Alisher Navoi. The article analyzes the types of clothes found in Navoi's works, their symbolic meanings, their role in expressing social stratification and personal characteristics. The article also shows the role and importance of clothes in medieval Uzbek culture and literature, revealing Navoi's artistic style and power of imagery. As a result, the article sheds light on how the inner world of man and society is revealed through clothes in Navoi's works.

Kalit so'zi: Navoiy, kiyim turlari, bo'rk, ko'ylak, burunchak, o'tuk, turqu, qur, to'n, qafton, kish, kiyim-kechak.

Ключевые слова: Навои, виды одежды, борк, рубашка, бурунчак, отук, турку, кур, тон, кафтан, киш, одежда.

Keywords: Navoi, types of clothes, bork, shirt, burunchak, otuk, turku, kur, ton, kaftan, kish, clothes

Alisher Navoiy asarlari lug'at tarkibidagi kiyim-kechak leksikasi (KKL)ni aniqlash tilimiz tarixi, o'zgarishlari, leksik boyligi, XV asrda o'zbek xalqining turmush-tarzi, madaniyati, urf-odat va an'analari haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan o'z qatlam kiyim-kechak nomlari tarixi ko'hna yozma manbalarga borib taqaladi. Masalan, to'n, bo'rk, ko'ylak, burunchak, o'tuk (etuk) singari KKL qadimgi va eski turkiy til yodgorliklarida uchraydi. Ularning ko'pchiligi hozirgi turkiy

tilar, jumladan, o'zbek tilida biroz fonetik va ma'no o'zgarishi bilan qo'llanib kelmoqda.

Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan turli sohalarga oid leksik birliklar qatorida maishiy sohaga oid so'zlarni, xususan, KKLni tadqiq etish jamiyat va til tarixi hamda o'zbek tilining lug'at boyligidan boxabar bo'lishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali o'zbek adabiy tilining ma'lum rivojlanish bosqichida leksemalar va ularning ma'no taraqqiyotini aniqlash, tarixiy-maishiy terminologiya va leksikologiyada kechgan so'z o'zlashtirish, umuman, leksik-semantik

jarayonlarni kuzatish mumkin bo'ladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi kiyim-kechakka oid so'zlar uzoq tarixga ega. Ular jamiyat taraqqiyoti va turmushdagi o'zgarishlarga mos ravishda tilning o'z ichki imkoniyatlari va chetdan so'z o'zlashtirish orqali boyib borgan. Ularning ko'pchiligi hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lsa, muayyan qismi o'zbek shevalarida uchraydi. Tabiiyki, davr o'tishi bilan kiyim-kechakni ifodalagan bir qator leksemalar arxaiklashgan. Umumturkiy bo'lgan ko'pgina kiyim nomlari bugungi kunda ham turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida qo'llanib kelmoqda.

Ma'lumki, Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan KKL o'z qatlam va o'zlashgan qatlamdan iborat. Ilmiy tadqiqotlarda shoir ijodida erkak va ayollar kiyadigan 60 dan ortiq libos turlari tilga olingani qayd etiladi¹.

Alisher Navoiy dostonlari tilida iste'molda bo'lgan tub va yasalgan turkiy so'zlarning tarixi ko'hna yozma manbalarga borib taqaladi. Masalan, to'n, qaftan (qapton), bo'rk, ko'ylak (ko'nglak), burunchak, o'tuk (etuk), turqu, qur, kish singari KKL qadimgi turkiy va eski turkiy til yodgorliklarida uchraydi². Bu kiyim-kechak nomlari Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida qayd etilgan³.

Alisher Navoiy asarlarida yuqorida keltirilgan KKL bilan birga chopon, qalpoq, to'ppi, chakman, oltoyi, terlik, belbog', qur, qurchuq (sallacha), shirdog', dekla/dakla/deklay, yog'lig', hamyon singari eski o'zbek tili atamallari ham qo'llangan.

Alisher Navoiy asarlarida o'zlashgan kiyim-kechak leksemalari nisbatan salmoqli miqdorni

tashkil qiladi. Zero, hech qanday xalq o'z taraqqiyoti yo'lida boshqa xalqlar bilan madaniy, iqtisodiy, boshqa tomondan aloqa qilmasdan, ayri holda xo'jalik yuritishi mumkin bo'lmaganidek, biror-bir xalqning tili, xususan, lug'at boyligi ajralgan holda rivoj topishi mumkin emas⁴. Xuddi shunday o'zbek tili ham o'z tarixiy taraqqiyoti davomida bir qancha tillar bilan munosabatga kirishgan, ulardan so'z olgan, so'z bergan. Shu tariqa, leksik qatlamda turli tillardan o'zlashgan so'zlar paydo bo'lgan. KKL ham faqat o'z qatlamga tegishli bo'lmay, ularning orasida turli tillarga oid o'zlashmalar ko'p. Alisher Navoiy asarlari tili ham bundan mustasno emas, albatta, ularda turkiy nomlar bilan birgalikda boshqa tillardan, xususan, arab, fors-tojik tilidan o'zlashgan KKL salmoqli qismni tashkil qiladi. O'zlashma KKLni quyidagicha guruhlash mumkin:

Arab tilidan o'zlashgan kiyim-kechak nomlari.

Fors tilidan o'zlashgan kiyim-kechak nomlari.

O'zbek tilidagi kiyim-kechaklar borasida maxsus tadqiqot ishi olib borgan M.Asomiddinova arab tilidan o'zlashgan kiyim-kechak nomlarini o'zbek tilida tutgan mavqeiga ko'ra ikki qismga ajratadi:

a) eski o'zbek tiliga xos, hozirda faqat sahna kiyimiga aylangan, tarixiy voqelikni yoritgan badiiy, tarixiy, yozma adabiyotlarda uchraydigan nomlar: abo, qabo, qina', dalq, jubba, xil'at, dekla/dakla/deklay/daklay, rido, xirqa, aloqa, amoma, burqa va boshqalar;

b) eski o'zbek tilida uchrovchi va hozirgi o'zbek tilida keng qo'llaniluvchi nomlar: jubba, astar, mamug'/mamug, libos, lozim/lozima, baxmal/

1 Ўтанова С. Навоий ижодидаги либос номлари умумтуркий халқларнинг этнографик-маданий бойлиги / Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашариат маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни" халқаро илмий анжуман материаллари. Навоий, 2017 йил 11 февраль. –Б. 99.

2 Тенешев Э., Благова Г. и др. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Лексика. – Москва: Наука, 2001. –Б. 479.

3 Махмуд ибн Хусайн Кошғарий. Туркий сўзлар девони. Девону луғотит турк. 3 жилдик. 1-жилд. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013. –Б. 212; 217; 230; 281; 285; 328.

4 Абдуллаев Ф.Ўзбек тили лексикасининг баъзи бир маъсаларига доир. Пушкин номидаги Тил ва адабиёт институти асарлари тўплами. 1-китоб. –Тошкент: 1949. –Б.29.

maxmal, sadaf, hoshiya kabilar⁵. Muallifning fikriga asosan qo'shilgan holda, bu o'rindagi ba'zi chalkashliklarni ham qayd etishimiz lozim. Jubba har ikki qismda ko'rsatilgan. Bu kiyim nomi birinchi qismga xos. Xil'at qayd etilganidek, birinchi qismga emas, hozirgi o'zbek tilida xalat shaklida keng qo'llanishi bois ikkinchi qismga mansub. Birinchi qismda qayd etilgan dekla/dakla/deklay/daklay, ikkinchi qismga kiritilgan mamug'/mamuq esa arab tilidan o'zlashgan kiyim nomlari emas. Bular turkiy-o'zbekcha ekanligi ko'rinib turibdi.

Islom dinining XV asrda o'zbek xalqi hayotida ajralmas ijtimoiy-ma'naviy qadriyatga aylangani bois Alisher Navoiy asarlari tilida arabcha istilohlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu kiyim-kechak leksikasida ham o'z aksini topgan. Arabchadan o'zlashgan kiyim-kechak nomlari qatorida rido, xil'at, hulla, qabo, hirq, toqiya, amoma, jubba, taylason, burqa, kuloh singari so'zlarni ko'rsatish mumkin⁶.

Bugungi kunda tilimizda faol qo'llanadigan va barcha uchun tushunarli libos leksemasi arabchadan o'zlashgan bo'lib, umuman kiyim ma'nosini bildiradi:

Sanamlar jilvagar mehri samovash,

Ayog'din-bosh libosi kahrabovash. (FSh, VIII, 99)

"Layli va Majnun" asarida libos, kiyim-bosh so'zlarining ma'nodoshi sifatida kisvat so'zi ham ishlatilgan:

Bir qo'y terisin chiqordi filhol,

Majnung'a dediki: "Egninga sol.

Qo'ydek bu terini xil'at ayla,

Boshdin ayog'ingg'a kisvat ayla. (LM, IX, 237)

O'zbek tili so'z boyligida fors-tojikcha

o'zlashmalar salmoqli o'rin tutadi. Forsiy so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashishi o'zbek va tojik xalqlarining "turku tojik" bo'lib qadimdan bir yoki o'zaro qo'shni hududda, mushtarak ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy muhitda yashab kelganligi bilan bog'liq. Xususan, Xurosonda Alisher Navoiy yashagan davrda turkiy va forsiy bilingvizmining keng tarqalgani bu borada kuchli omil sanaladi. Forsiy o'zlashmalar sirasiga po'stin, tunbon, dastor, kafsh, futa, navro'zi, janda, ruymol, shol, palos, lung, kuloh, sinjob kabi leksemalar kiradi.

Xullas, badanni berkitish va yopish, shuningdek, yasanish, oroyish, ijtimoiy maqomini ko'rsatish uchun kiyiladigan, asosan, turli mato va teridan tikib tayyorlangan narsalarning umumiy nomi kiyim-kechak deyiladi. Alisher Navoiy dostonlaridagi kiyim-kechak va unga aloqador buyumlar o'zining qo'llanish vazifasiga ko'ra quyidagi leksik-semantik guruhlariga bo'lib o'rganildi:

1. Ustki va ichki kiyim nomlari.

2. Bosh va oyoq kiyim nomlari.

3. Kiyim qismlari va liboslarga yordamchi buyum nomlari.

Alisher Navoiy asarlari nafaqat badiiy mahoratning namunasi, balki o'z davrining ijtimoiy, madaniy va maishiy hayotini ham aks ettiruvchi boy manba hisoblanadi. Uning she'riyati va nasriy asarlarida tasvirlangan kiyim-kechaklar va ularning turlari o'sha davr kiyinish madaniyati, ijtimoiy tabaqalanish, estetik qarashlar va urf-odatlar haqida muhim ma'lumotlar beradi. Navoiy turli kiyim turlarini bevosita yoki badiiy tasvirlar orqali ifodalab, ular orqali obrazlar xarakterini chuqurlashtiradi, ularning ijtimoiy mavqei ko'rsatadi, ayrim hollarda esa ramziy ma'nolar yuklaydi.

5 Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. – Тошкент: Фан, 1981. –Б.14.

6 Тоғаев Т. Навоий асарларида кийим-кечак номлари. "Филологик тадқиқотлар – VIII" илмий анжуман материаллари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети, 2018. –Б.16.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI FORS-TOJIKCHA O'ZLASHMA SO'ZLARNING AHAMIYATI

Shohista Tohirovna Adilova – o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Xamsa"si, "Nasoyim ul-muhabbat", "Mahbub ul-qulub" kabi asarlarida falsafiy va axloqiy qarashlarni ifodalash uchun ko'plab forsiy atamalardan foydalanilganligi asoslangan. Chunki arabcha-forscha ildizli tushunchalar o'sha davrda ilmiy-uslubiy tilda asosiy manba hisoblangan. Asarlarda qo'llanilgan ijtimoiy-siyosiy leksikani tahlil qilishda fors-tojik tilidan kirib kelgan o'zlashmalarga ajratib o'rganish leksik vositalarning etimologik xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tillararo aloqalar to'g'risida muayyan xulosalarga kelishga imkon beradi.

Аннотация. В данной статье обосновано, что в таких произведениях Алишера Навои, как «Хамса», «Насоим ул-мухаббат», «Махбуб ул-кулуб», для выражения философских и нравственных взглядов широко использовались персидские термины. Это объясняется тем, что арабско-персидские понятия в то время считались основным источником научно-стилистического языка. При анализе социально-политической лексики, используемой в произведениях, особое значение имеет изучение заимствований из персидско-таджикского языка, что важно для определения этимологических особенностей лексических средств. Это, в свою очередь, позволяет сделать определённые выводы о межязыковых связях.

Abstract. Alisher Navoi's works such as "Khamsa", "Nasoyim ul-muhabbat", "Mahbub ul-qulub", many Persian terms were used to express philosophical and moral views. Because concepts with Arabic-Persian roots were considered the main source in the scientific and methodological language at that time. When analyzing the socio-political lexicon used in the works, it is important to separate them into borrowings from the Persian-Tajik language and study them in order to determine the etymological characteristics of lexical means. This allows us to draw certain conclusions about interlinguistic relations.

Kalit so'zlar: afsonguzor, anborkash, kisabur, devkirdor, fors-tojikcha atama, Navoiy asarlari.

Ключевые слова: афсонгузор, анборкаш, кисабур, девкирдор, персидско-таджикские термины, произведения Навои.

Keywords: afsonguzor, anborkash, kisabur, devkirdor, Persian-Tajik terms, works of Navoi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida so'z o'zlashtirish, boshqa tillardan so'z olish masalasiga ham katta e'tibor qaratgan. Chunki Navoiy yashagan davrda turkiy va fors-tojik tillari Markaziy Osiyoda birgalikda qo'llanilgan, ilm-fan, adabiyot, davlat ishlarida ko'p hollarda fors-tojik tili asosiy mavqega ega edi hamda arab tili ilm-fan, forsiy esa badiiy adabiyot tili darajasiga aylanib ulgur edi. Shuning uchun ham Alisher Navoiy o'z asarlarida arabiy va forsiy so'z va iboralarni ko'plab qo'llagan va buni tabiiy hol deb bilgan. O'z asarlariga nom qo'yishda ham an'anaga muvofiq arabcha so'z va ifodalardan foydalangan. Fors-tojik adabiyoti Sharqda ulkan maktab bo'lgan. Rudakiy, Hofiz, Sa'diy, Jomiy kabi adiblarning asarlari Alisher Navoiyning ijodiy shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli fors-tojikcha

so'zlardan foydalanish Alisher Navoiy ijodini Sharq adabiyotidagi umumiy oqimga bog'lab qo'ygan.

Alisher Navoiy o'z asarlariga nom qo'yishda ham an'anaga muvofiq arabcha so'z va ifodalardan foydalangan. Bundan anglashiladiki, ijod jarayonida Alisher Navoiy hal qilgan lisoniy muammolardan biri – boshqa tillardan so'z olish muammosi – birinchi navbatda arab tiliga aloqador bo'lgan. Bunda, hech shubhasiz, shoirning Qur'on tilini mukammal bilganligi (uning arabcha lug'at tuzganligi ma'lum) katta o'rin tutgan. Bundan tashqari Alisher Navoiy asarlarida arab-fors o'zlashmalarning ahamiyati sezilarli darajada ko'zga tashlangan. Bu tillar o'zining quyidagi jihatlari bilan asar leksikasining

boyishiga xizmat qilgan:

Madaniy ko'prik vazifasi – Fors-tojik tili Sharq adabiyoti, ilm-fan va falsafasining asosiy vositasi bo'lgan. Navoiy bu til elementlarini qo'llash orqali turkiy adabiyotni yuksak ilmiy-madaniy jarayon bilan bog'lagan.

Badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytirish – Fors-tojikcha so'zlar she'riyatda nozik tuyg'ular, tasviriy ma'nolarni ifodalashda qulay bo'lgan. Masalan, "gul", "sham", "sabo", "jamol", "husn", "ishq" kabi so'zlar Navoiyning g'azallarida poetik go'zallik bag'ishlaydi.

O'quvchi auditoriyasini kengaytirish – O'sha davrda savodli kishilarning ko'pchiligi fors-tojik adabiyotidan xabardor edi. Forscha unsurlar turkiy she'riyatni ularga yaqinlashtirgan.

Til taraqqiyotiga ta'siri – Fors-tojikcha so'zlar turkiy tildagi so'z boyligini kengaytirib, yangi ma'no va tushunchalarni ifodalash imkonini bergan. Shu tariqa Navoiy o'z davrining ikki madaniyatini uyg'unlashtirgan.

Estetik ohang – Fors-tojikcha o'zlashmalar musiqiy ohangdorlik, qofiya va radiflarda ko'proq imkoniyat yaratgan.

Shu bois Alisher Navoiyning poetik va ilmiy asarlari so'z boyligining taxminan 30-33 foizini arab tilidan kirgan so'zlar tashkil qiladi. Fors-tojik leksik elementlari 18-20 foizgacha boradi¹. Alisher Navoiy arab-fors tillaridan foydalanganda, ularning turkiy tilga o'zlashib, singib ketadiganlariga ko'proq murojaat qiladi. Shu bilan birga, shoir har uch tilning imkoniyatlaridan foydalanib, yangi ma'noli so'zlar – neologizmlar yaratadi. Alisher Navoiy yaratgan yangi so'z, yangi ma'nolar turkiy tillar doirasidan chiqib, fors-tojik tilining ham lug'at fondini boyitgan². Navoiy asrlari tilida jamiyat va tabaqaga oid so'zlarni uchratamiz. Masalan: Javonmard – saxiy, mard, odobli inson. Gado

– faqir, muhtoj. Banda – oddiy xalq vakili, xizmatkor. Xalq – odamlar, el. Dushman – qarshi tomon, yomon niyatli kishi. Shu qatorda, jamiyat hayoti va tabaqalarni ifoda etuvchi leksikalarni ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, a'yon – yuqori tabaqa vakillari, ulama – ilm ahli, diniy-siyosiy qatlam, fuqaro – oddiy xalq, kambag'al – ijtimoiy jihatdan past tabaqa vakili, ustod – ilm, hunar sohibi, ustoz. Bu so'zlar g'azallarda ko'p uchraydi: "Xalq ichra javonmard bo'lg'il, gado ko'nglini shod etg'il".

Afsonguzor – f. afsona, hikoyat aytuvchi, sarguzashtlar so'zlovchi: Tujjori sayohatshior aqolim va buldon holidin xabardor ajoyibdin afsonaguzor va g'aroyibdin nodirguftor. (Mahbub ul-qulub, 14-34).

Anborkash – xas-xashak tashuvchi, go'ng chiqindi tashuvchi: Bermasang ochdur bersang to'q. Zabunedur borkash xorkash balki anborkash. (Mahbub ul-qulub, 14-99);

Devkirdor – yomon tabiatli, badkirdor, yaramas, fosiq, yomon fe'lli, yomon odatli, yomon qiliqli.

Va oshiq mundoq baloning giriftori va mundoq ofatning beixtiyor, mundoq to'fonning g'ariqi va bu nav soiqlaning hariqi, mundoq g'addorning zabuni va mundoq parizodning maftuna va mundoq devkirdorning majnuni. (Mahbub ul-qulub, 66-b);

Kalog'poy – ola qarga yoki kalzog' oyog'i izidek varaqni bo'yab, chizib yozadigan badxat xattot, besavod kotib.

Ammo ul safha raqamin o'zlaridin o'zga kishi bilmas va ul kalog'polarni ul savod ahlidin o'zga birov o'qumas va fahm qilmas. (Mahbub ul-qulub, 72-b);

Kis(s)abur – cho'ntak o'g'risi, o'g'ri.

Kissabur bila muqammir asaslaridin bozor va

1 Navoiy va adabiy ta'sir masalalari. – Toshkent: Fan, 1968, 254-bet.

2 Бафоев Б. Navoiy asarlari leksikasi. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 35.

qimorxonaga musta'jir. (Mahbub ul-qulub, 36-b);

Kisangda agar diram yo'q, ko'nglungda kisabur
g'ami ham yo'q. (Mahbub ul-qulub, 129-b);

Miyonchilik – o'rtada turuvchilik, vositachilik,
dallolchilik.

Va sabtlarga miyonchiliqdin uzr qo'lmoqdir
va sabab va uzrsiz musabbiqa banda bo'lmoqdur.
(Mahbub ul-qulub, 51-52);

Pushtakash – bug'doypoya, poxol va shu kabi
narsalarni orqalab tashuvchi.

Barzagarga andin kom hosil, pushtakashga
andin murod vosil. (Mahbub ul-qulub, 37-b);

San'atpardoz [a.-f.] – san'atkor, usta,
hunarmand. Hunarvar va san'atpardoz yolg'onlari
ko'pdin-ko'pu chinlari ozdin-oz. (Mahbub ul-
qulub, 35-b).

Bu kabi misollarni yanada davom ettirish
mumkin. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki,
Alisher Navoiy asarlaridagi fors-tojikcha
o'zlashmalar faqatgina badiiy ifodaning
go'zalligini ta'minlovchi vosita emas, balki
tarixiy-madaniy jarayonning ajralmas qismi,

turkiy adabiyotning yuksalishida hal qiluvchi
omil sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.
Shu sababli bu unsurlar Alisher Navoiy merosida
til, adabiyot va madaniyat taraqqiyoti nuqtayi
nazaridan beqiyos qiymatga ega. Ulug' mutafakkir
shoir Alisher Navoiy asarlarining turkiy tildagi
so'zlar arab va fors tiliga oid o'zlashmalardan
o'rinli va mohirona foydalanilgan manba
sifatidagi ahamiyati shubhasizdir. Alisher Navoiy
asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy leksika, xususan,
fors-tojikcha va arabcha o'zlashmalar, adib
yashagan davrning siyosiy hayoti va ijtimoiy
tuzilishini yoritishda muhim til vositasi bo'lib
xizmat qilgan. Ularning qo'llanilishi turkiy
tilning davlat, jamiyat va boshqaruv masalalarini
ifodalash imkoniyatlarini kengaytirib, o'zbek
adabiy tilining rivojida poydevor yaratgan. Shu
sababli Alisher Navoiy merosi nafaqat badiiy, balki
tarixiy-lingvistik jihatdan ham bebaho manba
hisoblanadi. Alisher Navoiy qalamiga mansub
tarixiy asarlar tili tahlili muallif yashagan
davrdagi adabiy tilda qo'llanilgan ijtimoiy-siyosiy
leksik qatlam to'g'risida qimmatli materiallar
berishi, shubhasiz. Bu esa o'z o'rnida lug'at
manbayimizning ortishiga sababchi bo'ladi.

TABIIV VA ANIQ FANLAR

TRIGONOMETRIK AYLANA MODELINI TAKOMILLASHTIRISH: VIZUAL-GENETIK MUQOBIL YONDASHUVLAR

Ulug'bek Xursanaliyevich Xonkulov – p.f.b.f.d.
(PhD), professor, Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada trigonometrik aylana modelining cheklovlari va o'quvchilarda keltirib chiqaradigan chalkashliklar tahlil qilinadi. Muqobil model sifatida sonli spiral va burama chiziq taklif qilinadi. Ushbu modellar trigonometrik tenglama ildizlarni aniqlashda intuitiv va bir qiymatli yondashuvni ta'minlaydi hamda o'quvchilarning abstrakt tafakkurini rivojlantiradi.

Аннотация. В статье анализируются ограничения модели тригонометрического круга и возникающие у учащихся затруднения, связанные с ней. В качестве альтернативных моделей предлагаются числовая спираль и скрученная линия. Эти модели обеспечивают интуитивно понятный и однозначный подход к определению корней тригонометрических уравнений и развивают абстрактное мышление учащихся.

Abstract. The article analyzes the limitations of the trigonometric circle model and the confusion it causes among students. As an alternative model, the numerical spiral and the twisted line are proposed. These models provide an intuitive and single-valued approach to determining the roots of trigonometric equations and develop students' abstract thinking.

Kalit so'zlar: birlik aylana, sonli spiral, burama chiziq, trigonometrik tenglamalar, vizual-genetik model.

Ключевые слова: единичная окружность, числовая спираль, скрученная линия, тригонометрические уравнения, визуально-генетическая модель.

Keywords: unit circle, numerical spiral, twisted line, trigonometric equations, visual-genetic model.

Maktab matematikasi fanida haqiqiy sonlar to'plamini tasvirlashda ikkita asosiy geometrik modeldan foydalaniladi: son o'qi (sonli to'g'ri chiziq) va sonli aylana. Son o'qi undagi boshlang'ich O nuqta, yo'naltrilgan birlik $\vec{i}$ vektor yordamida beriladi. Son o'qida har qanday haqiqiy t songa mos ravishda shunday yagona $M(t)$ nuqta mos keladiki, u $\overrightarrow{OM} = t \cdot \vec{i}$ vektorni hosil qiladi, ya'ni haqiqiy sonlar to'plami va sonli to'g'ri chiziqdagi nuqtalar to'plami bilan o'zaro bir qiymatli akslantirish mavjud. Sonli aylana modelida esa aylananing O - markazi, N_0 - boshlang'ich nuqta, soat miliga teskari yo'nalish va yoy uzunligi birligi belgilanadi. "Sonli aylana" modeli – ilyustrativ (ko'rgazmali) modellar toifasiga kiradi va har bir haqiqiy songa biror yoy uzunligi yoki burchak qiymati mos keladi. Bu ikki xil birlik tanlash yondashuvi shunday izohlanadiki, sonli aylananing har bir


nuqtasiga N_0 nuqtasidan boshlab o'lchanadigan yoy uzunligi (musbat yoki manfiy) yoki shu nuqtaga mos keladigan burchak (shuningdek, ishora bilan) mos tushadi. Aylanada haqiqiy sonlar to'plami modelini qurishda qaysi yoy birlik deb tanlanganligi ahamiyatga ega emas, biroq bu modelni trigonometriyada qo'llash nuqtayi nazaridan, aylana uzunligi birligi sifatida aylana radiusiga teng uzunlikni olish maqsadga muvofiq¹. Chunki radius va yoy uzunligi o'lchamlarida turli birliklardan foydalanish noo'rin bo'ladi. Shu sababli, sonli aylana odatda radiusi 1 ga teng bo'lgan deb qabul qilinadi. Burchak o'lchovi birligi sifatida esa bir radianli burchak qabul qilinadi. Bunday holatda yoyning burchak o'lchovi aylana radiusiga bog'liq bo'lmaydi va bunday sonli aylana modeli trigonometrik aylana (birlik aylana) deyiladi. Ta'kidlash joizki, berilgan sonli oraliqlarga mos yoy yoki

1 Bostan, M. I., Sevinç, Ş., Lada, M., & Kubáček, Z. (2025). The nature of reasoning-and-proving items in textbooks: The cases of Türkiye, Norway, and Slovakia. International Electronic Journal of Mathematics Education, 20(3), em0829. <https://doi.org/10.29333/iejme/16185>

haqiqiy sonlarga mos nuqtalarni qurish zarur bo'lgan masalalarda aylananing aynan radiusi 1 bo'lishi shart emas. O'rganishlardan ma'lumki, birlik aylana tushunchasini o'zlashtirish butun trigonometriyani o'rganishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, tenglamalarni yechishda ildizlarni tanlash (yechimlarni saralash), ildizlar formulasining tuzilishi, parametrning undagi rolini tushunish uchun bu model muhim ahamiyatga ega. Sonli to'g'ri chiziqda birlik kesma berilgan masalaning xususiyatiga qarab tanlansada, trigonometrik aylanada bu yondashuv cheklidir. Chunki R sonlar to'plamidagi ayrim sonlar masalan, π va 2π sonli aylanada bitta nuqtaga to'g'ri keladi. Bu esa modelda akslantirish o'zaro bir qiymatli emasligini bildiradi: bir nechta haqiqiy sonlar birlik aylanada bitta nuqtaga mos keladi. Shuning uchun birlik aylana – sonli to'g'ri chiziqni aylana bo'ylab o'rash orqali olinadi, deb qabul qilingan. O'quvchilar "o'rash" deganda ip o'ralgan g'altaklar, elektr kabeli, mato rulonlarini ko'z oldiga keltirishi lozim. Bu holatlarning barchasida to'g'ri chiziqdagi har bir nuqta g'altak ustidagi alohida nuqtaga to'g'ri keladi. Sonli to'g'ri chiziq esa bundan farq qiladi – bunda har xil haqiqiy sonlar har xil nuqtalarga proyeksiya qilinadi. Ko'pchilik o'quvchilarda aylanadagi bitta nuqta qanday qilib har xil yo'ylar yoki burchaklarga – masalan, $\frac{\pi}{3}$ va $\frac{12\pi}{5}$ ga mos kelishi, ayniqsa trigonometrik tenglamalarning ildizlarini tanlashda (ya'ni, oraliqqa mos nuqtalarni aniqlash) chalkashliklar kuzatiladi. Shuning uchun trigonometrik tenglamalarning ildizlarini oraliq bo'yicha tanlashga oid masalalarda o'quvchidan modeldagi nuqtalar, yo'ylar va burchaklar orasidagi bog'liqlikni anglash talab qiladi.

O'quvchilar birlik aylana bilan ishlashganda quyidagilarga e'tobor berishi lozim:

- berilgan oraliqqa mos keluvchi aylana yoyini ajratish;
- trigonometrik tenglama ildizlariga mos keluvchi nuqtalarni ajratib olingan yoy ichidan topish.



1-rasm

Tajribadan ayonki, o'quvchilarning ba'zilarida trigonometrik aylana bilan ishlashda asosiy qiyinchilik ko'rgazmali axborotni real obraz bilan bog'lay olmaslikdan kelib chiqmoqda. Ayniqsa bu R haqiqiy sonlar to'plami trigonometrik aylana nuqtalariga o'zaro bir qiymatli mos emasligi, ya'ni bu modelda R to'plamining tasviri to'liq bo'lmasligi bilan bog'liq. Shu sababli, biz sonli spiral va sonli vint modellarini qo'llashni taklif qilamiz. Ular R sonlar to'plamini to'liq, o'zaro tasvirlaydi va o'quvchi uchun ko'proq intuitiv bo'lishi mumkin. Bu modellar yordamida har bir haqiqiy songa spiral yoki vint chizig'i ustidagi yagona nuqta mos keladi, bu esa trigonometrik tenglama ildizlarini tanlashda chalkashliklarni

bartaraf etishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu yondashuvlar o'quvchilarning abstrakt tafakkurini rivojlantirishda samarali didaktik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Burama (vint) chizig'i (sonli burama chiziq). Fazoda to'g'ri burchakli koordinatalar sistemasi Oxyz va musbat yo'nalishni belgilaymiz (1-rasm).

$M_0(1,0,0)$ nuqta x o'qi ustida yotsin. M_φ - bu M_0 nuqta avval Oxy tekisligida O nuqta atrofida φ burchakka buriladi va Oz o'qi bo'ylab $b \cdot \varphi$ masofaga yangi nuqtaga ko'chiriladi. Bu yerda $b > 0, b \in R, \varphi$ - burchakning radian o'lchovidagi qiymati, $\varphi \in R$. Bunda M_φ nuqtaning koordinatalari quyidagicha bo'ladi: $M_\varphi = (\cos \varphi, \sin \varphi, b\varphi)$. Barcha shunday M_φ nuqtalar to'plami fazoviy egri chiziqni tashkil etadi, bu chiziq oddiy burama (vint) chiziq deb ataladi. Ayni holda, burama chiziq ko'ndalang kesimi radiusi 1 ga teng bo'lgan aylana bo'lgan va Oz o'qi bo'ylab yo'nalgan silindrik sirt ustida yotadi. Silindrning ikki qo'shni burama chiziq oralig'ida joylashgan yasovchi kesmasining uzunligi burama chiziqning qadami deb ataladi, bu qadam $2\pi b$ ga teng. Burama chiziq quyidagi parametrik tenglamalar orqali ifodalanadi:

$$x = \cos \varphi, \quad y = \sin \varphi, \quad z = b\varphi.$$

Burama chiziq trayektoriyasi Oz o'qi atrofida bir tekis aylanuvchi va shu bilan birga Oz o'qi bo'ylab harakatlanuvchi nuqtaning yo'lini ifodalaydi. Bu harakatni oddiy spiral prujina orqali tasavvur qilish mumkin. Har qanday haqiqiy φ soni uchun burama chiziqning yagona M_φ nuqtasi mavjud. Endi teskarisini

ko'rsatamiz: burama chiziqdagi har qanday M nuqtaga yagona $\varphi \in R$ son mos keladi. Faraz qilaylik $N - M$ nuqtaning Oxy tekisligiga ortogonal proyeksiyasi bo'lsin. $\alpha - \angle M_0ON$ burchakning radian o'lchovda qiymati bo'lsin: agar N nuqtaning ordinatasi musbat bo'lsa, $0 \leq \alpha \leq \pi$; agar manfiy bo'lsa, $\pi < \alpha < 2\pi$. Ma'lumki, MN kesma burama chiziqni M dan tashqari n ta nuqtada kesib o'tadi.

Bu yerda ikki holat kuzatiladi:

- agar M nuqtaning z koordinatasi musbat bo'lsa: $\varphi = \alpha + 2\pi n$;

- agar M nuqtaning z koordinatasi manfiy bo'lsa:

$$\varphi = \alpha - 2\pi(n+1) = (\alpha - 2\pi) - 2\pi n.$$

Demak, har bir $\varphi \in R$ uchun M_φ nuqta mavjud va har bir M_φ nuqta uchun yagona φ son mavjud bo'lib, bu R haqiqiy sonlar to'plami va burama chiziq nuqtalari orasida bir qiymatli moslik mavjudligini anglatadi. $M_{\varphi-4\pi}, M_{\varphi-2\pi}, M_\varphi, M_{\varphi+2\pi}, M_{\varphi+4\pi}, \dots$ nuqtalar barchasi silindrik sirtning bitta yasovchisida joylashgan bo'lib, ular orasidagi masofa burama chiziqning qadami bilan o'lchanadi. ω - Oxy tekisligining silindr sirt bilan kesishishidan hosil bo'lgan aylana bo'lsin. M_0 - bu aylanadagi boshlang'ich nuqta bo'lib, aylana bo'ylab hisoblash musbat yo'nalishda, ya'ni Oz o'qi oxiridan Oxy tekisligi bo'ylab olib boriladi. Bu aylana trigonometrik aylanani hosil qiladi. Bu aylana burama chiziqning Oxy tekisligiga ortogonal proyeksiyasi bo'lib, barcha $M_{\varphi+2\pi n}$ (bu yerda $n \in Z$) nuqtalar N_φ

nuqtaga proyeksiyalanadi. Shunday qilib, birlik aylana N_φ nuqtasi yuqoridan yoki pastdan (silindr o'qi bo'ylab) qaralganda $M_{\varphi+2\pi n}$ ko'rinishidagi barcha nuqtalar tasviridir. Sonli burama chiziqdan foydalanilganda sonli aylanada $\varphi \in (-2\pi; 2\pi)$ oraliqdagi burchak qiymatlariga mos nuqtalarni joylashtirish qulay bo'ladi. Unda Oz o'qining musbat yo'nalishi bo'yicha burama chiziqning birinchi aylanishi Oxy koordinatalar tekisligi $[0, 2\pi)$ oraliqdagi burchaklarga, Oz o'qining manfiy yo'nalishdagi birinchi aylanish esa $(-2\pi, 0]$ oraliqdagi burchaklarga mos keladi. Har bir yangi aylanish Oz o'qi bo'ylab $\pm 2\pi$ burchakka o'zgarib boradi.

Masalan, $(0, 2\pi)$ oraliqdagi sonlar birinchi aylanish, $(2\pi, 4\pi)$ - ikkinchi aylanish deb ataladi. Umuman, $((2\pi(n-1); 2\pi n))$ oraliqdagi sonlar n - aylanish, $(-2\pi, 0)$ esa (-1)-aylanish, $(-4\pi, -2\pi)$ esa (-2)-aylanish va hokazo. $(\alpha + 2\pi n)$ burchakka mos nuqtalar $n+1$ aylanishda yotadi va $2\pi n$ ko'rinishidagi sonlar qo'shni aylanishlarning chegaraviy nuqtalari hisoblanadi. Agar aylanish Oz o'qining musbat yo'nalishida amalga oshirilsa α burchakka $2\pi n$ qo'shiladi, aylanish Oz o'qining manfiy yo'nalishida bo'lsa, $2\pi n$ ayiriladi. $\alpha + \pi n$, $n \in \mathbb{Z}$ ko'rinishdagi burchaklar to'plami uchun esa aylanish Oz o'qining musbat yo'nalishida bo'lsa, burchakka πn qo'shiladi, Oz o'qining musbat yo'nalishida bo'lsa πn ayiriladi.


1-misol. Sonli burama chiziqda $\frac{23\pi}{5}$ songa mos nuqtani toping. U qaysi aylanishda joylashgan?

Yechish. $\frac{23\pi}{5}$ musbat son bo'lgani uchun uni $\alpha + 2\pi n$ ko'rinishda yozamiz:

$$\frac{27\pi}{5} = 5\pi + \frac{2\pi}{5} = 2\pi \cdot 2 + \pi + \frac{2\pi}{5} = 2\pi \cdot 2 + \frac{7\pi}{5}.$$

$\frac{7\pi}{5}$ - musbat yo'nalishdagi sonli burama chiziqning birinchi aylanishida yotadi. $n = 2$ bo'lgani uchun bu nuqtaga 2 ta aylanish qo'shiladi, ya'ni izlanayotgan $A_{\frac{23\pi}{5}}$ nuqta Oz o'qining musbat yo'nalishda Oxy tekislikdan boshlab 3-aylanishda joylashgan.

2-misol. $\cos 3x = \frac{\sqrt{3}}{2}$ tenglamaning $x \in \left[-\frac{2\pi}{3}; \frac{3\pi}{2}\right]$ kesmadagi barcha ildizlarini toping.




2-rasm

Yechish. $\cos 3x = \frac{\sqrt{3}}{2}$ tenglamaning umumiy yechimini topamiz: $3x = \pm \frac{\pi}{6} + 2\pi n$, $n \in \mathbb{Z}$. $3x = y$ belgilash orqali berilgan oraliqni 3 marta kattalashtiramiz va $y = \pm \frac{\pi}{6} + 2\pi n$, $n \in \mathbb{Z}$ olamiz. Endi $\left[-2\pi; \frac{9\pi}{2}\right]$ kesmadagi ildizlarni topamiz. Buning uchun avval sonli burama chiziqda bu kesmaga mos yoyni ajratamiz. Buning uchun birlik aylanadi -2π va $\frac{\pi}{2}$ nuqtalarni belgilaymiz, chunki $\frac{9\pi}{2} = 4\pi + \frac{\pi}{2}$. Bu nuqtalar orqali Oz o'qiga parallel to'g'ri

chiziqlar o'tkazamiz. -2π orqali o'tgan to'g'ri chiziq Oz o'qining manfiy yo'nalishida Oxy tekislikdan boshlab burama chiziqning birinchi aylanishidagi nuqtada va $\frac{9\pi}{2} = 4\pi + \frac{\pi}{2}$ bo'lgani uchun $\frac{\pi}{2}$ orqali o'tgan to'g'ri chiziq esa Oz o'qining musbat yo'nalishida burama chiziqning uchinchi aylanishdagi nuqtasida kesishadi.


Sonli aylanada $\frac{\pi}{6}$ va $-\frac{\pi}{6}$ nuqtalarni belgilaymiz va ular orqali Oz o'qiga parallel chiziq o'tkazamiz. To'g'ri chiziq bilan burama chiziq kesishgan nuqtalar topiladi. Bu nuqtalar burama chiziqning (-1) va 3 -aylanishdagi qismida yotadi. Shuning uchun $\frac{\pi}{6}$ va $-\frac{\pi}{6}$ sonlarga -2π ; 0 ; 2π ; 4π qoshiladi. Demak $\frac{\pi}{6}$ nuqta orqali o'tgan to'g'ri chiziq sonli burama chiziq bilan quyidagi nuqtalarda kesishadi: $\frac{\pi}{6} - 2\pi = -\frac{11\pi}{6}$; $\frac{\pi}{6}$; $\frac{\pi}{6} + 2\pi = \frac{13\pi}{6}$; $\frac{\pi}{6} + 4\pi = \frac{25\pi}{6}$. Xuddi shunday, $-\frac{\pi}{6}$ uchun $-\frac{\pi}{6}$; $-\frac{\pi}{6} + 2\pi = \frac{11\pi}{6}$; $-\frac{\pi}{6} + 4\pi = \frac{23\pi}{6}$. $3x = y$ belgilash inobatga olinsa, $-\frac{11\pi}{18}$; $\frac{\pi}{18}$; $\frac{13\pi}{18}$; $\frac{25\pi}{18}$; $-\frac{\pi}{18}$; $\frac{11\pi}{18}$; $\frac{23\pi}{18}$ kelib chiqadi.

Javob: $-\frac{11\pi}{18}$; $\frac{\pi}{18}$; $\frac{13\pi}{18}$; $\frac{25\pi}{18}$; $-\frac{\pi}{18}$; $\frac{11\pi}{18}$; $\frac{23\pi}{18}$.



3-rasm

Izoh: Ushbu usuldan foydalanilganda berilgan sohaning chetki nuqtalari burama chiziqning qaysi aylanishida yotishini aniqlash muhim hisoblanadi. Shuni unutmaslik kerakki, bunday geometrik model (masalan, GeoGebra dasturida) bo'lmasa, qiyin bo'lishi mumkin. Shu sababli oddiyroq tasvirlash mumkin bo'lgan boshqa bir model - sonli spiralni ko'rib chiqamiz.



4-rasm

Sonli spiral. Tekislikda Oxy to'g'ri to'rtburchak koordinatalar sistemasi va markazi

O nuqtada joylashgan birlik aylanani qaraymiz. Aylananing boshlang'ich nuqtasi $A_0(1, 0)$ bo'lib, musbat burish yo'nalishi tanlangan. Quyidagi xossalarga ega bo'lgan biror egri chiziqni qaraymiz:


1) Egri chiziq A_0 nuqta orqali o'tadi.

2) Koordinatalar boshi O nuqtadan egri chiziqdagi ixtiyoriy A_α nuqtagacha bo'lgan ρ masofa $\alpha = \angle A_0OA_\alpha$ burchakning radian o'lchoviga bog'liq bo'lgan o'suvchi funksiya, ya'ni agar $\alpha_1 < \alpha_2$ bo'lsa $\rho(\alpha_1) < \rho(\alpha_2)$. Bu funksiya $\alpha \in R$ haqiqiy sonlar to'plamida aniqlangan va uzluksizdir. Egri chiziqda har bir haqiqiy son α ga yagona nuqta A_α mos keladi va aksincha egri chiziqdagi har bir nuqtaga yagona haqiqiy son α mos kelishi isbotlangan². Bu esa haqiqiy sonlar to'plami R bilan egri chiziqdagi nuqtalar o'rtasida o'zaro bir qiymatli akslantrish o'rinli ekanligini bildiradi³. Shu orqali R to'plamining yana bir modeli quriladi va bu model sonli spiral deb ataladi (3-rasm). Sonli spiralning quyidagi ko'rinishdagi nuqtalari $\dots, A_{\alpha-4\pi}, A_{\alpha-2\pi}, A_\alpha, A_{\alpha+2\pi}, A_{\alpha+4\pi}, \dots$ koordinata boshi O nuqtadan boshlanuvchi bitta nur (yarim to'g'ri chiziq) ustida joylashgan (4-rasm). Shuningdek, bu nuqtalarning barchasi markaziy proyeksiya orqali O nuqtadan sonli aylanaga tushirilganda bitta B_α nuqtaga proyeksiya qilinadi. Shu asosda agar bu proyeksiya O nuqtadan qaralgan bo'lsa, sonli aylanadagi har bir B_α nuqta spiral chiziqdagi

barcha $A_{\alpha+2\pi n}$, $n \in Z$ ko'rinishdagi nuqtalarning tasvirlangan nuqtasi sifatida talqin qilinadi. Sonli spiralning sonli aylana tashqarisidagi birinchi aylanishi $[0; 2\pi)$ oraliqdagi burchaklarga, ichki aylanishi esa oraliq $(-2\pi; 0]$ dagi burchaklarga mos keladi. Har bir yangi aylanish markaz O nuqtadan uzoqlashganda burchakka 2π qo'shiladi, yaqinlashganda esa 2π ayriladi. $\alpha + \pi n$, $n \in Z$ ko'rinishdagi burchaklar to'plami esa spiraldagi ikkita nurda yotgan nuqtalarni ifodalaydi (5-rasm). Bunda bir yangi aylanish markaz O nuqtadan uzoqlashganda burchakka π qo'shiladi, yaqinlashganda esa π ayriladi.


3-misol. $\cos 3x = \frac{\sqrt{3}}{2}$ tenglamaning $x \in \left[-\frac{2\pi}{3}; \frac{3\pi}{2}\right]$ kesmadagi barcha ildizlarini toping (sonli spiral usulidan foydalaning).

Yechish: $3x = y$ belgilash orqali berilgan sohani 3 marta kattalashtiriladi va $\left[-2\pi; \frac{9\pi}{2}\right]$ olinadi.



5-rasm

- Ostroverhaya, L.D., Zhdanova, O.K. (2019). Selection of roots of trigonometric equations by the spiral method. Herald of KRAUNC Physical and Mathematical Sciences, 1, 100–109. <https://doi.org/10.26117/2079-6641-2019-26-1-100-109>
- Velazco, D. J. M., & Padrón, Y. R. (2018). Teaching resource for the teaching of geometry: Circular Trigonometric Geoplane. International Electronic Journal of Mathematics Education, 14(1). <https://doi.org/10.12973/iejme/3936>



6-rasm

Sonli spiralda bu kesmaga mos yoy ajratiladi. -2π son spiralning birinchi ichki aylanishidagi

A nuqtani va $\frac{\pi}{2}$ esa tashqi uchunchi aylanishdagi B nuqtani aniqlaydi (6-rasm). Spiralning AB

yoy segmenti $\left[-2\pi; \frac{9\pi}{2}\right]$ oraliqni ifodalaydi. Berilgan tenglama quyidagicha ildizlarga ega:

$$y = \pm \frac{\pi}{6} + 2\pi n, n \in \mathbb{Z}.$$

E va C nuqtalar $\frac{\pi}{6}$ burchakka mos keladi (mos ravishda spiralda va sonli aylanada). B nuqta C dan bir aylanish pastda joylashgan

bo'lib, unga $\frac{\pi}{6} - 2\pi = -\frac{11\pi}{6}$ mos keladi. E, T va K nuqtalar mos ravishda C dan bir, ikki va uch

aylanish yuqorida bo'lib, $\frac{\pi}{6}; \frac{\pi}{6} + 2\pi = \frac{13\pi}{6};$

$\frac{\pi}{6} + 4\pi = \frac{25\pi}{6}$ burchakni aniqlaydi. Shu kabi

$y = -\frac{\pi}{6} + 2\pi n, n \in \mathbb{Z}$ ildizlar to'plami uchun

$-\frac{\pi}{6}; -\frac{\pi}{6} + 2\pi = \frac{11\pi}{6}; -\frac{\pi}{6} + 4\pi = \frac{23\pi}{6}$ topiladi. $3x = y$ belgilash inobatga olinsa,

$-\frac{11\pi}{18}; \frac{\pi}{18}; \frac{13\pi}{18}; \frac{25\pi}{18}; -\frac{\pi}{18}; \frac{11\pi}{18}; \frac{23\pi}{6}$ kelib chiqadi.

Izoh. Sonli spiralni oddiy qo'l bilan ham chizish mumkin. Ushbu modelda haqiqiy sonlar to'plami $\mathbb{R}$ ni tasvirllovchi asosiy egri chiziq silliq yoki doimiy egri bo'lishi shart emas. Spiral aniqlanishidagi $\rho(\varphi) = OM_\varphi$ funksiyasining monotonligidan ham voz kechish mumkin, agar quyidagicha shart bajarilsa: $\rho(\varphi + 2\pi) > \rho(\varphi)$, har qanday φ uchun. Masalan, 7-rasmda tasvirlangan "kvadrat spiral" bunga misoldir. Bundan tashqari, amaliy masalalarni yechishda egri chiziq butun $\mathbb{R}$ to'plamini emas, balki zarur oraliqni qamrab olishi kifoya.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quvchilar birlik aylana modelini to'liq anglab yetmasligi trigonometrik tenglamalar yechimlarini aniqlashda jiddiy qiyinchiliklarga sabab bo'lishi aniqlangan. Shu bois maqolada sonli spiral va burama chiziq (vint) kabi yangi vizual modellardan foydalanish taklif qilinib, ularning o'quvchilarda intuitiv tushuncha va abstrakt tafakkurni shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berildi. Bu modellar yordamida haqiqiy sonlar to'plamini to'liq va o'zaro bir qiymatli akslantirish mumkinligi sababli ular trigonometrik masalalarni hal etishda samarali ko'makchi vosita bo'la oladi. Shu bois, trigonometriya o'qitishda birlik aylana modelining geometrik va

matematik asoslari chuqur yoritilishi, bu model bilan ishlash ko'nikmalari bosqichma-bosqich shakllantirilish zarur. O'quvchilarning vizual-intuitiv tushunchalarini rivojlantirish uchun dars jarayonida sonli spiral va sonli burama chiziq modellaridan foydalanish samarali bo'ladi. Trigonometrik tenglamalarni yechishda ildizlarni aniqlash bosqichida burama chiziq modelidan foydalanish orqali aniqlik va tushunarlikka erishiladi. GeoGebra kabi interaktiv vositalar orqali bu modellarni amalda tasvirlash, tahlil qilish va yechimlarni ko'rsatish o'quvchilar uchun yengillik yaratadi.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI IJTIMOY-GUMANITAR TA'LIM YO'NALISHLARIDA MATEMATIK TA'LIM MUAMMOLARI

Murod Barakayev – professor, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Charos Djurayeva – mustaqil tadqiqotchi,
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqola uzluksiz ta'lim tizimi ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishlarida matematik ta'lim muammolariga bag'ishlangan bo'lib, unda zamonaviy ta'limning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga asoslangan holda, mazkur ta'lim yo'nalishida matematika fanini o'qitishning maqsadi, uning mazmuni va unga qo'yiladigan talablar yetarli darajada ochib berilgan. Bu borada mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha metodik tavsiyalar keltirilgan.

Аннотация. Данная статья посвящена проблемам математического образования в системе непрерывного образования по социально-гуманитарным направлениям. В ней на основе принципов личностно-ориентированного обучения, характерных для современной педагогики, раскрыты цели преподавания математики, содержание учебного материала и требования, предъявляемые к обучению в данном направлении. Также приведены методические рекомендации по устранению существующих проблем.

Abstract. This article is devoted to mathematical issues within the system of lifelong learning in social and humanitarian fields. Based on the principles of learner-centered education, which is considered the core of modern pedagogy, the paper explores the objectives of teaching mathematics, the content of the curriculum, and the requirements for mathematical instruction in these areas. The article also provides methodological recommendations for addressing existing challenges.

Kalit so'zlar: ta'lim, uzluksiz ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishi, ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishida matematik ta'lim mazmuni.

Ключевые слова: образование, непрерывное образование, личностно-ориентированное обучение, социально-гуманитарное направление, содержание математического образования в социально-гуманитарном направлении.

Keywords: education, lifelong learning, learner-centered education, social and humanitarian field, content of mathematical education, social and humanitarian disciplines

XXI asr ta'limida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari ustuvor bo'lib turgan bir sharoitda, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishlarida (Uzluksiz ta'lim tizimidagi har bir bosqichda) matematik ta'lim mazmuni qanday bo'lishi kerak? U qanday modullar yoki mavzularni o'z ichiga olishi lozim? Bunday muammolar nafaqat mamlakatimiz ta'lim tizimidagi, balki hozirgi global ta'lim muhitida ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – har bir o'quvchi-talabning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari, o'quv sur'ati va kontekstiga moslashtirilgan ta'limdir. Mazkur yondashuvda har bir o'quv fani mazmuni, o'quvchi-talabning

kelgusidagi shaxsiy va kasbiy faoliyati nuqtayi nazaridan, doimiy rivojlanishiga xizmat qiladigan tarzda shakllantirilishi asosiy ustuvorliklardan biridir.

Tahlillar, izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarda o'qiyotgan o'quvchi-talabalar uchun matematika fani: amaliy, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi va analitik fikrlashni shakllantiruvchi vosita sifatida xizmat qilishi muhimdir.

Shunday ekan, ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishlari uchun matematika ta'lim mazmuni qanday bo'lishi maqsadga muvofiq?

Bizning nuqtayi nazarimizda, uzuliksiz

ta'limning barcha bosqichlaridagi ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishlarida matematik ta'lim mazmuni asosan amaliy va kontekstual yondashuvlar asosida shakllantirilishi lozim. Ya'ni, matematik mazmuni ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bevosita bog'liq kontekstda ishlab chiqilishi zarur. Chunki mazkur yo'nalishlarda matematik bilimlar asosan quyidagi jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etadi:

Ehtimollar nazariyasi va statistika elementlari- sotsiologiya, psixologiya, pedagogika, siyosatshunoslik kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni olib borishda zarur.

Ma'lumotlar tahlili – iqtisodiyot, jurnalistika, siyosatshunoslik kabi yo'nalishlarda statistik ma'lumotlar bilan ishlashda muhimdir.

Matematik mantiq asoslari – falsafa, tilshunoslik, huquqshunoslik kabi yo'nalishlarda induktiv va deduktiv fikrlashni rivojlantirish uchun zarur.

Matematik modellashtirish, diagrammalar va grafiklarni yasash- ijtimoiy jarayonlar, demografik o'zgarishlar, ijtimoiy so'rovlar kabilarda natijalarini tahlil qilish uchun zarur.

Raqamli savodxonlik. Raqamli asrda ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi mutaxassislar ham raqamli texnologiyalar bilan ishlay olishi zarur. Shuning uchun ham Excel, SPSS, Python (asosiy darajada) kabi vositalar yordamida oddiy data tahlil qilish.

Eslatma. Oddiy data tahlil qilish - ma'lumotlar ustida dastlabki, asosiy, sodda tahlil usullarini qo'llash tushuniladi.

Masalan: Ma'lumotlarni to'plash va tanlash: noto'g'ri yoki yetishmayotgan ma'lumotlarni

aniqlash;

Statistik ko'rsatkichlarni hisoblash: o'rtacha, median, mod, dispersiya, standart og'ish;

Grafiklar yasash: ustunli diagramma, chiziqli grafik va h.k.;

Oddiy taqqoslashlar va guruhlashlar: ma'lumotlarni guruhlarga ajratish, har bir guruh bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni ko'rish.

Masalan. Excel yoki SPSS yordamida ma'lumotlar kiritiladi, ular saralanadi, o'rtacha qiymatlar topiladi, guruhlarga bo'lgan holda taqqoslanadi, grafiklar chiziladi.

Python esa shu jarayonni dasturlash yordamida avtomatlashtirish, yanada murakkab va kattaroq ma'lumotlarni tahlil qilish uchun ishlatiladi.

Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarda o'quvchi-talabalar ko'pgina hollarda matematikani keraksiz yoki ortiqcha yuk sifatida qarashadi. Ammo zamonaviy dunyoda, ayniqsa, sotsiologiya, psixologiya, jurnalistika, tarix, siyosatshunoslik kabi ijtimoiy fanlarni samarli o'rganish ham raqamli savodxonlik va statistik tafakkurga ega bo'lishni talab qilmoqda^{1, 2, 3, 4}.

Shuning uchun ham, mazkur fanlar haqida gap borganda quyidagi asosiy savollarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Uzluksiz ta'lim tizimida matematikani o'qitish jarayonida raqamli savodxonlik va statistik tafakkurni shakllantirishga bosqichma-bosqich yondashish, Bunda:

a) Boshlang'ich ta'lim bosqichi: bu bosqichda asosiy e'tibor: matematik fikrlash asoslari va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga e'tibor qaratilishi talab etiladi. Mazkur jarayonda

1 Barakayev M. va b. Uzluksiz ta'lim tizimida matematik tayyorgarlikni takomillashtirish muammolari //Transactions Of the international scientific conference "modern problems of applied mathematics and Information technologies - al-KHorezmii 2016", 9-10 november, 2016, Труды Международной конференции, 6.170-173//

2 «Математика в социально-гуманитарной сфере»: методические указания // сост.: Б.Ф.Иванов, Н.Л.Белая, М.Э.Юдовин; СПбГТУРП// - СПб., 2012. - 26 с.

3 Дорофеева А.В. Высшая математика. Гуманитарные специальности. Гриф МО РФ. Изд. «Дрофа», 2004. - 399с.

4 Грес П.В. Математика для гуманитариев: учебн. пособие. - М.: Юрайт

ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishlarida o'quvchi-talabalarga matematikani o'qitishni sodda hayotiy masalalardan foydalangan holda o'qitish, ko'zlangan maqsadga erishishda muhim hisoblanadi;

b) Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim bosqichi: mazkur bosqichda statistika, grafiklar, foizlar kabi tushunchalar qaralishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, bu tushunchalar hayotiy muammolarni hal qilishda keng qo'llaniladi. Bunday sharoitda matematikani ijtimoiy kontekstda o'rgatish, ya'ni so'rovnomalarni, demografik ko'rsatkichlarni, mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'lil qilishga doir amaliy mazmundagi masalalardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi;

c) Oliy ta'limning ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlari: mazkur ta'lim yo'nalishlarida "Oliy matematika" fanini o'qitishning asosiy maqsadi: ma'lumotlarni tushunish, tushunish va tahlil qilish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat. Bunda talabalarga SPSS, Excel, Python dasturlari orqali asosiy statistik analizni amalga oshirish eng sodda va qulay yo'llar o'rgatiladi.

Masalan. "Jurnalistika" ta'lim yo'nalishida: ijtimoiy so'rovlar natijasini tahlil qilish, "Tarix" ta'lim yo'nalishida – arxiv ma'lumotlarini solishtiradi, "Siyosatshunoslik" ta'lim yo'nalishida – saylov natijalarini tahlil qilish kabi muammolarni hal etish imkoniyatlarini o'rganishadi.

2. Uzlaksiz ta'lim tizimida matematik ta'lim mazmunini to'g'ri tanlash muhim hisoblanadi. Bunda:

a) zamonaviy ta'limda interfaol, amaliy, kontekstual yondashuvlar ustuvor hisoblanib, ular asosida real hayotda uchraydigan muammolar asosida tuzilgan masalalardan, jumladan, oila budjetini tuzish, statistik so'rov, iqtisodiy bashorat kabilarga doir amaliy mazmundagi masalalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

b) ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishlarida matematikani o'rganish jarayonida statistik savodxonlik, ya'ni o'rtacha qiymat, mod, median, jadval, diagrammalar tuzish kabilarda bo'yicha, shuningdek, grafiklar, diagrammalar va jadvallar tahlili, mantiqiy fikrlash, Excel va SPSS dasturlarida sodda tahlillarni amalga oshirishni egallashi talab etiladi.

3. Ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishlarida matematikani o'qitishdagi bugungi kundagi asosiy muammo va tavsiyalar asosan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) Muammolar: Tahlillar shuni ko'rsatadiki, amaldagi darsliklar mazmuni ko'proq texnikaga yo'naltirilgan bo'lib, ularda amaliy mazmundagi masalalar kam uchraydi. Shuningdek, ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari matematik bilimlarini o'z kasbiy sohasida amaliy qo'llay olishmaydi. Chunki professor-o'qituvchilar ko'p hollarda mazkur yo'nalishlarda matematikani o'qitishga ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishlari talablari bo'yicha yondoshishmaydi.

Tavsiyalar: Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlar, ya'ni "Jurnalistlar uchun matematika", "Huquqshunoslar uchun matematika", "Tarixchilar uchun matematika" kabi kasbiy sohalar uchun matematik ta'lim mazmuni mazkur ta'lim yo'nalishlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilishi (moslashtirilgan bo'lishi) zarur. Shuningdek, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishlarining matematika kurslarini real hayotiy loyiha ishlari orqali o'rgatishga erishish zarur. Bunda "matematika + tarix", "matematika + psixologiya", "matematika + huquqshunoslik", "matematika + iqtisodiyot" kabi ko'rinishdagi yondashuvni amalga oshirish tavsiya etiladi. Chunki ta'lim tizimini tashkil etishga bunday yondashuv o'quvchi-talabalarining o'z ehtiyojlari darajasida bilimlarni egallash imkoniyatini oshiradi. Natijada ularda nafaqat matematikani, balki boshqa fanlarni ham anglangan holda va

samarali o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyalari oshadi. Bu esa ta'lim natijalariga yetarli darajada erishishga shart-sharoit yaratadi.

Yuqoridagilarga erishish uchun, birinchi navbatda, uzluksiz ta'limning har bosqichi uchun^{5, 6, 7}:

- mukammal ta'lim dasturlarini ishlab chiqish;

- mazkur darsliklar asosida o'quv metodik ta'minotni yaratish;

- zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan, har bir ta'lim bosqichida faoliyat yurata oladigan ta'lim sub'ekti hisoblangan zamonaviy o'qituvchilarni tayyorlashga erishish;

- zamonaviy ta'limning moddiy bazasini yaratish;

- ta'lim sohasi xodimlarining moddiy manfaatdorligini jahon standartlari darjasiga olib chiqish kabi kechiktirib bo'lmaydigan muammolar o'z yechimini topishi kerak.

Masalan. O'quv rejalarini ishlab chiqishda, bizning nuqtayi nazarimizda, uzluksiz ta'lim tizimi bosqichlari kesimida quyidagicha yondoshish maqsadga muvofiq.

Quyida I-VI sinflar matematika kursi bo'yicha o'rganilishi kerak bo'lgan mazmunni namuna keltiramiz (uzluksiz ta'lim tizimining boshqa bosqichlari uchun esa boshqa maqolalarimizda batafsil to'xtalib o'tamiz).

Matematikani o'qitishdan ko'zlangan maqsad quyidagi yo'nalishlarni qamrab olishi lozim:

- mantiqiy va tanqidiy fikrlash asoslarini o'rgatish orqali mantiqiy savodxonlikni oshirish;

- ko'pxonali sonlarni og'zaki va yozma raqamlash, ular ustida to'rt arifmetik amalni bajarishning og'zaki va yozma usullari bo'yicha yetarli nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishini ta'minlash;

- har bir mavzu bo'yicha amaliy mazmundagi masalalar yordamida matematikaning hayot bilan bog'liqligi (bozor narxi, vaqt hisoblash, maktabga borish vaqti va h.k. kabilarga doir) ni yetarli darajada ochib berish;

- abstrakt fikrlashga o'rgatish bo'yicha malakalarni hosil qilish;

- harakatni ifodalash, masofani hisoblash, sodda tenglamalar yechish ko'nikma va malakalarini hosil qilishi;

- natural sonlar va to'plamlar haqida yetarli bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishi;

- vaqt, pul, uzunlik, og'irlik kabi miqdorlarning o'lchov birliklari haqida ma'lumotlar berishi;

- grafiklar, ya'ni, ustunli diagrammalar, oddiy jadvallar bilan ishlash malakalarini shakllantirish;

- kasrlar, foizlar, nisbatlar haqida ma'lumot berish va ularni kundalik hayot uchun muhim jihatlarini ochib berishi;

- sodda sonli ifodalar va algebraik tushunchalar haqida ma'lumot berish;

- sodda geometrik figuralar va ularning perimetr, yuzalari haqida ma'lumot berish;

- o'rtacha qiymat, mod, median, jadval tuzish kabi statistik tushunchalar haqida ma'lumot berish;

5 Barakayev M. va b. Uzluksiz ta'lim tizimida matematik tayyorgarlikni takomillashtirish muammolari //Transactions Of the international scientific conference "modern problems of applied mathematics and Information technologies – al-KHorezmiy 2016", 9-10 november, 2016, Труды Международной конференции, 6.170-173//

6 Barakayev M. Ўқитишда шахсга йўналтирилган ёндашув – ривожлантирувчи таълимнинг асоси сифатида //“Умумтаълим мактаблари таълим жараёнида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишнинг долзарб муаммолари ва ечимлари” мавзусидаги республика илимий-амалий конференция материаллар (2-қисм)//. – Навоий, 2017, 6.149-151

7 Barakayev M. Замонавийлашув шароитида “Математика ўқитиш методикаси” фани, унинг муаммолари ва ечимлари. – Т.: ж. Илмий ахборотнома (илмий-назарий журнал), №1(10) /2017, 6.40-44

– matnlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish. Bunda masalalar mazmuni ijtimoiy kontekstga bog‘langan “maktabimizdagi o‘quvchilar soni”, “kitobning narxi qancha o‘zgargan”, “aholining o‘sish sur‘ati” kabi jummalarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi maqsadga muvofiq va h.k.

Agar uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida, ijtimoiy-gumanitar ta’lim yo‘nalishlarida matematika fanini o‘qitishda yuqorida keltirilgan yondoshuvga amal qilinsa, ta’lim maqsadlariga erishishni oldindan kafolatlash imkoniyatlari oshadi,

OLIY MATEMATIKA FANINI FANLARARO ALOQADORLIK TAMOIYILI ASOSIDA O'QITISH IMKONIYATLARI

Abduvali Shamshiyev – i.f.n., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Gulabza Sodiqova – doktorant, Andijon davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida oliy matematika fanini fanlararo aloqadorlik tamoyillari asosida o'qitishning imkoniyatlari keltirilgan. Oliy matematika fanini mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalashgan holda o'qitish muammolarini hal qilish yo'llari yoritib berilgan.

Аннотация. В этой статье подробно описаны возможности преподавания курса высшей математики в высших учебных заведениях на принципах междисциплинарной коммуникации. В статье освещаются пути решения задач преподавания курса высшей математики в технических высших учебных заведениях в комплексе со специальными дисциплинами.

Abstract. This article provides a detailed description of the possibilities of teaching a course in higher mathematics in higher education institutions based on the principles of interdisciplinary communication. The article highlights the ways of solving the problems of teaching a course in higher mathematics in technical higher education institutions in conjunction with special disciplines.

Kalit so'zlar: fanlararo aloqadorlik, abstrakt nazariya, kasbiy kompetentsiya, integratsiyalashuv, texnika oliy ta'lim muassasalari, o'rtacha kvadratik cheklanish.

Ключевые слова: междисциплинарная коммуникация, абстрактная теория, профессиональная компетентность, интеграция, технические высшие учебные заведения, ограничение среднего квадрата.

Keywords: interdisciplinary communication, abstract theory, professional competence, integration, technical higher education institutions, mean square restriction.

Mamlakatimiz oliy tizimida olib borilayotgan ta'lim islohotlarining pirovard maqsadi oliy ta'limining integratsiyasi orqali ta'lim Yevropa ta'lim maydoniga kirishdan iborat. Ya'ni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalari ta'lim standartlarini Boloniya deklaratsiyasiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning ta'lim standartlariga moslashtirishdan iboratdir. Ma'lumki, bu modul-kredit tizmi hisoblanib, unda talabalarning mustaqil ishlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Shundan kelib chiqqan holda bo'lajak muhandislarni tayyorlashda matematika,

fizika, chizma geometriya va boshqa fanlarni o'rganishga ajratilgan auditoriya soatlari bilan mustaqil ta'limni uchun ajratilgan vaqt o'rtasida ziddiyat mavjud. Ushbu ziddiyatni hal qilishda fanlararo aloqadorlikka alohida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi^{1,2}.

Maktab ta'limi jarayonida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish o'quvchilarining boshqa fanlarni o'rganish jarayonida va kundalik hayotiy tajribalari orqali olgan bilimlarini matematikani o'rganish jarayonida qo'llay olish imkoniyatlarini oshiradi.

Fanlararo aloqalikning tarkibiy qismi

1 Бабаев В.С., Евграфова И.В. Применение высшей математики в изучении физики для студентов инженерных специальностей. Материалы Международной научно-практической конференции «Современные проблемы теории и методики обучения физике, информатике и математике». Часть I. –Екатеринбург: УрГПУ, 2009 г., с. 45–49.

2 Baratov M.U. Kadrlar tayyorlash sifatlari oshirishda integratsiyalashgan darslarni ahamiyati // Qozoqiston XII xalqaro konferentsiya. – Nur-Sulton, Qozoqiston, № 1(12), dekabr 2021. Seriya. "Pedagogicheskii nauki"//. – Nur-Sulton, s. 128-131

o'quv materialining mazmuni, shakllangan ko'nikmalar, malakalar va aqliy operatsiyalardan iborat bo'lib, fanlararo aloqalarning quyidagi turlari mavjud^{3, 4}:

- 1) mazmuniga ko'ra;
- 2) aqliy operatsiyalarga ko'ra;
- 3) metodik xarakteriga ko'ra;
- 4) tashkil etishga ko'ra.

Texnika oliy ta'lim muassasalarida "Oliy matematika" fanini mutaxassislik fanlari bilan integratsiya qilib o'qitish – bugungi ta'lim tizimining dolzarb muammolaridan biri bo'lib, mazkur yondashuv bo'lg'usi muhandislarning matematikani o'rganishga va mutaxassislik fanlarini samarali o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshirish, abstrakt nazariyani amaliyotga bog'lash va kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, texnika oliy ta'lim muassasalarida "Oliy matematika" va mutaxassislik fanlari alohida-alohida o'rganiladi. Shuning uchun ham mazkur fanlarni o'qitish orqali muhandislarni tayyorlashda ko'pgina muammolarga duch kelinadi, jumladan:

- "Oliy matematika" fani alohida o'qitilganligi sababli, mutaxassislik fanlar bilan aloqadorligi to'g'ri tashkil etilmaganligida;
- talabaning "Nima uchun muhandis bo'lish uchun matematikani o'rganish kerak" – degan savolga javob olaolmasligida;
- olgan nazariy bilimlarini amaliy masalalarni hal etishda qo'llay olmasligida;
- egallagan bilimlarni yuzaki o'zlashtirilishi;

– "Oliy matematika" va mutaxassislik fanlari o'qituvchilari orasida hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;

– talabalar har bir o'qub predmeti bo'yicha o'z ehtiyojlarini aniqlab olishga qodir emasligi va h.k.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, texnika oliy ta'lim muassasalari talabalari oliy matematika fanining keyingi bosqishlarda mutaxassislik fanlarini o'rganishdagi o'rnini to'g'ri baholay olishmaydi. Bu esa ularni to'la qonli mutaxassis bo'lib yetishishiga to'sqinlik qilib kelmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Oliy matematika fanini yetarli darajada o'zlashtirmaslikni asosiy sabablaridan biri – bu Oliy matematik ta'lim mazmuni va uni shakllanishi kasbiy faoliyatga yetarli darajada yo'naltirilmaganligidir. Mazkur muammoni hal etishning asosiy imkoniyatlaridan biri fanlararo aloqadorlikni ta'minlagan holda o'qitishdir.

Chunki, bo'lg'usi muhandislarni tayyorlashda zamonaviy metodik sistemaning barcha qismlarini to'g'ri ishlashi muhim o'rin tutadi. Ya'ni, ta'lim maqsadi, ob'yekti, mazmuni, shakli, metodi, vositasi kabi ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini bir-biri bilan o'zaro bog'liqligini taminlagan holda o'qitish muhim hisoblanadi. Bunga erishish esa birinchi navbatda quyidagi muammolarni hal etishni taqazo etadi⁵.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki:

Texnika oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi I bosqish talabalarining matematik tayyorgarligi bilan ular I kursdan boshlab o'rganadigan Oliy matematika fani mazmuni orasidagi tafovutni kattaligi (mazkur tafovutni bartaraf etishning eng maqbul yo'li – bu texnik yo'nalishga ixtisoslashgan maktablar matematika dasturini texnika oliy ta'lim muassasalarida

3 Бабаев В.С., Евграфова И.В. Применение высшей математики в изучении физики для студентов инженерных специальностей. Материалы Международной научно-практической конференции «Современные проблемы теории и методики обучения физике, информатике и математике». Часть I. – Екатеринбург: УрГПУ, 2009 г., с. 45–49.

4 Baratov M.U. Кадрлар тайёрлаш сифатини оширишда интеграциялашган дарсларни аҳамияти // Қозоқистон XII халқаро конференция. – Нур-Султан, Қозоқистон, № 1(12), декабрь 2021. Серия. "Педагогический науки"//. – Нур-Султан, с. 128–131

5 Цыбикова В.К. "Преподавание математики в различных профильных направлениях" Вестник бурятского государственного университета 2010/15. – С.118–122.

o'qitiladigan Oliy matematika fani dasturiga moslashtirish hisoblanadi);

Texnik yo'nalishdagi ixtisoslashgan maktablarda matematikani fanlararo aloqadorlik tamoyiliga asoslangan holda o'qitish;

Texnik yo'nalishdagi ixtisoslashgan maktablar o'quvchilarining kasbiy ko'nikmalarini aniqlash va ularni rivojlantirishda fanlararo aloqadorlik tamoyilidan keng va o'rinli foydalanish (Bu kelgusida matematika va fundamental fanlar, umumiy kasbiy va maxsus fanlarni samarali o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi);

Ta'lim jarayonini (auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar) tashkil etish samaradorligini oshirish uchin fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish va shu asosida fanlararo integratsiyani amalga oshirish mezonlarini ishlab chiqish. Shularga asoslangan holda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish orqali ta'lim sifatini oshirishni aniqlovchi aholash mexanizmini ishlab chiqish (joriy, oraliq, va yakuniy nazorat testlari, va h.k.).

Mazkur muammolarni hal etishda:

– oliy matematika fani bo'yicha yaratiladigan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanmalar va didaktik materiallarni ishlab chiqishda o'quvchilarga maktab davridanoq tanish bo'lgan masalalardan foydalanish (albatta uzvuylikka amal qilgan holda);

– oliy matematika fani bo'yicha o'quv rejalar va dasturlarni ishlab chiqishda mutaxassislik kafedrasi o'qituvchilari bilan maslashatlashgan holda ishlab chiqish (bu nafaqat matematikani o'qitishda fanlararo aloqadorlikni, balki mutaxassislik fanlarini o'qitishda ham fanlararo aloqadorlikni taminlash imkoniyatlarini

oshiradi);

– oliy matematika fani bo'yicha o'quv rejalar va dasturlarni ishlab chiqishda mas'ullar mutaxassislik fanlarning dasturlari, darsliklari bilan tanishib chiqishlari talab etiladi^{6,7}.

Endi yuqorida qayd etilgan muammolarni samarali hal etishga xizmat qiluvchi masalalardan namunalar keltiramiz:

1-masala: Mis simdan o'ralgan g'altak qarshiligi 12 marta o'lchangandagi natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan. Ehtimoli $p=0,85$ bilan g'altak qarshiligi va xatoligini toping.

№	Ri, Ω	№	Ri, Ω
1	100,6	7	99,7
2	100,8	8	100,8
3	99,0	9	99,6
4	100,6	10	100,5
5	99,6	11	100,1
6	101,0	12	100,9

Y e c h i s h : 1. O ' r t a c h a arifmetik qiymatni aniqlaymiz:

$$\bar{R} = \frac{\sum_{i=1}^n R_i}{n} = \frac{100,6+100,8+99,0+100,6+99,6+101,0+99,7+100,8+99,6+100,5+100,1+100,9}{12} = 100,27 \Omega$$

2. Har bir o'lchamning mutloq xatoligini topamiz:

$$1) R_i - \bar{R}_i = 100,60 - 100,27 = 0,33 \Omega \quad 7) 99,7 - 100,27 = 0,57$$

$$2) 100,8 - 100,27 = 0,43 \quad 8) 100,8 - 100,27 = 0,43$$

$$3) 99,0 - 100,27 = -1,27 \quad 9) 99,6 - 100,27 = -0,67$$

$$4) 100,6 - 100,27 = 0,33 \quad 10) 100,5 - 100,27 = 0,23$$

6 Barakayev M. Barakayev M., Qo'chqorov M., Zulfiqorov I. Uzluksiz ta'lim tizimida matematik tayyorgarlikni takomillashtirish muammolari //Transactions Of the international scientific conference "modern problems of applied mathematics and Information technologies - al-KHorezmiy 2016", 9-10 november, 2016, Труды Международной конференции, 6.170-173//

7 Barakayev M., Жалилов А. Математикни ўқитишда фанларaro алоқадорлик - таълим самарадорлигини ошириш омили сифатида//Навоий вилоят "Халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти", "Таълимда инновациялар, инвестициялар ва интеллектуал салоҳият: муаммолар таҳлиллар ва истиқболлар" мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами 16 декабр, Навоий 2016, 3 қисм, 6.62-64//

$$5) 99,6-100,27=-0,67 \quad 11) 100,1-100,27=0,17$$

$$6) 101,0-100,27=0,73 \quad 12) 100,9-100,27=0,28$$

3. Xatoliklarning kvadratlarini hisoblaymiz:

$$1) (R_i - \bar{R}_i)^2 = 0,332 \approx 0,11 \quad 7) 0,572 \approx 0,32$$

$$2) 0,432 \approx 0,18 \quad 8) 0,432 \approx 0,18$$

$$3) (-1,27)^2 \approx 1,61 \quad 9) (-0,67)^2 \approx 0,45$$

$$4) 0,332 \approx 0,11 \quad 10) 0,232 \approx 0,05$$

$$5) (-0,67)^2 \approx 0,45 \quad 11) 0,172 \approx 0,03$$

$$6) 0,732 \approx 0,53 \quad 12) 0,532 \approx 0,28$$

$t_\gamma = t(\gamma, n)$ ning qiymatlari jadvali

γ n	0,95	0,99	0,999	γ n	0,95	0,99	0,999
5	2,78	4,60	8,61	20	2,093	2,861	3,883
6	2,57	4,03	6,86	25	2,064	2,797	3,745
7	2,45	3,71	5,96	30	2,045	2,756	3,659
8	2,37	3,50	5,41	35	2,032	2,720	3,600
9	2,31	3,36	5,04	40	2,023	2,708	3,558
10	2,26	3,25	4,78	45	2,016	2,692	3,527
11	2,23	3,17	4,59	50	2,009	2,679	3,502
12	2,20	3,11	4,44	60	2,001	2,662	3,464
13	2,18	3,06	4,32	70	1,996	2,649	3,439
14	2,16	3,01	4,22	80	1,991	2,640	3,418
15	2,15	2,98	4,14	90	1,987	2,633	3,403
16	2,13	2,95	4,07	100	1,984	2,627	3,392
17	2,12	2,92	4,02	120	1,980	2,617	3,374
18	2,11	2,90	3,97	∞	1,960	2,576	3,291
19	2,10	2,88	3,92				

4. O'rtacha kvadratik cheklanishni aniqlaymiz:

$$\sigma = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (R_i - \bar{R}_i)^2}{n}}$$

$$\sum_{i=1}^n (R_i - \bar{R}_i)^2 = 0,11 + 0,18 + 1,61 + 0,11 + 0,45 + 0,53 + 0,32 + 0,18 + 0,45 + 0,05 + 0,03 + 0,28 = 4,3$$

bo'ladi.

$$\text{Agar } n = 12 \text{ bo'lsa, } \sigma = \sqrt{\frac{4,3}{12}} = 0,6 \text{ bo'ladi.}$$

5. O'rtacha kvadratik cheklanish xatoligini aniqlaymiz, U holda:

$$\bar{\sigma}_R = \frac{\sigma}{\sqrt{n}} = \frac{0,6}{\sqrt{12}} = 0,17 \text{ bo'ladi.}$$

6. G'altak qarshiligini aniqlaymiz: $R = \bar{R}n \pm tn \cdot \bar{\sigma}_R$ bo'ladi.

Bunda: $n = 12$ va $p = 0,99$ uchun tn quyidagi jadvaldagi ko'rinishda bo'ladi (1-jadval):

Bundan,

$$t_n = 3,11, R = \bar{R}n \pm tn \cdot \bar{\sigma}_R = 100,27 \pm 3,11 \cdot 0,17 = 100,27 \pm 0,53 \Omega$$

bo'ladi.

$$\text{Javob: } t_n = 100,27 \pm 0,53 \Omega$$

Bunday mazmundagi masalalardan Oliy matematika fanini o'qitish jarayonida foydalanish:

– “Oliy matematika” fanini o'qitishni mutaxassislik fanlar bilan aloqadorligi to'g'ri tashkil etishga imkon beradi;

– talabalar “Nima uchun muhandis bo'lish uchun matematikani o'rganish kerak” – degan savolga javob olishadi;

– olgan nazariy bilimlarini amaliy masalalarni hal etishda qo'llay olish malakalariga ega bo'ladi;

– bilimlarni anglangan holda o'zlashtiradi;

– Oliy matematika” va mutaxassislik fanlari o'qituvchilari orasida hamkorlikni yo'ga qo'yish imkoniyatlarini oshiradi;

– talabalar har bir o'qub predmeti bo'yicha o'z ehtiyojlarini aniqlayn olishni va shu asosida bilimlarni egallashga bo'lgan intilishlarini rag'batlantiradi va h.k.

Umuman, texnika oliy ta'lim muassasalarida “Oliy matematika” fanini o'qitishda mutaxassislik fanlari bilan aloqadorligini ta'minlash ta'lim natijalariga erishishda muhim o'rin tutadi.

MATEMATIK MODELLASHTIRISH FANINI O'QITISHNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Zamira Shukirillo qizi Ochilova – tayanch
doktorant, Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematik modellashtirish fanini o'qitish va uni samarali tashkil etish metodikasi o'rganiladi. Maqolada matematik modellashtirishning mohiyati, asosiy bosqichlari, uni o'qitishda qo'llaniladigan interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari hamda fanlararo integratsiya masalalari tahlil qilinadi.

Аннотация. В статье рассматривается методика преподавания науки математического моделирования и ее эффективная организация. В статье анализируются сущность математического моделирования, его основные этапы, интерактивные методы, используемые при его преподавании, возможности использования информационно-коммуникационных технологий, вопросы междисциплинарной интеграции.

Abstract. The article examines the methodology of teaching the science of mathematical modeling and its effective organization. The article analyzes the essence of mathematical modeling, its main stages, interactive methods used in its teaching, the possibilities of using information and communication technologies, and issues of interdisciplinary integration.

Kalit so'zlar: matematik modellashtirish, modellashtirish bosqichlari, ta'lim jarayonida modellashtirish, fanlararo integratsiya, pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, muammoli o'qitish.

Ключевые слова: математическое моделирование, этапы моделирования, моделирование в образовательном процессе, междисциплинарная интеграция, педагогические технологии, интерактивные методы, проблемное обучение.

Keywords: mathematical modeling, stages of modeling, modeling in the educational process, interdisciplinary integration, pedagogical technologies, interactive methods, problem-based learning.

Iqtisodiy siyosat asosan iqtisodiy tamoyillarga tayanib shakllantiriladi hamda aniq iqtisodiy muammolarni hal qilishni maqsad qilib oladi. Ushbu muammolarni bartaraf etishda zarur bo'lgan axborotlarni tanlab olish, ularni yig'ish, iqtisodiy tahlil asosida qayta ishlash va o'rganilayotgan obyekt yoki jarayon yuzasidan umumlashtirish kabi masalalar yechimini topishi lozim bo'ladi. Bunday jarayonlar esa, tabiiyki, axborotlar ustida turli matematik hisob-kitoblarni amalga oshirishni talab etadi. Shu sababli, iqtisodiy muammolarni samarali hal etishda iqtisodiy-matematik usullar va hisoblash texnologiyalaridan foydalanish orqali turli modellar tuzish katta foyda keltiradi.

Matematikaga berilgan ta'riflar turlicha bo'lishi mumkin. Shulardan biri shuni anglatadiki:

matematika – bu mavhum, ya'ni abstrakt miqdoriy modellarni yaratish va ularni chuqur o'rganish bilan shug'ullanadigan fan hisoblanadi.

Ushbu ta'rifga asoslanib, matematikada mavjud bo'lgan turli sohalar (masalan, sonlar nazariyasi, matritsalar nazariyasi, Evklid geometriyasi, Lobachevskiy va Riman geometriyalari va boshqalar) har biri o'ziga xos matematik modelga ega ekanligini aytish mumkin. Shunday qilib, matematik modellarning turlari ham shu sohalar kabi xilma-xil va ko'pdir¹.

Amaliy matematik modellashtirishda ko'pincha differensial, algebraik, guruhlar, to'plamlar va topologik nazariyalar qo'llaniladi. So'nggi yillarda, ayniqsa, elementar zarrachalar nazariyasi, kvant mexanikasi va ekologiya sohalarida guruhlar va topologiya metodlariga

1 Kurbonov G.G. Raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida sonli usullar fanini takomillashtirish modeli. International konferens: Problems and scientific solutions. Avstraliya. Avgust 2022. Pp. 48-55.

asoslangan matematik modellar yaratilib, ular fizika va ekologiya sohalaridagi asosiy muammolarni yechishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Albatta, qaysi matematik usulni qo'llash o'rganilayotgan masaladan kelib chiqadi. Agar masala uzluksiz jarayonlarni o'z ichiga olsa, unda differensial va integral hisob nazariyasini qo'llash eng to'g'ri va maqbul yondashuvdir.

Bundan tashqari, masalani o'rganish darajasi ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, ba'zi hollarda to'plamlar yoki topologik usullarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar o'rganilayotgan masalaning simmetrik yoki invariant xususiyatlari dolzarb bo'lsa, unda guruhlar nazariyasini qo'llash yanada samarali va qulayroq bo'ladi.

Shunday qilib, matematik modellarning shakli o'rganilayotgan masalaning xususiyatlari, belgilangan maqsad va boshqa omillarga qarab farqlanadi.

So'nggi o'n yilliklarda matematik modellashtirish sohasida shunchalik katta ishlar amalga oshirildi-ki, endi matematik modellashtirish qo'llanilmagan biror ilmiy yoki texnik soha qolmadi. Bunday rivojlanish matematik modellarni tasniflash masalasini dolzarb qilib qo'ydi. Biroq, hozirgi kunda matematik modellarni tasniflash bo'yicha yagona va aniq bir yondashuv ishlab chiqilmagan².

Har bir tasniflashning asosiy maqsadi – o'xshash xususiyatlarga ega obyektlarni ma'lum bir belgilar asosida guruhlashdir.

"Matematik modellashtirish fanini o'qitishni tashkil etish metodikasi" mavzusi doirasida ta'lim metodini tanlash va qo'llash – bu fanni samarali o'qitishning asosiy jihatlaridan biridir. Quyida shu mavzuga mos ta'lim metodlari va ularning qisqacha tavsifi keltiriladi:

Asosiy ta'lim metodlari:

1. Muammoli ta'lim metodi

Tavsifi: O'quvchilarga yoki talabalarga yechilishi kerak bo'lgan muammo (matematik modellashtirishga oid) qo'yiladi va ular o'zlari izlanib, yechim topishadi.

Afzalligi: Tanqidiy fikrlash va izlanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Qo'llash misoli: Fizik jarayonni ifodalovchi differensial tenglama modelini tuzish.

2. Loyihaviy ta'lim metodi (Proyekt metodi)

Tavsifi: O'quvchilar mustaqil yoki guruhda modellashtirish bo'yicha loyihani bajaradilar (masalan, iqtisodiy yoki ekologik jarayon modeli).

Afzalligi: Amaliy tajriba, mustaqillik va jamoada ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Qo'llash misoli: "Shahar transport oqimining matematik modeli" loyihasini ishlab chiqish.

3. Interfaol (faol) o'qitish metodlari

Tavsifi: Dars jarayonida talabalar faol ishtirok etadigan metodlar: "Aqliy hujum", "Fishbone", "Blits-so'rov", "Rolli o'yinlar" va boshqalar.

Afzalligi: Dars jarayoniga qiziqish oshadi, faol ishtirok shakllanadi.

Qo'llash misoli: Matematik modellashtirish bosqichlarini muhokama qilish uchun "Aqliy hujum"dan foydalanish.

4. Tadqiqotga asoslangan o'qitish (Research-based learning)

Tavsifi: Talabalar real hayotiy vaziyatlardan kelib chiqib modellashtirish masalasini tahlil qiladi va tadqiqot olib boradi.

Afzalligi: Ilmiy izlanish ko'nikmalari shakllanadi.

Qo'llash misoli: Iqlim o'zgarishining

2 Ochilova Z.Sh (2024) Talabalarni mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 5-son, 215-221

matematik modelini tadqiq etish.

5. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosidagi metod

Tavsifi: Kompyuter dasturlari (Matlab, Maple, Python, Mathcad va h.k.) orqali modellashtirish amaliyotini o'rganish.

Afzalligi: Talabalar zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini egallaydi.

Qo'llash misoli: Kompyuterda grafik asosida modellashtirish.

Matematik modellarning shakli, masalaning qo'yilishi va o'rganilayotgan obyektning xususiyatlariga qarab turlicha bo'ladi. Ko'pincha, matematik modellar ularning qo'llanilishi va texnikasi asosida tasniflanadi. Masalan, Lyapunov va Bagrinovskiy tomonidan ishlab chiqilgan tasnifni ko'rib chiqish mumkin.

Aniq funksional bog'liqli matematik modellar	Ehtimolli bog'liqli matematika modellar
Diskter vaqtli matematika modellar	Uzluksiz vaqtli matematik modellar
Vaqt intervali chegaralangan matematik modellar	Intervali chegaralanmagan matematik modellar
Fazoviy o'zgaruvchisiz matematik modellar	Fazoviy o'zgaruvchili matematik modellar
Izsiz matematik modellar (Markov zanjiri nazariyasiga asoslangan matematik modellar)	Izslil matematik modellar
Boshqaruvchisiz matematik modellar	Boshqaruvchili matematik modellar

Bunday asosda tasniflash amalda kam qo'llaniladi.

Y.M. Svirejev matematik modellarni ikki toifaga ajratadi³: analitik va imitatsion modellar.

Analitik modellar toifasiga masalalarni nazariy tadqiq qilishga yo'naltirilgan modellar kiradi. Nazariy tadqiqotlar odatda o'rganilayotgan obyektning turg'unligi, turg'unlik holatlari, chegaraviy davrlar, bifurkatsion holatlar, dissipativ strukturalar va tebranish davrlarini aniqlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Bunday vaziyatlarda, o'rganilayotgan hodisaning konseptual sxemasini soddalashtirish zarur bo'ladi. Buning uchun haqiqatga yaqin bo'lgan fikrlar, asimtotik usullar va soddalashtirilgan gipotezalar ishlatiladi. Shuningdek, bunday masalalarni hal qilishda ko'pincha differensial tenglamalar nazariyasining sifat va turg'unlik usullaridan yoki klassik matematikaning boshqa qulay usullaridan foydalaniladi.

Imitatsion modellashtirish masalani amaliy jihatdan hal qilishga qaratilgan tizimni o'z ichiga oladi. Bu modellashtirish konkret real sharoitlarni, noma'lum o'zgaruvchilarni yoki yetarlicha ma'lum bo'lmagan elementlar orasidagi bog'liqlikni hisobga olishni nazarda tutadi. Bunday vaziyatlarda, asosan kompyuter yordamida eksperimentlar o'tkazish usullari qo'llaniladi. Analitik usuldan farqli o'laroq, imitatsion modellashtirish usuli o'rganilayotgan obyektning elementlari orasidagi turli xil bog'liqliklarni hisobga olish imkonini beradi⁴.

Hozirgi kunda imitatsion modellashtirish usuli keng tarqalgan va turli sohalarda qo'llaniladi. Bu usuldan foydalanilmagan soha deyarli yo'q, hatto ba'zi analitik masalalarni yechishda ham imitatsion modellashtirishdan foydalaniladi.

Matematik modellashtirish atrof-muhitni o'rganishning eng muhim va doimiy vositasidir. Avval matematik modellarni yaratishning asosiy

3 Свирев Ю.М., Елизаров Е.Я. Математическое моделирование биологических систем / Под ред. акад. В.Н.Черниговского. – Москва : Наука, 1972. – 158 с. – (Проблемы космической биологии/ АН СССР. Отд-ние физиологии; Т. 20).

4 Ochilova Z.Sh (2024) Didactic possibilities of teaching specialists on the base of digital educational technologies. // International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) 8, 5-son 92-98 betlar

bosqichlari bilan tanishib chiqamiz⁵. Ushbu bosqichlar ichida ikkita asosiy omil ajralib turadi, ya'ni:

- ishchi gipotezalarni aniqlash
- ular asosida matematik modelning konseptual sxemasini qurish.

Ushbu ikki asosiy omil matematik modelning o'rganilayotgan obyektini qanchalik aniq va haqqoniy aks ettirishini belgilaydi.

Matematik modelni qurishdan oldin, biz modelning qanday talablar bo'yicha ishlashini aniqlashimiz lozim. Bu talablar quyidagicha:

- Konkret obyektning modeli boshqa o'xshash obyektlarga qo'llanilishi uchun yetarlicha universal bo'lishi kerak;
- Model shunday tarzda yaratilishi lozimki, uni deyarli o'zgartirishsiz yuqori darajali modelga andoza sifatida kiritish mumkin bo'lsin;
- Modelda masalani yechishda zarur bo'lgan barcha faktorlar hisobga olinishi kerak;
- Model hisobga olinadigan faktorlarga nisbatan juda sezgir bo'lmashligi zarur;
- Model blokli prinsipda qurilishi, ya'ni o'zgaruvchilar imkon qadar alohida bloklarda hisoblanishi kerak.

Matematik modelni qurish bosqichlari:

- Muammoni tahlil qilish va aniqlash
- Rejalashtirilayotgan hodisa yoki jarayonni chuqur o'rganish.
- Asosiy omillar, chegaraviy shartlar va bog'liqliklar aniqlanadi.
- Muammoning soddalashtirilgan matematik tavsifini berish

- Hodisaning asosiy xususiyatlari ajratib olinadi.
- E'tiborga olinadigan va e'tibordan chetda qoldiriladigan omillar aniqlanadi.
- Gipotetik farazlar ilgari suriladi.
- Matematik modelni tuzish
- Jarayon yoki hodisani matematik ifoda bilan (tenglamalar, tengsizliklar, funksiyalar va h.k.) ifodalash.
- Modelda parametrlar va o'zgaruvchilar aniq belgilanadi.
- Modelni tahlil qilish
- Matematik yechim usullarini tanlash (analitik, sonli, grafik).
- Model orqali olingan natijalar tekshiriladi.
- Modelni kompyuterda simulyatsiya qilish (agar zarur bo'lsa)
- Dasturiy ta'minot orqali hisob-kitoblar amalga oshiriladi.
- Modeldagi o'zgarishlarga ko'ra javob reaksiyasi kuzatiladi.
- Model natijalarini talqin qilish va amaliyotga tatbiq etish
- Model asosida olingan yechimlar real muammo bilan solishtiriladi.
- Qaror qabul qilishda modeldan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.
- Modelni tekshirish va takomillashtirish
- Model real ma'lumotlar asosida verifikatsiya qilinadi.
- Zarurat tug'ilganda, modelga tuzatishlar kiritiladi.

Matematik modellashtrish – zamonaviy

5 Лутфиллаев М.Х., Ш.М.Хасанов. Разработка и внедрение виртуальных ресурсов в методической системе на основе компьютерных имитационных моделей для инклюзивного образования // LAP Lambert Academic Publiting, Germani.- 2020. -167 p.

ta'limda nazariy ilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtiruvchi muhim fanlardan biri hisoblanadi. Uni o'qitishda samarali metodik yondashuvlar, interaktiv usullar va axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarda analitik fikrlash, muammoni mustaqil hal etish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Maqolada ko'rib chiqilgan metodik yondashuvlar matematik modellashtirish fanini samarali tashkil etishga, uni boshqa fanlar bilan integratsiyalashga hamda o'quvchilarni real hayotiy muammolarni tahlil qilishga tayyorlashga xizmat qiladi. Kelgusida bu yo'nalishda ilg'or tajribalarni joriy qilish va amaliy mashg'ulotlarni kuchaytirish orqali ta'lim sifatini yanada oshirish mumkin.

Matematik modellashtirish fanini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish nafaqat o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi, balki ularning real hayotdagi murakkab muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularga ilmiy asoslangan echim topish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Bu fan

orqali o'quvchilar turli xil amaliy vaziyatlarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuvni qo'llash va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga o'rganadilar. Shuningdek, matematik modellashtirishning turli sohaga oid modellarni tuzish, sinovdan o'tkazish va ularni tahlil qilish imkoniyati, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Natijada, bu fanni o'qitish metodikasining to'g'ri tashkil etilishi o'quvchilarning umumiy ta'lim darajasini oshirish, ularni zamonaviy ilmiy fikrlashga yo'naltirish va kelajakdagi kasbiy faoliyatida raqobatbardosh mutaxassis bo'lib shakllanishlariga mustahkam zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda Matematik modellashtirish fanini o'qitishda kombinatsiyalashgan yondashuv, ya'ni turli metodlarning birgalikda qo'llanilishi eng samarali natijani beradi. Shu orqali talabalar nafaqat nazariy bilim, balki amaliy va tadqiqot ko'nikmalarini ham egallaydi.

YOSH TADQIQOTCHILAR

O'QUVCHILARNING SHAXSIY YUTUQLARINI BAHOLASHDA INDIVIDUAL YONDASHUVGA OID METODIK TAKLIFLAR

Farxodjon Raxmatjon o'g'li Boymirzayev – o'qituvchi, Oziq-
ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarning shaxsiy yutuqlarini baholashda individual yondashuvning dolzarbligi yoritilgan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga asoslangan holda, har bir o'quvchining rivojlanish trayektoriyasini aniqlash, baholash va rag'batlantirishga doir metodik takliflar ishlab chiqilgan. Baholash mezonlari tizimlashtirilib, indikatorlar asosida ko'p mezonli baholash modeli taklif etilgan. Tadqiqot formativ baholash, o'z-o'zini va o'zaro baholash vositalari, shaxsiy rivojlanish xaritalari, portfel baholash kabi ilg'or usullarga asoslangan.

Аннотация. В статье раскрывается актуальность индивидуального подхода в оценке личных достижений учащихся. На основе принципов личностно-ориентированного обучения предложены методические рекомендации по выявлению и поощрению индивидуальных траекторий развития каждого ученика. Разработана система критериев оценки и многокомпонентная модель на основе индикаторов. В исследовании используются современные методы, такие как формативная оценка, самооценка, взаимооценка, карты развития и портфолио.

Abstract. This article highlights the relevance of an individualized approach in assessing students' personal achievements. Based on learner-centered education principles, the study proposes methodological recommendations for identifying, assessing, and encouraging each student's personal development trajectory. A system of assessment criteria and a multi-dimensional model based on indicators is developed. The research incorporates modern tools such as formative assessment, self- and peer-assessment, development maps, and portfolio evaluation.

Kalit so'zlar: individual yondashuv, shaxsiy yutuqlar, baholash mezonlari, formativ baholash, rivojlanish trayektoriyasi.

Ключевые слова: индивидуальный подход, личные достижения, критерии оценки, формирующее оценивание, траектория развития.

Keywords: individual approach, personal achievements, assessment criteria, formative assessment, development trajectory.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash faqatgina bilimni tekshirish yoki natijani belgilash vositasi emas, balki shaxsiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi, ichki motivatsiyani kuchaytiruvchi, tanqidiy va reflektiv fikrlashni shakllantiruvchi muhim didaktik mexanizmga aylangan. Ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tamoyillarini hayotga tatbiq etishda o'quvchilarning individual yutuqlarini aniqlash, baholash va e'tirof etish dolzarb metodik muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Bu esa, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchining o'z-o'zini anglash darajasini mustahkamlash, o'z salohiyatini namoyon etishga bo'lgan intilishini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda mavjud baholash tizimlari ko'pincha o'quvchilarning umumiy ko'rsatkichlari va standartlashtirilgan

natijalariga asoslanadi. Natijada, individual yutuqlar, ya'ni o'quvchining ichki rivojlanish dinamikasi, shaxsiy intilishlari, ijtimoiy va kommunikativ faolligi, ijodiy yondashuvi kabi jihatlar yetarli darajada inobatga olinmayapti. Bu holat o'z navbatida o'quvchilarda o'zini inkor qilish, baholashga nisbatan ishonchsizlik, motivatsiyaning susayishi kabi salbiy psixopedagogik oqibatlarni yuzaga keltirmoqda.

Mazkur maqolada o'quvchilarning shaxsiy yutuqlarini baholashga individual yondashuvni joriy qilish orqali ta'lim jarayonida adolat, aniqlik, shaffoflik va rag'batlantiruvchanlik kabi mezonlarni kuchaytirish masalasi yoritiladi. Shuningdek, har bir o'quvchining o'ziga xos rivojlanish trayektoriyasini baholash imkonini beruvchi metodik takliflar tizimi ishlab chiqiladi.

Bu yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat bahoga, balki o'z-o'zini anglash, rivojlanish va muvaffaqiyat sari intilishga yo'naltiriladi. Shu bilan birga mavjud baholash shakllarining tahlili asosida individual yutuqlarni baholash imkoniyatlarini aniqlash; o'quvchining shaxsiy rivojlanishini inobatga oluvchi baholash mezonlari va shkalalarini ishlab chiqish; formativ baholash vositalari, reflektiv yondashuv va o'zaro baholash asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish; taklif etilgan metodik yondashuvlarni amaliyotda sinab ko'rish va samaradorligini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash, rivojlanish trayektoriyasini baholash va ularning shaxsiy yutuqlarini e'tirof etish masalalari so'nggi yillarda ta'lim tizimida ko'plab ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning markazida turibdi. Baholashning klassik modellari (summativ, normativ va diagnostik baholashlar) o'quvchilar faoliyatini tahlil qilishda ma'lum darajada yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, ularning shaxsiy rivojlanishini to'laqonli baholash, o'zgarish dinamikasini aniqlash va individual yondashuvga asoslangan mezonlar ishlab chiqish masalalari hali ham dolzarb holda qolmoqda.

Xalqaro adabiyotlarda¹ (Andradeva boshqalar) baholashda rubrikalardan foydalanish, o'zaro baholash va o'z-o'zini baholash mexanizmlarining o'quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Xususan, Panadero² tomonidan ilgari surilgan self-regulated learning (o'z-o'zini boshqariladigan o'quv jarayoni) modelida o'quvchilarning shaxsiy yutuqlarini baholashda reflektiv yondashuv asosiy omil sifatida ko'rsatiladi. Mahalliy adabiyotlarda ham o'quvchilar yutuqlarini baholash masalasiga qiziqish ortib bormoqda. Jumladan, N.X. Xolbekov³

pedagogik mahorat va baholash metodikasi haqida fikr yuritar ekan, baholashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, S.S. G'ulomov⁴ o'z asarlarida baholashda shaffoflik va adolat tamoyillariga alohida urg'u beradi. Shunga qaramay, mavjud adabiyotlarni tahlil qilish asosida quyidagi muammolar aniqlanadi:

– shaxsiy yutuqlarni baholash mezonlari tizimlashtirilmagan. Ko'pgina tadqiqotlar umumiy baholash mezonlariga e'tibor qaratgan bo'lib, o'quvchining individual rivojlanish darajasi, shaxsiy intilishlari va ijodiy yondashuvlarini aks ettiruvchi indikatorlar yetarlicha ishlab chiqilmagan.

– baholashda individual trayektoriya va rivojlanish dinamikasini hisobga olish mexanizmlari yetishmaydi. Ko'plab baholash tizimlari yakuniy natijani aks ettiradi, lekin o'quvchining boshlang'ich darajasidan boshlab bosqichma-bosqich o'zgarish holatlari va yutuqlarini kuzatish imkoniyati cheklangan.

– metodik tavsiyalar amaliyotga yo'naltirilmagan. Aksariyat tadqiqotlar nazariy yondashuv bilan cheklanadi, real dars holatlarida o'qituvchilar tomonidan individual yutuqlarni baholash uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodik vositalar yetarlicha ishlab chiqilmagan.

– o'qituvchilar uchun amaliy qo'llanmalarining yetishmasligi. Mavjud adabiyotlarda baholashda shaxsiy yutuqlarga alohida yondashish usullari bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash yoki qayta tayyorlash dasturlari kam yoritilgan.

– o'zaro baholash va refleksiya jarayonlarini shaxsiylashtirish holatlari o'rganilmagan. O'quvchilarni faol subyekt sifatida jalb etish, ularning baholash jarayonidagi ishtirokini

1 Andrade, H. G. (2005). Teaching with rubrics: The good, the bad, and the ugly. *College Teaching*, 53(1), 27–31.

2 Panadero, E., & Jonsson, A. (2013). The use of scoring rubrics for formative assessment purposes revisited: A review. *Educational Research Review*, 9, 129–144.

3 Xolbekov, N. X. (2006). *Pedagogik mahorat asoslari*. Toshkent: O'qituvchi.

4 G'ulomov, S. S. (2015). *Ta'limda baholashning nazariy asoslari*. Toshkent: TDPU nashriyoti.

oshirishga doir aniq mexanizmlar mavjud emas.

Tadqiqot natijasida o'quvchilarning individual yutuqlarini baholash imkoniyatlari turli baholash shakllari tahlili asosida tizimlashtirildi (1-jadvalga qarang). Formativ, diagnostik va rubrikaga asoslangan baholash shakllari individual yutuqlarni aniqlashda eng samarali hisoblanadi, chunki ular o'sishni, dinamikani, shaxsiy intilishlarni aks ettira oladi. O'z-o'zini va o'zaro baholash esa o'quvchining metakognitiv rivojlanishini, ijtimoiy hamkorlikdagi muvaffaqiyatini ochib beradi. Portfolio esa o'zgarishlarni vaqt davomida tahlil qilish orqali uzluksiz rivojlanish trayektoriyasini kuzatish imkonini beradi. Summativ baholash an'anaviy va zaruriy bo'lsa-da, individual yutuqni baholash uchun yetarli darajada chuqur imkon bermaydi. Har bir baholash shakli o'ziga xos jihatlari bilan o'quvchining rivojlanish trayektoriyasini aniqlash, shaxsiy yutuqlarini ko'rsatish va pedagogik jarayonga individual yondashuv kiritish imkonini beradi.

1-jadval.

Baholash shakllarining tahlili va o'quvchilarning individual yutuqlarni aniqlashdagi imkoniyatlari

Baholash shakli	Tavsifi	Individual yutuqni aniqlashdagi imkoniyatlari
Formativ baholash	O'quv jarayonida muntazam ravishda, jarayonga yo'naltirilgan holatda amalga oshiriladi.	–o'quvchining o'sish dinamikasi aniqlanadi; –kichik yutuqlar (muvaffaqiyatli harakatlar) qayd etiladi; –o'quvchiga individual yo'nalishda teskari aloqa taqdim etiladi.

Summativ baholash	O'quv davrining ma'lum bir bosqichi (chorak, semestr, yil) yakunida amalga oshiriladi.	–umumiy natijalar aniqlanadi, lekin o'sish dinamikasi aks etmasligi mumkin; –faqat yakuniy yutuqlarni baholaydi; –individual holatlarni chuqur tahlil qilish cheklangan.
Diagnostik baholash	O'quv faoliyati boshlanishida bilim darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.	–o'quvchining boshlang'ich pozitsiyasi aniqlanadi; –keyingi rivojlanish uchun shaxsiy strategiya tuzish imkonini beradi.
O'z-o'zini baholash	O'quvchining o'z faoliyatini mustaqil tahlil qilishi.	–refleksiya qilish, o'zini anglash va rivojlantirishga bo'lgan intilishni oshiradi; –o'z yutuqlariga nisbatan mas'uliyatni kuchaytiradi.
O'zaro baholash	Guruh a'zolari bir-birining ishini mezon asosida baholaydi.	–tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi; –fikir bildirish va konstruktiv yondashuvni shakllantiradi; –yutuqlarning ijtimoiy bahosini aks ettiradi.
Portfolio baholash	O'quvchining ma'lum muddat davomida erishgan yutuqlari, ish namunalarini jamlovchi shakl.	–shaxsiy yutuqlarning rivojlanish tarixini kuzatish imkonini beradi; –mustaqil ishlash, refleksiya va o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi.
Rubrikaga asoslangan baholash	Mezonga tayangan tizimli baholash shakli.	–adolatli va shaffof baholashni ta'minlaydi; –har bir darajadagi yutuqni aniq aks ettiradi; –o'quvchiga o'zini qanday rivojlantirishi haqida aniq yo'nalish beradi.

Baholash shakllarining tahlili va o'quvchilarning individual yutuqlarni aniqlashdagi imkoniyatlari chuqur tahlil etildi. O'quvchilarni baholashda individual trayektoriya va rivojlanish dinamikasini hisobga olish mexanizmlari takomillashtirildi. Unda o'quvchining boshlang'ich darajasidan boshlab bosqichma-bosqich o'zgarish holatlari va yutuqlarini kuzatish mumkin bo'ladi.

Quyidagi metodik takliflar tizimi har bir o'quvchining o'ziga xos rivojlanish trayektoriyasini baholash imkonini berishi mumkin.

1. Individual va formatik yondashuv asosida baholash

Maqsad: o'quvchining o'ziga xos o'sish dinamikasini aniqlash, faqat natijani emas, jarayonni ham e'tiborga olish.

Asos: Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, konstruktivistik didaktika va formatik baholash.

2. Rivojlanish trayektoriyasini aniqlash vositalari

A) Boshlang'ich diagnostika (diagnostik kartochka)

O'quv yilining boshida o'quvchining bilim, ko'nikma, munosabat va o'z-o'zini anglash holati aniqlanadi.

Asosiy komponentlar:

Bilim darajasi (test/suhbat);

O'quv motivatsiyasi (so'rovnoma);

Mustaqil ishlash ko'nikmasi (amaliy topshiriq).

B) Individual rivojlanish xaritasi (IRX)

Har bir o'quvchiga alohida "rivojlanish xaritasi" tuziladi:

Rivojlanish maqsadlari;

Yutuqlar kalendari (oylik belgilash);

Kutilayotgan natijalar (mezonlar asosida).

C) Portfolioli baholash.

Har o'quvchining ishlari (loyihalar, esse, misollar, baholar, fikr-mulohaza, refleksiya) elektron yoki bosma formatda jamlanadi.

Har chorakda individual tahlil qilinadi.

D) Formatik baholovchi rubrikalar.

Har bir topshiriqqa moslab, uch darajali yoki to'rt darajali baholovchi rubrikalar tuziladi.

Rubrikalar o'quvchi bilan birga ishlab chiqiladi yoki tushuntiriladi.

3. Individual yutuqlarni aks ettirish shakllari

A) Shaxsiy yutuqlar jurnali.

O'quvchi o'z yutuqlarini, yengib o'tgan qiyinchiliklarini, o'zgarishlarini qisqacha qayd etib boradi (haftalik yoki oylik).

Jurnal muhokamasi o'qituvchi bilan 1:1 uchrashuvda amalga oshiriladi.

B) Reflektiv yozuvlar va o'z baholashlari

Har bir katta topshiriqdan so'ng o'quvchi quyidagilarga yozma javob beradi:

Men bu ishda nimalarga erishdim?

Qanday muammoga duch keldim?

Keyingi safar nimani o'zgartiraman?

C) Shaxsiy rivojlanish diagrammasi

O'quvchining bilim, ko'nikma, faoliyat va motivatsiya darajasi grafik shaklda har chorakda belgilanadi.

Bu orqali rivojlanish dinamikasi vizual ko'rinadi.

4. O'qituvchi va ota-ona ishtirokini kuchaytirish

Har chorakda o'quvchi-o'qituvchi-ota-ona uchlik suhbat tashkil etiladi:

Rivojlanish trayektoriyasi muhokamasi;

Portfoliodagi o'zgarishlar tahlili;

Yangi chorak uchun shaxsiy maqsadlar belgilanadi.

5. Baholash shakllari.

Baholash shakli	Maqsadi	Kim baholaydi	Qachon
Diagnostic test	Boshlang'ich darajani aniqlash	O'qituvchi	O'quv yilining boshida
Rubrika asosidagi baholash	Topshiriqdagi yutuq darajasini aniqlash	O'qituvchi + o'quvchi	Har darsdan so'ng
Portfolioli baholash	Umumiy rivojlanish tahlili	O'qituvchi + o'quvchi	Har chorakda
O'zaro baholash va feedback	Muloqot va refleksiya ko'nikmasini rivojlantirish	O'quvchi	Guruhli ishlarda
Refleksiya yozuvi	Ichki o'sishni anglash	O'quvchi	Har hafta yoki topshiriqdan keyin
Shaxsiy yutuqlar jurnali	Davomiy rivojlanishni qayd etish	O'quvchi + o'qituvchi	Oylik

6. Tavsiya etiladigan metodik vositalar

"Rivojlanish xaritasi" shabloni (Excel yoki Google Sheets)

"Refleksiya yozuvi" shakli (strukturaviy savollar bilan)

"Rubrika blankalari" (fan va topshiriqqa moslashtirilgan)

"Baholash portfeli" (elektron platforma: Google Drive, Padlet, Seesaw)

Bizning fikrimiz shundan iboratki, zamonaviy ta'limning shaxsga yo'naltirilgan paradigmasi baholash tizimiga ham yangicha yondashuvni

talab etmoqda. An'anaviy baholash shakllari ko'pincha o'quvchilarning faqat akademik natijalarini o'lchashga qaratilgan bo'lsa, hozirgi davrda shaxsiy yutuqlarni baholash, ya'ni har bir o'quvchining individual rivojlanish trayektoriyasini, o'zlashtirish sur'atlarini, ijodiy intilishlarini va o'zini anglash darajasini ham aks ettira oladigan ko'p mezonli tizim zarurdir. Biz quyidagi ko'p mezonli tizimni taklif etamiz.

1. Baholash bloklari va ularning qisqacha tavsifi

No	Baholash bloki	Mazmuni
1	Individual rivojlanish	O'z-o'zini rivojlantirish, avtonomlik, ilgari bosib o'tgan yo'lga nisbatan o'sish dinamikasi
2	Shaxsiy intilish	Maqsad qo'yish, o'z ustida ishlashga tayyorlik, o'zini baholash, rejalilik
3	Ijodiy yondashuv	Yangi g'oyalar taklif qilish, noan'anaviy yechimlar, tashabbus ko'rsatish
4	Refleksiya va tanqidiy fikr	O'z fikrini tahlil qilish, mustaqil baho berish, xatolardan saboq chiqarish
5	Ijtimoiy hamkorlik	O'zaro baholash, guruh bilan ishlash, fikr almashish, empatiya ko'rsatish

2. Har bir mezon uchun rivojlanish darajalari (indikatorlar bilan)

1-blok: Individual rivojlanish darajasi

Daraja	Indikatorlar
Yuqori	Mustaqil ishlash ko'nikmasi yuqori, o'z o'sishini aniq kuzatadi, yangi yondashuvlarni izlaydi
O'rta	Faoliyatda o'sish bor, lekin tashabbus yetarli emas, ba'zida tashqi rag'batga muhtoj
Boshlang'ich	Yo'nalishsiz harakat qiladi, o'zgarishlarni angamaydi, tashabbus kam

2-blok: Shaxsiy intilish

Daraja	Indikatorlar
Yuqori	O'z oldiga aniq maqsadlar qo'yadi, harakatini baholaydi, natijalarni solishtiradi
O'rta	Umumiy intilish mavjud, ammo aniqlik yo'q, harakatda davomiylik sust
Boshlang'ich	Intilish sezilmaydi, tashqi nazoratga bog'liq, o'z maqsadini bilmaydi

3-blok: Ijodiy yondashuv

Daraja	Indikatorlar
Yuqori	Original g'oyalar bildiradi, yangi metodlarni qo'llaydi, o'zgacha yondashuv ko'rsatadi
O'rta	Yangi fikrlar bildiradi, ammo takroriy va ehtiyotkorona yondashadi
Boshlang'ich	Faqat andozaviy yondashadi, ijodiy fikrlash ko'rinmaydi

4-blok: Refleksiya va tanqidiy fikr

Daraja	Indikatorlar
Yuqori	O'z fikrini asoslaydi, xatolarini tahlil qiladi, aniq takliflar beradi
O'rta	Refleksiya mavjud, ammo yuzaki, o'zgarish takliflari kam
Boshlang'ich	O'z faoliyatiga baho bermaydi, tanqidiy fikr yo'q

5-blok: Ijtimoiy hamkorlik

Daraja	Indikatorlar
Yuqori	Fikr almashadi, boshqa fikrlarni hurmat qiladi, faol baholashda ishtirok etadi
O'rta	Fikr bildiradi, ammo faollik yetarli emas, hamkorlikda sustlik bor
Boshlang'ich	Guruh ishlarida passiv, ijtimoiy baholashga qo'shilmaydi

Namuna: Baholash jadvali shakli (shaxsiy yutuqlar uchun)

Baholash mezonlari	Yuqori (3)	O'rta (2)	Boshlang'ich (1)	Ball
1. Individual rivojlanish	+			3
2. Shaxsiy intilish	+			3
3. Ijodiy yondashuv		+		2
4. Refleksiya	+			3
5. Hamkorlik			+	1
Umumiy ball				12/15

Tavsiyalar:

-Ushbu indikatorlar asosida har chorak yakunida tahlil o'tkazilsin.

-Baholashga o'quvchining o'zi ham jalb qilinsin (o'z-o'zini baholash shakllari orqali).

-Grafik yoki radar diagramma ko'rinishida natijalarni vizual ko'rsatish tavsiya etiladi.

-O'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar ishtirokida individual rivojlanish bo'yicha suhbat tashkil etilsin.

Izoh. 1. Baholashning mazmuniy kengayishi. Shaxsiy yutuqlarni baholashda faqat bilim va ko'nikma emas, balki o'quvchining individualligi, o'z-o'zini baholay olish salohiyati, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalari, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari, ijodiy tafakkuri va rivojlanish sur'atlari ham hisobga olinishi kerak. Bu esa baholash mezonlarini ko'p qatlamli, darajali va deskriptiv shaklda tashkil etishni taqozo qiladi.

2. Mezonlarning tizimlilik va o'lchamlari. Shaxsiy yutuqlarni baholash mezonlari quyidagi asosiy o'lchamlar doirasida ishlab chiqilishi kerak:

-Kognitiv o'lcham – bilimlar, tafakkur darajasi, fanning mohiyatini tushunish;

-Affektiv o'lcham – o'quvchining munosabati,

qiziqishi, motivatsiyasi;

-Metakognitiv o'lcham – refleksiya yuritish, o'z faoliyatini tahlil qilish va rivojlanish yo'lini rejalashtirish;

-Ijodiy o'lcham – original yondashuvlar, muammoni yangicha hal qilish, g'oyalar taklifi.

Har bir o'lcham uchun yuqori, o'rta va past darajali indikatorlar aniqlanishi, ularning tavsiflari (deskriptorlar) aniq va tushunarli tarzda ishlab chiqilishi kerak.

3. Shaffoflik va subyektivlikni kamaytirish. Yaxshi ishlab chiqilgan mezonlar tizimi obyektiv baholashni ta'minlaydi, shaffoflikni oshiradi, o'quvchining shaxsiy o'sishida o'ziga xos motivatsiya manbai bo'la oladi, baholovchining subyektiv qarashlarini kamaytiradi. Bu jihatlari, ayniqsa, ta'limda adolatli baholash madaniyatini shakllantirish uchun muhimdir.

4. Formativ baholashda mezonlarning roli. Formativ baholash jarayonida mezonlar o'quvchiga qayerda ekanligini, qayerga borishi kerakligini, unga qanday yetishini tushunishga yordam beradi (Sadler, 1989). Bu esa shaxsiy yutuqlarni anglash va rivojlantirishga imkon yaratadi.

5. O'qituvchilar uchun muhim metodik vosita. Mezonli baholash tizimi, ayniqsa rubrikalar ko'rinishida tuzilganda o'qituvchi uchun an'anaviy baholashdan tashqariga chiqib, o'quvchini shaxs sifatida anglash va rivojlantirishga xizmat qiladi; pedagogik refleksiya va o'quvchi portfellarini shakllantirishda asosiy metodik vosita hisoblanadi. Shaxsiy yutuqlarni baholash mezonlarini tizimlashtirish – bu nafaqat baholash sifatini oshirish, balki o'quvchi shaxsining individualligi, mustaqilligi va rivojlanish trayektoriyasini e'tirof etish demakdir.

Xulosa qiladigan bo'lsak, zamonaviy ta'limda baholash faqat natijani emas, balki o'quvchining individual rivojlanish trayektoriyasini, shaxsiy intilishini va ijodiy salohiyatini aniqlovchi vosita

sifatida qaralishi lozim. Shu ma'noda baholashda o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, intilishi, reflektiv fikrlashi va ijtimoiy hamkorligini aks ettiruvchi indikatorlar tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Formativ baholash vositalari (rubrikalar, portfel, o'z-o'zini baholash, refleksiya) faol joriy etish; individual rivojlanish xaritasi asosida o'quvchining o'sish trayektoriyasi muntazam kuzatib borish; o'qituvchi-o'quvchi-ota-ona hamkorligida shaxsiy yutuqlar muntazam muhokama qilish; o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar, diagnostik vositalar va rubrikalarning namunaviy shakllari ishlab chiqish ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir etishi tajriba sinovlardan o'z tasdig'ini topmoqda.

XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINI JORIY ETISHNING TA'LIM SAMARADORLIGI VA MAZMUNIGA TA'SIRI

Sanovar Jalgasovna Orazbayeva – o'qituvchi,
Nukus davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Mazkur maqola o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini baholashda xalqaro baholash tadqiqotlarining o'rni va ahamiyati, ushbu tadqiqotlarda respublikamiz o'quvchilarining ishtiroki va erishilgan natijalar yoritilgan bo'lib, mamlakatimizda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish hamda o'quvchilarimizni mazkur tadqiqotlarga samarali tayyorlash bo'yicha fikr-mulohazalar, taklif-tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini rivojlantirish maqsadida foydalanish tavsiya etiladigan PISA topshiriqlaridan namunalar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются роль и значение международных оценочных исследований в оценке научной грамотности учащихся, участие учащихся нашей республики в этих исследованиях и достигнутые результаты, а также даются отзывы, предложения и рекомендации по изучению международного опыта оценки качества образования в нашей стране, проведению комплексного сравнительного анализа существующей системы и эффективной подготовке наших учащихся к этим исследованиям. Также приводятся примеры заданий PISA, которые рекомендуется использовать в целях развития научной грамотности учащихся.

Abstract. This article discusses the role and importance of international assessment studies in assessing students' scientific literacy, the participation of students in our republic in these studies and the results achieved, and provides feedback, suggestions and recommendations on studying international experiences in assessing the quality of education in our country, conducting a comprehensive comparative analysis of the existing system, and effectively preparing our students for these studies. It also provides examples of PISA tasks that are recommended for use in order to develop students' scientific literacy.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, ta'lim samaradorligi, xalqaro baholash tadqiqotlari, ta'lim sifati, xalqaro tajribalar, nazorat materiallari, sifat darajasi, uzluksiz ta'lim, baholash, xalqaro dasturlar.

Ключевые слова: система образования, эффективность образования, международные оценочные исследования, качество образования, международный опыт, контрольные материалы, уровень качества, непрерывное образование, оценка, международные программы.

Keywords: education system, educational effectiveness, international evaluation studies, educational quality, international experiences, control materials, quality level, continuing education, evaluation, international programs.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni yangi sifat bosqichiga olib chiqish va ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va zamonaviy axborot vositalarini joriy etish orqali inson kapitalini shakllantirishga qaratilgan strategik islohotlar amalga oshirilmoqda.

to'g'risida"gi Qonun'ning qabul qilinishi ushbu yo'nalishdagi chuqur va tizimli yondashuvni yanada mustahkamladi. Mazkur hujjat asosida uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan, innovatsion g'oyalarni ilgari suruvchi va xalqaro maydonda raqobatlashishga qodir yosh avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu holat o'z navbatida ta'lim tizimining nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham yangilanishiga asos bo'lmoqda.

Xususan, yangi tahrirdagi "Ta'lim

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

1 O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2020 y., 23-sentabr.

2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Qarori²ijrosiga muvofiq zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS dasturlarda o'quvchilarning ishtirokini ta'minlash va samarali natijalarga erishish belgilanib, mazkur konsepsiya asosida ushbu dasturlarda ishtirok etish masalasi yanada mustahkamlab qo'yildi. Konsepsiyaning maqsadli ko'rsatkichlariga ko'ra PISA baholash dasturi reytingida O'zbekistonning 2030-yilga kelib, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kirish maqsad ilgari surilgan³.

O'zbekiston Respublikasida barcha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini zamon talablari asosida tashkil etish, ularga ilg'or innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali ta'limning sifat va samaradorligini oshirish muhim strategik vazifa sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo'nalishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli platformalar, masofaviy ta'lim imkoniyatlarining keng joriy etilishi ta'lim tizimining yangilanishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Xususan, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, amaliy faoliyatga yo'naltirilgan bilimlar asosida kompetentligini shakllantirish bugungi ta'lim strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridandir. Shu bilan birga, kreativ fikrlash, ijodiy yondashuv va innovatsion mahsulot yaratishga bo'lgan intilishni rag'batlantirishga xizmat qiladigan pedagogik strategiyalar va metodik vositalarni ishlab chiqish ham alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Bu esa ta'lim jarayonining faollashtirilishiga, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida kompetensiyaga asoslangan

ta'lim modelining shakllanishiga olib keladi. 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonda⁴ hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ta'lim tizimini takomillashtirish va shu orqali o'quvchi-yoshlarning kreativ sifatlarini shakllantirish, ularni dunyoning rivojlangan davlatlar yoshlari bilan raqobatlasha oladigan darajaga yetkazishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida sifatni baholash tizimini takomillashtirish yo'lida xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish muhim metodologik ahamiyatga ega. Buning uchun mavjud milliy tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, xalqaro va xorijiy tashkilotlar, baholovchi agentliklar hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish zarurdir. Xususan, ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro loyihalarda ishtirok etish orqali ilg'or tajribalarni o'rganish va milliy amaliyotga moslashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa, o'z navbatida, zamon talablariga mos, izchil ishlaydigan va ishonchli milliy baholash tizimini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Qarori.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. Toshkent shahri, 2019-yil 29-aprel.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli Farmoni⁵ 5-bandida o'quvchilarning bilim darajasini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar va tadqiqotlarda PISA, TIMSS, PIRLS va boshqalar) umumta'lim muassasalari o'quvchilarining ishtiroki tashkil etilishi belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra:

- Progress in International Reading and Literacy Study PIRLS) – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash uchun;

- Trends in International Mathematics and Science Study TIMSS) – 4 va 8- sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun;

- The Programme for International Student Assessment PISA) – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

- The Teaching and Learning International Survey TALIS) – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish uchun⁶.

Bugungi kunda xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etayotgan mamlakatimiz o'quvchilarining erishgan natijalarida bir qator muammolar mavjudligini kuzatish mumkin. Xususan, tegishli fan dasturlarining PISA dasturlariga mos kelmasligi, xalqaro baholash dasturlarining sinov topshiriqlari esa faqat bilim va ko'nikmalarni emas, balki ularni hayotiy vaziyatlarga qo'llashni baholashga qaratilganligi

o'quvchilarda:

- kontekstda bayon etilgan muammoli vaziyatni fan tilida ifodalash va mulohaza yuritishning noodatiyligi va murakkabligi;

- muammoni yechish usulining murakkabligi (bir bosqichlidan tortib ko'p bosqichligacha bo'lishi);

- taqdim qilinayotgan vaziyat haqidagi ma'lumotlarning noodatiy va turli tuman ko'rinishlarda berilishi;

- taqdim qilinayotgan vaziyat tavsifi matnining kattaligi;

- kontekstdagi ma'lumotlarning berilishi va ular orasidan keraklilarini ajratib olishdagi qiyinchiliklar;

- topshiriqlar mazmuni fanning qaysi bo'limiga taalluqli ekanligining noaniqligi;

- ba'zi topshiriqlarda mantiqiy dalillashning murakkabligi kabi qiyinchiliklarga duch kelish mumkin⁷.

PISA–2022 tadqiqot natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2022-yil o'tkazilgan PISA tadqiqotida dunyoning 81 mamlakatidan 690 000 nafarga yaqin 15 yoshli o'quvchilar ishtirok etgan. Ta'kidlash joizki, 2022-yilda o'tkazilgan tadqiqotda O'zbekistonlik o'quvchilar ham ilk marotaba ishtirok etishgan edi. Amma, natijalar quvonarli emas. Sinov natijalariga ko'ra, O'zbekistonlik o'quvchilar 81 ta mamlakat orasida matematik savodxonlik bo'yicha 72-o'rinni, tabiiy fanlar va o'qish savodxonligi yo'nalishlarida 80-o'rinni egalladi.

Manbalar va metodlar. Fikrimizcha, mazkur muammolarning ijobiy yechimini aniqlash

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli Farmoni.

6 Ismailov A.A va b. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini baholash (Kimyo, biologiya, fizika, geografiya fani o'qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2019-yil.

7 Ergasheva M. va boshqalar. Ta'lim sifatining baholashning PISA xalqaro tadqiqot dasturini amalga oshirish bo'yicha o'quv metodik qo'llanma. Metodik qo'llanma. OOO "Ziyo press" – Toshkent. 2020-yil.


va kelgusida o'quvchilarimizning ushbu tadqiqotlarda yuqori natijalarga erishishlarini ta'minlash uchun avvalo, umumta'lim maktablari tabiiy va aniq fanlar bo'yicha PISA topshiriqlarini ishlab chiqish hamda o'quvchilarimizni mazkur tadqiqotlarga puxta tayyorlashimiz maqsadga muvofiq. Quyida tabiiy fanlar bo'yicha PISA topshiriqlaridan namunalar keltiramiz.

Tabiiy fanlar bo'yicha PISA topshirig'i

Vulqon otilishi. Vulqon otilishi va zilzilalar dunyoning ko'plab hududlaridagi odamlarning hayotiga xavf solmoqda. 1-xaritada vulqonlarning joylashgan o'rni ko'rsatilgan. 2-xaritada esa zilzilalar bo'ladigan hududlar tasvirlangan. Olovli halqa deb nomlangan hududlar esa ikkita xaritada belgilangan.




1-xarita. Vulqonlar



2-xarita. Zilzilalar

1-savol: Quyida keltirilgan xaritadan ehtimoliy vulqon otilishi va zilzila xavfi eng past bo'lgan hududni belgilang.



Vulqon otilishi: 1-savolga javobni baholash

Quyidagi javob to'liq qabul qilinadi:

D


Quyidagi javoblar umuman qabul qilinmaydi:

Boshqa javoblar

Javob berilmasa

Vulqon otilishining quyosh radiatsiyasiga ta'siri. Vulqonlar otilayotganda atmosferaga juda katta miqdorda vulqon kuli va oltingugurt dioksidi ko'tariladi. Quyidagi grafikda bu moddalar Yer yuzasiga tushadigan quyosh radiatsiyasi miqdoriga qanday ta'sir qilishi ko'rsatilgan.

Yer yuzasiga yetib keluvchi quyosh radiatsiyasi turli yillarda



2-savol: Nima uchun Yer yuzasiga yetib keluvchi quyosh radiatsiyasi miqdori vulqon otilganidan keyin o'zgaradi?

Vulqon otilishi: 2-savolga javobni baholash

Quyidagi javob to'liq qabul qilinadi: Javobda

vulqon otilishi natijasida paydo bo'luvchi kul yoki boshqa moddalar quyosh radiatsiyasini qaytarishi yoki yutishini ko'rsatuvchi yoki nazarda tutuvchi tushuntirishlar bo'lsa.


Quyidagi javoblar umuman qabul qilinmaydi:

Boshqa javoblar

Javob berilmasa

Atmosferadagi karbonat angidrid. Vulqon otilishi vaqtida karbonat angidrid (CO₂) ajralib chiqadi. Keyingi grafikda 1960-yildan boshlab olimlar tomonidan o'lchangan atmosferadagi karbonat angidrid (CO₂) darajasi ko'rsatilgan.

Turli yillarda atmosferadagi CO₂ miqdori



Keyingi jadvalda esa atmosferadagi karbonat angidrid miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi turli manbalar ko'rsatilgan.

Manba	Atmosferaga chiqayotgan umumiy CO ₂ dagi ulushi
Vulqon otilishi	<1%
Inson faoliyati natijasida chiqayotgan CO ₂	20%
O'simliklar nafas olishidan	40%
Mikroorganizmlar nafas olishi va parchalanishidan	40%

3-savol. Taqdim etilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, vulqon otilishi atmosferadagi karbonat angidrid konsentratsiyasiga qanday

ta'sir qilishini ayting?

A. Sezilarli darajada, chunki, juda ko'p vulqon otilishlari sodir bo'ladi.

B. Sezilarli darajada, chunki har bir vulqon otilishida ko'p miqdordagi moddalar atmosferaga chiqadi.

C. Oz darajada ta'sir ko'rsatadi, chunki, vulqonlar boshqa manbalarga qaraganda kamroq CO₂ chiqaradi.

D. Oz darajada ta'sir ko'rsatadi, chunki, vulqon otilishlari paytida atmosferadagi CO₂ darajasi pasayadi.

Vulqon otilishlari: 3-savolga javobni baholash

Quyidagi javob to'liq qabul qilinadi:

C. Oz darajada ta'sir ko'rsatadi, chunki vulqonlar boshqa manbalarga qaraganda kamroq CO₂ chiqaradi.

Quyidagi javoblar qabul qilinmaydi:

Boshqa javoblar.

Javob yo'q.

Shu o'rinda savol tug'iladi, ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida O'zbekiston Respublikasi nima uchun ishtirok etmoqda? Ushbu savolga quyidagi imkoniyatlarning yaratilishi bilan javob berish mumkin:

Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi.

Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir

ko'rsatadi. Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.

Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi⁸.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori⁹ asosida ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida baholash, tegishli global tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida muhim qadamlar tashlandi. Ushbu qaror ijrosi doirasida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi.

Xalqaro baholash dasturlari, xususan, o'qish, matematika va tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish va tahlil qilish, ushbu sohalaridagi bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni olti darajada nazorat qilish tizimi mavjudligini ko'rsatdi. Fan o'qituvchilari bu darajaviy yondashuvni chuqur anglagan

holda, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning kognitiv o'sishini ta'minlovchi didaktik yondashuvlardan foydalanishi lozim. Bu esa ta'lim jarayonini oddiydan murakkabga asoslangan topshiriqlar asosida qurishga, mantiqiy ketma-ketlikni saqlagan holda baholash jarayonini samarali yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, XXI asrda global miqyosda yuzaga kelayotgan murakkab muammolar – iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik inqirozlar – ilmiy tafakkur va innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Jamiyatga ana shunday muammolarni hal etishga qodir bo'lgan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini egallagan, mustaqil fikrlovchi yoshlar zarur. Shu nuqtayi nazardan, tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlikni shakllantirish – zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tabiiy-ilmiy bilimlar va ko'nikmalar nafaqat shaxsiy va kasbiy faoliyatda, balki butun jamiyatning innovatsion salohiyatini yuksaltirishda muhim omil sifatida maydonga chiqadi.

Umuman olganda, xalqaro baholash tizimlari bilan uyg'unlashgan, zamon talablariga mos keluvchi milliy baholash mexanizmini shakllantirish va takomillashtirish – O'zbekistonda raqobatbardosh, ijtimoiy faolligi yuqori, tafakkur madaniyatiga ega yosh avlodni tarbiyalash yo'lida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

8 Radjiyev A.B. va boshqalar. O'quvchilarning savodxonligining baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi. Toshkent, Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi -2019.

9 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

TASAVVUF VA FALSAFIY TAFAKKURDA IBN ARABIY QARASHLARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Mohlaroyim Shuhrat qizi Yarashova –
o'qituvchi, Osiyo xalqaro universiteti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Muhyiddin Ibn Arabiyning hayoti hamda uning ilmiy-falsafiy qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, u yaratgan "vahdatul vujud" ta'limotining shakllanish jarayoni, borliq va inson haqidagi qarashlari hamda tasavvuf tarixidagi o'rni yoritilgan. Bundan tashqari, uning asarlari o'zlikni anglash, ruhiy kamolot va ma'naviy uyg'unlik sari yetaklovchi muhim manbaligi ta'kidlangan.

Аннотация. В данной статье анализируются жизнь Мухйиддина Ибн Араби и его научно-философские взгляды. Освещается также процесс формирования созданного им учения «вахдат аль-вуджуд», его представления о бытии и человеке, а также место в истории суфизма. Кроме того, подчеркивается, что его труды являются важным источником, ведущим к самопознанию, духовному совершенствованию и гармонии.

Abstract. This article analyzes the life of Muhyiddin Ibn Arabi and his intellectual and philosophical views. It also highlights the formation process of the "wahdat al-wujud" doctrine he developed, his perspectives on existence and the human being, as well as his role in the history of Sufism. Furthermore, it emphasizes that his works serve as an important source guiding self-realization, spiritual perfection, and moral harmony.

Kalit so'zlar: haqiqat, kamolot, ma'naviyat, ma'rifat, tarbiya, tasavvuf, imon, tafakkur, ta'limot.

Ключевые слова: истина, совершенство, духовность, просвещение, воспитание, суфизм, вера, мышление, учение.

Keywords: truth, perfection, spirituality, enlightenment, education, sufism, faith, thinking, doctrine.

Muhyiddin ibn Arabiy, islom tasavvufi tarixida "Shayx-ul Akbar" ("Ulug' shayx") va "Muhyiddin" ("Dinni tiriltiruvchi") nomlari bilan mashhur bo'lgan ulug' mutasavvifdir. U milodiy 1165-yil 28-iyulda, hijriy 560-yil 17-Ramazon kuni, Bag'dod xalifasi al-Mustanjid billoh hukmronligi davrida, Ispaniyaning Mursiya shahrida tavallud topgan. Ibn Arabiy hayoti va ijodi, uning chuqur falsafiy qarashlari hamda tasavvufdagi buyuk o'rni nafaqat musulmon dunyosida, balki butun jahon ma'naviy tafakkurida muhim iz qoldirgan.

U aslzoda, boy va dindor oilada voyaga yetib, yoshligidan ilohiy haqiqatni izlashga, ruhiy kamolot sari intilishga moyil bo'ldi. Ota-onasi va qarindoshlarining taqvodorligi uning ruhiy shakllanishiga mustahkam zamin yaratdi. Biroq uning tasavvuf yo'liga qat'iy kirib kelishiga eng katta turtki yoshligida boshidan kechirgan hayratomuz kasallik voqeasi bo'ldi. Ushbu hodisadan so'ng Ibn Arabiy qalbida ilohiy ishq,

ma'naviy izlanish va komillikka erishish ishtiyoqi yanada kuchaydi.

U o'z umrining dastlabki bosqichidayoq zohidlik va so'fiylik muhitida ulg'aydi, Andalusiyadagi falsafiy maktablar ta'sirini ko'rди, lekin islomiy imon asoslariga tayanib, tasavvufning chuqur sirlariga sho'ng'idi. Yoshlikdan irfoniylar ilmlarga oshno bo'lgan Ibn Arabiy ilm va tajriba orttirish uchun keng safarlarga o'tlanib, buyuk shayxlar suhbatida bo'ldi, turli diyorlarda ruhiy kamolot sirlarini o'rgandi. Uning hayoti davomida to'plagan tajribasi, o'ziga xos fikr uslubi va "vahdatul vujud" ta'limotining shakllanishi, tasavvuf tarixida yangi bosqich boshlab berdi.

Bugungi kunda insoniyat ongida ma'naviy izlanishlar, o'zlikni anglash, ruhiy muvozanat va ilohiy mohiyatni tushunishga bo'lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Shunday sharoitda Ibn Arabiy merosi o'z dolzarbligini yo'qotmagan

holda, aksincha, zamonaviy tafakkur va ma'naviy hayot uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Uning falsafasi insonni moddiy va ruhiy olam uyg'unligiga da'vat etib, borliqning yagona manbadan kelib chiqishini izohlash orqali bugungi kunda ham turli din va madaniyatlar o'rtasida ma'naviy hamjihatlikni shakllantirishga ko'mak beradi.

Ushbu maqola Muhyiddin ibn Arabiy hayoti, ilmiy va ruhiy shakllanishi, shuningdek, uning "vahdatul vujud" ta'limotining shakllanish jarayonini tahlil qilishga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida tarixiy manbalar, xususan, Ibn Arabiy asarlari ("Futuhot", "Risoi vujudiya" va boshqalar) hamda zamonaviy tadqiqotlar tahliliy yondashuv bilan o'rganildi. Biografik ma'lumotlar voqealar ketma-ketligi asosida qayta ishlanib, uning tasavvufdagi o'rni tizimli tarzda yoritildi. Shuningdek, ustozidan olgan bilimlari hamda safarlar orqali orttirgan ilmiy merosining ta'siri, shaxsiy tajribalarining ruhiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi kontekstual tahlil uslubi yordamida ochib berildi.

Ibn Arabiy hayoti va merosi uning nasl-nasabi hamda tarbiyasida chuqur iz qoldirgan. U aslzoda oilasida tug'ilib o'sgan bo'lib, boylik va dindorlik oilasining ajralmas belgisi edi. Ibn Arabiy ota-onasi haqida gapirganida, ularning qattiq taqvodorligi va diniy hayotga sadoqatini alohida ta'kidlaydi. Bu tarbiya va oilaviy muhit uning kelajakdagi ruhiy izlanishlari uchun mustahkam zamin yaratgan edi. Uning hayotida tog'alarining o'rni ham beqiyos bo'lgan. Ulardan biri Yahyo ibn Yag'an podshohlik taxtidan voz kechib, Talmisonda (hozirgi Jazoir hududida) zohidlik yo'lini tanladi. U dunyoviy shon-shuhratdan butunlay voz kechib, shaharni tark etib tog'larda yashadi va oddiygina o'tin sotib kun kechirardi. Ikkinchi tog'asi Abu Muslim Xuloni tunlarini ibodat bilan o'tkazadigan, o'zini qattiq riyozat bilan qiynab, uyquga berilishga yo'l qo'ymaydigan

so'fiy edi. Ularning bu hayot tarzi Ibn Arabiyning ma'naviy kamolot yo'lida o'ziga xos namunaga aylandi.

Bundan tashqari, uning amakilari ham dindorligi bilan tanilgan edi. Xususan, Abdulloh ibn Muhammad ibn Arabiy ismli amakisi karomatlari bilan mashhur bo'lib, "Rahmoniy nafaslarini hidlaganlar" maqomiga erishgan edi. Ibn Arabiy "Futuhot" asarida uni iliq so'zlar bilan eslaydi: u bu maqomga ham hissiy, ham ma'naviy jihatdan ega bo'lganini va bu holni o'zi "johiliyat davrida", ya'ni tasavvuf yo'lga kirishdan avval ham ko'rganini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, Ibn Arabiyning ruhiy shakllanishida uning aslzoda nasl-nasabi, ota-onasining taqvodorligi, tog'a va amakilarining zohidona hayoti bevosita ta'sir ko'rsatgan. Bu oilaviy meros va diniy muhit uni nafaqat buyuk mutasavvif sifatida, balki islom ma'naviyatining eng yuksak namoyandalaridan biri sifatida shakllantirdi¹.

Ibn Arabiy hali yosh bola bo'lgan kezlarda og'ir xastalikka duchor bo'ladi. Kasallik tobora kuchayib, uning ahvoli yomonlashib boradi. Bir kuni xastaligi eng og'ir holatga yetgan paytda u tush ko'radi. Tushida u juda qo'rqinchli manzaraga duch keladi: atrofini qurollangan, shamshirli, yovuz ruhlari va sharpalar o'rab olgan bo'ladi. Ularning maqsadi uni yo'q qilish. Biroq shu payt kutilmaganda yuzi nurli, haybati va nuroniyligi bilan ajralib turgan bir zot paydo bo'ladi. U yovuz ruhlarni quvib chiqaradi, ular butunlay g'oyib bo'lishadi. Himoyaga kelgan bu zotga hayrat bilan qaragan Ibn Arabiy: "Sen kimsan?" deb so'raydi. U esa qisqa va ta'sirli javob beradi: "Men Yosin surasiman". Shu payt Ibn Arabiy uyg'onadi va ustida otasining Yosin surasini tilovat qilib turganini ko'radi. Ajablanarlisi shundaki, uyg'ongach, u o'zida kasallikdan asar ham qolmaganini his qiladi².

1 Футухот маккийя. 2-жилд. –Б.241-242.

2 <https://www.alhaqqani.com/> /رحمة ربك الـخيـالـ

Mana shu hodisa uning qalbida chuqur iz qoldiradi. Bu voqeadan so'ng u butun borlig'i bilan ruhiy tarbiya va ma'naviy izlanishga moyil bo'lib qoladi. Yosh Ibn Arabiy uchun bu faqatgina sog'ayish mo'jizasi emas, balki ilohiy yo'lga chorlov bo'lgan edi. Shu tariqa, uning kelajakdagi buyuk mutasavviflik sari ilk qadamlari ana shu hayratli va ruhlantiruvchi voqeadan boshlangan. Ibn Arabiy o'z bolalik yillarini zohidlik va so'fiylik bilan qamralgan muhitda o'tkazdi. U sakkiz yoshida oilasi bilan Sevilyaga ko'chib o'tdi. Shu davrda u Andalusiyadagi maktablardan biriga borib turdi, bu maktab maxfiy ravishda Empedokl mazhabini o'rgatar edi³. Bu maktab turli ramzlar, tamsillar va murakkab tushunchalarni o'rgatar va u Pifagor, Orfeylik, Hind falsafasidan ta'sirlangan edi. Bu maktab 319–631 hijriy (milodiy 931) yillarda Qurtubada vafot etgan Ibn Masarra davridan beri mavjud edi. G'arb olimlari bu maktab haqida Muhyiddin ibn Arabiy orqali ma'lumotga ega bo'lganlar.

Ibn Arabiyning yoshlik davridayoq irfoniylar ilmlarga bo'lgan muhabbati uning hayotining bosh yo'nalishiga aylandi. U aqli va qalbi bilan tasavvufga butunlay berilib, komillikka intilishdan to'xtamadi. Bu ulug' maqsadni amalga oshirish uchun u turli ustozlar qo'lida ta'lim oldi, ularning suhbatidan bahramand bo'ldi. Biroq ilm va ruhiy kamolot sari yo'l cheksiz ekanini anglagan Ibn Arabiy o'z ilmini yanada mukammallashtirish maqsadida yangi ustozlarni izlab, uzoq safarlarga chiqishga qaror qildi⁴.

1206-yilda esa Ibn Arabiy Qohiraga alohida safar uyushtirdi. U yerda so'fiy jamoalar bilan yaqin aloqa o'rnatdi va o'zining mashhur "vahdatul vujud" ta'limotini ochiq e'lon qildi. Shu tariqa, uning safarlari nafaqat shaxsiy kamolotiga, balki butun tasavvuf tarixida chuqur iz qoldirgan g'oyalarining shakllanishiga xizmat qildi.

Ibn Arabiy "vahdatul-vujud" nazariyasini o'zining xos uslubida izohlashini qayd etgan. Uning borliqqa oid maxsus asarlarining tasnifi ko'rsatadiki, u borliqqa umumiy ta'rif berish bilan birga uning ko'rinishlari bo'lgan tabiat, inson, jamiyat va ma'naviy borliqni ham tahlil etgan. Ibn Arabiyning borliqning umumiy masalalarini yoritgan, bu kategoriyani yaxlit, tizimli o'rgangan asarlaridan biri "Risolai vujudiya" ("Vujud haqida risola")dir⁵. Asarning qo'lyozma nusxasi asosida tadqiqotchi risolaning 17 varaqdan iboratligini ta'kidlaydi.

Mutasavvif risolani "Bizning so'zlarimiz irfon talabida azm va himmatga ega kishilar va o'zlikni anglash talabi borlar, qalbiga Alloh ta'olo vasliga etish ishtiyoqi hamda talabining suratini solganlar uchundir"⁶, – degan irfoniylar fikr bilan boshlaydi. Bundan kelib chiqadiki, inson avvalo, o'zini anglasa yoki bilsa shunda mohiyatni angelaydi. Muhyiddin ibn Arabiy hayoti va ijodi islom tasavvufi tarixida alohida bosqichni tashkil etadi. Uning ruhiy shakllanishi, nasl-nasabidan boshlab ota-onasi va qarindoshlarining taqvodorligi, yoshligida boshidan kechirgan hayratomuz voqealari hamda ilmiy-ruhiy izlanishlari natijasida shakllangan falsafasi insoniyat ma'naviy tafakkurida o'chmas iz qoldirdi. Ibn Arabiy tasavvufni nafaqat diniy-ma'naviy yo'l sifatida, balki borliq mohiyatini anglash va insonni komillikka yetaklovchi falsafiy ta'limot sifatida rivojlantirdi. Uning "vahdatul vujud" nazariyasi inson va borliq o'rtasidagi yagona manbaga asoslangan uyg'unlikni izohlash orqali tasavvuf tarixida yangi davrni boshlab berdi. Bu ta'limot bugungi kunda ham insoniyatni moddiy va ruhiy muvozanat sari da'vat etuvchi, turli din va madaniyatlar o'rtasida ma'naviy hamjihatlikni mustahkamlovchi muhim falsafiy konsepsiya bo'lib qolmoqda.

3 Ар-Рисолатул вужудийя. Дарул кутубил илмийя. Байрут: 2004. –Б.6.

4 Ар-Рисолатул вужудийя. Дарул кутубил илмийя. Байрут: 2004. –Б.6.

5 Ibn Arabiy. Risolai vujudiya. Qo'lyozma. Muallifning shaxsiy kutubxonasidan

6 ص 7008. في علم العلل بكتابك راد: تويري ب. يبرخ بن دمحم بن علي بن دمحم بن دليح. في دوجوالا لاسرل

BOBURNING KICHIK LIRIK JANRDAGI SHE'RLARINING KOMPOZITSION TUZILISHI

Sapura Ne'matova – tadqiqotchi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilimizning va adabiyotimizning yaxlit bir ma'naviy–ruhiy olamligi, har bir so'zning mazmundorligi va rang–barang xususiyatlarini buyuk so'z san'atkorilarining teran fikrlari misolida ko'rsatib beriladi. Shoirning yor va diyor mavzusidagi go'zal misralari yoritilgan va tahlil etilgan.

Аннотация. В статье показан весь духовный и эмоциональный мир нашего узбекского языка и литературы, осмысленность и красочные особенности каждого слова на примере глубоких мыслей великого художника слова освещены и проанализированы прекрасные стихи на эту тему.

Abstract: The article demonstrates the integrity of the spiritual and emotional world of the Uzbek language and literature, highlighting the meaningfulness and diversity of each word through the profound thoughts of great masters of words. The poet's beautiful verses on the themes of love and homeland are illuminated and analyzed.

Kalit so'zlar: badiiy ijod qonuniyati, an'ana va tadriijiy rivojlanish, so'z san'ati, tasvir imkoniyati, muqobil istiloh, islomiy ma'rifat, millat, tafakkur, til boyligi va ravnaqi, mumtoz adabiyot.

Ключевые слова: законность художественного творчества, традиция и постепенное развитие, искусство слова, возможность изображения, альтернативная революция, исламское просвещение, нация, мысль, богатство и развитие языка, классическая литература.

Keywords: legality of artistic creation, tradition and gradual development, word art, possibility of image, alternative revolution, Islamic enlightenment, nation, thought, richness and development of language classical literature.

Bobur she'riyatida g'azal va masnaviy kabi nisbatan kattaroq lirik janrlar bilan bir qatorda ruboiy, tuyuq, qit'a, fard, muammo kabi kichik lirik janrlardan ham keng foydalangan. Bu janrlarning har biri Boburning o'ziga xos, hali mufassal o'rganilmagan ijodiyoti va badiiy mahorat olamini tashkil etadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zidan oldin yashab ijod etgan salaflarning ijodiyotini chuqur o'rganib, ularning yutuqlaridan unumli istifoda qilgan. Bu hol g'azal, masnaviy va boshqa kichik janrlarda yaratilgan she'riy asarlari uchun ham bevosita taalluqlidir. Bobur mazkur janrlarining katta imkoniyatlardan foydalanibgina qolmay, uni ijodiy rivojlantirish yo'liga ham katta hissa qo'shgan buyuk san'atkordir. Boburning hayotiy kundalik kechinmalari boshqa janrlarda yozilgan asarlari bilan bir qatorda ruboiy, tuyuq, qit'a, masnaviy, fard va muammolarida ham o'zining

alohida ifodasini topgan. Bu janrlarda yozilgan asarlarda Boburning hayotiy kechinmalari bir jihatdan o'ziga xos siqiq, o'quvchi hissiyotlariga chuqur ta'sir etuvchi mungli she'r tartibi orqali ifoda etilgan bo'lsa, boshqa tomondan mazmunan teran va mohiyat jihatidan buyuk shoir tafakkurining samarali mevasi sifatida o'quvchiga tortiq etiladi. Bu lirik she'rlar o'z navbatida Boburda mavjud bo'lgan buyuk iste'dod egasi, dovyurak inson, jasur askar, donishmand va xalqparvar rahbarga xom bo'lgan qirralarini yorqin ochib berishda ham muhim omillardan bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali Bobur borliqqa, o'zi yashab ijod etgan jamiyat, davr va tarixiy voqealarga idroki natijasida yuzaga kelgan munosabatlarini bildiradi.

“Bobur – insonlar ichida eng rostgo'ydir, deb aytsak ham xato bo'lmas. Uning qalb daftari – “Boburnoma”ni diqqat bilan varaqlagan kishi

bunga amin bo'ladi"¹.

Bobur "Boburnoma"da boshqa "shohnoma", "zafarnoma"larda bitilgandek, o'zining faqat zafarlari, muvaffaqiyatlari, g'alaba nashidalari haqida hikoya qilmay, hayotning ayrim damlarida ko'rgan xor-u zorliklari, sarson-sargardonliklari haqida ham g'ururini unutib, rostgo'ylik bilan so'ylaydi. Zamondoshlari, zamonasining mashhur kishilari ta'rifida ham shu rostgo'ylikka amal qiladi. "Boburnoma"ning qanday qoidalar asosida yaratilgani to'g'risida aniq tushuncha paydo qiladi. Bu rostgo'ylik qoidasidir². Bobur o'zi "Boburnoma"da bu haqda "Chun bu tarixda andoq intizom qilib turkim, har so'zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqiini tahrir etilgay".

Shoh Bobur bilan shoir Bobur doimo bir shaxs ekanligini unutmay faoliyat yuritadi. Janglardagi shoh Boburning tavakkalchiligi ijodiy uslubida ham ko'rinadi. Hayotdagi jang-u jadal, tashvish, besaranjomlik, vaqtning tig'izligi Boburga ehtiros, zavq-u shavq baxsh etgandir, aynan shunday hayot tufayli Bobur she'riyati latif, nasri esa rostgo'y va dangal.

Bobur o'zbek she'riyati realistik xususiyatlari bilan boyitdi, uni afkor ommaning badiiy-estetik ta'biga yaqinlashtirdi. She'riy shakllarga ham yangi original unsurlar olib kirdi. I.V.Stebleva aytganidek, "Bobur g'azallari mumtoz turkiyzabon she'riyatining estetik me'yorlarini buzmaganda, imkon qadar voqelikni aks ettiradi"³.

Har bir shoir ruhiy ahvolidan kelib chiqib she'r bitadi, inson ruhiyati esa tashqi omillarga doimo bog'liq. Bobur ruhiyatdagi ta'sir etgan voqea-hodisalarni uning memuar, qomusiy asaridan o'qib bilish mumkin. "Boburnoma" – boshdan-oxir hayot kitobi, real hayotda kechgan, lekin ma'no mazmuni behad xilma-xil voqea-

hodisalar tasvirlangan qomusiy kitobdir"⁴. "Boburnoma" qomusiylikda shu qadar miqyosi keng asarki, undagi mavzu-masalalar va voqea-hodisalar, tafsilot-tahlillar, tarixiy shaxslar ro'yxatini aql-shuuriy nazar bilan daf'atan qamrab olish qiyin. Asarning Afg'oniston voqealariga bag'ishlangan boblaridan ma'lum bo'ladi, tog'-u toshlarda, daralarda turli-tuman, bir-birga o'xshamagan urug'-qabilalar shunchalar ko'pki, muallif ularni sanab ko'rsatadi, yashash joylarini aniq nomlari bilan qayd etadi.

O'zining qayd etishicha, Bobur bosib o'tgan yo'llarida, juda ko'p joylarda toshlarga uydirib, tarix yozdirib qoldirgan. Ularning ayrimlari topilgan buning ashyoviy isbotidir. Masalan, Afg'oniston voqealari bobida yozadi: "Bodijning ustida bir toshda buyurdimki, bu kelur va borurning tarixini qo'zg'aylar. Hofiz Mirak bitidi, ustod Shoh Muhammad sangtaroshlik qildi. Shitob uchun obodon qozimadi". Shu vaqtdan boshlab, endi o'zini "mirzo"emas, "podshoh" deb tilga olishlarini buyurganini ta'kidlaydi: "Ushbu tarixqacha Temurbekning avlodini bovujudini saltanat mirzo derlar edi, ushbu navbat buyurdimkim, menin podsho degaylar".

Bu voqea-hodisalarning hammasi Boburning she'riyatida o'z ifodasini topgan. Asl she'riyat ham his-hayajon va hayotiy tajribalar sintezidir.

Bobur o'zining qisqa umri davomida juda ko'p el-uluslarini ko'rdi, turli-tuman diniy e'tiqod va mistik hodisalarning shohidi bo'ldi. Bular ichida shamanizm ham, musoviylik ham, buddizm ham bor edi. Shundan bo'lsa kerak, u yozadi:

Agar muslihmen, ar mufsid va gar oshiqmen,
ar obid,

Ne ishing bor sening, zohid, meningki
ixtiyorim bor (49).

1 Sulton X. Boburiynoma (ma'rifiy roman). –Toshkent, 1997. – B. 101.

2 Qayumov A., Hasanov S. Bobur ijodiyoti. –Toshkent, 2007. – B. 74.

3 Стеблева И. Семантика газелей Бабура. – Москва: Наука, 1982. – С. 200.

4 Ҳаққул И. Ўғтиқод ва ижод. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 61.

Boburning yozgan misralarida o'zi mansub bo'lgan muhitning ta'sirini sezamiz:

Manga osonduru bo'lsa agar yuz ming tuman dushman,

Vale bolmoq jahonda, ey ko'ngul, beyor mushkuldir (52).

Boburning ko'pni ko'rib, ko'p voqea-hodisalarni boshdan kechirganiga yana bir dalil.

Masnaviylaridan birida shunday bayt bor:

Tama uzgil bu eski dunyodin,

Xotiringdin chiqar bu dun yodin (244).

"Dun" so'zining past, pastkash, tuban kabi lug'aviy ma'nolarini hisobga olsak, bu yanglig' keskin fikrlar Bobur she'riyatida ko'p uchraydi.

She'rda shoir his tuyg'usini boricha izhor etadi va mana shu tuyg'ularni insoniyatga singdiradi. Shuning uchun shoirlar ijodiyoti – har bir davrning ko'zgusi.

Bobur g'azallarining asosan ko'pchiligi shaklan yetuk, badiiy jihatdan barkamoldir. Xalq jonli tilidan keng foydalangan shoir juda ravon, kishi dilini qitiqlovchi so'z misralar bitadi, esda qoluvchi obrazlar yaratadi. She'riyat nazariyasini, xususan, aruz qonun-qoidasini butun nozikliklari bilan egallagan shoir g'azal va ruboiylari nihoyatda engil o'qiladi, tinglovchiga zavq – shavq bag'ishlaydi⁵.

Bobur ruboiylari ishq, tabiat, vatan dardi, hijron mavzularida yozilgan. Uning ruboiylaridagi ayriliq, hijron mavzulari samimiy tarzda ifodalangan. U visol va hijron, vafo va bevafolik kabi ziddiyatlarni hayotiy tarzda ifodalagan. I.V.Steblevaning tadqiqotiga bag'ishlangan maqolada shunday deyilgan:

"Olimaning kuzatishlariga qaraganda,

xohlagan obraz va uning atrofidagi tashbehlar, istioralar – yo oshiqning iztiroblari holatini yoki yorning betakrorligini ifodalashga xizmat qiladi. Oshiq mikroolami doim ma'shuqa mikroolamiga qarma qarshi. Ularning tashbehiga xizmat qiluvchi vositalar ham doimiy ziddiy aylanma harakatda bo'ladi. Ma'shuqa hamisha e'tiborda, kibor, mag'rur, mamnun, oshiq doim ezilgan, xasta, g'amgin, umidvor. Bularning hammasi "men – ma'shuqa oppozitsiyasiga bo'ysunadi"⁶. Bobur o'z ruboiylarida yor obrazini gul, oy, quyosh, moh, jonon, dildor, gulruh, nigor, mahvash kabi so'zlar bilan ta'riflaydi. G'uncha dahan, yuzi quyosh, hayoti jon, ruhi ravon, umri jovidon, huri parizod, lola uzorlar ham yor obrazini vasf etadigan sifatlardir:

Muncha meni zor, ey yuzi xurshid, etma,

Furqat alamini manga jovid etma.

Tengridin agar sening umiding bordur,

Tengri uchun, ey oy, meni novmid etma (144).

Mashuqaga xos beqiyos go'zallik tasviri uchun tabiatdan oy va quyosh singari timsollar olingan. Ma'lumki, she'riyatidagi har bir poetik obrazning o'ziga xos tarixi, insonning ichki olamni aks ettirishda o'ziga xos va takrorlanmas xizmatlari bo'ladi.

Yuqorida qayd etganimiz yor obrazining o'z sifatlari bo'lgani kabi oshiq obrazini ham o'z sifatlari mavjud. Bobur ruboiylarida oshiq holatini ifodalash uchun, unga zor, bulbul, bedil, shaydo kabi ta'riflardan foydalanadi.

To vodiya hajringda qilibmen manzil,

Surat bila garchi ayrumen men bedil,

Vallahki, ey yor, sening yodingdan,

Bir lahzau bir zamon emasman gofil(78).

Boburning ruboiylari orasida yorning

5 Маҳмуд Л. Бобурни тушуниш бахти. – Т., 2009. – Б.57.

6 Халлиева Г. "Бобур ғазаллари семантикаси"га оид тадқиқот. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2012. №6. Б-28.

berahmliligi, oshiqning mazlumligi haqidagilari ko'pchilikni tashkil qiladi. Shuningdek, Bobur ruboiylarida gul va bulbul timsollaridan mohirlik bilan foydalangan. Umuman, mumtoz adabiyotimizda yorni obrazini gul timsolida ifodalash an'anaviy usullaridan biridir. Shunga o'xshash bulbul ham oshiq obrazini ochib beruvchi timsollaridan biridir.

“Boburda o‘ziga xos bir gulparastlik zavqi bor. Shoir ba‘zan gul timsolini shunday tashxislantiradiki, – deydi Ibrohim Haqqul, – hayolingizda gulday nozik, gulday sehrli bir sanam jonlanib ketishini sezmay qolasiz. Bobur she‘rga gulning muattar bo‘yi, rangin bo‘yoqlari va betakror jozibasini mujassamlashtirgan shoir.

Fikrimning xulosasi sifatida shuni aytib o‘tamanki Bobur she‘riyatda o‘z timsoliga, o‘z rangiga, o‘z tasvir va ma‘no mazmuniga ega. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek adabiyoti va madaniyatida chuqur iz qoldirgan yirik shoir, davlat arbobi va tarixchidir. Uning she‘riyati: Yuqori badiiy saviyaga ega, g‘azal, ruboiy, tuyuqlari orqali insoniy tuyg‘ularni chuqur ifoda etadi; Muhabbat, vatanparvarlik, tabiat va hayot falsafasi kabi mavzularni go‘zal tasvirlarda yoritadi; Tilining soddaligi, obrazliligi va samimiyligi bilan o‘quvchini o‘ziga rom etadi. Bobur Navoiy an‘analarini davom ettirgan, shu bilan birga o‘ziga xos shaxsiy uslub yaratgan.

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA GENDER BARQARORLIKNING QIYOSIY TAHLILI: O'ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI

Xurshidbek Abduazimov – doktorant, Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqola Markaziy Osiyo davlatlarida raqamlashtirish jarayoni va gender tengligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston misolida internet va mobil texnologiyalarning qamrovi, ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki, ilm-fan va texnologiyalardagi roli ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda Jahon banki, BMT, YUNESKO, DataReportal kabi xalqaro tashkilotlarning oxirgi yillardagi statistik ma'lumotlari asosida qiyosiy-tavsifiy tahlil amalga oshiriladi.

Аннотация. Настоящая статья посвящена глубокому анализу взаимосвязи между процессами цифровизации и состоянием гендерного равенства в странах Центральной Азии. На примере Казахстана, Узбекистана, Кыргызстана, Таджикистана и Туркменистана рассматриваются охват интернета и мобильных технологий, участие женщин в экономической и социальной жизни, а также их вовлеченность в науку и технологии. Методология основывается на сравнительном и структурном анализе с использованием актуальных статистических данных международных организаций, таких как Всемирный банк, ООН, ЮНЕСКО и DataReportal.

Abstract. This article presents an in-depth analysis of the relationship between digitalization processes and the state of gender equality in Central Asian countries. It examines internet and mobile technology coverage, women's participation in economic and social life, and their involvement in science and technology in Kazakhstan, Uzbekistan, Kyrgyzstan, Tajikistan, and Turkmenistan. The study employs a comparative and structural analysis based on the latest statistical data provided by international organizations such as the World Bank, the United Nations, UNESCO, and DataReportal.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, gender tengligi, oila barqarorligi, Markaziy Osiyo, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, raqamli transformatsiya, gender siyosati, iqtisodiy imkoniyatlar, ijtimoiy rivojlanish, raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar.

Ключевые слова: цифровизация, гендерное равенство, стабильность семьи, Центральная Азия, Узбекистан, Казахстан, Кыргызстан, Таджикистан, Туркменистан, цифровая трансформация, гендерная политика, экономические возможности, социальное развитие, цифровые технологии, инновации, гендерная стабильность.

Keywords: digitalization, gender equality, family stability, Central Asia, Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, digital transformation, gender policy, economic opportunities, social development, digital technologies, innovations, gender stability.

XXI asrda raqamlashtirish global miqyosda ijtimoiy munosabatlar tizimiga jiddiy ta'sir o'tkazayotgan murakkab va ko'pqirrali jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamlashtirish jarayoni jamiyatdagi mavjud gender munosabatlarini qayta shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarida, balki ta'lim, mehnat bozori, oilaviy munosabatlar, ayollar va erkaklar o'rtasidagi imkoniyatlar tengligini

ta'minlash masalalariga ham ta'sir o'tkazmoqda. "Bunda, ayniqsa, ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslarga raqamli ko'nikmalarni o'rgatish"¹, qo'llab-quvvatlash sharoitida ham salmoqli rol o'ynamoqda.

O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari singari taraqqiyot bosqichidagi mamlakatlarda raqamlashtirish tezkor rivojlanayotgan holda tarixiy, madaniy va an'anaviy jamiyat

1 Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – Б.187

tuzilmalari bilan o'zaro ta'sirchanlik jarayonida gender munosabatlarida murakkablik yuzaga kelmoqda. Shu jihatdan, gender barqarorlikni raqamlashtirish sharoitida o'rganish, ushbu jarayonning ijobiy va salbiy ta'sirlarini anglash va unga mos strategik chora-tadbirlar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo davlatlarida raqamlashtirish jarayoni jadal rivojlanib, jamiyatning barcha sohalariga kirib bormoqda. Raqamli infratuzilmaning kengayishi, internetga kirish imkoniyatlarining oshishi hamda davlat tomonidan raqamlashtirish siyosatining yo'lga qo'yilishi ayollarni zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'z salohiyatini namoyon qilishiga imkoniyat yaratmoqda. Mintaqada olib borilayotgan islohotlar gender tengligiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ayollarning raqamli savodxonligi va iqtisodiy mustaqilligini oshirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda 2023-yil holatiga ko'ra, internet foydalanuvchilari soni 21,5 million kishini tashkil etib, ulardan 48 foizini ayollar tashkil etmoqda. Qozog'istonda IT sohasida band bo'lgan ayollar ulushi 35 foizga yetgan bo'lsa, Qirg'izistonda onlayn ta'lim platformalarida ro'yxatdan o'tganlarning 54 foizini ayollar tashkil qiladi².

Gender tengligini ta'minlash va raqamli transformatsiya jarayonlarini tartibga solish maqsadida markaziy Osiyo mamlakatlarda huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, xususan, O'zbekiston Respublikasida 2019-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan³. Qozog'istonning "Raqamlashtirish

to'g'risidagi davlat dasturi" (2020–2025) gender tengligini raqamlashtirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilagan⁴. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo davlatlari "BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari" (Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development) doirasida gender tengligini mustahkamlash va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha strategik yo'nalishlarni ishlab chiqmoqda⁵.

So'nggi yillarda raqamlashtirish jarayoni nafaqat iqtisodiy munosabatlar, balki gender munosabatlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalarning mehnat bozoriga kirib kelishi, onlayn ish imkoniyatlarining kengayishi, masofaviy ish va ayollar bandligidagi o'zgarishlar ilmiy tadqiqotlarning dolzarb mavzularidan biriga aylangan. Xususan, gender tengligi va raqamlashtirish o'rtasidagi o'zaro munosabatni turli mamlakatlar va mintaqalar tajribasi asosida tahlil qilgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, raqamlashtirishning ayollar mehnat bozoriga ta'siri, gender tafovut, huquqiy muhitdagi o'zgarishlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik nuqtayi nazaridan ta'siri bo'yicha olimlar tadqiqot olib borishgan.

Xususan, xorijlik olim A.L.Lukyanova 2003–2018-yillar oralig'ida Rossiya Mehnat Ekonomikasi Monitoring tizimi ma'lumotlari asosida Rossiya mehnat bozorida raqamlashtirish jarayoni va raqamli ko'nikmalarning o'sishini tahlil qilgan, muallif raqamli ko'nikmalarga bo'lgan talab kasb yo'nalishlariga qarab turlicha shakllanishi va bu jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga, xususan, gender jihatidan bandlik va ish haqi ko'rsatkichlariga qanday

2 <https://uz.kursiv.media/uz/2023-04-12>

3 "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun O'RQ-561-son <https://lex.uz/docs/4481157>

4 "Raqamli Qozog'iston" davlat dasturi (2020–2025) <https://digit.gov.kz>

5 <https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs>

ta'sir qilishi bo'yicha muhim xulosalarni chiqargan⁶. Turkiyalik olim Çağatay Tunçsiper raqamlashtirishning ayollar bandligiga ta'siri Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot tashkiloti (OECD) davlatlari misolida tadqiq qilgan, o'zining tadqiqotida zamonaviy texnologiyalarning qabul qilinishi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan o'zaro ta'siri qanday qilib ayollar mehnat bozoriga ta'sir qilishi bo'yicha muhim xulosalarni ilgari surgan. Muallif 2000–2021-yillar oralig'idagi ma'lumotlar asosida ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki, tug'ilish koeffitsiyenti, aholi jon boshiga YAIM, internetdan foydalanish darajasi va mobil aloqa abonentlari soni kabi muhim ko'rsatkichlarni tahlil qilgan holda mamlakatda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini oshirishga xizmat qilganligi bo'yicha empirik xulosalarni chiqargan⁷.

Ayitbayeva Jildiz Sagynbayeva o'z ilmiy ishida raqamlashtirish jarayoni va gender tengligi o'rtasidagi munosabatlarni chuqur tahlil qiladi. Uning tadqiqotida raqamli texnologiyalarning jamiyatdagi mavjud tengsizliklarni kamaytirish o'rniga, ba'zan ularni yanada kuchaytirishi mumkinligini ta'kidlagan. Muallifning fikricha, agar raqamlashtirish teng imkoniyatlar tamoyiliga asoslanmasa, bu jarayondan ayollar ko'proq zarar ko'rishi mumkin. Shu sababli, gender tengligini ta'minlash faqat texnologiyani joriy qilish bilan emas, balki unga inklyuziv yondashish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotda Pandemiya davri misol tariqasida keltirilib, aynan shu davrda gender tengsizligi qanday kuchaygani ko'rsatib beriladi. Masalan, ayollar uy yumushlari va bolalar tarbiyasi yukining asosiy qismi ular zimmasiga tushgani sababli,

masofadan ishlash imkoniyatiga erkaklarga qaraganda kamroq ega bo'lishgan. Helga Spadina tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotda COVID-19 pandemiyasi davrida tez sur'atlarda amalga oshirilgan raqamlashtirish jarayonining gender tengligiga bo'lgan ta'siri har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqotchining fikricha, pandemiya sharoitida yuzaga kelgan masofaviy ish jamiyatdagi mavjud gender tafovutlarini yanada keskinlashtirgan. Masalan, ish va oilaviy majburiyatlarni muvozanatlashtirish masalasi ayollar uchun yanada murakkablashgani ko'rsatib o'tiladi. Ayollar ko'p hollarda bolalar parvarishi, uy xo'jaligi va boshqa maishiy yuklamalar bilan bir vaqtning o'zida professional faoliyatini davom ettirishga majbur bo'lgan⁸.

Jaroslav Belas tomonidan olib borilgan tadqiqot Vysegrad guruhiga kiruvchi mamlakatlar – Chexiya, Slovakiya, Polsha va Vengriya – misolida kichik va o'rta biznes sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar o'rtasida raqamlashtirishning barqaror rivojlanishga ta'sirini gender nuqtayi nazaridan o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida erkak va ayol tadbirkorlar raqamli texnologiyalarni joriy etishda iqtisodiy samaradorlik, ekologik mas'uliyat va ijtimoiy adolatga oid qarashlari tahlil qilingan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, gender omili tadbirkorlik yondashuvlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayol va erkak tadbirkorlar o'z bizneslarida barqarorlikni ta'minlashga oid yondashuvlarda farqli qarashlarga ega. Ayollar ko'proq ijtimoiy va ekologik barqarorlikni muhim deb hisoblasalar, erkaklar asosan iqtisodiy samaradorlikka urg'u berishgan⁹.

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston

6 Anna Lukyanova. Digitalization and the gender gap: evidence from Russia. 2021. <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovizatsiya-i-gendernyy-razryv-v-oplate-truda>

7 Çağatay Tunçsiper From Digital Divide to Employment Equity: How Digitalization Affects Women's Involvement in the Workforce in OECD Countries. 2025.

8 Helga Špadina Digital Work and Gender Equality 2023. https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-031-14092-1_9

9 Jaroslav Belas. Exploring gender-based disparities in the digital transformation and sustainable development of SMEs in V4 countries. 2025. <https://www.sciencedirect.com/>

misolida raqamlashtirish va gender tengligi o'rtasidagi bog'liqlik qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy e'tibori mintaqamamlakatlarida internetdan foydalanish imkoniyati, ayollarning raqamli sohalaridagi ishtiroki, ayollar boshchiligidagi raqamli startaplar shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyati ulushiga qaratilgan. Tahlil uchun zarur statistik ma'lumotlar Jahon Banki, BMT, DataReportal, UNESCO hamda mintaqaviy rasmiy hisobotlardan olingan bo'lib, ular tadqiqotga ishonchli ma'lumot manbai sifatida xizmat qilgan. Tadqiqotda metodologik yondashuv sifatida qiyosiy tahlil va strukturaviy tahlil usullari qo'llanilgan, davlatlar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash maqsadida esa qiyosiy-statistik metodlar asosida ishlangan. Ayniqsa, gender tengligi holatini aniqlashda xalqaro gender indeksleri, raqamli infratuzilma ko'rsatkichlari va foydalanuvchi qamrovi indikatorlaridan foydalanilgan.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi Markaziy Osiyo mintaqasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Internet infratuzilmasining kengayishi, mobil aloqa xizmatlarining ommalashuvi hamda elektron hukumat tizimlarining takomillashuvi natijasida davlat boshqaruvi va fuqarolar bilan muloqot sifati yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu jarayon faqatgina xizmat ko'rsatishning qulayligi yoki tezligini oshirib qolmay, balki gender tengligini ta'minlashda ham muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, raqamlashtirish ayollar uchun yangi ish o'rinlari, iqtisodiy faollik maydonlari hamda ilmiy va siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etish uchun kengroq yo'l ochmoqda.


Internetdan foydalanish imkoniyati. Raqamli transformatsiya jarayonida internetga kirish imkoniyati insonlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Biroq, statistik tahlillar Markaziy Osiyo mintaqasida

internetdan foydalanishda gender tafovutlari mavjudligi ko'rsatmoqda. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston misolida olib borilgan statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, barcha davlatlarda erkaklar orasida internetdan foydalanish darajasi ayollarnikiga nisbatan ancha yuqori. Masalan, Qozog'istonda erkaklar orasida bu ko'rsatkich 115% bo'lsa, ayollar orasida 55% ni tashkil etadi. O'zbekistonda esa ayollar 48%, erkaklar 100% darajada internetdan foydalanadi. Qirg'iziston va Tojikistonda ham shunga o'xshash tendensiyalar mavjud bo'lib, erkaklar raqamli resurslardan foydalanishda ustunlikka ega. Turkmanistonda esa gender tafovuti ayniqsa sezilarli bo'lib, ayollar faqat 30% darajada internetdan foydalanmoqda, bu esa raqamli inklyuzivlik darajasining pastligini ko'rsatadi¹⁰ (1-jadval).

1-jadval¹¹

Internetdan foydalanish: ayollar va erkaklar

Ushbu ko'rsatkichlar raqamli tenglik borasida



mintaqada tizimli va barqaror strategiyalar ishlab chiqilishi zarurligini anglatadi. Ayollar uchun internetga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish va raqamli infratuzilmani genderga yo'naltirilgan yondashuv asosida rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ayollarning raqamli sohalaridagi ishtiroki. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) zamonaviy jamiyatda nafaqat iqtisodiy o'sishning,


¹⁰ DataReportal-Global Digital Insights. <https://datareportal.com>

¹¹ Muallif ishlanmasi

balki ijtimoiy tenglikning ham muhim sohasi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaranganda, ayollarning raqamli sohalaridagi ishtiroki gender tengligini ta'minlash va texnologik taraqqiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi. Mintaqa davlatlarida raqamli transformatsiya jarayonlari davom etayotganiga qaramay, ayollarning AKT sohasidagi ishtiroki pastligicha qolmoqda. Mintaqadagi beshta davlat – Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston – o'rtasidagi statistik tafovutlar gender tengligining AKT sohasida qanday shakllanayotganini ko'rsatib beradi (2-jadval).

2-jadval¹²

Ayollarning AKT sohasidagi ishtiroki



Qozog'iston bu borada mintaqada yetakchi bo'lib, ayollar ulushi 35% ni tashkil etadi. Bu natija davlat siyosatida raqamli savodxonlik, ayollarni STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) sohalariga jalb qilish, ta'limda gender muvozanatini ta'minlashga qaratilgan dasturlar bilan bog'liq. Mamlakatda ayollar uchun grantlar, texnologik startaplar va elektron xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari yuqori darajada yo'lga qo'yilgan. Qirg'izistonda ham bu yo'nalishda ijobiy siljishlar mavjud bo'lib, ayollar ulushi 28% ga yetgan. Bu holat onlayn ta'lim platformalarining rivojlanganligi, ayollarning raqamli ko'nikmalarni egallashga bo'lgan ijobiy munosabati hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi bilan izohlanadi. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 18% ni tashkil


etadi. mamlakatimizda raqamli infratuzilma kengayib borayotgan bo'lsa-da, ayollarni AKT sohasiga jalb etishda tizimli yondashuvlar yetarli emasligi, gender stereotiplar va kasb tanlashdagi gender rollari hali ham muhim to'siq sifatida mavjud. Tojikiston (15%) va Turkmaniston (12%) esa mintaqada eng past ko'rsatkichlarga ega bo'lib, bu holat davlat siyosatida raqamli tenglikka yetarli e'tibor berilmayotganini, raqamli ta'lim imkoniyatlarining cheklanganligini hamda gender tengligi bo'yicha institutsional mexanizmlarning sustligini ko'rsatadi¹³.

Ayollar boshchiligidagi raqamli startaplar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida startaplar innovatsiyalarni ilgari surish, texnologik muammolarga yechim topish va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim vosita sifatida shakllanib bormoqda. Ayniqsa, ayollar boshchiligidagi raqamli startaplar faqat iqtisodiy jihatdan emas, balki jamiyatda gender tengligini mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo davlatlarida bu borada sezilarli tafovutlar mavjud. Ayollar tomonidan raqamli tadbirkorlikka kirib borish darajasi mamlakatlar kesimida turlicha bo'lib, bu holat avvalo hududiy raqamli siyosat, mavjud infratuzilma, gender stereotiplari va ayollarga yaratilayotgan imkoniyatlar bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur omillar ayollarning innovatsion muhitda faol ishtirok etishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarida ayollar boshchiligidagi raqamli startaplar ulushi quyidagicha taqsimlangan(3-jadval):

3-jadval¹⁴

Ayollar boshchiligidagi raqamli startaplar



12 Muallif ishlanmasi

13 DataReportal-Global Digital Insights. <https://datareportal.com>

14 Muallif ishlanmasi

Yuqoridagi statistik ma'lumotlar Markaziy Osiyo mamlakatlarida ayollar tomonidan boshqarilayotgan raqamli startaplar sonining hozircha past darajada ekanligini ko'rsatadi. Mintaqa bo'yicha qiyosiy tahlil Qozog'iston va Qirg'iziston ushbu sohada nisbatan ijobiy sur'atda rivojlanayotganini ko'rsatmoqda. Jumladan, Qozog'istonda ayollar boshchiligidagi startaplar ulushi 22 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich mamlakatda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan aniq va izchil raqamli siyosat mavjudligini bildiradi. Ayollar uchun ochiq grantlar, texnologik inkubatorlar va raqamli tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi muhit bu jarayonda muhim rol o'ynamoqda. Shuningdek, davlat hamda xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik va ayollarni texnologik jarayonlarga faol jalb qilish amaliyotlari ijobiy natija berayotganini ko'rish mumkin. Qirg'izistonda esa bu ko'rsatkich 19 foizni tashkil etadi. Bu yerda xotin-qizlar orasida onlayn savdo, masofaviy xizmatlar, elektron to'lov tizimlari va boshqa raqamli faoliyat shakllari bo'yicha ishtirok nisbatan ko'proq. Bu holat texnologiyalarga tez moslashuvchanlik, jamiyatlarning qo'llab-quvvatlashi va ta'limga nisbatan ochiqlik bilan izohlanadi. O'zbekiston (12%), Tojikiston (8%) va Turkmaniston (6%)da ayollar tomonidan boshqarilayotgan startaplar ulushi sezilarli darajada pastligicha qolmoqda¹⁵. O'zbekistonda umumiy raqamli infratuzilma va startaplar izchil rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, aynan ayollarni ushbu sohaga keng jalb etishga qaratilgan siyosat va amaliy choralar yetarli darajada shakllanmagan. Ayollar uchun mo'ljallangan raqamli ta'lim dasturlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va mentorlardan iborat tizimli yondashuv mavjud emasligi bu

ko'rsatkichlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tojikiston va Turkmanistonda esa holat yanada murakkabroq. Bu davlatlarda raqamli tadbirkorlik umuman olganda endigina shakllanayotgan bosqichda bo'lib, ayollar uchun texnologik imkoniyatlar va qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma juda cheklangan. Gender stereotiplari, moliyaviy mustaqillikning past darajasi va texnologiyalarga bo'lgan ishonchning sustligi bu sohaga kirib kelishda jiddiy to'siqlar yaratmoqda.

Ayollar ishtirokidagi onlayn ta'lim platformalari. Markaziy Osiyo davlatlarida raqamlashtirish jarayoni ayollarning onlayn ta'lim imkoniyatlarini yangi darajaga ko'tardi. Xususan, Qozog'iston ushbu yo'nalishda ham 58 foiz natija bilan yetakchi o'rinda turibdi¹⁶. Bu ko'rsatkich mamlakatda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan raqamli siyosat va ta'limdagi inklyuziv yondashuvlarning amaliy natijasidir. Qirg'iziston ham yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, bu yerda ayollar ishtiroki 54 foizni tashkil etadi¹⁷. Bu mamlakatda ham onlayn ta'lim madaniyati shakllangan bo'lib, xotin-qizlar shaxsiy rivojlantirish uchun masofaviy o'quv platformalaridan faol foydalanmoqda. Bu natijaga fuqarolik jamiyati tashkilotlari va xalqaro dasturlar tomonidan ayollarni raqamli savodxonlikka tayyorlash borasidagi faoliyatining natijasi sifatida ko'rishimiz mumkin. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 50 foiz bo'lib¹⁸, bu mintaqa bo'yicha o'rtacha natija hisoblanadi. So'nggi yillarda davlat siyosatida raqamli ta'limga katta urg'u berilayotgan bo'lsa-da, ayollar uchun qulay onlayn ta'lim muhitini shakllantirish, AKT sohasida gender tafovutlarni bartaraf etish borasida qo'shimcha

15 Eurasianet. Central Asian start-ups attracting growing interest from venture capitalists. <https://eurasianet.org/central-asian-start-ups-attracting-growing-interest-from-venture-capitalists>

16 Kazakhstan Education and Training Services Industry Snapshot <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/kazakhstan-education-and-training-services-industry-snapshot>

17 Civic Engagement for Education Equity in Kyrgyzstan: the Republican Olympiad on Mathematics <https://opensocietyuniversitynetwork.org/media/osun-assets/user-assets/documents/Civic%20Engagement%20for%20Education%20Equity%20in%20Kyrgyzstan>


18 Gender Digital Divide Assessment: Uzbekistan. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2023-03/Final_Gender%20Digital%20Divide%20in%20Uzbekistan_

chora-tadbirlar talab etiladi. Ayollar uchun mo'ljallangan maxsus raqamli kurslar, grantlar va mentorlik dasturlari bu ko'rsatkichni oshirishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Tojikiston va Turkmanistonda esa ayollar ishtiroki nisbatan past – mos ravishda 40¹⁹ va 33 foiz²⁰. Bu esa ushbu mamlakatlarda internet infratuzilmasining zaifligi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi va ayollar uchun texnologiyalarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, jamiyatdagi an'anaviy qarashlar ham ayollarni onlayn ta'limdan cheklab qo'yishi mumkin (4-jadval).

4-jadval²¹

Ayollar ishtirokidagi onlayn ta'lim platformalari.



Ayollarni onlayn ta'limga keng jalb etish, ularni AKT sohasida qo'llab-quvvatlash, raqamli vositalarga kirish imkoniyatini ta'minlash Markaziy Osiyo davlatlarida gender tengligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu ko'rsatkichlar nafaqat ayollar ta'limi, balki ularning iqtisodiy va ijtimoiy faolligini oshirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, har bir mamlakat uchun bu boradagi yondashuvlar strategik ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

STEM sohasida tahsil olayotgan ayollar. Ta'limning STEM yo'nalishlarida ayollar ishtirokini ta'minlash zamonaviy jamiyatlar

taraqqiyotida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida bu boradagi tafovutlar sezilarli darajada farqlanadi. Qozog'iston va Qirg'iziston misolida ayollarni ilmiy-texnik sohaga jalb qilishga yo'naltirilgan siyosatlar, grantlar, ta'lim muhitini yaratish, hamda texnologik imkoniyatlar ulashish borasidagi chora-tadbirlar va strategiyalar samara berganini ko'rish mumkin. Bu davlatlarda ayollarning STEM sohalariga kirib kelishi nafaqat gender tengligini ta'minlash, balki innovatsion taraqqiyotning sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tojikiston va Turkmanistonda esa mamlakatlarda ayollar ulushining pastligi bu sohada chuqurroq ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy to'siqlar mavjudligini anglatadi. Ayniqsa, an'anaviy gender stereotiplari, ta'lim olish imkoniyatining cheklangani, texnologik infratuzilmaning talab darajada emasligi va yetarlicha rag'batlantiruvchi mexanizmlarning mavjud emasligi bunga sabab bo'lishi mumkin.

5-jadval²²

STEM sohasida tahsil olayotgan ayollar



O'zbekiston esa bu borada o'rtacha ko'rsatkichda turibdi. Bu esa yurtimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan genderga oid islohotlar va raqamli transformatsiya siyosati natijasida ijobiy siljishlar yuz berayotganini

19 Going the distance: Readiness for digitalization and distance education in Tajikistan. https://www.gpekix.org/sites/default/files/webform/submit_to_the_library/943/Going_the_distance_Readiness_for_digitalization_and_distan

20 Resource Dependency A Critical Look at Human Development and Inequality in Turkmenistan <https://centralasiaprogram.org/publications-all/resource-dependency-a-critical-look/>

21 Muallid ishlanmasi

22 Muallif ishlanmasi

bildiradi. Ammo hali ham bu sohada chuqurroq o'zgarishlar, ayniqsa qizlar uchun texnik mutaxassisliklarni ommalashtirish, motivatsion dasturlar, mentorlik va ijtimoiy ko'mak tizimlarini kuchaytirish zarur(5-jadval)²³.

Umuman olganda, STEM yo'nalishida gender tafovutini kamaytirish – bu nafaqat ayollarga nisbatan adolat tamoyilini ta'minlash, balki jamiyatda barqaror innovatsion rivojlanishni shakllantirishning kalitidir. Ayollarning bu sohalarda faol ishtiroki iqtisodiy o'sish, fan-texnika yutuqlariga keng yo'l ochadi va jamiyatda bilimga asoslangan taraqqiyotga zamin yaratadi.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun raqamlashtirish va gender tengligi masalalari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy taraqqiyotning ham muhim yo'nalishi hisoblanadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, mintaqada Qozog'iston raqamli infratuzilma, elektron hukumat tizimi va ayollarning ilm-fan hamda texnologiya sohasidagi ishtiroki bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallaydi. O'zbekiston esa so'nggi yillarda keng ko'lamli islohotlar samarasida raqamlashtirish va gender tengligida ijobiy natijalarga erishmoqda. Qirg'iziston ham raqamli xizmatlardan foydalanish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, ayollar tadbirkorligi rivojlanishida ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Tojikiston va Turkmaniston esa raqamli taraqqiyot va gender barqarorligi sohasida ortda qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, raqamlashtirish va gender tengligi o'rtasidagi bog'liqlikni inobatga olgan holda harakat qilish Markaziy Osiyo mamlakatlariga nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy barqarorlik va innovatsion salohiyatni to'liq ishga solish imkonini beradi. Ushbu yo'nalishda milliy strategiyalar va xalqaro hamkorlik asosida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar mintaqaning kelajakdagi barqaror rivojlanishining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Tahlildan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- qishloq hududlarini internet bilan to'liq qamrab olish bo'yicha maxsus milliy dasturlar ishlab chiqish (Ayniqsa, Tojikiston va Turkmanistonda bu boradagi infratuzilma sezilarli darajada zaif);
- ayollarni texnik sohalarga jalb qilish uchun ayrim IT yo'nalishlarida kvotalar va imtiyozli o'quv dasturlari joriy etish (ayniqsa, O'zbekistonda va Tojikistonda);
- ayollar uchun raqamli ko'nikmalarni oshirishga yo'naltirilgan bepul kurslar va grantlar yo'lga qo'yish (IT, masofaviy ish, freelancing, onlayn tadbirkorlik);
- "Ayollar uchun IT-stipendiya" dasturlari Qozog'iston tajribasida boshqa davlatlarda ham yo'lga qo'yish;
- gender tengligini ta'minlashda kvotalar amaliyotini yanada kuchaytirish va ularning ijrosini qat'iy monitoring qilish;
- maishiy zo'ravonlik va gender diskriminatsiyasiga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish va ijrosini ta'minlash.
- ayollar yetakchiligidagi startaplarni qo'llab-quvvatlash, texnoparklar va inkubatorlarda ular uchun imtiyozli sharoitlar yaratish;
- kompaniyalarda gender tengligini rag'batlantirish siyosatini yuritish;
- Turkmaniston va Tojikistonda gender va raqamli ko'rsatkichlarga oid statistik ma'lumotlarni ochiqlash bo'yicha xalqaro hamkorlik asosida monitoring tizimi joriy etish.
- barcha davlat va yirik xususiy tashkilotlarda gender audit o'tkazilishi majburiy etib belgilash;
- BMT, Jahon Banki va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda raqamli gender tafovutini qisqartirish bo'yicha qo'shma dasturlarni amalga oshirish;
- mintaqaviy tajriba almashinuvini tashkil etish va qo'shma loyihalar (masalan, qizlar uchun STEM dasturlari)ni muntazam yo'lga qo'yish.

23 UNICEF Girls across Central Asia lead the way in STEM https://www.unicef.org/eca/stories/girls-across-central-asia-lead-way-stem?utm_source=chatgpt.com

O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH VOSITALARI VA USULLARI

Nargiza Abdurashid qizi Suyunova – doktorant,
Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mantiqiy fikrlashning bugungi kundagi ahamiyati va uni rivojlantirish uchun yaratilayotgan shart sharoitlarga urg'u berilgan. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda tashqi ta'sir omillar va qator metodlar keltirilgan. Bundan tashqari yoshlarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish usullari berilgan. Mantiqiy va kreativ fikr yuritishni rivojlantirish uchun ta'lim jarayoniga bog'liq bo'lgan turli metodlar va xulosalar taqdim etilgan.

Аннотация. В данной статье подчеркивается важность логического мышления в современном мире и условия, создаваемые для его развития. Представлены внешние факторы влияния и ряд методов формирования навыков логического мышления учащихся. Кроме того, представлены методы развития творческого мышления у молодёжи. Представлены различные методы и выводы, связанные с образовательным процессом, направленные на развитие логического и творческого мышления.

Abstract: This article emphasizes the importance of logical thinking today and the conditions created for its development. External influencing factors and a number of methods are presented in the formation of students' logical thinking skills. In addition, methods for developing young people's creative thinking skills are given. Various methods and conclusions related to the educational process are presented to develop logical and creative thinking.

Kalit so'zlar: muammoli ta'lim, analitik fikrlash, tanqidiy fikrlash, interaktiv mashg'ulotlar, matematik va algoritmik tafakkur, ijodiy tafakkur, brainstorming, ijodiy o'yinlar, interdisiplinar yondashuv, moslashuvchanlik, ravonlik, yaratuvchanlik, refleksiya, amaliy tajriba.

Ключевые слова: проблемное обучение, аналитическое мышление, критическое мышление, интерактивные занятия, математическое и алгоритмическое мышление, творческое мышление, мозговой штурм, творческие игры, междисциплинарный подход, гибкость, безглость, креативность, рефлексия, практический опыт.

Keywords: problem-based learning, analytical thinking, critical thinking, interactive activities, mathematical and algorithmic thinking, creative thinking, brainstorming, creative games, interdisciplinary approach, flexibility, fluency, creativity, reflection, practical experience.

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o'qitish metodlari asosida bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bunday shart-sharoitlar natijasida o'quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatlariga katta e'tibor berilmoqda. Mantiqiy fikrlash insonning atrof-muhitni

tushunishi, muammolarni hal qilish va to'g'ri xulosa chiqarishi uchun muhim qobiliyatdir¹. Ayniqsa, Tanqidiy va mantiqiy fikrlash qobiliyati zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir.

Mantiqiy fikrlash – bu dalillar va faktlarga asoslangan holda, tahliliy va tizimli fikr yuritish qobiliyatidir. Bu qobiliyat insonlarga muammolarni hal qilish, mustaqil qaror qabul qilish va murakkab masalalarni tushunish imkonini beradi². Mantiqiy fikrlashni

1 Suyunova N.A. Ta'limda mantiq tushunchasi va o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. Muqallim xam uzliksez bilimlendiриy Илимий-методикалық журнал 2024 4/4–сан ISSN 2181-7138. 80–83 bet

2 Allayarova Soliha, Yodgorova Sehriyo. Acumen: International Journal of Multidisciplinary Research ISSN: 3060-4745. 2024 Volume 1, Issue 4

rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu borada quyidagi metod va usullar keng qo'llaniladi:

Muammoli ta'lim metodlari. Muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni yechish orqali o'quvchilarning fikrlash faoliyati faollashtiriladi. Bunda masalalarni turli yo'llar bilan hal qilish, muqobil qarorlar ishlab chiqish va fikrlar tahlili muhim ahamiyatga ega.

Analitik fikrlash mashqlari. Sillogizmlar, deduktiv tahlil mashqlari, mantiqiy boshqotirmalar va savollarga dalillangan javoblar orqali o'quvchilarda mantiqiy tahlil ko'nikmalari shakllantiriladi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish. Bahs-munozaralar, manbalarni solishtirish va masalalarga turli nuqtayi nazardan yondashish o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Interaktiv mashg'ulotlar va o'yinlar. Shaxmat, sudoku, rolli o'yinlar kabi faoliyatlar mantiqiy fikrlashni rag'batlantiradi va interaktiv muhit yaratadi.

Matematik va algoritmik tafakkurni rivojlantirish. Algebra-geometriya masalalari, dasturlash asoslari va algoritmik muammolar orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi yanada kuchaytiriladi.

Ijodiy tafakkurni qo'llab-quvvatlash. Muqobil yechimlar izlash, tasavvurni faollashtiruvchi topshiriqlar mantiqiy va ijodiy tafakkur o'rtasidagi integratsiyani kuchaytiradi.

Baholash va rag'batlantirish. Mantiqiy fikrlash darajasini aniqlovchi testlar, mustaqil fikrlashga undovchi mashg'ulotlar va natijalarga yarasha rag'bat tizimi bu jarayonni yanada samarali qiladi.

Albatta o'quvchilarning qobiliyatlari rivojlanishida atrofda insonlarning roli katta. Ularning vazifa va majburiyatlarini birma-bir ko'rib chiqsak.

O'qituvchilarning roli. O'qituvchilar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Buning uchun:

- o'quvchilarga mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish;
- dars jarayonida ochiq savollar berish;³
- tahliliy tafakkurni rivojlantirish uchun maxsus topshiriqlar tayyorlash kerak.

Ota-onalarning roli. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ota-onalar ham muhim rol o'ynaydi. Buning uchun:

- bolalar bilan mantiqiy suhbatlar tashkil qilish;
- kitob o'qish va muhokama qilish;
- turli xil mantiqiy o'yinlar o'ynash tavsiya etiladi⁴.

Mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish o'quvchilarning hayotiy muammolarni hal qilish, tanqidiy yondashish va mustaqil fikr yuritish imkoniyatlarini oshiradi. Yuqorida keltirilgan usullar orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish mumkin. O'qituvchilarning vazifasi esa ushbu jarayonga to'g'ri yo'nalish berish va o'quvchilarga mantiqiy fikrlash vositalarini o'rgatishdan iborat.

Mantiqiy fikr yuritish singari kreativ fikr yuritish ham yoshlar orasida keng tarqalgan qobiliyat turlaridan hisoblanadi. Kreativ fikr yuritish – bu yangi g'oyalarni yaratish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish jarayoni. Kreativ fikr yuritish nafaqat san'at yoki dizayn

3 Yodgorova Sehriyo. Keyslar asosida mantiqiy va kreativ fikr yuritish imkoniyatlarini rivojlantirishning uslubiy asoslari. Ilm-fan va innovatsiya Ilmiy amaliy konferensiya. <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/17435>.

4 Yodgorova Sehriyo. Keyslar asosida mantiqiy va kreativ fikr yuritish imkoniyatlarini rivojlantirishning uslubiy asoslari. Ilm-fan va innovatsiya Ilmiy amaliy konferensiya. <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/17435>.

sohalarida, balki ilm-fan, ta'lim, biznes va kundalik hayotda ham muhimdir⁵. Bu jarayon orqali yangi yechimlar topish va innovatsion g'oyalarni amalga oshirish mumkin.

1. Brainstorming: Talabalar g'oyalarni erkin muhokama qilish va takliflar berish uchun jamoaviy suhbatlar o'tkazishadi. Bu jarayon ijodiy fikrlarni rivojlantirishga yordam beradi.

2. Ijodiy o'yinlar: Tasavvurni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar va mashqlar. Masalan, g'oya generatorlari yoki fikrlarni ko'taruvchi o'yinlar orqali ijodiy yondashuvlarni qo'llash.

3. Interdisiplinar yondashuv: Turli fanlar va sohalarini birlashtirish orqali yangi g'oyalar yaratish. Bu yondashuv ko'plab muammolarga innovatsion yechimlar topishga yordam beradi.

Kreativlik sohasida "kreativlik otasi" sifatida tanilgan Pol Torrans to'rtta asosiy kreativlik ko'nikmasini ajratib ko'rsatgan. Uning tadqiqotlari bu ko'nikmalarni shakllantirish va baholash mumkinligini isbotlaydi. Ushbu ko'nikmalar quyidagilardan iborat:

Ravonlik (fluency) – ko'plab g'oyalarni ilgari surish qobiliyati; u "ko'p" degan tushunchaga asoslanadi.

Moslashuvchanlik (flexibility) – turli xil yondashuvlar va g'oyalarni ishlab chiqish ko'nikmasi; "o'zgartirish" g'oyasi bilan bog'liq.

O'ziga xoslik (originality) – noodatiy, boshqalarga o'xshamagan, noyob g'oyalarni yaratish salohiyati; "noyoblik" tamoyiliga tayanadi.

Yaratuvchanlik (elaboration) – ilgari surilgan g'oyalarni kengaytirish va rivojlantirish ko'nikmasi; "qo'shish" jarayoni bilan bog'liq.

Bu ko'nikmalar zamonaviy ta'limda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim mezonlar

sifatida qo'llaniladi.

Mantiqiy va kreativ fikr yuritishni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida quyidagi turli metodlarni qo'llash mumkin.

Interaktiv metodlar: Talabalar o'rtasida faol muloqotni rag'batlantirish. Guruhli ishlash va jamoaviy muhokamalar orqali fikr almashish imkoniyatini yaratish.

Amaliy tajriba: Real hayotiy vaziyatlarni o'rganish va muammolarni hal qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish. Bu jarayon talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashlariga yordam beradi.

Refleksiya: O'rganilganlarni baholash va fikrlarni jamlash jarayonini tashkil etish. Bu orqali talabalar o'z o'rganganlarini tushunadilar va kelajakda qanday qo'llashni bilishadi.

Mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning muammolarni hal qilish, tahlil qilish va asosli xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchining yondashuvi, metodikasi, professional kompetensiyasi hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi hal qiluvchi omillar hisoblanadi.

Bu jarayonda turli xil o'quv materiallari va resurslardan foydalanish tavsiya etiladi. Jumladan, matematik masalalar, logik topishmoqlar, mantiqiy ketma-ketliklar, diagrammalar, jadvallar, shuningdek interaktiv o'yinlar va simulyatsiyalar mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar (Mualliflar jamoasi, 2020) shuni ko'rsatadiki, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan masalalar o'quvchilarning sabab-oqibatni tahlil qilish va mustaqil qaror chiqarish salohiyatini oshiradi.

Shuningdek, raqamli ta'lim resurslari,

5 Maxamatova, F. (2020). Pedagogika fanini o'qitish jarayonida muommoli o'qitish texnologiyalaridan foydalanish. Arxiv Nauchnix Publikatsiy JSPI.

o'yinlashtirilgan platformalar va ta'limiy dasturlar o'quvchilarning mantiqiy faoliyatga jalb etilishini kuchaytiradi, diqqatni ushlab turadi va o'rganishga qiziqishni oshiradi. Shu bois, tanlanadigan resurslar o'quvchilarning yoshi, qiziqishi va ta'lim darajasiga mos bo'lishi, ularni faol fikrlash jarayonlariga jalb qilishi lozim. Bu esa mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish metodi o'quvchilarga real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va ularni hal etish uchun mantiqiy yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi⁶. Guruhda ishlash o'quvchilarning turli fikrlar almashinuvi orqali muammolarga ko'p qirrali yondashuvni shakllantiradi. Bunday jarayonlar muloqot madaniyatini rivojlantirish bilan birga, o'z fikrini asoslab ifodalash va boshqalarning fikrlarini tinglash ko'nikmasini ham mustahkamlaydi. Bu esa mantiqiy fikrlashni chuqurlashtirishda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, o'yin asosidagi ta'lim metodlari o'quvchilarning mantiqiy faoliyatini rag'batlantiradi, qiziqish va ichki motivatsiyani oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlardan samarali foydalanishda o'qituvchining faol roli alohida ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga yo'naltiruvchi savollar orqali rag'batlantirishi, muhokama jarayonini boshqarishi hamda xulosa chiqarish bosqichida metodik ko'mak berishi lozim.

Umuman olganda, interaktiv metodlar o'quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi, real hayotiy vaziyatlarda mustaqil yechim topish salohiyatini oshiradi va mantiqiy fikrlashni samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda o'yinlar va amaliy mashqlar muhim o'rin tutadi, chunki ular nafaqat ta'lim jarayonini qiziqarli va jalb qiluvchi qiladi, balki o'quvchilarga murakkab muammolarni hal qilish, xulosa chiqarish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini ham beradi⁷. O'yinlar va amaliy mashqlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan faol ishtirokini ta'minlaydi, diqqatni jamlashga yordam beradi va mantiqiy fikrlash qobiliyatining samarali rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayon, shuningdek, turli fikrlash usullarini sinab ko'rish, jamoada ishlash hamda o'zaro hamkorlik qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Natijada, o'quvchilar nafaqat mantiqiy, balki ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Bu esa ularni yangi g'oyalarni ilgari surishga va mavjud muammolarga yangicha yondashuv bilan yechim topishga undaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun kompleks pedagogik shart-sharoitlar zarur. Bular qatoriga qo'llab-quvvatlovchi ta'limiy muhit, samarali o'qitish metodlari, interaktiv va amaliy mashg'ulotlar, shuningdek, sifatli va moslashtirilgan o'quv materiallari kiradi.

O'qituvchilar uchun zarur bo'lgan professional kompetensiyalar o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi⁸. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va dasturiy ta'minotlar ta'lim jarayonining samaradorligi va interaktivligini oshirib, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa ularning umumiy o'quv faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va kelajakdagi professional muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

6 Maxamatova, F. (2020). Pedagogika fanini o'qitish jarayonida muammoli o'qitish texnologiyalaridan foydalanish. Arxiv Nauchnix Publikatsiy JSPI.

7 Qobilova, M.A. (2023). Boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi asosida mantiqiy fikrlashga o'rgatish. Research and education, 2(4), 339-342.

8 Suyunova N.A. "Advantages of logical-systemed teaching and some ways for improving it" Лучшие интеллектуальные исследования международный научный электронный журнал. ISSN: 3030-3680 часть-21 том-4 Май - 2024 год. 77-80 стр

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (TURIZM VA MEHMONDO'STLIK TA'LIM YO'NALISHI MISOLIDA)

Dilshod Rafiddin o'g'li Najmiddinov – doktorant,
O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya etish orqali bo'lajak mutaxassislarni (xususan, turizm va mehmondo'stlik sohasi misolida) kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Raqamli transformatsiya sharoitida professional tayyorgarlikning zarurati va uning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Bo'lajak kadrlar uchun raqamli ta'lim muhiti yaratishning didaktik shart-sharoitlari, prinsiplari va vositalari ko'rib chiqilib, mos model hamda metodika taklif etiladi. Pedagogik tajriba asosida raqamli texnologiyalar joriy etilgan holda o'qitish natijalari tahlil qilinadi va mazkur yondashuvning samaradorligi ko'rsatilib, uni amaliyotga tadbqiq etish bo'yicha xulosalar keltiriladi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования методики подготовки будущих специалистов к профессиональной деятельности на основе цифровых технологий (на примере сферы туризма и гостеприимства). Проанализирована необходимость профессиональной подготовки в условиях цифровой трансформации и ее теоретические основы. Рассмотрены дидактические условия, принципы и средства создания цифровой образовательной среды для будущих кадров, предлагаются соответствующие модель и методика. На основе педагогического эксперимента анализируются результаты обучения с внедрением цифровых технологий, демонстрируется эффективность данного подхода и приводятся выводы по его практической реализации.

Abstract. This article addresses the improvement of a methodology for preparing future specialists for professional activity based on digital technologies (exemplified by the tourism and hospitality sector). It analyzes the necessity of professional training in the context of digital transformation and its theoretical foundations. The didactic conditions, principles, and tools for creating a digital learning environment for future professionals are examined, and an appropriate model and methodology are proposed. A pedagogical experiment is described, with analysis of the learning outcomes when digital technologies are implemented, demonstrating the effectiveness of the approach and providing conclusions for its practical application.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar; bo'lajak mutaxassislar; kasbiy tayyorgarlik; turizm ta'limi; raqamli kompetensiya; innovatsion metodika.

Ключевые слова: цифровые технологии; будущие специалисты; профессиональная подготовка; туристское образование; цифровая компетентность; инновационная методика.

Keywords: digital technologies; future specialists; professional training; tourism education; digital competence; innovative methodology.

XXI asr raqamli texnologiyalar asriga aylangan bo'lib, barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham raqamlashtirish jarayoni jadal kechmoqda. Raqamli inqilob va Sanoat 4.0 sharoitida yuqori malakali, zamonaviy raqamli ko'nikmalarga ega mutaxassislar

tayyorlash dolzarb vazifaga aylandi¹. COVID-19 pandemiyasi esa bu jarayonni yanada tezlashtirib, oliy ta'lim muassasalarida onlayn ta'lim va raqamli texnologiyalarni ommaviy joriy etishga turtki bo'ldi². Ta'limni raqamlashtirish ta'lim jarayonlarini yangi pog'onaga ko'tarishga xizmat

1 Arango-Morales, A. J., et al., "Digital Competence of Tourism Students: Explanatory Power of Professional Training," European Journal of Investigation in Health, Psychology and Education, vol. 10, no. 1, pp. 310–326, 2019.

2 Çınar, K. "The Digital Revolution: Impact on Tourism Education," Journal of Tourism and Gastronomy Studies, vol. 8, no. 4, pp. 2417–2443, 2020.

qilishi va mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashni ta'minlashi kutilmoqda³. Ayniqsa, iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan turizm va mehmondo'stlik sohasida raqamli yechimlar va innovatsion yondashuvlar orqali kadrlar tayyorlash katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'limni raqamlashtirish bo'yicha qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular raqamli ta'limni rivojlantirishning huquqiy va tashkiliy asosini belgilab bermoqda. Jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi tahririda ta'lim jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish, raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanish va masofaviy ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Shuningdek, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son Prezident qarori ("Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida") da barcha sohalarda, jumladan ta'lim tizimida ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etish vazifasi belgilab berilgan. Bundan tashqari, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida raqamli bilim va ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash, ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish hamda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish davlatning strategik maqsadlaridan biri sifatida qayd etilgan.

Mazkur hujjatlar, shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi bilan uyg'un holda, ta'lim jarayonini raqamlashtirish, uning sifati va samaradorligini oshirish, talabalarni global raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashni nazarda tutadi. Ayniqsa,

iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan turizm va mehmondo'stlik sohasida raqamli yechimlar va innovatsion yondashuvlar orqali kadrlar tayyorlash katta ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni murakkab pedagogik tizim bo'lib, uni samarali tashkil etishda raqamli texnologiyalarning o'rni tobora ortib bormoqda. Mazkur jarayonning muvaffaqiyati, avvalo, kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limning nazariy va metodik asoslarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. O.Turakulov rahbarligida olib borilgan tadqiqot ishida qayd etilishicha, bo'lajak energetik muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda raqamli texnologiyalar integratsiyasi pedagogik-tashkiliy, pedagogik-psixologik, predmetli-tashkiliy va dasturiy-metodik shart-sharoitlar majmuida amalga oshirilishi zarur. Aynan shu omillar orqali ta'lim jarayonida resursli, integrativ hamda tashkiliy-boshqaruv funksiyalarini samarali bajarish mumkinligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, O.Turakulovning "Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida ta'limni boshqarish" nomli metodik qo'llanmasida ta'lim jarayonini raqamli muhitda boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslari batafsil yoritilgan bo'lib, unda axborotlashtirilgan muhit sharoitida kasbiy tayyorgarlikni tashkil etishning samarali metodikasi ishlab chiqilgan⁴. Bu yondashuv, ayniqsa, bo'lajak mutaxassislarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishda, mustaqil bilim olish va muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm ta'limida raqamli texnologiyalarni qo'llash talabalar va o'qituvchilar uchun bir qator afzalliklar yaratib, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishi mumkinligi tadqiqotlar natijasida tasdiqlangan⁵.

3 Hafizov H.A. Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish (Energetika yo'nalishi misolida), PhD dissertatsiyasi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filial.

4 Turakulov O.X. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida ta'limni boshqarish. Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.

5 Çınar, K. "The Digital Revolution: Impact on Tourism Education," Journal of Tourism and Gastronomy Studies, vol. 8, no. 4, pp. 2417–2443, 2020.

Jumladan, ta'lim jarayonida raqamli vositalardan foydalanish natijasida masofaviy va vaqtdan mustaqil o'qish imkoniyati, muhim kasbiy va texnik ko'nikmalarni shakllantirish, talabalar faoliyatini monitoring qilish va fikr-mulohaza berish, talabalarda o'z-o'zini intizomga o'rgatish hamda darslarni o'tkazishga sarflanadigan vaqtni qisqartirish kabi afzalliklar kuzatiladi⁶. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish o'quvchilarning ishtirokini faollashtirishi mumkin, biroq ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun raqamli savodxonlikni oshirish masalasi hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Biroq, yangi avlod talabalarining texnologiyadan kundalik foydalanishiga qaramay, ularning ayrim raqamli kompetensiyalari yetarli darajada rivojlanmagan bo'lishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy talabalar mobil qurilmalar va onlayn platformalardan bemalol foydalansalar-da, diqqatni jamlash, muammo yechish va samarali o'rganish kabi jihatlarda kamchiliklarga ega bo'lishi mumkin⁷. Shu sababli oliy ta'lim muassasalari oldida turgan muhim vazifa – bu bo'lajak mutaxassislarning raqamli kompetensiyalarini har tomonlama shakllantirish va ularda tanqidiy fikrlash, ijodiy muammo yechish, samarali muloqot qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishdir. Raqamli bilim va ko'nikmalarni shakllantirish nafaqat texnik vositalarni boshqarishni, balki yuqori tartibli kognitiv jarayonlarni ham o'z ichiga oladi – ya'ni, texnologik muhitda mustaqil o'rganish, muammolarni hal qilish va moslashish qobiliyatini rivojlantirish talab etiladi.

Shu nuqtayi nazardan, ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llashning nazariy asoslari, didaktik imkoniyatlari va cheklolarini o'rganish hamda samarali usullarni joriy etish bugungi kunda dolzarbdir. Xalqaro va mahalliy ilmiy manbalarda raqamli pedagogikaning afzalliklari va muammolari keng yoritilgan. Xususan, tadqiqotlar ta'lim jarayonida multimedia va interaktiv vositalardan foydalanish talabalarining ijodkorligi, innovatsion fikrlashi hamda o'zaro kommunikatsiyasini yaxshilashini tasdiqlaydi⁸. Raqamli texnologiyalar o'qituvchilarga ta'lim strategiyalarini takomillashtirish, turli o'quv uslublarini qamrab olish va o'quv jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, global tajriba shuni ko'rsatadiki, zamonaviy raqamli yechimlarni o'quv jarayoniga joriy etish jarayonida ayrim qiyinchiliklar ham mavjud. Masalan, ko'p madaniyatli auditoriyalarda onlayn ta'limda talabalar o'rtasidagi texnologik tafovutlar va imkoniyatlar notengligi muammolari kuzatilgan – turli kelib chiqqan talabalar orasida raqamli texnologiyalarni egallash darajasi turlicha bo'lgani sababli, raqamli muhitda ta'limni tashkil etishda noqulayliklar yuzaga kelishi mumkin⁹. Biroq talabalar umuman olganda innovatsion texnologiyalar ularning kelgusi kasbiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini va foyda keltirishini e'tirof etganlar¹⁰.

Yuqoridagi omillar raqamli texnologiyalar asosida kasbiy ta'lim jarayonini tashkil etish metodikasini puxta ishlab chiqish va takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Quyida mazkur masalaning nazariy va amaliy jihatlari – didaktik shart-sharoitlari, prinsiplari, model

6 Çınar, K. "The Digital Revolution: Impact on Tourism Education," *Journal of Tourism and Gastronomy Studies*, vol. 8, no. 4, pp. 2417–2443, 2020.

7 Arango-Morales, A. J., et al., "Digital Competence of Tourism Students: Explanatory Power of Professional Training," *European Journal of Investigation in Health, Psychology and Education*, vol. 10, no. 1, pp. 310–326, 2019.

8 M., Bahçelerli Nesrin. The role of innovative technology in multicultural vocational tourism education *Frontiers in Psychology* Volume 14 - 2023 2023 <https://www.frontiersin.org/journals/psychology/articles/10.3389/fpsyg.2023.1091881> DOI=10.3389/fpsyg.2023.

9 M., Bahçelerli Nesrin. The role of innovative technology in multicultural vocational tourism education *Frontiers in Psychology* Volume 14 - 2023 2023 <https://www.frontiersin.org/journals/psychology/articles/10.3389/fpsyg.2023.1091881> DOI=10.3389/fpsyg.2023.

10 M., Bahçelerli Nesrin. The role of innovative technology in multicultural vocational tourism education *Frontiers in Psychology* Volume 14 - 2023 2023 <https://www.frontiersin.org/journals/psychology/articles/10.3389/fpsyg.2023.1091881> DOI=10.3389/fpsyg.2023.

va metodikasi – batafsil bayon etiladi.

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash – bu murakkab pedagogik jarayon bo'lib, uning muvaffaqiyati raqamli kompetensiyalarni shakllantirish va baholash usullarining samaradorligiga bog'liq. Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish nazariy asoslarni qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Avvalo, "raqamli kompetensiya" atamasini aniqlash zarur. Sheraliyev Odiljon Shuxratjon o'g'li "Talabalarda raqamli kompetensiyani rivojlantirishning metodik ta'minoti" nomli maqolasida "raqamli kompetensiya" tarkibiy qismlarini, shu jumladan axborot savodxonligi, raqamli muloqot vositalari, tadqiqot metodlarini tahlil qilgan¹¹.

8. "Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari," Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 2024. Z.Maxkamova.

I.Raxmatov va Sh.Raxmatovalar "Raqamli ta'lim muhitida pedagoglarni samarali ishlashi uchun kompetensiyalarni shakllantirish" maqolalarida esa pedagogning raqamli kompetensiyalari – ta'limni raqamlashtirish orqali pedagog faoliyatining sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishini ta'kidlaydilar¹².

Bundan tashqari, Z.Maxkamova "Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari" maqolasida raqamli kompetensiyalarni baholash usullarini, elektron portfolio, virtual reallik va geymifikatsiya kabi innovasion

baholash vositalarini o'rgangan¹³.

Shuningdek, J.Isroilov va boshqalar "Professor-o'qituvchilarning pedagogik raqamli kompetentsiyasi" maqolalarida raqamli kompetentsiyaning keng hamda kompleks talqinini – pedagoglarning turli muhitlardagi axborot-kommunikatsion ko'nikmalarini – tahlil qiladilar¹⁴.

Ta'lim jarayonida raqamli muhitni yaratish va undan samarali foydalanish uchun muayyan didaktik shart-sharoitlar ta'minlanishi zarur. Ilmiy manbalarda didaktik shart-sharoitlar deganda, odatda, ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydigan tashkiliy-pedagogik omillar tushuniladi. Raqamli ta'lim uchun bunday shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi: zamonaviy axborot-kommunikatsiya infratuzilmasining mavjudligi (kompyuterlar, internet tarmog'i va boshqalar), elektron o'quv resurslari va platformalarning joriy etilishi, pedagog kadrlarning raqamli savodxonligi va malakasi, o'quv reja va dasturlarning raqamli texnologiyalarni integratsiya qilishga mos holda takomillashtirilishi, hamda talabalarni motivatsiyalash va mustaqil o'qishga undovchi muhitning yaratilishi. Tadqiqotchilar raqamli texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchilarning metodik ko'magi va o'quv dasturlarining moslashuvi yetishmasligi talabalarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishda to'siq bo'lishini ta'kidlaydilar¹⁵. Shu bois, raqamli ta'limni joriy etishda nafaqat texnik, balki pedagogik va tashkiliy jihatlar ham e'tiborga olinishi lozim.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim

11 Sheraliyev O.S. "Talabalarda digital kompetensiyani rivojlantirishning metodik ta'minoti," Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, vol. 2, no. 2, 2023.

12 Raxmatov I.I. and Raxmatova Sh.I. "Raqamli ta'lim muhitida pedagoglarni samarali ishlashi uchun kompetensiyalarni shakllantirish," Science and Education, 2023.

13 Maxkamova Z. "Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari," Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 2024.

14 Isroilov J.D., Abdullayev M.M. and Oripov A.A. "Professor-o'qituvchilarning pedagogik raqamli kompetensiyasi dunyo tajribasi va tahlili," Conference Proceedings "Raqamli Iqtisodiyot va Sun'iy Intellekt Texnologiyalarining Jamiyat Rivojlanishidagi Ahamiy.

15 Arango-Morales, A.J., et al., "Digital Competence of Tourism Students: Explanatory Power of Professional Training," European Journal of Investigation in Health, Psychology and Education, vol. 10, no. 1, pp. 310–326, 2019.

jarayonining sifatini oshirishi uchun u qanday didaktik prinsiplarga tayanishi lozim degan savolga javob beramiz. Avvalo, moslashuvchanlik va shaxsiylashtirish prinsipi muhim hisoblanadi, chunki raqamli muhit har bir talabaning individual sur'ati va ehtiyojlariga mos o'qish yo'nalishini (individual o'quv marshrutini) shakllantirishga imkon beradi. Ikkinchidan, interaktivlik va hamkorlik prinsipini qo'llash lozim, zero raqamli vositalar o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro aloqani kuchaytirishi, shuningdek talabalar o'rtasida guruh hamkorlikni rivojlantirishi lozim. Haqiqatan ham, raqamli texnologiyalar faqat qurilmalarni qo'llash bilangina cheklanib qolmay, balki o'qituvchi-talaba munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqib, ta'lim jarayonining interaktivligi va samaradorligini oshiradi¹⁶. Uchinchidan, ko'rgazmalilik va multimedialilik prinsipi hisoblanadi, ushbu prinsip orqali raqamli texnologiyalar asosida o'quv materiallarini audio, video, animatsiya va interaktiv modellash kabi multimediya vositalari yordamida ko'rgazmali yetkazish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, multimedia texnologiyalari o'quvchilarning darsga qiziqishini orttirib, ularning ijodiy fikrlashi va muammoni hal qilish qobiliyatini kuchaytiradi¹⁷. To'rtinchidan, fikr-mulohaza va monitoring prinsipi, ya'ni qayta aloqa. Raqamli platformalar talabalar bilimini muntazam nazorat qilib borish, ularning yutuq va kamchiliklarini tezkor tahlil qilish va o'z vaqtida aloqaga kirishish imkoniyatini beradi. Bu esa talabaning o'zlashtirish jarayonini yaqindan kuzatish va kerakli paytda pedagogik yordam ko'rsatishga sharoit yaratadi. Shuningdek, raqamli muhit talabalarda o'zini o'zi boshqarish va mas'uliyat hissini oshiradi – masofaviy va onlayn tahsil olishda muvaffaqiyatga erishish uchun talaba o'z o'qishini o'zi rejalashtirib,

intizomli bo'lishi talab etiladi. Shu tariqa, raqamli texnologiyalar asosidagi ta'lim prinsiplari talabalarning faolligini oshirish, ularni ijodkor va mustaqil fikrlovchi, texnologiyani ijodiy maqsadlarda qo'llay oladigan shaxslarga aylantirishga qaratilgandir.

Ta'lim jarayonlarini raqamli qurilmalar va platformalar asosida tashkil etishda turli zamonaviy pedagogik yondashuv va modellar ishlab chiqilmoqda. Ularning biri sifatida, masalan, PICRAT modelini keltirish mumkin. Ushbu model raqamli texnologiyalar integratsiyasining o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga ta'sirini ikki o'lchamda tavsiflaydi: PIC (Passive–Interactive–Creative) talabaning raqamli texnologiyalarga nisbatan faoliyat darajasini ifodalasa, RAT (Replacement–Amplification–Transformation) o'qituvchining dars berish amaliyotida texnologiya qanday o'zgarish yasashini ko'rsatadi¹⁸. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, PICRAT modeli bo'lajak pedagog kadrlarni raqamli texnologiyalarni qo'llashga o'rgatishda foydali vosita bo'lib, u texnologiyani maqsadga erishishning oddiy vositasi sifatida emas, balki o'quv jarayonini tubdan boyituvchi omil sifatida qarashga undaydi. Umuman olganda, bunday nazariy yondashuvlar raqamli ta'limning turli jihatlarini tizimli tushunishga yordam beradi va bizning tadqiqotimizda ishlab chiqilgan model uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Mazkur tadqiqot doirasida bo'lajak mutaxassislarni raqamli texnologiyalar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha integrativ model va metodika taklif etildi. Modelni ishlab chiqishda yuqorida ta'kidlangan nazariy prinsiplar hamda amaliy tajribalar inobatga olindi. Modelning tarkibiy qismlari sifatida maqsad, mazmun, usullar, vositalar va natija

16 Axadova, K.S. "Raqamlashtirish jarayonida muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash ilmiy muammo sifatida," Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2023.

17 M., Bahçelerli Nesrin. The role of innovative technology in multicultural vocational tourism education *Frontiers in Psychology* Volume 14 - 2023 2023 <https://www.frontiersin.org/journals/psychology/articles/10.3389/fpsyg.2023.1091881> DOI=10.3389/fpsyg.2023.

18 Jo'rayev M.M. "Raqamli ta'lim muhitida PICRAT modeli asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalari," Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan – ta'lim – ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari mavzusi.

bloklari ajratildi.

Model maqsadi – raqamli texnologiyalar vositasida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni tanlagan sohasida (turizm va mehmondo'stlik yo'nalishida) raqobatbardosh va innovatsion fikrlovchi mutaxassis sifatida tayyorlashdan iborat.

Mazmun qismi o'quv dasturlariga raqamli texnologiyalar bilan bog'liq mavzular, raqamli savodxonlik elementlari va sohaga oid axborot texnologiyalari bo'yicha bilimlarni integratsiya etishni nazarda tutadi. Xususan, turizm ta'lim yo'nalishida elektron turizm (e-tourism), onlayn rezervatsiya tizimlari, raqamli marketing, virtual sayohatlar va boshqa sohaga xos raqamli yechimlar bo'yicha maxsus modullar kiritilishi mumkin. Bu bo'lajak mutaxassislarning kasbiy bilimlarini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan boyitadi.

Usullar va shakllar blokida talabalarning raqamli muhitda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan interaktiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'zda tutiladi. Masalan, masofaviy ta'lim platformalari (Moodle, Google Classroom va h.k.), virtual laboratoriyalar va trenajyorlar, onlayn o'yinlar va simulyatorlar, veb-kvestlar, loyiha asoslangan o'qitish usullari kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi. Ilmiy tadqiqotlar masofaviy ta'limda virtual laboratoriyalarni qo'llash talabalarning amaliy ko'nikmalarini oshirishda samarali ekanini ko'rsatmoqda¹⁹. Shu bois, bizning metodikada nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun virtual muhitda amaliy mashg'ulotlar tashkil etish alohida o'rin tutadi.

Vositalar deganda, bevosita qo'llaniladigan raqamli texnologik vositalar tushuniladi – kompyuterlar, planshet va smartfonlar, yuqori tezlikdagi internet, mul'timedia proyektorlar,

elektron doskalar, shuningdek, ta'limiy dasturiy ta'minotlar va platformalar. Bundan tashqari, turizm sohasiga xos vositalar – masalan, geografik axborot tizimlari (GIS) asosida ishlovchi trening dasturlari, 3D virtual sayohat platformalari – ham o'quv jarayoniga integratsiya qilinishi ko'zda tutiladi.

Taklif etilgan metodika asosida o'quv jarayonini tashkil etish quyidagicha kechadi: har bir mavzuni o'qitishda an'anaviy usullar raqamli resurslar bilan integratsiya qilinadi. Masalan, ma'ruza darslarida muallim slaydlar, animatsiyalar, video lavhalar orqali mavzuni tushuntiradi, seminar va amaliy mashg'ulotlarda esa talabalar guruhlariga bo'linib, onlayn platformalarda mini-loyihalar ustida ishlaydi, virtual trenajyorlarda mashq bajaradi yoki biznes o'yinlar orqali turli situatsiyalarni yechadi. Dars jarayonida "blended learning" (aralash ta'lim) tamoyiliga amal qilinib, auditoriyada olib boriladigan faoliyat onlayn mustaqil ishlar bilan qo'shib olib boriladi. Masofaviy ta'lim elementlari sifatida videodarslar, vebinarlar va masofaviy maslahatlar yo'lga qo'yiladi. Baholash tizimi ham raqamli platformaga asoslangan bo'lib, oraliq test sinovlari, onlayn viktorinalar, elektron portfoliolar shaklida olib boriladi. Bu talabalarga o'z natijalarini real vaqt rejimida kuzatib borish va ustozlardan tezkor fikr-mulohaza olish imkoniyatini beradi.

Yuqoridagi model va metodika qo'llanilish shartlari sifatida quyidagilar belgilandi: professor-o'qituvchilarni raqamli texnologiyalarni qo'llashga o'qitish va ularga metodik ko'mak berish (malaka oshirish), ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash (yaxshi texnika va internet bilan ta'minlash), hamda o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqib, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan elementlarni kiritish. Shu shartlar bajarilgandagina, model kutilgan natijani berishi

19 Axadova K.S. "Raqamlashtirish jarayonida muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash ilmiy muammo sifatida," Образование и инновационные исследования, №. 9, 2023.

kutiladi, aks holda raqamli texnologiyalar joriy etish yuzaki bo'lib qolishi va o'quv jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsata olmasligi mumkin.

Taklif etilgan metodikaning samaradorligini tekshirish maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tajriba turizm va mehmondo'stlik ta'lim yo'nalishi talabalari ishtirokida tashkil etildi. Unda bir guruh (eksperimental guruh) talabalari o'quv jarayoniga to'liq raqamli texnologiyalar integratsiya qilingan holda ta'lim oldi, nazorat guruhi esa an'anaviy usulda davom etdi. Tajriba davomiyligi bir semestrni tashkil etdi va uning davomida har ikkala guruhning bilim olish natijalari, faollik darajasi, motivatsiyasi va amaliy ko'nikmalarining shakllanishi kuzatib borildi.

Tajriba yakunida o'quv natijalari taqqosiy tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar tatbiq etilgan guruhda talabalar ancha faollashgan, ularning o'qishga qiziqishi sezilarli darajada oshgan. Xususan, darslarga davomat va ishtirok darajasi eksperimental guruhda nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'ldi (mos ravishda 95% va 82%). Talabalarining ijodiy va tashabbuskorlik ko'rsatkichlari ham ortdi – eksperimental guruh talabalarining 87% semester davomida kamida bitta mustaqil raqamli loyiha (masalan, turizm obyektiining virtual taqdimoti yoki blog posti) tayyorlagan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 60% atrofida bo'ldi.

Bundan tashqari, raqamli muhitda ishlash talabalarining ayrim kasbiy ko'nikmalarini ham rivojlantirgani aniqlandi. Masalan, turizm yo'nalishi talabalari uchun muhim bo'lgan mijozlar bilan onlayn muloqot olib borish, onlayn marketing va axborotlarni tez izlash qobiliyatlari bo'yicha maxsus topshiriqlar berildi. Natijada eksperimental guruh talabalari ushbu topshiriqlarda 15% yuqoriroq ball to'plashdi. Yakuniy nazorat imtihonlari natijalari ham eksperimental guruh foydasiga ijobiy farq ko'rsatdi – ularning o'rtacha balli nazorat

guruhiga qaraganda 8% yuqori bo'ldi.

Talabalardan va o'qituvchilardan so'rovnoma orqali fikr-mulohazalar ham olindi. Eksperimental guruh talabalari raqamli texnologiyalar bilan o'qish jarayoni qiziqarliroq va qulayroq kechganini, o'z bilimini oshirish uchun ko'proq mustaqil izlanishga undaganini ta'kidlashdi. Shuningdek, ular masofaviy platformalar orqali o'qituvchilarga savollar berish va hamkorlikda ishlash imkoniyati mavjudligini ijobiy baholashdi. O'qituvchilar esa raqamli vositalar yordamida dars o'tishda talabalar bilan o'zaro samarali hamkorlik kuchayganini qayd etdilar. Raqamli texnologiyalar o'qituvchi va talabaning samarali hamkorlikdagi ta'lim faoliyatini ta'minlovchi vosita ekani yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

Umuman olganda, tajriba-sinov natijalari taklif etilgan metodikaning yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Yangi yondashuv ta'lim jarayonining turli jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi: talabalarining o'qishga bo'lgan qiziqishi oshdi, ularning amaliy ko'nikmalari va ijodkorligi rivojlandi, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish layoqati mustahkamlandi. Misol uchun, raqamli texnologiyalar joriy qilingan darslarda talabalar o'z fikrlarini erkin va muntazam ifoda eta boshlagani, o'ziga ishonchi ortgani, ijodiy va biznes ko'nikmalari shakllangani kuzatildi. Bu o'z navbatida, innovatsion bilim darajasining oshishiga olib keldi. Shu tariqa, eksperiment mazkur metodikaning nafaqat nazariy jihatdan asosli, balki amaliy jihatdan ham samarali ekanini isbotlab berdi.

Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash zamonaviy ta'lim tizimi uchun strategik ahamiyatga ega vazifadir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli vositalarni o'quv jarayoniga samarali integratsiya qilish talabalarining o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, ularning kasbiy kompetensiyalarini tezroq shakllantiradi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois kelgusida bir qator

amaliy choralarni amalga oshirish zarur. Avvalo, pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyasini muntazam rivojlantirish uchun maxsus kurslar va malaka oshirish dasturlarini joriy etish lozim. Shuningdek, ta'lim infratuzilmasini zamonaviy texnika va yuqori tezlikdagi internet bilan ta'minlash, o'quv dasturlariga sohaga oid raqamli modullarni kiritish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda raqamli muhitda ishlash madaniyatini shakllantirish, ya'ni onlayn muloqot, vaqtni boshqarish va akademik intizomni mustahkamlashga qaratilgan trening va amaliy mashg'ulotlar tashkil etish ham dolzarbdir. Shuningdek, elektron portfoliolar, onlayn testlar va virtual loyihalar asosida baholash tizimini keng joriy etish, talabalarga muntazam fikr-mulohaza berish ta'lim samaradorligini oshiradi. Xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish esa ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan yanada samarali foydalanish imkonini yaratadi. Umuman olganda, raqamli

texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilishning asosiy maqsadi – bu vositalardan foydalanib, yuqori sifatli ta'lim va mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdir. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuvni to'g'ri metodika asosida qo'llash katta samaradorlik berishini ko'rsatdi hamda uni boshqa ta'lim yo'nalishlarida ham keng qo'llash maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilish – bu vosita, undan maqsad yuqori sifatli ta'lim va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdir. Tadqiqot natijalari ushbu vositani to'g'ri metodika asosida qo'llash katta samara berishini ko'rsatdi. Kelgusida boshqa ta'lim yo'nalishlarida ham shunday yondashuvlarni qo'llash, olingan natijalarni taqqoslash va tajribani ommalashtirish maqsadga muvofiqdir. Raqamli transformatsiya davrida ta'limni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish va undan maksimal foyda olish – bugungi kun talabi, va bu yo'lda olib boriladigan izlanishlar doimo davom etadi.

"AMERIKA FOJIASI" ROMANINING SUJET XUSUSIYATI

Rixsimurod Normatov – tayanch doktorant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Maqolada T.Drayzerning "Amerika fojeasi" romani tahlilga tortilgan. Unda badiiy syujet qurilishi, uning poetik unsurlari tadqiq etilgan. Roman voqealarining xronologik tadqiqi, bayon qilinishi, qismlarga bo'lib ifoda etilishiga e'tibor qaratilgan. Roman trilogiyaning bosh syujeti hamda uning turli shahobchalari misollar yordamida atroflicha talqin qilingan.

Аннотация. В статье анализируется роман Т. Драйзера «Американская трагедия». Изучается построение сюжета, его поэтические элементы. Уделяется внимание хронологическому изучению событий романа, их описанию и разделению на части. На примерах подробно анализируется основной сюжет романной трилогии и его ответвления.

Abstract. The article analyzes T. Dreiser's novel "An American Tragedy". It studies the construction of the plot, its poetic elements. Attention is paid to the chronological study of the events of the novel, their description, and their division into parts. The main plot of the novel trilogy and its various branches are interpreted in detail using examples.

Kalit so'zlar: roman janri, badiiy syujet, xronologik syujet, badiiy konflikt, syujet unsurlari, syujet dinamikasi, obrazlar tizimi, qahramon obrazi.

Ключевые слова: жанр романа, сюжет, хронологический сюжет, конфликт, элементы сюжета, динамика сюжета, образная система, образ героя.

Keywords: novel genre, plot, chronological plot, conflict, plot elements, plot dynamics, image system, hero image.

Roman kompozitsiyasi epik tafakkur tizimida o'zining salmoqdorligi, poetik ko'lami va o'tmishdan shakllanib, yangilanib kelgani bilan alohidalik kasb etadi. Romanda badiiy syujet kompozitsiyasi, obrazlar tizimi, poetik bayon shakli ayni hodisani yuzaga kelishida muhim sanaladi. Bundan tashqari, miniroman, roman dialogiya, roman trilogiya, roman tetralogiya, roman pentalogiya va roman epopeya kabi qator janr turlariga muvofiq badiiy kompozitsiya sathi torayib yoki kengayishi ham mumkin. Ammo shuni ham aytish kerakki, roman kompozitsiyasi deganda uning tipologik xususiyatlarini ham qayd qilish lozim. Bunda yozuvchining g'oyaviy-badiiy konsepsiyasi, roman tafakkuri, ijtimoiy davr tasviri, syujet dinamikasi va uning poetik qurilishi, obrazlar tizimi, oshiq-ma'shuqa va raqib uchligi, qahramon xarakterini shakllanish jarayoni inson va jamiyat munosabati, badiiy xronotop ifodasi va uning epik ko'lami singari bir qancha poetik komponentlarning an'anaviy va noodatiy ifoda yo'sini tipologik ma'no kasb etadi. Aytaylik, romanda yozuvchining ijodiy niyati

hikoya va qissanikiga qaraganda ko'p qirrali hamda obyektivligi bilan farqlanadi. Ya'ni ijodiy niyatga muallifning subyektiv nuqtayi nazarini emas, obyektiv mulohazasi va uning shaxsiyati, hayot haqidagi qarashlari namoyon bo'ladi. Shu bois, yaxshi roman janri namunasini yaratishda muallifdan ulkan tajriba, poetik mahorat talab qilinadi. Qachonki, roman tafakkuri pishib yetilgan yozuvchi ijodida bu tipdagi janrning sara namunalari yaratiladi.

O'zbek adabiyotshunosligida Matyoqub Qo'shjonov, Izzat Sulton, Dilmurod Quronov, Komiljon Hamroyev singari tadqiqotchilar epik asar kompozitsiyasiga doir turli qarashlarni o'rtaga tashlaydilar. Xususan, M.Qo'shjonov Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz", Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning "Qutlug' qon", Abdulla Qahhorning "Sarob" romanlari kompozitsiyasini tahlilga tortadi. Adabiyotshunos badiiy kompozitsiya hodisasini yoritishda san'atkorning diqqat markazi, qismlarning joylashtirilishi, muvofiqlik, tasvirda me'yor,

obrazlar birligi masalasiga e'tibor qaratadi. Roman kompozitsiyasining tashqi qurilishi, san'atkorning diqqat markazi, qismlarning joylashtirilishiga qarab tadqiq qilinsa, uning ichki strukturasidagi bog'lanishlar muvofiqlik, tasvirda me'yori, obrazlar birligi doirasida tekshiriladi. Olim yozadi: "Kompozitsiya – asarda ijodkor diqqat markazining yaqqolliqi, badiiy g'oyaning aniqligi, shunga nisbatan asardagi katta va kichik qismlar hamda obrazlarning joy-joyiga qo'yilishi va ularning tasvir me'yori va maqsadga muvofiqligidir"¹.

Yana bir adabiyotshunos D.Quronov badiiy kompozitsiya hodisasini adabiy turlar doirasida o'rganadi. Bulardan epik asar kompozitsiyasining tipologik komponent sifatida quyidagilarga diqqat qaratadi: badiiy matn kompozitsiyasi, syujet kompozitsiyasi, vaqt, zamon, roviy, obrazlar tizimi, personajlar va nuqtayi nazar kompozitsiyasi shular jumlasidandir. "Epik asar kompozitsiyasining o'zagini syujet tashkil qiladi. Bu tabiiy ham. Negaki, voqeabandlik – epik asar tabiatini belgilovchi xususiyat, bu turdagi asarlar makon va zamonda kechuvchi voqealarni hikoya qilish asosiga quriladi. Ilgari aytilganidek, fabula voqealarning tabiiy oqimi bo'lsa, syujet ularning muayyan maqsadga muvofiq qayta tartiblangan, ya'ni badiiy qayta ishlangan shaklidirki, shu bois ayrim manbalarda "fabula" o'rniga "syujet", "syujet" o'rniga "syujet kompozitsiyasi" termini ishlatiladi. Ya'ni syujet haqida aytilgan gaplarning aksariyati mohiyatan syujet qurilishi – kompozitsiyasi haqidagi gaplardir"². Bundan tashqari adabiyotshunos o'zining "Cho'lpon nasri poetikasi" nomli tadqiqotida ham roman kompozitsiyasi haqida alohida to'xtalib o'tadi. Unda Cho'lponning "Kecha" romani kompozitsiyasi quyosh sistemasi bilan qiyosan tadqiq qilinadi. Ya'ni quyosh sistemasidagi sayyoralar ning joylashuv tarzi, ularning yagona markaz bilan mustahkam

bog'lanishi xuddi roman personajlarining yozuvchi konsepsiyasiga muvofiq harakat qilishiga mengzamadi. Ko'rinadiki, roman kompozitsiyasi sathida badiiy syujet va obrazlar tizimi muhim komponent bo'lish bilan birga janr poetikasi hamda tipologik xususiyatlarini belgilashda alohida ahamiyat kasb etishi ko'zga tashlanadi. Shu ma'noda, "Amerika fojiasi" va "Odam bo'lish qiyin" romanlarida badiiy syujet va obrazlar tizimi asar kompozitsiyasini tadqiq etishda muhim sanaladi. Bu esa, romanlarda syujet va obraz tipologiyasini o'rganishga zamin yaratadi. Ayni romanlar kompozitsiyasiga xos tipologik jihatlar quyidagilarda bo'rtib ko'rinadi.

1. Roman kompozitsiyasini shakllantirishda biografik omilning yetakchiligi.

Bunda yozuvchining hayotiy tutumi, ijod laboratoriyasi, badiiy rejasi, boshdan kechirganlari, ijtimoiy davr yuki muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir yozuvchi katta janr namunasini yozishga kirisharkan, ijodiy potensialini oshirishga e'tibor qaratadi. O'zining badiiy g'oyasiga muvofiq keluvchi syujet sxemasini topishga e'tibor beradi, syujet sxemasini izlaydi. Romanda yozuvchining umr bo'yi to'plagan tajribasi, ko'rgan-kechirganlari, dunyoqarashi va shaxsiyati aks etadi. Masalan, Said Ahmad o'zining "Topganlarim va yo'qotganlarim" kitobida bu romanning yuzaga kelishi xususida yozadi.

2. Roman voqeasini qismlarga bo'lib bayon qilish. Ikkala asarda ham voqealar tizmasi muayyan qismlarda joylashtirilgan. Bu esa, roman kompozitsiyasini tashkil etishda bir qancha poetik vazifani bajargan. Xususan, yozuvchining badiiy syujet tizimida voqeadan voqeaga o'tish, roman kartinasini mozaikalashtirish, asar yalpi garmoniyasini qismlarga bo'lib ifodalash singari jihatlar shular jumlasidan sanaladi. "Amerika fojiasi" 23 ta qismdan tashkil topgan bo'lsa,

1 Кушжонов М. Сайланма. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. – Б.255.

2 Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Т.: Akademnashr, 2018. – Б.185.

“Odam bo‘lish qiyin” romani voqeasi 17 ta qismga bo‘lib bayon qilinadi.

3. Romanlarda bayon tipologiyasi. Bunda roman voqealari xronologik syujet sxemasida bayon qilinishi nazarda tutiladi. Ikkala asarda ham syujet kompozitsiyasi tipologik ko‘rinish kasb etadi. Roman kompozitsiyasi sathida xronologik bayon tipi va syujet dinamikasining tashqi shakli yetakchilik qiladi. Dastlab voqealar tashqi dinamika asosida rivojlansa, asar so‘ngida ichki dinamik shakl yuzaga chiqadi.

Epik turga oid asarlarni ma‘lum janrlarga ajratishda, albatta, muayyan qonuniyatlarga amal qilinadi. Masalan, roman janri haqida gap borganda, uning hajman kattaligi, voqelikni keng qamrovda idroklash, qahramonning hayoti bilan bog‘liq katta davr qamrovlab olinishi, turfa kishilar va personajlar hayoti tasvirlanishi, ko‘p tarmoqli syujetlarning bo‘lishi e‘tiborga olinadi.

Roman hajmi va syujeti haqida ham lug‘atlarda keltirib o‘tilgan. “The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms”da “roman uchun belgilangan minimal uzunlik yo‘q, lekin odatda, mustaqil nashr etilishi uchun qisqa hikoyadan farqli o‘laroq kattaroq hajm talab qilinadi”³ – deyiladi. Roman syujeti haqida “A Dictionary of Literary Terms and Literary Theory” lug‘atida romanda ham bir qancha syujetlar mavjud bo‘lishi kerak, o‘quvchi dastlab syujetga diqqat qiladi, muayyan qahramonlarga qiziqib qolishi, ular bilan bog‘liq sodir bo‘lgan voqealarga, hissiy kechinmalari bilan birga yashashga, voqealar ketma-ketligi davomida qanday holatlar yuz berganligini bilishga intilishi haqida gapirilsa, “The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” da esa “Romanga xos talablardan biri syujet, ya‘ni hikoya qilinadigan voqealarning tartibga solinishi. Shuningdek, romanning maxsus subjanrlari borligi haqida aytilib, xarakterning muayyan turlari atrofida o‘sgan, syujet bilan bog‘liq,

tuzilishiga ko‘ra, xarakterga alohida urg‘u berish uchun mo‘ljallangan, g‘oyasiga ko‘ra kabi turlari sanab o‘tilgan”⁴.

Romanning janr tabiatidan kelib chiqiladigan bo‘lsak, uning hajman kattaligi, bir qancha syujetning bo‘lishi, katta davr voqeligini qamrab olishi, muayyan qahramon taqdirining yoki butun millat taqdirining badiiy talqin etilishi ko‘zga tashlanadi. Ayni shu g‘oyalar markaziy o‘rin egallagan asarlardan biri bu – “Amerika fojiasi” romanidir. Ushbu roman ham hajman katta, syujeti qiziqarli bo‘lib, markaziy mavzu sifatida yoshgina yigit Klayd Griffitsning fojiali qismati orqali butun bir jamiyat fojiasi ko‘rsatiladi.

Teodor Drayzerning “Amerika fojiasi” romani bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar yaratilgan, ularda asar voqealari, obrazlar haqida so‘z yuritilgan va ushbu asar bilan boshqa bir nechta asarlar qiyosiy o‘rganilgan. Jumladan, Richard Lehan “Driser’s An American Tragedy A Critical Study” (“Amerika fojiasi” tanqidiy tadqiqot”) kitobida asar syujeti va bosh qahramon bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilgan. Shuningdek, mazkur tadqiqotda romanda sodir bo‘lgan voqealar joyi va qahramonning ruhiy holati, bir makonning ta’siri va uning keyingi joylardagi voqealar bilan qanday bog‘liqlik borligi haqida mulohazalar berilgan.

Ko‘rinadiki, tadqiqotda roman syujeti, voqealarning sodir bo‘lish joylariga e‘tibor qaratilgan. Haqiqatan ham asar mutolaasiga kirishgan har bir o‘quvchi syujetning favqulodda o‘zgarishlarga boyligi sabab, qolaversa, qahramon evolyutsiyasi ortidan quvlashga tushadi. “Amerika fojiasi” romani rus tilidan Erkin Nosirov tarjimai bilan 2018-yilda nashr etilgan. Hajman anchagina salmoqli bo‘lgan roman uch kitobdan iborat. Birinchi kitobda Klayd Griffitsning oilasi, bolaligi, ular mashg‘ul bo‘lgan ish, Klaydning mehmonxonadagi birinchi

3 Baldick Ch. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – N.Y.: Oxford University Press, 2001. – P.173.

4 Baldick Ch. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – N.Y.: Oxford University Press, 2001. – P.174.

ishi, u yerdan qochib ketishga majbur bo'lgan baxtsiz hodisa haqida hikoya qiladi. Shuningdek, Roberta bilan ilk tanishuvi, u bilan bog'liq ishqiy sarguzashtlari tasvirlanadi. Ikkinchi kitobda Robertaning homilador bo'lib qolishi, Klaydning bu muammodan qutilish yo'llarini izlashi, Sondra ismli qiz bilan bog'liq yorqin kelajakni orzu qilib, qotilga aylanishi badiiy aks ettirilgan. Uchinchi kitob esa boshdan oxirigacha Klayd Griffithsning qotilligi va sud jarayoniga bag'ishlanadi. Roman voqealari xronologik syujet asosida bayon qilinadi.

Romanning birinchi kitobi yoz oqshomining birida Amerika shahrining savdo markazi, baland imoratlar, shahar ko'chalari tasviri bilan boshlanadi. Ayni shu tinchib qolgan ko'chalarning birida olti kishilik guruh kitobxonga quyidagicha tanishtiriladi. "Endilikda tinchib qolgan katta ko'chada olti kishilik guruh kelardi. Yoshi elliklarga borgan pakanagina, baqaloq, qalin sochlari dumaloq qora namat shlyapasining tagidan chiqib turgan, juda ko'rimsiz erkak kishi; yelkasidan oshirib taqilgan kamarida odatda daydi va'zxonlar va ashulachilar olib yuradigan mo'jazgina organcha. Erkakning yonida undan besh yoshlar kichik ayol ko'rinar, u unchalik semiz bo'lmasa ham miqtidan kelgan, juda odmi kiyingan, ko'rinishi xunuk, biroq badbashara emasdi. U yetti yoshlardagi o'g'il bolani yetaklab, Injil bilan oyatnoma kitobchalarni ko'tarib olgandi. Bulardan sal keyinroqda o'n beshga kirgan qiz, o'n ikkiga borgan o'g'il bola va to'qqiz yashar yana bir qiz kelardi. Ularning hammalari kattalarga itoatkorona, biroq chamasi, o'lganlarining kunidan ergashishgandi"⁵.

Yuqoridagi tasvir orqali olti kishilik bir oilaning ijtimoiy holati o'ta achinarli ekanligi ko'rinadi. Qolaversa, ular mashg'ul bo'lgan ish farzandlar xohish-istagiga mutlaqo zid bo'lib, majburiyat yuzasidan ota-ona yetoviga ergashadi. Asarda markazga qo'yilgan qahramon Klayd Griffiths ayni muhitdan, o'zining ijtimoiy tabiiyasidan chiqib ketishni istashi tabiiy bir

hol edi. Romanning markaziy qahramoni Klayd Griffiths o'zining oddiyligi, o'rtamiyonaligi va qahramonligi bilan yozuvchining avvalgi romanlari qahramonlaridan keskin farq qiladi. Klayd Griffithsning xarakteriga ta'sir qilgan omillar birinchi navbatda ijtimoiy, iqtisodiy vaziyat shuningdek, oiladagi e'tiqod, axloqiy jihatlar hisoblanadi. Kambag'al oilada tug'ilgani, bolaligidan boshlab moddiy qiyinchiliklarni his qilib yashaganligi, o'zining noqulay hayoti va past ijtimoiy mavqeyi sababli Klayd boylik va hashamatli hayotga intiladi, o'zini ko'proq boy va muvaffaqiyatli odamlar orasida tasavvur qiladi va bu orzusini amalga oshirish uchun ma'naviy tamoyillaridan voz kechishga ham tayyor bo'ladi.

Klaydning past ijtimoiy tabaqadan chiqib ketish harakatlari uning mehmonxonaga dastyor bo'lib ishga kirishi, topgan pullariga birinchi navbatda tashqi ko'rinishiga ahamiyat berishida namoyon bo'ladi. Oilasini ahvoli og'ir bo'lishiga qaramasdan, ularga yordam berishni istamaydi birinchi navbatga har doim o'zini qo'yadi. Endigina katta hayot ostonasiga qadam qo'yayotgan Klayd aynan shu yerdagi do'stlari sabab birinchi marta ayollarga qiziqish bildiradi. Dastlabki ayol bilan bo'lgan munosabatda Klaydni sotuvchi Gortenziya Brigz boshqaradi. Kanzas-Sitidagi o'yin-kulgilar Klayd uchun qayg'uli tugaydi – ziyofatdan qaytayotib, Klayd va uning do'stlari bo'lgan mashina avvaliga bir qizni urib yuboradi, keyin esa qo'rqib ketgan yoshlar politsiyadan yashirinishga uringanida avtohalokat sodir bo'ladi. O'limdan qo'rqib ketgan Klayd Kanzas-Sitidan qochib ketdi. Ota-onasining uyini tark etib, mustaqil hayotga qadam qo'ygan Klaydning yoshligi shunday tugaydi. Klaydning Gortenziya bilan bo'lib o'tgan qisqa muddatli ishqiy sarguzashtlari omadsiz yakunlanadi, ayni shu sababga ko'ra, uning keyingi ma'shuqasi Roberta bilan munosabatlariga salbiy ta'sir qiladi.

Bir qator beboshlarcha qilingan ishlardan so'ng, Klayd amakisining gullab-yashnagan

5 Драйзер Т. Америка фожиаси. Роман. Биринчи қисм. (Русчадан Эркин Носиров таржимаси). – Ўқитувчи НМИУ, 2028. – Б. 3.

ko'ylak fabrikasida joy topish umidida Nyu-Yorkdagi Likurgga yo'l oladi. Ko'p o'tmay, u shtamplash xonasining nazoratchisi bo'ladi va u erda u mehnatkash, chiroyli va yosh ayol Roberta Olden bilan uchrashadi, ularning qiziqishlari bir-biriga mos keladi. Ikkinchi kitobda Klayd Amerikaning turli shaharlari bo'ylab sayohat qilish chog'ida boshdan kechirgan sinov va mashaqqatlari tasvirlangan. U boy ishlab chiqaruvchi fabrikasi va jamiyatda katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan amakisining yoniga boradi. Klayd nihoyat o'zining ijtimoiy past tabaqasidan sekin-astalik bilan yuqori tabaqa, kiborlar jamiyatiga qo'shilish imkoniyati paydo bo'lganini anglaydi. Ayni shu daqiqalardan boshlab Klayd hayotida tub burilish sodir bo'ladi.

Klayd Roberta bilan birinchi uchrashganda u bilan turmush qurish niyatida emas edi. Boy Sondra Finchli bilan uchrashuv Klaydni o'zi xohlagan dunyoga kirish imkoniyatiga ilhomlantiradi va uni Robertadan qutilish yo'llarini axtarishga undaydi. Umuman olganda, Robertaning homilador bo'lib qolishi, ayni vaqtda Sondra Finchlining paydo bo'lishi Klaydning vaziyatini og'irlashtirib qo'yadi.

Agar Klaydning Roberta bilan munosabatlari ehtiros bilan bog'liq bo'lsa, u Sondra bilan esa, asosan kiborlar jamiyatiga kirib borishning bir yo'li deb qaraydi. Uning Sondra haqidagi o'y-xayollariga nazar tashlaydigan bo'lsak, his-tuyg'ular emas, aksincha ijtimoiy kelib chiqishi uni ko'proq qiziqtiradi.

Ayni paytda, Klayd va Robertaning munosabatlari fojiali yakun topadi. Yozuvchi roman syujetidagi Katta Achchiq ko'lda sodir bo'lgan fojining barcha holatlarini sinchkovlik bilan tasvirlaydi. Klaydning Robertadan qutulish uchun qilgan barcha harakatlarini ishonarli tarzda tasvirlaydi. Shu bilan birgalikda, Klaydning ichki dunyosini chuqur ochib berishda, uning fikrlari, his-tuyg'ulari, g'oyalariga salbiy ta'sir ko'rsatgan

jamiyatni qoralaydi. Yozuvchi Klaydning kechinmalari, fikrlari va his-tuyg'ularini batafsil ko'rsatib beradi, ayni tasvirlarni romanning markaziga qo'yadi. T.Drayzer roman qahramoni Klaydni qotillikka qo'l urish sabablarini ham hayotiy aks ettiradi. Roberta bilan Sondra Finchli orasida qolib ketgan, muammolarni hal qila olmay boshi qotgan Klayd gazetadagi quyidagi xabarni xabarni o'qiydi: "Passa ko'lida qo'sh fojia. To'ng'arilib qolgan qayiq va suvdagi ikkita shlyapa pitsfild yaqinida ikki kishi halok bo'lgan, degan fikrga olib keladi. Qizning murdasi topilgan. Ammo kimligi hozircha aniq emas. Hamrohining murdasi hali topilmadi"⁶ Yozuvchi Klaydning o'y-xayollariga ta'sir qilgan jihat sifatida ayni mana shu xabarni keltiradi va bu narsa o'quvchini ham ishontiradi. Klaydning fikrlarida bunday chalkashliklarga sabab bo'lgan tashqi sabab unchalik ahamiyatli emasdek ko'rinadi, ammo bu Robertaning o'limiga va Klaydning sudlanishiga olib kelgan voqealarning keyingi rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, Klayd baxtsiz hodisa haqida qichqiradigan, har xil jinoyatlardan zavqlanadigan va shu bilan ularning tarqalishiga hissa qo'shadigan gazeta tomonidan jinoyatga qo'l urishga sabab bo'ldi. T.Drayzer Klaydni to'la yovuz odam, qabih, qotil sifatida ko'rsatishga intilmaydi va shu bilan birga uni oqlamaydi. U Robertaning o'limining haqiqiy aybdorlarini ko'rsatmoqchi, Amerika burjua jamiyatining individualistik ruhini o'ziga singdirib, hali jinoyat sodir etmasdan jinoyatchiga aylangan Klaydning ma'naviy tanazzul darajasini ko'rsatmoqchi bo'ladi go'yo.

Klayd Griffithsda ichki kurash bor, uning o'zi ham jinoyat sodir etishi mumkinligini his qiladi; Bu kurash uning to'liq ruhiy irodaga ega emasligidan dalolat beradi. Ammo Drayzer Klaydni emas, balki uni ichki jinoiy jinoyatga majburlaganlarni hukm qiladi. Kapitalistik Amerika jamiyatining Klaydning ma'naviy buzuvchiligi, Robertaning, keyin esa Klaydning

6 Драйзер Т. Америка фожиаси. Роман. Биринчи қисм. (Русчадан Эркин Носиров таржимаси). – Ўқитувчи НМИУ, 2028. – Б. 30.

o'limi uchun javobgarligi "Amerika fojiasi" da ishonarli ravishda ochib berilgan. Drayzer qahramonni shu vaziyatga olib kelgan nozik jihatlariga e'tibor qaratadi, atrofdagi ijtimoiy muhit ta'siriga moyil bo'lgan Klaydning barcha harakatlari jamiyatning ta'siri ostida bo'lganligini ko'rsatadi.

Klaydning fikrlari va xatti-harakatlarini tahlil qilish, ayniqsa, Klayd Griffits ishini ko'rib chiqqan sud tomonidan chiqarilgan qarorlar noto'g'ri va noxolis ekanligini yaqqol ko'rsatadi. O'quvchi oldida jinoyat sodir etilgan holatlar gavdalanadi. Kapitalistik Amerikaning aybi yana bir bor tasdiqlandi, ammo Amerika adolati Klaydga hukm chiqaradi, uning aybini aniqlash va isbotlash qiyin. Klaydni jinoyatga undagan jamiyat uni jinoiy kursiga o'tqazib, o'zining shafqatsizligi va g'ayriinsoniyligini yana bir bor isbotladi. Drayzer gumanist butun tuzumga – Amerika fojialarini keltirib chiqaradigan, insondagi insoniylikni yo'q qiladigan kapitalistik Amerikaga qarshi isyon ko'taradi. Klaydning fojiasi nafaqat uning jinoyat sodir etganligi, balki unga nisbatan hukm qilinishida hamdir. Buning uchun u Amerika adolatining qurboniga aylanadi.

Klaydning taqdiri sud boshlanishidan ancha oldin muhrlangan. U ikki burjua partiyasining saylovoldi kurashida o'yinchoq bo'lgani tasvirlanadi. Amerika adliyasining korrupsiyasi, uning tarafkashligi va tor guruh manfaatlariga sodiqligi prokuror Meyson, tergovchi Xeyt va ko'plab advokatlarning suratlarida aniq tasvirlangan. Klaydning jinoyatdagi rolini hali ham bilmagan, jinoyat faktiga amin bo'lmagan tergovchi Xeyt ishning natijasini oldindan belgilab beradi va undan o'zining do'sti, bo'lajak saylovlarda nomzodi ilgari surilayotgan prokuror Meysonning obro'sini oshirishda foydalanishayotgandi.

Yana "Sarmoyador"da bo'lgani kabi, Drayzer amerikalik "adolat"ning sinfiy tabiatini ochib beradi. Klayd quyi instansiya sudida hukm qilinganidan keyin uning qarorini yuqori sudda

bekor qilish mumkin edi. Lekin buning uchun nufuzli kuchlarning aralashuvi kerak. Klaydni himoya qiladigan hech kim yo'q – uning badavlat qarindoshlari Samuel va Gilbert yoqalar va ko'ylaklarni ishlab chiqarishni Janubiy Bostonga ko'chirishga qaror qilishdi va u erda bu baxtsiz va sharmandali voqea unutilmaguncha soyada qolishlari mumkin edi. Klaydga qo'shimcha yordam berilmaydi. Endi u elektr stulda o'limga loyiqdir.

Umuman olganda, romanda yozuvchi murojaat qilgan manzara ham, timsol va qiyoslar ham realistik. Kitobning achinarli sahnasi Klaydning ota-onasining Qo'shma Shtatlardagi yirik kapitalistik shahar ko'chalarida va'zi bilan boshlanadi va tugaydi. Bu sahna ramzi Klayd taqdirining tipikligini ham, Amerika haqiqatining fojiasini ham ta'kidlaydi. Drayzer "Amerika fojiasi" asarida o'zining voiz ota-onasi Klaydga singdirmoqchi bo'lgan xayoliy va jonsiz g'oyalarni qoralaydi. Klaydning o'limga mahkum bo'lgan hayotini chizar ekan, Drayzer ruhoniy, muhtaram Makmillanning uni o'z ta'siriga bo'ysundirish istagi haqida gapiradi. Hayot haqiqatiga sodiq qolgan Drayzer o'limni kutgan va hayotni saqlab qolish uchun hamma narsaga tayyor bo'lgan Klaydning sarosimali holatini aks ettiradi. Bunday sharoitda u yoshlarga murojaat yozadi va u yerda Masihga sodiqligini e'lon qiladi. O'limi oldidan aynan mana shu ruhiy, psixologik holatlar badiiy ifoda etiladi. T.Drayzer ruhoniyning o'z hayotini saqlab qolish uchun umidsiz bo'lgan va o'limdan qochish uchun har qanday, hatto zohiriy imkoniyatga yopishib olgan odamning ruhiga ta'sir qilish istagini psixologik jihatdan ishonchli tasvirlaydi.

"Amerika fojiasi" romani uch kata kitobdan iborat. Unda birinchi kitobda Klaydning yoshligi, ijtimoiy holati, jamiyatga kirib kelishi, aralashuvi, mustaqil holatda pul topishi kabi voqealar qamrab olinadi. Klaydni jamiyat tomonidan qabul qilinishi, uning odamlar bilan munosabati ko'proq qamrab olingan. Ushbu qism voqealari Kanzas-

Sitida kechadi. Ikkinchi kitobda Klayd jamiyat tomonidan tan olina boshlaydi, turli joylarda o'zini sinab ko'radi, odamlar bilan munasabtda o'zini yaxshi tomonlarini ko'rsatishga muvoffaq bo'ladi. Bunda Klaydning hayotida tub burilishlar, kutilmagan imkoniyatlar, Robertaninh hayotiga kirib kelishi kabi muhim voqealar qamrab olinadi. Uchinchi kitobda bosh qahramonning ruhiy-psixologik holati, pushaymonlik, abydorlik, gunoh va jazo kabi muhim masalalar tasviri o'rin oladi. Sud jarayoni va Klaydni fojiaga yetaklagan muhim jihatlar yiritiladi.

"Amerika fojiasi" romanida voqealar qismlarga bo'lim bayon qilingan. Bu esa muallifning bir lavhadan ikkinchisiga o'tishiga va badiiy syujetning sahnaviyligini oshirishga imkon bergan. Roman badiiy syujet chizig'ida xronologik bayon shakli yetakchilik qiladi. Retrospektiv va assotsiativ bayon sxemalariga vaqti-vaqi bilan murojaat qilinib, ular orqali syujet chizig'idagi keskinlikni, batafsillikni oshirishga bo'ysundiriladi.

Roman voqealarida dinamik syujetning ichki va tashqi ko'rinishidan birdek foydalanilgan. Asarning dastlabki voqealari dinamik syujetning tashqi harakatiga asosan shakllantirilgan bo'lsa, asar so'ngiga qarab ichki tur kuchayib boradi. Bu qahramonlarning botiniy olamini, ulardagi ichki konfliktni ko'rsatishda, asoslashda qo'l keladi.

Butun asar voqealari bosh qahramon Klayd Grifits bilan qaysidir jihatdan bog'lanadi. Badiiy syujet tarmoqlari bosh qahramon hayotining qaysidir darajasini badiiy aks ettirishga asos bo'ladi. Har bir voqelik markazida bosh qahramon xatti-harakati yotadi.

O'QUVCHILARNING MA'NAVIY IMMUNOLOGIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH JARAYONI

Shoxsanam Muzaffar qizi Toshmamatova – tayanch
doktorant, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning ma'naviy immunitetini shakllantirishning zarurati, asosiy tushunchalari va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Global axborot makonidagi salbiy ta'sirlar, yot g'oyalarga qarshi kurashda o'quvchilarda mustahkam ma'naviy immunitetni rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlari, o'zbek pedagog olimlarining ilmiy qarashlari asosida mavjud muammolar, samarali metodlar va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari yoritilgan.

Аннотация. В данной статье проанализированы необходимость, ключевые понятия и практические аспекты формирования духовного иммунитета учащихся. В условиях глобального информационного пространства развитие устойчивого духовного иммунитета у школьников становится одной из наиболее актуальных задач современности в противодействии деструктивному влиянию и чуждым идеологиям. В статье освещены существующие проблемы, эффективные методы и перспективы дальнейшего развития на основе трудов Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева и научных взглядов узбекских педагогов-учёных.

Abstract. This article analyzes the necessity, key concepts, and practical aspects of forming students' spiritual immunity. In today's global information space, strengthening the spiritual immunity of schoolchildren against negative influences and foreign ideologies has become one of the most urgent tasks. The article highlights current issues, effective methods, and future development prospects based on the works of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, as well as the scientific views of Uzbek pedagogical scholars.

Kalit so'zlar: ma'naviy immunitet, tarbiya, axloqiy qadriyatlar, o'quvchi shaxsi, ma'naviy tahdid, axborot xavfsizligi, pedagogik jarayon, yosh avlod.

Ключевые слова: духовный иммунитет, воспитание, нравственные ценности, личность ученика, духовные угрозы, информационная безопасность, педагогический процесс, молодое поколение.

Keywords: spiritual immunity, upbringing, moral values, student's personality, spiritual threat, information security, pedagogical process, younger generation.

Bugungi globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida inson ongiga bevosita ta'sir qiluvchi omillar tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan yot g'oyalar, ommaviy madaniyat ta'siri, ijtimoiy tarmoqlardagi destruktiv axborotlar o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga xavf tug'dirmoqda. Shu bois, ularni bunday salbiy ta'sirlardan himoyalash, ijtimoiy-axloqiy barqarorlikka ega, mustahkam e'tiqodli, ongli va ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Ma'naviy immunitet – bu insonni turli buzuvchi g'oyalar, axloqiy tanazzul, ijtimoiy turg'unlik,

axborot tahdidlariga qarshi barqaror tutib turuvchi ichki mustahkamlikdir. Ayniqsa, maktab davrida bu immunitetning shakllanishi nihoyatda muhim bo'lib, aynan shu bosqichda shaxsiy fazilatlar, hayotiy qarashlar, ijtimoiy pozitsiyalar mustahkamlanadi. Shuning uchun ham o'quvchilarning ma'naviy immunologik tarbiyasini to'g'ri tashkil etish va bu jarayonga tizimli yondashish zarurdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmonida o'quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlash va ularga o'z bilim va ko'nikmalaridan amaliyotda

foydalanishni o'rgatuvchi malaka talablarini sinflar kesimida ishlab chiqish;¹

Fanlararo o'zaro aloqadorlik va sinflar kesimida davriylikka to'liq rioya qilgan holda o'quv dasturlari o'rtasida uzviylikni ta'minlash;

Yangi avlod darsliklarini o'qituvchining metodik qo'llanmasi, o'quvchining mashq daftari va multimedia ilovasi bilan birga kompleks tarzda yaratish va nashr etish;

O'quvchilarning fan bo'yicha egallagan bilimlari bilan bir qatorda savodxonlik, kompetensiya va shaxsiy sifatlarini baholash hamda kasblarga bo'lgan qiziqishini aniqlash tizimini joriy etish haqida bir qator fikrlar aytib o'tilgan hamda "Ta'lim va tarbiya yosh avlodning eng muhim boyligi, millat kelajagi poydevoridir.

Biz yoshlarimizni zamonaviy bilimlar bilan ta'minlab, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashimiz zarur." Zamonaviy globallashtirish jarayonida yosh avlodning ma'naviy kamoloti va axloqiy mustahkamligini ta'minlash dolzarb masalaga aylangan. Axborot texnologiyalarining keng tarqalishi, g'oyaviy kurashlarning murakkablashuvi va turli ommaviy madaniyat ta'sirining kuchayishi sharoitida o'quvchilarning ma'naviy immunologik tarbiyasini shakllantirish zaruriyati ortib bormoqda².

Ma'naviy immunitet – bu shaxsning zararli g'oyalarga, ma'naviy inqiroz holatlariga va axloqiy buzluqliklarga nisbatan ichki qarshilik ko'rsatish salohiyatidir. Bu immunitet yoshligidanoq shakllantirilsa, ijtimoiy hayotda barqaror va ongli pozitsiyaga ega shaxs yetishib chiqadi. Mazkur maqolada o'quvchilarda ana shu immunitetni shakllantirishning asosiy bosqichlari, uslubiy

yondashuvlari va natijadorlik mezonlari ko'rib chiqiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrda PQ-4884-son qarori qabul qilinib, unda ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan. Ushbu farmonda o'quvchilarning barkamol avlod bo'lib kamol topishini davlat siyosati darajasida ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi. Farmonda o'quvchilarda yuksak ma'naviyat, vatanparvarlik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida "ma'naviy immunitet" tushunchasi amaliyotga kirib kelishiga huquqiy asos bo'lgan. Abdurahmonov R. "Maktab o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishda o'qituvchi roli"³.

O'qituvchining asosiy vazifasi nafaqat bilim berish, balki ma'naviy yo'naltirish ekanini ko'rsatadi. O'qituvchi shaxsiy namunasi, suhbatlar, sinfdan tashqari ishlar orqali o'quvchilarda axloqiy immunitet shakllantiradi. Ushbu maqola o'qituvchining ijtimoiy-pedagogik rolini chuqur yoritadi. Zamonaviy tadqiqotlar, jumladan, T. Teshaboyev tomonidan o'tkazilgan empirik izlanishlar o'quvchilarning ma'naviy immunitet darajasi bilan ularning axloqiy qaror qabul qilish salohiyati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaydi⁴.

Ko'plab pedagogik qo'llanmalar ma'naviy immunitetni shakllantirishda milliy qadriyatlarga tayangan holda, integrativ yondashuvni taklif qilgan. Biroq, ushbu yondashuvlar ko'pincha nazariy bo'lib, amaliy metodik jihatlari yetarlicha ochilmagan. Professor A.Jo'rayevning "Ma'naviy tarbiya asoslari"⁵ nomli ilmiy

1 Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 6-noyabr PF-6108-sonli farmoni

2 Umarov A. Axborot xurujlari va ma'naviy tahdidlar. – Toshkent: Iqtisodchi, 2022. – B. 156.

3 Abdurahmonov R. Maktab o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishda o'qituvchi roli. O'zbekiston pedagogika jurnali, №2. 2023

4 Teshaboyev T. O'quvchilarning ma'naviy immunitetini o'rganish asoslari. Pedagogika jurnali, 2020 -yil №4, 45–56-betlar

5 Jo'rayev A. Ma'naviy tarbiya asoslari. – T.: O'zbekiston, 2018. – B. 232.

ishida o'quvchilarning ma'naviy immuniteti tushunchasi keng yoritilib, uning psixologik va pedagogik asoslari tahlil qilinadi.

Muallif o'quvchilarning axloqiy barqarorligi, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, va ijtimoiy faoliyatga jalb qilish orqali ma'naviy immunitetni oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

Jo'rayev, shuningdek, o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish ma'naviy immunitetni kuchaytirishning eng muhim omillaridan biri ekanini asoslaydi. Taniqli pedagog olim M.Nishonova o'zining "Tarbiya nazariyasi va metodikasi"⁶ asarida o'quvchilarning ma'naviy immunologik tarbiyasi uchun integratsiyalashgan metodlarni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. U o'z izlanishlarida tarbiya jarayonini o'quvchilar ehtiyojlari, yosh xususiyatlari va zamonaviy axborot muhitiga moslashtirish zaruriyatini asoslab beradi. Nishonova, shuningdek, o'quvchilarda ijtimoiy turg'unlikka qarshi kurasha oladigan shaxsiy fazilatlarni shakllantirish zarurligini aytib o'tadi.

Ma'naviyat targ'iboti bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchi M.Isroilov o'zining "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari"⁷ nomli ishida o'quvchilarning ma'naviy immuniteti tushunchasini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda tahlil qiladi. Uning fikricha, yosh avlodning ijtimoiy tarmoqlar va boshqa global axborot manbalariga kirishi fonida ularni ma'naviy tarbiyalash yangi strategiyalarni talab qiladi. Xususan, u ma'naviy tarbiya jarayonida mahalla, ota-ona, maktab va jamiyat hamkorligini muhim deb hisoblaydi.

Muhokama va tavsiyalar.

Ma'naviy immunitet tarkibiy qismlari. Ma'naviy immunitet quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi lozim:

– g'oyaviy sezgirlik – salbiy axborot va

g'oyalarga nisbatan tanqidiy yondashuv;

– qadriyatga asoslangan pozitsiya – milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.

– axloqiy mustaqillik – jamoa bosimi ostida bo'lsa ham, to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati.

– axborot tahlil qilish salohiyati – internet va OAVdagi ma'lumotlarni baholay olish.

Pedagogik yondashuvlar:

Ma'naviy immunitetni shakllantirish uchun quyidagi yondashuvlar:

– integrativ yondashuv – barcha fanlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni aks ettirish;

– ko'rgazmali vositalar – videoroliklar, hayotiy voqealar asosida ishlangan darslar;

– dialogik metodlar – ochiq muloqot, munozara va bahslar orqali tahliliy fikrlashni rivojlantirish;

– rol o'ynash usullari – ijtimoiy vaziyatlar orqali emotsional tajriba berish.

Amaliy tavsiyalar:

– har bir sinfda "ma'naviyat soati" tashkil etish;

– ota-onalar uchun ma'naviy immunitetni kuchaytirish bo'yicha treninglar o'tkazish;

– ma'naviy immunitet indeksini baholash uchun psixometrik testlar ishlab chiqish;

– o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqib, g'oyaviy mustahkamlikni ta'minlaydigan topshiriqlar bilan boyitish.

Xulosa qilib aytganda, O'quvchilarning ma'naviy immunologik tarbiyasini shakllantirish zamonaviy ta'limning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayon faqatgina darslarda emas, balki maktab muhitida, oilada va jamiyatda izchil

6 Nishonova M. Tarbiya nazariyasi va metodikasi. – T.: O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2019. – B.180.

7 Isroilov M. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari. – T.: Sharq, 2020. – B. 210.

amalg oshirilishi lozim. Ma'naviy immunitet kuchli bo'lgan o'quvchi ijtimoiy hayotda faol, vatanparvar, tanqidiy fikrlovchi va ma'naviy barqaror shaxs bo'lib shakllanadi. Shu boisdan, ta'lim tizimi ushbu tarbiya turiga alohida e'tibor qaratmog'i zarur. Shuningdek, ma'naviy immunitetni shakllantirishda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi, iymon-e'tiqodi, va ijtimoiy mas'uliyat hissi muhim omillar sanaladi. Demak, o'quvchilarda sog'lom ma'naviy immunitetni shakllantirish orqali jamiyatda ijobiy fuqarolik pozitsiyasiga ega, ijtimoiy tahdidlarga qarshi turadigan, barkamol insonni tarbiyalash imkoniyati yaratiladi.

ZAMONAVIY RAQAMLI TA'LIM MUHITI VA TA'LIM PLATFORMALARI ORQALI O'QUV JARAYONINI MODERNIZATSIYA QILISH

Abdulatif Abdishukur o'g'li Shermuxammedov –
tayanch doktorant, Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya. Zamonaviy axborot jamiyati ta'limga yangi talablarni qo'yimoqda. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan zamonaviy ta'lim muhiti va ta'lim platformalari orqali o'quv jarayonini modernizatsiya qilish masalalari tahlil qilinadi. Raqamli ta'lim muhiti bu o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasida interaktiv aloqani ta'minlaydigan, bilimlarni mustaqil egallash, tahlil qilish va baholash imkonini beruvchi kompleks tizimdir. Maqolada ta'lim platformalarining (masalan, Moodle, Google Classroom, Talim.uz va boshqalar) o'quv jarayonidagi roli, ularning afzalliklari, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim sifatiga ta'siri yoritiladi.

Аннотация. Современное информационное общество предъявляет новые требования к системе образования. В данной статье рассматриваются вопросы модернизации образовательного процесса с использованием цифровых технологий, цифровой образовательной среды и образовательных платформ. Цифровая образовательная среда – это комплексная система, обеспечивающая интерактивное взаимодействие между учащимися и преподавателями, а также предоставляющая возможности для самостоятельного освоения, анализа и оценки знаний. В статье освещается роль образовательных платформ (таких как Moodle, Google Classroom, Talim.uz и др.) в учебном процессе, их преимущества, а также влияние современных информационно-коммуникационных технологий на качество образования.

Abstract. The modern information society imposes new demands on education. This article analyzes the issues of modernizing the educational process through digital technologies, digital learning environments, and educational platforms. A digital educational environment is a complex system that ensures interactive communication between students and teachers, enabling independent acquisition, analysis, and assessment of knowledge. The article highlights the role and advantages of educational platforms (such as Moodle, Google Classroom, Talim.uz, etc.) in the learning process, as well as the impact of modern information and communication technologies on the quality of education.

Kalit so'zlar. Raqamli texnologiyalar, raqamli ta'lim muhiti, ta'lim platformalari, ta'lim jarayoni, o'quv jarayonini modernizatsiya qilish.

Ключевые слова: Цифровые технологии, цифровая образовательная среда, образовательные платформы, образовательный процесс, модернизация учебного процесса.

Keywords: Digital technologies, digital educational environment, educational platforms, educational process, modernization of the learning process.

So'nggi yillarda ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi ijtimoiy, madaniy va texnologik o'zgarishlar bilan hamohang ravishda jadal rivojlanmoqda. Raqamli ta'lim muhiti zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanib, o'quv jarayonini boyitishda va o'qituvchilarning pedagogik salohiyatini oshirishda asosiy vositaga aylangan¹. Muhtaram Prezidentimiz

Sh.M.Mirziyoyevning qaror va farmonlarida ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan 2020-yil 6-noyabrdagi "Raqamli O'zbekiston 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-sonli farmon², 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi

1 Ismoilov Ravshan Yakubjon o'g'li Raqamli ta'lim muhitining zamonaviy ta'limdagi o'rni Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali Impact Factor: 8.2 | 2181-3035 | № 1(59)

2 Mirziyoyev Sh. M. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-sonli farmon, 2019-yil 8-oktabr.

oliy ta'lim tizimini 2030–yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847–sonli farmonlari bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga o'rgatishning zarurligini belgilab berdi. Raqamli ta'lim muhiti, odatda, o'quv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi ochiq va tarqoq shakldagi axborot tizimlari majmuasi sifatida talqin etiladi. Uning asosiy vazifasi ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi barcha tomonlar o'rtasida o'zaro muloqot va hamkorlikni, shuningdek, ularning raqamli ta'lim resurslari bilan interaktiv aloqasini ta'minlashdir³. Raqamli ta'lim muhiti o'quvchilarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda egallash, tahlil qilish va baholash imkonini beradi, shuningdek, o'qituvchilar va talabalar o'rtasida interaktiv muloqotni ta'minlaydi. Ta'lim platformalari esa onlayn va aralash ta'lim shakllarini qo'llash imkoniyatini yaratib, o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, o'zlashtirish darajasini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi⁴. Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhiti va ta'lim platformalari orqali o'quv jarayonini modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim jarayonidagi o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashda zamonaviy raqamli vositalarning roli ko'rib chiqiladi.

Butun dunyoda ta'limni raqamlashtirish jarayoni 1990–yillarda boshlandi, shu davrda maktablarda birinchi kompyuterlar paydo bo'ldi. 2000–yillarda esa elektron darsliklar ishlab chiqila boshlandi, test sinovlari avtomatlashtirildi va qog'oz daftarchalar o'rnini raqamli qurilmalar egalladi. Biroq to'liq raqamli transformatsiyani amalga oshirish uchun interaktiv ta'lim, natijalarni tahlil qilish, masofaviy kurslar va

avtomatlashtirilgan hisobotlarni o'z ichiga olgan yagona ta'lim maydoni yaratish zarur edi. Quyidagi jadvalda ta'limni raqamlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich keltirib o'tilgan⁵.

Ta'limni raqamlashtirishning asosiy maqsadlari:

- shaharlar va chekka hududlarda bilimlardan teng foydalanishni ta'minlash;
- ta'lim muassasalarini zamonaviy jihozlar bilan jihozlash;
- hujjatlar va hisobotlarni avtomatlashtirish;
- o'qituvchilar uchun bilim bazalarini yaratish.

Jadval 1.

Ta'lim muhitini raqamlashtirish		
Infratuzilma kompyuter va noutbuk intraktiv doska internet va Wi-fi server	Platforma forum va chatlar elektron kundalik videokonferensiyalar hujjatlar shaxsiy kabinet ta'limni boshqarish tizimi	Ta'lim mazmuni vebinarlar onlayn kurslar interaktiv materiallar elektron kutubxona

M.Shutikova va S.Beshenkovlarning ta'kidlashicha, ta'lim tizimini o'zgartirishda raqamli texnologiyalar hamda media ta'lim platformalarini joriy o'quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim ro'l o'ynaydi⁶. Ularning ilmiy tadqiqotlarida ta'limni raqamlashtirish murakkab mavzularni oson tushunishga, elektron kutubxonalar va arxivlardan foydalanish orqali o'quvchilar berilgan topshiriqlarni mustaqil tahlil qilishni o'rganadilar.

J. Hamidovning ilmiy ishlarida ta'lim berish

3 3 Margarita Shutikova, Sergey Beshenkov Modern Digital Educational Environment and Media Education Platforms for Transforming Education System Media Education (Mediaobrazovanie), 2020, 60(4)

4 4 Laurillard, D. (2012). Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. Routledge.

5 5 <https://ru.pro-sensys.com/info/articles/obuchenie/tsos-tsifrovaya-obrazovatel'naya-sreda/>

6 6 Shutikova, M., & Beshenkov, S. (2020). Modern digital educational environment and media education-platforms for transforming education system. Медиаобразование, 60(4), 736–744.

jarayonida raqamli ta'lim muhitidan foydalanish o'quvchilarning darslarga faol ishtirokini ta'minlaydi, bu esa o'qitishning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu texnologiyalar o'quvchilarga nafaqat ma'lumotni olish, balki o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatini ham beradi degan fikrlarni ilgari suradi⁷.

Dr Shaheen Parveen, Shaikh Imran Ramzan larni ilmiy tadqiqotlariga nazar soladigan bo'lsak, ta'lim endi kitob o'qish, doskaga yozish va yangi mavzuni bayon bilan cheklanmaydi balki raqamli ta'lim platformalari orqali o'quv jarayoni o'zgartirilib, o'rganishni yanada interaktiv va qiziqarli qiladi degan fikrlarni ilgari surilgan⁸.

Ushbu tadqiqot uchun ma'lumot to'plashda tizimli adabiyot sharhi (Systematic Literature Review) usuli qo'llanilgan. Tadqiqot davomida 9 ta maqolani tahlil qilib, zamonaviy raqamli ta'lim muhiti va ta'lim platformalari orqali o'quv jarayonini modernizatsiya qilishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Natija va muhokamalar. So'nggi o'n yilliklarda ta'lim avloddan-avlodga katta sur'atlar bilan o'zgarib kelmoqda. Masalan, ilgari ta'lim asosan ma'lumotlarni yod olish va qo'lda ko'chirishga asoslangan bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda Udemy, 360Learning, edX, Khan Academy, Google Classroom kabi raqamli platformalar asta-sekin ruchkani almashtirib bormoqda va o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi o'qib o'rganishdan ustun qo'yilmoqda⁹. Zamonaviy davrda raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga chuqur kirib kelmoqda. Xususan, ta'lim tizimi ham bu jarayondan mustasno emas. An'anaviy ta'lim usullari zamon talablariga to'laqonli javob bera olmay qolmoqda.

O'quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, interaktiv va innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim berish zaruriyati ortib bormoqda¹⁰. Biroq amaldagi ta'lim jarayoniga raqamli ta'lim platformalarini joriy etishda quyidagi muammolar mavjud¹¹:

1. Texnologik infratuzilmadagi mavjud cheklovlar. Texnologik infratuzilmaga investitsiyalar kiritilgan bo'lishiga qaramay, ko'plab qishloq va olis hududlarda barqaror internet aloqasi hamda zamonaviy o'quv qurilmalari hanuz yetarli emas. Bu esa shahar va qishloq hududlari o'rtasida ta'lim sifati bo'yicha nomutanosiblikni yuzaga keltiradi. Barcha hududlarda yagona va barqaror infratuzilmani ta'minlash esa katta muammo bo'lib qolmoqda.

2. O'qituvchilar va o'quvchilarda raqamli ko'nikmalarning yetishmasligi. Texnologiyalarni ta'limga integratsiyalash borasida ma'lum yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, asosiy muammolardan biri o'qituvchilar va o'quvchilarning raqamli ko'nikmalari yetishmasligidir. Ko'plab o'qituvchilar raqamli ta'lim platformalari bo'yicha yetarli malakaga ega emaslar. Bu esa ta'lim sifati va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Raqamli o'quv materiallarining sifati va mazmunidagi nomuvofiqlik. Raqamli ta'lim materiallarini yaratishda yagona yondashuvning yo'qligi yana bir muhim to'siq hisoblanadi. An'anaviy dars materiallarini raqamli muhitga moslashtirmasdan onlayn platformalarga ko'chirish past samaradorlikka olib keladi. Bundan tashqari, turli ta'lim platformalari va onlayn dars vositalarini tanlashdagi nomuvofiqlik sinxron ta'lim jarayonini tashkil etishni

7 J.Khamidov Using Multimedia Technology Problems in Professional Education Eastern European Scientific Journal /Auris – Verlag.de 2019, №1. 187- 190 ctp.

8 Dr Shaheen Parveen, Shaikh Imran Ramzan The Role of Digital Technologies in Education: Benefits and Challenges International research journal on advanced engineering and management June 2024 DOI:10.47392/IRJAEM.2024.0299 LicenseCC BY-NC 4.0

9 <https://casvitrescantos.com/en/the-8-challenges-of-education-in-a-changing-world/>

10 Qodirova, Z. M. "Oliy ta'limda masofaviy ta'lim platformalarining roli va ularning integratsiyasi". Raqamli ta'lim innovatsiyalari, 2023 2(4), 51–58.

11 <https://tokyotechlab.com/blogs/digital-transformation-in-education>

murakkablashtiradi.

4. O'zgarish va moslashuvga tayyor emaslik. Raqamli transformatsiya ta'limdagi yondashuvlar va uslublarni o'zgartirishni talab qiladi, biroq barcha o'qituvchilar, o'quvchilar yoki ota-onalar bu o'zgarishlarga tayyor emaslar. Ko'plab o'qituvchilar yangi texnologiyalardan foydalanish o'rniga an'anaviy dars uslublarni afzal ko'radilar. Shu bilan birga, ota-onalar online ta'lim platformalaridan foydalanadigan o'quvchilarning sog'lig'iga, ayniqsa ko'zning charchashi va umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishidan xavotirdalar.

Raqamli ta'lim muhiti zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanib, o'quv jarayonini boyitishda va o'qituvchilarning pedagogik salohiyatini oshirishda asosiy vositaga aylangan. Yuqorida keltirib o'tilgan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi ilmiy asoslangan yechimlar sifatida ta'limda raqamli transformatsiyaning afzalliklarini taklif etishimiz mumkin.

1. Ta'lim va o'qitish samaradorligini oshirish: Elektron ta'lim, sun'iy intellekt (AI) va raqamli o'quv resurslari kabi texnologik vositalarning paydo bo'lishi o'qituvchilar va o'quvchilarga o'quv materiallariga oson kirish imkonini yaratadi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.


2. Ta'lim sifatini yaxshilash: Raqamli transformatsiya interaktiv, qiziqarli va samarali ta'lim muhitini shakllantiradi. Bu o'qituvchilarga innovatsion va individual yondashuvlarga asoslangan o'qitish va o'rgnish uslublarni qo'llash imkonini beradi.

3. Ta'limga bo'lgan kirishni kengaytirish: Raqamli transformatsiya orqali o'quvchilar onlayn ta'lim platformalari orqali istalgan vaqtda, istalgan joyda bilim olishlari mumkin. O'quvchilar endi geografik joylashuv yoki vaqt bilan cheklanmaydi, ayniqsa an'anaviy ta'limga

kira olmaydigan yoki chekka hududlardagi shaxslar uchun bu katta imkoniyatdir. Bu esa ta'limda tenglikni ta'minlaydi va ko'plab insonlarga ta'lim olishni uzluksiz davom ettirish imkonini yaratadi.

4. Ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish: Ta'limda texnologiyalar har bir o'quvchining ehtiyojlari va bilim darajasiga moslashtirilgan o'quv dasturlarini yaratishga yordam beradi. Aqlli o'quv platformalari va sun'iy intellekt (AI) yordamida o'qituvchilar o'quvchilarning o'quv jarayonidagi yutuqlari va kamchiliklarini kuzatib borishlari mumkin. Har bir o'quvchi o'z sur'atida o'qib, aynan o'ziga kerakli sohalarga e'tibor qaratishi mumkin, bu esa o'qish samaradorligini oshiradi.

5. Ta'lim xarajatlari va resurslarini optimallashtirish: Raqamli transformatsiya bosma materiallar, o'quv resurslari va raqamli raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishda iste'molchining moddiy mablag'ini va vaqtini tejaydi.



1-diagramma

Tadqiqotlarimizni boshlashdan oldin 2-diagrammada keltirilgan natijalarning 81 % Lipetsk nomidagi pedagogika universiteti talabalari. P.P.Semenov-Tyan-Shanskiy yordamida o'tkazilganligi mualliflar tomonidan aniqlangan¹².

12 Воробьева И.А., Жукова А.В., Минакова К.А. плюсы и минусы цифровизации в образовании // Международный научно-исследовательский журнал - № 1 (103) - Часть 4 -Январь

O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra raqamli ta'lim platformalari orqali o'quv jarayonini modernizatsiya qilishning ijobiy va salbiy tomonlari shakllantirildi va unda qatnashgan respondentlarning 24% istalgan vaqtda foydalanish mumkinligini ta'kidlagan bo'lsa, 16% vaqtni tejash uchun, 10% elektron axborot vositalari aqliy faollikning pasayishiga olib kelishini, 9% mutlaq nazorat tufayli elektron ommaviy axborot vositalariga qarshiligini, 7% esa o'qituvchi o'z kasbiy funksiyasini yo'qotishini bildirib o'tgan (1-diagramma).

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim muassasalari raqamli infratuzilmani rivojlantirish orqali masofaviy va aralash ta'lim shakllarini keng joriy etmoqda. Masofaviy ta'lim platformalarining rivojlanishi ta'lim jarayonini geografik cheklovlarsiz tashkil etishga, shaxsiylashtirilgan o'qitish imkoniyatlarini yaratishga va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini tahlil qilishga imkon bermoqda. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili kabi texnologiyalar yordamida ta'lim jarayoni individual ehtiyojlarga moslashtirilib, o'quvchilarning qobiliyatlari va o'zlashtirish darajasi asosida maxsus ta'lim dasturlari shakllantirilmoqda. Ularni ta'lim jarayonida to'g'ri va samarali qo'llash orqali o'quv muhitini yaxshilash, talabalarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini oshirish va zamonaviy ta'lim talablari darajasida tayyorlash mumkin.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA RAQAMLI TA'LIM MUHITINING O'RNI VA AHAMIYATI

Jamiyla Elmuratovna Sherniyazova – tayanch
doktorant, Nukus davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik innovatsiyalarni qo'llashga tayyorlash jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar, ularning ta'lim sifati va samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan bo'lib, bunda raqamli texnologiyalar ya'ni Google Classroom, Moodle, Zoom platformalarining ta'lim tizimidagi o'rni yoritilgan.

Аннотация. В данной статье анализируются современные подходы, применяемые в процессе подготовки будущих учителей к применению педагогических инноваций, их влияние на качество и эффективность образования, освещается роль цифровых технологий, а именно платформ Google Classroom, Moodle, Zoom в системе образования.

Abstract. This article analyzes modern approaches used in the process of preparing future teachers for the application of pedagogical innovations, their influence on the quality and effectiveness of education, and highlights the role of digital technologies, namely the Google Classroom, Moodle, and Zoom platforms, in the education system.

Kalit so'zlar: pedagogik innovatsiya, bo'lajak o'qituvchi, raqamli ta'lim, Google Classroom, Moodle, Zoom.

Ключевые слова: педагогические инновации, будущий учитель, цифровое образование, Google Classroom, Moodle, Zoom.

Keywords: pedagogical innovation, future teacher, digital education, Google Classroom, Moodle, Zoom.

Har qanday pedagogikaning maqsadlari talabalarda zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat bo'lib, XXI asrdagi har qanday pedagogikaning maqsadi o'qituvchi va talaba yoshlarda tez o'zgaruvchan raqamli jamiyatda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdir. Haqiqatdan ham XXI asrda ta'lim tizimida kechayotgan globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari o'qituvchi shaxsiga yangi talablarni qo'yimoqda, bugungi kunda ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayonlari jadal rivojlanmoqda.

Jahonda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yuqori sifatli bilim berish va sohalarda raqobatbardosh kadrlar faoliyatini ta'minlash maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammosi jadal sur'atlar bilan tadqiq etilmoqda¹. Globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi natijasida o'quv jarayonini

zamonaviy talablar asosida tashkil etish zaruriyati yuzaga keldi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida raqamli ta'lim muhitining o'rni beqiyosdir, chunki u nafaqat bilim olish, balki mustaqil o'rganish, axborotni qayta ishlash, kreativ fikrlash va innovatsion yondashuvlarni shakllantirish imkoniyatini beradi.

Endilikda pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki talaba va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy qobiliyatlarini va innovatsion g'oyalarini rivojlantiruvchi shaxs sifatida maydonga chiqmoqda. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik innovatsiyalarni qo'llashga tayyorlash ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 36-moddasida "Ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta'limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga

¹ Жураев Т.Н. Рақамли технологиялар асосида талабалар ўқув-билув фаолиятини такомиллаштириш методикаси ("Таълимда ахборот технологиялари" фани мисолида). Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Қарши, 2022. – Б. 3.

oshiriladi hamda yangi ta'lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o'tkazishga hamda ta'lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan. Eksperimental va innovatsion faoliyatni amalga oshirish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi"², deyilgan. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda ham mamlakatimizda ham zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha jadal ishlar olib borilmoqda. So'nggi paytlarda bo'lajak o'qituvchilarga pedagogik faoliyatga innovatsiyalar, ta'lim-tarbiya mazmuni va ularning samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik innovatsion texnologiyalarni faol joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalari qatoriga kiradi.

Zamonaviy pedagogik innovatsion texnologiyalar ta'lim tizimining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo'lgan va shunday bo'lib qoladi, innovatsion kadrlar tayyorlash esa hozirgi kunda oliy o'quv yurtlarining ustuvor vazifalaridan biridir. Bu jihatlar, ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi bilan bog'liq bo'lib, ularda yosh avlodni o'qitishning dastlabki bosqichida zamonaviy pedagogik innovatsion texnologiyalarga tayyorlash va ularda ushbu faoliyatni o'zlashtirish zarurligi to'g'risida ko'plab fikrlar mavjud.

Bunda pedagogik faoliyatga tayyorlik ham shaxsiy yondashuv nuqtayi nazaridan o'rganilib, yosh avlodga samarali ta'lim-tarbiya berishga qodir bo'lgan o'qituvchi shaxsining integrativ sifati sifatida tushuniladi. Bo'lajak o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik innovatsion texnologiyalarga tayyorgarligi ularning ta'lim innovatsiyalari subyektlari sifatida rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lishi va

shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va innovatsion pedagogik ta'limning asosiy qoidalariga javob berishi kerak. Bunga o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning subyektiv xususiyati, o'qitishni individuallashtirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ijodkorligini shakllantirish uchun sharoit yaratish, shuningdek, interfaol zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish tufayli erishish mumkin.

Agar ilgari Internet resurslaridan foydalanish qog'oz darsliklar va boshqa o'quv materiallarining yetakchi mavqeyiga qo'shimcha sifatida qabul qilingan bo'lsa, bugungi kunda Internet o'quv jarayonida o'z mavqeyini mustahkamladi. Ta'limning zamonaviy shakllari hamkorlik, interaktivlik va ta'lim jarayonini individuallashtirishni o'z ichiga oladi. Ta'lim jarayoni modullilik, texnologiya, qulaylik va moslashuvchanlikni o'z ichiga olgan shaxsga yo'naltirilgan bo'lib bormoqda³. Globallashuvning tabiiy jarayoni, axborotlashtirish va Internetning hayotning barcha sohalariga qo'shilishi raqamli ta'lim muhitini yaratish va rivojlantirishga yordam beradi. Bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlashda onlayn platformalardan (Google Classroom, Moodle, Zoom va boshqalar) foydalanish muhim ahamiyatga ega. Axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanish ta'lim tizimini rivojlantirishning obyektiv qonuniyatidir. Bu nafaqat ta'lim jarayonini qulaylashtiradi, balki talabalarda raqamli savodxonlikni rivojlantiradi. Bugun biz ushbu maqolamizda yuqorida nomlari tilga olingan Google Classroom, Moodle, Zoom platformalari va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida qisqacha ma'lumot bermoqchimiz.

Google Classroom – bu ta'lim jarayonini tashkil etish uchun zamonaviy platformadir.

2 O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.

3 Куччаев Р.М., Мальсагов Б.С., Чолаев А.Х. Роль цифровой среды обучения в современном образовании. Мир науки, культуры, образования. № 6 (85) 2020. – С. 389.

Mazkur platforma professor-o'qituvchilar va talabalar hamkorligiga asoslangan samarali o'quv faoliyatini tashkil etish imkonini beradi.

Google Classroom o'quv jarayonini tashkil etishning keng imkoniyatlarini taqdim etadi. Google Classroom xizmatida o'z kursingizni yaratasisiz, fanlar bo'yicha turli kurslarni qo'shasiz, o'quvchilarni sinfga taklif qilish mumkin bo'ladi, sinfdagi topshiriqlar tuzasiz, baholash va o'quvchilarga qaytarish imkoniyatlari ham mavjuddir. Google Classroom yordamida turli xil o'quv mashg'ulotlari bilan individual va guruh ishlarini tashkil etish mumkin, shuningdek, uni qo'llash orqali ta'lim mazmunini yangilash, pedagogik usullarni kengaytirish, tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasini amalga oshirish mumkin hamda masofaviy ta'limni tashkil etishga ham yordam beradi.

Internet o'quv jarayonida birlashtirish qulay bo'lgan ko'plab xizmatlar – forumlar, chatlar, vikilar, bloklar, elektron pochta, skayp, tarqatmalar ro'yxati va boshqalar. Bularning barchasidan o'qitishning an'anaviy shakllariga qo'shimcha sifatida foydalanish mumkin, bu esa o'qituvchining talaba va o'quvchilar bilan muloqotini samarali oshiradi.

Ta'lim sohasidagi zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanmoqda, masofaviy va aralash ta'limni tashkil etishning eng mashhur vositalaridan biri Moodle ta'limni boshqarish tizimi (LMS) hisoblanadi. Ushbu platforma ochiq arxitekturasi, moslashuvchanligi va ko'p funktsionaliligi tufayli butun dunyo bo'ylab ta'lim muassasalari tomonidan keng qo'llaniladi. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida Moodle ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, o'qituvchilar va talabalarga samarali va qulay o'zaro hamkorlik qilish imkonini beradi.

Moodle (inglizcha: Modular Object Oriented Dynamic Learning Environment (Modulli obyektga yo'naltirilgan dinamik ta'lim muhiti))

masofaviy ta'lim tizimi (MTT) ega bo'lib, u talabalar va o'qituvchilar uchun an'anaviy kunduzgi ta'lim qadriyatlarini AKT bilan birlashtirgan holda yagona o'quv axborot makonini yaratishga imkon beradi⁴. Moodle zamonaviy, progressiv, doimiy rivojlanayotgan muhitdir. U boy modullar to'plamiga ega bo'lib, ularning tarkibi Chat, So'rovnoma, Forum, Glossariy, Ish daftari, Ma'lumotlar bazasi, Topshiriq, Test, So'rovnoma, Wiki, Seminar, Ma'ruza va boshqalar.

Tizim talaba uchun qulay vaqtda o'qish, fanlarni o'z ritmida va qulay joyda o'zlashtirish imkonini beradi, talabalarga uslubiy ta'minotning to'liq kursini o'z ichiga olgan o'quv materiallari: amaliy, nazorat, test topshiriqlari, ma'ruzalar kursi, elektron kutubxonadan kecha-yu kunduz foydalanish imkoniyatini beradi. Har bir o'qituvchi o'qitilayotgan fanga mos ravishda o'quv materialini tuzadi va uni o'rganish va nazorat qilish uchun qulay bo'lgan har qanday shaklda taqdim etadi.

Moodle platformasining asosiy xususiyatlari:

1. Darslarni tashkil etish

Tizim ma'ruzalar, taqdimotlar, amaliy topshiriqlar, testlar va boshqa elementlardan iborat to'laqonli kurslarni yaratish imkonini beradi.

2. Interaktiv vositalar

Moodle forumlar, chatlar, vebinarlarni qo'llab-quvvatlaydi, bu talabalar va o'qituvchi o'rtasida fikr-mulohazalarni ta'minlaydi.

3. Bilimlarni baholash tizimi

Platforma sizga test, testlardan foydalanish va elektron baho kitobini yuritish imkonini beradi.

4. Multimedia yordami

Tizimga videodarslar, audio materiallar, taqdimotlar, infografikalarni yuklashingiz mumkin.

4 Кравченко Г.В., Волженина Н.В. Работа в системе Moodle: руководство пользователя: учебное пособие. — Барнаул, 2012. — С. 6.

5. Tahlil va hisobotlar

Moodle talabalar taraqqiyotini tahlil qilish, muammoli mavzularni aniqlash va davomatni nazorat qilish vositalarini taqdim etadi.

Zoom – bu onlayn darslar va videokonferensiyalar o'tkazish uchun platforma. Butun dunyoda ko'plab o'qituvchilar, ma'ruzachilar va talabalar undan masofaviy ta'lim uchun foydalanadilar. Onlayn konferensiyani akkaunt yaratgan har qanday o'qituvchi tashkil qilishi mumkin. Bepul akkaunt 40 daqiqalik videokonferensiya o'tkazish imkonini beradi. Konferensiyaga uning identifikatori yoki havolasiga ega bo'lgan har qanday tinglovchi ulanishi mumkin. Siz mashg'ulotni oldindan rejalashtirishingiz yoki mashg'ulotlar doimiy ravishda ma'lum bir vaqtda boshlanishi uchun takroriy konferensiya o'tkazishingiz mumkin⁵.

Zoom kompaniyasi 2020-yil mart oyida ushbu platformadan foydalanuvchilar soni 200 milliondan oshgani haqidagi ma'lumotlarni e'lon qildi, 2019-yil dekabr holatiga ko'ra atigi 10 million foydalanuvchi ro'yxatga olingan⁶. Talabalar va o'qituvchilar istalgan qurilmadan videochat yoki konferensiyaga (smartfon, noutbuk, planshet) kirishlari mumkin. Onlayn Zoom platformasining imkoniyatlari keyinchalik zarur ma'lumotlarni aniqlashtirish uchun foydalanish mumkin bo'lgan video namoyishni yozib olish imkonini beradi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, Zoom butun dunyo bo'ylab 300 milliondan ortiq foydalanuvchiga ega bo'lib, jahon videokonferensaloqa bozorining 55,91% ulushiga ega.

Zamonaviy pedagogika talaba-yoshlarga ta'lim faoliyati subyekti, o'zini o'zi anglash va o'zini o'zi amalga oshirishga intilayotgan shaxs sifatida tobora ko'proq murojaat qilmoqda. Shuning

uchun barcha ilg'or pedagogik texnologiyalar ko'p jihatdan ushbu g'oyani amalga oshirishga qaratilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabani o'z imkoniyatlarini maksimal darajada ro'yobga chiqarishga intiladigan, yangi tajribalarni idrok etishga ochiqlik, turli hayotiy vaziyatlarda ongli va mas'uliyatli tanlov qilish qobiliyatiga ega bo'lgan noyob shaxs sifatida qaraydi. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion texnologiyalar va an'anaviy ta'lim tizimi o'rtasidagi farq, ayniqsa, turli xil o'quv fanlari va ijtimoiy normalar bo'yicha talabalarga ma'lum hajmdagi ma'lumotlarni uzatishga e'tibor qaratilgan.

O'quv jarayoniga yuqoridagi xizmatlarni joriy etishning ijobiy natijalarini, jumladan, o'quvchilarning zamonaviy pedagogik innovatsiyalarga ijobiy munosabatini hisobga olgan holda shuni aytish mumkinki, axborot ta'lim muhitini bunday vositalar yordamida kengaytirish ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro hamkorligini tashkil etishning samarali usuli hisoblanadi. Shaxs ijtimoiy-qiymatli faoliyatga kiritilgan bo'lib, u samarali ta'lim olish, shuningdek, institutsional ta'lim tizimlaridan tashqarida o'z-o'zini tarbiyalash imkoniyatini beradi.

Ko'rib turganimizdek, zamonaviy raqamli raqamli ta'lim muhit haqiqatda bo'lajak o'qituvchilarning raqamli ta'lim muhitida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun sharoit yaratadi va uni doimiy ravishda rivojlantirishni taqozo etadi. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish ham o'rganish motivatsiyasini kuchaytirish, o'quv jarayoniga faol jalb etish, tabaqalanish va moslashuvi faollashtirishga xizmat qiladi⁷.

5 Абрамов О.Н., Ваганова О.И., Булаева М.Н. Возможности образовательной платформы ZOOM для организации дистанционного обучения // Азимут научных исследований: педагогика и психология. 2021. Т.10 №3(36). – С. 14.

6 Чулюков В.А., Сидорова О.А., Дубов В.М. Новые технологии эффективного вовлечения обучающихся в процесс обучения // Современное педагогическое образование. 2019. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/novye-tehnologii-effektivnogo-vovlecheniya-obuchayuschihsya-v-protsess-obucheniya> (дата обращения: 09.10.2020).

7 To'rayeva D.I. Bo'lajak o'qituvchining raqamli ta'lim muhitida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish // "Raqamli didaktika va madaniyat: zamonaviy tendensiyalar, yondashuvlar, yechimlar" Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2024-yil 17-aprel. – B. 377.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni qo'llashga tayyorlash zamonaviy ta'limning asosiy talabidir. Ta'limda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bu jarayonning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni egallagan o'qituvchilar ta'lim sifatini oshirish bilan birga, yosh avlodni ijodkor, tashabbuskor va raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, yuqorida ma'lumot berilgan (Google Classroom, Moodle, Zoom va boshqalar) onlayn platformalardan foydalanish orqali biz ta'lim sifatini yaxshilash va zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil qilishga erishamiz. Ular yordamida ta'lim samaradorligini oshirishimiz, bo'lajak o'qituvchilarni faol o'qitish jarayoniga jalb qilish, ularning qobiliyatlarini kengroq rivojlantirish mumkin bo'ladi. Har qanday innovatsion yondashuvlarni muvaffaqiyatli tatbiq etish bo'lajak o'qituvchilarning malakasi, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanish va individual yondashuvlardan foydalanishga bog'liqdir.

QADIMGI USTRUSHONA XALQLARI MADANIYATINING MAHALLIY ASOSLARI HAQIDA

Maftuna Sanaqul qizi Lapasova – tayanch
doktorant, Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi Ustrushona hududida shakllangan madaniyatning mahalliy asoslari arxeologik, tarixiy va etnografik manbalar asosida tahlil qilingan. Ustrushonadagi mahalliy madaniyatning asosiy ko'rinishlari Nurtepa madaniyatidan boshlangan. Ushbu madaniyating keyingi taraqqiyot belgilari mil.avv. II–I asrlarga oid Eski Xovos, Xitoytepa, Qo'rg'ontepa, Qoratepa, Qaliyatepa shahar yodgorliklarida kuzatiladi. Antik va ilk o'rta asrlarga kelib, migratsiyalar natijasida, mahalliy madaniyat namunalarida kuchli o'zgarishlar kuzatilib, Qovunchi madaniyati keng yoyilgan. Ushbu madaniyatga xos ko'rinishlar kulolchilik, me'morchilik, hunarmandchilik sohalari va dafn marosimlarida yaxshi kuzatiladi. Antik va ilk o'rta asrlarda mintaqada Qovunchi madaniyati keng yoyilsada, mahalliy madaniyatga xos xususiyatlar keyingi davrlarda ham saqlanib qolganligi mavjud manbalar orqali asoslangan.

Аннотация. В этой статье анализируются местные основы культуры, сформировавшейся в древнем Уструшана на основе археологических, исторических и этнографических источников. Основные проявления местной культуры в Уструшоне начались с культуры Нуртепа. Признаки дальнейшего развития этой культуры наблюдаются в городских памятниках Эски-Ховос, Хитайтепа, Кургонтёпа, Коратёпа, Калиятепа, датируемых II–I вв. до н. э. К античности и раннему средневековью в результате миграций наблюдаются сильные изменения в образцах местной культуры, и широкое распространение культуры Каунчи. Характерные для этой культуры, отчетливо наблюдаются в производства гончарного дела, архитектуры, ремесел и погребальных обрядов. Хотя культура Каунчи была широко распространена регионе в античности и раннем средневековье, особенности местной культуры сохранились и в более поздние периоды.

Abstract. This article analyzes the local foundations of the culture that formed in ancient Ustrushana based on archaeological, historical and ethnographic sources. The main manifestations of local culture in Ustrushana began with the Nurtepa culture. Signs of further development of this culture are observed in the city monuments of Eski-Khovos, Hitaytepa, Kurgontepa, Koratepa, Kaliyatepa, dating back to the 2nd-1st centuries BC. By antiquity and the early Middle Ages, as a result of migrations, strong changes in the patterns of local culture are observed, and the Kaunchi culture is widespread. Characteristic of this culture are clearly observed in the production of pottery, architecture, crafts and burial rites. Although the Kaunchi culture was widespread in the region in antiquity and the early Middle Ages, the features of the local culture were preserved in later periods.

Kalit so'zlar: Ustrushona, Nurtepa madaniyati, Morguzar, Eski Xovos, Qaliyatepa, kulolchilik, me'morchilik, bronza davri, antik davr, chorvador qabilalar, arxeologiya.

Ключевые слова: Уструшана, культура Нуртепа, Моргузар, Эски Ховос, Калиятепа, гончарное дело, архитектура, бронзовый век, античный период, скотоводческие племена, археология.

Keywords: Ustrushana, Nurtepa culture, Morguzar, Old Khavast, Kaliyatepa, pottery, architecture, Bronze Age, antiquity, settlement, pastoral tribes, archaeology, Great Silk Road.

Jahon miqyosida ilk sivilizatsiyalar va ularning shaklanishiga asos bo'lgan qadimgi madaniy vohalar tarixini o'rganishning ahamiyati ortib bormoqda. Chunki, bugungi globallashuv davrida insoniyatning kelajagi uning madaniyatlilik darajasiga bog'liq bo'lmoqda. Bunda qadimgi davr aholisi madaniyati tarixi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotni qayta tiklash orqali, tarixiy-madaniy jarayonlarni o'rganish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ularni amalga oshirishda,

Ustrushonaning antik va ilk o'rta asrlar davri tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan madaniy jarayonlari va uning O'zbekiston xalqlari tarixida tutgan o'rnini aniqlash dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Ustrushonaning geografik qulayliklari tufayli hududga paleolit davridayoq ibtidoiy odamlar kelib joylashgan. Bu davriga oid materiallar Jizzax viloyati, Forish tumani, Chimqo'rg'on sovxoz

hududida, Yangiqishloq, Azimbuloq, Goʻrdar va Chashmai-Doston kabi manzilgohlardan qayroqtoshdan ishlangan nukleus – tosh oʻzaklar qoldiqlari va dorsal tipiga ishlov berilgan har xil qayroqtosh qurollar oʻrganilgan¹. Ular paleolit davri jamoalarining Ustrushonada ham keng tarqalganliklarini va mintaqaning ilk insoniyat oʻchoqlaridan biri boʻlganligini koʻrsatadi. Mavjud manbalar Ustrushonada bronza davrining oxirlarida dehqonchilik xoʻjaligi bilan birgalikda, chorvachilik, togʻ-kon ishlari hamda ichki va tashqi ayirboshlashga asoslangan xoʻjalik-madaniy tiplar shakllanib boshlaganligini koʻrsatadi.

Bu jarayonlarning qoʻshni mintaqalarda ham bir paytda kuzatilishi oʻsha paytdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda yangi oʻzagrishlar boʻlganligini koʻrsatadi. Jumladan, Chirchiq va Ohangaron vohalarida soʻnggi bronza davrida Andronovo jamoalarining Tozabogʻ yob turidagi choʻpon-chorvadorlar qabilalari kelib joylashishi natijasida dehqon va chorvadorlarning xoʻjalik madaniy tiplari yonma yon shakllangan². Bu jarayon Fargʻona vodiysida ham kuzatilib, soʻnggi bronza davrida vodiya oʻtroq ziroatchi va choʻpon-chorvadorlarning ikkita xoʻjalik madaniy tiplari yonma-yon shakllangan³. Yaʼni bu paytda vodiya qadimdan dehqonchilik bilan shugʻullanib kelayotgan aholi manzilgohlari atroflari boʻylab bir guruh aholi oʻtroqlasha boshlagan, boshqa guruhlar esa yaylov chorvachiligi bilan shugʻullangan.

Ustrushonada ham ijtimoiy-iqtisodiy koʻtarilish tufayli, soʻnggi bronza va ilk temir davriga kelib oʻtroqlashgan dehqon jamoalarning manzilgohlari barpo etila boshlanadi. Ilk

temir davri (mil.avv. VII-VI asrlar)da ushbu manzilgohlar yiriklashib, shahar koʻrinishiga ega boʻladi. Ularning dastlabki qurilgan va yirigi umumiy maydoni 18 ga ega boʻlgan va ilk shahar xususiyatlarni oʻzida jamlagan manzilgoh – Nurtepa vujudga keladi. Keyinchalik mintaqadagi shunga oʻxshash shahar yodgorliklari fanda “Nurtepa madaniyati” nomi bilan qayd etila boshlagan. Nurtepa yodgorligi Nijonsoyning chap qirgʻogʻida, uncha baland boʻlmagan togʻ tizmasining oʻrta qismidagi tepalikda joylashgan⁴. Shahar janubdan shimolga tomon choʻzilgan va yarim oval shaklida boʻlib, ikki qism ark va shahristondan iborat. Shaharning tashqi devor qurilishida eni 4,25 m, balandligi 1,2-1,5 m boʻlgan, qirgʻib tekislangan tabiiy lyoss koʻtarmadan foydalanilgan.

Nurtepa madaniyati bir tomondan qadimgi Chochning Burgʻuluq, Fargʻonaning Eylatan, Qayroqum, Sugʻdning Qadimgi Sugʻd madaniyatlari taʼsirida boʻlgan boʻlsa, ikkinchi tomondan yuqoridagi madaniyatlar ham Nurtepa madaniyatining ayrim koʻrinishlarini oʻzlarida aks ettiradi. Ushbu madaniyatga mansub aholi uy-joylarni toʻgʻri toʻrtburchak va kvadrat formadagi xom gʻisht va paxsadan qurishgan. Shu bilan birga yarim yertoʻlasimon uylar xam boʻlgan⁵. Uy hayvonlari suyaklari, tosh yorgʻuchoq, keli va uning soplarning uchrashi ularda chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanganligidan dalolat beradi. Sopol buyumlar charxda yoki qoʻlda yasalgan. Qurol-yaroqlar ichida bronzadan yasalgan oʻq-yoylar keng tarqalgan. Ularga qarab shunday xulosa chiqarish mumkinki, geografik jihatdan qulay hududda joylashgan Nurtepa shahri va uning aholisi asosan dehqonchilik

1 Джуракулова Д.М. Каменные изделия из Джизакского оазиса // Формирование историко-культурных областей в Центральной Азии и проблемы этнической географии. – Ташкент, 2018. – С.55–57; Жўракулова Д.М. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда палеолит даврининг ўрганилиши. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Фан наشريёти давлат корхонаси, – Тошкент, 2019. – Б. 145–154.

2 Дуке Х. Туябугузские поселения Бургулюкской культуры. – Ташкент: Фан, 1982. – 95 с.

3 Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. Вып. 118. – М.–Л., 1962. – С.71.

4 Пардаев М.Х., Тўйчибоев Б.Б. Уструшона қадимда ва илк ўрта асрларда. Тошкент, 2017. Б. 33.

5 Кудратов С. Сирдарёдаги энг қадимги шаҳар // “Уструшона Буюк ипак йўлида, унинг минтақалараро сиёсий – иқтисодий ва маданий муносабатларни ривожлантиришдаги ўрни (антик ва ўрта асрлар даврида)”. – Гулистон, 2016. – В. 103.

va hunarmandchilik bilan shug'ullangan⁶ va ayni paytda mintaqaning savdo markaziga ham aylangan. Shuning uchun bo'lsa kerak, Xo'jand va Nurtepa ko'hna shaharlari eron ahamoniylari va keyinchalik makedoniyalik Iskandar yurishlari davrida tayanch nuqtalarga aylangan. N.Negmatov va T.Belyayevalar Nurtepa shahrining quyi qatlamlarini mil.avv. VI-V asrlar bilan belgilasalarda, uning pastki qatlamlarida me'moriy qurilishlar izlari aniqlanmagan.

Nurtepa madaniyatning ta'siri ostida Kiropol deb e'tirof etilgan, mil.avv. VI asr boshlarida asos solingan Mug'tepa, Aleksandr Makedonskiyga qarshi qo'zg'olon ko'targan shaharlar sifatida qayd etilgan, Kurkatdagi Shirin, Savatdagi Xontepa, Sog'anoqtepa I, II kabi ilk shahar yodgorliklari bunyod etilgan. A.A.Gristinaning fikricha, Nurtepa madaniyatiga xos xususiyatlar Nurtepadan tashqari Xontepa, Eski Xovos, Sobot, Sag'anaktepa, Pastki Sag'anak, Mug'tepa va Sirdaryoning chap qirg'oqlaridagi qishloqlarda ham o'z aksini topgan. Yunon va Rim manbalarida Aleksandrga qarshi qo'zg'olon ko'targan Kiropol, Gaza, Baga, Kurkat, Sabat, Shavkat va Xovos kabi Ustrushona shaharlarining sanab o'tilishi⁷8 ishlab chiqarishning taraqqiy etib, savdo markazlari mavjud bo'lganligi va aholining o'troq xo'jalikka o'tib, shaharlar bunyod etganligidan guvohlik beradi.

Shu bilan birgalikda, Nurtepa madaniyatining ayrim ko'rinishlari Sirdaryoning o'ng sohilidagi Choch (Burg'uluk madaniyati) va Farg'ona (Chust va Eylatan madaniyati) hududlariga ta'sir etganligi arxeologik materiallarda kuzatiladi. Nurtepa madaniyati ta'siri ayniqsa, Ustrushonaning cho'lga tutash yodgorliklari, jumladan, Sobot

shahar yodgorligida yaxshi seziladi⁸. Umuman olganda, ushbu madaniyatga oid o'nga yaqin aholi manzilgohlari aniqlangan. Ularni paydo bo'lishi O'rta Sirdaryo havzasida o'troq turmush tarziga o'ta boshlagan chorvador qabilalarning vaqt o'tishi bilan Ustrushonaning tog' oldi hududlariga ham yoyila boshlaganligini ko'rsatadi.

Arxeologik tadqiqotlar Ustrushona hududida dastlabki dehqonchilik manzilgohlari Turkiston tog' tizmalaridan suv oluvchi Sho'rbuloqsoy bo'ylarida bundan 3-4 ming yil oldin paydo bo'lganligi haqida guvohlik beradi. Sho'rbuloqsoy bo'yida joylashgan yodgorliklar ichida eng qadimgisi Eski-Xovos yodgorligi hisoblanadi⁹. Mintaqadagi iqtisodiy yuksalish o'z navbatida mil.avv. IV-III asrlarda Eski Xovos shahrining paydo bo'lishiga sharoit yaratadi. Eski Xovos yodgorligi Xovos tumani Xovosobod qishlog'ida, Samarqanddan Chochga boradigan yo'lning chorrahasida joylashgan. Tadqiqotlar natijasida, yodgorlikda hayot mil.avv. IV-III asrdan to 1953 yillargacha davom etganligi aniqlangan.

Shahar hududi 12 gektarni tashkil etib, uning ark va shahriston qismi deyarli to'liq saqlanib qolgan, rabot qismi esa yerni o'zlashtirish jarayonida butunlay buzilib ketgan. Ark hududi 2 gektar va uning shu paytgacha saqlanib qolgan, balandligi 15 metrga yetadi¹⁰. Arxeologik tadqiqotlar natijasida, yodgorlik hududida mil.avv. III asrga oid g'ishtdan ko'tarilgan devor qoldiqlari va qadimgi Farg'onadagi Eylatan madaniyati (mil. avv. VI-III asrlar)ga xos, lekin mahalliy kulollar tomonidan yasalgan sopol idishlar topilgan. Eski Xovos uchun Sho'rbuloqsoydan kanal qazib chiqarilgan¹¹. Keyingi yillarda olib borgan arxeologik tadqiqotlari natijasida me'moriy

6 Эшов Б.Ж. Ўрта Осиёнинг қадимги шаҳарлари тарихи. Олий ўқув юртлири талабалари учун дарслик. –Тошкент, "Fan va texnologiya" 2008. – Б.157.

7 Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Уструшаны с древних времен по X веков н.э. – С.232-236.

8 Грицина А.А. Материалы IX- первой половины XI века с городища Культепа.// Археология Узбекистана. №1. Самарканд, 2010. С. 41-48.

9 Грицина А.А. Ракопки городища Эски Хавас // "Қадимий Жиззах воҳаси – Марказий Осиё цивилизацияси тизимида (сиёсий, иқтисодий, маданий ҳаёт)" Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Ташкент, 2019. – С. 25-27.

10 Кудратов С. Сирдарёдаги энг қадимги шаҳар... – В. 101.

11 12 Ишанходжаева З.Р. Репрессивная политика советской власти и культура Узбекистана: трагедия выживания (1925-1953). – Ташкент: Тафаккур, 2012. – С. 100.

inshoot qoldiqlari va kulollik idishlaridan tashqari mil.avv. II-I asrga oid Anaxita haykalchasi va XII asrga oid yashil rangda sirlangan qora chiroq alohida ahamiyatga ega. Ushbu chiroqning ahamiyatli tomoni, uning baldog'ida humo qushi tasviri tushirilgan. Yodgorlik hududida arxeologik tadqiqotlar davom etmoqda.

Nurtepa madaniyati rivojining navbatdagi bosqichi (Mil.avv. II-I asrlarda)da uning ta'sir doirasi shimoliy-g'arbiy Ustrushona hududlariga qadar yetib borganligida ko'rinadi. Bu paytda Ustrushonada yangi shaharlarning paydo bo'lishi Sangzor, Zominsuv va Xo'jamushkent daryolari havzasida izchil suratda amalga oshgan. Mil.avv. II-I asrlarda Xovos tumanidagi Eski Xovos yanada kengayib, Xitoytepa, Zomindagi Qo'rg'ontepa, Qoratepa, Jizzaxdagi Qaliyatepa, G'allaoroldagi Qo'rg'ontepa shahar yodgorliklari bunyod etilgan¹². Ushbu shaharlarda o'rganilgan arxeologik manbalar va shahar qurilishi arxitekturasiga xos xususiyatlar Jizzax, Zomin va Xovos shaharlarini O'zbekistonning qadimgi shaharlari qatoriga qo'shish imkonini beradi.

Hududning antik davr madaniyati asoslarini o'rganishda Jizzax shahridagi Qaliyatepa shahar yodgorligining o'ziga xos o'rni bor. Ushbu yodgorlikning ilk antik davr moddiy madaniyatida Sug'd ta'siri sezilib turadi. Ular ayniqsa, kulollik idishlarida kuzatilib, miloddan avvalgi III –II asrlarga oid sopol idishlar, xususan paymonalar yasashi texnologiyasi va shaklida Afrosiyob II va Afrosiyob III qatlamlaridan chiqqan idishlar bilan aynan o'xshashlik kuzatiladi¹³. Ushbu yupqa devorli, kalta bo'yli, g'ovak tagdonli, qizg'ish angob bilan bo'yalgan kulollik idishlari Qaliyatepa I atamasi bilan ilmiy muomalaga kiritilgan.

Qaliyatepa bir-biriga uzviy bog'langan. 5-ta to'g'ri to'rtburchaksimon, kvadratsimon shakldagi tepaliklardan iborat. Shimol-janub yo'nalishi bo'yicha joylashgan bu komplekslarning hozirgi saqlanib qolgan qismining umumiy maydoni 30 ga.ni tashkil qiladi. Qaliyatepa ham qadimgi sharq shaharlari singari an'anaviy uch qismli shahar bo'lganligi uning saqlanib qolgan qismlarida ko'rinib turadi. Ulardan, ark – shahar hokimi saroyi, Shahrison – mudofaa devori harbiy burjlar bilan o'ralgan va ark bilan tutashib ketgan shahar mavzeyi hamda Rabod – mudofaa devori va xandaqlardan tashqarida Qaliyatepa atrofi bo'ylab alohida joylashgan 5-ta tepadan iborat¹⁴. Qaliyatepa shahrisonining madaniy qatlamlari (ya'ni inson hayoti izlari mavjud qatlamlar) qalinligi – 14-15 m.ni, arkining madaniy qatlamlari qalinligi 19-20 m.ni tashkil qiladi¹⁵. Shaharning dastlab bunyod etilgan ilk davrini aniqlashga imkon beradigan eng quyi madaniy qatlamlariga yetib borilmagan. Agar shunday tadqiqotlar o'tkazilsa, qadimgi topilmalar asosida Qaliyatepa (Jizzax) ning tarixiy yoshi aniq dalillar asosida yoritilishi mumkin. Shunday bo'lsada, uzoq yillar davomida Qaliyatepada qazuv tadqiqotlari o'tkazgan arxeolog olim M. Pardayev ushbu shahar yodgorligining 2-rabodidan topilgan sopol idishlar namunalarini mil.avv. II-I asrlar bilan davrlagan. Shu asosda, hozircha Qaliyatepaga asos solingan davr mil. avv. II asr bilan belgilanmoqda.

Ustrushonaning antik va ilk o'rta asrlar madaniyatida Nurtepa madaniyati aholisi an'analari shahar tipidagi yodgorliklar va mozorqo'rg'onlarda keyingi davrlarda vohada shakllangan Qovunchi madaniyati aholisi bilan o'zaro genetik etnomadaniy aloqalari mavjud

12 Тўйчибоев Б.Б. Уструшонада урбанизацион жараёнлар ва давлатчилик тизимининг шаклланиши ҳусусида // “Уструшона Буюк ипак йўлида, унинг минтақаларо сиёсий – иқтисодий ва маданий муносабатларни ривожлантиришдаги ўрни (антик ва ўрта асрлар даврида)”. – Гулистон, 2016. – Б. 172-173.

13 Тўйчибоев Б.Б. Уструшонада урбанизацион жараёнлар ва давлатчилик тизимининг шаклланиши ҳусусида... – Б. 173.

14 Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Уструшонанинг ilk ўрта асрлар қишлоқ маконлари... – Б. 148-149.

15 Пардаев Ш.М. Жиззах шаҳарсозлик тарихи ва уни ўрганишнинг истиқболлари ҳақида // “Қадимий Жиззах воҳаси – Марказий Осиё цивилизацияси тизимида (сиёсий, иқтисодий, маданий ҳаёт)” Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2019. – Б. 46.

bo'lganligidan dalolat beradi. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, vohadagi qadimgi chorvador aholi qadimgi Farg'onaning bronza davri Chust madaniyati madaniy-xo'jalik ta'sirida buloqsuv va soy quyi havzalarida ko'nim topib o'troq hayotga o'tgan sak qabilalari bilan genetik jihatdan bog'lik bo'lib¹⁶, ularning (saklarning) katta qismi avvalgidek chorvachilik xo'jaligi bilan shug'ullanib, o'troq aholi bilan yonma-yon yashashda davom etadi.

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, mil.avv. III-II asrlardan mintaqa aholisi vohaga kirib kelgan dax-sarmat, Proxorovo va undan keyingi qabilalar madaniyati bilan qorishib boshlaydi. Jizzax vohasida atrofidagi qabrlarda topilgan ko'chmanchi sak madaniyatiga oid sopol buyumlar buni tasdiqlaydi. Ta'kidlab o'tish lozimki, Proxorovo madaniyati sohiblari va vohadan topilgan saklarga tegishli qabrlarning o'xshash jihatlari bor. Bu holat Sirdaryo bo'yi sak qabilalarining migratsiyasi va ular madaniyatining Ustrushona bo'ylab joylashishi jarayoni bilan bog'liq bo'lgan. Bu holat saklarning nafaqat ko'chmanchi, balki o'troq hayot kechirgan guruhlar bo'lganligini ko'rsatadi.

Antik davridan boshlab mintaqada yashagan etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchayib, chorvadorlarning o'troqlashuvi tezlashgan. Chunki, mavjud yozma manbalarga e'tibor qaratsak, vohada mil.avv. I ming yillik o'rtalarida o'troq qabilalar bilan bir qatorda, chorvador sak qabilalari ham keng tarqalganligi ma'lum bo'ladi. Ko'chmanchi va o'troq madaniyat vakillari o'rtasidagi o'zaro madaniy aloqalar faollashuviga dehqonchilik va chorva uchun qulay sharoitlar sabab bo'lgan¹⁷. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra,

Yaksart (Sirdaryo) orti saklari nomi bilan tilga olingan aholi bilan bir qatorda ularga genetik yaqin bo'lgan, chorvador aholi ham vohada keng tarqalganga o'xshaydi.

L.M.Levina, o'z tadqiqotlarida Sirdaryo bo'ylaridagi dashtliklardan tog' vodiylariga almashinadigan joylarda, chorvadorlarning dehqonchilik bilan bog'liq ko'plab statsionar manzilgohlari bo'lganligini qayd qilgan¹⁸. Qang' davriga oid aholining yarim o'troq holda yashab, ular tomonidan shahar va qishloqlarga asos solinganligi aniqlangan. Jumladan, mil. avv. II-V asrlarda Toshkent vohasida¹³ ta shahar mavjud bo'lgan va ular dushman qamaliga qarshi mudofaa istehkomiga ega qilib qurilgan¹⁹. Ushbu holat Ustrushona dehqonchilik vohalarining dashtga tutash chegara hududlarida antik va ilk o'rta asrlarda ko'plab uchraydi.

Ma'lumki, qadimgi madaniyat tarixini o'rganishda kulollik mahsulotlari asosiy o'rni tutadi. Qadimgi Ustrushonaning mil.av. VII-mil. av. IV asrlardagi kulollik hunarmandchiligi haqida Nurtepa yodgorligidan olingan sopol idishlar kompleksi nisbatan batafsil ma'lumot beradi²⁰. Sopolchilikda ushbu davrda O'rta Osiyo sopolchiligi uchun xos bo'lgan rang bilan bo'yalgan va silindrakonik formadagi sopol buyumlarning uchramasligi xosdir. Nurtepa sopoli ikki guruhga: qo'lda va kulolchilik charxida yasalgan idishlarga ajratiladi²¹. Kosalarning ustki pardoziga alohida e'tibor berilib, ular yaltirash darajasida silliqalanib pardozlangan. Ularning gardishi to'g'ri yoki xiyol ichkariga qayrilgan.

V.F. Gaydukevich tomonidan milodning ilk asrlariga oid kulolchilik xumdoni aniqlanib, uning tuzilishi, ish jarayonlari o'rganilgan.

16 Раҳимов К. Эски Ховос Буюк ипак йўли чорраҳасидаги шаҳар. "Уструшона Буюк ипак йўлида, унинг минтақалараро сиёсий – иқтисодий ва маданий муносабатларни ривожлантиришдаги ўрни (антик ва ўрта асрлар даврида)" – Гулистон, 2016. – Б. 105.

17 Toshboyev F.E. Ustrushonada antik davrdagi etnomadaniy jarayonlar // O'zbekiston tarixi. 4-son. – Toshkent, 2019. – B. 33–41.

18 Левина Л.М. Керамика нижней и средней Сырдарьи в первой половине первого тысячелетия н.э. – М.: Наука, 1971. – С. 163–174.

19 Шониёзов К.Ш. Қанғ давлати ва қанғилилар. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.105–106.

20 Негматов Н.Н., Беляева Т.В., Мирбаева А.К. Начало исследований городища Нуртепе // АРТ. (1980). Вып. XX. – Душанбе: Дониш. 1987. С. 310–330.

21 Пардаев М.Х., Тўйчибоев Б.Б. Уструшона қадимда ва ilk ўрта асрларда... – Б. 70.

Sopol komplekslarning tahlili, kulollar shahar va qishloqlar bilan bir vaqtda chorvador ko'chmanchilarni ham sopol buyumlari bilan ta'minlab turganliklaridan dalolat beradi²². Kulolchilik sohasidagi bunday o'zgarishlar ilk o'rta asrlarga kelib o'zining har tomonlama taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan. Kulolchilik xumdonlari endi vohani barcha mintaqalarida uchraydi. Sopol buyumlar ishlab chiqarish ko'payib, yasash usullari va shaklida yangi turlar ommalashgan.

L.M. Levinaning yozishicha, "Qovunchi madaniyatining birinchi bosqichida sopol buyumlar, qo'lda lentasimon usulda aylanuvchi charx yordamida yasali ular O'tror-Qoratog' madaniyatiga juda o'xshash bo'lib, har ikkala madaniyatda ham o'troq va ko'chmanchilarga xos an'analarning qorishgan holatdagi ko'rinishi kuzatiladi²³. Chorvadorlarga oid yodgorliklarda o'rganilgan kulollik idishlarida dehqon jamoalar bilan ham aloqa (masalan, G'ulbo 2- mozoridagi ko'zalarda) seziladi. Ayni paytda, o'rganilgan kulollik idishlarida qo'shni Farg'ona, Choch, So'g'd bilan kuchli madaniy aloqada bo'lganligi seziladi. Umuman olganda, O'rta Sirdaryo bo'yi sopol idishlari klassifikatsiyasida, Qovunchi madaniyatining birinchi va ikkinchi bosqichlarida Sirdaryoning quyi qismidan kirib kelgan "Jeti-Osor" jamoalarining ta'siri kuchli bo'lganligi, uchinchi bosqichda esa, hududga o'troq voha So'g'd ta'sirining kuchayganligi seziladi²⁴. Ularga chizma naqshlar berish uchun to'liqinsimon va to'g'ri chiziqlardan foydalanilgan²⁵. Ba'zi idishlardagi qator to'liqinsimon chiziqlar taroqsimon ko'rinishda amalga oshirilgan.

Kulollik idishlari tavsifiga tayanib aytish

mumkinki, Ustrushonaning so'nggi antik va ilk o'rta asrlar sopo buyumlarida dastlab, Jetiasar, eramiz boshlarida esa Qovunchi madaniyatiga xos xususiyatlar ko'payadi. Bu idishlar asosan, qo'lda yasalgan bo'lib turli xil zoomorf tutqichli krujka va ko'zachalar, bir tomoni yassi flyagalar, qurbonlik stoli, qo'chqor va ho'kiz boshli qozon tagliklar va boshqa shu kabi buyumlarda yaxshi kuzatiladi. Bu kabi yasash usuli va shakllar mintaqa kulolchiligi uchun yangicha – Qovunchi madaniyatiga xos ko'rinishlar edi.

Dasht qabilalari ta'siri ilk o'rta asrlar me'morchilik inshootlarida yaxshi sezilib, ular Ustrushonaning cho'l – dasht, tekislik va tog' oldi mavzellarida bir qator qishloq makonlari paydo bo'ladi, M.H.Pardayev ularning evolyusiyasini to'rt yo'nalishda o'rganishni tavsiya qilgan²⁶. Ulardan, ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda mulkchilik munosabatlarining tarkib topishi, zodagon zamindor dexqonlar va ular tasarrufida ulkan patrialxal xo'jaliklarning vujudga kelishi natijasida, bir-biridan uncha uzoq bo'lmagan (600 – 800 m) holda gavjum joylashgan qal'a – qo'rg'onlar ko'paygan²⁷. Bu qal'alardan aksariyat hollarda harbiy maqsadlarda foydalanilgan bo'lib, birinchidan ular shaharlar mudofaasini zanjirli halqa misoli o'rab turgan, ikkinchidan ko'chmanchilarni dehqonchilik vohalariga talonchilik yurishlariga qarshi mudofaa vazifasini o'tagan.

Ma'lumki, Qovunchi madaniyatiga xos yangi taraqqiyot jarayonlari kulollik idishlaridan keyin me'moriy inshootlar qurilishida yaxshi seziladi. Endi inshootlarni baland tagkursi ustiga paxsa va xom g'ishtdan qurish, qurilish arxitekturasida esa aylana va xochsimon ko'rinishlar

22 Гайдукевич В.Ф. Керамическая обжигательная печь Мунчактепе. // КСИИМК. Вып. XXVIII. — М.-Л., 1949. С. 77-82.

23 Левина Л.М. Керамика нижней и средней Сырдарьи в I тысячелетии н.э... — С.179.

24 Левина Л.М. Керамика Нижней и Средней Сырдарьи в I тыс. н. э.— М., 1971. — С. 90-193;

Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы... — С. 70-80.

25 Тошбоев Ф.Э., Абдугаппаров Б. Х. Қовунчи маданияти ва унинг Уструшона хунармандчилигига таъсири ҳақида // « XII global science and innovations 2021: central asia». — Nur-Sultan, 2021 — С. 3-5.

26 Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Уструшонанинг ilk ўрта асрлар қишлоқ маконлари... — Б. 120-121.

27 Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Уструшонанинг ilk ўрта асрлар қишлоқ маконлари... — Б. 121.

ommalashgan. B.B.To'ychiboyev, Ustrushona ilk qishloq makonlari va shaharlarning vujudga kelishidagi omillarni sanab ko'rsatadi²⁸. Unga ko'ra, Ustrushonada barcha tarixiy davr va zamonlarda o'troq dehqon jamoalari bilan chorvador qabililar o'rtasida o'zaro iqtisodiy va moddiy madaniy hamkorlik tizimlari yo'lga qo'yilgani va aksariyat hollarda dehqonchilik jamoalari hayot tarzi va madaniyati ta'siriga tushib qolgan ko'chmanchilarning ommaviy tarzda o'troqlashganligidan dalolat beradi. Ularda Qovunchi madaniyatiga xos – keyingi davrda kirib kelgan xalqlar ta'sirida shakllangan yangi innovatsion o'zgarishlar qanchalik ortmasin, mahalliy madaniyat o'z xususiyatlari saqlanib qolgan. Umuman olganda, ilk o'rta asrlarda Ustrushonadagi urbanizatsiya jarayoni, iqtisodning ko'tarilishi, xunarmandchilikning taraqqiyoti va ixtisoslashuvi, qishloq va shahar qurilishi, demografiyasi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi va kengayishida milodiy I-IV va V-VII asrlar alohida ahamiyatga ega.

Shunday qilib xulosa qilish mumkinki, Ustrushona xalqlari madaniyatining tarixiy ildizlari mahalliy Nurtepa madaniyatiga oid me'morchilik tarixi, hunarmandchilik sohalari va diniy-ma'naviy hayotda namoyon bo'lishi, keyingi davrda kirib kelgan xalqlar ta'sirida esa yangi innovatsion o'zgarishlar kuzatilib, qorishiq madaniyat shakllansada, mahalliy madaniyat asos vazifasini o'tagan. Ustrushonada, turli xildagi me'moriy qurilish arxitekturasini va hunarmandchilik (asosan, kulolchilik) ishlab chiqarishi antik va ilk o'rta asrlarda o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan. Bunga, migratsiyalar natijasida ko'plab aholining kirib kelishi va yangi yerlarning jadal o'zlashtirilishi va qishloq xo'jaligining taraqqiyoti sabab bo'lgan. Bunyod etilgan inshootlar bir-biridan o'z funksional xususiyatlariga ko'ra, hajm, shakl, qurilish loyihasi va me'moriy xususiyatlar bo'yicha farq

qilgan. Bu holat moddiy manbalardagi mahalliy ildizlarga ega o'troq va dashtdan kirib kelgan chorvador aholiga xos xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Antik va ilk o'rta asrlarga oid aholi manzilgohlari va shaharlar taraqqiyotida Buyuk ipak yo'lga nisbatan geografik jihatdan qulay joylashganligi ham katta ahamiyat kasb etgan.

28 Тўйчибоев Б.Б. Уструшонада урбанизацион жараёнлар ва давлатчилик тизимининг шаклланиши ҳусусида // Уструшона Буюк ипак йўлида, унинг минтақалараро сиёсий – иқтисодий ва маданий муносабатларни ривожлантиришдаги ўрни (антик ва ўрта асрлар даврида). – Гулистон, 2016. – В. 174.

INKLYUZIV TA'LIMDA HAMKORLIK VA UNING SHAXS KAMOLOTIDAGI O'RNI

**Muyassar Furqat qizi Inomova – tayanch doktorant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida hamkorlik muhiti yaratishning ahamiyati hamda uning shaxs kamolotiga ta'siri tahlil qilinadi. Muallif ta'lim jarayonida o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik hamkorlikni shakllantirish metodlarini ko'rib chiqadi. Shuningdek, har xil ehtiyojga ega bolalar bilan samarali muloqot va qo'llab-quvvatlash muhitining shaxsiy rivojlanishga ijobiy ta'siri ilmiy-nazariv va amaliy asosda voritiladi.

Аннотация. В данной статье анализируется значение создания среды сотрудничества в условиях инклюзивного образования и её влияние на личностное развитие. Автор рассматривает методы формирования социально-психологического взаимодействия между учителем, учеником и родителями в образовательном процессе. Также раскрывается теоретически и практически положительное воздействие эффективного общения и поддерживающей среды на развитие личности детей с различными потребностями.

Abstract. This article analyzes the importance of creating a collaborative environment in inclusive education and its impact on personal development. The author examines methods of establishing socio-psychological cooperation among teachers, students, and parents in the educational process. It also highlights, both theoretically and practically, the positive influence of effective communication and a supportive environment on the personal growth of children with diverse needs.

Kalit soʻzlar: inklyuziv taʼlim, individ, hamkorlik, integrasiya, muloqot, ijtimoiylashuv, oʻyin, oʻqish, mehnat, ijod qilish, artikulyatsion organlar, psixologik tizimlar, shaxs va jamiyat.

Ключевые слова: инклюзивное образование, индивид, сотрудничество, интеграция, коммуникация, социализация, игровая деятельность, обучение, трудовая деятельность, творческая деятельность, артикуляционные органы, психологические системы, личность, общество.

Keywords: inclusive education, individual, collaboration, integration, communication, socialization, game, learning, labor, creative activity, articulatory organs, psychological systems, personality, society.

Hozirgi davrda inklyuziv ta'lim, inklyuziv jamiyat tushunchalari aholi o'rtasida keng ommalashib bormoqda. Ammo, bugungi kunda alohida ehtiyojli va nogironlikka ega bo'lgan barcha bolalar ham inklyuziv ta'limga to'liq jalb qilinmagan. Zero, Vigotskiy ta'kidlaganidek, har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi. Bu masalani hal qilish uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish, nuqsoni va nogironligi bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirishga qaratilgan normativ hujjatlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya

berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori¹ hamda "2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi" va "Yo'l xaritasi" inklyuziv ta'limni rivojlantirish va nogironlikka ega bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlashda muhim hisoblanadi.

Qadimgi Yunon olimi Platon o'z asarlarida shaxsning jamiyat bilan aloqalari masalasiga to'xtalib, jamiyat individga nisbatan o'zgarmas birlik bo'lib, shaxsning kamol topishi jamiyat rivojlanishi qonunlariga bo'ysunadi, degan fikrni bayon qilgan. Aristotel esa, individni jamiyatda kechayotgan barcha ijtimoiy o'zgarishlarning

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori.

sababchisi, chunki jamiyatda bunga imkon beruvchi psixologik tizimlar bor, deb yozadi. Ya'ni, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabat masalasi Platonda jamiyat foydasiga hal bo'lgan bo'lsa, Aristotelda bu narsa shaxs ekanligi e'tirof etilgan². Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Nizomulmulk, Ibn Xaldun, Alisher Navoiy kabi sharq allomalari bu masalani ijtimoiy psixologik muammo darajasida alohida tahlil qilmagan bo'lsa-da, shaxs kamoloti uning jamiyatda tutgan o'rni, jamiyat rivojlanish qonuniyatlarida yetakchi shaxsning tutgan o'rni hamda inson va jamiyat munosabatlaridagi qarama-qarshiliklarni ilmiy asosda sharhlashga harakat qilishgan.

Inklyuziv ta'limda o'zaro hamkorlik – integratsiya muhim o'rin tutadi. Chunki, kishilar o'rtasidagi muloqot – ijtimoiylashuv odamlarning hayotini to'la to'kis tashkil etishi uchun zaruriy ko'nikmalarga ega bo'lishidir. Muloqot odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari (o'yin, o'qish, mehnat, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi³. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishi, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishi, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir. Bolaning ijtimoiy munosabatlarga kirishishida uning oila va boshqa muassasalarda orttirgan tajriba va dunyoqarashi muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, ijtimoiylashuv jarayoni har

bir bosqichda oldingisiga asoslanadi, va uning sifati oldingi ijtimoiylashuv muvaffaqiyati bilan belgilanadi. Har qanday odam (indivud)ning ijtimoiylashuvi avvalo oiladan boshlanishi esa hamkorlik muhitining asosi bo'lib, u odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallaydi va insondagi eng muhim ehtiyojni – jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi⁴. A.V.Petrovskiyning fikricha ijtimoiylashuv 3 bosqichda amalga oshadi: moslashuvchanlik, individuallik, integrativ. Ijtimoiylashuv, uzluksiz jarayon bo'lib, bola tug'ilgandan to shaxs bo'lib shakllanishi va keyingi davrlarda ham davom etadi. Bola uchun ilk ijtimoiylashuv jarayoni muhim bo'lib, u keyingi davrda barcha hamkorlik jarayonlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni bolalik davri 1-bosqichga, moslashish bosqichiga to'g'ri keladi. Bu vaqtda bolalar elementar normalar va qoidalarni, ijtimoiy rollarni, faoliyatning oddiy shakllarini o'zlashtiradi.

Ushbu masalaga oid I.S.Kon, A.V.Mudrik, V.S.Muxina, A.V.Petrovskiy, A.P.Ganicheva, O.L.Zvereva, S.V.Kupriyanovlar va boshqa olimlarning tadqiqotlarini sanash mumkin. Shuningdek, oila tarbiyasidagi pedagogik sharoitlardan biri oila a'zolari o'rtasidagi norasmiy munosabat va oilada qo'yilgan talablarni bajarishda ijtimoiy faollik namoyon bo'lishi E.P.Arnautova, S.V.Kupriyanov, R.K.Serejnikova, S.N.Teplyuk kabi olimlar tadqiqotlarida asoslangan. Umuman olganda, ushbu olimlarning asarlarida bolalarning ijtimoiylashuvi avvalo oiladan boshlanishi, mehnat va mustaqil faoliyat jarayonida aka, ukasi, opasi va tengdoshlari bilan muloqot qilishlari natijasida, bolalarni muloqot qilish ko'nikmalari asta-sekinlik bilan shaxs sifatida shakllanishlariga zamin yaratishi va uning barchasi ta'lim muassasalarida sayqal

2 Мирхалиқов Б.З. Мактабгача ёшдаги болаларнинг ижтимоийлашуви омиллари // Замонавий узлуksиз таълим муаммолари: инновация ва истиқболлар халқаро илмий конференция материаллари. 1-қисм. Тошкент, 2018. Б. 488-489.

3 Мо'minoва Л.Р. Инкlyузив та'лимдан инкlyузив жамиятга // "Инкlyузив та'лимдан инкlyузив жамият сари: стратегиялар, таърибалар ва замонавий технологиялар" мавзусидagi республика илмий-амалий анжумани/ - Тошкент, 2024. - б. 245-247.

4 Колбаева Х. Имконияти чекланган болаларнинг оилаларида психологик-педагогик ёрдамни ташкил этиш муаммолари // «Здоровый образ жизни – основа гармонично развитого поколения» – Тошкент, 2010. – Б. 155.

topishi asoslangan.

Bugungi kunda mamlakatimizda inklyuziv ta'lim muammolari bilan shug'ullanayotgan G'.B.Shoumarov, L.R.Muminova R.Sh. Shomahmudova, X.Kolbayeva, A.Berdiyeva, O.U.Ablayev, D.S.Qaxarova kabi olimlarning tadqiqot ishlarida muammolar nazariy jihatdan o'rganilgan. Zamonaviy pedagogikada bola ijtimoiylashuvida tarbiyachining mahorati, muloqotchanligi, ayniqsa tarbiyachi shaxsining kasbiy kompetensiyasi ham muhim rol o'ynashi va bola ijtimoiylashuvining o'ziga xos xususiyatlari maktabgacha yoshdagi bolalarning psixofiziologik va yosh xususiyatlariga bog'liqligi asoslangan.

Inklyuziv ta'limda kar va zaif eshituvchi bolalarni o'qitishga ixtisoslashgan maktablarda olib borilayotgan korreksion-pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlardan biri hamkorlikda ishlash hisoblanadi. Bu ish dars mashg'ulotlari va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida turli usullardan foydalanib amalga oshiriladi⁵. Ta'limiy o'yinlardan foydalanish orqali darsning qiziqarli tashkil etilishiga erishiladi, o'quvchining eshitish idrokini o'stirish bilan bir qatorda uning aqliy taraqqiyoti, ruhiy jarayonlari, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, diqqati hamda tasavvurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ulardan nutqni harakatga keltiruvchi analizator eshituv analizatori bilan mahkam bog'langan holda ishlaydi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar eshituv analizatorining rivojlanish darajasi vaqt o'tgan sari yanada mustahkamlanib, zo'rayib boradi. Bunday holatda nutq nuqsonlarini o'z vaqtida bartaraf etish o'qituvchi va tarbiyachi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Nutq materialini to'g'ri tanlash o'qituvchidan izlanish,

bilimdonlik, intilish va o'z navbatida sabr-toqatli bo'lishni talab etadi. Nutq materiallarini tanlashda avvalo bolaning yoshi, o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. Shu bilan birga nutq materiali o'tilayotgan mavzuga oid bo'lishi kerak. Bolalardagi nutq nuqsonlarini tuzatishda ko'rgazmali qurollar bilan birgalikda ta'limiy o'yinlarning roli kattadir. Chunki ko'rib ham eshitib idrok etishning faqat eshitib idrok etishdan ko'ra samarasi katta bo'ladi. O'yin orqali o'quvchi darsda zerikmaydi, qiziqishi ortadi, fikrlash qobiliyati kengayadi. Bog'cha va maktabning tayyorlov va boshlang'ich sinflarida bolalarning ovozi yo'q yoki past, manqa, qichqiriqli, un paylari yaxshi rivojlanmagan, talaffuz a'zolarining faoliyati sust, harakatsiz bo'ladi⁶. Mazkur kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan mashqlar o'yinlar orqali olib borilsa, yanada qiziqarli bo'ladi.

Bog'cha, maktabning tayyorlov va boshlang'ich sinflarida o'quvchining artikulyatsion organlari harakatini rivojlantirishda quyidagi mashqlarni o'yinlar bilan olib borish mumkin:

1. Belkurakcha o'yini. Bunda til keng holda chiqarilib, bo'shashtirilib, pastki lab ustiga qo'yiladi. Bunda til titramasligini o'qituvchi nazorat qilib turishi kerak.

2. Kosacha o'yini. Og'iz keng ochilib, til keng chiqariladi va yuqoriga ko'tariladi. Til yuqori tishlar tomon olib boriladi. Lekin ularga teginilmaydi.

3. Naycha o'yini. Til keng holda chiqariladi. Tilning ikki yon tomoni yuqori tomonga buklanadi. Hosil qilingan naychadan puflash mashqlarini bajarsa ham bo'ladi.

4. Soatcha o'yinida til uzun, ingichka qilib chiqariladi, so'ng shu holda til og'izning o'ng burchagidan chap burchagiga tomon harakatga

5 Jo'raboeva D. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni inklyuziv ta'lim orqali musiqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari // Science and innovation international scientific journal. №3. 2022. R. 19-23..

6 Safoeva D. Maxsus ta'limda innovasion texnologiyalardan foydalanish // Boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirish: muammolar va echimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 3-kitob. – Toshkent, 2024. – B. 6-7. Shomaxmudova R., Berdieva A. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitish uslublari. –Toshkent, 2008. – B. 14-17.

keltiriladi.

5. Ot o'yinida til tanglay tomon so'rilib, so'ng qo'yib yuboriladi. Shunda til taqillagan ovoz chiqaradi.

6. Mazali murabbo o'yini⁷. Til keng holda chiqarilib, yuqori lablar yalanadi va yana og'iz ichiga olinadi.

7. G'altak, Bo'yoqchi kabi qator o'yinlardan ham foydalanish mumkin. Bu mashqlarni nomi aytilishi va o'yin shartlari tushuntirilib, so'ng bajarilishi lozim.

"Belkurakcha" o'yini orqali til harakatlarini rivojlantirishni batafsil ko'rib chiqamiz. Maktabgacha ta'lim muassasalari hamda tayyorlov va boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan artikulyatsion mashqlar orasida "Belkurakcha" o'yini alohida ahamiyatga ega. Ushbu mashq nafaqat tovushlarni aniq talaffuz qilishga zamin yaratadi, balki til mushaklarini chiniqtirish, uni boshqarish va mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Bunda mashq mazmuni quyidagicha bo'ladi: "Belkurakcha" o'yinida boladan o'z tilini keng holatda chiqarib, bo'shashtirilgan tarzda pastki lab ustiga qo'yishi so'raladi. Til to'liq chiqib turgan bo'lishi, u bo'sh va harakatsiz, titramasdan turishi kerak.

Mashqni bajarish tartibi:

1. Bola tik va to'g'ri o'tiradi, boshi oldinga egilmagan, orqa qismi suyangan bo'lishi lozim.

2. Og'iz ochiladi va til asta-sekin tashqariga chiqariladi.

3. Til keng holatda chiqariladi – tilning uchki qismi pastki lab ustiga yotqiziladi.

4. Til bo'shashgan holatda 5–10 soniya davomida shu holatda ushlab turiladi.

5. Bunda o'qituvchi yoki logoped bolaning til harakatsizligi, titramasligi va to'g'ri joylashuvini

nazorat qilib boradi.

6. Agar til titrasa yoki mushaklar taranglashsa, bola biroz dam oldirilib, mashq qayta takrorlanadi.

Bolalarga ushbu mashqni qiziqarli o'yin shaklida taqdim etish lozim. Masalan: "Keling, biz belkurakcha yasaymiz! Bu belkurakcha juda tinch turishi kerak. U shamolda hilpiramasligi kerak!". "Kimning belkurakchasi eng uzoq vaqt qimirlamay turadi? Keling, musobaqalashaylik!". Qiziqarli obrazlardan – ayiqcha, quyoncha, quyoshcha kabi personajlardan foydalanish orqali mashqni jonlantirish mumkin. Bunday mashq til mushaklarini bo'shashtiradi va taranglikni kamaytiradi, artikulyatsion a'zolari mustahkamlaydi, bola tovushlarni aniqroq talaffuz qilishga zamin yaratadi, diqqatni jamlash va motor koordinatsiyani rivojlantiradi.

Mashqni o'yin bilan uyg'unlashtirish bolaning nutqiy faolligini oshiradi, unga ishtiyoq bag'ishlaydi. Bu usul ayniqsa inklyuziv ta'lim muhitida, har xil rivojlanish darajasiga ega bolalar bilan ishlayotganda, o'ta samarali hisoblanadi.

Bunday mashqlarda nafasni olishni to'g'ri yo'lga qo'yish muhim. Buning uchun: burun (og'iz)dan nafas olib og'iz (burun)dan chiqarish (2– 3 marta), shar shishirish, hushtak chalish, gulni hidlash hamda paxta, qog'oz, kapalak, gullarini puflab uchirish kabi mashqlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Bu mashqlar bolada o'ziga nisbatan ishonch, tengdoshlariga nisbatan hurmat va o'zaro aloqadorlik hissini rivojlantirib, hamkorlikda ishlash ko'nikmasi shakllantiradi⁸.

Umuman olganda, ta'limga qo'yiladigan davlat talablarining ijtimoiy-kommunikativ rivojlantirish sohasida bolalarda ijtimoiylashuv, muloqot va odob-axloq qoidalarini shakllantirish, ularning oila va jamiyatda o'zini tutishga o'rgatish kabi talablar belgilangan. Maktabgacha

7 Safoeva D. Maxsus ta'limda innovasion texnologiyalardan foydalanish. – B. 8.

8 Madatov I. Inkluziv ta'lim. Darslik. Toshkent-2024. – B. 123-127.

yoshdagi 5-6 yosh bolalarni ijtimoiylashuvi vositalari madaniyat obyektlari va ijtimoiy muhit, ijtimoiy-estetik vaziyatlar, ijtimoiy faol metodlar hisoblanadi. Bolalarni ijtimoiylashuvida ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy madaniy qadriyatlarni bolaning yosh imkoniyatlariga xos ravishda shakllantirish lozim⁹. Bunda bolada shaxsiy sifatlar muloqotchanlik, ochiqlik va bag'rikenglik ijtimoiylashuv mexanizmi hisoblanadi.

Bugungi kunda ko'plab jahon davlatlarida inklyuziv ta'lim tizimida hamkorlik muhitini joriy qilish borasida amaliy tajribalar to'plangan. Italiya, Norvegiya, Shvetsiya kabi mamlakatlar alohida ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga to'liq integratsiyalab, maxsus korreksion maktablarning yopilishiga erishdilar¹⁰. Biroq maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim tizimi sharoitiga qabul qilgan davlatlar jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalash va kompensasiyalashga yo'naltirilgan qo'shimcha ta'lim xizmatini ko'rsatish mas'uliyatidan ozod etilmaydi. AQSh, Buyuk Britaniya, Daniya kabi bir qator mamlakatlarda maktab turini tanlash qonun tomonidan belgilanadi, ota-onalar esa ta'lim turini tanlashni yozma ravishda tasdiqlashi, ayrim hollarda asoslab berishlari lozim, deb topilgan.

Avstriyada inklyuziv ta'lim tizimining modeli to'rtta turga ajratilgan. Unda inklyuziv sinflar-umumta'lim maktablariga bittadan to'rttagacha maxsus ehtiyojli o'quvchilar qabul qilinadi. Bitta maxsus ehtiyojli o'quvchi ikkita sog'lom boladek hisoblanib, sinfdagi bolalarning umumiy soni qisqartiriladi. Sinfdagi ikkita o'qituvchi ishlab ulardan biri maxsus tayyorgarlikka ega bo'lib, bolalar bilan haftasiga 4 soatdan 6 soatgacha korreksion mashg'ulotlar olib boradi. Maxsus ehtiyojli bolalar individual

dasturlar asosida o'qitiladi. Hamkorlik qiluvchi sinflar-ixtisoslashtirilgan va umumta'lim maktablarining sinf o'qituvchilari tomonidan belgilangan hamkorlikni amalga oshiradi.

Kichik komplektli maxsus sinflarda 6-11 nafar maxsus ehtiyojli o'quvchi jamlanadi hamda maxsus o'quv reja va dasturlar asosida o'qitiladi. Yordamchi o'qituvchilar-oddiy sinfga 4 nafar va undan ko'p maxsus ehtiyojli o'quvchilar jamlanadi hamda maxsus tashxis qilish va korreksion metodikalarni qo'llay oladigan o'qituvchi lavozimi joriy etiladi¹¹. Bu usullar pedagogik tajriba-sinov va maktablarni rivojlantirish markazlari tomonidan inklyuziv sinf modeli eng samarali deb topilgan.

Bolalardagi xulq-atvorning o'ziga xosligi, muloqotning yangicha tus olishi, kattalarga nisbatan munosabat bilangina emas, balki ularga o'zining ta'sirini o'tkazish orqali ham namoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy munosabatlarning asosiy jihatlari harakatlarning maqsadli yo'naltirilganligi bilan belgilanib, bola xulq-atvori va o'zlashtirish darajasining faolligi orqali rivojlana boradi. Bolalar xulq-atvoriga, ularning tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlariga qo'yiladigan talablar ham ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida hamkorlikda ishlash natijasida, ifodaviy sifatlar shakllana boradi, xarakter xislatlari barqarorlashadi, unda mustaqillikka intilish tuyg'usi paydo bo'ladi. Bolada shaxs sifatlarining shakllanishi uning tirishqoqligi va qiyinchiliklarni yenga olish, o'zgalarga bo'lgan ijobiy munosabatning paydo bo'lishi bilan namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, bolaning ijtimoiylashuvi uzoq va murakkab jarayon bo'lib, u guruhda, oilada jamoat ishlarida va mehnat jarayonida namoyon bo'lib boradi. Bolalar bilan hamkorlikda ishlash

9 Мирхалиқов Б.З. Мактабгача ёшдаги болаларнинг ижтимоийлашуви омиллари // Замоновий узлуксиз таълим муаммолари: инновация ва истиқболлар халқаро илмий конференция материаллари. 1-қисм. Тошкент, 2018. Б. 488-489.

10 Shomaxmudova R., Berdieva A. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitish uslublari. –Toshkent, 2008. – B. 14-17

11 Shomaxmudova R.Sh. Maxsus va inklyuziv ta'lim xalkaro va milliy tajribalar. –Toshkent: «Chashma print», – Toshkent, 2011. – B. 55-63.

va uning ijtimoiy rivojlanishi natijasida, har bir nuqsoni yoki nogironligi bor bola o'zining harakatlariga baho berish, begonalar oldida o'zini tutish, muloqot jarayonida fikri, bilimi, hissiyoti va taassurotlarini bildirib olish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Shu bilan birgalikda, tengdoshlarining noto'g'ri harakatlariga baho berish, kattalarga murojaat qilish va ularga o'z fikrini bildirib olish hamda o'zlashtirgan yoki xotirasidagi so'z boyligidan to'g'ri va maqsadli foydalanishni boshlaydi. Ayni paytda, bolalarda shaxs sifatleri shakllanib, ularda kattalarga taqlid qilish, o'zaro munosabatga kirishish, g'amxo'rlik, mehribonlik, qiziquvchanlik, o'ziga nisbatan talabchanlik hislari paydo bo'ladi. Bu jarayon albatta uzoq davom etadigan ta'lim mashg'ulotlari natijasida o'zlashtirilib, buning uchun bola va o'qituvchi, bola va jamoa tamoyillariga amal qilish muhim hisoblanadi, nihoyasida asosiy rol o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'ladi. Shunday tizimni yo'lga qo'yish, inklyuziv ta'limga jalb qilingan bolada atrof-muhitga, tengdoshlariga, o'zgalarga nisbatan munosabatda ijobiy tomonga o'zgarish yasaydi va kelgusida bolaning barkamol shaxs sifatida kamol topishiga yo'l ochadi.

ПОЭТИКА ПУБЛИЧНОСТИ И КУЛЬТУРНАЯ ПАМЯТЬ В ЛИРИКЕ ЕВГЕНИЯ ЕВТУШЕНКО: ГРАЖДАНСКОЕ, ФИЛОСОФСКОЕ И ЛИЧНОЕ В КОНТЕКСТЕ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ ДИНАМИКИ ВТОРОЙ ПОЛОВИНЫ XX ВЕКА

Шахло Тошмамат кизи Эшнӣёзова –
независимый исследователь, Казанский
(Приволжский) федеральный университет

Аннотация. Статья посвящена комплексному анализу поэтического творчества Евгения Александровича Евтушенко в контексте социокультурной динамики второй половины XX века. Автор рассматривает основные тематические линии его поэзии – гражданскую, философскую, любовную – через призму исторической памяти, поэтики публичности и лирического самовыражения. Особое внимание уделяется роли поэта в обществе, его миссии как посредника между индивидуальным и коллективным сознанием. Анализируется взаимодействие между личным и общественным в поэтическом дискурсе Евтушенко, а также используются методы контекстуального, интертекстуального и мотивно-тематического анализа. Статья опирается на широкий круг литературоведческих и культурологических источников, отражающих актуальные подходы к исследованию поэзии шестидесятников.

Annotatsiya. Ushbu maqola Evgeniy Aleksandrovich Evtushenkoning she'riy ijodini XX asrning ikkinchi yarmidagi sotsiomadaniy dinamikasi kontekstida kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Muallif uning fuqarolik, falsafiy va sevgi mavzularini tarixiy xotira, ommaviylik poetikasi hamda lirik ifoda prizmasi orqali ko'rib chiqadi. She'rda shoirning jamiyatdagi o'rni, individual va kollektiv ong o'rtasidagi vositachi sifatidagi roli alohida tahlil qilinadi. Evtushenkoning she'riy diskursida shaxsiy va ijtimoiy o'zaro ta'siri kontekstual, intertekstual va motiv-mavzu yondashuvlari orqali o'rganiladi. Maqola oltmishinchi yillar adabiyotini tahlil qilishga zamonaviy yondashuvlarni aks ettiruvchi keng doiradagi adabiy va madaniy manbalarga asoslanadi.

Abstract. This article offers a comprehensive analysis of the poetic work of Yevgeny Aleksandrovich Yevtushenko in the context of the socio-cultural dynamics of the second half of the 20th century. The author examines the main thematic lines of his poetry – civic, philosophical, and romantic – through the lens of historical memory, the poetics of publicness, and lyrical self-expression. Special attention is given to the poet's role in society and his function as a mediator between individual and collective consciousness. The interaction between the personal and the public in Yevtushenko's poetic discourse is analyzed using contextual, intertextual, and motif-thematic methods. The article draws on a wide range of literary and cultural studies sources reflecting current approaches to the study of the poetry of the Sixtiers.

Ключевые слова: Евгений Евтушенко; шестидесятники; гражданская поэзия; культурная память; поэт и общество; поэтика публичности; лирический субъект; советская культура; интертекстуальность; идентичность.

Kalit so'zlar: Yevgeniy Yevtushenko; oltmishinchi yilliklar; fuqarolik she'riyati; madaniy xotira; shoir va jamiyat; ommaviylik poetikasi; lirik subyekt; sovet madaniyati; intertekstuallik; identifikatsiya.

Keywords: Yevgeny Yevtushenko; Sixtiers; civic poetry; cultural memory; poet and society; poetics of publicness; lyrical subject; Soviet culture; intertextuality; identity.

Творчество Евгения Александровича Евтушенко (1932–2017) представляет собой уникальный культурный феномен советской и постсоветской эпохи. Поэт, эссеист,

киносценарист, публицист и общественный деятель, Евтушенко стал живым символом «оттепели» – периода обновления, надежды и духовного пробуждения советского общества

после сталинской эпохи¹. Его фигура оказалась на пересечении литературы, политики, массовой культуры и общественной жизни, воплощая в себе не только художественное, но и идеологическое измерение эпохи.

Являясь одним из центральных представителей поколения шестидесятников, Евтушенко занял уникальную позицию: он был не просто наблюдателем, но активным участником и комментатором исторических процессов. Его стихи читались на многотысячных площадках, становились манифестами гражданского сознания, транслировались по радио и печатались в главных литературных журналах страны². В этом контексте творчество поэта рассматривается как форма социального взаимодействия, как способ артикуляции коллективных эмоций, идеалов и протестов.

Тематика произведений Евтушенко охватывает широкий и многослойный спектр – от гражданской ответственности и исторической памяти до философских размышлений о судьбе поэта и природы вдохновения, от интимных переживаний до размышлений о ценностях человеческого достоинства и свободы. Его поэзия становится площадкой для полифонического диалога между личным и общенациональным, между пережитым и осмысленным, между поэтическим словом и политическим контекстом³.

В статье рассматривается комплексный анализ основных тематических линий поэтического творчества Евгения Евтушенко в контексте социокультурной динамики второй половины XX века. Для достижения этой цели в исследовании ставятся следующие задачи:

- выявить ключевые тематические доминанты в поэзии Евтушенко;
- определить их связь с историческим и общественным контекстом;
- проанализировать поэтические средства выражения гражданской, философской и лирической позиции автора;
- выявить особенности взаимодействия между личностным и коллективным в поэтическом дискурсе;
- интерпретировать тексты с точки зрения культурной памяти и идентичности.

Интересом к поэзии Евгения Евтушенко неослабевает, как к художественному и социокультурному феномену, отражающему противоречия и надежды своей эпохи. В свете современных гуманитарных подходов, предполагающих внимание к интертекстуальности, культуре памяти и поэтике публичности, исследование его творчества открывает новые горизонты интерпретации.

Анализ поэтического наследия Евгения Евтушенко уже давно находится в фокусе внимания как литературоведов, так и культурологов, политических мыслителей и философов искусства. Его творчество рассматривается сквозь призму различных дисциплин: от поэтики и лирической типологии до социокультурного анализа.

Одним из значимых исследователей творчества Евтушенко является В.Е.Есин, в работе «Евгений Евтушенко: поэт и эпоха» анализирующий синтез личного и исторического начала в поэзии автора⁴. Исследователь подчеркивает, что Евтушенко стал голосом поколения шестидесятников,

1 Есин В. Е. Евгений Евтушенко: поэт и эпоха. – М.: Литературная академия, 2017. С 46–48.

2 Белая Г. В. Поэтика гражданской лирики Е. Евтушенко // Вестник гуманитарных наук. – 2019. – № 2. – С. 45–52.

3 Иванова Л. П. Голос поколения: поэт в культуре оттепели // Социальные и гуманитарные науки. – 2020. – № 1. – С. 37–44.

4 Есин В. Е. Евгений Евтушенко: поэт и эпоха. – М.: Литературная академия, 2017. С.59–61.

выражая не только личные переживания, но и общественные настроения, что делает его поэзию документом эпохи.

Г.В.Белая в работе «Поэтика гражданской лирики Е.Евтушенко»⁵ предлагает детальный анализ художественного инструментария поэта, включая жанровые формы, риторические фигуры, стилистические регистры. Исследовательница акцентирует внимание на том, как гражданская позиция трансформируется в выразительные поэтические формы. По её мнению, в лирике Евтушенко особую роль играют пафос, риторическая энергия и синтез личного и общечеловеческого опыта.

Т.С.Николаева в статье «Миф о шестидесятниках в автобиографической поэзии Евгения Евтушенко» рассматривает тексты поэта как часть более широкого поэтического мифа эпохи, в котором переплетаются биографическое, культурное и символическое⁶. Исследовательница подчеркивает, что Евтушенко выстраивает образ поэта-шестидесятника как героя общественной сцены, при этом не теряя авторской индивидуальности.

Также заслуживают внимания исследования Л.П.Ивановой, Т.А.Стрельниковой, А.М.Тимофеева, посвящённые образу поэта, теме личной ответственности в культуре оттепели, поэтике публичного слова, роли риторики в лирическом дискурсе⁷.

Методология настоящего анализа основывается на междисциплинарном подходе, сочетающем принципы контекстуального, мотивно-тематического и интертекстуального анализа. Такой подход

позволяет более глубоко осмыслить тексты Евтушенко в их историко-культурной и литературной проекции⁸.

Контекстуальный анализ предполагает сопоставление поэтических текстов с социально-политическим и культурным контекстом эпохи. Учитывается влияние оттепельной атмосферы, ожидания перемен, дискуссия о свободе личности и ответственности художника.

Мотивно-тематический анализ используется для систематизации ведущих лирических тем: гражданской ответственности, исторической памяти, любви, судьбы народа, роли поэта. Эти темы изучаются не изолированно, а во взаимосвязи с внутренней логикой поэтического мира Евтушенко.

Интертекстуальный анализ позволяет выявить связи поэта с традициями русской поэзии – от Некрасова и Маяковского до Пастернака и Ахматовой. Евтушенко сознательно вступает в диалог с литературным канонами, обновляя классические образы и мотивы через призму современной рефлексии.

Дополнительно применяются элементы нарратологического анализа (исследование лирического субъекта и его речевых стратегий), поэтической герменевтики (интерпретация символов и образов), а также культурной критики, позволяющей рассматривать стихи как форму социальной репрезентации.

Таким образом, методологическая стратегия сочетает в себе как традиционные филологические методы, так и современные

5 Белая Г. В. Поэтика гражданской лирики Е. Евтушенко // Вестник гуманитарных наук. – 2019. – № 2. – С. 45–52.

6 Николаева Т. С. Миф о шестидесятниках в автобиографической поэзии Евгения Евтушенко // Вопросы литературы. – 2021. – № 4. – С. 91–103.

7 Иванова Л. П. Голос поколения: поэт в культуре оттепели // Социальные и гуманитарные науки. – 2020. – № 1. – С. 37–44.

8 Лосев Л. А. Поэзия шестидесятников: личное и общественное // Новое литературное обозрение. – 2004. – № 65. – С. 113–128.

подходы к исследованию поэтического текста как динамической формы культурного сознания.

Гражданская лирика Евгения Евтушенко – это реакция на острые социальные, политические и нравственные проблемы своего времени. В этой сфере поэт выступал не только как художник, но и как моральный судья, стремящийся пробудить совесть общества. Одним из наиболее ярких примеров является стихотворение «Бабий Яр» (1961), в котором он осуждает антисемитизм и массовое замалчивание трагедии Холокоста. В советской литературе того времени подобная откровенность воспринималась как поступок.

Стихотворение «Наследники Сталина» (1962) ознаменовало собой попытку художественного осмысления последствий сталинского террора. Евтушенко предстает как поэт, пытающийся предупредить общество о недопустимости повторения ошибок прошлого. Он использует яркие метафоры, эмоциональную ритмику и прямую риторическую речь, чтобы усилить воздействие текста на читателя. Поэт пишет: «Я боюсь наследников Сталина. Я боюсь, что они уже среди нас» – это не просто художественное утверждение, а откровенная политическая декларация, обладающая пророческим потенциалом.

Таким образом, гражданская поэзия Евтушенко – это синтез социального протеста, гуманистических ценностей и поэтической экспрессии, превращающей стих в форму общественного диалога.

Особенность Евтушенко заключается в том, что он не только фиксировал текущие события, но и стремился восстановить «вытесненную» память – о репрессированных, забытых героях, трагических поворотах истории. Его поэзия становится своего рода поэтическим архивом нации. В произведениях, таких

как «Станция Зима», «Мама и нейтронная бомба», «Таня», автор соединяет личное с национальным и историческим опытом.

«Станция Зима» – это одновременно метафора жизненного пути и конкретная топография памяти. Через призму родного сибирского пространства Евтушенко осмысляет судьбу своей страны. Простые детали – станция, вокзал, снег – обретают символическую глубину. В его поэзии история – это не хронология, а переживание.

Благодаря поэтическому языку документальные темы становятся не отчуждённо-холодными, а глубоко человеческими и эмоционально окрашенными. Стихотворения Евтушенко выступают в роли свидетельства, а поэт – как хроникёр, сохраняющий историческую правду в форме художественного слова.

Любовная тематика в поэзии Евтушенко занимает не меньшее место, чем гражданская. Однако его любовная лирика не сводится к банальному выражению чувств – она наполнена психологической рефлексией, внутренней драматургией и даже философскими размышлениями. В отличие от поэтов-классиков, Евтушенко изображает любовь как сложное, противоречивое переживание, сопряжённое с болью, ревностью, чувством утраты и стремлением к близости.

В стихах «Ты у меня одна», «Любовь – не картошка», «Письмо женщине» любовь показана как борьба между эмоциональной открытостью и невозможностью полного взаимопонимания. Женский образ в его поэзии часто многозначен: он одновременно объект желания, упрёка, боли и надежды. Поэт не боится говорить о уязвимости мужчины, его эмоциональной зависимости от любви и её последствий.

Любовь у Евтушенко – это не только личное,

но и экзистенциальное. Через отношения с женщиной он размышляет о смысле жизни, о предназначении, о временности человеческого существования. Такая глубина делает его интимную лирику универсальной.

Одна из главных тем, проходящих через всё творчество Евтушенко – это осмысление роли поэта и поэзии в обществе. Он неоднократно обращается к вопросам творческой миссии, этики поэтического слова, ответственности перед историей и перед читателем. В стихотворении «Поэт в России – больше, чем поэт» он утверждает необходимость социальной функции поэзии.

Поэт предстает как посредник между властью и народом, между правдой и страхом, между индивидуальной болью и коллективной памятью. Он не стремится к элитарности и замкнутости художественного языка – наоборот, его стиль отличается открытостью, ритмичностью, использованием разговорной лексики и сильной риторической интонацией. Евтушенко выстраивает поэтическое пространство как пространство общения, а не самовыражения.

Такое понимание поэзии сближает его с традициями Маяковского и Некрасова, но в то же время придает его поэзии авторскую уникальность, сочетающую публицистику с исповедальностью.

Тематика Родины и народа в поэзии Евтушенко всегда решалась не в пафосно-официальном, а в личностно-переживательном ключе. Он не рисует абстрактную «Россию», а говорит о конкретных местах, людях, деталях. В стихах «Станция Зима», «Я был в этой деревне», «Стихи из деревни» поэт показывает родину не как идеологическую конструкцию, а как часть собственной биографии, систему

привязанностей, эмоциональное ядро.

Народ в его поэзии – это не масса, а совокупность отдельных человеческих судеб. Он восхищается простыми людьми – бабушками, крестьянами, машинистами, солдатами, интеллигентами, способными на честность, терпение, сострадание. Через образы этих людей поэт раскрывает своё представление о «настоящей России» – неофициальной, неказённой, но глубоко живой и подлинной.

Такое изображение народа и Родины помогает Евтушенко выстроить поэтический миф, основанный на реальных переживаниях и наблюдениях. Он разрушает идеологические клише, предлагая взамен человечную, достоверную и эмоционально насыщенную картину.

Тематика произведений Евгения Александровича Евтушенко раскрывает не только художественное своеобразие его поэтической манеры, но и духовную и нравственную атмосферу времени, в которое он жил и творил. Евтушенко сумел стать выразителем надежд, тревог и идеалов нескольких поколений. Его поэзия сочетает в себе высокую гражданскую напряжённость, философскую рефлексию, лирическую исповедальность и глубокую вовлечённость в диалог с культурной традицией⁹.

Особая роль в его творчестве отведена гражданской лирике, где слово становится не просто средством выражения мысли, а актом действия, формой противостояния несправедливости, политической несвободе и человеческому равнодушию. Через такие тексты, как «Наследники Сталина», «Братская ГЭС», «Бабий Яр», поэт не только высказывается по поводу актуальных событий, но и утверждает нравственные ориентиры для общества.

9 Есин В. Е. Евгений Евтушенко: поэт и эпоха. – М.: Литературная академия, 2017. С.59–61.

Не менее важны в его поэтическом мире и интимные, автобиографические мотивы, в которых проявляется способность к саморефлексии, исповедальности и эмоциональной открытости. Евтушенко создает многомерный образ поэта как человека, включенного в исторический и личностный контекст, – переживающего, сомневающегося, верящего в силу слова и диалога.

Актуальность его поэзии сохраняется и в XXI веке – как напоминание о том, что поэт способен быть медиатором между эпохой и личностью, между словом и совестью. Стихи Евтушенко по-прежнему звучат остро, искренне и своевременно, продолжая выполнять не только эстетическую, но и социальную, культурную и этическую функцию. В условиях современных культурных трансформаций обращение к его творчеству помогает лучше понять сложность диалога между индивидуумом и обществом, между историей и личной памятью.

Перспективы дальнейших исследований могут быть связаны с анализом переводов Евтушенко на другие языки, их восприятия за рубежом, а также с сопоставлением его творчества с поэтикой других представителей «шестидесятников» и новых поколений поэтов, для которых Евтушенко стал эталоном поэта-гражданина и публичного интеллектуала.

NOFILOLOGIK YO'NALISH TALABALARINING NUTQIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MATNLI MATERIALLARNING O'RNI

Zuhra G'aybulloyevna Qobulova – doktorant,
Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada nofilologik yo'nalish talabalarining nutqiy faolligini oshirishda matnli materiallarning ahamiyati va roli tahlil qilinadi. Matnli materiallar yordamida talabalar til ko'nikmalarini rivojlantirishi, og'zaki nutqda o'z fikrlarini aniq va ravon ifoda eta olishlari mumkinligi ko'rsatildi. Tadqiqot natijalari o'quv jarayonida matnlardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение текстовых материалов в повышении речевой активности студентов нефилологических направлений. Показано, что использование текстов способствует развитию языковых навыков и помогает студентам четко и свободно выражать свои мысли в устной речи. Результаты исследования включают рекомендации по повышению эффективности использования текстовых материалов в учебном процессе.

Abstract. This article analyzes the role and importance of textual materials in enhancing the speech activity of students in non-philological fields. It is demonstrated that using textual materials helps students develop language skills and express their ideas clearly and fluently in oral speech. The research findings include recommendations to improve the effectiveness of using texts in the educational process.

Kalit so'zlar: nofilologik yo'nalish, nutqiy faollik, matnli materiallar, til o'rganish, o'quv jarayoni.

Ключевые слова: нефилологическое направление, речевая активность, текстовые материалы, изучение языка, учебный процесс.

Keywords: non-philological direction, speech activity, textual materials, language learning, educational process.

Nofilologik yo'nalish talabalarining matnli materiallar orqali nutqiy madaniyatini shakllantirish, til o'rganish jarayonining yagona qismini tashkil etmaydi. Biroq, aynan shu yo'nalishdagi talabalar uchun matnli materiallar, talabalarni o'z fikrlarini aniq va ravon ifodalashga o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. Nofilologik yo'nalish talabalarining ilmiy va professional sohalarida muvaffaqiyatga erishishlari uchun, ularda samarali nutqiy madaniyatni shakllantirish zarur. Matnli materiallar yordamida talabalar turli mavzular bo'yicha o'z fikrlarini yaratish, tahlil qilish va tuzish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

“Fikr-mulohazani savodli dalillash – har bir kishining aqliy va madaniy yetukligining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Talabalar ko'pincha so'z boyligining kamligi, nutqiy madaniyatning

yetishmasligidan bu masalada qiyinchilikka duch kelishadi”¹. Nofilologik yo'nalish talabalarining nutqiy madaniyatini shakllantirishda psixologik jihatlar ham muhim o'rin tutadi. Talabalar o'z fikrlarini yaratishda nafaqat til bilimlariga, balki psixologik omillarga, masalan, o'ziga bo'lgan ishonch, motivatsiya va muloqotga tayyorlik kabi faktorlar ham ta'sir qiladi. Psixologik nuqtayi nazardan, matn yaratish jarayoni talabalarning o'zo'zini anglashiga, o'z fikrlarini ifodalashdagi xavfsizlikni his qilishiga va o'z nutqiy qobiliyatlariga ishonch hosil qilishlariga yordam beradi.

Nutqning inson hayoti, kasbiy va ilmiy faoliyatida qanchalik muhim ahamiyatga egaligini mashhur faylasuf olim Abu Nasr al Forobiy o'zining “Ilmlarning kelib chiqishi”

1 Begimov Odil To'xtamishovich “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” 322–b

asarida keltirilgan fikrlarni aniq dalil sifatida keltirish mumkin. U mazkur asarida falasafiy ilmlarni keltirib chiqargan sabablar, bu ilmlarning tartibi va ularni o'rganish to'g'risida bahs yuritib, nutq va mantiq ilmining ahamiyati haqida shunday deydi: "Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqdagi ilmlarning eng birinchisi, jismlarga, ya'ni substansiya va aksidensyalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir deb tasdiqlayman. Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi².

Nofilologik yo'nalish talabalarining nutqiy madaniyatini shakllantirishda matnli materiallar pedagogik yondashuvlar va metodlar orqali samarali tarzda o'rganilishi kerak. Pedagogik yondashuvlar talabalarni nafaqat bilimlar bilan ta'minlash, balki ularning fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Matnli materiallar orqali talabalar o'z fikrlarini aniq, to'g'ri va mantiqiy tarzda ifodalashni o'rganadilar. Bunday materiallar turli shakllarda taqdim etilishi mumkin: hikoyalar, maqolalar, insho va ilmiy tadqiqotlar. Har bir turdagi material talabalarning nutqiy madaniyatini rivojlantirish uchun o'ziga xos pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. Masalan, insho yoki maqola yozish talabalarni ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z fikrlarini kengaytirishga, tasavvur va dalillarni muvofiqlashtirishga o'rgatadi. Bunday materiallar yordamida talabalar nutqiy madaniyatni faqat grammatika va leksika jihatidan emas, balki fikrlarni aniq va lo'nda tarzda ifodalash va tushunarli muloqot qilish nuqtayi nazaridan ham rivojlantiradilar.

Pedagogik yondashuvlar talabalarga mustaqil fikr yuritish va muloqot qilish ko'nikmalarini

berishni o'z ichiga oladi. Masalan, guruh ishlarida yoki munozaralarda qatnashish, talabalar orasida interaktiv muloqotni rivojlantirish orqali ularning nutqiy madaniyati yanada mustahkamlanadi. Matnli materiallar orqali o'qituvchi talabalarga fikrlarini to'g'ri tashkil etish va o'z nuqtai nazarlarini boshqalarga tushunarli tarzda yetkazish qobiliyatlarini o'rgatadi.

Nutqiy madaniyatni shakllantirishda kognitiv yondashuvlarning roli alohida ahamiyatga ega. Kognitiv psixologiya nuqtai nazaridan, nutqiy madaniyatni rivojlantirish talabalarni nafaqat o'rganishga, balki o'z fikrlarini yaratishga va ularni boshqalarga etkazishga o'rgatadi. Matnli materiallar, ayniqsa, murakkab mavzularni tahlil qilishda talabalarning analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kognitiv yondashuvlarda ta'lim jarayoni, talabalarni materialni tushunishga, xulosa chiqarishga va fikrlarni tahlil qilishga yo'naltiradi. Bunday yondashuv talabalarga matnni o'qib chiqishda uning asosiy g'oyasini anglash, so'zlar orasidagi bog'liqlikni tushunish va ularni o'z nuqtayi nazarida izohlash imkonini beradi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning o'ziga xos ahamiyati mavjud. Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, matnli materiallar bilan ishlashda talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Onlayn platformalar, interaktiv dasturlar va multimedia vositalari talabalar uchun nutqiy madaniyatni rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar, masalan, onlayn forumlar va interaktiv darslar yordamida talabalar o'z fikrlarini real vaqt rejimida boshqalar bilan almashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning muloqot ko'nikmalarini, shuningdek, fikrlarini aniq va tushunarli tarzda ifodalashni rivojlantiradi. Matnli materiallarni tahlil qilish va ularga munosabat bildirish jarayonida talabalar zamonaviy texnologiyalar yordamida o'z bilimlarini kengaytiradilar va

2 Abu Nasr Farobiy. Fozil kishilar shahri. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. –224 b.

fikrlarini shakllantiradilar.

Innovatsion texnologiyalar yordamida talabalar matnlarni nafaqat o'qish, balki ularni tahlil qilish, boshqa fikrlarni o'rganish va o'z fikrlarini elektron tarzda erkin ifodalash imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, texnologiyalar matnli materiallarni yanada interaktiv qilishga imkon beradi, bu esa talabalar uchun yanada qiziqarli va samarali o'rganish jarayonini taqdim etadi.

Nofilologik yo'nalish talabalarining ko'pchiligi uchun og'zaki va yozma nutqda faollik ko'rsatish muammoli hisoblanadi. Bu, ayniqsa, ularning soha yo'nalishi til va adabiyotdan yiroq bo'lgan hollarda yanada dolzarb bo'ladi. Ana shunday sharoitda matnli materiallar vositasida talabalarni fikr almashishga, o'z nuqtayi nazarini bildirishga undash samarali yo'l bo'lib xizmat qiladi.

Matnli materiallar asosida tashkil etilgan topshiriqlar, suhbatlar, munozaralar va prezentatsiyalar talabalarni faol ishtirok etishga, o'z fikrini erkin bildirishga undaydi. Masalan, maqola asosida fikr almashish, voqea tahlili yoki bahs-munozara shaklidagi mashg'ulotlar nafaqat nutqiy madaniyatni shakllantiradi, balki talabalarining muloqotdagi ishtirokini ham faollashtiradi.

Nutqiy faollik talabalar o'z bilimlarini so'z bilan mustahkamlashda, boshqa fikrlarni tanqidiy tahlil qilishda va mustaqil fikr bildirishda katta ahamiyatga ega. Aynan matnli materiallar asosida olib borilgan darslar bu jarayonni yanada samarali qilishga xizmat qiladi, chunki bu jarayon ko'proq fikrlashni, tushunishni va o'z g'oyasini asoslashni talab etadi.

Nofilologik yo'nalish talabalarining psixologik, ijtimoiy va akademik xususiyatlari ularning nutqiy madaniyatini shakllantirish jarayonida alohida e'tibor talab qiladi. Bu talabalar ko'pincha o'z yo'nalishlarida texnik, iqtisodiy yoki tabiiy fanlar bilan shug'ullanganliklari sababli til va nutqqa oid faoliyatlarga nisbatan passivroq bo'lishlari

mumkin. Shu sababli matnli materiallar asosida olib boriladigan ishlar mazmunan ularning sohasi bilan bog'liq, qiziqarli va dolzarb bo'lishi lozim. Masalan, iqtisodiy yo'nalishda o'qiyotgan talaba uchun iqtisodiy tahlilga oid matnlar, muhandislik yo'nalishidagi talaba uchun texnik tavsiflar asosidagi matnlar tanlansa, ularning nutqiy faolligi va motivatsiyasi sezilarli darajada ortadi. Bu yondashuv nafaqat fanlararo integratsiyani ta'minlaydi, balki har bir talabada mavjud bilim va tajribaga tayanib, matn bilan ishlashni samarali tashkil etishga imkon beradi. Shuningdek, bu guruh talabalarining psixologik tayyorgarligi va kommunikativ ko'nikmalari turlicha bo'lishi mumkin. Ba'zilarida muloqotga kirishish, o'z fikrini bayon qilish yoki omma oldida nutq so'zlashda muammolar kuzatiladi. Bunday hollarda, matnli materiallar bilan ishlash jarayonida bosqichma-bosqich metodlarni qo'llash, ya'ni avval fikr yozma tarzda ifodalanib, so'ng og'zaki nutqqa o'tkazilishi tavsiya etiladi.

Nofilologik yo'nalish talabalarining nutqiy madaniyatini shakllantirish – ularning ilmiy va kasbiy muvaffaqiyati uchun muhim omillardan biridir. Bu jarayonda matnli materiallar asosiy vosita sifatida alohida o'rin tutadi. Matnlar yordamida talabalar fikrni aniq, ravon va mantiqiy tarzda ifodalashni, tahlil qilishni va dalillashni o'rganadilar. Nutqiy madaniyatni shakllantirishda pedagogik, psixologik va kognitiv yondashuvlar, shuningdek, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish talabalar faoliyatini yanada boyitadi va mustahkamlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mukinki, nofilologik yo'nalishdagi talabalarining nutqiy madaniyatini rivojlantirishda matnli materiallardan foydalanish nafaqat til ko'nikmalarini mustahkamlashga, balki ularning fikrlash, mulohaza yuritish, muloqot qilish va o'z nuqtayi nazarini asoslash kabi muhim kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli va faol shaxs sifatida shakllanishlariga zamin yaratadi.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI VA DAVLAT ARBOBLARINING QARASHLARIDA TINCHLIK VA HAMKORLIK G'OYALARINING IJTIMOIV-FALSAFIY TAHLILI

Behruz Baxshilloyevich Rajabov – tadqiqotchi,
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqola Sharq mutafakkirlarining tinchlik va hamkorlik haqidagi falsafiy qarashlarini tahliliga bag'ishlangan. Konfutsiyning insonparvarlik va odoblilik orqali jamiyatdagi uyg'unlikni ta'minlash haqidagi qarashlari o'rganilgan. Forobiy, Beruniy va Ibn Sino axloq, adolat va aql orqali fozil jamiyatga erishish mumkinligi to'g'risidagi qarashlari asoslab berilgan. Shuningdek, Amir Temur va Bobur kabi davlat arboblarning xalqlararo hurmat, bag'rikenglik va hamkorlikni targ'ib qilish borasidagi siyosatlarining mazmuni falsafiy tahlil etilgan.

Аннотация. Настоящая статья посвящена анализу философских взглядов восточных мыслителей на мир и сотрудничество. Изучены идеи Конфуция о достижении гармонии в обществе через гуманизм и вежливость. Обоснованы взгляды аль-Фараби, Бируни и Ибн Сино на возможность построения добродетельного общества на основе разума, справедливости и нравственности. Философски анализируется также содержание политики таких государственных деятелей, как Амир Тему́р и Бабур, направленной на поощрение уважения, толерантности и сотрудничества между народами.

Abstract. This article is devoted to the analysis of philosophical views of Eastern thinkers on peace and cooperation. The ideas of Confucius on achieving social harmony through humanism and propriety are examined. The views of Al-Farabi, Biruni, and Ibn Sina on the possibility of building a virtuous society based on reason, justice, and morality are substantiated. The content of the policies of statesmen such as Amir Temur and Babur to promote respect, tolerance, and cooperation between nations is also philosophically analyzed.

Kalit so'zlar: hamkorlik, tinchlik, marosim, qadriyat, bag'rikenglik, hamjihatlik, totuvlik, insoniylik, tinchlik yili.

Ключевые слова: сотрудничество, мир, обряды, ценности, толерантность, сплочённость, согласие, человечность, Год мира.

Keywords: cooperation, peace, rituals, values, tolerance, cohesion, harmony, humanity, Year of Peace.

Tinchlik va hamkorlik tushunchasi ko'pgina Sharq mutafakkirlarining falsafiy va axloqiy ta'limotlarida markaziy mavzu bo'lib kelgan. Ma'naviy an'analar va ijtimoiy-madaniy qadriyatlarga asoslangan bu g'oyalar shaxs, jamiyat va olam ichidagi uyg'unlikka bo'lgan chuqur g'amxo'rlikni aks ettiradi. Sharqning eng ko'zga ko'ringan faylasuflaridan biri Konfutsiy (miloddan avvalgi 551–479) "Ren" (insonparvarlik) va "Li" (marosim-odoblilik) tushunchalarini ilgari surgan, ular birgalikda ijtimoiy totuvlik va axloqiy munosabatlarni mustahkamlaydi. U jamiyatda tinchlikka faqat ezgulikni tarbiyalash, boshqalarni hurmat qilish, oilada va jamiyatda o'z vazifasini bajarish orqali

erishish mumkin, deb hisoblagan. Uning ta'limoti xitoy, koreys, yapon va vetnam jamiyatlariga katta ta'sir ko'rsatgan konfutsiylik uchun asos yaratdi.

Tinchlik, Lao Szi uchun, odamlar kamtarlik, soddalik va rahm-shafqat bilan harakat qilganda, mojaro va raqobatdan qochib, paydo bo'ladi. Hind falsafasida, ayniqsa Budda ta'limotida tinchlik (shanti) va rahm-shafqat (karuna) g'oyasi shaxsiy va ijtimoiy o'zgarishlarning zahirida yotadi. Budda azob-uqubatlarni yengish va tinchlikka erishish vositasi sifatida to'rt ezgu haqiqat va sakkizta yo'lni o'rgatdi. Jaynizmdagi Mahavira va keyinroq Maxatma Gandi tomonidan ta'kidlangan zo'ravonlik qilmaslik tamoyili tinch-totuv

yashash, bag'rikenglik va hamkorlikka yordam beradi.

Markaziy Osiyodan mashhur islom faylasufi Al-Forobiy fuqarolar o'rtasidagi hamkorlik o'zaro hurmat, adolat va axloqiy fazilatlariga asoslangan "Fozil shahar" haqida gapirgan. Uning ta'kidlashicha, tinchlik nafaqat urushning yo'qligi, balki adolat va axloqiy yetakchilikning mavjudligidir. Yana bir nufuzli shaxs Ibn Sino (Avitsenna) odamlar aql va axloqiy tamoyillar asosida yashasa, muvozanatli jamiyat mumkin, deb hisoblagan. Uning uchun tinchlik va hamkorlik ruhi, axloqiy burchlarni to'g'ri tushunish va jamoaviy manfaatlarga intilishdan kelib chiqadi.

Sharq mutafakkirlari qarashlarida tinchlik va hamkorlik g'oyalarini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilishda ilmiy bilishning analiz va sintez, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik usul, sinergetik usullaridan foydalanilgan.

Sharq mutafakkirlari qarashlaridagi tinchlik va hamkorlik g'oyalarini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilishdan oldin mutafakkir tushunchasiga oydinlik kiritib o'tsak maqsadga muvofiqdir. Mutafakkir atamasi arabcha "tafakkur" ildizidan olingan bo'lib, chuqur fikrlash, mulohaza yuritish degan ma'noni anglatadi. Falsafiy nuqtai nazardan, mutafakkir borliq, bilim, qadriyatlar, aql, axloq, jamiyat va insonning ahvoli haqida chuqur fikr yuritadigan kishidir. Mutafakkir shunchaki bilimli shaxs emas, balki voqelikni shubha ostiga qo'yuvchi, chuqurroq haqiqatlarni izlovchi, fundamental inson va jamiyat muammolari bo'yicha ko'pincha yangi g'oyalar va qarashlarni taklif qiluvchi shaxsdir.

Xitoy faylasufi Konfutsiy har bir millat boshqa bir millat bilan o'zaro munosabatga kirishar ekan, ular o'rtasidagi munosabat eng avvalo, bir-birining urf-odat, an'ana va marosimlarini

hurmat qilishga asoslanishi lozimligini "boshqa millat vakillarining marosimlarini ham o'z qadriyatlarining bir qismi sifatida hurmat qila olish bag'rikenglikning muhim elementidir"¹ degan fikrlari orqali asoslab beradi.

Sharqda "Ikkinchi muallim" sifatida shuhrat qozongan Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida millatlararo munosabatlar haqida shunday deydi: har qanday millat vakilining munosabatlarini birlashtiruvchi boshlang'ich asos hamjihatlik, totuvlik va insoniylikdir, "odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim"². Forobiy fikricha, ideal jamiyat barcha shaxslar birdamlik va hamkorlikda, adolat va donolikka asoslangan jamiyatdir. Uning fikricha, xalqlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar nizolarga olib kelmasligi, aksincha, o'zaro hurmat va umumiy farovonlik va barqarorlik uchun muhim bo'lgan umumiy manfaatlarning tan olinishiga turtki bo'lishi kerak. Tinchlik va hamjihatlik, uning fikricha, insonning ham, jamoaning ham farovonligini ta'minlovchi muhim ustunidir. Turli madaniyatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar tobora tez-tez va murakkablashib borayotgan bugungi globalashgan dunyoda bu g'oyalar o'ta dolzarbligicha qolmoqda. Al-Forobiyning qarashlari bizga mehr-oqibat, hurmat va hamkorlik kabi umumiy insoniy qadriyatlar orqali bo'linishlarni yengib o'tish barqaror tinchlik va ijtimoiy totuvlikka erishishning kaliti ekanligini eslatib turadi. Bunday yondashuv nafaqat nizolarning oldini oladi, balki xalqlar o'rtasidagi do'stlik va samarali hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Al-Forobiy ta'limoti keyingi ko'plab faylasuflar va siyosiy mutafakkirlarga ham ta'sir ko'rsatib, ular ham umuminsoniylik va tinch-totuv yashash muhimligini ta'kidlaganlar. Shu tariqa, Al-Forobiy nafaqat Sharq falsafasida, balki insoniyatning keng ko'lamli intellektual

1 Robert Cummings Neville. Confucianism and toleration – P. 34.

2 Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Mas'ul muharrirlar: M.Xayrullahev, M.Jakbarov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 286.

merosida ham salmoqli shaxs bo'lib, insoniyatning umumiy rishtalari bilan birlashgan jamiyatni targ'ib qiladi.

Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida har bir millatning urf-odat, an'ana va qadriyatlari turlicha ekanligini, har qanday millat bir-biri bilan munosabatga kirishar ekan, bu munosabatlar tinchlik va hamjihatlikka asoslanishi lozimligi hattoki, yillarning nomlanishida "Rasululloh zamonida: zilzila yili, tinchlik yili, oshnachilik yili"³ deb nom berilganligi bilan ham izohlaydi.

Bu madaniy xilma-xillikni, ayniqsa, turli xalqlar bir-biri bilan munosabatlarga kirishganda, hurmat qilish va qadrlash kerakligini ta'kidlaydi. Beruniy ta'kidlaydiki, bunday o'zaro munosabatlar tinchlik va totuvlikka asoslanishi, xalqlar o'rtasidagi samarali va mustahkam hamkorlikning asosi bo'lib xizmat qilishi kerak. U har bir xalqning o'ziga xos madaniy o'ziga xosliklarini e'tirof etish va e'zozlashning ishonch va o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash uchun muhim ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu belgilar nafaqat tarixiy belgilar, balki jamiyatning qadriyatlari va umumiy xotirasini ham aks ettiradi. Tinchlik va do'stlikka bag'ishlangan yillarni ta'kidlab, Beruniy jamiyatning totuvlikka intilishi va janjaldan ko'ra tinch munosabatlar ustuvorligini ta'kidlaydi. Beruniy o'z ijodi orqali turli xalqlar turli urf-odat va urf-odatlarga qaramasdan tinch-totuv yashashi va samarali hamkorlik qilishi mumkin bo'lgan dunyoni targ'ib qiladi. Uning fikrlari bizga madaniy xilma-xillikni hurmat qilish va tinch o'zaro hamkorlikka sodiqlik adolatli va barqaror global jamiyat qurish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini eslatib turadi. Beruniy ta'limoti madaniy o'ziga xoslik va umumiy insoniy qadriyatlarning ahamiyatini anglagan holda, xalqaro do'stlik va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan

zamonaviy sa'y-harakatlar uchun qimmatli yo'l-yo'riq beradi.

Buyuk davlat arbobi Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari" ning Mening dargohimga iltijo qilib, panoh istab kelgan turk-u tojik, arab-u ajam toifalaridan bo'lganlar haqidagi tuzugida "yana amr qildimki, uzoq-yaqindan biron kishi kelib, mening majlisimga kirar ekan, qaysi toifadan bo'lsa ham, davlatim dasturxoni ne'matidan uni quruq qaytarmasinlar"⁴ degan fikrlarida har bir millat vakiliga nisbatan hurmat va ehtiromda bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Uning barcha odamlarni, ularning millati va kelib chiqishidan qat'i nazar, qutlash siyosati nafaqat xayriya harakati, balki uning xilma-xil imperiyasida uyg'unlik va barqarorlikni saqlashning strategik va axloqiy asosi edi. Amir Temur panoh so'ragan barchaga mehmondo'stlik va yordam ko'rsatish orqali davlatning mustahkamligi turli xalqlarni hurmat va o'zaro manfaatdorlik umumiy tamoyillari ostida birlashtira olishiga bog'liq degan g'oyani mustahkamladi. Ushbu yondashuv turli etnik guruhlar o'rtasida sadoqatni shakllantirishga yordam berdi va turli an'analar va madaniyatlar tinch-totuv yashashi mumkin bo'lgan ko'p madaniyatli muhitni yaratdi.

Bundan tashqari, Amir Temurning namunasi bo'lajak rahbarlarni yanada bag'rikenglik siyosatini qabul qilishga ilhomlantirdi va Markaziy Osiyoning boy madaniy mozaikasiga hissa qo'shdi. Kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha tashrif buyuruvchilar yoki subyektlarga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish va saxovatpeshalik ko'rsatishga urg'u berish ijtimoiy birdamlikni rivojlantirishga yordam berdi va etnik bo'linishlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ichki nizolarning oldini oldi. Aslini olganda, Amir Temurning so'zlari va xatti-harakatlarida azaliy tamoyil mujassam edi. Haqiqiy rahbarlik nafaqat

3 Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Mas'ul muharrirlar: I.Abdullayev, O.Fayzullayev. –Toshkent: Fan, 1968. – B. 31.

4 Amir Temur. Temur tuzuklari. (Nashrga tayyorlovchi: Bo'rivoy Ahmedov) –Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2020. –B. 88.

harbiy muvaffaqiyat yoki siyosiy qudrat bilan, balki rang-baranglikni qabul qilish, hamdardlik ko'rsatish va har bir shaxsning qadr-qimmatini himoya qilish qobiliyati bilan ham o'lchanadi. Uning merosi barcha millat va elatlarni hurmat qilish tinch, farovon va mustahkam jamiyatlar barpo etishning muhim tarkibiy qismi ekanligini eslatib turadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur millatlararo munosabatlar ijtimoiy sherikchilik, hamkorlik va hamjihatlikka asoslanishi, hamisha millat dardi bilan yashash lozimligini "barcha el tashvish va mashaqqatda, men munda uyqu bilan farog'atda bo'laymi?! Bu muruvvat va hamjihatlikdan yiroq ishdur"⁵ degan fikrlarida ifodalab bergan.

Zahiriddin Muhammad Bobur turli etnik guruhlar o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik, hamkorlik va hamjihatlikning ahamiyatini chuqur anglagan. U millatlararo uyg'un munosabatlar shunchaki birga yashashga asoslanmaydi, balki jamiyatning barcha a'zolari farovonligi uchun faol hamkorlik va umumiy mas'uliyat hissini talab qiladi, deb hisobladi. Boburning o'z xalqi boshidan kechirgan mashaqqatlari to'g'risidagi fikr-mulohazalari uning chinakam rahnamolik – qiyin paytlarda xalq bilan birga bo'lish demakdir, degan chuqur hamdardlik va ma'naviy ishonchini namoyon etadi.

Bobur uchun ijtimoiy hamjihatlik hamdardlikdan ko'proq narsani anglatardi; butun jamiyat duch kelayotgan dard va muammolar bilan faol ishtirok etishni talab qildi. Bobur falsafasida xalqning kuchi uning birligida, uning yetakchilari va fuqarolarining hamdardlik va hamkorlik qilish qobiliyatida ekanligini ta'kidlaydi. U turli etnik va madaniy guruhlar hamjihatlikda ishlaydigan, bir-birini qo'llab-quvvatlovchi, nafaqat farovonlik, balki qiyinchiliklarni ham baham ko'radigan jamiyatni targ'ib qildi. Bu yondashuv chidamlilikni kuchaytiradi va turli xalqlar o'rtasida mustahkam ishonch va do'stlik

rishtalarini o'rnatadi.

Qolaversa, Boburning qarashlari kengroq gumanistik nuqtai nazarni aks ettirib, chinakam mehr-oqibat va hamjihatlik doimiy sa'y-harakatlarni va jamoa farovonligiga chin dildan sadoqatni talab qilishini ta'kidlaydi. Uning misoli, odamlar o'zlarining umumiy insoniyligini tan olishlari va bir-birining farovonligi uchun mas'uliyatni o'z zimmlariga olishlaridagina tinchlik va hamjihatlik gullab-yashnashi mumkinligini eslatib turadi. Ijtimoiy tafovut va qarama-qarshiliklar hamon davom etayotgan bugungi dunyoda Boburning da'vati o'ta dolzarbligicha qolmoqda. Uning hamdardlik, hamkorlik va hamjihatlikka chaqiruvi birlikni tarbiyalash bilan birga xilma-xillikni hurmat qiladigan jamiyatni qurish bo'yicha qimmatli yo'l-yo'riqlarni taqdim etadi. Ushbu tamoyillarni qabul qilish orqali jamoalar kelishmovchiliklarni yengib, umumiy maqsadlar sari birgalikda harakat qilishlari mumkin, bu esa barcha uchun tinchlik va farovonlikni ta'minlaydi.

Muxtasar qilib aytganda, Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta'limotlari umumiy jihatni ochib beradi. Chinakam tinchlik va hamkorlik ezgulik, axloqiy hayot va kuchli jamoa tuyg'usidan kelib chiqadi. Konfutsiy uyg'unligi, Daosizm muvozanati, buddist rahm-shafqati yoki islom axloqiy tarbiyasi orqali bo'lsin, bu an'analar mustahkam tinchlik kuch bilan ta'minlanmasligini, balki tushunish, hurmat va o'zaro g'amxo'rlik orqali rivojlantirilishini ta'kidlaydi. O'sib borayotgan mojarolar va bo'linishlarga duch kelayotgan dunyoda bu abadiy g'oyalarni qayta ko'rib chiqish tinchroq va hamkorlikka asoslangan global jamiyat qurish uchun qimmatli yo'l-yo'riq beradi.

5 Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – B. 149.

TINCHLIK-OSOYISHTALIKNI TA'MINLASH VA TURLI TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING O'RNI

Avazbek Soyibjonovich Inomov – tadqiqotchi,
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada xavfsiz muhit bo'lmasa, hech qanday yuksak insoniy ambitsiyalarga barqaror erishib bo'lmagligi, axborot tajovuzkorligini tan olish va unga qarshi kurashish o'z erkinligi, madaniyati va o'zligini saqlab qolishga intilayotgan har qanday jamiyat uchun shunchaki siyosiy vazifa emas, balki axloqiy va falsafiy majburiyat ekanligi o'rganilgan. Shuningdek, tinchlik-osoyshtalikni ta'minlash va turli tahdidlarga qarshi kurashda Ichki ishlar organlari xodimlarining o'rni va ahamiyati yoritib berilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается тот факт, что без безопасной среды невозможно устойчивое достижение высоких человеческих амбиций, а также то, что распознавание и борьба с информационной агрессией – это не просто политическая задача для любого общества, стремящегося сохранить свою свободу, культуру и идентичность, а морально-философский долг. Также подчёркивается роль и значение сотрудников органов внутренних дел в обеспечении мира и спокойствия и борьбе с различными угрозами.

Abstract. This article examines the fact that without a secure environment, no high human ambitions can be sustainably achieved, and that recognizing and combating information aggression is not just a political task for any society striving to preserve its freedom, culture and identity, but a moral and philosophical obligation. It also highlights the role and importance of internal affairs officers in ensuring peace and tranquility and fighting various threats.

Kalit so'zlar: tinchlik, xotirjamlik, ichki ishlar, xavf-xatar, mafkuraviy poligonlar, ma'naviy qashshoqlik, ichki nizolar, tartibsizlik, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, ommaviy madaniyat.

Ключевые слова: мир, спокойствие, внутренние дела, опасность, идеологические полигоны, духовная нищета, внутренние конфликты, беспорядки, религиозный экстремизм, терроризм, наркомания, массовая культура.

Keywords: peace, tranquility, internal affairs, danger, ideological training grounds, spiritual poverty, internal conflicts, disorder, religious extremism, terrorism, drug addiction, mass culture.

Falsafiy nuqtayi nazardan, tinchlik tushunchasi shunchaki zo'ravonlik yoki nizoning yo'qligi emas, balki adolat, tartib va inson qadr-qimmatining mavjudligidir. Tomas Gobbsning fikricha, tartibga soluvchi kuch bo'lmaganida, inson hayoti "yolg'iz, qashshoq, jirkanch, shafqatsiz va qisqa" bo'lar edi. Buning uchun tinchlikni saqlashga qodir institutlarga ega kuchli davlat zarur. Zamonaviy davrda tinchlik va barqarorlikni ijtimoiy totuvlik, qonun ustuvorligi va kollektiv xavfsizlik obyektivni orqali ham tushunish kerak. Jinoyat, ekstremizm yoki ijtimoiy tartibsizlik kabi ichki tahdidlar bu uyg'unlikni shubha ostiga qo'yadi. Shuning uchun ichki ishlar xodimlarining roli ham profilaktik, ham

reaktiv bo'lib, mas'uliyat, javobgarlik va jamoat ishonchiga asoslangan. Ichki ishlar xodimlari tinch jamiyatni shakllantirish va qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Ularning vazifalari qonunlar ijrosini ta'minlashdan ham ko'proq – ular ijtimoiy totuvlik va axloqiy tartib himoyachilari sifatida ishlaydi. Falsafiy nuqtayi nazardan, ularning mavjudligi individual erkinliklar va jamoaviy xavfsizlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash zaruratidan kelib chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tinchlik-osoyshtalikni ta'minlash va turli tahdidlarga qarshi kurashda Ichki ishlar

organlari xodimlarining o'rni va ahamiyatini falsafiy tahlil qilishda ilmiy bilishning analiz va sintez, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik usul, sinergetik usullaridan foydalanilgan.

Zamonaviy jamiyatda tahdidlar kuchayib bormoqda – nafaqat jismoniy jinoyatlar, balki kiber tahdidlar, ekstremizm va ijtimoiy tartibsizliklar ham ichki tinchlikka tahdid solmoqda. Bunday tahdidlarga javob berish ma'naviy javobgarlik, yuridik hokimiyat va fuqarolik faolligiga asoslangan yaxlit yondashuvni talab qiladi. Ichki ishlar xodimlari adolatni adolatli va oshkora ta'minlasa, ular tartib va umid timsoliga aylanadi. Biroq, hokimiyatdan noto'g'ri foydalanish ishonchsizlik va zulmga olib kelishi mumkin. Shuning uchun axloqiy ta'lim va inson huquqlaridan xabardorlik ularning rolining muhim qismidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "xalqimiz Yaratgandan, avvalo, tinchlik-xotirjamlikni so'raydi. Shundan so'ng, o'z uyim, boshpanam bo'lsa, oilam, bola-chaqam bilan sog'-salomat yashasam, deydi. Biz xalqimizning ana shunday orzu-niyatlarini ro'yobga chiqarish uchun ikkita masalaga, ya'ni ichki ishlar va sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishga katta e'tibor qaratayapmiz"¹, – deya ta'kidlagani bejiz emas. Xavfsiz muhit bo'lmasa, hech qanday yuksak insoniy ambitsiyalarga barqaror erishib bo'lmaydi. Prezidentning birinchi va eng muhim intilish sifatida tinchlikka urg'u berishi uning jamiyat farovonligidagi asosiy rolini ta'kidlaydi. Bular ham fiziologik, ham hissiy ehtiyojlarga taalluqlidir. Boshpanasi bo'lish asosiy zarurat bo'lsa, oilasi bilan yaxshi sog'lom yashash hissiy va ijtimoiy qoniqish bilan bog'liq. Sog'lom hayot nafaqat biologik zarurat, balki erkinlik, o'z xohishiga ko'ra va baxtga intilishning falsafiy shartidir. Sog'liksiz odam jamiyatda to'liq ishtirok

eta olmaydi yoki jamoaviy taraqqiyotga munosib hissa qo'sha olmaydi. Shunday qilib, chinakam milliy taraqqiyot tinchlik, salomatlik va ichki barqarorlik kabi insoniy asosiy shart-sharoitlarni ta'minlashdan boshlanishi kerakligini tushunadi. Xavfsizlik va salomatlik kabi odamlarning real, kundalik tashvishlarini hal qilish orqali davlat ushbu ekzistensial o'lchovni tan oladi. Ichki ishlar va sog'liqni saqlash kabi sohalarni isloh qilish nafaqat ma'muriy, balki davlat va xalq o'rtasidagi ushbu ma'naviy shartnomani bajaradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Ana shunday tahlikali vaziyatni hisobga olgan holda, biz yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatimizni har tomonlama kuchaytirishimiz shart. Bu – zamon talabi"², – deya ta'kidlagan edi. Davlat o'z fuqarolarini nafaqat jismoniy xavfdan, balki qo'rquvdan, beqarorlikdan, axloqiy va madaniy asoslarning yemirilishidan ham himoya qilishi kerak. Tinchlikni saqlash va tahdidlarga qarshi kurashish "zamon talabi" ekanligini ta'kidlab, Prezident o'zgaruvchan voqelik sharoitida faol harakat qilish uchun davlatning ma'naviy majburiyatini tan oladi. Bu shuni ko'rsatadiki, har bir davr o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi va tegishli javoblarni talab qiladi. Bu Gegelning tarixiy zarurat konsepsiyasiga mos keladi, bunda tarix oqilona jarayon sifatida qaraladi va har bir davr xalqlar va rahbarlar uchun o'ziga xos vazifalarni taqdim etadi. Vaqtning ruhi yoki talablariga e'tibor bermaslik turg'unlik yoki qulash xavfini tug'diradi. Tinchlik bu shunchaki ziddiyatning yo'qligi emas, balki Immanuel Kant kabi mutafakkirlar asarlarida, ayniqsa, "Abadiy tinchlik" risolasida muhokama qilinganidek, dinamik, faol qo'llab-quvvatlanadigan shartdir. Bir-biriga bog'langan zamonaviy dunyoda tahdidlar endi faqat harbiy yoki ichki xususiyatga

1 Шавкат Мирзиёев турли унвонлар, орден ва медалларни ўз эгаларига топширди // Халқ сўзи. – 2017.

2 Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга қилган Мурожаатномаси <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017>

ega emas, ular terrorizm, kiber tahdidlar, ekologik ofatlar va iqtisodiy beqarorlikni o'z ichiga oladi. Bu xavfsizlikni yaxlit, falsafiy qayta ko'rib chiqishni talab qiladi, bunda jismoniy himoya, ijtimoiy birdamlik va global kuchlarga chidamlilik o'zaro bog'liqdir. Xalq, muassasalar va hukumat barcha hushyor bo'lib, o'zlarining umumiy kelajagini himoya qilishga sodiq bo'lishlari kerak. Bu jamiyat farovonligi ustuvor bo'lgan va shaxsiy erkinliklar umumiy burchlar bilan muvozanatlashgan kommunitar falsafaga mos keladi. Prezident Mirziyoyevning so'zlari tinchlik va barqarorlik tabiiy sovg'a emas, balki zamonning o'zgaruvchan sharoitlariga mos ravishda faol ta'minlanishi va doimo yangilanib turishi zarurligi haqidagi falsafiy tushunchani aks ettiradi. Uning bayonoti shunchaki siyosiy emas – bu klassik va zamonaviy siyosiy fikrga asoslangan ma'naviy va fuqarolik mas'uliyatiga da'vatdir.

Davlatimiz rahbari "turli mafkuraviy poligonlar ta'sirida yuz berayotgan xatarli jarayonlar mohiyatini anglash darajasi pastligi, bu haqda zarur bilim va yaxlit tasavvurning shakllanmagani esa, ushbu yo'nalishdagi tahdidlarga qarshi kurash va jamiyatimizni g'oyasizlashish xavfidan saqlashga qaratilgan ishlarni takomillashtirish zarur"³ligini bugungi kunning kechiktirib bo'lmas vazifasi sifatida kun tartibiga qo'yadi. Odamlarda mafkuraviy savodxonlik bo'lmasa, ular manipulyatsiya, populizm va hatto ekstremizmga moyil bo'lib qoladilar. Tashqi mafkuraviy ta'sirlarni ongli ravishda tushunmasdan, odamlar haqiqiy bilim va manipulyatsiyani ajrata olmaydi. Bu kognitiv zaiflik nafaqat alohida shaxslarga, balki butun jamiyatning axloqiy va madaniy hamjihatligiga tahdid soladi. Umumiy dunyoqarashga ega bo'lmagan yoki boshqaruvchi axloqiy asosga ega bo'lmagan jamiyat tashqi kuchlar ta'sirida atomizatsiya, yo'nalishni yo'qotish va osongina

beqaror bo'lish xavfi ostida. Haqiqiy barqaror jamiyat mustaqil fikr yurita oladigan, axborotni tanqidiy baholay oladigan va umumiy axloqiy qadriyatlarni himoya qila oladigan fuqarolarni tarbiyalashi kerak. Zamonaviy siyosiy falsafada, ayniqsa, realistik an'analar doirasida, milliy xavfsizlik nafaqat chegaralar va qo'shinlar, balki axborot va mafkuraviy suverenitetni ham o'z ichiga oladi. Prezident Mirziyoyevning pozitsiyasi XXI asr urushlari ko'pincha g'oyalar sohasida olib borilishi, madaniy yemirilish, targ'ibot va noto'g'ri ma'lumotlar jismoniy tahdidlardan ko'ra xavfliroq bo'lishi mumkinligini tushunishni aks ettiradi. Prezident Mirziyoyevning bayonoti siyosiy ko'rsatma emas, balki zamonaviy dunyoda fikr, o'zlik va chidamlilik tabiatining falsafiy mulohazasidir. U bizni mafkuraviy urush va madaniy globallashuv davrida jamiyatning intellektual va axloqiy tuzilishini himoya qilish dabdaba emas, balki ekzistensial zarurat ekanligini tan olishga undaydi.

A. Dalles o'z fikrida, tartibsizlik, palapartishlik urug'larini sochish orqali biz ularning o'ziga sezdirilmagan holda asl qadriyatlarni unutib, soxta qadriyatlarga ishonishlariga erishishimiz mumkin. Insonlar ongi uchun ularning bolalik va o'smirlik chog'laridanoq kurashish, yoshlarini o'zlari o'ylab topgan soxta qadriyatlar quliga aylantirish, qolaversa, har bir millat orasida o'z maslakdoshlarimizni topish hamda ularni saflarini kengaytirish orqali asta-sekin bo'ysunishni istamagan har qanday mag'rur xalqni ham bosh egishga majbur qilamiz, aks holda esa misli ko'rilmagan fojialarga giriftor etamiz⁴ – deya ta'kidlagan.

Shu o'rinda, A. Dallesning yuqoridagi fikriga e'tibor qaratilsa, axborot xuruji har qanday davlat va jamiyat hayotidagi barqarorlikka putur yetkazishini anglashimiz lozim. Dallesning yondashuvi qadriyatlarni qanday

3 Батафсил қаранг: Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистоннинг стратегияси. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2021. – 464 б.

4 Сафаров М, Бахт Э. Сабаблар ва оқибатлар. Информацион уруш ва ундан мақсад. Қонун ҳимоясида. – Т.: Ўзбекистон республикасининг бош прокуратурасининг оммабоп юридик журнали 2005.12-б.

qilib qurollantirish mumkinligini kuch bilan emas, balki odamlar ongida haqiqatni sun'iylik bilan almashtirish orqali ochib beradi. Bu yerda tasvirlangan jarayon madaniy mustamlakaning bir ko'rinishi bo'lib, mustamlakachilar jismonan qul bo'lmay, psixologik va ma'naviy qurolsizlantiriladi. Ushbu jarayonning zamonaviy atamasi axborot urushi yoki dezinformatsiya strategiyasi – gibrid urush va haqiqatdan keyingi siyosatdagi asosiy taktika. Falsafiy xavf haqiqatning nisbiylashuvida yotadi. Odamlar haqiqiy qadriyatlarni sun'iy qadriyatlardan ajrata olmaganida, axloqiy nigilizm befarqlikka yoki ekstremizmga olib keladigan bo'shliq paydo bo'ladi. Nitsshe bu "qadriyatlarning o'limi" haqida ogohlantirgan edi, bu jamiyatning qulashiga sabab bo'ladi. Dallesning yondashuvi bu inqirozni muhandisning qarshiliksiz bo'ysunishiga qurollantiradi. Falsafiy nuqtayi nazardan, bunday mafkuraviy sabotajga yagona samarali qarshi tanqidiy ong – haqiqiy qadriyatlarni shubha ostiga olish, tahlil qilish va himoya qilish qobiliyatidir. Shunday qilib, axborot tajovuzkorligini tan olish va unga qarshi kurashish o'z erkinligi, madaniyati va o'zligini saqlab qolishga intilayotgan har qanday jamiyat uchun shunchaki siyosiy vazifa emas, balki axloqiy va falsafiy majburiyatdir.

Muxtasar qilib aytganda, tinchlikni saqlash shunchaki kuch vazifasi emas, balki falsafiy missiya – qadr-qimmatni himoya qilish, huquqlarni himoya qilish va adolatni ta'minlashdir. Ichki ishlar idoralari xodimlari ana shu missiyaning agenti sifatida halollik, donolik, xalq oldidagi burchini chuqur his qilish bilan harakat qilishlari kerak.

LUQMON BO'RIXON ASARLARIDA PEYZAJNING AHAMIYATI

Dilfuza Rustam qizi Qosimova – mustaqil
tadqiqotchi, Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Luqmon Bo'rixon asarlarida peyzaj tasvirining badiiy asar g'oyasi, kompozitsion tuzilmasi va qahramonning ruhiy holati bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Yozuvchi tabiat manzaralari orqali nafaqat voqea rivojini yoritadi, balki qahramonlarning ichki dunyosini, kechinmalarini, ruhiy iztiroblarini ham chuqur ifodalaydi. Peyzaj san'ati bir poetik vosita sifatida ruhiy holatni, jamiyatdagi ziddiyatlarni va insoniy qadriyatlar bilan bog'liq ma'nolarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Adib tomonidan tasvirlangan bahor, kuz, qish manzaralari ramziy yondashuv asosida insonning ichki olamiga uyg'un holatda aks ettiriladi. Shu bilan birga, maqolada adib asarlarida peyzaj vositasining ijtimoiy-falsafiy mazmuni ham tahlil etiladi. Tadqiqotda badiiy-tahliliy, kontekstual va ruhiy yondashuvlar asosida tahlil amalga oshirilgan.

Abstract. This article explores the integral role of landscape imagery in the literary works of Lukmon Burikhon, examining its deep connection with the thematic concept, narrative structure, and the psychological states of characters. The author employs depictions of nature not merely as background but as a symbolic and expressive tool to reflect inner turmoil, emotional depth, and social tensions. The analysis shows how seasonal changes like spring, autumn, and winter are metaphorically aligned with the emotional states of the characters, thereby enriching the philosophical and humanistic dimensions of the narrative. The paper also investigates the social and philosophical connotations embedded in landscape descriptions. The study is based on artistic, contextual, and psychological approaches to literary analysis.

Аннотация. В статье рассматривается важная роль пейзажных описаний в произведениях Лукмона Бурихона, их глубокая связь с идейным содержанием, композицией произведения и психологическим состоянием персонажей. Автор использует природу не просто как фон, а как символическое средство выражения душевных переживаний, внутренних конфликтов и социальных противоречий. Пейзаж в его произведениях служит отражением философских размышлений и человеческих ценностей. Анализ также затрагивает сезонные образы (весна, осень, зима), которые интерпретируются как метафоры внутреннего мира героев. В исследовании применены художественно-аналитический, контекстуальный и психологический подходы.

Kalit so'zlar: peyzaj, ruhiy holat, badiiy tasvir, ramziy ifoda, zamonaviy o'zbek adabiyoti.

Keywords: landscape, emotional state, artistic imagery, symbolic meaning, contemporary Uzbek literature.

Ключевые слова: пейзаж, душевное состояние, художественное изображение, символизм, современная узбекская литература.

Har qanday xalqning ma'naviy taraqqiyoti va milliy o'zligining shakllanishida adabiyot alohida o'rin egallaydi. Chunki adabiyot jamiyat hayotining ko'zgusi, xalqning ruhiy-ma'naviy qiyofasini ifodalovchi muhim omildir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida faoliyat yuritgan ijodkorlarning asarlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, ular orasida Luqmon Bo'rixonning ijodiy merosi alohida e'tiborga loyiqdir.

Luqmon Bo'rixon o'zining badiiy hamda ilmiy-nazariy qarashlari bilan o'zbek adabiy jarayoniga salmoqli hissa qo'shgan adiblardan

biri. Uning asarlarida milliy qadriyatlarga sodiqlik, xalqona ruh, ijtimoiy adolat, insoniylik va ma'rifatparvarlik g'oyalari markaziy o'rin tutadi. Adib ijodining asosiy yo'nalishi xalqning dard-u tashvishlarini ifodalash, yosh avlodni ilm-ma'rifat va ezgulikka chorlash, komil inson tarbiyasi masalasiga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Bugungi globallashuv jarayonida milliy adabiyotimizni chuqur tadqiq etish, adib va shoirlarning asarlari orqali yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyatlar va ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois Luqmon Bo'rixonning

ijodiy merosini tahlil qilish, undagi g'oyaviy-badiiy xususiyatlarni o'rganish, asarlaridagi badiiy tasvir vositalarining, xususan, peyzajning o'rnini ilmiy jihatdan yoritish mazkur ishning asosiy vazifasini tashkil etadi.

"Peyzaj" so'zi fransuzcha "paysage" atamasidan olingan bo'lib, "manzara", "ko'rinish" degan ma'nolarni anglatadi. Badiiy adabiyotda esa bu istiloh asarning qiymatini, qahramonning kechinmalari, ijodkorning o'ziga xos mahoratini belgilashga xizmat qiladi. Shunday mahoratli ijodkorlardan biri Luqmon Bo'rixon edi.

Mazkur tadqiqotda Luqmon Bo'rixon asarlarida peyzaj tasvirining estetik va semantik funksiyalarini aniqlash maqsadida bir nechta metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Birinchi navbatda, badiiy-tahliliy yondashuv asosida yozuvchining hikoya va qissalaridagi tabiat tasvirlari tahlil qilindi. Kontekstual tahlil yordamida peyzajning ijtimoiy, madaniy va ruhiy kontekstda qanday ifodalanganiga e'tibor qaratildi. Shuningdek, psixologik yondashuv orqali peyzajning qahramonlar ruhiy holatini aks ettirishda poetik vosita sifatidagi roli o'rganildi.

Manba sifatida adibning "Yolg'izlar duosi", "Chorrahadagi odamlar" kabi asarlari tanlab olindi va undagi peyzaj tasvirlari struktura, semantika va ramziy yuk jihatidan tahlil qilindi. Luqmon Bo'rixon – o'zbek zamonaviy adabiyotining taniqli vakillaridan biri bo'lib, u o'z ijodida insonning ruhiy kechinmalari va milliy qadriyatlarini chuqur tasvirlashi bilan tanilgan. Luqmon Bo'rixonning yozish uslubi tamomila o'ziga xos bo'lib, obrazlarning hayotiyliigi, tasvirning chuqurligi, badiiy ifodaning xalqonaligi hamda betakror badiiy g'oyalar ifodasi bilan ajralib turadi.

Luqmon Bo'rixonning asarlariga tuyg'u va tafakkur uyg'unligi tasviri xosdir. U inson qalbining eng nozik his-tuyg'ularini falsafiy

mushohadalarga yo'g'rilgan holda talqin etadi. Adibning yozganlarida soddalik va samimiyat yetakchi. Ularning tili soddalik, lekin mazmuni chuqur va o'quvchining ko'ngliga yetib boradi. L.Bo'rixon asarlarida o'zbek xalqining urf-odat, qadriyatlari, hayot tarzi juda ta'sirli aks ettiriladi. U o'z asarlarida hayotning chuqur qatlamlarini ochadi, o'quvchini mushohadaga, o'z qalbini tinglashga undaydi. Uning asarlarida aks ettirilgan obrazlar va g'oyalar tasviri bugungi kitobxon uchun ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Adibning yozish uslubi va tasvir mahorati, obrazlarga o'ziga xos yondashish tarzi haqida adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev:

"Meni Luqmonning romandagi badiiy konsepsiyasi hayot va odamga yondashish tarzi, uni ko'rish, ko'rsatish va munosabat uyg'otish yo'sini hayratga solgandi. Yozuvchining kulib-kulib o'qiladigan, osongina yozilganday tasavvur qoldiradigan asari odam, jamiyat va adabiyot munosabatlari borasida milliy ilmda shakllangan fikriy qoliplarni sindirishi jihatidan tengsiz bir badiiy hodisa edi"¹, – deb yozadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Luqmon Bo'rixon asarlarida peyzaj oddiy fon emas, balki badiiy g'oyaning shakllanishida, obrazlar ruhiyatining ochilishida va voqea kayfiyatining ta'sirchanligini oshirishda muhim estetik komponent sifatida namoyon bo'ladi. Quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Peyzaj – ruhiy holatni ifodalovchi vosita: Qahramonning ichki kechinmalari, iztiroblari ko'pincha tashqi tabiat hodisalari orqali ramziy ifodalanadi (masalan, izg'irinli tun, xazonrezlik, xira osmon).

Ramziy funksiyalarga ega: Tabiat fasllari va manzaralar yozuvchi tomonidan umuminsoniy qadriyatlar, umid, yolg'izlik, iztirob kabi tushunchalarni ifodalash uchun ramziy vosita sifatida ishlatiladi.

1 Yo'ldoshev Qozoqboy. Ochqichso'z. –T.: Tafakkur, 2019. – B.427–428.

Ijtimoiy mazmunli tasvirlar: Ayrim asarlarda peyzaj shahar muhitining murakkabligi yoki jamiyatdagi maqsadsizlikni ifodalashda xizmat qiladi.

Tuyg'ular bilan uyg'unlikda: Peyzaj voqea rivoji bilan bevosita bog'liq bo'lib, obrazlarning ruhiy ahvoliga uyg'un holda shakllanadi.

Luqmon Bo'rixon o'zining badiiy asarlarida inson ruhiy kechinmalarini, jamiyatdagi o'zgarishlarning ma'naviy ildizlarni chuqur tasvirlaydi. Uning ijodida peyzaj, ya'ni tabiat manzaralari tasviri shunchaki vosita emas, balki ruhiy holat, voqea fonini yaratish va g'oya ifodasi uchun muhim badiiy asos bo'lib xizmat qiladi. Luqmon Bo'rixon asarlarida peyzaj hamisha insonning ichki kechinmalariga uyg'un holda tasvirlanadi. Tabiat tasviri voqealar rivojini to'ldiradi, muayyan kayfiyatni hosil qiladi yoki ramziy ma'no kasb etadi.

Masalan, adibning "Yolg'izlar duosi" hikoyasida peyzajning vazifasiga etibor qaratish mumkin. Ushbu hikoyada tabiat manzaralari yolg'izlik, ichki iztirob va umidsizlik tuyg'ulari bilan uyg'un holda tasvirlanadi. Muallif qahramonning ichki holatini aks ettirishda qish faslining sovuqligi, yerning qor bilan qoplanishi va osmonning xiraligi kabi holatlardan mahorat bilan foydalanadi. Natijada peyzaj qahramon ruhiyatidagi og'riqli manzaraning badiiy ifodasiga aylanadi.

Yoki ijodkorning "Chorrahadagi odamlar" asarida peyzaj ko'proq ijtimoiy voqelikni aks ettirishga xizmat qiladi. Shahar manzarasi, chang-to'zonli yo'llar, serharakat chorrhalar orqali muallif jamiyatdagi maqsadsizlik va zo'riqish holatini tasvirlaydi. Tabiat manzarasi shahar muhitining uzviy bir bo'lagi sifatida jamiyat hayotining murakkabligi va o'zgaruvchanligini badiylashtirishga xizmat qiladi. Nazarimda, Luqmon Bo'rixon ijodida peyzaj ko'pincha ramziy yukni o'z zimmasiga

oladi. Yozuvchi asarlarida ko'klam – yangilanish, umid; kuz – iztirob, xotira; qish – yolg'izlik va sovuqlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Bu esa uning asarlarida peyzajni shunchaki fon emas, balki g'oya va hissiyotlar ifodachisi darajasiga ko'tarilganini ko'rsatadi.

Luqmon Bo'rixon asarlarida peyzaj bu nafaqat tasviriy vosita, balki inson qalbinin aks-sadosi, jamiyat holatining ramzi va asar g'oyasining badiiy ifodasi uchun muhim vositadir. Uning asarlaridagi tabiat tasvirlari kitobxonni nafaqat ko'rishga, balki his qilish va tafakkurga undaydi. Aynan shuning uchun uning asarlarida peyzaj nafaqat manzara, balki ruhiyat oynasidir. Yozuvchi peyzajni qahramonning ichki holati, jamiyatdagi ziddiyatlar va umumbashariy qadriyatlarni ifodalovchi badiiy vosita sifatida ishlatadi. Tabiatning turli holati: fasllar ko'rinishi, osmon, shamol, daraxtlar yoki yo'l manzaralari hamisha inson kechinmalari bilan uyg'un tasvirlanadi.

Bunday holat Luqmon Bo'rixonning ko'plab hikoya va qissalarida kuzatiladi. U peyzaj orqali insoniy qadriyatlar va ruhiy muammolarni yoritadi, qahramon ruhiyatining ichki ziddiyatlarini tabiatning tashqi ko'rinishi orqali ifodalaydi: "Nogoh uning ko'zi hovuz tubidagi ko'lmakda balqib turgan yulduzlarga tushdi. Isqirt bir ko'lmakda balqib turgan yulduzlar! Tun qop-qora, motamsaro daraxtzor! Ko'rganlari Baxtiyorga sirli bir hikmatlar so'ylardi, fikratiga sirli bir ishoralar qilardi..."² tasvirida qahramonning ruhiy holati shunchaki ifodalanib qolmay, obrazning tuyg'ularidagi g'alayonni yanada kuchaytirib, bo'rttirib ko'rasatishga xizmat qilgan.

Aynan shu qissadan olingan boshqa bir parchada ijodkor peyzaj tasvirini kitobxon ko'z oldida gavdalandirish bilan birga, kuz faslining o'ziga xos, betakror ko'rinishini ayricha o'xshatishlar, metaforalar, jonlantirish orqali

2 L. Bo'rixon. Chorbog' qo'riqchisi yoxud Xizr ko'rgan yigit. –T.: Turon zamin, 2023. – B. 94.

yetkazib berayotganiga guvoh bo'lish mumkin:

"Kuz oftobi horg'in va o'ychan yiltillab turardi. Go'yo undan nur o'rniga zang yog'ilyotgandek, dov-dalalar sarg'ish-qizg'ish tusga qorishib mahzun yastanib yotardi. Xazonlar shitirlab-shivirlab, havoda bir zum muallaq qotgan ko'yi ohista yer bag'irlyadi"³. Luqmon Bo'rixon peyzaj vositasida tashqi manzara bilan inson ongi va uning ruhiyatini bog'lovchi ko'priq quradi desak, mubolag'a bo'lmaydi. U shunchaki manzara yaratmaydi, balki uni fikr, his, ruh va xotiralar bilan boyitadi. Kitobxon peyzaj tasviri orqali voqeani emas, aynan kayfiyatni, holatni, hissiyotlar oqimini his qiladi. Bu esa yozuvchining badiiy mahoratini ko'rsatadi.

"Bahor keldi. Ko'k kiygan osmonning yashovragan ko'ziday quyosh yana parishon-parishon porlab qoldi. Tuyqus havolarni to'ldirib, qilichqanot qaldirg'ochlar charx ura ketdi, tuyqus tizim-tizim turnalar "qurey-qurey" qo'shig'ini takrorlab, qator-qator, qahramon qo'shunday qaytishdi.

O'sha bahor "Xosiyat xola esdan og'ibdi" degan mish-mish yomg'irdan keyingi zaharli zamburug'dek urchib ketdi"⁴.

Berilgan parchaning, ya'ni peyzajning poetik tahliliga e'tibor bersak, "Ko'k kiygan osmon" – metaforik o'xshatish bo'lib, asar qahramoni Xosiyat xolaning ko'rinishi bilan muqoyasa qilinadi. U ham ko'k ko'ylagining etaklariga o'ralashgan holda, duch kelganga o'g'li haqidagi "ezmlanishlari"ni soatlab gapirardi. Quyosh nurlarining parishon porlashi ham Xosiyat xolaning savdoyi bo'lishiga ishora, nazarimda. Parchada keltirilgan takrorlar tasvirni kuchaytirishga, yanada jonliligini ta'minlashga xizmat qilgan. "Tuyqus... tuyqus... tizim-tizim... qator-qator... qurey-qurey" kabi takroriy so'zlar matnga ritmik ohang bergan. Natijada peyzajning

musiqiylikni ta'minlayotganligini va kitobxonga tabiat tovushlari eshitilayotgandek tuyilishini guvohi bo'lish mumkin. Qaldirg'ochlarning uchishi bahorning tiriklik va quvonch fasli ekanini ifodalaydi.

Ushbu peyzaj tasviri faqat tabiat manzarasi emas, balki inson ruhiyati va uning ichki holatinining ifodasidir.

"Shasht bilan orqaga burildim. Muzdek shamol qo'l-oyoqlarimdan siltab- siltab tortqilab, o'zi bilan tentirashga undagandek bo'ldi. Tund, badqovoq osmonga, bahaybat buqalardek sudralayotgan bulutlarga qarab, uzoq-uzoq uvillagim keldi"⁵.

Yuqorida berilgan peyzaj tasvirida avvalo, qahramonning kayfiyati va ruhiy holati tasvirini ko'rish mumkin. Bu yerda o'g'ilning otasidan nafratlanishi, otaning qilgan ishidan azoblanayotgani, Lolaxon bilan otasining holatidan o'ziga kelolmayotgan ruhiy iztirobi, ichki og'riqlari tasvirlangan. Bu ko'proq psixologik peyzajdir. Ya'ni tabiat va tashqi muhit qahramonning ichki holatini ifodalashga xizmat qiladi. Muzdek shamolning personaj qo'l-oyoqlaridan tortqilashi kabi jonlantirish, yuz bergan "sovuq voqea", sovuq shamol bir-birini to'ldirib, qahramonning ichki iztirobini yanada kuchaytirgan. Yuz bergan voqea jirkanch va alamli-ki, hatto osmon ham xo'mraygan, qovoqlarini osib olgan. Osmonning "badqovoq"ligi qahramonning ruhiy tushkunligini ko'rsatgan. Osmondagi "Bahaybat buqalardek sudralayotgan bulutlar" – bu metafora va taqqoslash orqali berilgan tasvir bo'lib, u orqali buqa bilan yuz bergan uyatli holat bolani yana qayta xotirasida gavdalanib, uning iztiroblarini ortishiga, ruhiyatining azoblanishiga sababchi bo'lmoqda. Bu otasi bilan yuz bergan og'riqli jarayonni qabul qilolmayotgan bola, ilojisizligidan uvillab

3 L. Bo'rixon. Chorbog' qo'riqchisi yoxud Xizr ko'rgan yigit. –T.: Turon zamin, 2023. – B.120.

4 L. Bo'rixon. Jaziramadagi odamlar. – T.: Oltin qalam, 2023. – B.197

5 L. Bo'rixon. Jaziramadagi odamlar. –T.: Oltin qalam, 2023. – B.293.

yuborishga tayyorligi, bolaning ruhiy holati juda ayanchli ekanligini aks ettirgan. Tasvirlar orqali o'quvchi qahramonning og'riqli, ayanchli ahvolini o'zida his qiladi. Bu parcha psixologik peyzajning yorqin namunasi bo'lib, yozuvchi tabiat manzarasi orqali qahramonning ruhiy kechinmalarini ochib bergan.

Umuman olganda, Luqmon Bo'rixon asarlarida peyzaj bu poetik vosita, g'oya tashuvchi va ruhiy anglash mezonidir. Uning tabiat tasvirlari orqali o'quvchi faqat manzara emas, balki inson qalbidagi to'liqlarni, ruhiyatidagi tebranishlarni tuyg'ularidagi o'zgarishlarni his qiladi. Peyzaj bu asarlarda ichki olam, ruhiy kechinmalar, ijtimoiy ziddiyatlar va falsafiy teranlikning badiiy aksidir. Shuning uchun Luqmon Bo'rixon asarlarini o'rganishda peyzaj tahlili – muhim adabiy yondashuvlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, Luqmon Bo'rixonning asarlari zamonaviy o'zbek adabiyotidagi ruhiy-tahliliy yo'nalishning yuksak namunalaridan biridir. U o'z asarlarida hayotning chuqur qatlamlarini ochadi, o'quvchini mushohadaga, o'z qalbini tinglashga undaydi. Asarlarda keltirilgan peyzaj tasvirlari esa takrorlanmas voqeliklarning, bir ko'p kishilar olamining, turfa ruhiyat egalarining, rang-barang his tuyg'ularning ifodasidir.

JAMIYATDA IJTIMOIIY MUHIT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MAHALLA INSTITUTINING O'RNI

Yorqinjon Yuldashev – tadqiqotchi,
Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim institutlardan biri sifatida jamiyatda ijtimoiy muhit barqarorligini saqlash, fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishlarini ro'yobga chiqarish, turmush farovonligini ta'minlash, ularning jamiyat hayotida erkin ishtirokini rivojlantirishdagi o'rni ko'rsatilgan.

Аннотация. В этой статье рассматриваются место и роль органов самоуправления граждан как важнейший институт гражданского общества в обеспечении стабильности социальной сферы общества, сохранения благополучной, мирной и спокойной жизни граждан и развития свободного участия их в общественной жизни.

Abstract. In this article considered the place and role civil self-governing authorities as the most important institute of the civil society in guaranteeing the stability social sphere of the society, preservation of the happy, peaceful and quiet life of the citizens and developing their participation in public life.

Kalit so'zlar: mahalla instituti, o'zini-o'zi boshqarish, barqarorlik, ijtimoiy hayot, inson farovonligi, fuqaro faolligi, ma'naviy hayot, vatanparvarlik, jamoatchilik fikri.

Ключевые слова: местное сообщество, самоуправление, устойчивость, общественная жизнь, благополучие человека, гражданская активность, духовная жизнь, патриотизм, общественное мнение.

Keywords: neighborhood institution, self-management, sustainability, social life, human well-being, civic engagement, spiritual life, patriotism, public opinion.

Mamlakatimizda o'ziga xos va o'ziga mos davlatchilik qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirishda, jamiyatimiz iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jabhalarini barqaror holda mavjud bo'lishining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida o'zini o'zi boshqarish organlari shakllandi. Ayni vaqtda mahalla institutiga taalluqli qonunchilikni takomillashtirish, uning faoliyatini erkinlashtirish, samarali ish olib borishini ta'minlash borasida huquqiy tamoyillar yaratib berilgan.

Bugungi kunda mahalla instituti jamiyatimizning strategik asosda rivojlanishida o'ziga xos harakatlantiruvchi kuchlardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki mazkur institut jamiyatda fuqarolar hayoti, faoliyati va farovonligi darajasi, ijtimoiy taraqqiyotining

ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mahallaning nufuzini quyidagi fikrlarida keltirib o'tadi: "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda biz, ilgorigidek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va xolis ommaviy axborot vositalari faol o'rin egallaydi, deb ishonamiz"¹.

Jamiyatda kishilarning o'zini-o'zi boshqarish xatti-harakatlariga, o'z haq-huquqlarini to'liq himoya qila olishga o'rgatib borish tamoyillari mahalla institutida yaqqol ko'rinadi. "Mustaqil O'zbekiston tarixi" kitobida ushbu masalalar to'g'risida quyidagicha ta'kidlangan: "Ijtimoiy turmushning hamma sohalarini

1 Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.:Ўзбекистон, 2016. –Б. 11.

demokratiyalash, o'zini-o'zi idora qila olish fazilatlarini kuchaytirish, o'z hayotini o'zi tashkil etish tamoyillarini kundalik faoliyatga aylantirish nihoyatda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon. U siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy sohalarda yangicha tafakkur tarzini talab etadi. Bu jarayon chin ma'noda har bir fuqaro mehnati, yaratuvchilik qobiliyati orqali o'z turmushini izga solishi asosida butun jamiyat hayotini mazmunan yangilash, unga butunlay yangi qiyofa baxsh etish bilan bog'lik"².

Mahalla institutining milliy-tarixiy asoslari mustaqillik davrida qayta tiklanib, o'ziga xos zamonaviy qadriyatlarga ega bo'ldi. Manbada ta'kidlanishicha, "Mahallalarning ahamiyati mustaqillik sharoitida kun sayin o'sib bormoqda. Ular mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta'min etishda, omma kuch-g'ayratini bunyodkorlikka yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mahallalarning ish faoliyatiga, shu sababli, xorijiy mamlakatlarning diqqat-e'tibori o'sib bormoqda. Mustaqil O'zbekistonda tinchlik va barqarorlikning sabablarini izlar ekanlar, xorijlik tadqiqotchilar beixtiyor ravishda mahalla omiliga duch kelmoqdalar"³.

Shu o'rinda mahalla instituti haqida xorijiy olimlarning e'tirofiga e'tibor qaratish lozim: "Mahalla respublikada millatlararo totuvlikni mustahkamlashga ham ko'maklashadi. O'zbekistonda istiqomat qiluvchi turli etnoslar vakillarining o'ziga xos milliy manfaatlari ham mahalliy hamjamiyat doirasida ifodalanadi. Ijtimoiy tenglik, insoniy qadr-qimmatni tahqirlamaydigan turmush sharoitini ta'minlash singari gumanistik g'oyalarni amalga oshirishda mutlaq imkoniyat va vakolatga ega"⁴.

O'zbekistonda ijtimoiy barqarorlikning asosiy tamoyillaridan biri bu millatlararo totuvlikdir. Millatlararo totuvlik va hamjihatlik bor joyda ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi. Yurtimizda istiqomat qiladigan 130 dan ortiq millat va elat vakillarining barchasi mahallada istiqomat qiladi. Mahalla millatlararo munosabatlar uyg'unligi, milliy qadr-qimmatni yuzaga chiqarish, turli xil madaniyatlar va urf-odatlarini aholi o'rtasida targ'ibot qilishga ko'maklashish, millatlararo murosa va birodarlik, yagona oila va yagona vatan prinsipini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi.

Mahalla – jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim maskanlardan biri hisoblanadi. Mahalla o'z faoliyatida kishilarda yuksak fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish, ularni mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarda faol qatnashishini ta'minlash, umumxalq ishiga doimiy safarbar etishga mo'ljallangan ishlarni doimiy ravishda tashkil etib bormoqda. Mahalla o'z hududidagi aholini doimiy ravishda ogohlikka da'vat etish, kishilarni hududlarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda faol va mas'uliyat bilan ishtirok etishga undamoqda.

Mahallalar yig'inlari raislari, oqsoqollar hududga begona, yot kishilarning kirib kelishi, aholining diniy-ekstremistik kayfiyatga berilib ketmasligini oldini olish ishlarida ishtirok etmoqdalar. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida (yangi tahrirda)"gi qonunning 13-moddasida "ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining, diniy qarashlarni majburan singdirish hollarining oldini olishga doir ishlarni uyushtiradi, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bilan bog'liq boshqa masalalarni hal etish"⁵ mahallalarning

2 Жураев Н., Файзуллаев Т. Мустақил Ўзбекистон тарихи. 3 т. Т. "Шарқ". 2000 й. –Б. 114.

3 Мустақиллик: изоҳли илмий-оммабоп луғат. Тошкент, "Шарқ". 1998 й. –Б. 113-114.

4 Гафарли М., Касаев А.. Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барварорлик тараққиёт асоси. –Тошкент, "Ўзбекистон" 2001 й., –Б. 210.

5 "Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида (янги тахрирда)"ги Қонун. //Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари миллий базаси"нинг веб-сайти – www.lex.uz.

va fuqarolar yig'inlarining vazifasi sifatida belgilangan. Bu jarayonlarning samarali tashkil etilishi hududlarda barqarorlik, osoyishtalik, aholining tinch va totuv istiqomat qilishiga munosib zamin yaratib kelmoqda.

Mazkur jarayonlarning barqaror suratda ta'min etilayotganligini quyidagi omillar bilan bog'lash mumkin:

- mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda uchun jamiyatning barcha sohalari va institutlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, aholi qatlamlari birligida ijtimoiy hamkorlik ta'minlangan;

- fuqarolik jamiyatini barqaror rivojlanishi uchun aholining yuksak mas'uliyati, siyosiy va huquqiy madaniyati, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy jarayonlar mohiyatini to'laqonli ravishda anglab yetishiga erishilmoqda;

- jamiyatda o'zini o'zi boshqarish organlari, ya'ni qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlarida "demokratiya darsxonasi" sifatida aholining ijtimoiy ongi va siyosiy madaniyatini o'stirish hamda jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim shart-sharoit yaratilgan;

- fuqarolik jamiyati barqarorligini ta'minlash sharoitida fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarida huzurida turli xil tuzilmalar faoliyati takomillashtirilmoqda, "fuqaro – mahalla – jamiyat" tizimi shakllantirilib, fuqarolarning mazkur tizimda to'laqonli ishtirokini ta'minlanmoqda.

Fuqarolarning jamiyatda faol harakat qilishi, davlat va jamiyat oldidagi mas'ulligi, o'zini to'laqonli namoyon etishi, tinchlik va barqarorlik uchun kurashishi ayniqsa mahallada namoyon bo'ladi. Bu esa, aholining davlat va jamoat tashkilotlarida ishtiroki orqali ogohlik, osoyishtalikni ta'minlashda asosiy hal qiluvchi kuch sifatida ishtirok etish ko'nikmalarini

shakllantiradi. Bugun mahallada yashayotgan har bir fuqaro o'zining qat'iy fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy faolligi va ma'naviy mas'uliyatiga ega bo'lib bormoqda. Xalqimiz ona vatanni ko'z qorachig'idek asrash, uni turli xil tahdidlardan himoya qilish borasida mustahkam immunitetga egaligi ham yurtimizning buyuk kelajagini ta'minlaydigan mezonlardan biridir. "Millatning buyukligi uning milliy o'zlikni qanchalik anglab yetganligiga, siyosiy yetukligiga, milliy hamjihatligiga ko'p jihatdan bog'liqdir"⁶. Shu bois, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligi aynan mazkur jarayon bilan bog'liqligi ham hayotiy namoyon bo'lmoqda.

Mahallalarda ijtimoiy turmushning ko'pgina masalalari bugungi kunda jamoatchilikning ko'magi asosida tashkil etib borilmoqda. Bular ma'naviyat targ'ibot ishlari, xotin-qizlar bilan ishlash, jamoatchilik nazorati, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, yarashtirish, obodonlashtirish, sport va yoshlar bilan ishlash kabilardir. Mazkur faoliyatning doimiy tashkil etilishi mahallada barqaror muhitni saqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fuqarolar yig'inlari huzuridagi "Yarashtirish komissiyalari" fuqarolarni oilaviy kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal etishga qaratilgan bo'lib, boshqa davlatlarda kuzatilmaydigan tuzilma sifatida o'zini oqlamoqda. Bu borada ta'kidlanishicha, "Mahalla qo'mitasi tashabbuskor jamoat tashkilotidir. Mahallada xo'jalik-madaniy qurilish tadbirlarini amalga oshirish, uning hududini obodonlashtirish, uy-joylarni va hududdagi shahar xo'jaligini saqlash, ozodalikni ta'min etish, tartib-qoidani mustahkamlash va boshqalar uchun sharoit mavjud. Mahallalarning ahamiyati mustaqillik sharoitida kun sayin o'sib bormoqda. Ular mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va bar-qarorlikni ta'min etishda, omma kuch-g'ayratini bunyodkorlikka yo'naltirishda muhim

6 Раҳмонов Р., Ғофуров З. Мустақиллик ва миллий ўзликни англашнинг тикланиши. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999. –Б. 20.

ahamiyat kasb etmoqda"⁷.

Mahallaning qizg'in faoliyati fuqarolarning ijtimoiy mas'uliyatini, xotin-qizlarning faolligini oshirishda, oilalarni mustahkamlashda, yoshlar o'rtasida turli xil ma'naviy targ'ibot tadbirlarini shakllantirishda, to'y-ma'rakalarni tartibga solishda, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda ham aks etmoqda. Olimlarning ta'kidlashicha, "Mahallaning xalqimiz ma'naviyati bilan bog'liq jihatlari haqida gap borganda, mamlakatimizdagi har qaysi xonadon, har bir oila, butun el-yurtimizdagi ma'naviy iqlim va vaziyatni anglamoqchi bo'lsak, bu boradagi haqiqiy manzaraning yorqin ifodasini avvalo mahalla hayotida xuddi oynadek yaqqol ko'rish imkoniyatiga ega ekanimizni e'tirof etish lozim"⁸. Demak, mahalla fuqaro faolligi va hayotiy pozitsiyasini rivojlantirishda muhim tuzilmadir.

Xulosa qilib aytganimizda, mahalla hududlarda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ko'maklashuvchi, fuqarolar ma'naviy qiyofasini yuksak darajaga ko'taruvchi, xalqimiz orasida mehr-oqibat tuyg'ularini, azaliy an'analar va qadriyatlarni saqlab qoluvchi va avloddan-avlodga yetkazuvchi noyob tuzilmadir. Eng asosiysi, mahallada kishilar o'rtasida o'zaro ishonch mujassamligi mavjud. Milliy g'urur, yuksak vatanparvarlik, beg'araz shukronalik va kelajakka ishonch tuyg'ulari kishilarning ongida kundan kunga mustahkam joy olib bormoqda. Shuningdek, oilaga sadoqat, keksalarga hurmat, jamoatchilikni fikriga quloq solish kabi tuyg'ular nafaqat katta avlod, balki yosh avlodning ham turmush tarzida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

7 Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Тошкент, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси». Давлат илмий нашриёти, 2002. –Б. 550.

8 Қуронов М., Мирзаев Ғ. ва бошқ. Ободлик қўнгилдан бошланади. Тошкент, Сано-стандарт, 2013 й. –Б. 27.

JIZZAX VILOYATI BOSMA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING RIVOJLANISHI (ZOMIN TUMANI "SHARQ TONGI" GAZETASI MISOLIDA)

Xurshid Olimovich Egamqulov – erkin tadqiqotchi,
Jizzax shahridagi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Annotatsiya. "Sharq tongi" gazetasi deyarli bir asr davomida Zomin tumanining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va maishiy hayotini muntazam yoritib kelmoqda. Mazkur maqolada gazetaning qisqacha tarixi, bosib o'tgan yo'li va davr ruhi aks ettirilgan. Shuningdek, gazeta bilan hamnafas yashagan, matbuot va matbaachilikning ko'pincha mashaqqatli mehnatini boshidan kechirgan fidoyi insonlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация. Газета «Шарқ тонги» на протяжении почти века регулярно освещает общественно-политическую, культурную и бытовую жизнь Заминского района. В данной статье представлена краткая история газеты, отражены пройденный ею путь и дух эпохи. Также приведены сведения о людях, чья жизнь была неразрывно связана с газетой, о тех, кто посвятил себя нелёгкому труду в сфере печати и издательского дела.

Abstract. The "Sharq tongi" newspaper has been regularly covering the socio-political, cultural, and everyday life of the Zomin district for nearly a century. This article provides a brief history of the newspaper, highlighting its journey and the spirit of the times it has witnessed. It also shares information about individuals who have lived in harmony with the newspaper and dedicated themselves to the often challenging work of journalism and publishing.

Kalit so'zlar: Zomin, gazeta, matbaa, musahhih, chop etuvchi, linotip, muharrir, muxbir, matbuot, mas'ul kotib, mudir, bosmaxona.

Ключевые слова: Замин, газета, типография, корректор, печатник, линотип, редактор, репортер, пресса, ответственный секретарь, управляющий, типография.

Keywords: Zamin, newspaper, printing house, proofreader, printer, linotype, editor, reporter, press, executive secretary, manager, printing house.

Zomin tumani o'zining ko'hna tarixi, mehnatsevar, mehmondo'st xalqi, ma'lum va mashhur kishilari bilan yurtimizga tanilgan. Respublikamizdagi alohida tuman sifatida o'zining ma'muriy-xududiy mavqeiga ega bo'lganiga bir asr to'layotgan Zomin tumani bugungi kunga kelib ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati, betakror go'zal tabiati, nafaqat mamlakatimizda, balki dunyoda mashhur bo'lib borayotgan go'zal va obod dam olish maskanlari bilan e'tibor va e'tirof qozonmoqda.

Tuman bilan deyarli bir davrda tashkil etilgan "Sharq tongi" gazetasi ham mana qariyb bir asr – 90-yillik katta bir tarixiy davrni, sharaflı yo'lni bosib o'tdi.

90-yildan buyon tumandagi yakka-yu yagona matbuot nashri bo'lib kelayotgan "Sharq tongi"

gazetasining tuman rivojida, yuksalishida, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida, shak-shubhasiz, munosib o'rni, salmoqli xizmati bor. Zero, o'tgan ana shu dolg'ali yillar davomida gazeta juda katta tashkiliy, tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirdi.

Gazeta tashkil topgan davr, ya'ni 30-yillardagi sinfiy kurashlar, kollektivlashtirish, savodsizlikni tugatish, xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish kabi siyosiy-ijtimoiy jarayonlar, kolxozlar faoliyati, tuman mehnatkashlarining urush yillari va urushdan keyingi davrdagi hayoti gazeta sahifalarida muhrlanib qolgan. O'z davridagi haqqoniy ta'bir bilan aytganda, tuman gazetasi tuman hayotining ko'zgusi bo'lgan.

Bugun tuman gazetasining tamal toshini qo'ygan, tumanda matbuot va matbaa sohasini,

mahalliy jurnalistikani rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan ko'pgina fidoyi va ajoyib insonlar oramizda yo'q. Ularning har biri tumanda matbuotning, jurnalist va matbaachi xodimlarning shakllanishiga juda katta hissa qo'shgan, kasbiga sadoqatli, qalbi daryo, mehri jo'shqin insonlar edilar. Ularni eslash, xotirlash bugungi avlodning ham burchidir.

"Sharq tongi" gazetasi faoliyati haqida T.Nazarovning "Zamonlar osha" kitobi, Yo.Tursunmurodov, A.Qorajonov, A.Sattor, N.Muhiddinov, A.Sodiqov, B.Rizayev, Sh.Sodiqov, E.Xudoyberdiyev, X.O'rinboyev, O'.Eshboyev, O.Ma'murov, S.Nomozov, X.Shoyqulov, R.Qodirova, K.Shodmonovlarning davriy nashrlarda e'lon qilingan maqolalarida g'amda "Sharq tongi" tahririyati arxiv hujjatlarida ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Shu o'rinda qayd etish joizki, "Sharq tongi" gazetasi faoliyati haqida, xalq orasida uning ommalashishi bilan bog'liq masalalar alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqot jarayonida ilmiy muammoga sivilizatsion yondashuv asosida yondashilib, tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, obyektivlik, tizimli tahlil, manbaviy, qiyosiy-mantiqiy tahlil va xolislik kabi usullardan foydalanildi. Jizzax vohasi ziyolilarining ijtimoiy-ma'naviy muhitdagi o'rni birlamchi hujjatlar tahliliga asoslangan holda atroflicha o'rganildi.

Zomin tumani 1926-yilning 29-sentabrida tuman sifatida tashkil topgan. Dastlab Samarqand viloyati tasarrufida, keyinchalik bir muddat Sirdaryo viloyati tasarrufida bo'lgan. 1974-yilda Jizzax viloyati tashkil etilgach, shu viloyat tasarrufiga o'tadi. Otaxon gazetaning chop etila boshlashi ham aynan tumanning tuman sifatida o'z qaddini tiklay boshlagan yillarga to'g'ri keladi.

1933-yilda "Kolxoz g'alabasi" nomi bilan tashkil etilgan gazeta¹ (gazeta nomi esa 1958-yilda "Kolxoz g'alabasi"dan "Sharq tongi"ga o'zgartiriladi) respublikamizdagi eng keksa tuman gazetalaridan biri bo'lib, o'sha davr talabiga ko'ra birinchi navbatda sobiq sovet hukumatining islohotlari, kolxozlashtirish, yakka xo'jaliklarga barham berish kabi mavzular yoritib borilishi rejalashtirilgan. Asosan hukumatning qabul qilgan qarorlarini aholiga etkazish, qolaversa, yaqindagina bunyod bo'lgan ma'muriy hududdagi amalga oshirilayotgan ishlar bilan o'quvchilarni tanishtirib borishda ushbu gazetaning tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Gazeta tashkil etilgan dastlabki yillarda (1933-yilning oxiri, 1934-yillarda) juda kam nusxada chop etilgan. Buning sababi esa, gazetada tajribali jurnalistlar, poligrafchi-matbaachilar deyarli yo'q edi. Harflar qo'lda terilgan, gazeta sahifalari ham qo'l kuchi bilan harakatlanadigan mashinada bosilgan. Dastlabki kunlarda gazetada 2-3 kishi (redaktor, mas'ul kotib va bir adabiy xodim) ish olib borgan.

"Kolxoz g'alabasi" gazetasining 1933-yilda chiqqan dastlabki sonlarini topishga muvaffaq bo'linmagan. Faqat 1934-yilda chiqqan ayrim gazeta sonlari topilgan xolos. Gazetaning ayni davrda bizga ma'lum bo'lgan dastlabki sonlaridan biri (gazeta birinchi betining fotosurati) 1934-yil 19-avgust sanasi bilan chop etilgan. Unga 37-(41)-raqami qo'yilgan². Demak, 1933-yilda gazetaning 4 ta soni chiqqan. Bugungi kunda Moskva davlat kutubxonasida gazetaning 1936-yil 6-fevraldagi 7 (129)-son, 22-iyundagi 36 (157)-sonlari saqlanadi³.

Shundan ma'lum bo'ladiki, gazeta 1933-yilning noyabr-dekabr oylaridan chiqa boshlagan. Gazeta u paytda 1 varaq, 2 betlik bo'lib, haftasiga 1 marta chiqarilgan. Gazeta tahririyatida o'z davrining

1 Собиқ Иттифоқ нашриёт, полиграфия ва китоб савдоси Давлат қўмитасининг 1983 йил 4 февралдаги 20-сонли хати.; Эҳсон Мирзо. Қадрдон газетанинг шарафли йўли. Шарқ тонги газетаси, 2018 йил 27 июн, № 23-24 (7618-7619).

2 "Колхоз ғалабаси" газетаси. 1934 йил 19 август, № 37 (41).

3 Собиқ Иттифоқ нашриёт, полиграфия ва китоб савдоси Давлат қўмитасининг 1983 йил 4 февралдаги 20-сонли хати.

eng bilimli, ziyoli kishilari faoliyat yuritganlar. Uning birinchi muharriri Qosim Xoldorov bo'lgan. U kishi 1933-1935-yillarda "Kolxoz g'alabasi" da muharrir bo'lib ishlagan. 1935-1938-yillarda gazetaga Turg'ut Yoqubov muharrirlik qilgan, bu davrda gazetada Xudoyberdi Normatov, Vali Xo'jayev va boshqalar ishlagan⁴.

Gazetaning sobiq xodimi Vali Xo'jayev o'sha yillar haqidagi o'z esdaliklarida shunday yozadi:

"Men ishga kelgan paytlarda gazetaning muharriri Turg'ut Yoqubov, mas'ul sekretari Xudoyberdi Normatov edi... Gazeta redaktori T.Yoqubov qattiqqo'l, talabchan, tashabbuskor kishi edi. Gazeta sahifalarida kolxozlar va tuman tashkilotlari hayotida uchraydigan turli nuqsonlarni qattiq tanqid ostiga olib yozganlarimiz esimda. T. Yoqubov urush boshlanishi bilan frontga jo'nab ketdi va urushda qahramonlarcha halok bo'ldi"⁵.

"Kolxoz g'alabasi" da avval mas'ul sekretar, keyinroq redaktor o'rinbosari bo'lib ishlagan Xudoyberdi Normatov ning eslashicha, u bilan birga gazetada Yoqubov, Xo'jaev, Ibodat Haqberdieva, Xolmat Yusupovlar ishlashgan. 1936-37 yillarda achchilik Qorabekov, yomlik Kamolova va Syunovlar, shuningdek, Jo'rayev, Egamberdiev, Xamdamov, Ko'chimov, Toji Xudoyorov, Julg'unboyev, Bekavlar, "Kolxoz

g'alabasi" gazetasining faol ishchi-qishloq muxbirlari bo'lishgan⁶.

1939-1941-yillarda gazetaga Otaqul Toshmatov redaktorlik qilgan. Dastlab u 1939-yil 8-iyundan 1939-yil 1-iyulgacha gazetada muharrirlik qilgan. A.Toshmatovning harbiy xizmatga chaqirilishi munosabati bilan 1939-yil 1-iyuldan vazifasidan ozod etilgan. M.Qoplonov 1939-yil 1-iyuldan vaqtinchalik muharrir vazifasiga tayinlangan⁷. A.Toshmatov harbiy xizmatni tugatib, 1939-yil 1-noyabrdan yana gazetada muharrirlik qilgan⁸.

1941-yil 14-yanvardan 1944-yil 26-yanvargacha gazetada avval mas'ul kotib bo'lib ishlagan⁹ Vali xo'jaev redaktor bo'lgan¹⁰. Urushdan keyingi turli yillarda "Kolxoz g'alabasi" gazetasiga Xursand Gadoyev¹¹ (1944-yil 26-yanvardan), Toshqul Xo'janazarov, Haydar Qayumov¹² (1950-yil avgustdan 1952-yil 2-avgustgacha), Abdualim Qorajonov¹³ (1952-yil 2-avgustdan 1959-yil 3-aprelgacha), Nurillo Vohidov¹⁴ (1959-yil 3-apreldan 1960-yil 4-iyulgacha), Ismadiyor Jamolov¹⁵ (1960-yil 4-iyuldan), Shukrulla Fayzullayev¹⁶ (196-ildan 1993-yil dekabrigacha), Turdibek Nazarov (1994-2014-yillar)¹⁷ redaktorlik qilishgan.

Gazetaning rivojida mas'ul kotiblarning ham o'z o'rnini bor. Ular ham muharrirlar

4 Назаров Т. Замонлар оша... "Шарқ тонги" газетаси тахририяти. Зомин. 2023. 6-бет.; Эҳсон Мирзо. Қадрдон газетанинг шарафли йўли. Шарқ тонги газетаси, 2018 йил 27 июн, № 23-24 (7618-7619).

5 Назаров Т. Замонлар оша... "Шарқ тонги" газетаси тахририяти. Зомин. 2023. 6-бет.

6 Назаров Т. Замонлар оша... "Шарқ тонги" газетаси тахририяти. Зомин. 2023. 7-бет.

7 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 1-йиғма жилд, 2-варақ. 1939 йил 1 июл Буйруқ № 4/1.

8 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 1-йиғма жилд, 2, 8-варақлар

9 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 1-йиғма жилд, 57-варақ.

10 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 1-йиғма жилд, 63-65-варақлар.

11 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 1-йиғма жилд, 65-варақ.

12 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 2-йиғма жилд, 5-варақ.; "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 2-йиғма жилд, 27-варақ.

13 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 2-йиғма жилд, 27-варақ.; "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 5-йиғма жилд, 44-варақ.

14 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 5-йиғма жилд, 44-варақ.; "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 5-йиғма жилд, 34-варақ.

15 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 5-йиғма жилд, 33-варақ.

16 Турсунмуродов Ё. Шоир ва муҳаррир. Шарқ тонги газетаси, 2005 йил 27 июн, № 19 (7067).

17 Жиззах журналистикаси: Ҳаёт кўзгуси фидойилари. Жиззах – 2014. 80-бет.

qatorida gazetaning o'qimishli bo'lishida birdek jon kuydirishgan. O'z vaqtida To'rabek Nazarov¹⁸, Muqum Fayziyev¹⁹, Amal Kamolov²⁰, M.Tursunov²¹, Vali Xo'jayev²², Juma Sulaymonov²³, Qumri Murodova²⁴, Ummatqul Xamdamov²⁵, Turob Alimov, Karim Abdurahmonov²⁶, Bozor Xamdamovlar faol targ'ibot ishlarini olib borishgan.

O'z davrida "Kolxoz g'alabasi" gazetasi tahririyatida anchagina ishlagan va keyinchalik ham tahririyat bilan yaxshi aloqada bo'lib kelgan Turob Alimov o'z xotiralarini shunday bayon qiladi:

- "Men "Kolxoz g'alabasi" gazetasining chiqishini 1936-yildan bilaman. Shu davrda Jizzax shahridan "Amerikanka" deb ataladigan mashina olib kelishib, eski tahririyat xonasiga o'rnatishdi. O'sha paytda Toshmatov redaktor, Vali Xo'jayev, Mirziyo Alimov, Xosiyat Tursunovalar adabiy xodim bo'lib ishlashardi. Tumanda 63 ta kolxoz bor edi...

Akam Mirziyo Alimov gazetada mas'ul kotib bo'lib ishlardi. 1937-1940-yillarda gazetaning faol muxbirlari juda ko'p edi. Bular jumlasiga Jaynar Karimov, Jonizoq Tillayev, Axmad Norqulovlarni kiritish mumkin. Ular o'rta maktabning o'quvchilari edi, gazetaga, adabiyotga, she'riyatga juda qiziqqan kishilar edi.

O'zim 1948-yil 10-iyundan 1950-yil 26-avgustgacha "Kolxoz g'alabasi"da mas'ul kotib bo'lib ishladim²⁷. Bu paytda gazeta bosh

muharriri Haydar Qayumov edi. Men ikkinchi marta 1959-yil 5-apreldan 1960-yil 4-iyungacha xuddi shu vazifada yana ishladim²⁸. Bu vaqtda Toshkent partiya maktabining jurnalistika bo'limini tamomlagan edim.

Men ishlagan davrda gazetada bosuvchi (chop etuvchi) Qurbonboy, aylantiruvchi (texnik) Bo'riboy Abdullayev edi. Elektr yo'q edi, gazeta bosadigan mashina qo'lda aylantirilardi. Shunda ham ishdan bo'sh vaqt topib, shaxmat o'ynashga o'tirardik, xordiq mahali shaxmat o'ynab, dam olardik..."²⁹.

O'sha yillardagi gazeta sahifalarida (lotin alifbosida) kolxozlashtirish, kolxoz ishiga to'siq bo'layotgan ishlar, "quloq"lar, "sinfiy dushman"lar haqida va shuningdek, birinchi navbatda, halol mehnat kishilari haqida batafsil yozilgan, yoritilgan. 1940-yilgacha bo'lgan davrda bosilib chiqqan tanqidiy maqolalar va xabarlariga ochiq imzolar qo'yilmagan. Balki "Qalam", "Haqiqatchi", "Sezgir", "Ayamas", "Ruchka" kabi muxbirlarning yashirin taxallus imzolari qo'yilgan³⁰.

O'tgan asr 70-yillarida Zomin tuman bosmaxonasining quvvati yaxshi emas edi. Harf teradigan lenotip mashinasi bitta bo'lganligi uchun maqolalarni terish, gazeta xatolarini tuzatish jarayoni nihoyatda cho'zilib ketar edi. Korrektor navbatchilar bilan birgalikda gohida yarim kechasi, gohida tong otguncha ishlashiga to'g'ri kelgan. Ana shunday zahmatkash muharrirlardan biri Abdualim Qorajonovdir.

18 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 1-йиғма жилд, 3-варақ.

19 Ўша манба

20 2"Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 1-йиғма жилд, 15-варақ.

21 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 1-йиғма жилд, 26-варақ.

22 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 1-йиғма жилд, 57-варақ.

23 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 1-йиғма жилд, 66-варақ.

24 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 1-йиғма жилд, 68-варақ.

25 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 1-йиғма жилд, 83-варақ.

26 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 2-йиғма жилд, 6-варақ.

27 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 2-йиғма жилд, 11-варақ.

28 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 2-йиғма жилд, 6-варақ.

29 "Шарқ тонги" газетаси архиви. 230-фонд, 2-руйхат, 5-йиғма жилд, 34-варақ.

30 Назаров Т. Замонлар оша... "Шарқ тонги" газетаси тахририяти. Зомин. 2023. 8-бет.

Asli turkman qishlog'idan bo'lgan Abdualim Qorajonov maktabni a'lo baholar bilan tamomlab, keyinchalik Samarqand Davlat universitetini muvaffaqiyatli tamomlaydi. A.Qorajonov o'zining dastlabki mehnat faoliyatini 1941-yilda o'qituvchilikdan boshlagan. 1966-yildan "Sharq tongi" gazetasida bosh muharrir o'rinbosari vazifasida faoliyatini davom ettirdi³¹. 60-yillarda o'zining o'tkir qalami va jurnalistik faoliyati bilan tuman tarixida yorqin iz qoldirdi.

Gazeta 1957-yilgacha "Kolxoz g'alabasi" nomi bilan chiqarilardi. 1957-yil oxiri va 1958-yil boshlarida tumandagi mavjud kolxozlar davlat xo'jaliklariga (sovxozlarga) aylantirildi. Natijada, gazeta nomi davr talabiga mos bo'lmay qoladi. Shuning uchun ham 1958-yilda tuman "Kolxoz g'alabasi" gazetasining nomi o'zgartiriladi. Shaxsan Abdualim Qorajonovning taklifi bilan "Kolxoz g'alabasi" 1958-yil 1-fevraldan "Sharq tongi" nomi bilan chiqa boshladi³².

1930-1940-yillarga kelib tumanda tajribali jurnalist va poligrafchilar (harf teruvchilar, pechatniklar, linotipistlar) jamoasi shakllana boshlagan edi. Bozor Xamdamov, Sami Mirzayev, Eshtemir Jo'rayev, Bo'riboy Abdullayev, O'rol Nazarov, Yoqub Yunusov, Quadrat Mullajonov, O'sarov, Pardaboy Turdiqulov, Axror Turdiyev, Anzirat Toshmatova, Shodmon Abdullayev, Qurbonboy Xasanov, Mirziyo Alimov, Ummatqul Musurmonov, Ergash Rasulov, Yo'ldosh Murodov, Turdibek O'rinboyev, Muqum Fayziyev, M.Qayumova, Mastura Sultonova, A.Otaboyev, Nigmat Xolmo'minov, M.Xoliqov, Ummatqul Xamdamov, Vali Mamirov, Tuyg'un Xatamnazarova, Naray Ochilova, N.Qalandarova, T.Safarov, Tursunmurod Pirmatov, Ali Mamurov,

Sobir O'lmasov, O'rol Bozorboyev kabi o'z kasbining fidoiylari bo'lgan insonlar tumanda chinakam matbaa korxonasi – bosmaxona faoliyatini yo'lga qo'ydilar.

1965-yilda "Sharq tongi" gazetasiga tumandagi 1-o'rta maktabning adabiyot o'qituvchisi, Yozuvchilar Uyushmasi a'zosi, shoir Shukrulla Fayzullayev redaktor etib tayinlandi. Gazetada 28-yil muharrirlik qilgan Shukrulla Fayzullayev 1930-yil 28-martda Zomin tumanining Qo'riq qishlog'ida tavallud topgan³³. 1965-yili tumanning "Sharq tongi" gazetasi qayta tiklangach, iqtidorli ijodkorni gazetaga muharrirlikka taklif qilishdi. U gazetani qaytadan tiklash, tahririyatning ijodiy jamoasini shakllantirish yo'lida juda ko'p mehnat qildi³⁴. Natijada, gazeta ko'p o'tmay mushtariylarning sevimli nashriga aylandi. Respublika ko'rik-tanlovlarida sovrindor o'rinlarga sazovor bo'ldi³⁵. U muharrirlik qilgan kezlarda "Sharq tongi" gazetasi O'zbekiston Oliy Kengashi Rayosatining Faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi³⁶. 1979-yilda Shukrulla Fayzullaevning samarali mehnatlari inobatga olinib, unga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" faxriy unvoni berildi³⁷.

Ustozning tashabbusi bilan tahririyat qoshida tashkil etilgan "Hilola" to'garagi ko'plab iqtidorli yoshlarning o'sishida, shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi³⁸.

Turdibek Nazarov "Sharq tongi" jamoasiga 1976-yil 5-fevralda kelib qo'shilgan. Bu qutlug' dargohda 1987-yilgacha dastlab korrektor (musahhih), muxbir, so'ngra muharrir o'rinbosari bo'lib ishladi. 1994-yildan 2014-yilgacha qariyb 20-yil davomida "Sharq tongi" gazetasiga muharrirlik qilgan. Uning 40-yillik umri ushbu

31 "Kolxoz g'alabasi" gazetasi, 1936 йил 17 июл, № 35 (156).

32 А.Саттор. Орамиздаги одам. Шарқ тонги газетаси, 2001 йил 9 май, № 17 (6872).

33 Муҳиддинов Н. Устозга таъзим. Шарқ тонги газетаси, 1995 йил 22 август, № 31 (6241).

34 Жиззах журналистikasi: Ҳаёт кўзгуси фидойилари. Т.Назаров. Яхшидан боғ қолади. Жиззах – 2014. 45-бет.

35 Содиқов Ш. Ҳаёт кўзгуси. Шарқ тонги газетаси, 2013 йил 25 июн, № 21-22 (7415).

36 Назаров Т. Одий иш куни. Шарқ тонги газетаси, 1979 йил 5 май, № 53 (4542).

37 Назаров Т. Юбилей тантаналари. Шарқ тонги газетаси, 1984 йил 8 май, № 56 (4925).

38 Шукрулла Файзуллаев". Жиззах ҳақиқати газетаси. 2002 йил 19 январ, № 7 (4121).

dargoh bilan chambarchas bog'langan. U turli vazifalarda faoliyat yuritgan bo'lsa-da, qalam tebratishdan, gazeta muhitidan uzoqda emasdi. Yuqorida nomlari zikr etilgan ko'pgina insonlar bilan yaqindan aloqada bo'lib, hamfikir, hamnafas bo'lib ishlash nasib etdi.

1970–1980–yillarda “Sharq tongi” gazetasi tahririyati va bosmaxonasi tumandagi ancha nufuzli tashkilot edi. Tahririyat va bosmaxona ishchi-xizmatchilari amalda bitta jamoa hisoblanardi. Bu davrga kelib tahririyatda Xaydar Sattorov, Sodiq Sobirov, Baxtiyor Rizo, Rustam Eshonqulov, Boboqul Shermanov, Xursand Gadoyev, Turdibek Abdullayev, Xudoyberdi Shoyqulov, Boboqul Umrzoqov, Nuriddin Muxiddinov, Po'lat Tojiboyev, Abdusattor Sodiqov, O'ktam Eshboyev, Sattor Qoraboyev, Ma'mir Nosirov, Xolmurod O'rinboyev, Mamajon Toyloqov, Ergash Siddiqov, Kamol Shodmonov, Oltinbek Mamirov, Raxmatilla Yunusov, Sherali Umrzoqov, Suyun Nomozov, O'rozali Berdibekov, Mamasoli Ismatullaev, Zoid Alimov, Karomat Rahimova, Turdixol Abdullaeva, Ra'no Qodirova, Maxbuba Muxammadieva, Xolbuvi Rustamova, Gulchehra Qorajonova, tuman bosmaxonasida Umar Qorajonov, Ergash Saidmurodov, Raxmatilla Ergashev, Xikmatilla Asatullayev, Xayitboy Risqulov, Tangir Ummatov, Asror Sobirov, Shukrullo Anorboyev, Xolida Ibragimova, Abdunazar Raimqulov, Kamolxo'ja Nasriddinov, G'anijon Rahmonov, Usmon Qorajonov, Dilorom Ashurova, Baxri Nasriddinova, Oysuluv Berdibekova, Fotima A'zamqulova, Jamila Mavlonova, Pardonor Shermatova, Norgul G'afurova, Saodat G'afurova, Tojiniso Isoqova, Gulchehra Sadirova, Jamila Abdurasulova, Ra'no Yarlaqabova, Gulchehra Umarova, Norgul Raimqulova, Guli Rahimova, Nurinso, Latofat, Sohoba, Xolida Xolbo'taeva, Maxfirat Saidqulova,

Tamara Anarboeva kabi jurnalistlar, matbuotchi va matbaachilar, o'z kasbiga mehr qo'ygan, zimmalaridagi vazifasini hamisha sidqidildan ado etgan fidoiy insonlar mehnat qilishardi.

Bolalik yillarini Xulkar qishlog'ida o'tkazgan Boboqul Shermanov o'rta maktabni bitirib, Sirdaryo davlat institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kiradi. U 1974–yildan 1983–yilga qadar tahririyatda muxbir, bo'lim boshlig'i, muharrir o'rinbosari vazifalarida samarali mehnat qildi. O'tkir tanqidiy maqolalari, feletonlari, ocherklari bilan tahririyatda, gazetxonlar o'rtasida katta hurmat qozondi³⁹.

Gazetani tayyorlashda kunu-tun mehnat qilgan matbaachilarning xizmatlari benihoya kattadir. Tuman gazetasi har bir sonining sifatli chiqarilib, o'z o'quvchilari qo'liga vaqtida etib borishi bu erda mehnat qilayotgan matbaachilarning mehnatiga bog'liqdir. Shu yillarda tuman bosmaxonasiga Shodmon Abdullayev, Muqum Fayziyev, Yoqub Yunusov, Vali Xo'jayev, Zaynab Isoqova, Saboxat Xamdamova, Tuyg'un Xotamnazarova, Bozorboy Xamdamov, Umar Qorajonov, so'ngra Sodiq Sobirov, 1978–yildan Rustam Eshonqulov, 1988 yildan Xikmatulla Asatullayev, 2002–yildan G'anijon Rahmonov rahbarlik qilishadi.

1984–yil may oyida gazetaning 50–yilligi munosabati bilan gazeta bosh muharriri Shukrulla Fayzullaev, bosmaxona ishchisi Ergash Saidmurodov, tahririyat xodimi Abdusattor Sodiqov, jamoatchi muxbirlardan Tursunboy Usmonov (Tursun Rashid), Abduquddus Muxayminovlar Respublika Faxriy Yorlig'i, bosmaxona direktori Rustam Eshonqulov “Respublikada xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi” unvoni bilan taqdirlanishadi⁴⁰. Shuningdek, Saidmurod Ergashev sobiq Ittifoq Oliy Kengashi Prezidiumining Farmoni bilan

39 Назаров Т. Замонлар оша... Самимият менга устозимдан мерос. (Х.Ўринбоев эсдаликларидан). “Шарқ тонги” газетаси тахририяти. Зомин. 2023. 44–бет.

40 Назаров Т. Юбилей тантаналари. Шарқ тонги газетаси, 1984 йил 8 май, № 56 (4925); “Шарқ тонги” газетаси. 1984 йил 5 май, № 54–55 (4923–4924).

III darajali Mehnat shuhrati ordeni bilan taqdirlanadi⁴¹.

"Sharq tongi"ning uzluksiz mushtariylar qo'liga etib borishida va sifatli chiqishida matbaachilarning mehnatlari katta. Shunday insonlar bosmaxonaning linotip mashinasi ustasi Kamoliddin Nasriddinov⁴² va bosmaxona harf teruvchisi Ergash Saidmurodov⁴³ larning ham o'z o'rni bor. Ular butun umrlarini shu sohaga bag'ishlagan insonlardir.

Ergash Saidmurodov yoshligidan matbaachilikka qiziqqan. Bu qiziqish uni 1954-yilda Toshkent poligrafiya bilim yurtiga etaklagan. O'qish jarayonida poligrafiya ishining xususiyatlarini puxta o'rgangan. Bilim yurtida olgan nazariy bilimini amalda mustahkamlash maqsadida O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashiga qarashli bosmaxonaga ishga kirgan. Bu bosmaxona uning matbaachi bo'lib qolishida katta rol o'ynagan. 1966-yilda uni "Sharq tongi" tahririyati bosmaxonasiga ishga taklif etishadi. Shu tariqa u bosmaxona rivoji yo'lida mehnat qilib, umrini shu sohaga bag'ishlaydi⁴⁴.

Ko'p yillik tajribaga ega sex ustasi Asror Sobirov, chop etuvchi Shukrullo Anorboyev⁴⁵, sahifalovchi Abdunazar Rayimqulov va ko'p yillik tajribaga ega, o'z ishining ustasi bo'lgan harf teruvchi Oysuluv Berdibekova hamda Tojiniso Isoqova, Shirin Asatullayevalarning ham gazeta ishida o'z o'rni, o'z mavqelari bor⁴⁶. Shuningdek, Bibajar Bayseytova va Xolbeka Omonboyevalar o'z kasbiga ixlos qo'ygan, mehnatsevar sahifalovchilardir. Ular Toshkent

poligrafiya texnikumini tamomlab, Zomin tuman bosmaxonasida faoliyatlarini olib borishgan. Ular o'zlarining ishbilarmonligi, mehnatsevarligi bilan jamoa hurmatini qozonganlar⁴⁷.

"Sharq tongi" gazetasi qoshida doimo ishchi-qishloq muxbirlari seminar-mashg'ulotlari tashkil etilib turilgan. Unda gazetaning o'qimishli jihatdan rang-barang bo'lib chiqishida ishchi-qishloq muxbirlaridan kelayotgan xat va xabarlarning katta o'rin egallashi, joylarda material to'plashda nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligi, muxbirlar oldida turgan vazifalar to'g'risida havaskor muxbirlarga maslaxat va ko'rsatmalar berib turilgan⁴⁸.

"Sharq tongi" gazetasi mana 90 yildirki, tumanning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maishiy hayotini muntazam yoritib borishdagi o'rni va ahamiyati hozir ham beqiyos.

O'tgan davr mobaynida tahririyat ijodiy jamoasi ushbu dargohda mehnat qilib, ozmi-ko'pmi el-yurt o'rtasida hurmat topishdi, o'zlarining publitsistik maqolalari, ocherklari, fel'eton va xabarlari bilan o'quvchilar qalbidan joy ola bilishdi.

Gazeta faoliyati faqatgina tahririyat ijodkorlarining ishi bilan chegaralanib qolmadi. Uning rang-barangligi, sahifalardagi mavzularning xilma-xilligi, dolzarbligi va o'qimishlilikida jamoatchi muxbirlar munosib hissa qo'shdilar.

To'g'ri, dastlabki vaqtlarda chop etish uskunalari, qoliqli harf va sarlavhalarni qo'lda

41 Шарқ тонги газетаси, 1975 йил 22 март, № 35 (3498).

42 Шодмонов К. Оддий одамлардан бири. Шарқ тонги газетаси, 1984 йил 5 май, № 54-55 (4923-4924); Илғорлар. Шарқ тонги газетаси, 1982 йил 5 май, № 55 (4612).

43 Умрзоқов Ш. Матбуотимиз жонкуярлари. Шарқ тонги газетаси, 1980 йил 1 май, № 55 (4300); Исматуллаев М. Ҳаёт кўзгуси. 1991 йил 4 май, № 36 (5997).

44 Саидмуродов Э. Касбимдан мамнунман. Шарқ тонги газетаси, 1987 йил 5 май, № 54 (5391); Номозов С. Мураббий. "Шарқ тонги" газетаси, 1984 йил 5 май, № 54-55 (4923-4924).

45 Исматуллаев М. Ҳаёт кўзгуси. Шарқ тонги газетаси, 1991 йил 4 май, № 36 (5997).

46 Жонкуярлар. Шарқ тонги газетаси, 1999 йил 26 июн, № 20 (6781).; Меҳнатда тобланиб. Шарқ тонги газетаси, 1985 йил 4 май, № 53 (5078).

47 Тожибоев П. Харф терувчи икки қиз. Шарқ тонги газетаси, 1978 йил 5 май, № 55 (3988).

48 Ишчи қишлоқ мухбирлари семинари. Шарқ тонги газетаси, 1984 йил 10 апрел, № 45 (4914); Ишчи қишлоқ мухбирлари семинари. Шарқ тонги газетаси, 1986 йил 8 апрел, № 42 (5223).

terish yo'li bilan amalga oshirish kabi ishlar birmuncha qiyinchiliklar tug'dirgan. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, ana shu qo'rg'oshin quyib, harf terib gazeta chiqarishga moslashgan bosmaxonalarning o'zi ham ko'pgina tumanlarda yo'q edi. Qo'shni tumanlar o'z nashrlarini "Zomin" bosmaxonasiga olib kelib, shu yerda yotib qolib, tungi navbatlarda gazeta bostirib ketishgan.

Shunday vaqtlar bo'lganki, gazeta tahririyati va tuman bosmaxonasi birlashib, yagona muassasaga aylantirildi. Uerdagi matbaachilar – harf teruvchilar, sahifalovchilar, linotip uskunasi ustalari, chop etuvchilar, sex ustalari bilan ijodiy xodimlar yakdil, hamfikr bo'lib ish olib bordilar. Gazeta adadi 10 ming donaga qadar ko'tarilib, haftasiga 3 martadan chop etila boshlangan. Tahririyat va bosmaxonani qo'shib hisoblaganda "Sharq tongi"ning bitta soni yuzaga kelishi uchun salkam 40 kishining mehnati singan edi.

Bugungi kunda esa "Sharq tongi" gazetasi komp'yuterda terilib, sahifalanib, ofset usulida chop etilmoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda erkin ijodiy muhit qaror topdi. Milliy matbuotimizning zamon talablari asosida rivojlanishi uchun qonuniy asoslar yaratildi. Ommaviy axborot vositalarining, matbaachilikning moddiy texnik bazasi mustahkamlandi. Bosmaxonalar, nashriyotlar eng zamonaviy asbob-uskunalar, texnologiyalar bilan jihozlandi.

Mustaqillik yillarida "Sharq tongi"ning qiyofasi, badiiy saviyasi, nashr imkoniyatlari tubdan yaxshilandi. Tumandagi ro'y berayotgan o'zgarishlar, bunyodkorlik ishlari, milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz targ'iboti, yoshlar tarbiyasi, bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy hayotning barcha jabhalarida xalqimiz bilan hamdam, hamqadam bo'lib kelmoqda.

Ayni paytda iqtidorli shoir va jurnalist Xayrulla Sidikov bosh bo'lgan tahririyat jamoasi

yurtimizda amalga oshirilayotgan ezgu va xayrli ishlarni izchil yoritib borish, gazetaning o'qimishli, hozirjavob bo'lishi, muntazam chiqib turishi yo'lida sidqidildan mehnat qilishmoqda. O'tgan yilning boshidan telegram ijtimoiy tarmog'ida, 2023-yilning boshidan esa qo'shimchasiga web-saytlarda ham gazetaning rasmiy sahifalari ochildi. Eng muhimi, tumandagi ko'p sonli havaskor ijodkorlar ham doimo gazeta bilan hamnafaslar.

Ishonamizki, salkam bir asr, ya'ni, 90 yil davomida nashr etilib kelinayotgan "Sharq tongi" gazetasi bundan buyon ham mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarimizni, istiqlol g'oyalarini tarannum etish yo'lida zimmasidagi ulkan ma'naviy-ma'rifiy, targ'ibot-tashviqot ishlarini izchil va yuksak saviyada amalga oshiraveradi.

HARBIYLAR NUTQIDA SLENGLARNING MAVZUIY TASNIFI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Malika Sayfiddinovna Soatova – mustaqil tadqiqotchi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada sleng tushunchasining umumiy xususiyatlari, uning lingvistik tavsifi va harbiy submadaniyat doirasida shakllanishi o'rganiladi. Slengning norasmiy, ifodaviy va emotsional konnotatsiyalarga ega bo'lgan leksik birliklar tizimi sifatida til tizimidagi o'rni aniqlanadi. Asosiy e'tibor ingliz va o'zbek harbiy slengining semantik, strukturaviy xususiyatlarini solishtirma tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada slengning shakllanish usullari – leksik–semantik hosila, affiksatsiya, qisqartirish, kompozitsiya, onomatopeya, konversiya, jargon va dialektal o'zlashmalar – keng ko'lamda misollar bilan yoritilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются общие характеристики сленга, его лингвистическое описание и формирование в рамках военной субкультуры. Определяется место сленга в языковой системе как совокупности неформальных, экспрессивных и эмоционально окрашенных лексических единиц. Основное внимание уделяется сопоставительному анализу семантических и структурных особенностей английского и узбекского военного сленга. В статье подробно освещаются способы образования сленга – лексико–семантическое производное, аффиксация, аббревиация, композиция, ономотопея, конверсия, жаргонные и диалектные заимствования – с широким спектром примеров.

Abstract. This article explores the general characteristics of slang, its linguistic description, and its development within the framework of military subculture. It defines the role of slang in the language system as a set of informal, expressive, and emotionally charged lexical units. Special attention is devoted to a comparative analysis of the semantic and structural features of English and Uzbek military slang. The study extensively illustrates the mechanisms of slang formation – including lexical–semantic derivation, affixation, abbreviation, compounding, onomatopoeia, conversion, jargon, and dialectal borrowings – supported by a wide range of examples.

Kalit so'zlar: harbiy sleng, sleng shakllanishi, lingvokreativlik, metafora, leksik–semantik hosila, qisqartma, affiksatsiya, ingliz harbiy nutqi, o'zbek harbiy slengi, tematik tasnif, frazeologik birliklar, diskurs tahlili, harbiy tarjima, emotsional konnotatsiya, ijtimoiy identifikatsiya, sotsiolingvistika.

Ключевые слова: военный сленг, образование сленга, лингвокреативность, метафора, лексико–семантическое производное, аббревиатура, аффиксация, английская военная речь, узбекский военный сленг, тематическая классификация, фразеологические единицы, дискурсивный анализ, военный перевод, эмоциональная коннотация, социальная идентификация, социолингвистика.

Keywords: military slang, slang formation, linguo–creativity, metaphor, lexical–semantic derivation, abbreviation, affixation, English military discourse, Uzbek military slang, thematic classification, phraseological units, discourse analysis, military translation, emotional connotation, social identification, sociolinguistics.

Sleng bu tilshunoslik jihatidan norasmiy va nostandart bo'lgan, qo'shimcha leksik tizim sifatida tavsiflanadi. U odatda stilistik belgilarga ega bo'lgan, ifodaviy va baholovchi ma'nodagi, keng qabul qilingan va ma'lum tushunchalarning nomlarini ifodalaydi¹. Sleng milliy til doirasidagi muayyan ijtimoiy submadaniyatga xos bo'lgan

birlikdir. Ko'pchilik hollarda tadqiqotchilar sleng atamasiga turli sifatlovchilarni qo'shib ishlatishadi, bu esa uning ma'nosini toraytiradi va qo'llanilish sohasini aniqroq belgilaydi. Masalan: harbiy sleng (shu jumladan radar slengi, havo kuchlari slengi, ingliz armiyasi slengi, amerika armiyasi slengi, urush slengi), o'smirlar slengi,

¹ Jones, B. (2018). Strange vernaculars: How eighteenth-century slang, cant, provincial languages and nautical jargon became English? *Mariner's Mirror*, 104(2), 233–235. <https://doi.org/10.1080/00253359.2018.1454133> ; Pedlar, D., Thomson, J. M., & Castro, C. A. (2019). Military-to-civilian transition theories and frameworks. In C. A.

biznes slengi, SMS slengi, kompyuter slengi, qamoqxona slengi, jinsiy sleng va boshqalar.

Sleng tilning mustaqil shakli deb hisoblanmaydi, chunki u o'ziga xos fonetik va grammatik tizimlarga ega emas va har bir milliy tilning o'ziga xos xususiyatlariga asoslanadi². "Sleng" atamasining o'zi esa umumiy qabul qilingan yagona ta'rifga ega emas, bu esa ushbu sohadagi tadqiqotlarni murakkablashtiradi. 1940-yillarda mashhur amerikalik tilshunos Charlz Friz shunday degan edi: "Sleng atamasi shu darajada kengayib ketganki, u turli xil tushunchalarga nisbatan ishlatilmoqda va natijada sleng bo'lgan va bo'lmagan til birliklari o'rtasidagi chegarani aniqlash nihoyatda qiyin"³. Harbiy sleng ta'rfi masalasida ham bugungi kunda shunga o'xshash holat saqlanib qolgan.

Ushbu maqolada I.V.Arnoldning ta'rifiga asoslanib, "sleng" atamasi adabiy til me'yorlaridan tashqarida joylashgan va kuchli baholovchi, ifodaviy hamda emotsional konnotatsiyalarga ega bo'lgan leksik daraja sifatida izohlanadi⁴. G.A.Sudzilovskiy o'z tadqiqotida "harbiy sleng" va "harbiy jargon" tushunchalarini farqlaydi – uning fikricha, ikkinchi atama, ya'ni jargon, ezoterik (yaqin kishilargagina tushunarli) maqsadlarda yaratiladi va qo'llaniladi, xuddi Kokkni qofiyaviy slengi singari⁵. Biroq ushbu maqolada biz ushbu ikki atamani farqlamaymiz, balki zamonaviy o'zbek tilshunosligida "sleng" va "jargon" atamalarining sinonim sifatida keng qo'llanilishini aytib o'tilgan⁶. Bu holat Tilshunoslik ensiklopedik lug'atida keltirilgan

quyidagi ta'rifda ham aks etgan⁷: "Sleng (ing. slang) – 1) jargon bilan bir xil (o'zbek tilshunosligida asosan ingliz tiliga oid hollarda); 2) og'zaki leksika darajasini tashkil qiluvchi jargonsimon birliklarning yig'indisi bo'lib, nutq mazmuniga nisbatan qo'pol–do'stona va ba'zan hazilomuz munosabatni ifodalaydi".

Harbiy sleng juda keng ko'lamga ega bo'lib, u harbiy hayotning deyarli barcha jabhalarini qamrab oladi. Amaldagi deyarli barcha atamalar, mol–mulk turlari, qurol–yarog', harbiy texnika va boshqa har qanday obyektlar adabiy til bilan bir qatorda norasmiy nomlarga ham ega.

Biz ushbu maqolada harbiy slengni "ingliz tilidagi leksikaning bir darajasi sifatida, avvalo AQSh va Buyuk Britaniya qurolli kuchlarida harbiy tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladigan sleng shakli" deb tushunamiz⁸. Shu bilan birga, A.D.Shvaytserning ta'kidlashicha, ingliz tilida so'zlashuvchi turli davlatlar vakillarining harbiy slengdan foydalanishida qator farqlar mavjud⁹. Harbiy leksikani tahlil qilishda shuni hisobga olish zarurki, belgilangan va an'anaviy iboralar, qo'llanilish qoidalari bilan bir qatorda, sezilarli darajada norasmiy lug'aviy birliklar mavjud. Sleng deb ataluvchi ushbu so'z va iboralar og'zaki, emotsional va ko'pincha obrazli bo'lib, ular harbiy leksikaning ajralmas qismini tashkil qiladi.

Ingliz harbiy slengini o'rganishga doir asosiy ilmiy tadqiqotlar 1990-yillargacha G.A.Sudzilovskiy, E.Partridge¹⁰ tomonidan olib borilgan. So'nggi yillarda esa mahalliy

2 Uwen, G., & Mensah, E. (2022). Tomorrow may not be yours: Military slang and jargon as linguistic performance in Nigeria. *Language Matters: Studies in languages of Africa*, 53(3), 91-111.

3 Fries, C., 1947. Usage Levels and Dialect Distribution. The American College Dictionary. New-York: New American Library. P 52

4 Arnold, I.V., 2006. Stylistics of the modern English language. Moscow: Flinta, Nauka.

5 Ignatov, A.A. and Mitchell, P., 2013. Disappearing cockney: the status of cockney rhyming slang in modern English society. *Tomsk State University Journal*, 374.pp. 68-70.

6 Xolmonova Z. Tilshunoslik nazariyasi – Toshkent: Spectrum Media Group, 2022, 37-44-b.; Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T.:2010. 98 -bet; Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T."Talqin":2005. 201 -bet;

7 Linguistic Encyclopedic Dictionary, 1990. Moscow: Sovetskaya entsiklopediya, p. 461.

8 Sudzilovskiy, G.A., 1973. Slang – what is it? English simple military vocabulary. An English-O'zbekian dictionary of military slang. Moscow: Ordena Trudovogo Krasnogo Znameni Voennoe Izdatel'stvo Ministerstva Oboronyi SSSR. P 13-43

9 Shveytser, A.D., 1963. A study of the modern English language in the USA. Moscow: Higher School.

10 Partridge, E., 1970. Slang Today and Yesterday. Law Book Co of Australasia.

tilshunoslikda ayrim mustaqil, kichik hajmli tadqiqotlar paydo bo'ldi. Biroq, shuni alohida ta'kidlash kerakki, ingliz harbiy slengi nisbatan kam tadqiq qilingan bo'lib, bu holat xorijiy siyosiy omillar bilan bir qatorda, uning hozirgi holatini o'rganishni dolzarb masalaga aylantiradi. Shu o'rinda o'zbek harbiy nutqining bu boradagi tahlili ham kam miqyosda olib borilgan.

Ingliz harbiy slengining xorijiy va mahalliy lug'atlari ushbu tadqiqot uchun asosiy til materialini bo'lib xizmat qilgan. Harbiy sleng turli usullar yordamida shakllanadi, jumladan: leksik-semantik hosila, morfologik hosila (so'z yasash, affiksatsiya, qisqartirish, onomatopeya va konversiya), frazeologik birliklarning shakllanishi, chet tillardan va ingliz tilining hududiy dialektlaridan o'zlashmalar, jargon so'zlardan o'zlashmalar¹¹. Yuqoridagi tasnif asosida zamonaviy ingliz va o'zbek harbiy slengidan ba'zi hosila usullarini quyidagi misollar orqali ko'rib chiqamiz:

1. Leksik-semantik hosila. Inglizcha: boot – yangi askar (aslida etik degan ma'noda, lekin harbiy xizmatga yangi kirgan kishi ma'nosini olgan). O'zbekcha: kapalak – xizmatining ilk oylaridagi askar (aslida hasharot nomi, ammo yengil va zaif, hali "qattiq" xizmatni ko'rmagan degan kinoya bilan qo'llaniladi).

2. So'z yasash (kompozitsiya) bir yoki bir nechta affiksli yoki oddiy so'zlarni birlashtirib yangi so'z hosil qilish: Inglizcha: chair force – "stol" va "havo kuchlari" so'zlarining qo'shilishi, havo kuchlarida xizmat qiluvchilarni masxara qilish uchun ishlatiladi (ya'ni, ko'proq ofisda o'tiradi degan ma'noda). O'zbekcha: polvon–askar – jismoniy jihatdan yirik, lekin tez charchaydigan askar uchun ishlatiladigan qo'shma so'z (masxara yoki kinoya bilan).

3. Affiksatsiya prefiks va suffikslar yordamida yangi so'zlar hosil qilish. Masalan, "-ie" suffiksi

ko'pincha kamsituvchi ma'noga ega bo'lgan harbiy sleng birliklari yaratishda ishlatiladi: Inglizcha: go-fasters – yugurishga mo'ljallangan etiklar (suffiks -er yordamida ot shaklida hosil bo'lgan). O'zbekcha: kamandirlikcha – (suffiks -cha yordamida) komandirga taqlid qiluvchi oddiy askar haqida kinoyaviy aytiladi.

4. Qisqartirish (abbreviation, clipping) so'zning boshlanishi yoki oxiri (ba'zida har ikkisi) ataylab olib tashlanadi: Inglizcha: corp – "corporal" so'zining qisqartirilgan shakli. O'zbekcha: otka – "otkazma" (ya'ni, nazoratdan o'tmay qolgan signal yoki topshiriq) so'zining qisqartmasi (harbiy aloqa sohasida ishlatiladi).

5. Onomatopeya (tovushga taqlid). Inglizcha: whiz bang – snaryad portlashi tovushiga taqlid. O'zbekcha: zarbzang – portlash yoki zarba tovushini ifodalovchi so'z sifatida mashg'ulotlarda yoki kinoyaviy holatda ishlatiladi.

6. Konversiya (nol affiksli o'zgarish) bir so'z turkumiga mansub birlik boshqa turkumga aylantiriladi: Inglizcha: locked and loaded – boshlanishda qurolga oid sifatlovchi ibora bo'lib, so'ngra askarning jangovar tayyorgarlik holatini ifodalovchi fe'lga aylangan. O'zbekcha: sindirish – buyruqqa bo'ysunmaslik holatini ifodalash uchun "ruhini sindirish" (aslida jismoniy harakat bo'lgan so'z) fe'li kengaytirilgan ma'noda qo'llaniladi.

7. Frazeologik birlik (idioma). Inglizcha: to dog a watch – postda xizmat qilish (frazeologik ma'noda). O'zbekcha: pultni qo'riqlash – harbiy texnikani nazorat qilish (aslida kinoya bilan, ish qilmay o'tirish ma'nosida ishlatiladi).

8. Chet tillardan o'zlashma (borrowing). Inglizcha: Blitzkrieg – nemis tilidan kirib kelgan, tezkor hujum taktikasini ifodalovchi atama. O'zbekcha: karbin – o'zbekcha orqali kirib kelgan,

11 Sudzilovskiy, G.A., 1973. Slang – what is it? English simple military vocabulary. An English-O'zbekian dictionary of military slang. Moscow: Ordena Trudovogo Krasnogo Znameni Voennoe Izdatel'stvo Ministerstva Oborony SSSR. P 13-43

“karabin” turidagi qurolni bildiruvchi sleng soʻz.

9. Ingliz tilining hududiy dialektlaridan oʻzlashma. Inglizcha: nothing to write home about – hech qanday ahamiyatli narsa emas (Britaniya slengidan AQSh harbiy tiliga oʻtgan). Oʻzbekcha: andijoncha xizmat – “sokin, tartibli xizmat” degan maʼnoda, Fargʻona vodiysi slengida ishlatiladi (hududiy dialektdan oʻzlashma).

10. Jargon oʻzlashma. Inglizcha: tommy gun – gangsterlar orasida mashhur boʻlgan avtomat qurol (hozir harbiy slengda). Oʻzbekcha: yaponka – portlovchi qurilma turi (jargon uslubda, kelib chiqishi nomaʼlum, biroq harbiy mashgʻulotlarda ishlatiladi).

Yuqoridagi usullarga, shuningdek, Qisqartmalar va akronimlar (qisqartirishning eng keng tarqalgan shakllari boʻlib, AQSh va Britaniya harbiy tilida keng qoʻllaniladi) va birlashma (blending) (ikki yoki undan ortiq soʻzlarning boshlangʻich yoki oxirgi segmentlari birlashtirilib yangi soʻz hosil qilinadi) kabu usullarni ham qoʻshish mumkin.

Harbiy sleng birliklari kategoriyalar va tematik guruhlar asosida tasniflanishi mumkin, bu esa uni ilmiy va oʻquv maqsadlarida oʻrganishga yordam beradi. Bir qator oʻzbek tilshunoslari harbiy slengni turli usullar bilan tasniflagan. Jumladan, I.V.Belova va Y.Y.Pavlova¹² ingliz harbiy slengini quyidagi tematik guruhlariga ajratishgan, bu guruhlar harbiy xizmatchilar hayotining turli jihatlarini va obyektlarini aks ettiradi:

Tematik Kategoriya	
I. Odamlar oʻrtasidagi munosabatlar	1. Kundalik ijtimoiy munosabatlar
	2. Unvon va lavozimga qarab turlicha munosabatlar

II. Jismoniy faoliyat	3. Turli davlatlar harbiy xizmatchilari oʻrtasidagi munosabatlar
	1. Kundalik xizmat faoliyati
	2. Jangovar holatdagi faoliyat
III. Boʻshatish va boʻsh vaqt	3. Mashgʻulotlardagi faoliyat
	—
IV. Inson va uning atrof-muhiti	1. Oziq-ovqat
	2. Kiyim va jihozlar
	3. Qurol-yarogʻ va harbiy texnika
	4. Sogʻliq holati
	5. Kayfiyat, psixologik holat
	6. Tana qismlari

Tahlillarimizga koʻra, I.V. Belova va Y.Y. Pavlova tomonidan taklif etilgan ushbu tematik tasnif ingliz harbiy slengining nisbatan obyektiv tasnifi boʻlsa-da, ayrim kamchiliklarga ham ega. Birinchidan, harbiylar oʻrtasidagi munosabatlar faqat unvon yoki lavozim bilan emas, balki xizmat turiga va boʻlinmaga ham bogʻliq boʻlishi mumkin. Ikkinchidan, ingliz harbiy slengida xorijiy harbiylarga emas, balki xorijiy fuqarolarga nisbatan ham ishlatiladigan koʻplab sleng birliklari mavjud boʻlib, ular harbiylarning ularga boʻlgan munosabatini aniq ifodalaydi. Uchinchidan, jangovar holat va mashgʻulotlar bilan bogʻliq koʻplab sleng birliklari har ikkala holatda ham ishlatiladi. Masalan, “to go over the top” iborasi jangda ham, mashgʻulotda ham qoʻllanilishi mumkin. Shu sababli, ushbu ikki guruhni birlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Oʻzbek tilshunosligidagi slenglar tasnifidan kelib chiqqan holda¹³ oʻzbek harbiy slengiga oid chuqur tematik tasnifi keyingi qismda batafsil koʻrsatiladi:

12 Belova, I.V. and Pavlova, Y.E., 2008. Lexical and semantic features of military slang in American English. Bulletin of the South Ural State University. Series “Linguistics”, 1 (101), pp. 33–38.

13 Xolmonova Z. Tilshunoslik nazariyasi — Toshkent: Spectrum Media Group, 2022, 37–44–b.; Sayfullayeva R. Hozirgi oʻzbek adabiy tili.–T.:2010. 98 –bet; Jamolxonov H.Hozirgi oʻzbek adabiy tili.–T.”Talqin”:2005. 201 –bet;

I. Harbiy kasbga oid tematik guruhlar:

Harbiy texnika: ("og'ir transport vositalari, quruqlikdagi qo'shinlar, havo kuchlari, dengiz floti", "o'qotar qurollar va kichik qurollar", "o'q-dorilar");

Harbiy harakatlar: ("jangovar harakatlar, jang, hujum", "orqaga cheklash, mag'lubiyat", "otish, bombardimon, portlash", "harbiy mashg'ulotlar", "uo'zbekhdagi o'lim, o'ldirish, jarohat yetkazish, halok bo'lish, yaralanish");

Qurolli kuchlarning turlari va qismlari: ("quruqlikdagi qo'shinlar, piyoda askarlar", "havo kuchlari, uchuvchilar", "dengiz kuchlari, dengizchilar", "artilleriya, to'pchilar", "tank qo'shinlari, motopiyoda qo'shinlar, tankchilar", "dengiz piyodalari", "desant qo'shinlari, parashyutchilar", "chegara qo'shinlari, chegara qo'riqchilari", "mudofaa qo'shinlari", "ichki qo'shinlar", "harbiy komendatura va shtab askarlari", "maxsus bo'linmalar");

Harbiy unvonlar, lavozimlar va kasblar: (harbiy unvon, lavozim yoki kasbga nisbatan ishlatiladigan sleng atamaları);

Xizmat muddati: (O'zbek harbiy slengida majburiy harbiy xizmat prinsipi keng aks etgan bo'lib, xizmat davomiyligiga qarab askarni ifodalovchi sleng birliklari mavjud);

Urush-mojarolar: (harbiy mojarolar natijasida shakllangan va ushbu mojarolarga xos xususiyatlarni aks ettiruvchi leksik birliklar – "dushmanni ifodalovchi atamalar", "harbiy texnikani ifodalovchi atamalar", "mojarolarga bog'liq shaxslar uchun ishlatiladigan sleng laqablar", "xizmat bilan bog'liq hududlarni ifodalovchi sleng so'zlar").

II. Qurolli kuchlar hayotining maishiy-harbiy tomonini aks ettiruvchi tematik guruhlar:

Oziq-ovqat: ("ovqatlanish jarayoni va oziq-ovqat mahsulotlarini ifodalovchi sleng birliklari", "askarlar va kursantlar oshxonalarida iste'mol qilinadigan ovqat turlarini bildiruvchi sleng atamaları");

Formalar: ("harbiy kiyimning umumiy nomi", "yuqori kiyimlar", "ichki kiyim", "harbiy etiklar", "harbiy bosh kiyimlar");

Kazarma hayoti: ("harbiy qism yoki kema yashash joylari", "kazarma yoki qo'riqlash joylaridagi karovatlar", "navbatchilik va xizmat vazifalari", "tozalash vositalari", "uyqu").

III. Harbiy hayotning ham kasbiy, ham kundalik jihatlariga oid tematik guruhlar:

Shaxslararo munosabatlar: ("tashqi ko'rinishga baho berish", "bosim, tahqirlash", "etnik munosabatlar").

Shuningdek, harbiy sleng lug'atlarini va boshqa lug'atlarni tahlil qilinganda boshqacha tematik tasnifni taklif etish mumkin¹⁴. Ma'lumki, qurolli mojarolar yangi sleng birliklarining tezda shakllanishi uchun "qulay" sharoit yaratadi, masalan, o'zlashmalar orqali¹⁵.

Yuqoridagi o'zbek harbiy slengiga oid tasnifni ingliz harbiy slengi bilan taqqoslaganda, bu ikki til o'rtasida katta o'xshashlik mavjudligini ko'rish mumkin. Biroq ingliz va o'zbek harbiy slenglari o'rtasida sezilarli farqlar ham mavjud bo'lib, ular qurolli kuchlar tuzilmasining har xil bo'lishi, askarlarning kundalik hayoti va tajribalaridagi tafovutlar bilan bog'liq. Masalan, "boshqa davlatlar harbiy xizmatchilariga nisbatan munosabatni ifodalovchi leksik birliklar ingliz

14 Cambridge Dictionary. (n.d.). Official Web site. www.dictionary.cambridge.org Dickson, P. (2004). War slang: American fighting word and phrases since the Civil war. (2-nd. ed.). Washington, D.C.; Brassey's, Inc. DOD (2021). Dictionary of Military and Associated Terms. New York: US Department of Defense. <https://irp.fas.org/doddir/dod/dictionary.pdf>; Military. (n.d.). Official Web site. www.military.com; Military Slang Dictionary. (n.d.). Official Web site. www.veterantv.com/dictionary; Urban Dictionary. (n.d.). Official Web site. Urban dictionary. Recovered from www.urbandictionary.com.

15 Mitchell, P.J., Akhtambaev, R.P., and Lgnatov, A.A., 2014. The influence of military contacts on French loanwords in the English language. Language and culture, 2 (26), pp. 69-73.; Akhtambaev, R.P., 2014. Speech culture in the work of military interpreters. Tomsk State University Journal of Cultural Studies and Art History, 1 (13), pp. 5-9.

harbiy jargonida mavjud bo'lsa-da, o'zbek harbiy slengida deyarli uchramaydi (urush holatlarida dushmanga nisbatan ishlatiladigan slenglardan tashqari)"¹⁶.

Shu sababli, muallif ingliz va o'zbek harbiy slengining xususiyatlarini to'liq aks ettiruvchi quyidagi tematik tasnifni taklif qilish mumkin:

Ingliz va o'zbek harbiy slengi: tematik tasnif va misollar

Tematik kategoriya	Pastki kategoriya	Inglizcha sleng misollari	O'zbekcha sleng misollari
I. Shaxslararo munosabatlar	1. Harbiy xizmatchilar o'rtasidagi kundalik munosabatlar	apple polisher, brig rat, chow hound	laganbardor, aravakash, palonchi
	2. Unvon, lavozim va xizmat turiga bog'liq munosabatlar	chicken, kill hat, leafer, leg	qarg'a (yosh ofitser), po'lat (qat'iy komandir), yulduz (general)
	3. Chet ellik harbiylar va fuqarolarga nisbatan munosabat	Frog, Gerry, Hajji, Itie, Jap	tojik, nemis, mo'g'il (kinoyaviy, kontekstga qarab)
II. Harbiy xizmatchilarning faoliyati	1. Kundalik faoliyat va hayot	to dog a watch, house mouse, to police the barracks	kazarma navbatchisi, yozuvdagi navbatchi, ro'yxatchi
	2. Qurolli to'qnashuvlar va mashg'ulotlar faoliyati	blue, blue on blue contact, to hit the silk	o'q uzish, joy egallash, sakrash
	3. Dam olish va xizmatdan tashqari vaqt	to go on liberty, anchor chain liberty, GI shower	tashqariga chiqish, uchishga ketdi, samovolka
III. Inson va uning atrof-muhiti	1. Oziq-ovqat	chow, to chow down, chow line	ovqat, qozonxona, navbat
	2. Kiyim va harbiy forma	ammos, brain bucket, cammies	etik, shapka, maskirovka

3. Qurol-yarog' va texnika	chatterbox, dime nickel, egg	qarsildoq (pulemyot), qora bolt (tank), zarbli chiroq (portlovchi)
4. Sog'liq holati va tana a'zolari	basket case, binnacle list, to get one	yaralangan, ro'yxatga olingan, safdan chiqqan
5. Kayfiyat va ruhiy holat	dischargeitis, fantod, locked and loaded	bo'shashish sindromi, dimog' bosildi, tayyor holat
6. Tana qismlari (misollar berilmagan)	Noggin, gut shot, wing	Kallakesar, tilsiz, quloqtumshuq eshitganini darhol aytib qo'yadigan askar, ko'zgu doim kuzatuvchi, komandirga yoqadigan askar (ko'z bilan bog'liq sleng, "aynan ko'z oldida yuradi")

Kirish qismida ta'kidlanganidek, ingliz harbiy slengi juda boy bo'lib, u harbiy xizmatchilar hayoti va faoliyatining barcha jihatlarini, shuningdek, rasmiy nutqdagi standart ifodalarni ham aks ettiradi. Ingliz harbiy slengi turli usullar orqali shakllanadi va tematik tasnif asosida o'rganiladi. Shubhasiz, harbiy sleng "kuchli emotsional va baholovchi ifodaviylikka ega"¹⁷. Yuqoridagi misollarda ko'rinib turibdiki, harbiy sleng birliklari ko'pincha nutq mazmuniga nisbatan hazilomuz, kinoyaviy munosabatni bildiradi. Bunday holatni, ma'lum ma'noda, urushning og'ir sharoitlari va qat'iy intizomiga nisbatan "norozilik" shakli sifatida talqin qilish mumkin.

16 Lazarevich, S.V., 2000. Vocabulary and phraseology of O'zbekian military jargon: dis. kand. filol. nauk. Nizhniy Novgorod. P 251

17 GOLUB, I.B., 2011. The O'zbekian language and speech culture. Moscow: Samizdat.

FOROBIY ASARLARIDA BOSHQARUV NAZARIYASI VA SIYOSIY YETAKCHILIKNING NAMOYON BO'LISHI

Muxiddin Xusniddinovich Karimberdiyev – mustaqil izlanuvchi, Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbek davlatchiligi tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari, ayniqsa Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" konsepsiyasi doirasida tahlil qilinadi. Shuningdek O'zbekistonda qadimdan shakllangan davlat boshqaruvi an'analari va ularning zamonaviy davlat boshqaruvi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Maqolada Islom Karimov va Shavkat Mirziyoyevning Forobiy qarashlariga tayanib amalga oshirgan davlat islohotlari yoritiladi.

Аннотация. В данной статье анализируются исторические корни и этапы развития узбекской государственности, в частности в контексте концепции «Город добродетельных» Абу Насра аль-Фараби. Также освещаются традиционные формы государственного управления, сформировавшиеся в Узбекистане с древности, и их тесная взаимосвязь с современными моделями управления. В статье рассматриваются государственные реформы, осуществлённые Исламом Каримовым и Шавкатом Мирзиёевым на основе политических идей Фараби.

Abstract. This article analyzes the historical roots and stages of development of Uzbek statehood, particularly within the framework of Abu Nasr al-Farabi's concept of the "Virtuous City". It also highlights the traditional state governance practices that have long existed in Uzbekistan and their intrinsic connection to modern governance systems. The article discusses the state reforms carried out by Islam Karimov and Shavkat Mirziyoyev based on Farabi's political ideas.

Kalit so'zlar: o'zbek davlatchiligi, Abu Nasr Forobiy, Fozil odamlar shahri, davlat boshqaruvi, siyosiy nazariya, adolatli jamiyat, Yangi O'zbekiston, parlament tizimi, Shavkat Mirziyoyev, siyosiy fazilatlar, tarixiy meros, axloqiy yetuklik, rahbar kadrlar, islohotlar, davlat strategiyasi.

Ключевые слова: узбекская государственность, Абу Наср аль-Фараби, Город добродетельных, государственное управление, политическая теория, справедливое общество, Новая Узбекистан, парламентская система, Шавкат Мирзиёев, нравственные добродетели, историческое наследие, этическое лидерство, государственные реформы, стратегическое управление, подготовка руководящих кадров.

Keywords: uzbek statehood, Abu Nasr al-Farabi, Virtuous City, public administration, political theory, just society, New Uzbekistan, parliamentary system, Shavkat Mirziyoyev, moral virtues, historical legacy, ethical leadership, state reforms, strategic governance, leadership training.

O'zbek xalqi davlatchiligi tarixiga nazar solar ekanmiz, jamiyat hayotini tartibga solishda amal qilgan dastlabki siyosiy tizimlar o'troq, sun'iy sug'orma dehqonchilik va chorvachilik xo'jaligi zamirida bronza asridayoq Amudaryo va Sirdaryo havzalarida vujudga kelganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. O'zbek xalqi davlatchiligi taraqqiyoti haqida gap ketar ekan, tarixchi olimlarimizning izlanishlari natijasiga ko'ra, salkam uch ming yillik tarixga ega insoniyat sivilizatsiyasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib kelayotganini aytib o'tish o'rinlidir.

Bugungi kunda mamlakatimiz tarixchi, siyosatshunos o'zbek davlatchiligi tarixiga va

uning asoslariga katta e'tibor berib o'zlarining tahliliy yondashuv asosida fikr-mulohazalarini bildirib kelmoqdalar. Mustaqillikning dastlabki yillarida davlat boshqaruv salohiyatimizga shubha bilan qarovchilar mavjud edi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" kitobida "Davlatchilik bugungi kunda o'ta siyosiy masala bo'lib turibdi. O'zbekistonda davlatchilik bo'lmagan, deb orqavorotdan tashviqot yuritayotgan, shu fikrini ongimizga singdirmoqchi bo'lgan kuchlar hali bor. Shuning uchun ham o'zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifasi mana shu da'voning puch ekanligini isbotlash,

davlatchiligimizning ilmiy nuqtayi nazardan asoslangan tarixni yaratishdir"¹, – deb tarixchilar oldiga vazifa qo'ydi.

Davlat rahbarlari tomonidan ilgari surilgan ushbu fikrlar-mulohazalar strategik boshqaruv tamoyillari nuqtayi nazaridan muayyan g'oyaviy yondashuvni shakllantirish imkonini beradi, davlat, davlatchilik taraqqiyoti avvalo davlat boshqaruvi uslubi bilan uzviy bog'liqdir. Mamlakatimiz hududida esa o'rta asrlarda jahon xalqlariga namuna bo'la oladigan davlat boshqaruvi sohasiga oid ko'plab shoh asarlar yaratildi.

Shu sababli Prezident Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida doimo xalqimiz boy madaniy merosini izchillik bilan o'rganishga, undan yoshlar ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishda foydalanishga da'vat etib kelmoqdalar. "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun ajdodlarimizning madaniy-ma'naviy boyligini chuqur va har tomonlama o'rganishimiz darkor"².

Jamiyatimizga har tomonlama barkamol, mustaqillik ma'naviyatiga ega bo'lgan insonlar zarur. Zero, "zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemsiz ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g'urur bilan ta'kidlash lozim"³.

X-XIII asrlarda Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Anushtegeniylar kabi mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. Hokimiyatining turli tarmoqlari orqali jamiyatni tartibga solish, siyosiy qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish ishlari, davlatchilik nazariy

asoslari yillar mobaynida takomillashib bordi. Bu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri yurtimizda buyuk qomusiy olimlarning yetishib chiqqanidadir. Allomalarimiz o'z asarlarida davlatni boshqarishning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy, harbiy tizimiga oid nazariy asoslarni va siyosiy qarashlarini bayon etganlar. Abu Nasr Forobiyning o'rta asrlar tarixiga oid, davlat boshqaruviga doir nazariy qarashlari, siyosiy ong va fuqarolik jamiyati shakllangan jamiyat haqidagi tasavvurlari hamda ularni ifodalagan asarlarini tarixiy-nazariy jihatdan o'rganamiz. Forobiy bu borada bir necha asarlar yozib qoldirgan. Uning "Fozil shahar ahli qarashlari haqida kitob", "Siyosat al-madaniya" (Shaharlar ustida siyosat yurgizish) kabi kitoblari boshqaruv nazariyasi uchun muhim manbadir. Ushbu asarlarda Forobiy olijanob jamiyat, adolatli tuzum, odil hukmdorlar haqida o'z fikr-mulohazalarini bayon qilgan.

Forobiy inson qadr-qimmatini kamsituvchi jamiyatga qarshi chiqadi."Davlat arbobining hikmatlari" risolasida esa u doimiy urushlar va bosqinchiliklarga asoslanuvchi jamiyatni adolatsiz, johil jamiyat sifatida qoralaydi. Davlat boshlig'i va davlat xizmatchilari boshqaruv san'atini yaxshi bilishlari shartligini qayd etadi. "Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, – deb yozadi u, – bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritiladi". Forobiy davlatni yetuk shaxs (ma'rifatli shox), yetuk xislatlarga ega bo'lgan bir necha shaxslar (aristokratiya) va saylangan shaxslar (demokratiya) yordamida adolatli boshqarish mumkinligini qayd etadi. Uning fikricha, davlatning vazifasi shahar aholisining (Forobiy "shaharni" kamolot va baxtga erishishning zaruriy vositasi deb hisoblagan) baxtli hayotini ta'minlash va qo'riqlashdan iborat, deb

1 Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б.12.

2 Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – Т.: O'zbekiston, 2016. – Б.14.

3 Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 41.

hissoblaydi⁴.

O'zbekiston Respublikasini birinchi prezidenti I.A.Karimov "Fozil shahar odamlarining fikrlari" asariga yuqori baho berib shunday degan edi: "Masalan, Forobiyning o'sha mashhur "Fozil odamlar shahri" asarini esga olaylik. Bundan ming yil muqaddam yaratilganiga qaramasdan, bugungi o'quvchi ham bu asarni hozirgi murakkab muammolarini hal qilishda asqatadigan muhim fikr va yo'l-yo'riqlarini topa oladi"⁵.

Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida davlat rahbari qanday bo'lishi kerakligi, uning qanday xislatlarga ega bo'lishi kerakligi yoritilgan. U o'z kitobida fozillar shahri rahbarlariga quyidagi talablarni qo'yadi⁶.

Bunday shahar hokimi bo'ladigan odam (Allohdan boshqa) hech kimga bo'ysunmasligi kerak. Fozillar shahrining birinchi boshlig'i shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib, u tabiatan o'n ikkita xislat – fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur. Fozillar shahri hokimini avvalo to'rt muchali sog'-solim bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarilishida biror a'zosidagi nuqson xalal bermasligi lozim, aksincha, u sog' salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim. Ikkinchidan, bunday shahar hokimi tabiatni nozik farosatli bo'lib, suhbatdoshini so'zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg'ab olishi lozim, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur. Uchinchidan, u anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarni unutmasligi lozim. To'rtinchidan, u zehni o'tkir, zukko bo'lib har qanday narsaning bilinar – bilinmas alomatlarini va u alomatlari nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur. Beshinchi, u fikrini ravon tushuntira olish maqsadida, chiroyli so'zlar bilan ifodalay olishi zarur. Oltinchi, u (ustozlardan) ta'lim

olishga, bilim, ma'rifatga havasli bo'lishi, o'qish, o'rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo'lishi kerak. Yettinchi, taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha o'zini tiya oladigan bo'lishi, (qimor yoki boshqa) o'yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi zarur. Sakkizinchi, u haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan bo'lishi zarur. To'qqizinchi, u o'z qadrini biluvchi va nomus oriyatli odam bo'lishi, pastkashlardan yuqori turuvchi, tug'ma oliy himmatli bo'lishi, ulug', oliy ishlarga intilishi zarur. O'ninchi, bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan

(mol-dunyo ketidan quvmaydigan) bo'lishi zarur. O'n birinchi, tabiatan adolatparvar bo'lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko'ruvchi, o'z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani haqiqatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suygan go'zallikni ravo ko'ruvchi bo'lishi zarur. O'z haq ish oldida o'jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo'lishi zarur. O'n ikkinchi, o'zi zarur deb hisoblagan chora – tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi, qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi zarur⁷.

Mana shu barcha xislatlarning bir odamda jamlanishi amri mahol, zero bunday tug'ma fazilatlar sohibi bo'lgan odamlar juda kam uchraydi va ular nodir insonlardir. Mabodo, fozillar shahrida shunday barkamol insonlar topilib qolsa, unda yuqoridagi fazilatlardan oltitasi, yoki beshtasi kamol topganda ham, u aql va zakovatda benazirligi tufayli fozillar shahriga rahbarlik qila oladi.

4 Одилкориёев Х.Т., Раззаков Д.Х. Сиёсатшунослик. – Т.: О'qituvchi, 2008. – Б.72.

5 Каримов. И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. 7-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – Б.90.

6 Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Т.: Янги аср авлоди, 2020. – Б.214

7 Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. – Т.: Янги аср авлоди, 2020. – Б.244-245.

Fozil shaharlarning rahbarlari davlat boshqaruviga oid Forobiy bergan fikrlarni bugungi kunda O'zbekistonining davlat boshqaruvida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Jumladan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov va Prezident Shavkat Mirziyoyev Miromonovich Abu Nar Forobiyning davlat boshqaruvi nazariyalarini chuqur tahlil qilgan holda, ularni amaliy faoliyatga samarali tatbiq etdilar. Natijada, davlat boshqaruvining adolatli va samarali shakllari shakllantirilib, ayniqsa bu nazariyalar asosida Sh.Mirziyoyevning "Harakatlar strategiyasi" va "Taraqqiyot strategiyasi"da aholining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy farovonligini oshirishga mo'ljallangan tizimli davlat strategiyasi amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Avvalgi imom o'rniga kelgan keyingi rahbarda ham yuqorida aytilgan xislatlar – fazilatlar yoshlikdan shakllangan bo'lishi zarur. Ana shunda bu keyingi imomda yana oltita fazilat hosil qilinishi zarur:

Birinchi – donishmandlik ya'ni, chuqur bilim, hayotiy tajriba, aql-idrok, axloqiy yetuklik va tafakkur uyg'unligiga asoslangan intellektual va ma'naviy salohiyat bo'lishi, fikrlashda izchillik, tahlil va sintez qobiliyatiga ega bo'lishi.

Ikkinchi – avvalgi imomlar o'rnatgan qonunlar va tartiblarni xotirada yaxshi saqlab qolish va ularga amal qilishi uchun quvvai hofizaga ega bo'lishi.

Uchinchi – agar avvalgi imomlar davrida biror (yoki bir qancha) sohaga taalluqli qonun qolmagan bo'lsa, bunday qonuni o'ylab topishi uchun ijod, ixtiro qilishi quvvatiga ega bo'lish.

To'rtinchi – hozirgi haqiqiy ahvolni tez payqab olishi va kelgusida yuz beradigan, avvalgi imomlar ko'zda tutmagan voqealarni oldinda ko'ra bilishi uchun bashoratgo'ylik xislatiga ega bo'lish. Bu xislat unga xalq farovonligini yaxshilashda kerak bo'ladi.

Beshinchi – avvalgi imomlar o'rnatgan qonunlarga, shuningdek, avvalgilardan ibrat olib, o'zi to'qib chiqargan qonunlarga xalq amal qilishi uchun qizg'in so'zlash – notiqlik xislatiga ega bo'lishi.

Oltinchi – zarur hollarda harb ishlariga mohirlik bilan rahbarlik qilish uchun yetarli jismoniy quvvatga ega bo'lish; ham jang qilishni, ham sarkarda sifatida jang-u jadalga rahbarlik qilish uchun harbiy san'atni yaxshi bilish.

Mabodo, shu xislatlarning barchasini o'zida jamlagan bir odam topilmasa, lekin ikki kishi birgalashib, shu xislatlarga ega bo'lishsa (ya'ni biri – donishmand, ikkinchisi – qolgan xislatlar sohibi bo'lsa) shu ikkovini fozillar shahriga rahbarlikka qo'yish zarur. Mabodo, bir guruh odamlar birgalikda ana shu xislatlarga ega bo'lishsa (ya'ni – birida bu, ikkinchisida u, uchinchisida boshqa xislatlar bo'lsa) ana shu fozillar guruhini yurt rahbarligiga qo'yish zarur. Shu guruh a'zolari birgalashib, o'zaro kelishib harakat qilishsa har biri fozil hokim bo'lishi mumkin. Mabodo biror zamonda fozillar shaharda hokimlik qilayotgan bir yoki bir necha kishida boshqa zarur xislatlar bo'lsa-yu, ammo, donishmandlik bo'lmasa, fozillar shahri yaxshi hokimsiz qoladi, bunday shahar halokatga yuz tutadi⁸.

Forobiy ta'kidlagan yuqoridagi olti fazilatli insonlarning o'rniga bugungi kunda O'zbekistonda davlat boshqaruvda, qonunlarning yaratilishida, muhim qarorlarning qabul qilinishida Oliy Majlisning o'rni katta bo'lmoqda. Unda xalq nomidan qonunlarni yaratilishida, qabul qilinishida, xalq saylagan yuksak saviyali vakillari ya'ni deputatlari va senatorlari ish ko'radilar. Bugungi kunda bu haqida konstitutsiyamizning 10-moddasida shunday deyilgan "O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan O'zbekiston Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

8 Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. – T.: Yangi asr avlodlari, 2020. – B. 247.

Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas"⁹.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida Forobiy ta'kidlagan tizim mavjuddir. Masalan, O'zbekiston Respublikasini Konstitutsiyasining 112-moddasida "O'zbekiston Respublikasining amaldagi Prezidenti o'z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda uch oy muddat ichida qonunga to'liq muvofiq holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi o'tkaziladi"¹⁰, – deb ta'kidlab qo'yilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki Abu Nasr Forobiy tomonidan ilgari surilgan "Fozil odamlar shahri" konsepsiyasi nafaqat o'z davri uchun, balki zamonaviy davlat boshqaruvi tizimlari uchun ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim tamoyillarni o'z ichiga oladi. U boshqaruvning asosiy maqsadi sifatida adolatli, axloqiy me'yorlarga asoslangan, ilm-fan va tafakkur ustuvor bo'lgan jamiyat qurishni ilgari suradi. Forobiyning ta'kidlashicha, davlat rahbari nafaqat siyosiy kuchga, balki chuqur bilim, tafakkurga, ma'naviy yetuk va oliyjanob fazilatlarga ega bo'lgan inson bo'lishi shart. Ushbu yondashuv hozirgi davrda, ayniqsa, Yangi O'zbekiston islohoti davrida, ya'ni inson qadri ulug'langan, islohotlar markazida xalq turgan boshqaruv modelini shakllantirish yo'lida – eng muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bugungi parlament tizimiga asoslangan, ochiqlik, hisobdorlik, fuqarolik jamiyati tamoyillarini o'zida mujassam etgan Yangi O'zbekiston boshqaruv modeli Forobiyning g'oyalari bilan ma'naviy-axloqiy jihatdan uyg'unlikda rivojlansa, davlat boshqaruvi

tizimining samaradorligi yanada oshadi. Xususan, rahbar kadrlar tayyorlashda nafaqat kasbiy bilim va boshqaruv ko'nikmalariga, balki axloqiy yetuklik, ijtimoiy mas'uliyat, halollik, xalq manfaatlariga sodiqlik kabi fazilatlarni asosiy mezon sifatida belgilash Forobiyning qarashlariga mos keladi. Bu esa, o'z navbatida, davlat boshqaruvida adolat tamoyillarining mustahkam qaror topishiga, ijtimoiy barqarorlik va ishonch muhitining shakllanishiga xizmat qiladi.

9 Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – Б. 8.

10 Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – Б.83.

O'QUVCHILARNI PIRLS MATNLARI USTIDA G'OYALAR VA AXBOROTNI TAHLIL QILISH HAMDA UMUMLASHTIRISHGA TAYYORLASH

Yulduz Abdusaid qizi Usmonova – magistrant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada PIRLS xalqaro tadqiqoti matnlari asosida o'quvchilarni g'oyalarni tahlil qilish va axborotni uyg'unlashtirishga tayyorlashning ilmiy–nazariy hamda amaliy asoslari tahlil qilindi. Tadqiqotda matn bilan ishlashning zamonaviy metodlari (Reciprocal Teaching, RARE, Matnli mozaika va boshqalar) qo'llanildi hamda tajriba–sinov natijalari asosida ularning samaradorligi aniqlab berildi. Natijalar o'quvchilarning o'qish savodxonligi, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvini rivojlantirishda mazkur metodlarning muhimligini ko'rsatdi. Xorijiy tajribalar (Finlyandiya, Singapur, Estoniya) bilan qiyosiy tahlil ham berilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются научно–теоретические и практические основы подготовки учащихся к анализу идей и интеграции информации на основе текстов международного исследования PIRLS. В исследовании использованы современные методы работы с текстом (взаимное обучение, метод RARE, текстовая мозаика и др.), а также проведён педагогический эксперимент, показавший их эффективность. Результаты подтвердили значимость данных подходов для развития читательской грамотности, критического мышления и творческого подхода у младших школьников. Представлен сравнительный анализ с зарубежным опытом (Финляндия, Сингапур, Эстония).

Abstract. This article examines the theoretical and practical foundations of preparing students to analyze ideas and integrate information based on texts from the PIRLS international assessment. Modern text–based instructional methods (Reciprocal Teaching, RARE method, Text Mosaic, etc.) were applied, and an experimental study was conducted to evaluate their effectiveness. The results demonstrated that these methods significantly enhance students' reading literacy, critical thinking, and creativity. A comparative analysis with international practices (Finland, Singapore, Estonia) is also provided.

Kalit so'zlar: PIRLS, o'qish savodxonligi, g'oya, axborot, tahlil, uyg'unlashtirish, metod, baholash.

Ключевые слова: PIRLS, читательская грамотность, идея, информация, анализ, интеграция, метод, оценивание.

Keywords: PIRLS, reading literacy, idea, information, analysis, integration, method, assessment.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim sifatini baholashda xalqaro reytinglar va tadqiqotlarning o'rni tobora ortib bormoqda. Shulardan biri – PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) bo'lib, u 4–sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini har besh yilda bir marotaba baholaydi. PIRLS tadqiqotida matnni o'qib tushunish bilan bir qatorda undagi g'oyalarni tahlil qilish, dalillarni aniqlash va umumlashtirish ko'nikmalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston 2021–yilda ilk bor PIRLSda ishtirok etdi va keyingi bosqichlarda yuqori natijalarga erishishni maqsad qilmoqda. Bu esa boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning matn bilan ishlash kompetensiyasini chuqurlashtirish, ularni

tahlil va uyg'unlashtirishga o'rgatishni taqozo etadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarni PIRLSga tayyorlashda analitik topshiriqlar, grafik vositalar va muhokama metodlari yuqori samaradorlik beradi. Xorijiy tajriba ham shuni tasdiqlaydiki, matnni faqat o'qish emas, balki tahlil qilish va yangi g'oyaga integratsiya qilish ko'nikmalari asosiy o'rinda turadi.

Xorijiy mamlakatlarda o'quvchilarga taklif etiladigan matnlar ko'proq hayotiy vaziyatlarga moslashtirilgan, turli ijtimoiy–madaniy kontekstlarda fikr yuritishni talab qiladi. Masalan, Finlyandiya darsliklarida o'quvchilar real hayotiy vaziyatlardan kelib chiqib matnlarni tahlil qiladi,

Singapurda esa matn asosida muammoli savollar yechishga urg'u beriladi. Bunday yondashuv o'quvchini faqat bilim egallash emas, balki uni hayotda qo'llashga ham tayyorlaydi.

Estoniya, Kanada yoki Koreya tajribasida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish uchun interfaol metodlardan keng foydalaniladi.

Finlyandiya: o'qish darslarida munozara metodlari keng qo'llanadi. O'quvchilar matn ustida kichik guruhlarda ishlaydi, asosiy g'oya va dalillarni aniqlaydi va yakunda umumiy xulosaga keladi¹.

Singapur: o'quvchilarga grafik organayzerlar (klaster, Venn diagramma) asosida matnni tahlil qilish topshiriqlari beriladi. Bu usul axborotni uyg'unlashtirishni yengillashtiradi.

Janubiy Koreya: darslarda PISA va PIRLS topshiriqlariga o'xshash savollar muntazam qo'llanadi. Bu orqali o'quvchilar xalqaro test metodologiyasiga moslashadi².

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarni baholashda faqat yakuniy natija emas, balki o'quv jarayonidagi rivojlanish dinamikasi ham e'tiborga olinadi. Masalan, PIRLSda o'quvchining javoblari nafaqat to'g'riligi, balki tahliliy chuqurligi, shaxsiy munosabati va ijodiy yondashuvi asosida baholanadi. Bu esa o'quvchilarni yuzaki o'qishdan ko'ra, mazmunni chuqur anglashga undaydi.

Xorijiy mamlakatlarda o'qituvchilar muntazam ravishda o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarida ishtirok etadi. Ular metodik qo'llanmalar, elektron platformalar va xalqaro treninglar orqali zamonaviy yondashuvlarni o'rganadilar³. Bu tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali

boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham PIRLS talablariga mos darslarni samarali tashkil etishi mumkin. Bugungi kunda ta'lim faqat milliy chegaralar bilan cheklanib qolmaydi. O'quvchilar turli mamlakatlarda taqdim etilgan bilimlarni o'zlashtirish, madaniyatlararo muloqot qilish va global muammolarni anglashga tayyor bo'lishi kerak. Shu ma'noda xorijiy tajribani o'rganish nafaqat ta'lim sifati, balki o'quvchilarning global fuqarolik kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Albatta, har bir mamlakatning ta'lim tizimi o'ziga xos. Biroq xorijiy tajribalarni ko'r-ko'rona qabul qilish emas, balki ularni milliy ta'lim standartlariga moslashtirish muhim. Masalan, Finlyandiya tajribasidagi o'quvchi markazli yondashuvni O'zbekiston sharoitida qo'llashda, uni milliy qadriyatlar va mahalliy ehtiyojlar bilan uyg'unlashtirish zarur. Xorijiy tajribadan foydalanishning eng katta afzalligi shundaki, u ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga, o'quvchilarni xalqaro baholashlarda yuqori natijaga erishishga va eng muhimi, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu esa O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro miqyosda tan olingan, raqobatbardosh tizimga aylantirishning asosiy shartidir.

Bugungi kunda ta'lim tizimida an'anaviy yondashuvlardan tashqari innovatsion metodlardan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim sohasidagi global islohotlar, axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi va xalqaro baholash dasturlari (PIRLS, PISA, TIMSS)ning talablarini inobatga olgan holda, o'quvchilarni faqat bilim egallashga emas, balki o'z bilimlarini tahlil qilish, uyg'unlashtirish, baholash va real hayotda qo'llashga o'rgatish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bunda innovatsion metodlar asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

1 Sahlberg, Pasi (2007). Education policies for raising student learning: the Finnish approach. *Journal of Education Policy*, 22(2), 147–171.

2 Mullis, I. V. S., Martin, M. O., Foy, P. & Drucker, K. T. (2022). PIRLS 2021 International Results in Reading. IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement).

3 OECD (2020). PISA and Reading Literacy: Insights from Finland. Paris: OECD Publishing.

1. O'quvchilarni faol subyekt sifatida shakllantirish

Innovatsion metodlar o'quvchini bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki uni izlovchi, tahlil qiluvchi va yaratuvchi subyekt sifatida shakllantiradi. Masalan, muammoli ta'lim yoki loyiha asosida ta'lim metodlari o'quvchilarning mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va ijodiy yondashuvlarini rivojlantiradi.

2. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish

PIRLS tadqiqotida yuqori ball to'plagan mamlakatlarda o'quvchilar matnni yuzaki o'qib chiqish bilan cheklanmaydi, balki asosiy g'oyani aniqlash, muallif pozitsiyasini baholash, o'z nuqtayi nazarini bildirishga o'rgatiladi. Bu jarayonni samarali tashkil etishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlar muhim rol o'ynaydi.

3. Shaxsiylashtirilgan ta'limni ta'minlash

Innovatsion metodlar har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati va tayyorgarlik darajasiga mos individual yondashuvni ta'minlaydi. Innovatsion metodlar zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda o'quvchilarni raqamli savodxonlikka ham tayyorlaydi. Onlayn testlar, interaktiv platformalar (Kahoot, Quizizz), sun'iy intellekt asosidagi o'quv dasturlari o'quvchilarni faollashtirib, ta'lim jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

4. Baholash jarayonida shaffoflikni ta'minlash

Innovatsion metodlar nafaqat ta'lim berishda, balki baholashda ham muhim. Masalan, o'zaro baholash va o'zini baholash usullari orqali o'quvchilar nafaqat natijani, balki o'z rivojlanish jarayonini ham kuzatib boradi. Bu esa ularni mustaqil o'qishga va o'z faoliyatini tahlil qilishga undaydi.

5. Xalqaro tajriba bilan uyg'unlik

Innovatsion metodlardan foydalanishning eng muhim afzalliklaridan biri shundaki, ular O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi, o'quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi, o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantiradi, mustaqil va tanqidiy fikrlovchi shaxslarni tarbiyalaydi, xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi, ta'lim jarayonida sifat va samaradorlikni oshiradi.

Shunday qilib, innovatsion metodlardan foydalanish nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning global ta'lim maydonida raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi.

O'quvchilarning tahlil va uyg'unlashtirish ko'nikmalari quyidagilar asosida baholandi:

1 ball – matndan aniq faktni topish;

2 ball – asosiy g'oyani izohlash;

3 ball – g'oyalar orasidagi bog'lanishni ochib berish;

4 ball – tahlil va uyg'unlashtirish asosida yangi xulosa chiqarish⁴.

Namunaviy baholash rubrikasi

O'quvchilarni PIRLS matnlari ustida g'oyalar va axborotni tahlil qilish hamda umumlashtirishga tayyorlashda foydalanish mumkin bo'lgan metodlar:

1. "Rollar almashinuvi" metodi

Bunda o'quvchilar 4 xil rol ni oladi:

Savol beruvchi,

Izohlovchi,

Taxmin qiluvchi,

Xulosa chiqaruvchi.

4 Mullis, I. V. S., Martin, M. O., Foy, P., & Drucker, K. T. (2017). PIRLS 2016 Assessment Framework. IEA.

Har bir kichik guruhda o'quvchilar matnni shu rollar bo'yicha tahlil qiladi⁵.

Bu usul PIRLSdagi "matnni tushunish + g'oyani uyg'unlashtirish" talablariga juda mos.

2. "RARE" metodi (Read – Analyze – Reflect – Evaluate)

Read – matnni o'qish;

Analyze – asosiy g'oyani aniqlash;

Reflect – matndagi g'oya bilan shaxsiy tajribani solishtirish;

Evaluate – matnning dolzarbligini va muallif pozitsiyasini baholash.

Bu metod tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

3. "Savatdagi savollar" metodi

Har bir o'quvchi matndan kelib chiqib savollar yozadi va savatga tashlaydi.

Savollar guruhda tasodifiy tarzda tanlanib muhokama qilinadi.

Bu usul o'quvchilarning savol qo'yish madaniyatini rivojlantiradi va tahlilni chuqurlashtiradi.

4. "Matnli mozaika" metodi

Matn qismlarga bo'linadi va har bir guruh faqat bir bo'lakni o'qiydi.

Keyin guruhlar bir-biriga o'z qismidagi g'oyalarni tushuntiradi va umumiy "mozaika" yig'iladi.

Bu usul o'quvchilarni axborotni uyg'unlashtirishga majbur qiladi.

5. "6X6X6" strategiyasi

6 nafar o'quvchi 6 daqiqa davomida 6 ta asosiy g'oyani muhokama qiladi.

Keyin guruhlar almashadi.

Bu metod qisqa vaqt ichida ko'p fikr va g'oya yig'ishga yordam beradi.

6. "Davra stoli" metodi

Guruhdagi har bir o'quvchi matnga oid fikrini varaqda yozib navbat bilan qo'shadi.

Oxirida barcha fikrlar birlashtirilib umumiy xulosa olinadi.

Bu usul g'oyalarni integratsiya qilishni samarali ta'minlaydi.

7. "Matn – rasm – og'zaki nutq" uchligi

O'quvchi matndan asosiy g'oyani chiqaradi → unga rasm chizadi → rasm asosida og'zaki nutq qiladi.

Bu metod ko'p modal yondashuvga asoslangan bo'lib, o'quvchilarni chuqurroq o'ylashga undaydi. Bundan tashqari PIRLS talab qiladigan o'qish savodxonligi ko'nikmalari – matndan g'oya chiqarish, axborotni tahlil qilish, uyg'unlashtirish va baholashni samarali shakllantiradi. Zamonaviy metodlardan foydalanish o'quvchilarni tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari quyidagi muhim xulosalarga olib keldi:

1. PIRLS matnlari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda yuqori darajadagi o'qish savodxonligini shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Zamonaviy metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va tahliliy kompetensiyalarni rivojlantiradi.

3. Ta'lim jarayonida baholash rubrikalaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilarga natijani aniq va shaffof tarzda kuzatish imkonini beradi.

4. O'zbekiston ta'lim tizimida xalqaro tajriba asosida PIRLS talablariga mos metodik qo'llanmalar ishlab chiqish zarur.

5 Palincsar, A. S. & Brown, A. L. (1986). Reciprocal teaching: Teaching reading as thinking. Oak Brook, IL: North Central Regional Educational Laboratory.

5. Boshlang'ich sinf darsliklari mazmuni PIRLS tipidagi topshiriqlar bilan boyitilsa, o'quvchilarning xalqaro baholashlarda muvaffaqiyati sezilarli darajada oshadi.

Shunday qilib, o'quvchilarni PIRLS xalqaro tadqiqoti matnlari ustida g'oyalar va axborotni tahlil qilish hamda uyg'unlashtirishga tayyorlash ta'lim tizimining sifatini oshirish, o'quvchilarni global ta'lim maydonida raqobatbardosh qilish va ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning muhim garovidir.

GAZETA TANQIDIY MATERIALLARINING LEKSIK-FRAZEOLOGIK XUSUSIYATLARI

Farxod Norbutayevich Kushnazarov – ilmiy
tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida chop etilayotgan gazetalardagi maqolalarda gazeta tanqidiy materiallarining leksik-frazeologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tanqidiy materiallarda qo'llaniladigan so'z va iboralarining mazmuniy yuklamasi, uslubiy funksiyasi hamda ularning o'quvchiga ta'sirchanlik darajasi o'rganiladi. Shuningdek, maqolada frazeologik birliklarning tanqidiy matnlarda qanday vazifani bajarishi, ularning baholovchanlik, kinoya, istehzo kabi ma'no ifodalash vositasi sifatida ishlatilishi tahlil etiladi. Muallif gazeta tilining zamonaviy ommaviy axborot vositalari uchun xos bo'lgan xususiyatlarini ochib berishga, tanqidiy uslubda til vositalarining roli va samaradorligini aniqlashga harakat qiladi. Tadqiqot natijalari jurnalistika va tilshunoslik yo'nalishidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье анализируются лексико-фразеологические особенности газетно-критических материалов, опубликованных в газетах в годы независимости. Изучаются семантическая нагрузка, стилистическая функция слов и словосочетаний, используемых в критических материалах, и уровень их воздействия на читателя. В статье также анализируется функция фразеологических единиц в критических текстах, их использование в качестве средств выражения смысла, таких как критика, ирония и сарказм. Автор пытается выявить особенности газетного языка, характерные для современных средств массовой информации, определить роль и эффективность языковых средств критического стиля. Результаты исследования служат важным источником для научных исследований в области журналистики и лингвистики.

Abstract. This article analyzes the lexical and phraseological features of newspaper critical materials in articles published in newspapers during the years of independence. The semantic load, stylistic function of words and phrases used in critical materials, and the level of their impact on the reader are studied. The article also analyzes the function of phraseological units in critical texts, their use as a means of expressing meaning, such as criticism, irony, and sarcasm. The author tries to reveal the features of newspaper language that are characteristic of modern mass media, to determine the role and effectiveness of language tools in a critical style. The results of the study serve as an important source for scientific research in journalism and linguistics.

Kalit so'zlar: gazeta, leksika, frazeologizm, ilmiy uslub, rasmiy uslub, adabiy til, tanqidiy maqola.

Ключевые слова: газета, лексика, фразеология, научный стиль, официально-деловой стиль, литературный язык, критическая статья.

Keywords: newspaper, lexicon, phraseology, scientific style, formal style, literary language, critical article.

Tilda mavjud bo'lgan va kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqaning yuzaga kelishida ishtirok etuvchi til birliklari, xususan, so'zlar va iboralar ma'lum bir tushuncha ifodasi sifatida insonni o'rab turgan va uning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan voqelikning biror tomoniga oid xususiyatni aks ettiradi. Kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar asrlar davomida shakllangan va turli dunyoqarash-u e'tiqodlarni o'zida aks ettiruvchi so'zlar vositasida namoyon bo'lgan. Demak, tilda mavjud bo'lgan so'zlar va iboralar, morfologik shakllar va sintaktik birliklar jamiyat hayotida yuz berayotgan barcha o'zgarishlarni

o'ziga xos tarzda aks ettirish vositasi hisoblanadi. Insonning ijtimoiy mavqeyi ijtimoiy voqelikning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi.

Tildagi turli tushunchalarni nomlash o'ziga xos jarayon bo'lib, u til va voqelik o'rtasidagi barcha aloqador tomonlarni, amalda bo'lgan va kishilarga xizmat qilayotgan til va insoniy munosabatlar majmuini qamrab olishi tabiiy.

Tildagi ma'lum tushunchani anglatishga xizmat qiluvchi leksik va frazeologik birliklarning paydo bo'lishi tilning nolisoniy va lisoniy tasavvurlari aloqasining vujudga kelishini

ta'minlaydi va o'z navbatida semantik tabiatiga ko'ra voqelik faktlarini aks ettiradi. Boshqacha aytganda, inson nutq orqali amalga oshadigan kundalik faoliyatida aniq mavjud obraz lisoniy obraz manbai bo'ladi, voqelik tizimining chegaralarini ma'lum darajada kengaytiradi¹.

Albatta, tilimizda mavjud leksik-frazeologik birliklar turli-tumandir. Inson o'z nutqiy faoliyatida ehtiyojga ko'ra lisoniy nomlashning turli usul hamda vositalaridan foydalanadi, tilning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqib, voqelikdagi o'zi va jamiyat hayoti bilan bog'liq bo'lgan narsa va hodisalarni nomlaydi, ulardagi har bir o'zgarishlarni nazorat qilib boradi, ular o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlaydi. Shunday qilib, har bir millatning ko'p asrlik taraqqiyoti davomida to'plangan, ishlov berilgan ijtimoiy-tarixiy tajribasi shu millatga mansub bo'lgan tilda saqlanib qoladi. Aytish mumkinki, tildagi mavjud bo'lgan leksik, frazeologik, grammatik birliklar mazmunida xalqning ibtidosidan tortib bugungi kunigacha bo'lgan hayoti o'z ifodasini topadi va bu jarayon davrlar osha takomillashib boraveradi. Til xalqning asrlar davomida to'plagan mazkur tajribasini saqlash va keyingi avlodlarga yetkazib berishdek mas'uliyatli vazifani bajaradi.

Inson nutqida qo'llanadigan har bir til birligi ma'lum bir vazifani ado etadi. Shunday ekan, leksik birliklarning vazifasi inson bilan bog'liq, uning atrofida, voqelikda yuz beradigan voqea-hodisalarni, narsalarni atashdan iborat². Ammo inson o'z hayoti va faoliyati davomida tajriba bilan yashaydi, har bir obyektning o'ziga xos xususiyati va belgilarini aniqlashga, uni boshqalariga qiyoslab, ularning farqlarini ajratishga intiladi. Albatta, bunday pragmatik harakat avvalo, insonning o'ziga, uning ijtimoiy tavsifiga, ijtimoiy tizimda egallab turgan mavqeyi, voqelik faktlariga bo'lgan munosabatiga bog'liq tarzda amalga oshadi. Mazkur holatning paydo bo'lishi

juda serqirra bo'lib, u jamiyatdagi shiddatli taraqqiyot, xalq ijtimoiy hayotida yuz beradigan o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu esa o'z navbatida tilning lug'aviy sathiga ta'sir ko'rsatadi. Tildagi lug'aviy qatlamning rang-barangligi, uning yangidan yangi birliklar hisobiga yangilanib, muntazam ravishda o'zgaruvchan bo'lib turishi sababi ham shunda. Bu turdagi so'zlar qatlamini o'rganish, ularning kishi ijtimoiy faoliyatidagi rolini belgilash, nutqning qaysi ko'rinishi uchun xoslanganligini tahlil qilish, avvalo, til va u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan nutq, nutqiy faoliyat, so'zlovchi shaxs munosabatlarini tadqiq qilishni taqozo etadi.

O'zbek tilidagi gazeta va jurnallarda aks ettirilgan va mavzu ko'lamiga ko'ra har xil bo'lgan barcha turdagi matnlar, avvalo, adabiy tilimizning ichki tizimiga tegishli hisoblanadi va har bir matn o'z lingvostilistik belgi-xususiyatlariga ega bo'ladi.

Jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan ommaviy axborot vositalarining eng muhimlaridan biri gazeta hisoblanadi. Bugungi kunda jamiyatning kundalik hayotini gazetasiz tasavvur qilish qiyin. Darhaqiqat, "O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi bilan til siyosatida jiddiy o'zgarishlar yuz berib, o'zbek adabiy tili ijtimoiy vazifalari doirasining mislsiz kengayishiga katta imkoniyatlar ochildi. Ayniqsa, o'zbek tilining ilmiy til, rasmiy uslub tili, pochta, telegraf, bank-moliya sohalari tili, ijtimoiy-siyosiy va diplomatik sohalar tili sifatidagi kommunikativ vazifasi keng rivoj topdi. Respublikamiz hayotining barcha sohalarida ro'y berayotgan ulkan yangiliklar, rivojlangan juda ko'plab mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarning kuchayib borishi qisqa vaqt ichida o'zbek tili, xususan, uning leksikasi tarkibining boyishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi"³.

1 Рут М.Э. Образная номинация в русском языке. – Екатеринбург: Уральский ун-т, 1992. – с 14.

2 Шмелев Д.Н. Современный русский язык. Лексика. – М.: Просвещение, 1977. – С.16.

3 Нурмонов А., Мадвалиев А., Махкамов Н. Мустақиллик даври ўзбек тилишунослиги тараққиёти ЎТА. 2011. №3. –Б.7.

Ilm-fan va texnika aql bovar qilmas darajada taraqqiyot sari yuz burgan bugungi tezkor axborot asrida ham ommaviy axborot vositalari, xususan, gazeta tilining rivojini ta'minlash davlat ahamiyatiga molik masalalardan hisoblanadi. Gazeta va jurnallar jamiyat hayotida sodir bo'ladigan har bir yangilik, xabarni keng jamoatchilik e'tiboriga yetkazishning asosiy vositasi bo'lib, gazeta matnlari tilining sofliqi, aniqligi, mantiqiyliqi, adabiy til me'yorlariga mosligini doimiy tarzda nazorat qilib turish doimo tilshunoslarning diqqat markazida turgan vazifalardandir.

Adabiy tildagi o'sish, yangilanish jarayonlarning to'xtovsiz davom etishi, mustaqillik sharofati bilan moddiy, madaniy va ma'naviy sohalar bilan bog'liq bo'lgan yangidan yangi turdagi gazetalar sonining ortib borishi, yurtimizda va jahonda bo'layotgan voqealar sharhiga oid tezkor ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi ushbu masalaning muhim ekanligidan dalolat beradi.

Gazeta matni tuzilishi, unda til birliklarining qay darajada ishtirok etishi, avvalo, matn muallifning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga bog'liq bo'ladi. "Avtor hayot va voqelikka aktiv munosabatda bo'ladi. Avtorning voqelikka bo'lgan munosabati faktlarni tanlashida, ularni o'z dunyoqarashi va estetik prinsipi asosida mantiqiy tahlil qilishida va nihoyat, tilning emotsional-ekspressiv vositalaridan foydalanishida o'z ifodasini topadi. Publisist katta hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirishi, isbotlashi bilan birga, o'quvchi yoki tinglovchini bunga ishontirishi, uning iroda va his-tuyg'ulariga ta'sir etishi lozim..."⁴.

Asosiy kommunikativ maqsad o'quvchiga ma'lum shaxs yoki shaxslar tomonidan jamiyat hayotida belgilab qo'yilgan qonuniy-axloqiy me'yorlarning buzilganligi haqida axborot

berishdan iborat bo'lib, matnda ko'tarilgan mavzu ko'lami uning sifat darajasini aniqlashtiradi. Tanqidiy material harakatining samarasi esa so'nggi ko'zlangan natijani beradi, ya'ni tanqidiy materialda ko'tarilgan mavzu va ifodalangan fikrning keng xalq ommasiga ta'siri, ularda ma'lum munosabatni yuzaga keltirgani natijasi, aniqrog'i, harakatni keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda gazeta tanqidiy materiallarining leksik-frazeologik xususiyatlarini tahlil qilish natijasida aniqlanishicha, bunday matnlar o'ziga xos uslubiy boylik va ifoda vositalari bilan ajralib turadi. Tanqidiy maqolalarda ko'pincha baholovchi leksika, keskin ohangli frazeologizmlar, kinoya va istehzo ifodalovchi iboralar keng qo'llanadi. Bu esa muallifning munosabatini aniq ifodalash, muammoni ochib berish va o'quvchiga ta'sir o'tkazish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, tanqidiy materiallarda ijtimoiy-siyosiy, madaniy va axloqiy mazmundagi masalalar til vositalari orqali chuqur yoritilib, tilning emotsional-ekspressiv imkoniyatlaridan samarali foydalaniladi. Frazeologik birliklarning qo'llanishi matnning obrazlilikini kuchaytiradi, o'quvchi e'tiborini tortadi va jurnalistik uslubning ta'sirchanligini oshiradi. Umuman olganda, gazeta tanqidiy materiallari tilida kuzatilgan leksik-frazeologik xususiyatlar jurnalistikaning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytiradi hamda o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

4 Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1983. Б. 27-28.

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA KREATIVLIK SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH NAZARIYASI

Adiba Roziq qizi Uchqunova – magistrant,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada kreativlikning mazmun mohiyati, bo'lajak tarbiyachilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta'sir etishning nazariy ahamiyati, bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish va yangi yondashuvlarni qo'llash qobiliyati kabi sifatlarni shakllantirishdagi yo'nalishlar va usullar xususida fikr bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье изложены взгляды на сущность креативности, теоретическую значимость воздействия на развитие креативных качеств у будущих воспитателей, развитие их творческого мышления, а также направления и методы формирования таких качеств, как способность применять новые подходы.

Abstract. This article discusses the essence of creativity, the theoretizing significance of influencing the development of creative qualities in future educators, the development of educators' creative thinking, and the directions and methods for fostering qualities such as the ability to apply new approaches.

Kalit so'zlar: ijodiy tafakkur, kreativlik, innovatsiya, o'quv jarayoni, ijobiy fikrlash, sifat va samaradorlik, metod, kasbiy faoliyat.

Ключевые слова: творческое мышление, креативность, инновация, учебный процесс, позитивное мышление, качество и эффективность, метод, профессиональная деятельность.

Keywords: creative thinking, creativity, innovation, learning process, positive thinking, quality and efficiency, method, professional activity.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bo'g'ini bo'lishi bilan birga keyingi ta'lim tizimida, bolani maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda bu ta'lim sohasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bejiz emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmonining 39-maqsadida maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, bog'cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, 2022-2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish va maktabgacha

ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish kabi maqsadlar aniq belgilab qo'yilgan¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"gi 152-sonli Farmoni, 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-231-sonli Prezident qarori hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 8-noyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishning "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida"gi 362-sonli buyruqlariga muvofiq

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60son 2022-1. 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmonining 39-maqsadi.

ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ijtimoiy-hissiy, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktab ta'limiga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha bosqichma-bosqich rivojlantirish konsepsiyasi – soha taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asosiy hujjat sifatida xizmat qiladi. Mazkur konsepsiya o'zining muhimligi va puxta ishlab chiqilganligi bilan ajralib turadi. Unda erishiladigan natijalarni aniqlashtirish imkonini beruvchi aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilab berilgan. Yaqin yillarda ta'lim jarayonida ishtirok etadigan pedagog va boshqaruv xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tarbiyalashda ularning ta'lim olish jarayonidagi yangi yondashuvlar asosidagi shart-sharoitlarni yaratib berish lozim. Dunyoda yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda yuqori malakali, mustaqil izlanuvchan, qobiliyatli, raqobatga bardoshli, shu bilan birgalikda bo'lajak pedagoglarda o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtini sevis, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan milliy mafkuramizni asray bilish, milliy g'oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalash, va Oliy ta'lim muassasalari talabalarining jamiyatda o'z o'rnini topishlari, hayotda faol ishtiroketishlari, o'z kasbini sevisi va jamiyatga vijdonan halol xizmat qiladigan kasb-hunar egalari bo'lishlarida mutaxassislik fanlaridan dars beruvchi mutaxassis o'qituvchilarning o'zni

katta².

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida barcha sohalarida izchil ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ta'lim sohasida sifat va samaradorlikka erishishda ham rivojlangan mamlakatlar tajribasi o'rganilmoqda va xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish, innovatsion metodlarni takomillashtirish yuzasidan tadqiqotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Xorijlik tadqiqotchilardan Silvano Arieti, Joy Paul Guildford, Yelina Grigorenko, Patti Drapeau, Simpson Ray Magini, Ellis Pol Torrens, Robert J. Sternberg, C.R. Berger, W. Grabe, J. Harmer, L. Harvey kabi xorijlik tadqiqotchilar tomonidan "Kreativlik" tushunchasining mohiyati, kreativlik sifatleri, shaxsda kreativlik sifatlerini shakllantirish (rivojlantirish), mazkur jarayonning bosqichlari va metodlari, shaxsda kreativlik sifatlarining shakllanganlik hamda rivojlanganlik darajasini tashxislash masalalari tadqiq qililib, shaxs kreativligi modellari ishlab chiqilgan³.

Ta'lim sohalarini sifat jihatdan jadal rivojlantirish, bu borada bo'lajak pedagoglarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, o'quv jarayonida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan metodika va texnologiyalardan foydalanish, o'quv jarayonini xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv materiallarni keng joriy etish kabilar yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachisida kreativlikni rivojlanganlik sifatlarini noodatiy fikr yuritishida, yangi g'oyalarni o'ylab topishida,

2 Xayitov J.X. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish — Monografiya. Termiz -2024. 7-bet.

3 Xayitov J.X. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish — Monografiya. Termiz -2024. 5-bet.

yangilikni ixtiro qilishida, an'anaviylikdan voz kechib, odatiy fikr yuritishdan tashqariga chiqishida va maqsadga erishishda, yangi metod va usullarni qo'llashida ko'rish mumkin. Ijodkorlik – insonning ijodiy qarorlar qabul qilishi, tushunish va tubdan yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatiga ega bo'lishi bilan farqlanadi.

Innovatsiya (inglizcha. Innovationas – kiritilgan yangilik, ixtiro)ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi⁴.

Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularda kreativ fikrlash, innovatsiya kiritish orqali muammoli vaziyatlarni hal qilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish qobiliyatlarini shakllantirish, bolalarning ijodiy rivojlanishi uchun muhim bo'lgan sharoitlarni yaratadigan, ta'lim va tarbiya jarayoniga kompetensiyaviy yondasha oladigan bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash maktabgacha ta'limda tarbiyachilarning kreativlik sifatlarini rivojlantirishning mazmuni hisoblanadi.

Zamon talablaridan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga yangicha yondashuvlarni joriy etish malakasi va kreativ kompetentlik rivojlangan bo'lishi kerak. Zero, o'zi kreativ salohiyatga ega bo'lmagan tarbiyachi yoki mutaxassis bolada ijodiy qobiliyatlarni rivojlantira olmaydi. Zamonaviy sharoitda har bir shaxsning ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish va rivojlantirish masalasi ayniqsa dolzarbdir. Jamiyat ijtimoiy faol a'zolarga, kreativ va ijodkor shaxslarga shoshilinch ehtiyojni boshdan kechirmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashuvi – ijtimoiy ahamiyati, yangiligi, o'ziga xosligi bilan

ajralib turadigan inson faoliyati va mustaqil faoliyatining oliy shaklidir. Ijodkorlik va kreativlik qobiliyatlarining tabiatiga bo'lgan qiziqish fan va texnikaning rivojlanishi va ularning oldida tobora murakkablashib borayotgan muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan tarbiyachilarni tayyorlash zarurati bilan bog'liq holda alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisini individual kasbiy rivojlantirish, uning ma'naviy, ijodiy va kreativlik salohiyatini maksimal darajada ro'yobga chiqarish oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tegishli tarzda modernizatsiya qilish zarurligini belgilab berdi. Uzlaksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash va mazmunan takomillashtirish orqali bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy va kreativ kompetentligini rivojlantirish muammosi bugungi kunda ham zamonaviy pedagogikaning asosini tashkil etmoqda⁵.

Ta'lim tizimi rivojlanishda davom etar ekan, bugungi kunda bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining ham kreativlik sifatlarini rivojlantirish muhim masala bo'lib, ertamiz kelajagi bo'lgan bolalarni rivojlanish sohalari bo'yicha kompetensiyalarini o'zaro bog'liq holda takomillashtirish, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, uning keyingi bosqich – maktab ta'limiga muammosiz o'tishi va unga tayyor bo'lishi uchun avvalo tarbiyachilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning metod va usullarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak.

Tarbiyachilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish va yangi yondashuvlarni qo'llash qobiliyati kabi sifatlarini shakllantirishda quyidagi yo'nalishlar va usullar ahamiyatli;

Ijodiy fikrlash. Muammolarni noodatiy yechimlar bilan ijobiy hal qilishga yondashish:

4 O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000–yil.

5 Saydullayeva N.I. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma. – T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2022. 4–bet.

Mantiqiy fikrlash va tanqidiy tafakkur. Atrofdagi voqealar va sodir bo'layotgan jarayonlarni xolisona tahlil qila olish va baholash.

Innovatsion yondashuv. Yangi g'oyalarni ishlab chiqish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyati.

"Pedagogik jarayon asosan ikkita harakatli xususiyatni: organizmning o'z-o'zini rivojlantirishga tizimli yondashuvini va ijodiy ta'sir etish orqali shaxsni har tomonlama rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

1. Ta'lim jarayonida muomala mazmuni, muhit, o'zaro munosabatlar uslubi talabaga barcha insoniy xislatlarni o'zlashtirish, o'zini inson sifatida anglash, hurmat qilish tuyg'usini tarbiyalashga yordam berishi kerak.

2. Pedagogik jarayon o'zgalarning his-tuyg'ularini his etish, axloqiy me'yorlarga amal qilish, shuningdek, ta'limning ijtimoiy ahamiyatini tushunishga yordam berishi zarur.

3. Pedagogik jarayon yoshlarda ijodkorlik, ziyraklik, mustaqillik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni tarbiyalashi lozim. Shu jihatdan pedagogik jarayonni bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda modellashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda bo'lajak tarbiyachilarning yetuk balog'at yoshida ekanliklari hamda ularning "Men"ini hisobga olgan holda o'qitish texnologiyalarini tanlash maqsadga muvofiq.

Ta'limni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad bo'lajak tarbiyachilarga ilmiy bilimlarni berish, ularda kreativ faoliyatga doir amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan cheklanmay, har bir talabaning his – tuyg'ularini rivojlantirish, o'z ichki kechinmalarini anglash, xohish-istak va ehtiyojlarini baholay olish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunday jarayon talabalarda

kreativ sifatlarning shakllanishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu g'oyani L.V.Zankov, V.V.Davidov, A.N.Leontevlar ham tasdiqlaydilar. Ta'limga nisbatan tarbiyaning natijasi birdan ko'zga tashlanmaydi. Ayrim holatlarda salbiy ta'sirlar bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy sifatlarga teskari ta'sir etadi. Demak, tarbiya jarayoni o'zgaruvchan xususiyatga ega va u uzoq muddatli sanaladi. Tarbiyaviy ta'sirlar vaqti-vaqti bilan ko'rsatilmay, balki uzluksiz, izchil, uzviy, tizimli va maqsadga muvofiq bo'lishi zarur. Tarbiya jarayoni, shuningdek, variativ bo'lib, u bir xil shakl yoki metod yordamida emas, turli shakl va metodlar yordamida amalga oshiriladi hamda goho natijaga erishishda noaniqliklar ham paydo bo'lishi mumkin. Bunday holat tarbiyalanuvchining ham, tarbiyachining ham individual farqi, ijtimoiy tajribasi, tarbiyaga munosabati bilan belgilanadi⁶.

"Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-sonli Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori hamda "Takomillashtirilgan Ilk qadam" o'quv dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limni zamon talablari darajasida samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bu esa o'z o'rnida ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari guruhlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni yangi bilim olishlari, olingan bilimlarni yanada mustahkamlashi, mustaqil ravishda xulosa qila olishi, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish

6 Muxammadiyeva N. Maktabgacha ta'lim tashkilotining bo'lajak pedagogpsixologlarida kreativlikni shakllantirish texnologiyasi. – "JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS". Maqola 2022. 20–21 bet.

markazlarining asosiy maqsadidir⁷.

Maktabgacha ta'lim tizimidagi tarbiyachilar bolalarning ijodiy fikrlarini rivojlantirishda, olgan bilimlarini mustahkamlashlarida muhim o'rin tutadi. Chunki bolaning faol davri to'g'ri keladigan kunning asosiy qismini maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachining rahbarligi va hamkorligida o'tkazadi. Shu sababli bo'lajak tarbiyachilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish talabalik davridanoq mustahkam nazariy va amaliy asoslarga ega bo'lishi kerak.

Kreativ qobiliyatlar quyidagi psixologik nazariy asoslarga tayanadi:

– Dj.Gilford o'zining divergent fikrlash nazariyasida kreativlikni insonning noodatiy g'oyalarni taklif qilish qobiliyati sifatida ta'riflaydi. U ijodkorlikni rivojlantirish uchun turli yo'nalishlarda fikrlash va ixtiyoriy g'oyalarni tekshirib ko'rish muhimligini aytadi.

– A.Maslou ijodkorlik bu inson iyerarxiyasining yuqori bosqichidagi o'z-o'zini anglash jarayoni bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning amaliy yondashuvlari quyidagilar;

– ijodiy muhit yaratish. Tarbiyachilarning erkin fikrlashlari va tajribalar o'tkazishga imkon beruvchi muhit tashkil etish;

– o'quv jarayonini ta'limiy va rivojlantiruvchi turli o'yinlar bilan boyitish;

– to'g'ridan to'g'ri amaliyot orqali o'rganish;

– bo'lajak tarbiyachilar uchun ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi nazariy va amaliy seminar treninglar tashkil etish;

– talabalar e'tiborini mustaqil tadqiqot va tajriba ishlariga jalb etish.

Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi: tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi. Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi⁸.

Pedagog bolani va uning o'zini tutishi sabablarini yaxshiroq tushunish, bola rivojini, uning ichki dunyosini ko'rish, qo'llab-quvvatlash, rivojlanish yo'llarini belgilash, ehtiyoj va manfaatlarini aniqlash uchun bola hayotini sistematik kuzatib boradi. Pedagogik kuzatuvlar asosida ta'lim faoliyatini rejalashtirish ishlab chiqiladi va takomillashtirib boriladi.

Bu borada bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisini individual kasbiy rivojlantirish, uning ma'naviy, ijodiy va kreativlik salohiyatini maksimal darajada ro'yobga chiqarish oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tegishli tarzda modernizatsiya qilish zarurligi namoyon bo'lmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash va mazmunan takomillashtirish orqali bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy va kreativ kompetentligini rivojlantirish muammosi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti

7 Uchqunova A., Ortiqova Y. Maktabgacha yoshdagi bolalarni erta yoshdan rivojlantirishda o'yinli faoliyatlarni to'g'ri tashkil etishning ahamiyati. "Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal № 3, 2025. 288-bet.

8 Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-oktabr kuni maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish. <http://www.uza.uz/>

tarbiyachilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida o'sishlari va mahoratli pedagog bo'lishlari uchun muvaffaqiyat kalitidir. Bunga erishish uchun ta'lim dasturlarini kreativ yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish, rivojlangan davlatlar ta'lim dasturlarini o'rganish, qiyosiy tahlil qilish, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, ijodiy metodikalar va amaliy mashg'ulotlardan foydalanish ijobiy samara beradi.

ABU AL-HASAN BAHMANYARNING GNOSEOLOGIK MEROSINING FALSAFIY TAHLILI

Mehriniso Bobomurodova – mustaqil
izlanuvchi, Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abu al-Hasan Bahmanyar ibn al-Marzbonning hayoti, ilmiy faoliyati va falsafiy merosi tahlil qilingan. Ibn Sinoning eng mashhur shogirdlaridan biri sifatida u mantiq, tabiiyot va metafizika sohalarida qimmatli asarlar yaratgan. Shuningdek, asosiy e'tibor "Kitab al-tahsil" va "Ta'liqot" kabi asarlarida ifodalangan gnoseologik qarashlariga qaratilgan. Bundan tashqari, Bahmanyarning aql taraqqiyoti haqidagi nazariyasi, uning islom falsafasi bilan bog'lanishi va ilmiy merosining Sharq falsafasi rivojida o'rni yoritilgan.

Аннотация. В данной статье анализируются жизнь, научная деятельность и философское наследие Абу аль-Хасана Бахманияра ибн аль-Марзбон. Будучи одним из самых известных учеников Авиценны, он создал ценные труды в области логики, естествознания и метафизики. Особое внимание уделено его гносеологическим взглядам, отражённым в таких произведениях, как «Китаб ат-тахсил» и «Та'ликот». Кроме того, рассматривается теория Бахманияра о развитии разума, её связь с исламской философией, а также значение его научного наследия в развитии восточной философии.

Abstract. This article analyzes the life, scholarly activity, and philosophical legacy of Abu al-Hasan Bahmanyar ibn al-Marzban. As one of the most renowned disciples of Ibn Sina, he produced valuable works in the fields of logic, natural sciences, and metaphysics. Special attention is given to his gnoseological views as expressed in works such as "Kitab al-Tahsil" and "Ta'liqot". Furthermore, the article explores Bahmanyar's theory of the development of intellect, its connection with Islamic philosophy, and the significance of his intellectual heritage in the evolution of Eastern philosophy.

Kalit so'zlar: Islom, ta'limot, tafakkur, ma'naviyat, madaniyat, falsafa, siyosat, mantiq, ong.

Ключевые слова: Ислам, учение, мышление, духовность, культура, философия, политика, логика, сознание.

Keywords: Islam, doctrine, thought, spirituality, culture, philosophy, politics, logic, consciousness.

Sharq falsafasi tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan olimlardan biri Abu al-Hasan Bahmanyar ibn al-Marzbon, qisqacha Bahmanyar nomi bilan mashhur bo'lgan. U buyuk mutafakkir Ibn Sinoning eng nufuzli va mashhur shogirdlaridan biri sifatida tanilgan. Bahmanyar hayoti haqida manbalar ko'p emas, ammo mavjud ma'lumotlar uning ilmiy faoliyati va jamiyatdagi mavqeyini qisman bo'lsa-da yoritib beradi. Bahmanyarning ilmiy faoliyati Ray shahrida, Boyidlar davrida boshlangan. U yerda Abu al-Qosim al-Kirmaniy bilan birgalikda falsafa tahsil qilgan. Mazkur shahar o'sha davrda nafaqat siyosiy, balki ilmiy-ma'naviy markaz sifatida ham muhim ahamiyatga ega edi. Bahmanyar va al-Kirmaniy davlat boshqaruvida ham faol ishtirok etish barobarida,

Ibn Sinoning asarlarini mutolaa qilib, uning falsafiy qarashlaridan chuqur ta'sirlanganlar. Bu esa Bahmanyar tafakkurining shakllanishida Ibn Sino maktabining beqiyos o'rni borligini ko'rsatadi¹.

Bahmanyarning hayoti va faoliyati uning ijtimoiy aloqalari bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan. U Bavandiyar sulolasidan bo'lgan malika Sayyida Shirin, uning eri Ray hukmdori Fakhr ad-Davla va o'g'li Majd ad-Davla bilan qarindoshlik aloqalariga ega bo'lgani ehtimol qilinadi. Bu yaqinlik unga Boyidlar saroyida faoliyat yuritish imkonini bergan bo'lishi mumkin. Natijada u nafaqat olim, balki siyosiy doiralarga ham yaqin shaxs sifatida tarixda eslanadi.

1 Rescher, Nicholas. The Development of Arabic Logic. University of Pittsburgh Press, 1964. –pp. 1–262.

Bahmanyar shaxsiyati ilmiy va siyosiy jihatlarining uzviy bog'liqligini namoyon etadi. U bir tomondan Ibn Sinoning eng yaqin shogirdlaridan biri sifatida Sharq falsafasining rivojiga hissa qo'shgan bo'lsa, ikkinchi tomondan Boyidlar saroyidagi mavqeyi orqali davr siyosiy hayotida ham muayyan rol o'ynagan. Uning hayoti haqida batafsil ma'lumotlar yetarli bo'lmasa-da, mavjud dalillar Bahmanyarni ilm-fan va siyosat chorrahasida faoliyat ko'rsatgan serqirra shaxs sifatida tasvirlaydi.

Mazkur tadqiqotda Bahmanyar ibn al-Marzbanning hayoti va ilmiy faoliyatini o'rganishda tarixiy-falsafiy yondashuv asos qilib olindi. Avvalo, manbaviy tahlil usuli qo'llanilib, o'rta asr tarixchilari va faylasuflari tomonidan qoldirilgan asarlar, shuningdek, zamonaviy tadqiqotchilar izlanishlari solishtirildi. Bu usul Bahmanyar shaxsiyati, uning ilmiy merosi va e'tiqodiga oid mavjud qarashlarni qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi. Shuningdek, matnshunoslik va qo'lyozmalar tahlili metodlari asosida Kitāb al-tahṣīl, al-Mubāḥaṣṣāt va Ta'liqot kabi asarlar qayta ko'rib chiqildi. Bu jarayonda asarlardagi kirish va xotima qismlarining asl nusxaga tegishliligi masalasi ham ko'rib chiqilib, kotiblar tomonidan keyinchalik qo'shilgan bo'lish ehtimoli alohida e'tiborga olindi. Bahmanyar va Ibn Sino o'rtasidagi ilmiy muloqotlar tahlilida esa dialogik-metodologik yondashuv qo'llanilib, ustoz va shogird o'rtasidagi g'oya almashinuvi falsafiy jarayon sifatida talqin qilindi.

Bundan tashqari, Bahmanyar tomonidan ilgari surilgan aqlning to'rt bosqichi haqidagi ta'limot mantiqiy-falsafiy metod yordamida sharh qilindi. Bu yondashuv orqali uning bilish nazariyasi inson tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanish jarayoni sifatida tahlil qilindi. Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi tarixiy, matnshunoslik

va falsafiy tahlil usullarining uyg'unligiga asoslanib, Bahmanyarning ilmiy merosini keng qamrovda yoritishga xizmat qildi.

Bahmanyar oxir-oqibat Ibn Sino bilan ilmiy muloqot o'rnatdi. Bu muloqot natijasida keyinchalik Ibn Sino tomonidan al-Mubahathat ("Munozaralar") asari yaratildi. Mazkur asar asosan Bahmanyar tomonidan berilgan savollarga yozilgan javoblardan iborat edi. Mazkur asar 1024–1037 yillar oralig'ida, Ibn Sinoning Kakuyiylar hukmdori Muhammad ibn Rustam Dushmanziyor (1008–1041 yillarda hukmronlik qilgan) poytaxti Isfahonda yashagan davrida yaratilgan². Unda Bahmanyar "al-Shaykh al-fadil" ("fazilatli shayx" yoki "aristokrat zot") sifatida tilga olinadi. Bahmanyar va Ibn Sino 1014–1015 yillarda Ray shahrida uchrashgan bo'lib, o'sha paytda Ibn Sino Sayyida Shirin va Majd ad-Davla xizmatida faoliyat olib borgan.

Mazkur asarda Ibn Sino o'zining Shifo, Ishorot va tanbihat hamda Insaf asarlarida uchraydigan murakkab masalalarga sharh beradi. Matn bizgacha bir necha qo'lyozma nusxalari orqali yetib kelgan bo'lib, mavjud yagona nashr barcha qo'lyozmalar va variantlarni to'liq qamrab olmaydi. Shuningdek, ayrim nusxalarda Ibn Sinoning boshqa shogirdlari Abu Mansur ibn Zayla va Abu Ja'far Muhammad ibn Husayn ibn Marzbon tomonidan berilgan savollarga yozilgan javoblar ham uchraydi³.

Bahmanyarning eng muhim asari Kitab al-tahsil ("Xulosalar kitobi") bo'lib, unda Ibn Sinoning mantiq, tabiiyot va metafizikaga oid ta'limotlari jamlangan. Ushbu asar 1024–1037-yillar oralig'ida yozilgan bo'lib, muallif uni o'zining zardushtiy amakisi Abu Mansur Bahram ibn Xurshid ibn Yazdyarga bag'ishlagan. Abu Mansur, ehtimol, Buvayhiylar hukmdori Adud ad-Davla (949–983 yillarda hukmronlik qilgan)ning xazinachisi

2 Gutas, D. "Avicenna". In Yarshater, Ehsan (ed.). *Encyclopædia Iranica*. Vol. III/1: Atas–Awa'el al-Maqalat. London and New York: Routledge & Kegan Paul, 1987. –pp. 67–70.

3 Yahyā Mahdawī, *Fehrest-e noskähā-ye mošannafāt-e Ebn Sinā*, Tehran, 1333 Š. 1954. –p.202.

avlodi bo'lgan⁴. Abu'l-Hasan Bayhaqiyning qayd etishicha, Bahmanyar mantiqqa oid bir kitob, musiqa haqidagi bir asar yozgan bo'lib, unga yana boshqa bir qancha asarlar ham nisbat beriladi.

Bahmanyar ibn al-Marzbun haqidagi manbalar uning ilmiy merosi bilan birga, diniy qarashlari borasida ham muayyan savollarni tug'diradi. Ayrim manbalarda u umrining so'nggi davrida islomni qabul qilgani aytiladi. Biroq bu haqda eng qadimiy manbalarda hech qanday dalil yo'q. Bu esa, olimning diniy e'tiqodi borasida mualliflarni ham, tadqiqotchilarni ham turlicha talqin va izlanishlarga undaydi. Bahmanyar qalamiga mansub eng muhim bo'lgan "Kitab al-tahsil" asari uning e'tiqodi haqida bevosita xulosa qilish imkonini bermaydi. Kitobning muqaddimasi va xotimasi musulmonlarga xos ohangda yozilgani e'tiborni tortadi. Ammo muammoli jihati shundaki, bu qismlar asarning asl nusxasiga tegishlimi yoki kotiblar tomonidan keyinchalik qo'shilganmi bu masala mavhum bo'lib qolmoqda. Shunday bo'lsa-da, matnning bunday shakli o'quvchini muallif islomiy muhit ta'sirida yashaganmi yoki o'zi islomni qabul qilganmi, degan savollarga yo'naltiradi.

Bahmanyar e'tiqodining islom bilan bog'lanish ehtimoli uning falsafiy qarashlarida ham aks etadi. U ilohiy yagonalik masalasini ta'riflar ekan, Zardushtiylikdagi dualistik qarashlardan farqli yondashuvni namoyon qiladi. Zardushtiylikda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash ilohiy mohiyatning ajralmas qismi sifatida ko'rilsa, Bahmanyar bu masalani yaratilgan tartib doirasida izohlaydi. Bu esa uni islom falsafasi, xususan, Ibn Sino va boshqa mutakallimlar ta'limotiga yaqinlashtiradi. Shunday qilib, uning tafakkurida monoteistik ruh sezilib, bu uni musulmon mutafakkirlariga yaqin ko'rsatadi.

Uning Kitab al-tahsildagi musulmonlarga xos ohang, shuningdek, "Abu al-Husayn" kunyasi ham islomni qabul qilgan bo'lish ehtimolini kuchaytiradi. Bahmanyar shaxsiy e'tiqodi aniq bo'lmasa-da, uning falsafiy merosi Sharq tafakkuri tarixida diniy va falsafiy qarashlar uyg'unlashuvining yorqin namunasidir⁵.

Yuqorida tilga olingan matnlarga yaqin bo'lgan yana bir asar "Ta'liqot"dir. Unda Bahmanyar Ibn Sino tomonidan berilgan sharh va izohlar asosida metafizika, tabiiyot hamda mantiqqa oid asosiy atamalarni qayd etgan. Biroq "Ta'liqot" Bahmanyar bilan Ibn Sino o'rtasida Hamadonda, Shams ad-Davla hukmronligi davrida olib borilgan munozaralar natijasimi yoki keyinchalik Isfahonda, 'Alo al-Davla hukmronligi davrida tuzilganmi bu masala xususida hali aniq to'xtamlar mavjud emas⁶.

Bahmanyar fikricha, inson bilimi va aqliy faoliyati to'rt bosqichdan o'tadi. Bu bosqichlar inson tafakkurining rivojlanish jarayonini bosqichma-bosqich ochib beradi va bilimning qanday qilib hissiy tajribadan sof aqliy-idrokiy darajaga yetishini ko'rsatadi:

Birinchi bosqich, potensial tug'ma aql. Bu insonning tabiatan berilgan, ammo hali namoyon bo'lmagan qobiliyatidir. Go'dak tug'ilganda uning ongida hali hech qanday bilim bo'lmaydi, biroq unda bilimlarni o'zlashtirish va tafakkur qilish imkoniyati yashirin holda mavjud bo'ladi. Bu bosqichni urug'ga qiyoslash mumkin: unda kelajakdagi daraxtning barcha imkoniyatlari mujassam, ammo hali kurtak ochmagan. Demak, potensial aql inson tabiatining asosiy poydevorini tashkil etadi;

Ikkinchi bosqich, o'tish bosqichi. Mazkur bosqichda inson o'zida yashirin bo'lgan qobiliyatni

4 Daiber, H. "Bahmanyar, Kia". In Yarshater, Ehsan (ed.). *Encyclopædia Iranica*. Vol. III/5: Bahai Faith III-Baktiari tribe II. London and New York: Routledge & Kegan Paul, 1988. -pp. 501-503.

5 Garakani, Gharaee; Brown, Keven (2013). "Bahmanyār b. al-Marzubān". In Madelung, Wilferd; Daftary, Farhad (eds.). *Encyclopaedia Islamica Online*. Brill Online //https://referenceworks.brill.com/display/db/isl

6 Ta'liqāt (compilation of Ebn Sina's text in the recension of 'Abd-al-Razzāq), ed. 'Abd-al-Rahmān Badawī, Cairo, 1392/1973; an excerpt of this text (ed. Badawī, pp. 16.2-193-19) is ascribed to Fārābī (ed. Hyderabad, 1346/1927).

amalda namoyon eta boshlaydi. Bahmanyar buni odat tusiga kirgan aql deb ataydi. Bu bosqich mashq, o'rganish va ta'lim orqali shakllanadi. Inson hissiy tajribani o'zlashtirish orqali bilish qobiliyatini rivojlantiradi, uni mustahkamlaydi va tobora takomillashtiradi. Masalan, bola avval ko'rish, eshitish, sezish orqali olamni anglaydi, keyin esa bu tajribalarni umumlashtirib, tafakkur qila boshlaydi. Bu bosqichda insonning tafakkuri amaliy mashqlar bilan shakllanadi, bilim asta-sekin tartibga solinadi va ilmiy izchillikka ega bo'la boshlaydi;

Uchinchi bosqich, orttirilgan aql. Bu bosqich odat tusiga kirgan aqlning natijasi sifatida yuzaga keladi. Orttirilgan aql insonning ongli faoliyati, ilmiy va amaliy tajribasi asosida shakllanadi. Bu darajada inson ilmiy mantiqiy xulosalar chiqarishga, nazariy umumlashmalarni yaratishga qodir bo'ladi. Shuningdek, orttirilgan aql insonning shaxsiy tajribasi bilan cheklanmay, oldingi avlodlar bilimlari bilan ham boyiydi. Bu bosqichni ilm-fan, falsafa, san'at kabi sohalarda erishilgan yutuqlar orqali ko'rish mumkin. Bahmanyar ta'kidlaganidek, orttirilgan aql insonni madaniy va ma'naviy jihatdan yuksaltiruvchi kuchdir;

To'rtinchi bosqich, aktual aql. Bu eng yuksak darajadagi aqliy faoliyat bo'lib, unda inson tafakkuri sof ma'naviy jarayonga aylanadi. Aktual aql hissiy tajribaga tayanmaydi, balki mutlaq ravishda ruhiy-idrokiy faoliyat bilan shug'ullanadi. Bu bosqichda inson tafakkuri hissiy dunyodan mustaqil bo'lib, sof mantiqiy va falsafiy xulosalarga erisha oladi. Bahmanyar nazarida, bu bosqich insonni "haqiqiy bilim"ga olib boradi, ya'ni sezgilar orqali olingan ma'lumotlardan mustaqil holda, sof aqliy tafakkur orqali borliqning mohiyatini anglash imkonini beradi⁷.

Abu al-Hasan Bahmanyar ibn al-Marzbon Sharq falsafasi tarixida o'ziga xos o'rin egallagan,

ilmiy va siyosiy faoliyati uyg'unlashgan serqirra shaxs sifatida eslanadi. U buyuk ustoz Ibn Sinoning eng yaqin shogirdlaridan biri bo'lib, nafaqat falsafiy qarashlarini o'zlashtirdi, balki ularni davom ettirishga ham intildi. Bahmanyarning ilmiy faoliyati Ray shahrida boshlanib, keyinchalik Isfahondagi muloqotlari orqali yanada boyidi. Ayniqsa, uning Ibn Sinoga bergan savollari natijasida yaratilgan al-Mubahasat asari ustoz va shogird o'rtasidagi ilmiy muloqotning yuksak namunasi bo'lib qoldi.

Bahmanyar tomonidan yozilgan Kitab al-Tahsil esa uning falsafiy qarashlarining asosiy manbasi bo'lib, unda mantiq, tabiiyot va metafizika masalalari tizimli tarzda yoritilgan. Shu bilan birga, Ta'liqot kabi asarlari orqali ham u Ibn Sino maktabining izchil davomchisi sifatida namoyon bo'ladi. Bahmanyar tomonidan ilgari surilgan aqlning to'rt bosqichi haqidagi ta'limot esa uning bilish nazariyasiga qo'shgan muhim hissasi sifatida qadrlanadi. Uning diniy e'tiqodi borasida turli qarashlar mavjud bo'lsa-da, asarlaridagi monoteistik ohang va islomiy muhit ta'siri sezilib turadi. Bu esa Bahmanyarni Sharq tafakkurida diniy va falsafiy qarashlar uyg'unlashuvining yorqin namunasiga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Bahmanyar Ibn Sino maktabining sodiq shogirdi sifatida Sharq falsafasi rivojida muhim iz qoldirgan. Uning ilmiy merosi, aql haqidagi qarashlari va islomiy falsafaga yaqin yondashuvlari uni o'rta asrlar ilm-fan tarixida o'ziga xos o'rin egallagan olim sifatida taqdim etadi. Bahmanyar hayoti ilm va siyosatning bir-birini to'ldirishi mumkinligini ko'rsatib, keyingi avlodlar uchun ham ibrat manbai bo'lib qolmoqda.

7 Философские воззрения А. Г. Бахманыра // <https://helpiks.org/1-121003.html>